XX asrlarning 20-yillar boshlarida siyosiy sahnaga chiqqan va O'zbekiston respublikasiga rahbarlik qila boshlagan Akmal Ikromov ham, Fayzulla Xo'jaev ham egallagan lavozimlariga har tomonlama munosib, chuqur bilimli, davlat miqyosida fikrlovchi shaxslar bo'lib, ular qisqa muddatda respublika aholisi o'rtasida katta hurmat va e'tbor qozonganlar. Bu shaxslar bilan 20-yillar oxiri – 30-yillar boshlarida uchrashish, suhbatlashish va Moskvada o'z uyida Boris Pasternak singari shoirlar davrasida qabul qilish sharafiga muyassar bo'ligan Galina Serebryakova ularning siyosat va davlat arboblari hamda tom ma'nodagi ziyolilar sifatida samimiy hurmat qilgan. Uning Fayzulla Xo'jayev to'g'risidagi xotiralarida bunday voqea hikoya qilinadi: "U (Fayzulla Xo'jayev) bizning xonadonimizda bo'lganida, onam va do'stlarim tufayli hayotimizni bezagan muzikani tinglashni sevardi. Bir kuni Xo'jayev Ikromov bilan kelib qoldi. Ular biznikida turmush o'rtog'imning gimnaziyadoshi Boris Pasternak bilan tanishishdi. Biznikida tez-tez mehmon bo'lib turuvchi Pasternak o'sha oqshomda "Leytenant Shmidt" dostonini o'qidi. Biz bu asarni nafas olmay tinglab, juda ham manzur bo'lganini aytdik. Pasternak o'qishni tugatguniga qadar Xo'jayev uning yonida tek turib tingladi. U rus she'riyatining bilimdoni ekan, goh Blokdan, goh Bryusovdan misollar keltirib, Pasternak bilan uzoq suhbatlashdi" [2].

Biroq "Katta terror" davrida O'zbekiston SSR davlat boshlig'i hisoblanuvchi Fayzulla Xo'jayevning ham hayoti juda ayanchli yakunlangan. 1937-yilning 17- iyundagi MK a'zoligiga nomzodlar bo'yicha takliflar bildirilgan paytda ayrim delegatlar so'z olib, daf'atan Fayzulla Xo'jayevning ayblari xususida fikr bildirganlar. Bu borada ayrim so'zga chiqqanlar F.Xo'jayev boshliq hukumatni qattiq va ayovsiz tanqid qilishga o'tganlar. Ayniqsa, hukumat boshlig'ining kelib chiqishi, shaxsi xususida ko'pgina tanqidiy fikrlar bildirilgan. Shuningdek, respublikada sanoatni rivojlantirish borasida yo'l qo'yilgan xatolar, jamoalashtirish sohasidagi kamchiliklar, arab alifbosini bekor qilish borasidagi shoshmashosharlik, kadrlar tanlashning nomutanosibligi, partiya va Stalin yo'lidan adashgan ayrim shaxslarning yuqori vazifalarni nohaq egallab turishi F.Xo'jayev zimmasiga yuklatilgan[4, 56]. Yig'ilishdagi ushbu holatlar markaz tomonidan dastaklangan va mahalliy komunistlarning ilgari rejalashtirilgan fitnasi natijasi bo'lib, sovet ittifoqi poytaxtdagi rahbarlar F.Xo'jayevni jismonan yo'q qilishga bel bog'laganligini bildiradi.

Fayzulla Xo'jaev hayotining ushbu kunlari uning qizi Viloyat Xo'jaevaning otasi haqidagi xotiralarida quyidagicha yoritilgan: "1937-yilning yozida O'zbekiston KP(b) VII syezdi bo'lib o'tgan. Otam shu syezddan yomon kayfiyatda qaytgan edilar. Bilishimizcha, bu syezdda Farg'ona delegatsiyasining vakillari otamga ijtimoiy kelib chiqishi boy tabaqadan, deb ta'na toshini otishgan. Otam O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining raisi vazifasida ishlab turganiga qaramay, O'zbekiston KP(b) Markaziy Komiteti a'zoligiga saylanmay qolganlar. O'sha kunlarda otamning kayfiyatlari juda yomon edi. Nimalar bo'layotganini tushunmay, hayron yurardilar. Oradan biroz vaqt o'tgach, otam Moskvaga borib, bo'lib o'tgan voqeni tushuntirish niyatida Stalin huzuriga kirmoqchi bo'lganlar. Aytishlaricha, Stalin otamni qabul qilmagan. Bir haftadan keyin otamni NKVD xodimlari mehmonxonada hibsga olganlar" [3, 217]. Fayzulla Xo'jayev o'limi ortidan ko'plab insonlar repressiyaga duchor bo'lganlar. Ular orasida davlat va jamoat arboblari, shoir va yozuvchilar, madaniyat, san'at va ilm namoyondalari ham bor edi.

Muhokama (Discussion). Qatag'on siyosati tasodifiy hodisa emas, balki totalitar tuzumning ongli ravishda olib borgan strategik siyosati bo'lgan. Uning asosiy maqsadi jamiyatni qo'rquv muhitida ushlab turish, mustaqil fikrlovchi qatlamni yo'q qilish va markaziy hokimiyatga mutlaq

bo’ysunishni ta’minlashdan iborat edi.

Milliy rahbar kadrlar va jadid ziyolilarining yo’q qilinishi O‘zbekistonning siyosiy, ilmiy va madaniy taraqqiyotiga jiddiy zarba berdi. Intellektual salohiyatning uzilishi natijasida jamiyatda tashabbuskorlik pasaydi, mustaqil fikr yuritish imkoniyatlari cheklandi. Qatag‘on oqibatlari faqat bir davr bilan cheklanib qolmay, keyingi o’n yilliklar davomida ham ijtimoiy ong va tarixiy xotiraga salbiy ta’sir ko’rsatdi.

Shuningdek, qatag‘on jarayonlarida ayblovlarning ko’pi siyosiy buyurtma asosida tuzilgan bo’lib, real dalillarga emas, balki shubha va tuhmatlarga tayangan. Bu esa sovet adliya tizimining repressiv mohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa. Mazkur maqolada “katta terror” davri siyosiy repressiyalari misolida O‘zbekiston SSR rahbar Fayzulla Xo‘jayevga nisbatan amalga oshirilgan siyosiy ta’qib va jismoniy yo‘q qilish jarayonining bosqichlari, boshqaruv mexanizmi hamda mafkuraviy asoslari tarixiy manbalar tahlili asosida yoritildi. Tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatadiki, sovet hokimiyati tomonidan “katta terror” yillarida olib borilgan siyosat jamiyatni modernizatsiya qilish yoki ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishdan ko‘ra, avvalo, mavjud siyosiy elita va milliy ziyolilar qatlamini yo‘q qilishga qaratilgan edi. Ayniqsa, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirish g‘oyalarini ilgari surgan jadid namoyandalari, olimlar hamda jamoat arboblarining qatag‘on qilinishi jamiyatning ziyolilar qatlamiga og‘ir zarba berdi. Shunday qilib, “Katta terror” siyosati mohiyatan repressiv xarakterga ega bo‘lganini, uning natijalari esa jamiyat taraqqiyotini jadallashtirish emas, balki siyosiy qo‘rquv va mafkuraviy bo‘ysundirish muhitini shakllantirganini tasdiqlaydi.

References

1. Shamsiddinov.R O’zbekistonda sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati: tarixshunoslik va manbashunoslik masalalari. //O’zbekistonda sovet davlatining qatag‘on siyosati: kelib chiqishi sabablari va fojiali oqibatlari. Ilmiy maqolalar to’plami. O’zRFA“Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi «Shahidlar xotirasi” jamoat fondi, 191b.

2. Serebryakova G. Lyudi velikoy seli / Literaturnaya Rossiya (gazeta), 24 marta 1967 g.

3. Xo’jaeva V. Ota-onam haqida xotiralarim. / Tarixning noma’lum sahifalari, 1-kitob. -Toshkent, 2009. 223b

4. Hasaniy M., Usmonov I. Oydin kunlar armoni. – Toshkent: O’zbekiston, 1997. – B 109

5. Rajabov.Q O’zbekistonda sovet hokimiyatining qatag‘on siyosati: tarixshunoslik va manbashunoslik masalalari. //O’zbekistonda sovet davlatining qatag‘on siyosati: kelib chiqishi sabablari va fojiali oqibatlari. Ilmiy maqolalar to’plami. O’zRFA“Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi «Shahidlar xotirasi” jamoat fondi, 191b.

ШАРОФ РАШИДОВ ҲАМДА НУРИДДИН МУҲИТДИНОВ БОШҚАРУВИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОН ССР БИЛАН ҚОЗОҒИСТОН ССР ЎРТАСИДАГИ ЧЕГАРАНИНГ ЎЗГАРИШИ

Қаҳрамон Ражабов,
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон ФА Тарих институти бош илмий ходими

Аннотация: Мақолада 1956 ва 1963 йилларда Ўзбекистон ССР ҳамда Қозоғистон ССР ўртасида амалга оширилган ҳудудий ўзгаришлар ҳамда уларнинг сиёсий-иқтисодий аҳамияти таҳлил қилинган. Шунингдек, Мирзачўлда қўриқ ва бўз ерларни ўзлаштириш, ирригация тизимларини кенгайтириш ҳамда пахтачиликни ривожлантириш жараёнлари баён этилган. Мазкур ҳудудий сиёсатнинг ижобий иқтисодий натижалари билан бир қаторда, унинг кейинги экологик ва демографик оқибатлари ҳам кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: Ўзбекистон ССР, Қозоғистон ССР, Бўстонлиқ тумани, ҳудудий ўзгаришлар, пахтачилик, ирригация.

Аннотация: В статье анализируются территориальные изменения между Узбекской ССР и Казахская ССР в 1956 и 1963 годах и их политико-экономическое значение. Рассматриваются вопросы освоения целинных и залежных земель, развития ирригационной системы и расширения хлопководства. Также показаны не только экономические результаты данной политики, но и её последующие экологические последствия.

Ключевые слова: Узбекская ССР, Казахская ССР, Бостанлыкский район, территориальные изменения, хлопководство, ирригация.

Abstract: The article analyzes the territorial changes between the Uzbek SSR and the Kazakh SSR in 1956 and 1963 and their political and economic significance. The study examines the development of virgin and fallow lands, expansion of irrigation systems, and growth of cotton production. It also highlights both the positive economic outcomes and the subsequent environmental consequences of this territorial policy.

Keywords: Uzbek SSR, Kazakh SSR, Bostanlyk district, territorial changes, cotton production, irrigation.

Ўзбекистон ССР ташкил этилгандан кейин 1925-1991 йилларда унинг чегараси бир неча марта ўзгариб келди. Бу ўзгаришларнинг айримлари Ўзбекистон манфаати учун ижобий бўлса, баъзилари эса бунинг тескариси бўлди. Бироқ 1956 ва 1963 йилларда Ўзбекистон ССР ва Қозоғистон ССР ҳудудларининг ўзгариши республика иқтисодиёти учун муҳим аҳамият касб этди. Бу ҳолат мазкур даврдаги Ўзбекистон ССР сиёсий раҳбариятининг катта хизматлари эвазига амалга оширилди. Шу ҳолат Ўзбекистон ССР Олий Совети Президиуми раиси Шароф Рашидов ва Ўзбекистон Компартияси Марказий Қўмитаси биринчи котиби Нуриддин Муҳитдинов фаолияти ҳамда уларнинг саъй-ҳаракати билан бевосита боғлиқдир.

КПСС XX съезди директиваларида халқ хўжалигининг барча тармоқлари бўйича вазифалар белгиланди. Унга кўра, Ўзбекистон ССР бўйича пахта етиштиришни 1955 йилга нисбатан 1960 йилда 1,5 баробар кўпайтириш, 325 000 гектар майдонда суғориш тармоқлари қуриш ишларини амалга ошириш, 6,8 млн гектар чўл ва дашт яйловларига сув чиқариш вазифаси белгиланган эди .

Ушбу вазифаларни амалга ошириш мақсадида 1956 йил 20 январда Қозоғистон ССР Олий Советининг тўртинчи чақириқ 2-сессиясида қатнашиш учун Ўзбекистон ССР Олий Совети Президиуми раиси Шароф Рашидов бошчилигидаги делегация Олмаотага келди . 21 январда Қозоғистон ССР Олий Советининг тўртинчи чақириқ 2-сессияси ўз ишини

бошлаб, унда Қозоғистон ССРнинг 1956 йилдаги бюджети ҳамда Жанубий Қозоғистон вилоятининг Бўстонлиқ туманини ҳамда Мирзачўл ҳудудининг бир қисмини Ўзбекистон ССРга бериш масаласи муҳокама қилинди.

Сессияда Қозоғистон ССР Олий Совети Президиумининг раиси Жумабек Ташенов (1915-1986) ўз маърузасида Қозоғистон Совет Иттифоқининг дон ва чорва моллари етказиб берадиган асосий базаларидан бири бўлса, Ўзбекистоннинг муҳим тармоғи эса пахтачилик бўлиб, соҳадаги ишларни янада ривожлантириш ҳамда экин майдонларини кенгайтириш мақсадида ушбу ерларни Ўзбекистонга бериш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблади. Бу масала йиғилиш иштирокчилари томонидан бир овоздан маъқулланди. Шундан сўнг Қозоғистондан 499 000 гектар ер ва Бўстонлик тумани Ўзбекистонга қўшиб бериладиган бўлди. Сессия ўз ишининг охирида Ўзбекистонга топширилиши лозим бўлган ҳудудлар масаласида якуний қарорни СССР Олий Совети Президиумидан сўраш ҳақида қарор қабул қилди .

Шу ўринда мазкур сессияда Бўстонлиқнинг Ўзбекистон ССРга берилиши хусусида машҳур қозоқ адиби, Қозоғистон ССР Олий Совети депутати Собит Муқоновнинг ажойиб ўхшатишини келтириш жоиз. У ўз фикрини қуйидагича билдиради: “Биз ўз қизини севикли куёвга узатаётган палладаги ҳис-туйғулар билан яшамоқдамиз. Лекин Бўстонлиқ ҳозирги вазиятда қиз эмас, кучга тўлиб турган йигитдир. Истардимки, ўзбек халқи Мирзачўлнинг ҳудудидан бир қисмини, яъни сепсиз қизимизни ҳам ҳалол меҳнат туфайли гулга буркаса, ҳукуматимизнинг энг муҳим вазифаларини амалга оширган бўлар эди” .

Сессияда сўзга чиққан Шароф Рашидов шундай деган эди: “Сизларни ишонтириб айтаманки, бизга топширилаётган Мирзачўл ҳудудининг бир қисмида Ўзбекистон меҳнаткашлари мамлакатни оқолтин пахта конига, гуллаб-яшнаётган ерга айлантириш учун ўз кучларини аямайдилар. Бўстонликда ажойиб шифохоналар ташкил этамиз ва совет халқлари оиласидаги барча кишиларнинг дам олиш жойига айлантирамиз.

Бўстонлиқ тумани ва Мирзачўлнинг бир қисмини Ўзбекистон ССРга берилиши икки қардош халқларнинг бир-бирига бўлган ишончининг ёркин намойиши бўлмоқда ”.

Узоқни кўра олган давлат арбоби ва сиёсатчи Шароф Рашидов нега айнан Бўстонлиқни Ўзбекистон ССР таркибига қайта қўшиб олиш учун ҳаракат қилди?

Биринчидан, Тошкент яқинидаги тоғли Бўстонлиқ тумани ҳудудида азалдан ўзбеклар яшаб келган. Уста деҳқон ва миришкор боғбон бўлган ўзбекларнинг заҳмати ва меҳнати билан Бўстонлиқ сон-саноқсиз бўстон ва боғларга айлантирилган эди. Афсуски, бу ҳудуд 1924 йил кузида Туркистон парчаланганда Кремлнинг изни билан Қозоғистон АССРга берилган эди .

Иккинчидан, Бўстонлиқнинг ерлари серҳосил бўлиб, деҳқончилик қилишда жуда қулай эди. Саноат шаҳарлари ҳисобланган Оҳангарон ва Чирчиқ аҳолисини озиқ-овқат билан таъминлашда кучли базани вужудга келтириш имконияти мавжуд бўлган. Кейинчалик туманнинг 15 минг гектар ерига картошка ва сабзавот экинлари, полиз маҳсулотларини экиш режалаштирилган.

Учинчидан, бу ҳудуд саноат зонаси ҳам ҳисобланади. Бўстонликда Чирчиқ электрохимия комбинатига қарашли асосий ва ёрдамчи корхоналарнинг бир қисми, ойна ва консерва заводлари ишлаб турган эди. Шунингдек, Товоқсой ГЭС, Чирчиқ ГЭС каскадининг бош узели ҳам шу туманда жойлашган эди. Бундан ташқари Бўстонликда яна бошқа ГЭСлар қуриш учун катта имкониятлар мавжуд бўлган. Масалан, Чирчиқ дарёси соҳилидаги Хўжакент қишлоғи ёнида 1 млрд метр3 ҳажмли сув омбори ва гидроэлектростанция қуриш мумкин бўлган. Бу ГЭСни қуриш натижасида Чирчиқ-Бўзсув каскадидаги мавжуд гидроэлектростанциялар қувватини яна анча ошириш имкониятини берарди .

Тўртинчидан, Бўстонлиқ тумани табиий бойликларга ҳам анча бой бўлиб, Оқтош мармар кони биноларнинг фасадларини безашда ишлатиладиган қимматбаҳо ва нодир мармар захирасига эга бўлган.

Бешинчидан, туманнинг табиий иқлим шароити хушҳаво бўлганлиги учун Бўстонликда

кўп санаториялар, дам олиш уйлари ва пионер лагерларини ташкил этишга имкон берарди .

Олтинчидан, туманда 300 минг гектардан кўпроқ пичанзор ва яйлов бўлиб, бу чорвачиликнинг ривожланиши учун катта имконият яратган. Бу ҳолат саноат шаҳарларини гўшт ва сут маҳсулотлари билан таъминлашда асосий манба бўлиб хизмат қиларди .

Ўзбекистон ССР раҳбарлари томонидан айтилган ҳамда юқорида келтирилган омилларнинг барчаси Ўзбекистон ССР иқтисодиётининг келгусида ривожланиши учун муҳим аҳамият касб этарди.

Бу пайтда 53 000 кишидан иборат аҳолиси бўлган Бўстонлиқ туманининг ери 540 000 гектар бўлиб, унда 80 000 бош чорва, 16 та колхоз ва 2 та МТС бор эди. Шунингдек, Чимён, Бурчмулла ва Оқтош каби санаториялар жойлашган эди.

Бўстонлиқ тумани билан бир қаторда Мирзачўлдан 499 000 гектар қўриқ ва бўз ерларнинг Ўзбекистон ССРга ўтказилиши натижасида республика Сирдарё, Мирзачўл, Жиззах туманларида энг йирик пахтазор массивига эга бўлиши режалаштирилган . Олинган ҳудудларни ўзлаштириш ҳамда Марказий Мирзачўл ва Жанубий Мирзачўл каналларининг суви билан жами 225 000 гектар ерни пахтазорга айлантириш имконияти мавжуд эди .

Аммо Мирзачўл ерларни ўзлаштириш осон эмас эди. Бу ишни амалга ошириш учун биринчи навбатда бориш учун йўл очиш, уй-жой қуриш, электр ва алоқа ўрнатиш масалаларини ҳал этиш лозим бўларди .

Ниҳоят, 1956 йил 24 январда Ўзбекистон ССР Олий Советининг тўртинчи чақириқ 2-сессияси ўз ишини бошлади. Унда бир қатор масалалар қаторида СССР Конституциясининг 14-моддасига мувофиқ, Жанубий Қозоғистон вилоятининг Бўстонлиқ тумани ҳамда Мирзачўлнинг бир қисмини Ўзбекистон ССР таркибига қўшиш тўғрисидаги қарор бир овоздан қабул қилинди . Ниҳоят, 1956 йил 15 мартда Қозоғистон ССР ва Ўзбекистон ССР махсус ҳу¬кумат комиссиялари юқорида қайд этилган ерларни Ўзбекистон ССР тарки¬бига қабул қилиш тўғрисида протоколни имзолади .

Тошкент атрофидаги Бўстонлиқ тумани ҳамда Келес яйловларида аввал ҳам таъкидлаб ўтилганидек, асрлар давомида ўтроқ ўзбеклар яшаб келган. Тоғ қишлоқларида ўзбеклар билан биргаликда тожиклар ҳам истиқомат қилган. Бу жойларга кейинчалик кўчманчи ҳаётни афзал кўрган қозоқлар келиб ўрнашдилар. XIX аср охири ва XX аср бошларида улар Тошкент шаҳри яқинига ҳам кўчиб келиб, асосан чорвадорлик билан шуғулланганлар.

XX аср 30-40-йилларида СССР ХКС қарори билан Келес яйловлари ва Бўстонлиқ тумани жанубий қисмидан 235 000 гектар ер Ўзбекистон ССР колхозларига узоқ йиллик муддатга фойдаланиш учун берилган. Худди шундай жойлар, яъни Ўзбекистон ССР ҳудудидаги Бекобод ва Сирдарё атрофлари Тожикистон ССРга ҳам берилган эди. Архив ҳужжатларида ёзилишича, 1955 йил 17 июлда Ўзбекистон Компартияси Марказий Қўмитаси биринчи котиби Амин Ниёзов ва Ўзбекистон ССР Министрлар Совети раиси Нуриддин Муҳитдинов КПСС Марказий Қўмитаси биринчи котиби Никита Хрушчёвга мурожаат қилиб, ўзбекларга тегишли бу ерларни республика ихтиёрига қайтаришни сўрашган .

Архивлардаги расмий ҳужжатларда келтирилишича, 1956 йилда Қозоғистон ССРдан ЎЗбекистон ССРга Жанубий Қозоғистон вилоятининг Бўстонлиқ тумани (Жамбул ва Жанубий Қозоғистон вилоятларидаги чўпонлар фойдаланадиган яйловлардан ташқари қисми) ҳамда Марказий Мирзачўл канали атрофларидаги 50 000 (бир ҳужжатда 75 000) гектар ер (асло 499 000 гектар ер эмас!) берилган. 1956 йил 21 январь санасидаги бу ҳужжат остига Қозоғистон Компартияси Марказий Қўмитаси биринчи котиби Леонид Брежнев, Қозоғистон ССР Олий Совети Президиуми раиси Жумабек Ташенов, Қозоғистон ССР Министрлар Совети раиси Динмухамед Кунаев ҳамда Ўзбекистон Компартияси Марказий Қўмитаси биринчи котиби Нуриддин Муҳитдинов, Ўзбекистон ССР Олий Совети Президиуми раиси Шароф Рашидов, Ўзбекистон ССР Министрлар Совети раиси Собир Камолов имзо қўйишган .

Қозоқ тарихчиларининг иддао қилишларича, 1956 йил 18 февралда Москвада СССР Олий Совети Президиуми раиси Климент Ворошилов раислигида ўтган бу йиғилишда (Қозоғистон ССР томонидан Ж.Ташенов, Л.Брежнев ва Қозоғистон Компартияси Жанубий Қозоғистон обкоми партия қўмитаси биринчи котиби И.Юсупов қатнашган; Д.Кунаев номи иштирокчилар рўйхатида кўрсатилмаган) Қозоғистон ССР Олий Совети Президиуми раиси Ж.Ташенов республика Олий Советининг қарори билан қозоқ ва ўзбек халқларининг ҳамда Совет Иттифоқининг умумий манфаатлари йўлида Ўзбекистон Республикаси таркибига 1 млн гектар ер берилади , деб эълон қилган .

1955-1960 йилларда Қозоғистон ССР Министрлар Совети раиси, 1960-1962 йилларда Қозоғистон Компартияси Марказий Қўмитаси биринчи котиби Динмухамед Кунаев (1912-1993) кейинчалик ёзган хотираларида ўзи билан ўша пайтда совет давлати раҳбари бўлган Никита Хрушчёв (1894-1970) ўртасида бўлиб ўтган зиддиятларни тасвирлайди. Бу зиддиятлар Қозоғистон, Ўзбекистон, Туркманистон чегараларини Кремлнинг талаби билан ўзгартириш, Қозоғистон ССР ва бошқа қўшни республикаларда қўриқ ва бўз ерларни ўзлаштириш билан боғлиқ эди. Кунаевнинг ёзишича, Хрушчёв ундан 1962 йилда Манғишлоқ ярим оролини (Хива хонлигининг собиқ ҳудуди; бу ерда асрлар давомида Орол ўзбекларининг аждодлари яшаган) Туркманистонга, пахта экиладиган туманларни (бу ўринда Мирзачўлдаги учта йирик туман ҳудуди кўзда тутилади) Ўзбекистонга қайтариш масаласини қўяди. Хрушчёвга сўнгги фикрни Жанубий Қозоғистон ўлка партия қўмитаси биринчи котиби, этник уйғур Исмоил Юсупович Юсупов (1914-2005) берган бўлиб, бу ҳолат Кунаевга мутлақо ёқмайди. Бу масалада Хрушчёв билан қаттиқ жанжаллашиб қолгач, Кунаев “миллатчи” сифатида республиканинг биринчи сиёсий раҳбари лавозимидан олиниб, ҳукумат раиси қилиб қайта қўйилади .

Хуллас, 1962 йил 24 декабрда (бошқа бир ҳужжатда 25 декабрда) Олмаотада ўтказилган Қозоғистон Компартияси МК пленумида Москвадан юборилган КПСС МК котиби Фрол Козловнинг таклифи билан Д.Кунаев ўрнига Жанубий Қозоғистон ўлка партия қўмитасининг биринчи котиби Исмоил Юсупов Қозоғистон Компартияси Марказий Қўмитаси биринчи котиби, иккинчи котиб қилиб эса Қарағанда обкомининг биринчи котиби Михаил Соломенцев сайланди. 26 декабрда Д.Кунаев Қозоғистон ССР Министрлар Совети раиси лавозимига қайта тайинланади .

1962 йил 28 декабрда Тошкентда қайта ташкил қилинган КПСС МК Ўрта Осиё бюросининг биринчи йиғилиши ўтказилди. Мазкур йиғилишда сўзга чиққан КПСС МК иккинчи котиби Ф.Козлов Мирзачўлдаги ўзлаштирилган қўриқ ерлар ва пахтакор туманлар негизида тез орада янги Ленин вилоятини ташкил этиш ғоясини ўртага ташлайди. Бу ғоя аслида Никита Хрушчёв ва Шароф Рашидов томонидан Козловга айтилган эди. Бу пайтда Н.Хрушчёв икки марта махсус Мирзачўлга келиб, ўзбек пахтакорларининг меҳнати билан танишади .

1962 йил 30 декабрда Қозоғистон Компартияси Марказий Қўмитаси биринчи котиби И.Юсуспов ва Қозоғистон ССР Министрлар Совети раиси Д.Кунаев Жанубий Қозоғистон ўлкасидаги бир қисм ерларни Ўзбекистон ССРга бериш тўғрисидаги протоколни имзолашади .

Қозоғистон тарихчиларининг фикрича, 1963 йилда Қозоғистондан Ўзбекистонга жами 421 300 гектар ер берилган. Мирзачўлнинг марказий қисмидаги Пахтаорол, Ильичевск ва Киров туманлари ҳудуди ўша пайтда Ўзбекистонга қайтарилган эди. Бунинг эвазига Ўзбекистон томони ҳам Чимкент вилояти ижроия қўмитаси талаби билан учта ер участкаси ўрнига иккита ер участкасини Қозоғистонга топширди . Бироқ бу ҳудудларнинг номи ва аниқ миқдори ҳужжатларда очиқланмайди.

Тарихий ҳужжатларнинг гувоҳлик беришича, 1963 йил 26 январда Қозоғистон ССР Олий Совети Президиумининг фармони билан Жанубий Қозоғистон ўлкаси ҳудудининг бир қисми Ўзбекистон ССР таркибига берилди .

Бўстонлиқ тумани ҳамда Мирзачўл ҳудудининг бир қисмини Ўзбекистонга қўшиб олиниши натижасида республика 1,039 млн гектар қўшимча ерга эга бўлди. Мирзачўлдаги ерларга қараганда Бўстонлиқ тумани ҳудудининг Ўзбекистон учун аҳамияти муҳимроқ эди. Чунки Мирзачўлни ўзлаштириш учун катта меҳнат ва улкан маблағ талаб этилса, Бўстонлиқнинг ерлари эса Тошкент ва Фарғона ерларидек унумдор эди. Ушбу ҳудудларнинг Ўзбекистонга қўшиб олинишининг иқтисодий аҳамияти қуйидагилардан иборат бўлган:

Ўзбекистон ССР ҳудуди кўпайди ва шуни ҳисобига пахта майдонлари кенгайди; қўшимча саноат зонаси пайдо бўлди; чорвачилик учун имконият кенгайди; янги ГЭСларни қуриш ва мавжудларининг қувватини ошириш учун шароит вужудга келди; янги сув омборларини қуриш мумкин бўлди; дам олиш масканлари ва санаторияларга эга бўлинди ҳамда янгиларини қуриш учун имконият пайдо бўлди.

Бироқ 1964 йил октябрда совет давлати раҳбари Никита Хрушчёв тўсатдан масъул лавозимлардан олиниб, унинг ўрнига Леонид Ильич Брежнев КПСС Марказий Қўмитаси биринчи котиби қилиб сайлангач ва Алексей Николаевич Косигин СССР Министрлар Совети раиси лавозимига тайинлангач, Қозоғистонда ҳам сиёсий вазият кескин ўзгаради. 1964 йил 7 декабрда бўлган Қозоғистон Компартияси Марказий Қўмитаси пленумида қатнашган КПСС МК котиби, Марказий Қўмитанинг иттифоқдош республикалар бўйича умумий бўлим бошлиғи Виталий Титов таклифига кўра, Динмухамед Кунаев икки йиллик танаффусдан сўнг, Исмоил Юсупов ўрнига қайта равишда Қозоғистон Компартияси Марказий Қўмитаси биринчи котиби лавозимига сайланди. Орадан кўп ўтмай В.Титов ҳам М.Соломенцев ўрнига Қозоғистон Компартияси МК иккинчи котиби бўлди . И.Юсупов эса Уральск вилояти ижроқўми раиси лавозимига тайинланади .

Д.Кунаев Қозоғистон ССРнинг биринчи сиёсий раҳбари бўлгач, совет давлатининг янги етакчиси Л.Брежнев билан ўта яқинлигидан фойдаланиб, Ўзбекистон ССРга берилган ҳудудларни қайтариб олиш учун Шароф Рашидовга йиллар давомида кучли босим ўтказди. Кремлнинг мададига таянган Д.Кунаев (у 1966 йилдан КПСС МК Политбюроси аъзолигига номзод; 1971-1987 йилларда Политбюро аъзоси бўлган) ниҳоят ўз мақсадига эришди.

1971 йил 29 мартда Кремлда бўлган КПСС МК Политбюроси мажлисида Қозоғистон ССР ва Ўзбекистон ССР етакчилари Д.Кунаев ва Ш.Рашидовнинг ёзма маълумотномаси кўрилиб, Ўзбекистонга аввал берилган ерлар Қозоғистонга қайтариладиган бўлди. 23 апрелда бўлган Политбюро йиғилишида Ўзбекистон Компартияси МК ва Қозоғистон Компартияси МК таклифларига кўра, Ўзбекистон ССР Сирдарё вилояти таркибидан Еттисой, Киров ва Пахтакор туманлари ҳудуди Қозоғистон ССРга бериладиган бўлди .

Кремлнинг фармойиши билан ҳар икки республиканинг “қонун чиқарувчи” органи бўлган давлат муассасалари зудлик билан ишга киришди. 1971 йил 11 майдан Ўзбекистон ССР Олий Совети Президиумининг “Ўзбекистон ССР Сирдарё вилояти ҳудудининг бир қисмини Қозоғистон ССР таркибига бериш ҳақида” ҳамда 12 майда Қозоғистон ССР Олий Совети Президиумининг “Ўзбекистон ССР Сирдарё вилояти ҳудудининг бир қисмини Қозоғистон ССР таркибига қўшиб олиш ҳақида”ги фармонлари қабул қилинди. Қозоғистон ССР ва Ўзбекистон ССР ўртасидаги янги чегара чизиғи ҳамда Чордара сув омбори мақоми белгиланди .

1971 йил 28 июлда СССР Олий Совети Президиумининг фармони билан Ўзбекистон ССР ва Қозоғистон ССР ўртасидаги чегара қисман ўзгартирилди . Хуллас, 1956 ва 1963 йилларда Ўзбекистон ССРга берилган ҳудудлар 1971 йилда яна Қозоғистон ССРга қайтарилди. Кейинчалик ҳам Ўзбекистоннинг Мирзачўлдаги ҳудудининг бир қисми (учта туман) ва Тошкент атрофларидаги айрим жойлар яна Қозоғистонга, Тошкент ва Сирдарё вилоятларининг чегарага туташ ҳудудининг бир қисми Тожикистонга, Фарғона водийсидаги кўп ерлар Қирғизистонга бериб юборилди.

Хуллас, Ўзбекистон ССР сиёсий раҳбариятининг хизмати билан республика таркибига

киритилган Бўстонлик тумани бугунги кунда ҳам ажойиб дам олиш масканлари ва ўзининг кенг турдаги инфратузилмаси билан республикада ички ва ташқи туризм ривожланишида алоҳида ўрин эгаллаб келмоқда. Шунингдек, Ўзбекистон ССР сиёсий раҳбариятининг кўплаб муҳим масалаларни ҳал этишда, доимий равишда республика манфаатларини ҳимоя қилишда, унинг тараққиёти ва ривожланишида астойидил ҳаракат қилганлиги намоён бўлади. Ўзбекистон чегараси 1956 йилдан олдин ва ундан кейин ҳам бир неча марта ўзгариб турди. Бироқ ушбу ҳудудларнинг бир қисми кейинчалик яна Қозоғистон ССРга қайтарилди. Лекин бу масалалар ҳалигача тадқиқотчилар томонидан тўлиқ ўрганилмай келинмоқда. Совет даврида Ўрта Осиё ва Қозоғистон иттифоқдош миллий совет республикалари ўртасида чегараланиш масаласини чуқур ўрганиш, унинг сабаб ва оқибатларини таҳлил этиш бугунги кунда тарихчилар олдида турган муҳим вазифалардан биридир.

Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши ҳамда қўриқ ва бўз ерлар очилиши

Ўзбекистон ССРда пахтачиликни ривожлантириш учун янги ерларни ўзлаштириш, ирригация қурилишини кенгайтириш, суғориш системаларини такомиллаштириш керак эди. КПСС МК ва СССР Министрлар Советининг 1956 йил 6 августда “Пахта етиштиришни кўпайтирмоқ учун Ўзбекистон ССР ва Қозоғистон ССРдаги Мирзачўлнинг қўриқ ерларини суғориш тўғрисида”ги қарори қабул қилинди. Унда пахта экиладиган майдонларни Ўзбекистон ССРда 200 000 гектар, Қозоғистон ССРда 100 000 гектар кенгайтириш режалаштирилди, шу мақсадда Ўзбекистон ССРга 1955 – 1956 йилларда 65 млн рубль, 1958 йилда 500 млн рублдан зиёдроқ маблағ ажратилди. Мирзачўлни кенг миқёсда ўзлаштириш ишлари бошланди. 1955 – 1959 йиллар давомида Ўзбекистонда 160 000 гектардан зиёдроқ янги ер ўзлаштирилди. 1961 йил 8 майда Мирзачўл шаҳарчаси Гулистон шаҳрига айлантирилди.

Шунингдек, 1956 йили Ўзбекистонда пахта харид нархларини ошириш, устама мукофотлар тўлашнинг янги тартиби, МТСларга тўланадиган натура ҳақи ставкаларини 40 фоиз камайтириш, сув учун тўланадиган ҳақни бекор қилиш, минерал ўғитлар нархини пасайтириш жорий қилинди.

1958 йил июнь ойида КПСС Марказий Комитети ва СССР Министрлар Совети “Ўзбекистон ССР, Қозоғистон ССР ва Тожикистон ССРда Мирзачўлни суғориш ва ўзлаштириш соҳасидаги ишларни янада кенгайтириш ҳамда жадаллаштириш тўғрисида” номли махсус қарор қабул қилади. Қарорга кўра, 1958-1966 йилларда Ўзбекистон ССР ва Қозоғистон ССРдаги суғориладиган ҳамда ўзлаштирилган ерлар майдонини 380 000 гектаргача кўпайтириш ҳамда Далварзин ва Самғор даштларида, Тожикистон ССР Ленинобод вилоятининг Ўратепа ва Шаҳристон туманларида 50 000 гектаргача кўпайтириш вазифаси қўйилди.

Мирзачўл ерларини суғориш ва ўзлаштириш Бош бошқармаси негизида Ўзбекистон ССР, Қозоғистон ССР ва Тожикистон ССРда мазкур ишларни бажариш учун Мирзачўлдаги қўриқ ерларни суғориш ва ўзлаштириш бўйича битта республикалараро Бош бошқарма (“Главголодностепстрой”) тузилди. Мазкур Бош бошқарма шу республикалар ҳудудларида бажариладиган ишлар учун Ўзбекистон ССР, Қозоғистон ССР ва Тожикистон ССР Министрлар Советига бўйсунади. Чирчиқ ва Фарҳод ГЭС қурилишларига бошчилик қилган инженер Ашот Саркисов “Главголодностепстрой” ташкилоти бошлиғи қилиб тайинланди.

Ўзбекистон ССР Министрлар Совети зиммасига қабул қилинган 1958 йилда 4-Қуйи Бўзсув ГЭСидан тортиб Еттисой посёлкасигача 110 квт қувватли электр линиялари ва подстанцияларини қуриш ҳамда 1959 йилда Еттисой посёлкасидан тортиб Чордара сув омборигача 110 квт қувватли электр линиялари ва подстанциялари қурилиши ишларини республикадаги қурилиш ташкилотларининг кучлари билан бажаришни таъминлаш вазифаси топширилди.

Қарорда СССР Алоқа министрлиги 1958 йилда Янгиер-Еттисой-Чордара участкасида алоқани уюштириш, шунингдек, Янгиер-Еттисой-Чордара, Жиззах, Беговот [Бекобод] ва

Ўратепа шаҳарлари ўртасида телефон-телеграф алоқасини уюштириш ҳамда Мирзачўлда аҳоли яшайдиган манзилларнинг телеграф-телефон алоқаси ҳамда уларни радиолаштириш умумий схемаларини тузиш ҳамда СССР Министрлар Совети ҳузуридаги Граждан ҳаво флоти Бош бошқармасига 1958 йилда Тошкент-Чордара ва Янгиер-Чордара ўртасида ҳаво алоқасини уюштириш вазифаси топширилди. Бундан ташқари СССР Қишлоқ хўжалик министрлиги зиммасига "Средазгипроводхлопок" проект институтига Мирзачўлда объектлар қурилиши соҳасидаги проект-қидириш ишларини бажарувчи барча проект ташкилотлари билан таъминлаш юзасидан етакчи проект ташкилотининг вазифалари юкланди .

Бу қарорнинг келажакда ўзбек халқи тақдирига салбий таъсир қиладиган энг муҳим жиҳати шундан иборатки, унда Ўзбекистон Компартияси ва Ўзбекистон ССР ҳукумати ўз ҳудудидаги 50 000 гектар ерни 1958 йил июнда қўшқўллаб Тожикистон ССРга топширганлиги бўлади. Бу ҳолат СССР ҳукумати қарорининг сўнгги 20-моддасида қуйидагича кўрсатилади:

"Ўзбекистон КП Марказий Комитети ва Ўзбекистон ССР Министрлар Советининг Мирзачўлнинг Тошкент вилоятидаги Беговот, Боёвут ва Ховос туманларидаги Тожикистон ССР Ленинобод (ҳозирги Суғд) вилоятига туташ бўлган жами 40 000 – 50 000 гектар ерни суғориш ва деҳқончилик мақсадларида ўзлаштириш учун Тожикистон ССРга топшириш ҳақидаги таклифи маъқулласин" .

Ўзбекистон ССР ҳудудидан Мирзачўлдаги 50 000 гектар суғориладиган ерни Тожикистон ССРга ҳадя қилган Ўзбекистон коммунистлари етакчиси тошкентлик Собир Камолов ҳамда Министрлар Совети раиси чимкентлик Мансур Мирза-Аҳмедовга "салламнолар" бўлсин!!!

Ўзбекистонда қўриқ ва бўз ерларни ўзлаштириш ҳамда пахта экинлари майдонини тобора кенгайтириш кейинги йилларда ҳам давом эттирилди .

Мирзачўлни ўзлаштирувчиларнинг фидокорона меҳнати натижасида кейинчалик Ўзбекистон ССРнинг биринчи раҳбари Шароф Рашидовнинг ташаббуси билан ўз даврида янги 2 вилоят: 1963 йил 16 мартда Сирдарё вилояти ҳамда 1973 йил 29 декабрда Жиззах вилояти ташкил қилинди. Бир миллион кишидан ортиқ аҳоли истиқомат қиладиган ҳудудда 17 та янги туман тузилди, уларда 300 000 та янги иш ўринлари яратилди. Бу ерда ташкил қилинган агросаноат комплекслари йилига 800 000 тонна пахта хомашёси, 600 000 тонна ғалла, 160 000 тонна полиз ва бошқа қишлоқ хўжалик маҳсулотлари етиштириб берди .

Ўзбекистон ССРда қўриқ ва бўз ерларни ўзлаштиришнинг комплекс усули XX аср 60-80-йилларида Қарши, Жиззах, Сурхон-Шеробод, Ўртачўл ва Жилвон чўллари, Қуйи Амударё ва Сирдарё этакларида ва бошқа массивларда қўлланилди. Бироқ янги ерларни ўзлаштириш жараёнида инсон бу ҳудудларнинг табиий шароитига фаол таъсир кўрсатиб, жиддий хатолар ва экологик оқибатларни келтириб чиқарди. Ўзлаштирилган катта миқдордаги ерлар шўрланиши, сув етишмаслиги ва саҳроланиш жараёни натижасида бугунги кунда Ўзбекистонда анъанавий суғорма деҳқончилик маданияти жиддий хавф остида қолмоқда.

GERMANIYADA TA’LIM OLGAN QATAG‘ON QURBONLARIDAN BIRI ABDUVAHHOB MURODIY TAQDIRI

Ziyodilloyeva Parvina

Annotatsiya. Mazkur maqola XX asr boshlarida Germaniyada tahsil olgan, keyinchalik sovet mustabid tuzumi tomonidan qatag‘on qurboniga uchragan, jadid ziyolilaridan biri - Abduvahhob Murodiyning hayoti va fojiali taqdiri yoritiladi. Maqolada Abduvvahob Murodiyning ilm olish yo‘lidagi izlanishlari, xorijda - xususan Germaniyada egallagan bilim va malakasi, uning milliy uyg‘onish harakatidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Yevropa ta’limi va ilmiy muhiti A.Murodiyning siyosiy-ijtimoiy qarashlariga ko‘rsatgan ta’siri ochib beriladi. Abduvahhob Murodiyning vatanga qaytgach ma’rifat, ta’lim va jamiyatni isloh qilish yo‘lidagi faoliyati, jadidchilik g‘oyalarini targ‘ib etishdagi sa’y-harakatlari alohida e’tiborga olinadi. A.Murodiy taqdirini o‘sha davrda Germaniyada ta’lim olib kelgan boshqa o‘zbek ziyolilari taqdiri bilan qiyoslab, qatag‘on siyosati milliy elita uchun qanday og‘ir yo‘qotishlarga sabab bo‘lganini ko‘rsatadi.Maqola Abduvahhob Murodiy shaxsini tarixiy adolat nuqtayi nazaridan qayta baholashga, uning ilm-ma’rifat yo‘lidagi xizmatlarini e’tirof etishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Qatag‘on siyosati, sovet, jadidlar, Germaniya, Muallimlar jamiyati.

Kirish Abduvahhob Murodiy – XX asr boshida shakllangan yangi ma’rifat to‘lqinining o‘qimishli vakillaridan biri. Munavarr qori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fayzulla Xo‘jayev, Fitrat kabi jadid ziyolilari millatni uyg‘otish, ilm-fanni rivojlantirish yo‘lida faoliyat olib borgan jadidchilik harakati davrida voyaga yetgan.



Abduvahhob Murodiy 1901-yil 29-mayda Toshkent shahrining Shayxontohur dahasi birinchi Egarchi mahallasida kambag‘al oilada tug‘ulgan. Onasi Xayriniso 1875-yil tavallud topgan. Ukasi Abduqodir 1908-yilda tug‘ulgan. Abduvahhob Murodiy qamoqqa olingan vaqtda ukasini ishchi ekanligini aytgan. Singlisi Sohiba 1917-yilda tug‘ilgan. 1930-yilda to’ldirgan so‘roq qog’ozida (tergov jarayonida tuzuladigan hujjat) maktab o‘quvchisi ekanligi aytilgan [1. 49]. Abduvvahob Murodiy haqida keltirilgan ma’lumotlarda oilasi haqida to‘liq ma’lumot qayd etilmagan bo’lsa-da ular farzandining o‘qish va ilmga qiziqishini qo’llab quvvatlangan, ayniqsa jadid maktabiga berilishi oilada ma’rifatga moyillik bo‘lganini bildiradi.

Abduvahhob Murodiy dastlab 1911-yilda Eshonxo’ja Xoniyning Xoniy maktabida boshlang‘ich ta‘limni olgan. Bu maktabda Murodiy bilan birga Sa’dulla Qosimov, tilshunos olim Qayum Ramazon, shoir Mashriq Yunusov kabi ko‘plab ziyolilar ta’lim olgan. 1914-yilda esa Munavvarqori Abdurashidxonovning “Namuna” maktabini tamomlagan. Maktabni bitirgan iqtidorli yoshlarni Munavvarqori yangi usul maktabiga olib muallimlik qilishi va o‘z tajribasini oshirishga imkon bergan. Salimxon Tillaxonov, Abduvahob Murodiy, Fayzi Yoqub kabi iqtidorli yoshlar maktabni tamomlagach muallimlik qilganlar [1.43]. Abduvahob Murodiy ustozi Munavvarqorining maslahati bilan 1915-yil Namanganga borib, bir yil davomida yangi usul maktabida muallimlik qildi. Yangi usul maktablarida ta’lim berish bilan birga u yerdagi o‘zgarishlar haqida “Sadoyi Turkiston” gazetasiga xabarlar, maqolalar yuborib turadi. Keyingi faoliyatida esa 1916-yilda Toshkentga qaytib “Hayot” nomli maktabda muallimlik qiladi. 1917-yilda Ozarboyjon

poytaxti Bokudagi pedagogik texnikumning ziroat bo‘limida 2 oylik muallimlik kursida o‘qiydi. Toshkentga qaytgandan so‘ng o‘qituvchilik faoliyatini davom ettiradi va Eski shahar jadid ma’rifatparvarlari tomonidan tuzilgan “Muallimlar jamiyati” faoliyatida ishtirok etadi [2. 6].

Shu bilan birga Abduvahob Murodiy yangi usul maktablarida muallimlik ishini davom ettirdi. Toshkentdagi “Mashrab” maktabida o‘quvchilarga ta’lim berish bilan birga, ushbu dargohga rahbarlik ham qilgan. A Murodiy oddiy oila farzandi bo‘lgani sababli, iqtisodiy jihatdan chet davlatga borib tahsil olishga qurbi yetmas edi. Muallimlar jamiyati chet davlatga boradigan talabalar uchun pul ajratardi. Boshqa talablar singari A. Murodiy ham chet davlatda o‘qishi uchun mablag‘ „Muallimlar jamiyati“ tomonidan moliyalashtirildi.

1919-1921-yillarda Afg‘onistonda hududida bo‘lishgan, A.Murodiy Turkiyaga o‘qish istagi bo‘lgan to kim Hirotda Jamol poshsho bilan 1920-yil tanishmagunga qadar. Jamol poshsho ko‘p mamlakatlarni ko‘rgan dunyodagi o‘zgarishlardan yaxshi xabardorligidan kelib chiqib, A Murodiyga Berlinda o‘qishni maslahat bergan. Shu bilan birga uni Berlindagi ta’limida moddiy jihatdan yordam berishini aytadi. Va o‘sha paytni o‘zida yo‘lda 100 oltin tanga berib Germaniyaga Moskva orqali ketishni maslahat bergan. Jamol poshsho bilan tanishish bahona uning Turkiyaga ta’lim safar yo‘nalishi Germaniyaga o‘zgarib ketdi.

Abduvahhob Murodiy 1921-yil 15-iyulda Germaniyaga ta’lim olish maqsadida yetib kelgan va Berlindagi oliy qishloq xo‘jaligi akademiyasida ilmiy faoliyatini boshlagan. Germaniyaga kelgan dastlabki yillarida u nemis tilini o‘rgandi va akademik hayotga moslashdi bu esa uning keyingi faoliyati uchun mustahkam poydevor bo‘ldi. Berlin akademiyasida Murodiy agronomiya bo’yicha nazariy va amaliy bilimlarni egalladi shu bilan birga laboratoriya va dala amaliyotlarida faol ishtirok etdi. Zamonaviy qishloq xo’jaligi texnologiyalari, tuproqshunoslik va paxtachilik bo’yicha bilimlarini chuqurlashtirdi. U Germaniyada faqat akademik bilim bilan cheklanmay, madaniy va ijtimoiy faoliyatda ham ishtirok etdi. Turkistonlik talabalar uyushmasi va ilmiy klublarda qatnashib, xalqaro ilmiy muloqot va madaniy aloqalarni rivojlantirdi. Maktublarida u nemis oliy ta’lim tizimi va ilmiy metodologiyasining Sharq sharoitida tatbiq etish imkoniyatlarini tahlil qildi. 1925–1926-yillarda u amaliyotlar o’tkazib, Germaniya va Misrning agronomik tajribalarini o’rgandi, bu esa uning keyingi ilmiy va pedagogik faoliyatiga poydevor bo’ldi.

Ayniqsa Abduvahhob Murodiyning Misrdagi faoliyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak A.Murodiy 1926-yilning yozida to‘rt oy davomida Misrda ziroatchilik va paxtachilik sohasida amaliyot o‘taydi, Yevropa ta’lim muassasasida oliy ma’lumotli birinchi o‘zbek agronomiga aylanadi.

1927-yilda esa oilasi bilan O‘zbekistonga qaytishadi. Murodiyni Martava ismli hamshira xotini va Maryam ismli qizi ham bo‘lgan. Albatta yurtiga qaytgan A Murodiy o‘z mamlakatidagi qishloq xo‘jaligi, sanoatning ahvoli bilan yaqindan tanishdi. U dastlab qishloq xo‘jaligi tajriba stansiyasiga ishga joylashadi. Tajriba stansiyasi direktori R.R.Shrederdan boshqa barcha yetakchi xodimlar A.Murodiyning u yerda ishlashiga qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Bu tajriba stansiyasida urug‘-aymoqchilik juda kuchli bo‘lib, faqatgina o‘zlariga tegishli kishilarnigina ishga qabul qilar edilar. Mahalliy aholini stansiyada ishlashga imkon bermagan. Abduvahob Murodiy bir yarim yil mobaynida shtatdan tashqarida deb bir necha bor ishdan bo‘shatilgan. Faqatgina Yer ishlari komissari almashgandan so‘ng stansiyadagi bir qator o‘zgarishlar, ya’ni dehqon xo‘jaligini iqtisodiy va texnik tomondan tekshirish sho‘basi mudirini ishdan olinishi natijasida ushbu bo‘limga mudir qilib qabul qilindi [2. 7.]. Abuvahhob Murodiy 1927-yil so‘ngida Shreder nomidagi Bog‘dorchilik ilmiy-tekshirish institutida direktor muovini bo‘ldi. Keyinchalik esa O‘rta Osiyo davlat universiteti qishloq xo‘jaligi fakultetida o‘qituvchi vazifalarida ishlay boshlaydi. Shuningdek, u mashhur qozoq adibi Muxtor Avezov, akademik Borovkovlar bilan sharq fakultetining turkiyshunoslik bo‘limida ham ilmiy xodim bo‘lib yoshlarga ta’lim bergan. Abuvahob Murodiy ilmiy va amaliy mehnat faoliyati bilan bir paytda matbuot sahifalarida sharqshunoslik va o‘zbek imlosi masalasiga oid maqolalari bilan ham qatnashdi.[5.]

Ammo bu orada hukumatda siyosiy holatlar ham murakkablashib borayotgan edi. 1929-yil

6-noyabrda sobiq ittihodchilar Munavvar qori Abdurashidxonov Ubaydulla Xo‘jayev va boshqalar qamoqqa olinadi. Shunday holatda A. Murodiy o‘z vatanini tashlab ketmaslikka qaror qiladi. A Murodiy qamalishini bilgani uchun ham xotini va qizi ko‘chada qarovsiz qolib ketmasligi uchun Toshkentdan bir yilga yashash uchun hovli ijaraga oladi[1.56].

Oxir oqibat Abuvahhob Murodiy 1930-yil Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarligidagi “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi sifatida OGPU tomonidan qamoqqa olindi. U bir yildan ortiq vaqt davom etgan qiynoq va tahqirlar ostida so‘roq qilindi.

1931-yil 25-aprel kuni OGPU qarori bilan Abduvahhob Murodiyga o‘lim hukmi 10 yillik konslager bilan almashtirildi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda u jazoni dahshatli Solovki lagerida o‘tagan va shu joyda halok bo‘lgan. 1932-yil uni Toshkentda intizorlik bilan kutayotgan va allaqachon o‘zbek tilini o‘rganib olgan turmush o‘rtog‘i nemis qizi Marta xonim va qizalog‘i Potye (o‘zbekcha ismi Maryam)lar sho‘rolar mamlakatidan chiqarib yuborildi.

Xullas, mustabid tuzum hech bir o‘z isbotini topmagan bo‘htonlar bilan endigina 30 yoshni qarshilagan yetuk mutaxassisning hayotiga zomin bo‘ldi. Murodiyning taqdiri shuni ko‘rsatadiki haqiqat va ilm yo‘lida qilngan fidoiylik vaqtinchalik qiynoqlarga uchrashi mumkin, lekin ruhiy yuksaklik va ma’naviy boylik hech qachon yo‘qolmaydi, va har bir avlod uchun tarixiy dars va manaviy yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar Ro‘yxati

1.Sherali Turdiyev. Ular Germaniyda o‘qigan edilar. Toshkent 2006 yil. 256 bet

2. Germaniyada ta‘lim olgan Abduvahhob Murodiy taqdiri. Abduvali Abdumutalibovich Yo‘ldoshev maqola. 13 bet

3.Sharq yulduzi jurnali 1992-yil 10- son

4.Naim Karimov akademik.Turkistonlik talabalarning taqdiri tafsilotlari.

5.Bahrom Irzayev. Birinchi O‘zbek agranomi Abduvahhob Murodiy nimalarni orzu qilgan. Maqola.

6.Axmad Zaki Validiy Tog‘on. Bo‘linganni bo‘ri yer. Toshkent Adolat 1997-yil, 280 bet

O‘RTA ASR YEVROPASIDA SHAHARLAR VA SIYOSIY O‘ZGARISHLAR

Raximova Dilnora

Annotatsiya. Mazkur maqolada XI–XIII asrlarda Yevropa shaharlarining iqtisodiy yuksalishi va ularning feodal senyorlardan siyosiy mustaqillikka intilishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, urban iqtisodiyotning rivojlanishi — savdo kengayishi, hunarmandchilik ishlab chiqarishining o‘sishi, pul muomalasining barqarorlashuvi va kapital to‘planishi — shahar jamoasining siyosiy ongini shakllantirgan hamda huquqiy va ma’muriy avtonomiya talabini kuchaytirgan. Maqolada iqtisodiy kuchning siyosiy transformatsiyaga aylanish mexanizmlari strukturaviy yondashuv asosida ochib beriladi. Shuningdek, urban harakatning feodal tizimga ta’siri va uning Yevropa siyosiy modernizatsiyasidagi o‘rni ilmiy asosda baholanadi.

Kalit so‘zlar.O‘rta asrlar, Yevropa shaharlari, feodalizm, komuna, urban iqtisodiyot, siyosiy avtonomiya, savdo, kapital, senyor hokimiyati, transformatsiya.

Introduction (Kirish). O‘rta asr Yevropasida XI-XIII asrlar urban jonlanish davri sifatida tarixga kirgan. Bu davrda shaharlar iqtisodiy markaz sifatida tiklandi va feodal tuzumning ichki strukturasi bilan murakkab munosabatga kirishdi. Shaharlarning senyorlarga qarshi kurashi ko‘pincha siyosiy jarayon sifatida talqin qilinadi, biroq mazkur jarayonning ildizi iqtisodiy o‘zgarishlarga borib taqaladi. Iqtisodiy yuksalish siyosiy talabni yuzaga keltirgan va urban jamoani feodal nazoratni cheklashga undagan.

Mazkur maqolaning maqsadi – XI-XIII asrlarda Yevropa shaharlarining iqtisodiy kuchayishi qanday qilib siyosiy mustaqillik talabiga aylanganini tahlil qilishdir. Tadqiqot iqtisodiy omillar va siyosiy transformatsiya o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqligini ochib berishga qaratilgan.

Methods (Metodlar/Materiallar): Ilk o‘rta asrlarda Rim imperiyasi parchalanishi natijasida Yevropada urban hayot keskin inqirozga yuz tutdi. Antik davr shaharlari ma’muriy, savdo va hunarmandchilik markazi sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsa, V–IX asrlarda ularning iqtisodiy va demografik ahamiyati sezilarli darajada kamaydi. Savdo yo‘llari zaiflashdi, pul muomalasi qisqardi va natural xo‘jalik ustun mavqega ega bo‘ldi. Biroq XI asrga kelib Yevropa jamiyatida yuz bergan agrar va demografik o‘zgarishlar urban iqtisodiyotning qayta tiklanishiga zamin yaratdi. Mazkur jarayon Yevropa tarixida iqtisodiy va siyosiy transformatsiyaning boshlanish bosqichi sifatida baholanadi.

Urban iqtisodiyotning tiklanishiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillardan biri agrar inqilob bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligida og‘ir plug, ot qo‘shish tizimi va uch dalali almashlab ekish usulining joriy etilishi hosildorlikni oshirdi[2]. Natijada ortiqcha mahsulot paydo bo‘ldi. Bu ortiqcha mahsulot natural xo‘jalik doirasidan tashqariga chiqib, bozor almashinuviga yo‘naltirildi. Shaharlar esa aynan shu ortiqcha mahsulotning savdo markaziga aylandi. Agrar ortiqcha mahsulot urban rivojlanishning iqtisodiy asosini tashkil etdi.

Results (Natijalar): XI-XII asrlarda Yevropa bo‘ylab savdo yo‘llari qayta tiklana boshladi. O‘rta yer dengizi hududida dengiz savdosi jonlandi, shimoliy hududlarda esa quruqlik va dengiz savdo yo‘llari rivojlandi. Savdo aloqalarining kengayishi bozor almashinuvini tezlashtirdi. Yarmarkalar va haftalik bozorlar muntazam tus oldi. Bu jarayon urban iqtisodiyotning institutsional asoslarini mustahkamladi[3].

Savdo kengayishi bilan birga hunarmandchilik ishlab chiqarishi ham rivojlandi. Ilk o‘rta asrlarda hunarmandchilik asosan qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, XI–XIII asrlarda shahar hunarmandchiligi mustaqil iqtisodiy sohaga aylandi. Ustaxonalar ko‘paydi, kasblar ixtisoslashdi, mahsulot sifati oshdi. Sex (gildiya) tizimi shakllanib, ishlab chiqarish jarayonini tartibga soldi. Sexlar narxni, ishlab chiqarish hajmini va mahsulot sifatini nazorat qilgan. Bu tizim

urban iqtisodiyotni barqarorlashtirdi va hunarmandlarning manfaatini himoya qildi[4].

Pul muomalasining kengayishi urban iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Natural almashinuv o‘rnini pul asosidagi savdo egalladi. Tangalar zarb qilinishi kengaydi, kredit va qarz tizimi paydo bo‘ldi. Savdogarlar uzoq masofali savdoda moliyaviy instrumentlardan foydalana boshladi. Bu jarayon kapital to‘planishini tezlashtirdi. Pul munosabatlari rivojlanishi feodal natural xo‘jalikdan farqli iqtisodiy modelni shakllantirdi.

Urban iqtisodiyotning rivojlanishi ijtimoiy tuzilmani ham o‘zgartirdi. Savdogarlar va hunarmandlar mustaqil iqtisodiy qatlam sifatida shakllandi. Bu qatlam keyinchalik burjua sifatida tarixiy maydonga chiqdi. Iqtisodiy muvaffaqiyat siyosiy ta’sirga aylana boshladi. Shahar iqtisodiyoti nafaqat boylik yaratish manbai, balki siyosiy transformatsiyaning drayveri ham bo‘ldi.

Shahar infratuzilmasining rivojlanishi urban iqtisodiy o‘sish bilan uzviy bog‘liq edi. Devorlar, ko‘priklar, omborxonalar va bozor maydonlari qurildi. Savdo xavfsizligini ta’minlash uchun ma’muriy boshqaruv tizimi takomillashtirildi. Shahar kengashlari moliyaviy va iqtisodiy masalalarni nazorat qila boshladi. Bu jarayon iqtisodiy o‘zini o‘zi boshqarish elementlarini yuzaga keltirdi.

Urban iqtisodiyotning tiklanishi regional jihatdan bir xil kechmadi. Janubiy Yevropada dengiz savdosi ustun bo‘lgan bo‘lsa, shimoliy hududlarda savdo ittifoqlari shakllandi. Ba’zi shaharlarda bank tizimi rivojlandi, boshqalarida esa hunarmandchilik ustunlik qildi. Biroq umumiy tendensiya bir xil edi — shahar iqtisodiyoti feodal natural xo‘jalikdan ajralib, bozor iqtisodiyoti tomon harakat qildi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, urban iqtisodiyotning rivojlanishi feodal tizimni darhol yo‘q qilmagan. Aksincha, dastlab u feodal tizim bilan yonma-yon mavjud bo‘ldi. Biroq vaqt o‘tishi bilan bozor almashinuviga asoslangan iqtisodiy model ustunlikka erisha boshladi. Natural renta asta-sekin pul rentasiga aylana boshladi[7]. Bu esa feodal iqtisodiy tuzilmaning ichki o‘zgarishiga sabab bo‘ldi.

Urban iqtisodiyotning tiklanishi va rivojlanishi Yevropa tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Savdo, kapital va pul muomalasining kengayishi keyinchalik kapitalistik munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Shahar iqtisodiyoti feodal jamiyat doirasida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, uning rivoji feodal tizimning ichki asoslariga zid edi. Natijada iqtisodiy transformatsiya siyosiy transformatsiyani yuzaga keltirdi.

XI–XIII asrlarda Yevropada urban iqtisodiyotning tiklanishi agrar inqilob, savdo yo‘llarining jonlanishi va pul muomalasining kengayishi bilan bog‘liq murakkab jarayon edi. Bu jarayon shaharlarning iqtisodiy mustahkamlanishiga, ijtimoiy tuzilmaning o‘zgarishiga va feodal tizim bilan ziddiyatning kuchayishiga olib keldi. Urban iqtisodiyot Yevropa siyosiy va ijtimoiy modernizatsiyasining muhim omiliga aylandi.

Discussion (Muhokama): Shaharlar iqtisodiy jihatdan mustahkamlangani sari ularning siyosiy talablari kuchaydi. Savdogar va hunarmandlar senyor nazorati ostidagi bojxona, soliq va sud tizimidan norozi bo‘la boshladi. Feodal hokimiyat iqtisodiy rivojlanishni cheklovchi omil sifatida qabul qilindi.

Moliyaviy mustaqillik talabi siyosiy avtonomiya talabiga aylandi. Shahar jamoasi soliq miqdorini o‘zi belgilash, sud tizimini mustaqil yuritish va ma’muriy boshqaruvni nazorat qilishni istadi. Bu jarayon komuna shakllanishiga olib keldi. Komuna — bu qasamyod asosida birlashgan urban jamoa bo‘lib, o‘z manfaatini kollektiv ravishda himoya qilgan.

Iqtisodiy kuch siyosiy legitimlikni shakllantirdi. Boy savdogarlar va patritsiylar shahar boshqaruviga ta’sir ko‘rsata boshladi. Shunday qilib, kapital siyosiy resursga aylandi.

XI–XIII asrlarda Yevropa jamiyati chuqur ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya jarayonini boshdan kechirdi. Bu davrda shaharlarning iqtisodiy tiklanishi va savdo munosabatlarining kengayishi feodal tizimning asosiy tamoyillari bilan ziddiyatga kirishdi. Mazkur ziddiyat shunchaki mahalliy nizolar yoki soliq masalalari bilan cheklanmagan, balki ikki xil iqtisodiy model o‘rtasidagi strukturaviy qarama-qarshilik sifatida namoyon bo‘lgan. Bir tomonda yer egaligiga, natural

xo‘jalikka va shaxsiy sodiqlikka asoslangan feodal tuzum mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomonda bozor almashinuviga, pul muomalasiga va kapital aylanishiga tayangan urban iqtisodiyot shakllanib borayotgan edi.

Feodal tizimning iqtisodiy asosini manor xo‘jaligi tashkil etgan. Manor – bu senyor yer egaligiga asoslangan yopiq iqtisodiy birlik bo‘lib, unda ishlab chiqarish asosan natural xarakterga ega edi. Dehqonlar yerga biriktirilgan bo‘lib, hosilning ma’lum qismini natural renta sifatida topshirgan, shuningdek, bepul mehnat majburiyatini bajargan. Pul munosabatlari bu tizimda ikkilamchi o‘rin tutgan. Feodal iqtisodiy modelning asosiy maqsadi ichki ehtiyojni qondirish bo‘lib, keng ko‘lamli bozor almashinuvi ustuvor vazifa emas edi.

XI asrdan boshlab Yevropada agrar ishlab chiqarish hajmining oshishi, yangi qishloq xo‘jalik texnologiyalarining joriy etilishi (og‘ir plug, uch dalali tizim) ortiqcha mahsulot paydo bo‘lishiga olib keldi. Ortiqcha mahsulot savdo almashinuvini kuchaytirdi va bozorlar rivojlanishiga turtki berdi. Shaharlar esa aynan shu ortiqcha mahsulot almashinuvi markaziga aylandi. Hunarmandchilik ishlab chiqarishining kengayishi va savdo yo‘llarining tiklanishi urban iqtisodiyotni mustahkamladi.

Bu jarayonda pul muomalasi kengayib, iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari paydo bo‘ldi. Savdo operatsiyalari kredit va qarz tizimini rivojlantirdi. Kapital to‘planishi jarayoni tezlashdi[3]. Endilikda boylik yer egaligidan emas, balki savdo va moliyaviy operatsiyalar orqali shakllana boshladi. Bu esa feodal aristokratiya iqtisodiy ustunligining nisbiy zaiflashuviga olib keldi.

Urban iqtisodiyotning asosiy xususiyati uning ochiqligi va dinamikligida edi. Shahar iqtisodiyoti uzoq masofali savdo tarmoqlariga bog‘liq bo‘lib, narx, talab va taklif omillariga moslashuvchan edi. Feodal tizim esa konservativ va lokal xarakterga ega bo‘lgan. Natural renta va yerga asoslangan iqtisodiy model tezkor bozor o‘zgarishlariga moslasha olmas edi. Natijada iqtisodiy manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga keldi.

Shahar aholisi, ayniqsa savdogarlar va hunarmandlar uchun feodal bojxona to‘lovlari, tranzit yig‘imlari va ortiqcha soliqlar jiddiy to‘siq bo‘ldi. Savdo yo‘llaridagi feodal nazorat iqtisodiy erkinlikni cheklardi. Senyorlar bozor ustidan yurisdiksiyaga ega bo‘lib, jarimalar va bojlar orqali daromad olgan[4]. Bu esa savdogar manfaatiga zid edi. Savdo samaradorligi uchun xavfsizlik, aniq huquqiy qoidalar va moliyaviy barqarorlik zarur bo‘lgan.

Feodal tizim va urban iqtisodiyot o‘rtasidagi yana bir ziddiyat sud hokimiyati masalasida namoyon bo‘ldi. Savdo nizolari tez va adolatli hal etilishini talab qilgan. Feodal sud esa ko‘pincha senyor manfaatini himoya qilgan. Shahar jamoasi mustaqil sud tizimini talab qildi. Bu talab iqtisodiy zaruratdan kelib chiqqan edi. Savdo kapitali xavfsiz huquqiy muhitni talab qildi[5].

Iqtisodiy ziddiyat moliyaviy suverenitet masalasiga ham taalluqli edi. Shaharlar o‘z byudjetini mustaqil boshqarishni istadi. Soliqni o‘zi belgilash va daromadni ichki infratuzilmaga yo‘naltirish urban iqtisodiy rivoj uchun zarur edi. Senyor uchun esa shahar daromad manbai bo‘lib qolgan. Agar shahar mustaqillikka erishsa, feodal daromad sezilarli kamaygan bo‘lardi. Bu esa qarshilikni kuchaytirdi.

Mazkur jarayonni strukturaviy ziddiyat sifatida baholash mumkin. Bir tomonda ishlab chiqarish vositalariga egalik qiluvchi feodal aristokratiya mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomonda savdo kapitaliga tayangan burjua qatlam shakllandi. Bu qatlam iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, siyosiy vakillik talab qila boshladi[6]. Feodal tizimning ierarxik tuzilmasi esa bunday talabni tan olmadi.

XII–XIII asrlarda ko‘plab shaharlarda komuna harakati shakllandi. Komuna — bu qasamyod asosida birlashgan urban jamoa bo‘lib, o‘z iqtisodiy manfaatini siyosiy avtonomiya orqali himoya qilgan[7]. Xartiyalar orqali shaharlar sud, soliq va boshqaruv erkinligini qo‘lga kiritdi. Ayrim hollarda bu jarayon tinch muzokara orqali amalga oshdi, boshqa hollarda esa qurolli to‘qnashuvlar yuz berdi.

Iqtisodiy manfaat va feodal tizim o‘rtasidagi ziddiyat uzoq muddatli tarixiy natijaga olib keldi. Feodal iqtisodiy model asta-sekin pul rentasiga o‘ta boshladi. Natural renta pul to‘lovlari

bilan almashtirildi. Bu jarayon feodal tizimning o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Shahar iqtisodiyoti esa kengayib, keyingi asrlarda kapitalistik munosabatlar shakllanishiga zamin yaratdi.

Xulosa qilib ayatganda XI–XIII asrlarda Yevropa shaharlarining iqtisodiy yuksalishi feodal tizimning ichki asoslariga zarba berdi. Ziddiyatning mohiyati shundaki, iqtisodiy rivoj siyosiy va huquqiy o‘zgarishlarni talab qildi. Savdo va kapital erkin harakatlanishi uchun feodal nazoratni cheklash zarur edi. Natijada iqtisodiy manfaat siyosiy transformatsiyaga aylangan tarixiy jarayon yuz berdi. Mazkur tahlil shuni ko‘rsatadiki, shahar-senyor ziddiyati tasodifiy hodisa emas, balki iqtisodiy tizimlarning tarixiy evolyutsiyasi natijasidir. Urban iqtisodiyot feodal model bilan bir makonda uzoq muddat mavjud bo‘la olmadi. Ziddiyat muqarrar ravishda siyosiy kurashga olib keldi va Yevropa tarixida yangi davrning boshlanishiga xizmat qildi.

Foydalanilgan manbalar

1.Le Goff J. Medieval Civilization. Oxford, 1988.
2.Anderson P. Passages from Antiquity to Feudalism. London, 1974.
3.Wickham C. Sleepwalking into a New World. Princeton, 2015.
4.Tilly C. Coercion, Capital and European States. Oxford, 1990.
5.O‘rta asrlar tarixi: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «MASHHUR PRESS», 2016. – 360 b.
6.Лозинский С.Г. История папства. М., 1986.
7.Braudel F. Civilization and Capitalism. New York, 1981.
8.Anderson P. Passages from Antiquity to Feudalism. London, 1974.
9.Hilton R. The Transition from Feudalism to Capitalism. London, 1976.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

VAQT METAFORASI ISPAN VA O‘ZBEK TILLARIDA: KOGNITIV-SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLIL

Abdullayeva Parvina Tolibjonovna,
SamDCHTI, “Ispan va Italyan filologiyasi” kafedrasi o’qituvchisi
Email: ptolibjonovna@gmail.com
Тел: +998 90 505 83 23

Annotatsiya: Mazkur maqola ispan va o‘zbek tillarida vaqtning metaforik reprezentatsiyasini qiyosiy tadqiq etishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning maqsadi — vaqt konseptining kognitiv konseptualizatsiya mexanizmlarini aniqlash, metaforizatsiyaning universal hamda milliy-xususiy modellarini belgilash va ularning aksiologik ahamiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqotning metodologik asosini konseptual metafora nazariyasi, kognitiv semantika, lingvokulturologiya hamda qiyosiy tilshunoslik yo‘nalishlari tashkil etadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, har ikki tilda vaqtning fazoviy va dinamik metaforalari universal xarakterga ega. Biroq baholovchi dominantalarda farqlar mavjud: ispan tilining lingvistik dunyoqarashida vaqtning chiziqli-progressiv va resurs sifatidagi modeli ustunlik qiladi, o‘zbek tilida esa siklik, axloqiy-me’yoriy va uyg‘unlashtiruvchi model yetakchi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: vaqt konsepti, konseptual metafora, kognitiv lingvistika, temporallik, frazeologiya, paremiologiya, ispan tili, o‘zbek tili, lingvistik dunyoqarash.

МЕТАФОРА ВРЕМЕНИ В ИСПАНСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Абдуллаева Парвина Толибжоновна,
СамГИИЯ, кафедра «испанской и итальянской филологии», преподаватель

Аннотация: Статья посвящена сопоставительному исследованию метафорической репрезентации времени в испанском и узбекском языках. Цель работы — выявить когнитивные механизмы концептуализации времени, определить универсальные и национально-специфические модели метафоризации и раскрыть их аксиологическую значимость. Методологической основой исследования послужили положения теории концептуальной метафоры, когнитивной семантики, лингвокультурологии и сопоставительного языкознания. В результате анализа установлено, что в обоих языках функционируют универсальные пространственные и динамические метафоры времени, однако различаются оценочные доминанты: в испанской языковой картине мира преобладает линейно-прогрессивная и ресурсная модель темпоральности, в узбекской — циклическая, морально-нормативная и гармонизирующая.

Ключевые слова: концепт времени, концептуальная метафора, когнитивная лингвистика, темпоральность, фразеология, паремиология, испанский язык, узбекский язык, языковая картина мира.

THE METAPHOR OF TIME IN SPANISH AND UZBEK: A COGNITIVE-SEMANTIC AND LINGUOCULTURAL ANALYSIS

Abdullaeva Parvina Tolibjonovna,
SamSIFL, Department of «Spanish and Italian Philology», teacher

Abstract: This article presents a comparative study of the metaphorical representation of time in

Spanish and Uzbek. The aim of the research is to identify the cognitive mechanisms underlying the conceptualization of time, to determine universal and culture-specific models of metaphorization, and to reveal their axiological significance. The methodological framework is based on the theory of conceptual metaphor, cognitive semantics, linguoculturology, and comparative linguistics. The analysis demonstrates that both languages employ universal spatial and dynamic metaphors of time. However, their evaluative dominants differ: in the Spanish linguistic worldview, a linear-progressive and resource-oriented model of temporality prevails, whereas in Uzbek a cyclical, moral-normative, and harmonizing model is dominant.

Keywords: concept of time, conceptual metaphor, cognitive linguistics, temporality, phraseology, paremiology, Spanish language, Uzbek language, linguistic worldview.

Категория времени является фундаментальной когнитивной универсалией, однако способы её языковой репрезентации демонстрируют культурную вариативность. В когнитивной лингвистике время рассматривается как абстрактный домен, структурируемый посредством системных метафорических соответствий [1]. Согласно теории Дж. Лакоффа и М. Джонсона, метафора не является исключительно стилистическим приёмом, а представляет собой базовый механизм концептуализации опыта.

Исследования М. Джонсона показывают, что телесный опыт человека формирует так называемые образные схемы (image schemas), которые лежат в основе пространственных и динамических моделей времени [2]. К числу наиболее продуктивных относится схема ПУТЬ, реализующаяся в метафоре ВРЕМЯ — ДВИЖЕНИЕ ПО ПУТИ.

В испанском языке эта модель представлена выражениями dejar atrás el pasado, mirar hacia el futuro, acercarse el momento («приближается момент»), pasar los años («проходят годы»). Здесь субъект мыслится движущимся вдоль временной линии либо время движется навстречу субъекту. Как отмечает З. Кёвечеш, подобная двойственность отражает альтернативные перспективы метафоризации: moving-ego и moving-time [3].

В узбекском языке пространственно-динамическая модель реализуется в выражениях vaqt o‘tadi («время проходит»), vaqt keladi («время приходит»), oldinda katta ishlar turibdi («впереди большие дела»). Однако в отличие от испанской языковой картины мира, где акцент делается на активности и планировании, узбекские конструкции чаще фиксируют объективность и неизбежность течения времени.

Особую группу образуют количественные и объектные метафоры. В испанском языке закреплена модель ВРЕМЯ — ЦЕННЫЙ РЕСУРС: El tiempo es oro, ahorrar tiempo, perder tiempo, invertir tiempo. Эта метафора коррелирует с экономической рациональностью и капиталистической организацией труда. В рамках культурно-когнитивного анализа отмечается, что экономическая интерпретация времени усиливается в обществах с высокой степенью индустриализации [4].

В узбекском языке также присутствуют конструкции типа vaqtni sarflamoq («тратить время»), biroq аксиологический центр смещён в сторону нравственно-оценочной интерпретации. Пословицы Har narsaning vaqti bor («У всего есть своё время»), Vaqt sabrni sinaydi («Время испытывает терпение»), Vaqt hamma narsani joyiga qo‘yadi («Время всё расставит по местам») демонстрируют метафоры ВРЕМЯ — СУДЬЯ и ВРЕМЯ — ИСПЫТАНИЕ. Здесь время выступает не столько экономическим ресурсом, сколько инструментом моральной регуляции.

Лингвокультурологический подход позволяет интерпретировать данные различия через призму историко-культурного опыта. В работах В.Н. Телии подчёркивается, что фразеологические единицы фиксируют коллективную память и ценностные установки общества [5]. Для испанской культуры, прошедшей этапы урбанизации и модернизации, характерна линейная модель прогресса. Для узбекской традиции, исторически связанной с аграрным укладом и сезонной цикличностью, более органична повторяющаяся модель

времени.

Дополнительное объяснение даёт концепция культурных сценариев А. Вежбицкой, согласно которой языковые выражения отражают глубинные культурные нормы поведения [6]. Испанские выражения стимулируют активное управление временем, тогда как узбекские подчеркивают терпение и согласование действий с естественным ходом событий.

Религиозный фактор также влияет на темпоральную метафорику. В испанском языке христианская традиция формирует эсхатологическую модель направленного времени (día del juicio, fin de los tiempos). В узбекской культуре исламская концепция времени включает элементы цикличности и предопределённости, что отражается в выражениях vaqtni qadriga yetmoq («осознавать ценность времени») и sabr bilan kutmoq («ждать с терпением»). Темпоральность здесь сопряжена с этической категорией ответственности.

Интерес представляет антропоморфная метафора времени. В испанском дискурсе встречаются выражения el tiempo cura («время лечит»), el tiempo pone a cada uno en su lugar («время ставит каждого на своё место»). В узбекском — vaqt davolaydi («время лечит»). Данная модель универсальна и отражает персонификацию времени как действующей силы.

Сопоставительный анализ позволяет выделить следующие закономерности. Во-первых, универсальные схемы (ПУТЬ, ДВИЖЕНИЕ, ПРОСТРАНСТВО) обусловлены телесным опытом человека и проявляются в обоих языках. Во-вторых, культурно-специфические особенности проявляются в аксиологической интерпретации: испанская модель акцентирует продуктивность и эффективность, узбекская — моральную гармонию и терпение. В-третьих, фразеология выступает механизмом закрепления нормативных установок в отношении времени.

Таким образом, метафора времени в испанском и узбекском языках представляет собой сложный когнитивно-культурный конструкт. Универсальные механизмы метафоризации сочетаются с национально детерминированными ценностными ориентирами. Сопоставительное исследование темпоральной метафорики способствует более глубокому пониманию специфики языкового сознания и культурной идентичности.

Список литературы:

Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живём. — М.: Прогресс, 2004. — 256 с.

Johnson M. The Body in the Mind. — Chicago: University of Chicago Press, 1987. — 233 p.

Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. — Oxford: Oxford University Press, 2010. — 375 p.

Dobrovol’skij D., Piirainen E. Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives. — Amsterdam: Elsevier, 2005. — 448 p.

Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. — М.: Языки русской культуры, 1996. — 288 с.

Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. — М.: Русские словари, 1996. — 416 с.

Evans V. The Structure of Time: Language, Meaning and Temporal Cognition. — Amsterdam: John Benjamins, 2004. — 356 p.

Ricoeur P. La métaphore vive. — Paris: Seuil, 1975. — 414 p.

SEMANTIKA – MA’NOLARNING RANG-BARANGLIGI

Bobokalonov Po’lotshoh Ramazonovich,
filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, Osiyo Xalqaro Universiteti doktoranti
https://orcid.org/0000-0002-1586-5387

Annotatsiya: Ilmiy maqolada so’z ma’nolarining ko‘p qatlamliligi, tasnifi, kontseptual, denotativ, konnotativ, strukturaviy, pragmatik uslubiy bog’liqligi, referent, mantiqiy predikat, Frege uchburchagi, sinonimiya, antonimiya, polisemiya masalalari haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Maqola filologiya yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar, magistrlar va fan o’qituvchilari uchun mo’jallab tayorlangan.

Kalit so’zlar : kontseptual, denotativ, konnotativ, strukturaviy, pragmatik ma’nolar ; referent, mantiqiy predikat, Frege uchburchagi, sinonimiya, antonimiya, polisemiya.

SEMANTICS – THE VARIETY OF MEANING

Bobokalonov Pulotshoh Ramazonovich,
Doctor of Philosophy in Philology, PhD student at the Asian International University

Abstract: The scientific article discusses the issues of multi-layeredness of word meanings, classification, conceptual, denotative, connotative, structural, pragmatic methodological connections, referent, logical predicate, Frege’s triangle, synonymy, antonymy, polysemy. The article is intended for students, masters and teachers of science studying in the field of philology.

Keywords: conceptual, denotative, connotative, structural, pragmatic meanings; referent, logical predicate, Frege’s triangle, synonymy, antonymy, polysemy.

СЕМАНТИКА – РАЗНООБРАЗИЕ ЗНАЧЕНИЙ

Бобокалонов Пулотшох Рамазонович,
доктор философии в области филологии, аспирант Азиатского международного университета

Аннотация: В научной статье рассматриваются вопросы многослойности значений слов, классификации, концептуальных, денотативных, коннотативных, структурных, прагматических методологических связей, референта, логического предиката, треугольника Фреге, синонимии, антонимии, полисемии. Статья предназначена для студентов, магистрантов и преподавателей естественных наук, обучающихся по специальности «филология».

Ключевые слова: концептуальные, денотативные, коннотативные, структурные, прагматические значения; референт, логический предикат, треугольник Фреге, синонимия, антонимия, полисемия.

Jahon tilshunosligida so ‘z ma’nosining ko‘p qatlamliligi semantika bo’limida muhokama etiladi. Ma’noning ko‘p qatlamliligi deganda bir so‘z, ibora yoki gap bir vaqtning o‘zida bir nechta turdagi ma’noga ega bo‘lishi tushuniladi. Til leksikasining ma’no qatlamlari (qatlamlanishi) asosan tilning boyishi va taraqqiyoti bilan bog‘liq uchta asosiy tarkibiy qismga bo‘linadi: zamonaviy (faol) qatlam, eski qatlam (tarixiy so‘zlar) va yangi qatlam (neologizmlar). Bu qatlamlar tildagi lug‘aviy boylikning paydo bo‘lishi, eskirishi va o‘zgarishi jarayonlarini ifodalaydi. Ma’no qatlamlarining tasnifi quyidagicha tasniflanadi:

1. Zamonaviy qatlam: lug‘at tarkibining asosi bo‘lib, eskilik yoki yangilik bo‘yog‘iga ega bo‘lmagan, hozirgi kunda faol qo‘llaniladigan so‘zlardir.

2. Eski qatlam (Arxaik qatlam): iste’moldan chiqib borayotgan yoki tarixiy-badiiy matnlarda uchraydigan so‘zlar (istorizmlar va arxaizmlar).

3. Yangi qatlam (Neologizmlar): jamiyat taraqqiyoti natijasida tilga yangi kirib kelgan, o‘zlashgan yoki yasalgan so‘zlar. Shuningdek, leksik qatlamlar ichki manba (tilning o‘z imkoniyati) va tashqi manba (o‘zga tillar bilan aloqa) orqali boyib boradi.

Ma’no qatlamlari kontseptual (asosiy), denotativ (obyektga bog‘liq), konnotativ (hissiy), strukturaviy (tuzilmaviy), pragmatik (kontekstga bog‘liq) ravishda o’rganiladi. Kontseptual ma’no lug‘atdagi, barqaror tushunchaga bog’liq bo’ladi. Denotativma’no real dunyodagi obyekt yoki hodisani ifodalaydi, konnotativ ma’no so’zga hissiy, ijtimoiy yoki madaniy yuk yuklaydi. Strukturaviy ma’no so‘zning gap va tizim ichidagi o‘rni orqali yuzaga keladi. Pragmatikma’no nutq vaziyati, gapiruvchi niyati va kontekst orqali namoyon bo’ladi.Bir leksik birlikka bir vaqtning o‘zida bir nechta ma’no yuklanishi mumkin. Ma’no zanjirini yo’qotmay, qo’shimcha ma’noga ega bo’lgan so’zlar ko’p ma’noli (polisemantik) leksemalarga aylanadi.

Ferdinand do’ Sossurning tilni tizim sifatida tahlil qilish nazariyasi, ya’ni belgi (signe), « belgi = belgi + ma’no » strukturaviy yondashuvi, G. Frege ma’no va referent (sense va Reference) farqi hamda denotativ va konnotativ ma’no asoslari, Ogden va Richardsning Frege g‘oyasini semantik uchburchak shaklida tushuntirishi, J. Lyonsning semantikaning qatlamlarini kontseptual, konnotativ, pragmatik tizimli ravishda ajratib o’rganishi, Leech, Austin va Searlening nutq aktlari, pragmatik ma’no tahlili, Roman Jakobson tilning kommunikativ funksiyalari va kontekstga bog‘liq ma’nolari, Hallidayning funksional grammatika va kontekstga bog‘liq ma’nolarning tahlili tilshunos olimlar tomonidan yaxshi kutib olingan.

So’z va semantik tushuncha ma’nolarining ko‘p qatlamliligining asosiy sabablari tilning ko‘p funktsiyaliligi bilan aloqador. So‘zlar kontekst ta’sirida bir vaqtning o‘zida obyektni, tushunchani, hissiyotni va vaziyatni bildirishi mumkin. So‘zning ma’nosi nutq so’zlovchisi va tinglovchiga qarab o‘zgaradi. Chunonchi, “og‘ir yuk” (jismoniy) va “og‘ir masala” (mavhum topshiriq, ish) nutq jarayonida aniqlanadi.

Metafora, metonimiya, sinonimiya orqali yangi qatlamlar ko‘chma va tasviriy ma’nolarni uslubiy jihatdan hosil qilishga yordam beradi : “yurak” → organ / jasorat / markaz kabi. Grammatik va sintaktik strukturada gap ichidagi ma’nolar aniqlaydi : “Kitobni Ali o‘qidi” va “Ali kitob o‘qidi” singari.

Pragmatik va ijtimoiy omillar bevosita madaniyat, nutq ohangi, suhbat maqsadi bilan vobasta ma’noni kengaytiradi yoki toraytiradi : “Zo‘r ekansan!” → maqtov yoki kinoya ohangi ajralib chiqadi. Ma’noning ko‘p qatlamliligi tilning boyligini, nutqda moslashuvchanligini va tasviriy ifodaliligini namoyon etib turadi.

Lingvistikada referent termini so‘z yoki iboraning real dunyoda nimani ko‘rsatib turgani, ya’ni uning ishora qilayotgan obyekti, shaxsi, hodisasi yoki tushunchasi anglashiladi. Oddiy qilib aytganda so‘z belgi bo’lsa, referent o‘sha belgi ko‘rsatgan narsadir. Misol uchun “kitob” referenti: real hayotdagi kitoblar sinfiga mansub aniq bir kitob tushuniladi. “Ali” referenti: Ali ismli konkret shaxsni ifodalaydi. “Bu daraxt” referenti gapirayotgan joyda ko‘rsatilayotgan daraxtning o’zi. “quyosh” referenti osmondagi porlayotgan Quyosh sanaladi.

“Referenté” bilan “sens” ma’nolarining muhim farqi “sens” so‘zning til ichidagi mazmuni, referent esa tashqi dunyodagi real obyekt, narsa yoki natijasi. Pragmatikada so‘zning qaysi vaziyatda, kim tomonidan, qachon aytilayotganiga e’tibor qaratadi. Bu yerda referent kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, Men charchadim” gapida referent gapirayotgan shaxs, “Bu yer juda sovuq” gapida esa referent aynan hozir turgan joy, “U keladi” da kontekstdan ma’lum bo‘ladigan shaxs. Referent deyiktik birliklar: men, sen, bu, u, hozir, shu yerda va hokazolar bilan ifodalanishi kuzatiladi.. Mantiqiy semantikada referent formal va aniq talqin qilinadi. Nom (ism) referent (obyekt), predikat obyektlar to‘plami yoki xususiyatidir. Misol uchun “Ali talaba”da “Ali” → referent (konkret shaxs), “talaba”ning referenti yo‘q, u xususiyat - talabalar sinfiga mansub. Yoki “Barcha qushlar uchadi” deganda “qushlar” so’zida qushlar to‘plami ma’nosi tushuniladi. Bu gapda mantiqiy gapning semantik referenti rost yoki yolg‘on degan haqiqat qiymatiga bog’liqdir.


Ba’zi “agar”, “va”, “lekin” (mantiqiy bog‘lovchilar), “hech kim”, “nimadir” (noaniq yoki


bo‘sh referensiya), “ajdarho” (til ichida bor, lekin real dunyoda yo‘q) so‘zlar real referentga ega emas, lekin baribir ma’noga ega.

Referensiya va referent ma’nolari ham juda muhim tushunchalardir. Referent — real dunyodagi obyekt, referensiya so‘zning o‘sha obyektga ishora qilish jarayonidir. “Bu qiz juda aqlli.” – referent, aniq bir qiz. “bu qiz” esa referensiya o‘sha qizga ishora qilingani bilinadi. Gapda referent o‘zgarmaydi,biroq referensiya vaziyatga qarab o‘zgarishi mumkin.

Anafora: “Ali keldi. U juda charchagan edi.” Ali va “u” referent. Bu eng ko‘p uchraydi.

Katafora (oldinga ishora) “U juda aqlli edi.” “U” Ali referentiga ishora qilingan. Anafora va kataforaning matn ichida referensiya bilan ishlatishini kuzatish mumkin. Anafora orqaga ishora beradi, katafora oldingisiga ishora qiladi.





Bu Frege uchburchagi bo’lib, so‘z (belgi), ma’no va referent o‘rtasidagi munosabatni tushuntiradigan semantik model hisoblanadi. Bu Ogden–Richards uchburchagi yoki semiotik uchburchak deb ham yuritiladi. Chunki Gottlob Frege uchburchagini Frege o‘zi chizmagan. Britaniyalik tilshunos, faylasuf va yozuvchi Charlz Kay Ogden va ingliz pedagogi, adabiyotshunosi, shoiri va ritorikachisi Ivor Armstrong Richards 1923-yilda “The Meaning of Meaning” asarida bu uchburchak sxemani grafik shaklda berishgan. Frege esa diagramma chizmagan bo’lsa-da, “Sens” (ma’no), reference (referent) farqini nazariy jihatdan (“Über Sinn und Bedeutung”, 1892) asarida ishlab chiqqan . Bu ikki lingvist Frege g‘oyasini vizual shaklga keltirgan va uning nomiga qoldirishgan. Bu model so‘z, ma’no va referent orasidagi munosabatni ko‘rsatadi. Uch burchak tomonlari: Belgi (so‘z) — “daraxt”, Ma’no / tushuncha (sense) — “tanasi bor, bargli o‘simlik”, Referent — real daraxt. So‘z referentga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, ma’no orqali yetib boradi. Demak, referent — narsa, referensiya — ishora, anafora/katafora — matn ichidagi ishora, Frege uchburchagi — hammasini bog‘lab beruvchi model.

Ma’noning to’rtta asosiy turi mavjud: 1) denotativ ma’no; 2) kontseptual ma’no; 3) strukturaviy ma’no; 4) pragmatik ma’no.

Denotativ ma’no — so‘zning real borliqdagi obyekt yoki hodisani bevosita ifodalovchi, lug‘aviy va neytral ma’nosidir. Soddaroq tushuntirilsa, denotativ ma’no — bu so‘zning asosiy, lug‘aviy, neytral ma’nosi, ya’ni u real dunyodagi obyekt, hodisa yoki tushunchani bevosita bildiradi. Frege bilan bog‘lab tushuntirilsa, denotativ ma’no ≈ referent / denotat, konnotativ ma’no ≈ ma’no (sense), hissiy yuklamadan iboratdir. Masalan, “tulki”ning denotative ma’nosi – yovvoyi hayvon, konnotativma’nosi “ayyor odam” degan tushunchani hosil qiladi. Demak, kontseptual ma’no — ongdagi model, denotativ ma’no — real dunyodagi obyekt.

Konseptual ma’no so‘zning asosiy, mantiqiy-tushunchaviy mazmuni, ya’ni u inson ongida shakllangan umumiy tushunchani ifodalaydi. U lug‘atlarda beriladigan, barqaror va hamma uchun umumiy ma’nodir. Masalan, “daraxt” → tanasi bor, shoxli o‘simlik, “qush” → patli, tuxum qo‘yadigan parranda, “ona” → farzand ko‘rgan ayol, “stol” → usti tekis, oyoqli mebel va h-zo. Bu yerda hech qanday hissiy baho yo‘q — faqat tushunchalar muhim rol o’ynaydi. Semantika nuqtai nazaridan kontseptual ma’no — asosiy va markaziy ma’noni hamda konnotativ, ijtimoiy,

affektiv qo‘shimcha ma’noni J. Lyons va Geoffrey Leech nazariyalari bog’lab o’rganishadi. Kontseptual ma’no — so‘zning lug‘atlarda qayd etiladigan, umumiy va mantiqiy tushunchani ifodalovchi asosiy ma’nosidir.

Strukturaviy ma’no — bu til birliklarining gap yoki matn ichidagi o‘zaro munosabatlari orqali yuzaga keladigan ma’no, ya’ni so‘zning alohida emas, tuzilma ichida anglashilishi. Strukturaviy ma’no — til birliklarining gap va tizim ichidagi grammatik hamda sintaktik munosabatlari orqali yuzaga keladigan ma’nodir. So‘zning boshqa so’zlar bilan bog‘lanib ma’no anglatishi strukturaviy ma’noni oydinlashtiradi.

Pragmatik ma’no — bu gap yoki so‘zning nutq vaziyati, kontekst, gapiruvchi niyati va tinglovchi bilan munosabatiga bog‘liq holda yuzaga keladigan ma’nosi. “Nima deyildi?” o’rnida “Nega, qaysi vaziyatda va nima maqsadda aytildi?” pragmatik ma’noni ajratib olishga yordam beradi. “Derazani yop” (iltimos yoki buyruq). “Soat kech bo‘ldi.” → “Uyga ketaylik”, “Suhbatni tugataylik.”

Pragmatik ma’no kontekst (joy, vaqt, vaziyat), gapiruvchi niyati, tinglovchi bilan munosabat, madaniy va ijtimoiy omillar bilan bog’liq. Uning turlariga nutq aktlari, implikatura (yashirin ma’no), deyiksis (men, sen, bu, u, hozir, shu yerda→ referent faqat vaziyatda aniqlanadi) kiradi. Pragmatik ma’no — nutq vaziyati, kontekst va gapiruvchi maqsadiga bog‘liq holda ifodalanadigan ma’nodir.

Xulosa qilib aytganda, semantik ma’nolarning rang-barangligi shundaki, bitta so‘z yoki gap turli omillarga qarab bir nechta ma’nolarni yuzaga chiqarishi mumkin. Ya’ni til ma’nosi bir qatlamli emas, balki ko‘p qirralidir. Sinonimiya, antonimiya, polisemiya ham ma’nomlar rang-barangligini kuchaytiradi. Semantik ma’nolarning rang-barangligi so‘z ma’nosining ko‘p qatlamliligi, kontekstga bog‘liqligi, ko‘chma ma’no, pragmatik va ijtimoiy omillar ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobokalonov R.R. La sémantique et la formation des mots. « Fan ziyosi », Toshkent, 2021. -3-129.

2. Bobokalonov R.R. Méthodes et stylistique de la langue française. Editions universitaires européennes. Republic of Moldova, Kishinyev, 2022.

3. Ferdinand de Saussure, (1916) Cours de linguistique générale, eds. Charles Bally & Albert Sechehaye, with the assistance of Albert Riedlinger. Lausanne – Paris: Payot, 1971. https://isplub.com/wp-content/uploads/2022pdf

4. Richards A. The Meaning of Meaning, London and New York: Routledge, 2001.

5. https://ru.wikipedia.org/wiki Фри́дрих Лю́двиг Го́тлоб Фре́ге

ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRIDA PSIXOLOGIK OBRAZLARNI OCHISH USULLARINING TIPOLOGIK TAHLILI
(Xurshid Do‘stmuhammad va Isajon Sulton asarlari misolida)

Egamberdiyev Diyorbek,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti, magistratura talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek nasrida psixologik obrazlarni ochish usullarining tipologik tahlili Xurshid Do‘stmuhammad va Isajon Sulton asarlari misolida o‘rganilgan. Tadqiqotda qahramon psixologiyasi stereotiplari, tasviriy tafsilotlar va metaforalar orqali psixologik obrazlarning ifodalanishi hamda muallif uslubiyatining mazmuniy-estetik xususiyatlari tahlil qilingan. Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, Isajon Sulton qissa va hikoyalarida psixologik tasvir yuqori darajada (80 ball) ifodalangan bo‘lsa, Xurshid Do‘stmuhammad romanlarida bu ko‘rsatkich nisbatan past (30 ball) ekanligi aniqlangan. Shuningdek, «Tush motivi» psixologizm manbai sifatida 70 ball bilan eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lib, bu adabiy psixologik tahlilda markaziy rol o‘ynashi asoslangan.

Kalit so‘zlar: psixologik obraz, tipologik tahlil, stereotip, metafora, muallif uslubiyati, Xurshid Do‘stmuhammad, Isajon Sulton, tush motivi, estetik talqin.

TYPOLOGICAL ANALYSIS OF METHODS OF REVEALING PSYCHOLOGICAL IMAGES IN MODERN UZBEK PROSE
(ON THE EXAMPLE OF THE WORKS OF KHURSHID DOSTMUHAMMAD AND ISAJON SULTAN)

Egamberdiev Diyorbek,
Tashkent University of Humanities, Master’s student

Abstract: This article examines the typological analysis of methods of revealing psychological images in modern Uzbek prose on the example of the works of Khurshid Dostmuhammad and Isajon Sultan. The study analyzes the stereotypes of character psychology, the expression of psychological images through descriptive details and metaphors, and the content-aesthetic features of the author’s style. According to the results of statistical analysis, psychological depiction in Isajon Sultan’s short stories and novellas is expressed at a high level (80 points), while in Khurshid Dostmuhammad’s novels this indicator is relatively low (30 points). Also, the «Dream motif» as a source of psychologism has the highest indicator with 70 points, which substantiates its central role in literary psychological analysis.

Keywords: psychological image, typological analysis, stereotype, metaphor, author’s style, Khurshid Dostmuhammad, Isajon Sultan, dream motif, aesthetic interpretation.

KIRISH. Zamonaviy adabiyotshunoslikda qahramon psixologiyasini ochib berish masalasi adabiy tahlil metodologiyasining eng murakkab, dinamik va ko‘p qirrali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Qahramon psixologiyasi – bu faqat badiiy personajning ichki holati yoki xarakteri emas, balki uning vaqt, makon, voqelik va ichki tuyg‘ular integratsiyasidan tashkil topgan kompleks fenomen. Xususan, bugungi o‘zbek nasriy adabiyotida psixologik obrazlarni talqin etishda an’anaviy badiiy vositalar bilan bir qatorda estetika, psixologiya va til uslublari elementlari tahliliy yondashuvlarda muhim o‘rin tutmoqda.

XXI asr adabiy jarayonida ijodkorlar tafakkuri ichki dunyoni ochish uchun klassik introspeksiya vositalarini yanada murakkablashtirib, obraz konstruktsiyasini estetik yondashuv orqali boyitmoqda. Bu jihat ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan katta dolzarblik kasb etadi, chunki obraz psixologiyasining badiiy tasviri adabiyotshunoslikda nafaqat janrlararo o‘zaro bog‘liqlikni, balki shaxsning ichki dunyosini hissiy va estetik maydonda ochish mexanizmini ham shakllantiradi.

Bugungi o‘zbek adabiyotida Xurshid Do‘stmuhammad va Isajon Sulton kabi ijodkorlarning

asarlari, ayniqsa roman, qissa va hikoyalarida qahramon psixologiyasining estetik talqini hamda uni ochish usullarining tipologik tasnifi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu muammo adabiy tahlil jarayonida qahramonlarning ichki monologlari, ichki hissiyotlar, ramziy motivlar va kontekstual tafsilotlarni o‘rganish orqali qahramon psixologiyasining badiiy strukturasini shaffof anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Psixologik obrazlarni o‘rganishda jahon adabiyotshunosligida Z.Freyd [1] va K.Yung [2], Erich Fromm [3] kabi psixoanalitik olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Freydning psixoanalitik nazariyasi ong osti jarayonlarining badiiy ijodga ta’sirini ochib bergan bo‘lsa, Yungning arxetiplar haqidagi ta’limoti obrazlarning umuminsoniy asoslarini anglash imkonini beradi. Fromm esa inson ruhiyatining ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liqligini tadqiq etgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida N.Eshonqul [4], D.Quronov, Q.Yo‘ldoshev kabi olimlarning tadqiqotlari psixologik tahlil metodologiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Xususan, Isajon Sulton ijodi asosida tadqiqot olib borgan olimlardan D.Toshpulatova [5], G.Nazarova, G.Orziqulova [6], N.Sultonova [7], N.Tosheva [8] larni, Xurshid Do‘stmuhammad ijodi ustida tadqiqot olib borganlardan S.Qurbonova [9], M.Pirnazarova [10] larni alohida qayd etish lozim.

Tadqiqotda adabiy-tarixiy tahlil, poetik tahlil, konseptual va semantik tahlil, qiyosiy-tipologik yondashuv, tasviriy metod, tavsifiy-uslubiy metodlar hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan. Statistik tahlil orqali mualliflar asarlarida psixologik obrazlarni ochish usullarining miqdoriy ko‘rsatkichlari aniqlandi va ular vizual diagrammalar shaklida ifodalandi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida psixologik obrazlarni ochish usullarining tipologik tahlili uchta asosiy yo‘nalishda olib borildi: qahramon psixologiyasi stereotiplari, tasviriy tafsilotlar va metaforalar orqali ifodalanish, hamda muallif uslubiyatining mazmuniy-estetik xususiyatlari.

Stereotiplarning ifodalanish darajasi

Isajon Sulton asarlarida stereotiplarning ifodalanish darajasi turli hikoya va romanlar kesimida tahlil qilindi. Quyidagi diagrammada ushbu ko‘rsatkichlar aks ettirilgan:

1-diagramma: I.Sulton asarlarida stereotiplarning ifodalanish darajasi

Asar nomi Ball

«Boqiy darbadar» 55

«Ozod» 50

«Do‘st» 70

Boshqa hikoyalar 80

Tahlil natijalariga ko‘ra, «Boqiy darbadar» romanida stereotiplar 55 ball, «Ozod» romanida 50 ball, «Do‘st» hikoyasida 70 ball, boshqa hikoyalarida esa 80 ball bilan ifodalangan. Eng yuqori ko‘rsatkich (80 ball) boshqa hikoyalar guruhida qayd etilgan bo‘lib, bu I.Sultonning turli hikoyalarida stereotiplar eng to‘laqonli va intensiv tarzda tasvirlanganligini anglatadi. Bunday natija, muallifning badiiy uslubida stereotiplardan voqelikni qayta qurish, an’anaviy madaniy kodlar va simvolik tuzilmalarni yangicha badiiy strategiya orqali yetkazish uchun keng foydalanilganini tasdiqlaydi.

Xurshid Do‘stmuhammadning «Bozor» romanida stereotipik elementlarning badiiy ifodalanganligi bo‘yicha taqsimot quyidagicha aniqlandi:

2-diagramma: X.Do‘stmuhammadning «Bozor» romanida stereotiplar taqsimoti

Stereotip turi Foiz

Jamiyatdagi yengilish stereotiplari 40%

Utopik qarashlar 30%

Insonlardagi o‘ylar stereotiplari 20%

Shevalarda ifodalangan stereotiplar 10%

Diagramma natijalariga ko‘ra, jamiyatdagi yengilish stereotiplari 40% bilan eng yuqori ulushni

tashkil qiladi. Utopik qarashlar 30%, insonlardagi o‘ylar stereotiplari 20%, shevalarda ifodalangan stereotiplar esa 10% ni tashkil etadi. Jamiyatdagi stereotipik nuqtai nazar – tashqi ijtimoiy bosim, umumiy qadriyatlar majmui va shablon qarashlar – romandagi voqelikni belgilovchi asosiy kontseptual platforma vazifasini bajaradi. Utopik qarashlar romandagi kontrast stereotip sifatida namoyon bo‘lib, jamiyatdagi salbiy stereotiplar bilan to‘qnashadi va ideal taraqqiyot, erkinlik hamda ma’naviy uyg‘onish tasvirlarining badiiy foniga xizmat qiladi.

Tush motivi psixologizm manbai sifatida

Tush motivlarining psixologik obrazlarni ochishdagi o‘rni alohida tahlil qilindi. Quyidagi jadvalda tush motivining turli adabiy formatlarda psixologizm manbai sifatida ifodalanganligi ko‘rsatilgan:

3-diagramma: Tush motivlarining psixologizm manbai sifatida ifodalanishi

Ko‘rsatkich Ball

Tush motivi faktor 70

Zamonaviy nasrda 40

Zamonaviy she’riyatda 50

Mustaqillik davri nasrida 55

Mustaqillik davri she’riy sathida 45

Tahlil natijalariga ko‘ra, tush motivi faktori psixologizm manbai sifatida 70 ball bilan eng yuqori ko‘rsatkichga ega. Bu tush motivining adabiy psixologik tahlilda markaziy rol o‘ynashini anglatadi. Tush motivi qahramonlarning ichki ruhiy kechinmalari, ichki monologlari, ichki tartib-tafakkuri va sub’ektiv dunyo idrok etish jarayonini ochishda juda samarali vosita hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda tush motivi ko‘pincha xotira, ong osti, arxetiplik tasavvurlar va insonning ichki kechinmalarini badiiy tasvirlashda ishlatiladi.

Zamonaviy nasrda tush motivi ko‘rsatkichi 40 ballni tashkil etadi, bu esa ushbu janrda nisbatan pastroq darajada integratsiyalanganini bildiradi. Zamonaviy she’riyatda esa 50 ball bilan biroz yuqoriroq natija qayd etilgan. Mustaqillik davri nasrida ko‘rsatkich 55 ballni tashkil etib, bu tush motivining psixologizm kontekstida mustaqillik davri nasrida kuchliroq integratsiyalanganini ko‘rsatadi. Mustaqillik davrida o‘zbek nasrida ichki dunyo, ichki kechinmalar va subyektiv tajriba badiiy markazga chiqqanligi sababli tush motifining qo‘llanilish chastotasi oshgan.

Muallif uslubiyatining tahlili

Ikki muallif ijodida uslubiy tahlilning turli janrlar bo‘yicha ifodalanish darajasi quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

4-diagramma: Muallif uslubiyati tahlilining janrlar kesimida ifodalanishi

Muallif va janr Ball

I.Sulton romanlari 70

I.Sulton qissa va hikoyalari 80

X.Do‘stmuhammad romanlari 30

X.Do‘stmuhammad publitsistika va hikoyalari 60

Tahlil natijalariga ko‘ra, I.Sulton romanlarida uslubiy tahlil 70 ball, qissa va hikoyalarida 80 ball bilan ifodalangan. X.Do‘stmuhammad romanlarida bu ko‘rsatkich 30 ball, publitsistika va hikoyalarida esa 60 ballni tashkil etadi. I.Sulton qissa va hikoyalaridagi yuqori ko‘rsatkich (80 ball) uning badiiy til va uslubni o‘ziga xos tarzda boyitishga bo‘lgan intilishini ifodalaydi. Badiiy uslub orqali ijodkor voqelikni murakkab psixologik, falsafiy va estetik qatlamlar orqali ochadi.

X.Do‘stmuhammad romanlaridagi nisbatan past ko‘rsatkich (30 ball) uning romanlarining uslubiy tahlil darajasi boshqa toifalarga nisbatan kamroq tadqiq qilinganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, publitsistika va hikoyalaridagi 60 balllik ko‘rsatkich ushbu janrlarda muallif tilining o‘ziga xosligi, fenomenologik qarashlar, ijtimoiy va falsafiy mazmun yorqin ifoda topganini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixologik obrazlarni ochishda stereotiplar, metaforalar va muallif uslubiyati o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Stereotiplar qahramon psixologiyasini tez va samarali ochishning dastlabki nuqtasi sifatida xizmat qiladi. I.Sulton ijodida stereotiplar psixologik tasvir uchun kontseptual ramka ta’minlab, qahramonning ichki holatini o‘quvchiga tez anglash imkonini yaratadi. X.Do‘stmuhammadning «Bozor» romanida esa stereotiplar murakkab ijtimoiy-psixologik qatlam sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatdagi yengilish stereotiplarining 40% ulush bilan eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishi, muallifning ijtimoiy bosim va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatni markaziy masala qilib qo‘yganligini tasdiqlaydi.

Tasviriy tafsilotlar va metaforalar psixologik obrazlarning sekin, dramatik tarzda ochilishida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, tush motivlari orqali ichki kechinmalar ramziy shaklda ifodalanadi. E.Fromm ta’kidlaganidek, uyqu va tush holatlari ong ostida yuz beradigan jarayonlar bo‘lib, inson ruhiyatining yashirin qatlamlarini ochishda muhim vosita hisoblanadi. Tahlil natijalarida tush motivi faktorining 70 ball bilan eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishi, uning psixologik obrazlarni ochishdagi markaziy o‘rnini tasdiqlaydi. Mustaqillik davri nasrida tush motivining 55 ball bilan nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishi, bu davr adabiyotida ichki dunyo va subyektiv tajribaga bo‘lgan qiziqish ortganligidan dalolat beradi.

Muallif uslubiyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, I.Sulton va X.Do‘stmuhammad ijodida psixologik obrazlarni ochish usullari turlicha. I.Sulton asarlarida psixologik tahlil yuqori darajada (70-80 ball) ifodalangan bo‘lib, bu uning badiiy uslubining murakkabligi va psixologik chuqurligidan dalolat beradi. Ayniqsa, qissa va hikoyalaridagi 80 ballik ko‘rsatkich, muallifning qisqa janrlarda psixologik tahlilni yanada samarali qo‘llay olish qobiliyatini ko‘rsatadi. X.Do‘stmuhammad romanlaridagi nisbatan past ko‘rsatkich (30 ball) esa, uning romanlarida psixologik tahlildan ko‘ra boshqa badiiy vositalarga (masalan, ijtimoiy satira, ramziy tasvir) ustuvorlik berilganligi bilan izohlanishi mumkin. Biroq uning publitsistika va hikoyalaridagi 60 ballik ko‘rsatkich, muallifning qisqa janrlarda psixologik tahlilni muvaffaqiyatli qo‘llay olishini ko‘rsatadi

XULOSA

Psixologik obrazlarni ochish usullarining tipologik tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Stereotiplar psixologik obrazlarni ochishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. I.Sulton asarlarida stereotiplar 50-80 ball oralig‘ida ifodalangan bo‘lsa, X.Do‘stmuhammadning «Bozor» romanida stereotiplar murakkab tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatdagi yengilish stereotiplari (40%), utopik qarashlar (30%), insonlardagi o‘ylar stereotiplari (20%) va shevalarda ifodalangan stereotiplar (10%) romandagi psixologik obrazlarning turli qatlamlarini ochishga xizmat qiladi.

2. Tush motivi psixologizm manbai sifatida markaziy o‘rin tutadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, tush motivi faktori 70 ball bilan eng yuqori ko‘rsatkichga ega. Bu tush motivining qahramonlarning ichki ruhiy kechinmalari, ong osti jarayonlari va subyektiv dunyoqarashini ochishdagi samaradorligini ko‘rsatadi. Mustaqillik davri nasrida tush motivining 55 ball bilan nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishi, bu davr adabiyotida psixologik tahlilga bo‘lgan qiziqish ortganligini tasdiqlaydi.

3. Muallif uslubiyati psixologik obrazlarni ochish strategiyasini belgilaydi. I.Sulton ijodida uslubiy tahlil yuqori darajada (70-80 ball) ifodalangan bo‘lib, ayniqsa qissa va hikoyalarda (80 ball) psixologik tahlil eng samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. X.Do‘stmuhammad romanlarida uslubiy tahlil nisbatan past (30 ball) bo‘lsa-da, publitsistika va hikoyalarida (60 ball) ancha yuqori ko‘rsatkichga ega. Bu har ikki muallifning o‘ziga xos ijodiy uslubi va psixologik obrazlarni ochish strategiyasidagi farqlarni ko‘rsatadi.

4. Psixologik obrazlarni ochish usullari o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Stereotiplar, metaforalar va muallif uslubiyati birgalikda qahramon psixologiyasining to‘liq va chuqur tasvirini yaratishga xizmat qiladi. Stereotiplar tezkor anglash mexanizmini ta’minlasa, metaforalar va tush motivlari ichki kechinmalarning ramziy ifodasini beradi, muallif uslubiyati esa bu vositalarni yagona badiiy tizimga birlashtiradi.

Umuman olganda, zamonaviy o‘zbek nasrida psixologik obrazlarni ochish usullari murakkab

va ko‘p qatlamli tizimni tashkil etadi. Xurshid Do‘stmuhammad va Isajon Sulton asarlari misolida olib borilgan tipologik tahlil, har ikki muallifning o‘ziga xos ijodiy uslubi va psixologik obrazlarni ochish strategiyasidagi farqlarni aniqlash imkonini berdi. Bu tadqiqot natijalari o‘zbek adabiyotshunosligida psixologik tahlil metodologiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Freud, S. (1900/1960). The Interpretation of Dreams. (J. Strachey, Trans.). Standard Edition.

2. Jung, C. G. (1912/1915). Symbols of Transformation. (H. G. Baynes, Trans.). Princeton University Press.

3. Fromm, E. (1950). Psychoanalysis and religion. Yale University Press.

4. Eshonqul, N. (2018). Ijod falsafasi. Toshkent: Akademnashr.

5. Toshpulatova, D. B. (2022). Zamonaviy o’zbek nasrida muallif ongi va uni ifodalash shakllari (Ulug’bek Hamdam va Isajon Sulton asarlari misolida). Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Jizzax.

6. Orziqulova, G. (2021). Isajon Sultonning «Boqiy darbadar» romanida badiiy asar tili masalasi. Scientific Progress, 2(5).

7. Sultonova, N. N. (2020). Isajon Sulton romanlarida badiiy komponentlar modifikatsiyasi (PhD diss. avtoreferati). Qarshi.

8. Tosheva, N. S. (2020). Hozirgi o‘zbek nasrida folklorga oid vositalarning poetik funksiyasi (Isajon Sulton nasri misolida). Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.

9. Qurbonova, S. B. (2011). O’zbek publitsistikasining rivojlanish xususiyatlari (U. Xoshimov, X. Do’stmuhammad badiiy publitsistikasi misolida). Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent.

10. Pirnazarova, M. M. (2006). Hozirgi o’zbek romanlarida uslubiy izlanishlar (O. Muxtor, X. Do’stmuhammad, U. Hamdam, T. Rustam romanlari misolida). Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent.

UDK: 894.375:371

“ADABIYOTSHUNOSLIK” FANINI O‘QITISHNING USLUBIY-METODOLOGIK MUAMMOLARI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Rasulova Nigorabonu Abduqahhorjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti, pedagogika nazariyasi va tarixi yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada filologiya tillarni o‘qitish (inliz tili) fakulteti (bakalavriyat) 1-bosqichida ta’lim rus tilida olib borilagan guruhlar uchun ishlab chiqilgan “Adabiyotshunoslik” fanining ichshi dasturinidagi “Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasini tahlili” deb nomlangan mavzuni o‘qitish muammolari haqida fikr yuritiladi. Maqola IMRAD talablari asosida shakllnatirilgan. Kirish qismida talabada badiiy asarni o‘qitishning ta’limiy va pedagogik ahamiyati, ta’lim-tarbiyaning ilmiy-amaliy asoslari, ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish tamoyillarini o‘rgatish zarurati asoslangan. Adabiyotlar tahlili va metodologiya qismida esa sohaning yetuk vakillari ilmiy ishlari tahlil etiliub, eng muhim fikrlar metodologik asos sifatida olinganm. Natija va muhokama qismida esa talabalar bilan Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasi tahlili olib boriladi. Xulosada esa izlanish davomida kelingan umumlashma fikrlar ikki bandda sanab ko‘rsatilgan. Foydalanilgan adabiyot ro‘yxati berilgan.

Kalit so‘z va iboralar: didaktika, pedagogika nazariyasi muammolari, pedagogic qadriyatlar, badiiy asar, o‘qitish usullari, guruhchalar bilan ishlash, talabalar taqdimoti, mustaqil fikrlash.

SOME CONSIDERATIONS ON THE METHODOLOGICAL PROBLEMS OF TEACHING THE SUBJECT OF “LITERATURE STUDIES”

Rasulova Nigorabonu Abdukahhorjon qizi,
Fergana State University, 1st year master’s student in the department of Theory and History of Pedagogy

Annotation: The article discusses the problems of teaching the topic “Analysis of Jack London’s story “Love of Life” within syllabus of the discipline Literary Studies, developed for first-year bachelor students of the faculty Philology and Language teaching (English) whose instruction is conducted in Russian. The article is formulated according to the requirements of IMRAD. The introduction substantiates the educational and pedagogical significance of teaching literary works, the scientific and practical foundations of education, as well as the necessity of familiarizing students with the principles of organizing the teaching and learning process effectively. In the literature review and methodology section, analyzes the scientific works of leading scholars in the field, and the most significant theoretical ideas are adopted as the methodological foundation of the study. Results and discussion section presents an analysis of Jack London’s story «Love for Life» which is conducted with students. Conclusion part summarizes the main findings and represents the generalized conclusions in two paragraphs. A list of references is provided at the end of the article.

Keywords and phrases: didactics, problems of pedagogical theory, pedagogical values, artistic work, teaching methods, group work, student presentation, independent thinking.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫЩЛЕНИЕ ПО МЕТОДОЛОГИЧЕСКИМ ПРОБЛЕМАМ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА «ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ»

Расулова Нигорабону Абдукаххор кизи,
Магистрант 1-го курса по направлению «Теория и история педагогики».

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы преподавания темы «Анализ рассказа Джека Лондона «Любовь к жизни» по программе предмета ,,Литературоведение“.

разработанной для групп студентов, обучающихся на русском языке на 1-м курсе филологического факультета (английский язык) (бакалавриат). Статья написано требованиям ИМРАД. Введение обосновывается образовательную и педагогическую значимость обучения студентов художественного произведения, научно-практические основы образования, необходимость обучения принципам правильной организации учебного процесса. В разделе анализа литературы и методологии анализируются научные работы видных представителей области педагогики, а наиболее важные идеи берутся как методологическая основа. В разделе результатов и обсуждения проводится анализ рассказа Джека Лондона «Любовь к жизни» со студентами. В заключении в двух абзацах приводятся обобщения, сделанные в ходе исследования. Приводится список использованной литературы.

Ключевые слова и выражения: Дидактика, проблемы педагогической теории, педагогические ценности, художественное творчество, методы обучения, работа в группах, студенческие презентации, самостоятельное мышление.

Kirish. So‘nggi yillarda dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayoni ta’lim tizimining barcha yo‘nalishlarida zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va pedagogik jarayonga joriy etishni taqazo etmoqda. Shuning uchun ham mazkur muammo mamlakatimizda xalqaro doirada muhokama qilishga katta e’tibor qaratmoqda. Xususan, 2025 yil 15-16-may kunlari tashkil etilgan “O‘zbekiston-Buyuk Britaniya ta’lim forumi”da global va mahalliy ehtiyojlarni qondirish hamda bu borada ijobiy o‘zgarishlarga erishish, oliy ta’lim muassasalarini boshqarish va ta’lim sifatini ta’minlash sohasida yuksaklikka erishish, transmilliy ta‘lim (TMT) tendensiyalari va rivojlanishi, Buyuk Britaniya va O‘zbekiston hamkorligida mamlakatimizdagi oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan masalalar kun tartibiga qo‘yildi [1]. Zero, mamlakatimizda ta’lim oluvchiga asosiy nazariy bilimlar berish bilan bir qatorda, ularda aniq fan doirasida olgan bilimlarini amaliyotga joriy eta bilishga alohida e’tibor qaratilinmoqda. Xususan, adabiyotshunoslik nazariyasining obraz, syujet, kompozitsiya, asar tili kabi nazariy bilimlari asosida aniq badiiy asarni tahlil qilish hamda shu orqali ta’lim oluvchida shaxs va jamiyat munosabati haqida kengroq tasavvur shakllantirish, talabada badiiy-estetik anglash va borliqni yaxlitlikda tushunish kabi ko‘nikmalarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Pedagogika nazariyasi va uning ilmiy-amaliy asoslari, ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish jamiyat taraqqiyotining kelajagini ta’minlaydigan asosiy tamoyil sifatida filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) mutaxassiliklariga adabiyotshunoslik fanini o‘qitish muammolarini tadqiq etishda salmoqli o‘ringa ega. Lekin oxirgi yillarda bu sohada ba’zi pedagogik talabni qayta tekshirishga ehtiyoj yuzaga keldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Manbalardan ko‘rinadiki, oliy ta’lim muassasalarida adabiy ta’limni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan, sohaga oid o‘quv adabiyotlari yaratilgan. Xususan, professorlar Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalar yaratgan o‘quv adabiyotida “Adabiyot o‘qitish metodikasi badiiy adabiyot o‘qitilish jarayoniga bog‘liq qonuniyatlarni o‘rganadi. Unda adabiyotshunoslik bilan podagogikaning ayrim xususiyatlari uyg‘unlashadi. Ya’ni adabiyotshunoslik alohida fan sifatida adabiyot tarixi, nazariyasi va adabiy jarayon muammolari bilan shug‘ullansa, pedagogika bola tarbiyasi qonuniyatlari bilan mashg‘ulligi ma’lumdir”, deya qayd etilgan. [2, 7] Bu yerda mualliflar sohaning kognitiv xususiyatiga diqqat qilishgan ham oily ta’limda adabiyot ta’limining o‘zak masalalari ana shu ikki soha, pedagogika nazariyasi va adabiyotshunoslik asoslariga tayanishini alohida ta’kidlashgan.

Mummo bo‘yicha N.O‘rinovaning quyidagi ilmiy xulosasi yanada ahamiyatli sanaladi: “… oliy ta’lim tizimiga kreativ kompetentli yondashuvning joriy etilishi ta’lim maqsadi, mazmuni, o‘qitish shakli, o‘qitish usullari, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi munosabatlarida jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shunga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida ta’limni tashkil etishning mavjud shakllari bo‘lgan ma’ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarini mazmun jihatidan o‘zgartirish

nazarda tutiladi. Ma’ruza darslarini muammoli ta’lim shaklida, seminar darslarni kreativ tafakkurni va amaliy mashg‘ulotlarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishligi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz [4, 398-399]. Mazkur fikrlar adabiyotshnoslik fanini o‘qitishning barcha shakllaria yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagog olima N.Jalilova esa didaktikaga quyidagicha ta’rif bergan: “Didaktika (ta’lim nazariyasi: yunoncha — didaktikos o‘rgatuvchi, — didasko esa o‘rganuvchi) pedagogikaning tarkibiy qismi bo‘lib, o‘qitishning shakl, usul va vositalari, mazmun-mohiyati, umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini o‘rganadi.

Didaktikaning umumiy prinsiplarini ko‘rgazmalilik, ta’lim va tarbiyaning birligi, ta’limning uzviyligi va uzluksizligi, ta’limning hayot bilan, ishlab chiqarish amaliyoti bilan birligi kabilar tashkil etadi” .[5, 10]

Biz o‘rgangan manbalardan ma’lum bo‘ladiki, ingliz tili yo‘nalishi talabalariga adabiyotshunoslikni o‘qitish jarayoni yetarli darjada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, pedagogik nuqtai nazardan qaraganda shaxs kamolotining dars jarayonidagi obyektiv va subyektiv xususiyatlari, o‘qitish metodikasining turli shakl hamda usullari haqidagi tadqiqotga ehtiyoj seziladi.

Natija va muhokama Adabiy ta’lim ham aslida pedagogikaning asosiy masalalari doirasida tadqiq etiladi. Lekin unda adabiyotshunoslik va pedagogikaning nazariy asoslari birgalikda tatbiq etilishi lozim. Bundan tashqari, ta’lim oluvchiga amaliy mashg‘ulotlarda berilgan badiiy asar tahliliga ilmiy yondashish va shu orqali ularda badiiy asar ustida ishlash ko‘nikmasini yanada teranroq shakllantirish zarurati mavjud. Shundan kelib chiqilsa, Farg‘ona davlat universiteti filologiya tillarni o‘qitish (inliz tili) fakulteti (bakalavriyat) 1-bosqichida ta’lim rus tilida olib borilgan guruhlar uchun ishlab chiqilgan “Adabiyotshunoslik” fanining ichshi dasturini olamiz. Unda seminar mashg‘uloti uchun jami 15 ta mavzu kiritilgan. 6-mavzu “Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasini tahlili” deb nomlangan.[9,7]

Mazkur mavzuda uchun talabalarda quyidagi kompetensiyalar shakllanishi kerakligi dasturda ko‘rsatilgan. Akademik predmet bo‘yicha aniq bilim va tasavvurga ega bo‘lishi, mustaqil fikr yuritishi va bilimlarini amalda qo‘llay olish; ilmiy-nazariy bilimlarga ega bo‘lishi, asar mavzusi, syujet, kompozitsiyasi kabilar haqida bilishi va amaliy mashg‘ulotlarda ulardan foydalanishni bilishi shartligi ta’kidlangan. Ta’lim texnologiyalari va metodlari sifatida esa interaktiv-tematik tadqiqotlar, muhokama, tezkor savol-javoblar, guruhchalar bilan ishlash, taqdimotlar o‘tkazish, yakka tartibdagi loyihalar ko‘rsatilgan. Yuqoridagi ta’lim texnologiyalarini aniq mashg‘ulot sifatida tashkillash uchun mavzu oldindan talabalarga berilgan bo‘lishi va ular hikoya hamda uning mavzusi, syujeti, kompozitsiyasi va asar tili haqida tushunchaga ega bo‘lishlari zarur bo‘ladi.

Darsning tashkiliy qismidagi vazifalar (salomlashish, vaziyatni o‘rganish, darsga tayyorlikni tekshirish, salomlashish, davomat va h.) amalga oshirilgach, o‘tgan darsda uy vazifa sifatida qanday topshiriq berilgani so‘raladi. Javob: Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasi berilgani olinishi kerak. Dars mashg‘ulotiga talabalar hikoyani o‘qib, nazariy ma’lumotlarni bilib kelishi, zarur qismlarini seminar mashg‘ulotlari daftariga yozib kelishlari lozim bo‘ladi. Shuningdek, tushunmagan so‘zlar, badiiy tasviriy vositalar yoki mikro matnlarni, mummoli joylarni ham daftarlariga keyinchalik aniqlashtirish uchun qayd etib olishlari zarur.

Hikoyani nutqiy talaffuzi namunali bo‘lgan talaba qisqacha bayon qilib beradi. Bunda quyidagi tamoyilga amal qilinishi kerak: “O‘qituvchi ta’lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o‘quvchi, talabaga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o‘quvchi ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ta’limdagi yutuqlar, avvalo, o‘qituvchiga bog‘liq. Mutaxassis sifatida o‘z fanini chuqur bilishi, pedagogik muloqot ustasi bo‘lishi, psixologik-pedagogik va uslubiy bilim va malakalarni egallashi, har xil pedagogik vaziyatlarni zudlik bilan o‘rganishi va baholashi, pedagogik ta’sir ko‘rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlay

olish qobiliyatiga ega bo‘lish kerak.” [8.198-199]. Shu ma’noda yuqorida sanalgan savollarni

talabalar orasida yurib, ularni frontal savollarga javob berishga undash va bir nechta javob variantlaridan eng yaxshilarini saralab olishi hamda yaxshi javob berganlarni o‘sha zahoti og‘zaki (“balli”, “juda to‘g‘ri”, “eng yaxshi javob” deya) rag‘batlantirib borish lozim. Sal shoshib, yoki chala javob berganlarga ham (“yaxshi, lekin to‘liq emas”, “yana to‘ldiring”, “siz bilardingiz-ku!”) tarzda dalda berish kerak. Bu jarayonda savollarni doskaga yozish yoki slaydlarni ko‘rsatish lozim: 1. Mavzu deb nimaga aytiladi? 2. Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasiagi bosh mavzuni ayting. 3.Tekshirilayotgan hikoya syujeti qaysi asar syujetiga yaqin keladi? 4.Hikoya muammosi nimalarda yuzaga chiqqan. 5. Hikoya g‘oyasini ayting. 6. Badiiy asar tahlilining didaktik ahamiyatini ayting.

Talabalar mavzu atamasiga boshqa savollarga quyidagicha javob beradi: 1. “Mavzu (ar. – qo‘yilgan, tartibga solingan) – badiiy mazmun komponenti, asar asosiga qo‘yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma’naviy-axloqiy va h. muammolarni badiiy idrok uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materiali, tema”.[7.158]. 2. Jek Londonning “Hayotga muhabbat” hikoyasidagi mavzu oltin izlovchilardan bo‘lgan kishining tirik qolishi uchun kurashidan iborat. 3. Mazkur hikoyadagi bosh qahramon irodasi, tirik qolish uchun kurashi va oimo oldinga intilishi kabi badiiy g‘oyalari bilan rus yozuvchisi Boris Polevoyning “Chin inson qissasi” nomli asariga tipologik jihatdan yaqin keladi. 4. Favqulodda holatga tushgan inson tabiatning shavqatsiz qoidalariga qarshi o‘zini qanday tutishi, har qanday vaziyatda ham o‘zini yo‘qotmasligi, jismoniy og‘riq va ochlikka qanday sabr qilishi kabilar hikoya muammolar tizimini tashkil qiladi. Hikoyaning bosh g‘oyasi hayotsevarlik bo‘lib, bu g‘oya doimiy kurash, olg‘a intilish, iroda kuchini saqlash kabilar bilan yuzaga chiqqan. Mazkur hikoya o‘quvchiga inson irodali bo‘lishi kerakli, og‘ir sharoitga tushib qolganda ham tirik qolishi va maqsadi sari intilishi kerakligini o‘rgatadi. Bu esa zamonaviy yoshlar orasida iroda kuchi, sog‘lom fikrlash haqida tasavvur bera oladi.

Keyin esa guruh uchta kichik guruhchalarga ajratiladi, bunda adolatli taqsimlanishi uchun har bir talabaga doira, uchburchak, to‘rtburchak shaklidagi rangli qog‘ozchalar tarqatiladi va talabalar ana shu asosda qaytadan joylashib olishadi. “Doira”, “Uchburchak”, “To‘rtburchak” shartli nomdagi guruhchalarga hikoya mazmuniga mos nom tanlanadi. Masalan, “Alyaska”, “Bedford”, “Diz” degan nomlar beriladi. U nomlar bevosita hikoya bilan bog‘liq bo‘lib, Alyaska Jek London ikki yil oltin izlovchi bo‘lib ishlagan Kanada va AQSH chegarasidagi ulkan o‘lka, asosiy hikoyadagi voqea kechadigan joyning umumiy nomini bildiradi. “Bedford” hikoya bosh qahramonini qutqarib qolgan ilmiy ekspeditsiya kemasining nomi, “Diz” esa hikoyada tilga olingan bosh qahramon biladigan daryo nomidan olingan.

Har bir guruhchalarga hikoyada turli vaziyatlarga oid parchalar beriladi va ular mazkur adabiy parchalarni ingliz tilida o‘qib, tahlil qilishadi, tegishli xulosa chiqarishadi. Guruhchalar mustaqil ishlashi uchun besh daqiqa vaqt beriladi. Berilgan topshiriq oxiriga yetgach, guruhdan bir kishi ma’lumotlarni taqdim qiladi. Talabalar parchalar asosida guruh taqdimotini tashkillashadi. Bunga ikki daqiqa vaqt ajratiladi.

Guruhchalarning taxmininiy taqdimotlari: 1. “Alyaska” guruhchasi vakili: “Bizga hikoyaning ekspozitsiyasini tahlil qilish berildi. Avvalo aytish kerakki, asl matndagi hikoyada quyidagi eprigraf keltirilgan:

“This out of all will remain –
They have lived and have tossed:
So much of the game will be gain,
Though the gold of the dice has been lost”. (Bu hammadan ham qoladi – Ulargacha ham ko‘pchilik yashab, o‘tdi: Hayot o‘yiniga katta yutuq qo‘yiladi, Lekin ular seni asrab qolmaydi, garchi oltinlaring bo‘lsa ham”). U hikoyaning asosiy mazmunini ochib beradi. Hikoya ekspozitsiyasida esa daryoga tushib kelayotgan ikki kishi tasviri beriladi. Ular charchagan, yelkalarida katta yuklari bor, ikkalasi ham ketishmoqda. Biri oldinda, ikkinchi esa orqada qolgan. Ekspozitsiyada yana bosh qahramon ismi berilmaydi. Ana shu odam oqsoqlanib suvga tushgani, ulardan biri “Hozir kovakka yashirib qo‘ygan patronimizdan ikki donasi bo‘lsa edi” deydi. Uning ovozida horg‘inlik bo‘lib,

gapi shunchaki hech kimga qaratilmagan edi. Ikkinchisi ham toshdan toshga urilib, sutdek oppoq ko‘piklangan suvga tushar ekan javob bermadi. Suv muzdek sovuq bo‘lsa-da, ortga qaytishmadi, suv shunchalik sovuq ediki, oyoqlari qotib qoldi. Joylarda suv ularning tizzalariga kelar, ikkalasi ham oyoqlari qotib qolganidan gandiraklab zo‘rg‘a ilgarilar edi. Shunday vaziyatlardan birida ortda qolayotgani oyog‘ini to‘pig‘idan qayirib oldi. Og‘riqdan “ih”rab qolib oyog‘ini paypasladi-da, bir daqiqa boshi aylanib turib qoldi. So‘ngra “Bill, chamasi oyog‘imni qayirib oldim shekilli” deya qichqirdi. Lekin oldinda ketayotgan eshitmagan olib javob bermasdan ketaverdi. Endi u narigi qirg‘oqqa chiqib olgan va to‘xtamasdan ketaverdi. Sherigi “Bill” deya qichqirgan, madat kutib qolaverdi. Bu ovoz shunchaki qichqirib emas, balki insoniyat iltijosi edi.

Ekspozitsiyada bosh qahramon tushib qolgan vaziyat, do‘sti uni tashlab ketishi berilar ekan, sovuq va kimsasiz tundra sahrosida bir o‘zi nima qila olishi yoki uni nimalar kutishi haqida vahimalari kechinmasi chulg‘aydi. Shu yerda yozuvchining asosiy maqsadi, syujetning tugun qismi boshlanadi. Muallif inson tabiatga har qancha zulm qilsa ham u indamaydi, lekin inson yovvoyi tabiat bilan yolg‘iz qolganda iroda ko‘rsata oladimi, tabiat bilan uyg‘un bo‘la oladimi” kabi savollar orqali o‘quvchiga ijtimoiy tarbiya va uning shaxs hayotidagi o‘rni haqida didaktik tarbiya beriladi.

“Bedford” guruhchasi taqdimoti: Bizga syujetning tugun qismini tahlil qilish hamda uning badiiy-estetik va didaktik tahlili vazifalarini aniqlash topshirig‘i berilgan. Aslida “tugun – syujetning tarkibiy qismi bo‘lib, unda ekspozitsiya yakunida yuzaga kelgan mummoli, jumboqli vaziyat, holat hamda unda bosh qahramon qanday yo‘l tutishi haqida bayon qilinadi. Bu bir tomondan syujet rivojlanishiga ulanib, asar oldidagi badiiy g‘oyani ochib bersa, ikkinchi tomondan o‘quvchiga ana shunday vaziyatda qanday yo‘l tutish lozimligini o‘rgatadi. Hikoyada yaqin hamkori tashlab ketgan nomsiz qahramon, o‘zini yo‘qotmagani, umidini so‘ndirmagani va ruhan tushkunlikka tushmagani haqida bayon qilinadi. Irodasini ko‘rsatishiga uning bu yerlar haqida tasavvuri borligi edi. Chunki hikoyada uni oldinda kichikroq ko‘l uchrashini bilishi ham ta’kidlab o‘tiladi. “U yolg‘iz qolgan bo‘lsa ham yo‘ldan adashmadi. Yana bir oz yurgandan keyin atrofini pastakkina, nimjon, quruq pixta va archalar o‘rab olgan kichkina Titchinichili ko‘liga yetib borishini bilardi, bu ko‘lning nomi mahalliy tilda “Kichik og‘ochlar o‘lkasi” degan ma’noni anglatardi. Shu ko‘lga bir ariq kelib quyiladi, suvi ham loyqa emas. Ariq bo‘ylarida qamish o‘sadi. Buni u yaxshi eslaydi – lekin u yerda daraxt yo‘q. Shu yerdan g‘arbga tomon boshqa bir ariq oqadi, shu ariq yoqalab u Diz daryosiga qadar boradi. Xuddi o‘sha yerda to‘nkarib, ustiga tosh bostirib qo‘yilgan qayiqni topadi. U qayiqning ostida miltiq o‘qi, qarmoq, qarmoq iplari, kichik bir to‘r, umuman, ovqat topish uchun zarur bo‘lgan narsalarning hammasi yashirib qo‘yilgan. Bundan tashqari, o‘sha yerda oz bo’lsa ham un, bir parcha go‘sht, loviya ham bor. Bill uni o‘sha yerda kutib turadi, keyin ikkisi Diz daryosi bilan Katta Ayiq ko‘liga boradiar, undan keyin ko‘ldan o‘tib janubga, to Makkenzi daryosiga yetib olguncha, janubga qarab boraveradiar.

Ko‘rilgan parchada bosh qahramon irodasi, xayoli, umidlari, ishonchi bayon qilinadi. Tundraning kimsasiz sahrosida charchagan, holdan toygan, buning ustiga och va oyog‘i qayrilgan holda isitma aralash holda tashlab ketilganiga qaramay, u qaysi yo‘l bilan ketish lozimligini biladi. Bu undagi matonatni, hayot va vaziyat murakkabliklarini yengib o‘tishga kuch topa olmoqda. To‘nkarilgan qayiq va yemish bor joyga yetib borishi, hatto, uni tashlab ketgan Billga ham ishonishi yuzaga chiqqan. Billning hiyoti aslida, qo‘rqoqlik va nomardlik ekanligini qabul qilmasdan, hali ham unga ishonib olg‘a intilmoqda. Aslida ana shu ishonch uning kuchiga kuch, tabiat qiyichiliklari – sovuq, tuman, izg‘irin va ochlikka qarshi turish uchun unga umid bergan. Shu yerda hikoya qahramonidagi namunali jihat bu uning umidi so‘nmasligi, qat’iyati va irodasi hamda odam (aniqrog‘i, hiyonatkor, uni tashlab ketgan hamrohi Bill)ga bo‘lgan ishonchi syujetning didaktik ahmiyatini ko‘rsatib, uni talabalarga o‘rgatish, yetkazish ta’limning didaktik ahmiyatini oshiradi. Mazkur parcha syujet tuguni bo‘lib, u metaforik asosda real hayotga aylanishi va hammaga o‘rnak bo‘lishi mumkin.

“Diz” guruhchasining taqdimoti: Bizga berilgan parcha syujetning voqealar rivoji bayon

qilingan. Ya’ni bosh qahramon kimsasiz sahroda, es-hushini yo‘qotgan, harob ahvoldagi tasviri berilgan. Yozuvchi mazkur vaziyatni tasvirlar ekan, asar tiliga diqqat qiladi. Portret usuli yordami personaj ruhiyatini ochib bergan. Xususan, shunday qayd etilgan: “Bir kuni u yassi tosh ustida yotganida hushi o‘ziga keldi. U uzoq vaqtgacha qimirlamay yotdi. Quyosh saxiylik bilan nur sochib, uning ayanchli badanini isitar edi. U ming azob-uqubat bilan bir yonboshiga ag‘darildi”. Keltirilgan parcha bosh qahramon endi yo‘lida adashgan, vaqt hisobini yo‘qotgan, hushidan ketgani, yurolmasdan qolgani, faqat sudralishi mumkinligini tasvirlaydi. Lekin shunda ham quyoshning nuridan badaniga iliqlik kirganinidan bahra olgani ta’kidlangan. Demak, nur bu yerda oddiy peyzaj emas, balki qahramon yuragiga dalda, hayotga chorlovchi kuch sifatida singimoqda.

Eng daxshatlisi uni ortidan bo‘ri ham sudralib kelardi. Bu bo‘ri hikoya boshrog‘idagi bir to‘dadan ajralib, uni ta’qib qilib kelardi. Lekin bo‘ri ham och, holdan toygan va u ham sudralib kelayotgandi. Shu yerda bo‘ri ramziy ma’noda tabiatning odam irodasini sinaydigan timsoli sifatida baholanishi mumkin. Odam va tabiat o‘rtasida tirik qolish uchun kurash boshlangan va bunda qaysi tomonda iroda, ma’naviy jasorat kuchli bo‘lsa o‘sha g‘alaba qozonishiga ishora qilinadi. Darhaqiqat, hikoyada bu ikki obraz o‘rtasidagi kurash insonning g‘alabasi bilan tugaydi.

O‘qituvchi talalabalardan taqdimotlarga qo‘shimcha va to‘ldirishlar bor yoki yo‘qligini so‘raydi hamda tegishli talabalarga yana so‘z beradi, keltirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, fikrini yakunlaydi. Faol talabalar rag‘batlantirilib, ular baholanadi.

Mashg‘ulot davomida talabalar bilan birga Jek Londonning mazkur hikoyasi asosida Robert Gregg tomonidan yozilgan ssenariy bo‘yicha ressiyor Kevin Syugert (Kevin Swegert) ishlagan film (Peter J. Ammel Jek rolida, Stiven DuBois Bill rolida (https://www.youtube.com/watch?v=j6rSFaFRZcs&t=940s)dan parcha ko‘rishadi. Unda hikoyadagi epigraf o‘rniga boshqacha epigraf olingani ta’kidlanadi. Hikoya peyzaj bilan boshlangan va huddi hikoyadagidek ikki oltin izlovchi daryoga tushib kelishi tasvirini kuzatishadi.

Umuman olganda, Jek Londonning “Hayotga muhabbat” nomli hikoyasining asosiy g‘oyasi hayotsevarlik, ma’naviy jasoratni ko‘rsatish, inson har qanday vaziyatda ham umidini so‘ndirmasligi, kurashishi kerakligi g‘oylari ilgari surilgan. Hikoyaning bosh mavzusi oltin izlovchi odamning yolg‘iz qolishi va ana shu vaziyatdagi holati haqidagi voqealarni qamrab oladi. Syujet qurilishi ham xronologik tartibda mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirilgan. Hikoya oxirida bosh qahramonni “Benford” kemasi a’zolari qutqarib qolishadi. Hikoya tahlilida eng muhim jihatlardan biri o‘quvchiga ta’lim va tarbiya beradigan bir qancha qadriyatlar borligi hisoblanadi. Xususan, asar mazmunini aniqlashdagi haqqoniylik, insonparvarlik, hayotsevarlik, tabiat va inson munosabatidagi tenglik tamoyili, tirik qolish, umidni so‘ndirmaslik, eng kichik detaldan ham katta kuch olish insoniy qadriyat darajasiga yetgan bo‘lib, mazkur tamoyillar ta’limning sifati va mazmunini tashkil etadi.

Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ishlashi va faol tarzda fikrlarini bayon qilishga undash, inglizcha matn va kinoni o‘zaro solishtirish orqali mustaqil, ijodiy fikr yuritish va shaxsga xos xususiyatlarni shakllantirishga hissa qo‘shish mumkjnligi darsning yutuqli jihatlarini ochib beradi.

XULOSA. Filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili) mutaxassiliklariga adabiyotshunoslik fanini o‘qitish muammolarini tadqiq etishda, ayniqsa, darsturga kiritilgan Jek Londonning “Hayotgta muhabbat hikoyasi tahlili” orqali talabalarda mutaxassilikka nisbatan iliq munosabatni shakllantirish. Mavzunmi o‘tish jarayonida mavzu mohiyatiga teranroq kirib borish orqali ularda ham mustahkam iroda, umid kabi insoniy fazilatlarning kuch-qudratiga ishonchni shakllantirish. Darsning ta’limiy va didaktik maqsadlari orqali hayotsevarlik, yuksak insoniy fazilatlarga intilishni o‘rgatish imkoni yaratiladi.

Oliy pedagogik ta’limni takomillashtirishda hikoyaning mazmuniy tahlili, ayniqsa, badiiy go‘ya, syujet tarkibiy qismlari talabada didaktik qadriyatlar shakllanishiga yordam berishi, pedagogga esa pedagogik mahoratini oshirishga yordam berishi mumkinligi ilmiy-amaliy jihatdan isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston-Buyuk Britaniya ta’lim forumi” xalqaro anjuman materiallari. 2025.15-16-may. London. https://conference.wiut.uz/uzukedu2025/uz

Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi [Mant] / o‘quv qo‘llanma: - Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 352 b.

Kambarova S.I. Adabiyotni fan va san’at turi sifatida sifatida o‘qitishning konseptual asoslari. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 206 b.

O‘rinova N.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativlik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari / Academic research in educational sciences volume 2. 2021: 5.723. Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-394-399 Academic Research, Uzbekistan. – B.394-399. www.ares.uz

Jalilova N.T. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Science and innovation, 2024. – 228 b.

Рабочая программа по дисциплине «литературоведение». Программа утверждена на совете ФерГУ за протоколом №_1_ от «29 » августа 2024 г. Отрасль знания: 200 000 – Гуманитарные науки и искусства. Отрасль образования: 230 000 – язык. Направление образования: 60230100 - Филология и обучение языкам: (английский язык). – 11 стр.

Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкекнт: Akademnashr, 2013. – 408 б.

Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi (darslik). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 288 b.

Love of Life by Jack London. https://americanliterature.com/author/jack-london/short-story/love-of-life. Saytga oxirgi marta 2026 yil. 4.03 kuni tashrif buyurildi.

UO‘K: 821.512.133.09-1

ALISHER NAVOIYNING KICHIK LIRIK ASARLARIDA PEYZAJ VA PORTRET

Yo‘lchiev Qahhor Vahobovich,
filologiya fanlari doktori, Farg‘ona davlat universiteti professori
Orcid: 0000-0001-7051-2704

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning kichik lirik she’rlari, jumladan, g‘azal, ruboiylarida lirik voqelik tashkillanishida peyzaj va portretsining o‘rni haqida fikr yuritiladi. Kichik lirik janrlar strukturasidagi mazmuniy kompozitsiya, peyzaj, portret vositasida badiiy makon va vaqt birligi yuzaga chiqishi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘z va iboralar: g‘azal, ruboiy, peyzaj, portret, janr, obraz, detal, tezis, lirik voqelik, mazmuniy kompozitsiya.

ПОРТРЕТ И ПЕЙЗАЖ В МАЛЫХ ЛИРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

Юлчиев Каххор Вахобович,
доктор филологических наук, профессор Ферганского государственного университета

Аннотация: В статье рассматривается роль пейзажа и портрета в организации лирической реальности в малых лирических стихотворениях Алишера Навои, таких как газель и рубаи. Показано, как единство художественного пространства и времени возникает посредством осмысленной композиции, пейзажа и портрета в структуре малых лирических жанров.

Ключевые слова и выражения: газель, рубаи, пейзаж, портрет, жанр, образ, деталь, тезис, лирическая реальность, содержательная композиция.

LANDSCAPE AND PORTRAIT IN THE SMALL LYRIC WORKS OF ALISHER NAVOI

Yo‘lchiyev Qahhor Vahobovich,
Doctor science in filology, professor Ferghana State University

Annotation: This article examines the role of landscape and portraiture in organizing lyrical reality in Alisher Navoi’s short lyric poems, such as the ghazal and rubai. It demonstrates how the unity of artistic space and time is achieved through meaningful composition, landscape, and portraiture within the structure of short lyric genres.

Key words and phrases: Ghazal, rubai, landscape, portrait, genre, image, detail, thesis, lyrical reality, meaningful composition.

Kirish. Ma’lumki, adabiyotshunoslik nazakriyasida shakl va mazmun birligi, obraz va obrazlilik kabi masalalar qatorida makon va zamon kategoriyasining ham alohida o‘rni bor. Ijodkor borliq badiiy idrok etar ekan, uni aniq makon va zamon birligida tasavvur etadi. Asarni o‘qigan o‘quvchi ham yaratilgshan badiiy olamni aniq makon va unda kechgan vaqt davomida anglaydi, tushunadi. Badiiy asar, jumladan, o‘zbek mumtoz she’riyatidagi g‘azal, ruboiy kabi kichik lirik janrlar poetik strukturasining shakllanishida badiiy makon va vaqtning o‘rni ahamiyatli bo‘lib, ular asar kompozitsiyasi yaxlitligiga xizmat qiladi, deyish mumkin. SHu ma’nodan kelib chiqilsa, g‘azal va ruboyidagi badiiy makon va vaqtning asar kompozitsiyasini yaratilishidagi o‘rnini ilmiy tadqiq etish dolzarblik kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati va metodologiya

Alisher Navoiy ijodi ko‘plab olimlar ilmiy tadqiqot olib borishgan. Yoqubjon Isoqov dastlabki

tadqiqotida shoir g‘azallari strukturasi va syujeti haqida quyidagilarni yozgan: “Har bir g‘azal (ruboiy ham – Y.Q.) yaxlit bir organizm bo‘lib, uning baytlari bir-biri bilan mantiqan bog‘lanadi. Natijada g‘azalda izchil yo‘nalishga ega bo‘lgan syujet (syujet keng ma’noda) hosil bo‘ladi” [2, 104]. Keyingi monografiyasida “Navoiy nuqtai nazaricha, har bir g‘azal (umuman, har qanday she’r ham) mazmunan tugal va yaxlit bo‘lib, uning strukturasi ham qat’iy mantiq asosida izchil qurilgan bo‘lishi kerak”deb qayod etgan [3, 18].

Darhaqiqat, kichik lirik janrlar mazmunan yaxlit, tugal mazmunga ega bo‘lishi, shuning bilan birga aniq voqelikning tezis va konkret tasviri ixcham peyzaj yoki portret tarzida ham ifodalanishi mumkin. Natija lirik voqelik aniq makon-zamonda namoyon bo‘ladi. Buni Yo.Isxoqov “Matlaning birinchi misrasi tezis xarakterida bo‘lib, unda shoirning asosiy fikri muxtasar ifoda etilgan. Ikkinchi misra esa g‘azalning asosini tashkil etgan ana shu tayanch fikrni zamon va makon jihatidan konkretlashtiradi”, deya o‘z vaqtida qayd etgan[3, 138].

Professor A.Hayitmetov fikricha, «lirik she’rda hamma narsa, har qanday g‘oya, har qanday voqea tasvirlanishi mumkin, lekin u to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki sub’ekt yordamida, inson ichki kechinmasi, shoirning yuragi, fikri, xayoli orqali gavdalantiriladi. Lirikaning shakl jihatdan mo‘‘jaz bo‘lishining sababi shundaki, u hayotda ro‘y bergan voqea va hodisalarning to‘laligicha hammasini emas (uning epik poeziyadan farqi ham shunda), balki uning ma’lum bir qisqa fursatda sub’ektga ko‘rsatgan ta’sirini, shu ta’sir tufayli subyektda qo‘zg‘algan ruhiy kayfiyatni aks ettiradi, xolos» ”[10, 42].

Natija va muhokama.

Olimlar Alisher Navoiy kichik lirik asarlarini, xususan, g‘azal, ruboiylarni tahlil etishar ekan, ulardagi badiiylikning yuzaga chiqishida peyzaj va portret ba’zan badiiy tasvir vositasi, ba’zan esa kompozitsiyom usuli, ba’zan esa obraz sifatida kelishi hamda shu yo‘l bilan ulug‘ shoir badiiy-estetik ideali, ijodiy niyatini aks ettirganini ta’kidlashgan. Alisher Navoiy kichik lirik asarlarida lirik syujet, obraz va badiiy nutq kompozitsiyasini shoir badiiy niyati asosidagi birligini, bunda g‘azalda makon va zamon katerigoriyasining o‘rni borligini uqdirishgan.

Manbalardan aniqlanmoqdaki, Alisher Navoiy she’riyatida peyzaj, portret badiiy vaqt va makon kategoriyasi bilan birga asar kompozitsiyasi, obraz yorqinligi, mazmun teranligini ham ta’minlab kelgan:

Kim dedi mehringni ul mahvashqa ravshan aylagil,
Kuch bila joningg‘a jononingni dushman aylagil.
Ul pari chun bordi, xohi telbalardek dasht tut,
Xoh zuhdu ofiyat kunjini maskan aylagil [8,339].

Birinchi baytda shoir o‘z holatini tahlil etar ekan, bir qarashda uni o‘z mehrini oy yuzliga ochiqlagin deb kim aytdi senga, endi o‘z amaling bilan jononingni joningga dushmanlik qilding, degan sodda ma’noda tushunish mumkin. Ammo bu erdagi “mehr”, “mahvash”, “ravshan” so‘zlari o‘zaro ma’nodosh bo‘lib, mehr ishq, muhabbat, jamol, yorug‘lik, porloqlik ma’nolarini bildiradi. Mahvash esa oydek, oyga o‘xshagan go‘zal, oydek porloq ma’nolarini anglatsa, ravshan yorqin, yorug‘, ochiqlamoq kabi ma’nolarda keladi. Demak, muhabbatni olamga oshkor qilishdan foyda yo‘q, chunki oydinda har qanday narsa ham ko‘rinadi, deya ta’kidlangan. Shoir oydinlik va zulmatni ham o‘zaro ziddiyatga kiritib tasuvvufdagi g‘ofillikni zulmatga, ilmni, ma’rifatni esa oydinga o‘xshatyapti. Ziyoni anglamasang, endi borib dashtdan makon tut, yoki zohidlardek bir burchak (tinchlik, salomatlik kunji)ni makon etdi. Dasht timsol bo‘lib, u foniy dunyoni bildiradi. Botiniy makonda, qalbda ilohiy olamni his etgan oshiqqa bu dunyo go‘yoki, hech narsa o‘smaydigan dashtdek tuyulishiga ishora qilingan. Ritorik so‘roq usuli orqali lirik qahramon ruhiyati, dasht, burchak kabi makoniy detallar orqali esa obraz xarakteriga xos chizgilar berilgan. YA’ni ishq yo‘liga kirgan oshiq yo telbalardek odamlardan uzoqda, dashtda yuradi, o‘zini unutadi, yoki zohid kabi tinchgina ibodatini qilib, iltijo bilan mashg‘ul bo‘ladi. Keltirilgan baytlardagi oshiq va roviyning o‘zaro ichki suhbati lirik syujetning asosini tashkil etgan. SHuningdek, baytlarda istiora

(mahvash), tanosib (mehr, mahvash, ravshan, jon, jonon), tazod (vasl- hijron, nur-zulmat), tamsil (kim dedi ... dushman aylagil, dalillash orqali zimdan o‘xshatish) san’atlari qo‘llanilgan.

Alisher Navoiy kichik lirik janrlarida ham o‘z zamonasi tasvirini ifodalaydi, o‘z obrazi va ruhiy holatini aks ettirish orqali aniq vaqt va makonning shtrixlarini beradi. Masalan, “Olam ahlig‘a necha qildim vafo, ko‘rdim jafo, Ey ko‘ngil, kelgilki, tarki jumlayi olam tutay”[8, 559] degan baytida chuqur ruhiy iztirobni ifodalashda obraz (“olam ahli”) faoliyatining sabab va oqibatlari makon va vaqt kategoriyasining belgilari (uzlat, olam) orqali tasvirlangan. “Bog‘ aro go‘yo sabo solmish edi jonon isi Kim, etishkach gul isi, men toptim andin jon isi” [7, 446] baytida shoir peyzaj orqali ruhiy holatini ochib bergan. YA’ni, bog‘da tonggi shabada go‘yo tiriklik (jonon) isini olib keldiki, natijada men undan jonlandim, hayot mazmunini topdim, deydi. Ammo bu erdagi mazmun hayotsevarlik g‘oyasining oddiy tasviri emas. SHoir tashbih san’ati va ruhiy parallelizm usuli orqali aniq makondagi tabiiy hodisa (tongdagi toza havodan jonlangan kishi)ning tasvirlaydi. Bu bilan botiniy makonning ta’sirli obrazini yaratgan.

Bundan tashqari, matla’ g‘azal matnining keyingi baytlari bilan syujet kompozitsiyasini hosil qilgan. Natijada butun g‘azal yaxlit tizim sifatida o‘ziga xos badiiyat olamini yuzaga keltirgan. Bu, avvalo, Alisher Navoiyning voqelikka badiiy-estetik yondashuv tamoyillaridan kelib chiqsa, ikkinchidan, g‘azal strukturadagi har bir detal lirik kechinma, o‘y-fikrning (syujet) aniq makon yoki vaqtini ifodalashi ham lozim bo‘ladi. Masalan, “YOrdin ayru ko‘ngil mulkedurur, sultoni yo‘q, Mulkkim sultoniy yo‘q, jismedururkim joni yo‘q” ”[8, 270] degan baytida lirik qahramoning hijrondagi iztiroblari tashbih san’ati orqali aniqlashtirilgan. Natijada o‘quvchi sultoni yo‘q mamlakatni xaroba, qarovsiz, parvarishsiz tanani esa jonsizdek tasavvur etadi. Mazkur o‘rinda Navoiy mulkka rahbar, mamlakatga sulton, tirik jonga muhabbat lozimligini ta’kidlagan. Bu erdagi muhabbat aslida dunyoviy tushunchalar bo‘yicha yuksak ideal, tasavvuf nuqtai nazardan esa YAratganga ishora qiladi.

Xususan, Alisher Navoiy g‘azallarida peyzaj, portret usuli orqali aniq makon yoki kishi qiyofasi berilib, ular orqali shoir o‘z badiiy-falsafiy qarashlarini ifodalaganini ko‘rish mumkin:

Zeb erur husn ahlig‘a ahli nazar nazzorasi,

Ko‘zki bulbul tikti gul ruxsori uzra xol erur”[8, 126].

Ma’lumki, tongda ochilgan gul yaprog‘ida tomchi, shudring bo‘lishi tabiat hodisasi sanaladi. Lekin shu erda Alisher Navoiy fikr qiluvchilarning qarashlari husn ahliga chiroy bo‘ladi, go‘yoki, bulbul g‘uncha ochilishini kutib, tuni bilan yig‘lab to‘kkan ko‘z yoshi, tongda go‘zal yaproqdagi xolga aylanib, kishiga zavq bergandek tuyuladi, degan hayotiy haqiqatni ilgari suradi. Muallif go‘zal nigohi, fikri, marhamati, iltifoti bilan boshqalar holi, ishi, kayfiyatini yaxshilash lozimligi haqidagi g‘oyasini peyzaj orqali tasvirlagan.

“To labing shavqidan jismim...” deb boshlanuvchi g‘azalida yorning qizil labi, egma qoshi, zulfi, qora ko‘zi, yuzi, hiloldek qomatini ta’riflar ekan portret usulidan foydalanganini ko‘rish mumkin”[9, 127].

Alisher Navoiy portret usuli orqali kichik she’rda obraz xarakterini ochish yo‘li bilan ruboiy janri imkoniyatlarini kengaytirgan. Quyidagi ruboiyda portret orqali lirik qahramonning ruhiy holati, she’r pafosi yuqori ekanligi ifodalangan bo‘lib, bu erda ham ruhiy parallelizm mavjud:

Ko‘z bila qoshing yaxshi, qabog‘ing yaxshi.

YUz bilan so‘zing yaxshi, dudog‘ing yaxshi.

Eng birla menging yaxshi, saqog‘ing yaxshi,

Bir-bir ne deyin, boshdin ayog‘ing yaxshi ”[6, 765].

Mazkur ruboiyda lirik qahramon ma’shuqasi portretini laff va nashr san’ati yordamida sodda, ammo ta’sirli tarzda ifodalagan. Bunda uning ko‘z, qoshi, labi, dudog‘i, iyagi, yonog‘i ta’riflanadi. Bundan tashqari, bu erda yorning xarakteri, ochiq yuzliligi, ya’ni shirin so‘zlashi ham keltirilgan. Muallif inson qiyofasining barcha qismlariga yaxshi ta’rifini berar ekan, yaxshi so‘zini etti marta takrorlab, o‘ziga xos ma’no kuchaytirishni amalga oshirgan. YAxshi so‘zining takror qo‘llanishi orqali badiiy tafakkur va ohang birligidagi estetik zavq usulini ko‘rsata bilgan.

Lirik qahramon (shoir ham – YU.Q.) ma’shuqa portretini chizishda ishni uning ko‘z, qoshini ta’riflashdan boshlaydi. CHunki ko‘z uzoqdan ham porlab, ko‘zga tashlanib turadi, qosh esa qora bo‘lib, porlagan ko‘z yoki yuz rangi bilan o‘zaro munosabatga kirishib, ulardan o‘zining oq-qoraligi bilan ajralib turadi. YUz va dudog‘ esa rangi o‘zaro yaqinligi, so‘z esa lab orasidan chiqqani uchun ma’shuqa obrazining xarakteriga ham ishora berilgan deyishimiz mumkin.

Ko‘pincha, kichik lirik she’r oniy kechinmaga asoslanadi. SHuning uchun mazkur o‘rindagi portret o‘zgarmas bo‘ladi. Statiklik kichik she’rda tasvirlanayotgan ob’ektning oniy lahzadagi tashqi va ichki qiyofasini ifodalashga, bir vaqtning o‘zida uni tasvirlagan lirik qahramon ruhiyatini ko‘rsatishga ham asos bo‘ladi.

Alisher Navoiy ba’zi ruboiylari strukturasida, avval, peyzaj, so‘ngra tezis keltirishi orqali uslubiy rang-baranglikka erishgan. Masalan,

Ul damki, quyosh ayladi mag‘ribqa ruju’,
Gar suhbat o‘shal quyosh bila topsa vuqu’,
Xushtur qilmoq jom quyoshig‘a shuru’,
Ul damg‘achakim, qilur quyosh jomi tulu’ ”[8, 652].

Bu erdagi ruju’ (murojaat qilish, berilish), vuqu’ (sodir bo‘lish, voqea bo‘lishi), shuru’ (boshlash, kirishish), tulu’ (chiqish, ko‘rinish) so‘zlari ruboiy mazmunining asosini tashkil etmoqda ”[1: 1 t.,84; 2 t., 119, 3 t.223]. Ruboiyning birinchi bandida quyoshning g‘arb tomonga og‘a boshlagan, ya’ni botgan payt o‘shal quyoshdek sanam bilan suhbat sodir bo‘lsa, jom, ya’ni tiriklik mayini ichishga kirishish mumkin to botgan quyosh chiqqunigacha, degan ma’no keladi. Qizig‘i, shoir peyzaj orqali hayotsevarlik orqali g‘oyasini ifodalar ekan, turli so‘z o‘yinlari. Ma’no ko‘chimlar orqali ruhiy kayfiyati balandligini ham ifodalay olgan. Bunda vaqt kategoriyasi orqali badiiy fikrlarini aniq ifodalay olgan.

Boshqa bir ruboiysida esa peyzaj yordamida boshiga tushgan fojea, ya’ni sevgan kishining vafotini ifodalaydi:

Yoshung‘on emish qaro bulutqa mohim,
Gardunni sovurmog‘lig‘ erur dilxohim.
Kirmish qaro tufroqqa quyoshdek shohim,
Nevchun qaro qilmasun quyoshni ohim?! ”[8, 654]

Ruboiydagi oyning bulut bilan yopilishi va undan so‘ng bo‘ron turishi tabiat hodisasi sanaladi. Quyosh botgach ham olam zimiston bo‘lib hamma narsalar qator ko‘rinadi. SHoir tabiatdagi ana shu hodisalarga ruhiy parallelizm, ritorik savol, istiora, tashbih, mubolag‘a orqali yangi ma’no yuklaydi. “Konkret she’rda u yoki bu ta’rifga mos keladigan san’atlar miqdori qancha bo‘lshidan qat’iy nazar, asosiy e’tibor o‘sha san’atlarning bajarayotgan estetik funksiyasiga qaratil”ishi kerak bo‘ladi ”[5, 51]. YA’ni oy qora bulut orqasida o‘tganidek sevgan kishim yo‘q bo‘lgach, nima uchun atrofni chang to‘zonga aylantirmay, quyoshim botdi-ku, endi nega ohim quyoshga etib, uning yuzini qora qilmasin, deydi. Demak, Alisher Navoiy peyzaj, portret usullari qo‘llash bilan ruhiy holatini ham ifodalaydi, o‘zining badiiy-estetik tamoyillarini ham ifodalaydi.

Alisher Navoiy she’rlarida badiiy vaqt va makon birligini ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalari ba’zan vaqtni, ba’an esa makonni ifodlash jihati bilan etakchilik qiladi. Masalan:

Har kun aqshomg‘a hajringda menga zorlig‘ ish,
Kecha tong otg‘ucha anduh ila bedodlig‘ ish ”[9, 237].

Baytda “har kun aqshomg‘a”, “kecha tong otg‘ucha” jumlalari aniq vaqtni ifodalaydi. YA’ni lirik sub’ekt kunduz kunlari oqshomg‘acha, kechalari esa tonggacha ma’shuqasining hajrida zor, anduh chekishi ta’kidlangan. YA’ni lirik sub’ekt o‘zining dardini bayon qilar ekan, voqelikda vaqt birlamchi ekanligini ta’kidlaydi. Ba’zan esa birinchi galda ruhiy holat (botiniy makon) ifodalanganini ham buni kuzatish mumkin:

Hajrkim har dam meni bevahmu bok aylar halok,
Gar munga rozidur ul xunrez bebokim ne bok” [9, 286].

Baytda “hajr” so‘zi etakchilik qilib, lirik vaqtni ifodalovchi “har dam” birikmasi ikkilamchi o‘rinda kelgan.

Alisher Navoiy lirikasini kuzatgan o‘quvchi tong, yo‘l, dahr, kecha, tun, olam kabi makon va vaqtni belgilovchi detallardan samarali foydalanganiga guvoh bo‘ladi. Natijada lirik sub’ektning kechinmalari o‘quvchi ko‘z o‘ngida aniq zamon va makonda namoyon bo‘ladi. SHoir turli lirik kechinmalarni kuylar ekan, lirik sub’ekt ichki olamini imkon darajada aniqroq, konkretroq tasvirlashga harakat qiladi. Bunda lirik voqelikni aniq vosita yordamida ifodalaydi. Turli badiiy san’atlar ham aniq zamon yoki makon chegarasida ishlatiladi. Masalan,

Hajring kunin bir yilchavu har soatin bir oycha bil,

Hayrat mahalli bo‘lmag‘ay o‘n ikki oy gar bo‘lsa yil ”[7, 266].

Mazkur matla’da lirik sub’ekt vaqt tushunchalari ostida o‘z holatini ifodalar ekan, mubolag‘a san’atidan foydalangan. Hajrda o‘tgan bir kunni bir yil, har soatin oycha deb bil, gar uni kutish vaqtidi o‘n ikki oy, ya’ni yil bo‘lsa-da, qalbga hayrat solmaguncha hayrat vaqti bo‘lmaydi. Bu erda shoir vaqt birliklari orqali lirik qahramonning hijrondagi og‘ir daqiqalarini tasvirlar ekan, ularning bir kuni – yil, bir soati – bir oyga barobar deb baholashni, bunday taqqosdan hayratga tushmaslikni ta’kidlamoqda. SHu ma’noda baytdagi vaqt birliklari oshiqning hijrondagi iztiroblari, azoblarini bildirishidan kishi hayratlanmasligini, zero, o‘n ikki soat o‘n ikki oyga teng bo‘lsa, bir ekanligidan hech kim hayratlanmasligini ta’kidlagan. Bu erda shoirning asosiy maqsadi, ruhiy holat tasvirini aniqroq ko‘rsatish, yangicha ifodalashga, hayot qiyinchiliklarini, oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi bunday holatlarni to‘g‘ri tushunishga undashdan iborat.

Xulosa. Maqoldagi mulohaza va tahlillardan ma’lum bo‘lmoqdaki, g‘azal, ruboiy kabi mumtoz janrlar strukturasi, mazmuniy kompozitsiyasi tashkillanishida badiiy makon va vaqt kategoriyasi ishtirok etadi. Bunda muallif makon doirasida peyzaj va portret usulidan samarali foydalangan. Natijada lirik she’r badiiyatini o‘quvchi tasavvurida qayta tiklanishida va lirik voqelikni idrok etilishida peyzaj va portret muhim o‘ringa ega bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. To‘rt tomlik. 1-,2-3- tomlar. – Toshkent: Fan, 1983-1984. – Birinchi tom. – 652 b. ; ikkinchi tom. – 636 b.; uchinchi tom. – 624 b.

Isoqov YO. Alisher Navoiyning ilk lirikasi. – Toshkent: Fan, 1965. – 140 b.

Ishoqov YO. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan. 1983. – 168 b.

Quvvatova D.H. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek dostonchiligining taraqqiyot xususiyatlari. Fil. fan. dok. dissetratsiyasi. 2016. – 267 b.

Mamajonov Z. Mumtoz she’riy san’atlarning nazariy tasnifi. – Toshkent: Akademnashr, 2016. – B.51.

Navoiy Alisher. Qaro ko‘zim. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987. – 768 b.

Navoiy, Alisher. MAT. Yigirma tomlik Beshinchi tom. Xazoyin ul-maoniy. Badoe’ ul-vasat. – Toshkent: Fan, 1990. – 544 b.

Navoiy, Alisher. MAT. Yigirma tomlik Birinchi tom. Badoyi’ ul- bidoya. – Toshkent: Fan, 1987. – 724 b.

Navoiy, Alisher.MAT. Yigirma tomlik. Ikkinchi tom.Navodur un-nihoya. – Toshkent: Fan, 1987. – 626 b.

Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2015. – 328 b.

BOSHLANG`ICH SINFLARDA INGLIZ TILIDAGI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

G`ulomova Moxinur Inomjon qizi.
Namangan davlat universiteti 2-kurs doktoranti

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ingliz tilidagi multimedia vositalaridan foydalanib kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasini takomillashtirish zarurati mavjud. Ushbu maqolada 4-sinf o‘quvchilarining ingliz tili fanidagi kommunikativ kompetensiyasini multimedia vositalari yordamida shakllantirish formulasini yaratish maqsad qilib olindi. Tajriba-sinov ishlari uchun Namangan shahridagi 6-maktabning 54 nafar (Tajriba guruhi N=28, Nazorat guruhi N=26) boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tanlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalari (Duolingo, Kahoot, YouTube) faol qo‘llanilgan tajriba guruhida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiya darajasi dastlabki holatga nisbatan 105% ga (2.1 balldan 4.3 ballgacha) o‘sgan, nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich atigi 41% ni tashkil etgan ($p < 0.01$). Bu esa multimedia integratsiyasiga asoslangan metodikaning an’anaviy usullarga qaraganda ancha samarali ekanligini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, multimedia vositalari, muloqot, rolli videolar, Kahoot, pedagogik multiplikat.

FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH IN PRIMARY CLASSES

Gulomova Mokhinur Inomjon kizi.
Namangan State University 2nd year doctoral student

Annotation. There is a necessity to improve the methodology for developing communicative competence in primary school students using English-language multimedia tools. This article aims to create a formula for forming 4th-grade students’ communicative competence in English through multimedia integration. Primary school students from School No. 6 in Namangan city were selected for the experimental study, involving 54 students (Experimental group N=28, Control group N=26). The results indicate a significant difference between the control and experimental groups. In the experimental group, the growth of communicative competence was substantially higher, showing a 105% increase compared to the initial stage ($p < 0.01$), proving the effectiveness of the integrated multimedia approach.

Keywords: communicative competence, multimedia tools, communication, role-play videos, Kahoot, pedagogical multiplier.

ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Гуломова Мохинур Иномжон кизи
Наманганский государственный университет Докторант 2 курса

Аннотация. Существует необходимость в совершенствовании методики формирования коммуникативной компетенции учащихся начальных классов с использованием мультимедийных средств на уроках английского языка. Данная статья направлена на создание формулы формирования коммуникативной компетенции учащихся 4-х классов по английскому языку посредством интеграции мультимедиа. Для проведения экспериментально-испытательной работы были выбраны учащиеся начальных классов школы №6 города Намангана (N=54; экспериментальная группа — 28, контрольная группа — 26). Показатели контрольной и экспериментальной групп значительно различаются.

Результаты показали, что в экспериментальной группе уровень владения коммуникативной компетенцией вырос на 105% (p < 0.01), что подтверждает высокую эффективность разработанной методики.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, мультимедийные средства, общение, ролевые видеоролики, Kahoot, педагогический мультипликатор.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim (xususan, CEFR, CLT — Communicative Language Teaching) faqat til qoidalarini o‘rgatishdan ko‘ra, real hayotda ishlatishga yo‘naltirilgan[8]. O‘zbekistonda ham xorijiy tillar va ona tili o‘qitishda kommunikativ yondashuv kuchaymoqda, chunki bitiruvchilarning faqat “bilimi” emas, balki “muloqot qila olishi” muhim[3].

Respublikamizda ta`lim tizimida chet tillarni, ayniqsa, ingliz tilini takomillashtirish uchun yoshlarimizning bilim va ko`nikmalarini oshirish yuzasidan bir nechta islohatlar amalga oshirilgan. Shu jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Mamlakatimizda bir nechta xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo`yicha ilmiy ishlar olib borish, til o`rgatish metodologiyasini takomillashtirish lozimligi” kabi topshiriqlar aytib o`tildi. O`zbekiston Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O`zbekiston Respublikasi xalq ta`limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi qarorlari boshlang`ich ta`limdanoq bolalarni ingliz tilidagi kommunikatsiyasini shakllantirishning ahamiyatli ekanini ko`rsatadi[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahliliy va metamatik-semantik tahlil metodlaridan foydalanilgan. O`zbek, rus va xorijiy dissertatsiyalar va ilmiy-pedagogik qo`llanmalar tahlil qilindi. Kommunikativ kompetensiyaning birinchi keng qamrovli modeli bo’lib, u ham o’qitish, ham baholash maqsadlariga xizmat qilish uchun mo’ljallangan bo’lgan Canale & Swain (1980) modeli hisoblanadi, keyinchalik u Canale (1983) tomonidan yanada ishlab chiqilgan[4]. Ushbu model kommunikativ kompetensiyaning to’rt komponentini taklif etgan: Grammatik kompetensiya — til kodini bilish (grammatik qoidalar, so’z boyligi, talaffuz, imlo va hokazo). Sotsiolingvistik kompetensiya — til ishlatishning sotsiomadaniy kodini o’zlashtirish (berilgan vaziyatda so’z boyligi, registr, xushmuomalalik va uslubni mos ravishda qo’llash). Diskurs kompetensiyasi — til tuzilmalarini turli xil bog’langan matnlarga (masalan, siyosiy nutq, she’riyat) birlashtirish qobiliyati. Strategik kompetensiya — og’zaki va og’zaki bo’lmagan kommunikatsiya strategiyalarini bilish, ular zarur bo’lganda kommunikatsiya samaradorligini oshiradi va kommunikatsiya uzilishlari yuz berganda o’quvchiga qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Yuqoridagi leksik bilimlar asosida boshlang`ich sinflar o`quvchilarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish formulasini ishlab chiqildi va bu tajriba-sinov uchun foydalanildi. Boshlang`ich sinflar o`quvchilarining ingliz tilidagi bu modelning asosiy formulasi:

KK = (M + R + I + O + B) × PM.

Bu yerda: M – Motivatsiya: O‘quvchilarning rus tilini o‘rganishga qiziqishi, real hayotiy vaziyatlar, o‘yinlar, individual va guruhli faoliyatlar orqali yaratiladi[3]. R – Real (haqiqiy): Ingliz tilidagi haqiqiy hayot materiallaridan foydalanish (gazeta, jurnal, video, qo‘shiqlar, filmlar) – tabiiy til muhitiga yaqinlashtirish[4]. I – Interfaol (o‘zaro ta’sir): Rolli o‘yinlar, suhbatlar, munozaralar, juftlik va guruh ishlarida faol ishtirok etish orqali real muloqotni rivojlantirish. O – Individualizatsiya: Har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini (bilim darajasi, qobiliyati, qiziqishi) hisobga olgan holda individual yondashuv. B – Baholash: O‘quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini ob’ektiv va real baholash – testlar, ochiq javoblar, suhbat bahosi, portfolio, loyihalar va boshqalar. PM – Pedagogik mahorat: O‘qituvchining kommunikativ metodlarni innovatsion tarzda qo‘llashdagi professional mahorati va ijodkorligi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Yuqoridagi formuladan foydalangan holda dars o`tiladi. Ular 4-sinf Guess What Student`s bookga asoslanadi. 1-unit «Fun sports» bo‘yicha to‘liq dars ishlanmasi (lesson plan). Dars CLIL (Content and Language Integrated Learning) tamoyiliga

asoslangan, ya’ni fizika tarbiyasi (Physical education) bilan integratsiya qilingan[7].

Dars mavzusi: Fun sports / Qiziqarli sport turlari.				
Dars davomiyligi 45-50 daqiqa.				
Maqsadlar (Objectives): Yangi so‘zlarni o‘rganish va ishlatish (fishing, ice-skating, skateboarding, skiing, snowboarding, sailing, kayaking, bowling, mountain biking); "be good at / not good at + V-ing" grammatikasini o‘rganish va gaplarda qo‘llash; Do'stlar bilan suhbatlashish orqali speaking ko‘nikmasini rivojlantirish; CLIL: Jismoniy harakatlar va sport turlari haqida ingliz tilida gapirish				
Kerakli materiallar: Proyektor yoki doska (rasmlar uchun);Sport turlari rasmlari yoki video qisqa parchalar (skiing, skateboarding va h.k.);Kichik kartochkalar (flashcards) – har bir sport turi uchun;Worksheet (print qilish uchun): matching, fill in the blanks;Tayoqcha yoki to‘p (miming o‘yini uchun);				
Dars rejasi (Procedure):				
Vaqt	Bosqich	Faoliyat	Maqsad	Tashkillashtirish
3-5 min	Warm-up / Greeting	- "Hello everyone! How are you today?"- "Do you like sports? What sports do you know?" (o‘zbekcha yoki inglizcha qisqa javoblar)	Suhbatni boshlash, oldingi bilimlarni faollashtirish	Whole class
7-8 min	Presentation / Vocabulary	- Yangi so‘zlarni ko‘rsatish (rasmlar yoki qisqa video orqali): fishing, ice-skating, skateboarding, skiing, snowboarding, sailing, kayaking, bowling, mountain biking- Har bir so‘zni talaffuz qilish + repeat after me- "This is skiing. Skiing is fun in winter!"	Vocabulary: sport turlari Pronunciation	T-S → S-S
8-10 min	Controlled Practice (Grammar)	- Grammatika qoidasi: "be good at + V-ing" / "not very good at + V-ing"Misollar doskada:• I am very good at skiing.• She isn't very good at bowling.• He is good at playing the guitar.• What are you good at?• Are you good at sailing? Yes, I am. / No, I'm not.- O‘quvchilar repeat va o‘zlariga misol keltirishadi	Grammar: be good at + V-ingQuestion form: Are you good at…?	Whole class + individual
10-12 min	Freer Practice / Speaking	Find someone who… o‘yini (mingling activity)Worksheetda: Find someone who…• … is good at skiing.• … is not good at bowling.• … likes mountain biking.• … can skateboarding.O‘quvchilar sinf bo‘ylab yurib, savollar berishadi va ism yozishadi.	Speaking: Are you good at…? Yes/No + more infoListening	Pair / Group work
8-10 min	CLIL + Fun activity (PE)	Sport mime game (jismoniy harakatli o‘yin)- O‘quvchi kartochka oladi va so‘zsiz harakat bilan sport turini ko‘rsatadi (masalan, skiing – qo‘llar bilan tayoq ushlab siljiydi).- Sinf taxmin qiladi: "Are you skiing? Are you good at skiing?"- Eng yaxshi mimelar uchun stiker yoki ball berish mumkin.	CLIL: Physical educationBody movements + vocabulary + grammar	Whole class + volunteers
5-7 min	Production / Wrap-up	- "What are you good at?" – har bir o‘quvchi 1-2 jumlada javob beradi.- "What sport do you want to try?"- Uy vazifasi: 5 ta o‘zingiz yaxshi biladigan sport turi haqida yozing (I'm good at… / I'm not good at…) + rasm chizish yoki internetdan rasm topish.	Freer speaking Personalization	Whole class


Ushbu dars o‘quvchilarni faol ishtirok ettirishi, harakat bilan birga ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni tekshirildi.

Natijalar va muhokamalar.

Tajriba 4-sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazildi. Tajriba guruhida 4-a sinfda – N=28, va 4-b sinfda nazorat guruhi – N=26; jami 54 nafar o‘quvchi ishtirok etdi va bu tajriba 2025-yil noyabr va dekabr oylarida davom etdi. Tajriba guruhi darslarda multimedia vositalari (Duolingo, Kahoot, YouTube qisqa videolari, interaktiv rasmlar, animatsiyali hikoyalar, ovozli mashqlar va boshqalar) faol qo‘llanildi[5]. Nazorat guruhi esa an’anaviy usullar (darslik, doska, oddiy audio va boshqalar) bilan ish olib bordi[2].

Kommunikativ kompetensiya (KK) darajasi quyidagi formula asosida baholandi: KK = (M + R + I + O + B) × PM. Har bir komponent 1-5 ballik shkala bo‘yicha baholandi. Tajriba boshida va oxirida o‘tkazilgan testlar natijalari (masalan, og‘zaki gapirish, tinglab tushunish, leksika va grammatika ishlatish, real suhbatdagi faollik bo‘yicha).

1-jadvalda tajriba va nazorat guruhlarining 2025-yil oktabr oyidagi foydalanilayotgan vositalari.



2-jadval. Tajriba va nazorat guruhidagi o`sishlar.

2-jadval. Tajriba va nazorat guruhidagi o`sishlar.

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (Experimental)	Nazorat guruhi (Control)
Dastlabki natija	2.1 ball (42%)	2.2 ball (44%)
Yakuniy natija	4.3 ball (86%)	3.1 ball (62%)
O'sish sur'ati (%)	+105%	+41%
Statistik farq	$p < 0.01$ (Muhim)	-

Tajriba guruhi o‘quvchilarining o‘sishi nazorat guruhiga nisbatan 2,5 baravar yuqori chiqdi. Alohida komponentlar bo‘yicha o‘sish:

3-jadval. Tajriba guruhi komponentlari bo'yicha o'sish tahlili.

Komponent	Turi	O'sish (%)	Izoh
Motivatsiya (M)	Ruhiy-pedagogik	+140%	O‘quvchilar darsga juda qiziqib kela boshladi.
Interaktivlik (I)	Metodik	+120%	Darsdagi o'zaro aloqa va faollik darajasi.
Real materiallar (R)	Didaktik	+95%	Amaliy va hayotiy misollardan foydalanish.

Xulosa: PM (Pedagogik mahorat) ko’rsatkichi yuqori bo’lgani uchun umumiy multiplikat kuchaydi va komponentlar bir-birini to’ldirdi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalari asosidagi integratsiyalashgan metodika boshlang‘ich sinflarda ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda an’anaviy usullarga nisbatan ancha samaraliroqdir. Motivatsiya o‘sishi – Duolingo, Kahoot kabi o‘yinlashtirilgan platformalar va qisqa YouTube videolari o‘quvchilarda ingliz tiliga qiziqishni keskin oshirdi[6]. Bu M komponentining kuchayishiga olib keldi va formula bo‘yicha umumiy KK ni sezilarli darajada ko‘tardi. Fonologik va leksik bazaning mustahkamlanishi – Animatsiyali hikoyalar va o`yinlar, slow English videolari va ovozli takrorlash mashqlari orqali talaffuz (pronunciation) va so‘z boyligi yaxshilandi[5]. Bu R va I komponentlarining o‘sishida yaqqol namoyon bo‘ldi. Real hayotiy stsenariylar – Interaktiv vazifalar (masalan, “role-play” videolar asosida) o‘quvchilarga madaniy kontekstda gaplashishni o‘rgatdi. Bu sotssiolingvistik va strategik kompetensiyalarni rivojlantirdi. Formula samaradorligi – KK = (M + R + I + O + B) × PM formulasining amaliy qo‘llanilishi tajriba davomida o‘zini oqladi. PM ko‘rsatkichi (o‘qituvchi multimedia bilan ishlash malakasi) yuqori bo‘lganda o‘sish tezroq kechdi. Agar PM past bo‘lsa (masalan, texnik muammolar yoki tayyorgarlik yetishmasligi), natija sekinlashdi.

XULOSA. O‘tkazilgan pedagogik tajriba va olingan natijalar tahlili quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Multimedia vositalarining ustuvorligi. Tajriba guruhida qo‘llanilgan Duolingo, Kahoot va YouTube kabi multimedia vositalari an’anaviy metodikaga nisbatan o‘quv samaradorligini 2,5 baravarga (o‘sish sur’ati +105%) oshirdi. Bu ko‘rsatkich boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vizual va audio materiallarga bo‘lgan ehtiyoj yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Komponentlararo sinergiya. Tajriba guruhida motivatsiyaning 140% va interaktivlikning 120% ga o‘sishi o‘quvchilarning dars jarayoniga faol jalb etilganligidan dalolat beradi. Formula tarkibidagi motivatsiya (M) va interaktivlik (I) komponentlarining keskin ortishi umumiy

kommunikativ kompetensiyaning jadal shakllanishiga asosiy turtki bo‘ldi.

Pedagogik multiplikatning o‘rni. Tadqiqotda aniqlangan eng muhim jihat shuki, PM (Pedagogik multiplikat) koeffitsiyenti barcha boshqa ko‘rsatkichlar samarasini oshiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ldi. O‘qituvchining multimedia vositalari bilan ishlash mahorati yuqori bo‘lganida, o‘quvchilarning natijalari maksimal ko‘rsatkichga (4.3 ball) yetdi.

Multimedia integratsiyasi nafaqat nazariy bilimlarni, balki real hayotiy stsenariylar va rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning talaffuzi (pronunciation) va strategik kompetensiyasini ham mustahkamladi. Multimedia vositalari asosidagi integratsiyalashgan metodika boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ingliz tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda an’anaviy usullardan statistik jihatdan ($p < 0.01$) samaraliroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-5117-son qarori.

Jalolov J. J. Chet til o’qitish metodikasi (Foreign language teaching methodology). – Toshkent: O’qituvchi, 2012. – 432 b.

Passov E. I. Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniyu. – Moskva: Prosveщenie, 1991. – 223 s.

Hymes D. On Communicative Competence. In J.B. Pride and J. Holmes (eds.), Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – pp. 269-293.

Kapp K. M. The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. – Pfeiffer, 2012. – 336 p. (Kahoot va o’yinlashtirish metodikasi uchun).

Mayer R. E. Multimedia Learning. – Cambridge University Press, 2009. – 316 p. (Multimedia vositalari nazariyasi uchun).

Isroilova M. N. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining ingliz tili darslarida multimedia texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi. // «Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar» jurnali. – 2023.

Common European Framework of Reference for Languages (CEFR): Learning, teaching, assessment. – Cambridge University Press, 2001.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

PEDIATRIYA FANINI O‘QITISHDA DALILLARGA ASOSLANGAN TIBBIYOT TAMOYILLARINI INTEGRATSIYA QILISHNING TIBBIYOT TALABALARINING BILIM NATIJALARIGA TA’SIRI: FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI MISOLIDA

Akhmadalieva Maftuna Abdumanon qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada pediatriya fanini o‘qitish jarayoniga dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarini integratsiya qilishning tibbiyot talabalari bilim natijalariga ta’siri yoritiladi. Tadqiqot Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 4-bosqich talabalar ishtirokida nazoratli kvazi-eksperimental ko’rinishida o‘tkazilgan bo‘lib, dalillarga asoslangan tibbiyot integratsiyalashgan o‘qitish yondashuvi an’anaviy ma’ruza-markazli ta’lim bilan qiyosiy tahlil qilingan. Maqolada ayniqsa klinik savollarni PICO asosida tuzish, ilmiy adabiyotlarni maqsadli qidirish, topilgan dalillarni kritik baholash, hamda dalillarni klinik holat muhokamalariga tatbiq etish kabi komponentlarga e’tibor qaratiladi. Natijalar dalillarga asoslangan tibbiyot integratsiyasi talabalar bilimini o‘zlashtirish darajasi, dalillarni talqin qilish ko‘nikmalari va klinik fikrlash sifatini sezilarli yaxshilashini ko‘rsatadi. Olingan xulosalar pediatriya ta’limida dalillarga asoslangan tibbiyotga yo‘naltirilgan o‘qitish strategiyalari kompetensiyaga asoslangan, zamonaviy klinik qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi samarali pedagogik yondashuv ekanini asosladi.

Kalit so‘zlar: pediatriya ta’limi, dalillarga asoslangan tibbiyot (EBM), EBM-integratsiya, kvazi-eksperimental tadqiqot, PICO, kritik baholash (critical appraisal), adabiyot qidirish, klinik fikrlash, bilim natijalari, tibbiyot talabalari.

KIRISH. Tibbiy ta’lim kompetensiyaga asoslangan va dalillarga tayanadigan o‘qitish yondashuvlari tomon paradigmal siljishni boshdan kechirmoqda. Dalillarga asoslangan tibbiyot— eng yaxshi ilmiy dalillarni klinik tajriba va bemor qadriyatlari bilan vijdonan uyg‘unlashtirish — sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish uchun fundamental hisoblanadi. Shunga qaramay, ko‘plab muassasalarda pediatriya ta’limi hanuz ma’ruza-markazli bo‘lib, kritik baholash va dalillarni amaliyotga tatbiq etishdan ko‘ra yodlashga ko‘proq tayanadi[1–4].

Xalqaro tadqiqotlar dalillarga asoslangan tibbiyotga erta ekspozitsiya tibbiyot talabalarining tahliliy ko‘nikmalari, bilimni saqlab qolish va klinik qaror qabul qilish salohiyatini yaxshilashini ko‘rsatgan. Biroq Markaziy Osiyo tibbiyot muassasalarida pediatriya bakalavriat o‘quv dasturlariga dalillarga asoslangan tibbiyotni tizimli integratsiya qilish hali ham yetarlicha rivojlanmagan[7–8].

Pediatriya dalillarga asoslangan tibbiyotni o‘rgatish uchun ayniqsa dolzarb yo‘nalishdir: klinik qo‘llanmalar tez-tez yangilanadi, diagnostika murakkab, bemorlar esa himoyaga muhtoj. Shu bois pediatriya ta’limiga dalillarga asoslangan tibbiyotni integratsiya qilish akademik natijalar va kelajakdagi klinik kompetensiyani sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin[5–6].

Ushbu tadqiqotning maqsadi Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 4-bosqich talabalarda dalillarga asoslangan tibbiyot integratsiyalashgan pediatriya ta’limining bilim natijalariga ta’sirini baholashdan iborat.

TADQIQOT USULLARI. Tadqiqot dizayni va o‘tkazilgan joyi. Akademik yil davomida Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida — bakalavriat shifokorlari tayyorlashga mas’ul ta’lim muassasasida — nazoratli kvazi-eksperimental ta’limiy tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqot 4-bosqich talabalarning pediatriya klinik ta’limi dasturi doirasida amalga oshirildi. Dastur nazariy mashg‘ulotlar va nazorat ostidagi klinik amaliyotni o‘z ichiga oladi.

To‘liq randomizatsiyani cheklovchi institutsional omillar sabab kvazi-eksperimental dizayn

tanlandi; bu dizayn ta’limiy intervensiyalar amaldagi akademik tuzilmalar ichida joriy etiladigan holatlarda keng qo‘llanadi. Ichki validlik va qayta tiklanish (reproduktivlik)ni ta’minlash maqsadida ta’limiy intervensiya tadqiqotlariga oid tan olingan metodologik standartlarga amal qilindi.

Ishtirokchilar va tanlab olish. Tadqiqot populyatsiyasini o‘qish davrida pediatriya klinik kurslarida faol qatnashayotgan Pediatriya fakulteti 4-bosqich talabalari tashkil etdi. Namuna hajmi (n=110) kohorta mavjudligi hamda adabiyotlarda keltirilgan, bilim darajasidagi mazmunli farqlarni aniqlash uchun yetarli statistik quvvatni ta’minlagan o‘xshash ta’limiy intervensiya tadqiqotlari asosida belgilandi.

Talabalar tadqiqot maqsadi, jarayonlari va etik kafolatlar (maxfiylik, ixtiyoriylik, chiqib ketish huquqi) tushuntirilgan e’lonlar va auditoriya brifinglari orqali jalb qilindi. Ishtirok etish ixtiyoriy bo‘lib, ro‘yxatdan o‘tish yoki chiqib ketish akademik rag‘bat yoki jazoga sabab bo‘lmadi.

Kiritish va chiqarish mezonlari. Kiritish mezonlari ta’limiy ekspozitsiya bir xilligi va bazaviy kompetensiyani ta’minlash uchun belgilandi:

• Pediatriya fakulteti dasturining 4-bosqichida rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lish

• Intervensiya davrida pediatriya klinik mashg‘ulotlarida muntazam qatnashish

• Yozma ravishda xabardor rozilik berish

Chiqarish mezonlari avvalgi dalillarga asoslangan tibbiyot tajribasi yoki to‘liq bo‘lmagan ta’limiy ishtirok bilan bog‘liq chalg‘ituvchi omillarni kamaytirishga qaratildi:

• Dalillarga asoslangan tibbiyot bo‘yicha rasmiy sertifikat dasturlari, trening kurslari yoki seminarlarda avval qatnashgan bo‘lish

• Darslarga muntazam kelmaslik yoki pediatriya mashg‘ulotlaridan uzoq muddatli sababsiz qolish

• Tadqiqotning istalgan bosqichida ixtiyoriy ravishda chiqib ketish

Guruhlarga taqsimlash va ta’lim tuzilmasi. Ishtirokchilar institutdagi amaldagi akademik guruhlash tizimiga muvofiq ikki kohortaga ajratildi; bu dars jadvalini buzmasdan intervensiyani joriy etishga yordam berdi:

• Intervensiya guruhi (dalillarga asoslangan tibbiyot integratsiyalashgan ta’lim): pediatriya mashg‘ulotlarida dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillari tizimli qo‘llandi.

• Nazorat guruhi (an’anaviy ta’lim): darslar odatiy ma’ruza va o‘qituvchi izohi asosida, asosan darslik bilimiga tayangan holda olib borildi.

O‘qituvchi omiliga bog‘liq og‘ishni kamaytirish uchun har ikki guruhga akademik tajribasi o‘xshash professor-o‘qituvchilar dars berdi. Mavzular mazmuni ikki guruhda ham bir xil bo‘ldi, farq faqat o‘qitish metodikasida namoyon bo‘ldi.

Ta’limda intervensiya. Intervensiya alohida modul sifatida emas, balki pediatriya darslarining kundalik jarayoniga dalillarga asoslangan tibbiyotni tizimli integratsiya qilish tarzida ishlab chiqildi; bu pedagogik autentiklik va klinik relevatlikni ta’minladi.

Asosiy komponentlar:

• Klinik savolni shakllantirish: talabalar klinik mashg‘ulotlarda uchragan real pediatrik holatlarga asoslanib PICO (Patient/Problem, Intervention, Comparison, Outcome) doirasida strukturali savollar tuzishga o‘rgatildi.

• Dalillarni qidirish ko‘nikmalari: yo‘naltirilgan seminarlar orqali PubMed va Cochrane Library kabi biomedicina bazalari tanishtirildi. Talabalar kalit so‘z tanlash, Boolean operatorlari (AND, OR, NOT) va filtrlardan foydalanib sifatli dalillarni topishni mashq qildi.

• Kritik baholash (critical appraisal): nazorat ostida RCTlar (randomizatsiyalangan nazoratli tadqiqotlar), sistematik sharhlar va klinik qo‘llanmalar tahlil qilindi. Validlik, og‘ish va klinik qo‘llanish imkonini baholash uchun standart appraisal vositalari qo‘llandi.

• Klinik kontekstda qo‘llash: dalillar pediatriya holat muhokamalariga kiritilib, talabalar diagnostika va davolash qarorlarini nashr etilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan asoslab berdi.

• Formatif mini-baholashlar: qisqa reflektiv topshiriqlar va dalil xulosalari o‘tkazilib,

o‘rganishni mustahkamlash hamda kompetensiya rivojini monitoring qilishga xizmat qildi.

Intervensiya ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish uchun to‘liq akademik semestr davomida amalga oshirildi.

Ma’lumotlarni yig‘ish usullari. Bilim natijalari multimodal baholash strategiyasi orqali o‘lchandi:

• Standartlashtirilgan pediatriya bilim imtihoni: o‘quv dasturi maqsadlariga mos, katta tajribaga ega professorlar tomonidan ishlab chiqilgan va validatsiya qilingan yozma imtihon.

• Holatga asoslangan tahliliy baholash: klinik ssenariylar bo‘yicha dalillarni talqin qilish, tashxis qo‘yish va ilmiy manbalarga tayangan holda boshqaruv rejasini tuzishni talab qiluvchi topshiriqlar.

Baholashlar har ikki guruhga intervensiya oldidan va intervensiyadan so‘ng bir xil sharoitlarda o‘tkazildi.

NATIJALAR. Tadqiqotni jami 110 nafar 4-bosqich pediatriya talabalari yakunladi va yakuniy tahlilga kiritildi: dalillarga asoslangan tibbiyot integratsiyalashgan intervensiya guruhida 55 nafar va an’anaviy ta’lim nazorat guruhida 55 nafar ishtirokchi. Bazaviy taqqoslashlar demografik ko‘rsatkichlar, akademik samaradorlik hamda intervensiyagacha bo‘lgan bilim darajasi bo‘yicha guruhlar orasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar yo‘qligini ko‘rsatdi; bu esa intervensiya oldidan guruhlar taqqoslanishini tasdiqlaydi.

Dalillarga asoslangan tibbiyot integratsiyalashgan o‘qitish dasturi yakunlangach, dalillarga asoslangan tibbiyot asosida ta’lim olgan talabalarda pediatriya bo‘yicha umumiy bilim ko‘rsatkichlari, dalillarni talqin qilish ko‘nikmalari va klinik fikrlash qobiliyatida sezilarli yaxshilanishlar kuzatildi. Ta’limiy ta’sir kattaligi va statistik ahamiyatini baholash uchun oldindan belgilangan natija sohalari kesimida intervensiya va nazorat guruhlari o‘rtasida taqqosiy tahlillar o‘tkazildi. Batafsil natijalar quyidagi jadvallarda keltirilgan.

O‘zgaruvchi	DAT guruhi (n=55)	Nazorat guruhi (n=55)	p-qiymat
O‘rtacha yosh (yil)	21.3 ± 0.8	21.1 ± 0.9	0.34
Ayollar (%)	61.8%	63.6%	0.84
Oldingi GPA	3.41 ± 0.32	3.39 ± 0.35	0.72
Pre-test bilim balli (%)	62.4 ± 6.8	61.9 ± 7.1	0.68

Jadval 1. Tadqiqot ishtirokchilarining boshlang‘ich ko‘rsatkichlari

Ushbu jadvalda intervensiya joriy etilishidan oldin dalillarga asoslangan tibbiyot integratsiyalashgan guruh va an’anaviy ta’lim nazorat guruhidagi talabalarning demografik hamda akademik xususiyatlari keltirilgan. Guruhlar o‘rtasida o‘rtacha yosh (DAT: 21.3 ± 0.8 yil; nazorat: 21.1 ± 0.9 yil; p = 0.34) bo‘yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi, bu yosh taqsimoti o‘xshashligini ko‘rsatadi.

Jinsiy tarkib ham o‘xshash bo‘lib, ayollar ulushi dalillarga asoslangan tibbiyot guruhida 61.8% va nazorat guruhida 63.6% ni tashkil etdi (p = 0.84); demak, jins bilan bog‘liq omillar natijaviy ko‘rsatkichlarga minimal ta’sir ko‘rsatgan.

Akademik tayyorgarlik darajasi oldingi GPA orqali baholanganda ham guruhlar o‘rtasida farq kuzatilmadi (DAT: 3.41 ± 0.32; nazorat: 3.39 ± 0.35; p = 0.72), bu bazaviy o‘qish samaradorligi tengligini bildiradi.

Intervensiyadan oldingi bilim testi natijalari ham mos ravishda yaqin bo‘ldi: DAT guruhida 62.4 ± 6.8% va nazorat guruhida 61.9 ± 7.1% (p = 0.68). Umuman olganda, bazaviy ekvivalentlik keyingi taqqoslashlarning ichki validligini qo‘llab-quvvatlaydi va intervensiyadan so‘ng

kuzatilgan farqlarni dalillarga asoslangan tibbiyot integratsiyalashgan o‘qitish yondashuviga bog‘lash imkonini beradi.

Natija	DAT guruhi	Nazorat guruhi	p-qiymat	Ta’sir o‘lchami
Pediatriya bo‘yicha umumiy imtihon balli (%)	81.6 ± 6.2	71.3 ± 7.4	<0.001	1.52
Dalillarni talqin qilish balli (%)	84.1 ± 5.9	69.8 ± 6.7	<0.001	2.23
Klinik fikrlash balli (%)	79.4 ± 6.5	70.2 ± 6.9	<0.001	1.36

Jadval 2. Intervensiyadan keyingi bilim natijalari

2-jadval dalillarga asoslangan tibbiyot integratsiyalashgan pediatriya ta’limini olgan talabalar va an’anaviy ma’ruza-markazli usulda o‘qitilgan talabalar o‘rtasidagi intervensiyadan keyingi bilim natijalarini taqqoslaydi. Baholangan barcha domenlar bo‘yicha intervensiya guruhi natijalari nazorat guruhidan statistik jihatdan ahamiyatli ravishda yuqori bo‘ldi.

Pediatriya bo‘yicha umumiy imtihon balli dalillarga asoslangan tibbiyot guruhida 81.6 ± 6.2% bo‘lib, nazorat guruhidagi 71.3 ± 7.4% ga nisbatan sezilarli darajada yuqori chiqdi ($p < 0.001$). Ushbu farq katta pedagogik ta’sirga mos keladi (Cohen’s $d = 1.52$) va dalillarga asoslangan tibbiyot integratsiyasi bilimlarni o‘zlashtirishni kuchli tarzda yaxshilashini ko‘rsatadi.

Dalillarni talqin qilish ko‘rsatkichi bo‘yicha ham dalillarga asoslangan tibbiyot guruhi 84.1 ± 5.9% bilan nazorat guruhidagi 69.8 ± 6.7% dan ancha yuqori natija ko‘rsatdi ($p < 0.001$). Bu domen eng yirik ta’sir o‘lchamiga ega bo‘ldi (Cohen’s $d = 2.23$), ya’ni dalillarga asoslangan tibbiyot o‘qitilishi ilmiy tadqiqot natijalarini kritik baholash va amaliyotga tatbiq etish ko‘nikmalarini ayniqsa samarali rivojlantirgan.

Klinik fikrlash bo‘yicha ballar ham intervensiya guruhida ustun bo‘lib, mos ravishda 79.4 ± 6.5% va 70.2 ± 6.9% ni tashkil etdi ($p < 0.001$). Ta’sir o‘lchami (Cohen’s $d = 1.36$) yuqori bo‘lib, klinik qaror qabul qilishga oid yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalar sezilarli kuchayganini bildiradi.

O‘zgaruvchi	DAT guruhi	Nazorat guruhi	p-qiymat
Bilimning yaxshilanishi (%)	+19.2 ± 5.1	+9.4 ± 4.7	<0.001

Jadval 3. Bilimlarning o‘sishi.

Ushbu kadvalda har ikki guruhda intervensiyadan oldingi va keyingi baholashlar farqi orqali bilim o‘sishi ko‘rsatilgan. DAT-integratsiyalashgan dasturda qatnashgan talabalar bilim darajasida an’anaviy ta’lim olganlarga nisbatan ancha katta o‘sishga erishdi.

DAT guruhi o‘rtacha 19.2 ± 5.1 foiz punktga oshgan bo‘lsa, nazorat guruhi 9.4 ± 4.7 foiz

punktga oshdi. Guruhlar o‘rtasidagi ushbu farq statistik jihatdan yuqori ahamiyatga ega ($p < 0.001$) bo‘lib, ta’limiy natijalarning yaxshilanishi DATga asoslangan o‘qitish yondashuvi bilan kuchli bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Intervensiya guruhida deyarli ikki baravar kattaroq bilim o‘sishi DAT integratsiyasi qisqa muddatli yodlashdan ko‘ra chuqurroq o‘zlashtirish va barqaror tushunishni rag‘batlantirishini ta’kidlaydi. Klinik savollar, dalil qidirish, kritik baholash va amaliy holatlarda dalillarni qo‘llashga yo‘naltirilgan strukturali faoliyatlar tibbiyot talabalarida mazmunli kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi.

XULOSA. Ushbu kvazi-eksperimental tadqiqot natijalari dalillarga asoslangan tibbiyot (DAT) tamoyillarini bakalavriat bosqichidagi pediatriya ta’limiga tizimli integratsiya qilish talabalar bilimini o‘zlashtirish, tahliliy kompetensiya va klinik fikrlash salohiyatini sezilarli ravishda oshirishini ko‘rsatadi. An’anaviy, ma’ruza-markazli o‘qitish bilan solishtirganda, dalillarga asoslangan tibbiyot integratsiyalashgan yondashuv pediatrik kasalliklar bo‘yicha chuqurroq konseptual tushunishni shakllantirdi, klinik tadqiqot dalillarini talqin qilishni yaxshiladi va real klinik vaziyatlarda ilmiy ma’lumotlarga tayangan qaror qabul qilishni kuchaytirdi. Bu natijalar passiv yodlashdan faol, izlanishga asoslangan o‘qishga o‘tishni aks ettiradi; bunday o‘zgarish zamonaviy tibbiyot amaliyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Darhol kuzatilgan akademik yutuqlardan tashqari, ushbu ta’limiy afzalliklarning uzoq muddatli klinik ahamiyati ham mavjud. dalillarga asoslangan tibbiyotga yo‘naltirilgan pedagogik tizimda tayyorlangan bitiruvchilar doimiy o‘qish va yangilanishga ko‘proq moyil bo‘ladi, paydo bo‘layotgan ilmiy adabiyotlarni kritik baholaydi hamda pediatriya amaliyotida yangilangan klinik qo‘llanmalarga moslashadi. Diagnostika va davolash protokollari tez yangilanadigan sog‘liqni saqlash muhitida bunday kompetensiyalar bemor xavfsizligi, klinik samaradorlik va tibbiy xizmat sifati uchun zarurdir. Shunday qilib, pediatriya ta’limida dalillarga asoslangan tibbiyotni erta bosqichdanoq joriy etish nafaqat imtihon natijalarini, balki amaliyot sifatini ham yaxshilash imkonini beradi.

Institutsional nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqot dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarini pediatriya darslariga keng ko‘lamli o‘quv rejasini tubdan o‘zgartirmasdan va qo‘shimcha ortiqcha yuklamasiz kiritish mumkinligini ko‘rsatadi. Klinik savollarni strukturali tuzish, adabiyot qidirish, kritik baholash va dalillarga asoslangan holat muhokamalarini amaldagi klinik kurslar ichida integratsiyalash mumkin. Bu, ayniqsa, resurslari cheklangan ta’lim muassasalari uchun tibbiy ta’limni modernizatsiya qilish va xalqaro ta’lim standartlariga yaqinlashtirishning amaliy va masshtablanuvchi modelini taklif etadi.

Bir nechta o‘quv domenlari bo‘yicha kuzatilgan katta bilim o‘sishi interaktiv hamda dalillarga tayangan o‘qitish strategiyalarining an’anaviy didaktik usullarga nisbatan pedagogik ustunligini tasdiqlaydi. Dalillarni talqin qilish va klinik fikrlashda qayd etilgan yaqqol yaxshilanishlar dalillarga asoslangan tibbiyotning yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirishdagi o‘rni beqiyos ekanini ko‘rsatadi; bunday ko‘nikmalar pediatriyada tez-tez murakkab risk–foyda muvozanatini baholash va o‘zgaruvchan dalillar bazasiga moslashishni talab etadigan klinik qarorlar uchun ayniqsa muhimdir.

Shu bilan birga, ushbu tadqiqot dalillarga asoslangan tibbiyot integratsiyalashgan ta’limning uzoq muddatli ta’sirini — klinik samaradorlik, kasbiy xulq-atvor va bemor natijalari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni — chuqurroq o‘rganish zarurligini ham ta’kidlaydi. Kelgusidagi tadqiqotlar ko‘p markazli randomizatsiyalangan dizaynlar, longitudinal kuzatuv va klinik kompetensiyani obyektiv baholash vositalarini qo‘llagan holda ta’limiy hamda klinik foydani yanada ishonchli tasdiqlashi lozim. Shuningdek, raqamli ta’lim platformalari, simulyatsiyaga asoslangan dalillarga asoslangan tibbiyot treninglari va interprofessional o‘qitish modellarini integratsiya qilish dalillarga asoslangan tibbiyot asosidagi ta’lim samaradorligini yanada oshirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pediatriya ta’limiga dalillarga asoslangan tibbiyotni integratsiya qilish

tibbiyot talabalarida bilim natijalarini sezilarli yaxshilaydigan va klinik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradigan transformatsion ta’lim strategiyasidir. Dalillarga asoslangan tibbiyotga yo‘naltirilgan strukturali o‘qitish bakalavriat pediatriya o‘quv dasturlarida zamonaviy tibbiy ta’limning tayanch komponenti sifatida ustuvor yo‘nalish bo‘lishi kerak. Kelajak shifokorlarini dalillarni kritik baholash va ularni klinik amaliyotda samarali qo‘llashga o‘rgatish orqali tibbiyot muassasalari yuqori sifatli, bemor markazli yordam ko‘rsatishga qodir, reflektiv va dalilga tayangan pediatr mutaxassislar avlodini shakllantirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Brzezinski, M., Kukreja, J., & Mitchell, J. D. (2019). Time-efficient, goal-directed, and evidence-based teaching in the ICU. Current opinion in anaesthesiology, 32(2), 136–143. https://doi.org/10.1097/ACO.0000000000000702

Collins J. (2007). Evidence-based medicine. Journal of the American College of Radiology : JACR, 4(8), 551–554. https://doi.org/10.1016/j.jacr.2006.12.007

Hatala, R., & Guyatt, G. (2002). Evaluating the teaching of evidence-based medicine. JAMA, 288(9), 1110–1112. https://doi.org/10.1001/jama.288.9.1110

Kumaravel, B., Hearn, J. H., Jahangiri, L., Pollard, R., Stocker, C. J., & Nunan, D. (2020). A systematic review and taxonomy of tools for evaluating evidence-based medicine teaching in medical education. Systematic reviews, 9(1), 91. https://doi.org/10.1186/s13643-020-01311-y

Lewis, K. O., Cidon, M. J., Seto, T. L., Chen, H., & Mahan, J. D. (2014). Leveraging e-learning in medical education. Current problems in pediatric and adolescent health care, 44(6), 150–163. https://doi.org/10.1016/j.cppeds.2014.01.004

Maggio, L. A., Tannery, N. H., Chen, H. C., ten Cate, O., & O’Brien, B. (2013). Evidence-based medicine training in undergraduate medical education: a review and critique of the literature published 2006-2011. Academic medicine : journal of the Association of American Medical Colleges, 88(7), 1022–1028. https://doi.org/10.1097/ACM.0b013e3182951959

Monachino, A., Caraher, C., Ginsberg, J., Bailey, C., & White, E. (2019). Medical Emergencies in the Primary Care Setting: An Evidence Based Practice Approach Using Simulation to Improve Readiness. Journal of pediatric nursing, 49, 72–78. https://doi.org/10.1016/j.pedn.2019.09.017

Nahardani, S. Z., Ahmadi, F., Bigdeli, S., & Soltani Arabshahi, K. (2019). Spirituality in medical education: a concept analysis. Medicine, health care, and philosophy, 22(2), 179–189. https://doi.org/10.1007/s11019-018-9867-5

Okuda, Y., Bryson, E. O., DeMaria, S., Jr, Jacobson, L., Quinones, J., Shen, B., & Levine, A. I. (2009). The utility of simulation in medical education: what is the evidence?. The Mount Sinai journal of medicine, New York, 76(4), 330–343. https://doi.org/10.1002/msj.20127

Reed, S., Shell, R., Kassis, K., Tartaglia, K., Wallihan, R., Smith, K., Hurtubise, L., Martin, B., Ledford, C., Bradbury, S., Bernstein, H. H., & Mahan, J. D. (2014). Applying adult learning practices in medical education. Current problems in pediatric and adolescent health care, 44(6), 170–181. https://doi.org/10.1016/j.cppeds.2014.01.008

White, D. M., & Stephens, P. (2018). State of Evidence-Based Practice in Physician Assistant Education. The journal of physician assistant education : the official journal of the Physician Assistant Education Association, 29(1), 12–18. https://doi.org/10.1097/JPA.0000000000000183

O‘ZBEK OILASIDA ONA ROLI VA XORIJ MAMLAKATLARIDAGI ONALAR TARBIYASI: QIYOSIY TAHLIL

Alimardanova Ra’no Narbayevna,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va texnologik ta’lim kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek oilasida ona rolining farzand tarbiyasidagi ahamiyati hamda xorij mamlakatlaridagi onalar tarbiyasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida o‘zbek oilalarida onaning tarbiyaviy faoliyati, uning oiladagi ijtimoiy va pedagogik vazifalari yoritib beriladi. Shuningdek, xorijiy mamlakatlarda onalarning farzand tarbiyasiga bo‘lgan yondashuvlari o‘rganilib, ularning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada milliy va xorijiy tajribalar asosida ona rolining farzand shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan hamda oilaviy tarbiya tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ona roli, o‘zbek oilasi, farzand tarbiyasi, oilaviy tarbiya, onalar tarbiyasi, qiyosiy tahlil, pedagogik yondashuv, oilaviy qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль матери в узбекской семье и проводится сравнительный анализ воспитательной деятельности матерей в зарубежных странах. В ходе исследования освещаются социальные и педагогические функции матери в семье, а также особенности воспитательного процесса. Кроме того, анализируются подходы матерей к воспитанию детей в зарубежных странах и выявляются их сходства и различия. На основе сравнительного анализа раскрывается значение роли матери в формировании личности ребенка и предлагаются научные выводы по совершенствованию семейного воспитания.

Ключевые слова: роль матери, узбекская семья, воспитание детей, семейное воспитание, материнское воспитание, сравнительный анализ, педагогический подход, семейные ценности.

Abstract: This article examines the role of the mother in the Uzbek family and provides a comparative analysis of maternal upbringing practices in foreign countries. The study highlights the social and pedagogical functions of mothers within the family and their influence on the upbringing of children. It also analyzes different approaches to child upbringing in foreign countries and identifies their similarities and differences. Based on the comparative analysis, the article reveals the significance of the mother’s role in shaping a child’s personality and presents scientific conclusions aimed at improving family upbringing practices.

Keywords: mother’s role, Uzbek family, child upbringing, family education, maternal upbringing, comparative analysis, pedagogical approach, family values.

Kirish. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, unda shaxsning shakllanishi, tarbiyalanishi va ijtimoiylashuvi amalga oshadi. Farzand tarbiyasida oilaning barcha a’zolari muhim rol o‘ynasa-da, ayniqsa onaning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ona nafaqat farzandni dunyoga keltiruvchi shaxs, balki uning ilk tarbiyachisi, hayotiy qadriyatlarni singdiruvchi va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim ijtimoiy omil hisoblanadi. Shu sababli har bir jamiyatda onaning oiladagi roli va farzand tarbiyasidagi ahamiyati alohida e’tirof etib kelinadi.

O‘zbek xalqining boy tarixiy va madaniy merosida ham ona siymosi muqaddas va ulug‘ qadriyat sifatida qaraladi. O‘zbek oilalarida ona farzand tarbiyasining asosiy tashkilotchisi, mehr-muhabbat manbai hamda oilaviy qadriyatlarning davomchisi sifatida muhim o‘rin egallaydi. Ona o‘zining tarbiyaviy faoliyati orqali farzandlarda odob-axloq, hurmat, mas’uliyat, mehnatsevarlik va insoniy

fazilatlarni shakllantiradi. Shu bois o‘zbek oilasida ona roli farzand shaxsini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

Bugungi globallashuv jarayonida turli mamlakatlar oilaviy tarbiya tizimida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda ayollarning ijtimoiy faolligi, bandligi va jamiyat hayotidagi rolining ortishi oilaviy tarbiya jarayoniga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada ayrim mamlakatlarda farzand tarbiyasida ota va ona o‘rtasidagi mas’uliyat teng taqsimlanayotgan bo‘lsa, ayrim jamiyatlarda esa onaning tarbiyadagi an’anaviy roli saqlanib qolmoqda. Shu sababli turli mamlakatlarda onalarning farzand tarbiyasiga bo‘lgan yondashuvlarini o‘rganish hamda ularni qiyosiy tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida ham ona shaxsining farzand tarbiyasidagi o‘rni alohida o‘rganilmoqda. Ko‘plab tadqiqotlar onaning mehr-muhabbati, psixologik qo‘llab-quvvatlashi va tarbiyaviy ta’siri farzandning shaxsiy rivojlanishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Ayniqsa, bolaning ilk ijtimoiylashuvi, uning dunyoqarashi, xulq-atvori va hayotiy qarashlari shakllanishida ona ta’siri katta ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan o‘zbek oilasida ona rolining farzand tarbiyasidagi o‘rnini o‘rganish hamda uni xorij mamlakatlaridagi onalar tarbiyasi bilan qiyosiy tahlil qilish muhim ilmiy va pedagogik ahamiyatga ega. Bunday tadqiqotlar oilaviy tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, milliy qadriyatlar asosida farzand tarbiyasini samarali tashkil etish hamda ijobiy xorijiy tajribalarni o‘rganish imkonini beradi.

Oila har bir jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti hisoblanadi. U nafaqat biologik davomiylikni, balki ma’naviy va madaniy merosning uzluksizligini ham ta’minlaydi. Oilada shakllanadigan munosabatlar tizimi, xususan, onaning tutgan o‘rni farzand shaxsiyati rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek oilasida ona an’anaviy ravishda mehr-muruvvat, sabr-toqat va ma’naviy poklik timsoli sifatida qaraladi. U farzand tarbiyasida asosiy mas’ul shaxs bo‘lib, axloqiy qadriyatlar va milliy an’analarni avloddan-avlodga yetkazishda yetakchi rol o‘ynaydi. Kollektivlik tamoyili kuchli bo‘lgan ijtimoiy muhitda onaning vazifalari faqat uy-ro‘zg‘or bilan cheklanmay, balki oila a’zolari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga ham qaratiladi. Xorij mamlakatlarida, ayniqsa G‘arb jamiyatlarida esa onalik modeli individualizm, shaxsiy mustaqillik va gender tengligi tamoyillari asosida shakllangan. Bu yerda ona ko‘pincha professional faoliyat va oilaviy vazifalarni birgalikda olib boradi va tarbiya jarayonida bolaga mustaqillik berish, shaxsiy tanlovni hurmat qilish va o‘z fikrini erkin ifoda etishga imkon yaratish ustuvor hisoblanadi. Shu bois O‘zbek va xorijiy oilalardagi ona rolini qiyosiy tahlil qilish zamonaviy ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi O‘zbek oilasidagi ona roli bilan xorij mamlakatlaridagi onalar rolining o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning umumiylik va tafovutlarini aniqlash hamda madaniy omillarning onalik modeliga ta’sirini ochib berishdan iborat.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi

Oila va undagi ona rolining farzand tarbiyasiga ta’siri masalasi pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlarida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ayniqsa, ona shaxsining farzand rivojlanishiga ta’siri, oilaviy tarbiya muhitining bola shaxsini shakllantirishdagi o‘rni hamda turli jamiyatlarda onaning tarbiyaviy faoliyatini qiyosiy o‘rganish masalalari ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan.

Oila va tarbiya masalalarini o‘rganishda Sharq mutafakkirlarining ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va Abdulla Avloniy kabi allomalar o‘z asarlarida oila tarbiyasi, ota-ona mas’uliyati hamda farzand kamolotida onaning muhim o‘rni haqida qimmatli fikrlar bildirganlar. Ularning ilmiy merosida ona shaxsining tarbiyadagi roli inson kamolotini ta’minlovchi muhim omil sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida ham ona shaxsining farzand rivojlanishidagi o‘rni ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Z. Freyd, E. Erikson, J. Bowlby, A. Bandura, D. Baumrind kabi olimlar bolaning psixologik rivojlanishi, shaxs sifatida shakllanishi va

ijtimoiylashuv jarayonida ota-ona, ayniqsa onaning ta’siri muhim ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Masalan, J. Bowlby tomonidan ishlab chiqilgan “bog‘lanish nazariyasi” (attachment theory) bola va ona o‘rtasidagi emotsional munosabatlarning bola psixologik rivojlanishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Shuningdek, rus pedagog va psixolog olimlari L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, D.B. Elkonin, A.S. Makarenko, V.A. Suxomlinskiy kabi tadqiqotchilar ham oila muhitining bola tarbiyasidagi o‘rni haqida muhim ilmiy qarashlarni ilgari surganlar. Ularning ilmiy ishlari bola shaxsini shakllantirishda oilaning, ayniqsa onaning pedagogik ta’siri muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham oila va ona rolining farzand tarbiyasidagi ahamiyati keng o‘rganilgan. Jumladan, J.G‘. Yo‘ldoshev, R.H. Safarova, O. Musurmonova, O. Xasanboyeva, B. Qodirov, S. Nishonov kabi pedagog olimlarning ilmiy ishlarida oilaviy tarbiya, ota-onaning pedagogik madaniyati hamda farzand shaxsini shakllantirishda onaning roli masalalari tahlil qilingan.

Shu bilan birga, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek oilasida ona roli va xorij mamlakatlaridagi onalar tarbiyasini qiyosiy jihatdan o‘rganish masalasi hali ham yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Ayniqsa, turli madaniy va ijtimoiy muhitlarda onalarning farzand tarbiyasiga bo‘lgan yondashuvlarini pedagogik nuqtai nazardan qiyosiy tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Shu sababli o‘zbek oilasida ona rolining farzand tarbiyasidagi o‘rnini chuqur o‘rganish hamda uni xorij mamlakatlaridagi onalar tarbiyasi bilan qiyosiy tahlil qilish oilaviy tarbiya tizimini takomillashtirish, ijobiy tajribalarni o‘rganish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish nuqtai nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Statistik tahlil va natijalar

Tadqiqot jarayonida oilashunoslik, psixologiya va sotsiologiyaga oid ilmiy manbalar nazariy jihatdan o‘rganildi. Qiyosiy-analitik yondashuv asosida O‘zbek va xorijiy jamiyatlardagi onalik modeli o‘zaro solishtirildi, madaniyatlararo tadqiqot natijalari umumlashtirilib, onaning ijtimoiy mavqei, tarbiyaviy strategiyalari va oilaviy rollari tizimlashtirildi. Shuningdek, kontent-analiz usuli yordamida milliy va global qadriyatlarning onalik roliga ta’siri konseptual jihatdan tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbek oilasida ona asosan ma’naviy-axloqiy tarbiyaning bosh yetakchisi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning roli kollektiv qadriyatlar, an’anaviy me’yorlar va oila birligini saqlashga qaratilgan. Xorij mamlakatlarida esa onalik modeli ko‘proq shaxsiy mustaqillik va teng huquqlilik tamoyillari bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, professional va oilaviy faoliyatni birlashtirishga intilish kuzatiladi. Shu bilan birga, globalizatsiya jarayoni ikki model o‘rtasidagi chegaralarni ma’lum darajada yaqinlashtirmoqda. O‘zbek jamiyatida ham ayollarning ijtimoiy faolligi ortib borayotgani kuzatiladi, xorijiy jamiyatlarda esa oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga e’tibor kuchaymoqda. Demak, onalik modeli doimiy ravishda ijtimoiy va madaniy sharoit ta’sirida rivojlanib boruvchi dinamik hodisa sifatida qaralishi lozim.

O‘zbek oilasida ona roli va xorij mamlakatlaridagi onalar tarbiyasini qiyosiy o‘rganish maqsadida tajriba-sinov ishlari hamda so‘rovnoma asosida statistik tahlil olib borildi. Tadqiqot jarayonida jami 120 nafar respondent ishtirok etdi. Ulardan 60 nafari O‘zbekiston hududida yashovchi oilalar, 60 nafari esa turli xorijiy mamlakatlarda yashovchi oilalar vakillari sifatida tanlab olindi. Tadqiqot davomida respondentlardan onaning farzand tarbiyasidagi roli, farzand bilan muloqot darajasi, tarbiyaviy nazorat, psixologik qo‘llab-quvvatlash va mustaqillik berish kabi omillar bo‘yicha ma’lumotlar to‘plandi.


So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek oilalarida onaning farzand tarbiyasidagi ishtiroki juda yuqori darajada bo‘lib, respondentlarning 82 foizi farzand tarbiyasida onaning asosiy rol o‘ynashini ta’kidlagan. Xorij mamlakatlaridagi oilalarda esa bu ko‘rsatkich 64 foizni tashkil etdi. Bu holat o‘zbek oilalarida an’anaviy oilaviy qadriyatlarning kuchli ekanligi va onaning tarbiyadagi faol ishtiroki bilan izohlanadi.

Tadqiqot jarayonida o‘rganilgan yana bir muhim ko‘rsatkich farzand bilan kundalik muloqot darajasi bo‘ldi. O‘zbek oilalarida onalarning 76 foizi farzandlari bilan muntazam ravishda muloqot qilishlarini bildirgan bo‘lsa, xorij mamlakatlaridagi onalarda bu ko‘rsatkich 68 foizni tashkil etdi. Bunda o‘zbek oilalarida onaning ko‘proq vaqtini oilaga bag‘ishlashi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, tarbiyaviy nazorat darajasi ham tahlil qilindi. O‘zbek oilalarida onalarning 71 foizi farzandning xulq-atvori, o‘qishi va kundalik faoliyatini muntazam nazorat qilishlarini bildirgan. Xorij mamlakatlaridagi oilalarda esa bu ko‘rsatkich 52 foizni tashkil etdi. Bu esa ayrim rivojlangan mamlakatlarda bolalarga mustaqillik berish tamoyili keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq.

Tadqiqot davomida psixologik qo‘llab-quvvatlash omili ham o‘rganildi. O‘zbek oilalarida onalarning 69 foizi farzandga psixologik dalda berish, ularning muammolarini tinglash va maslahat berish orqali tarbiyaviy jarayonda faol ishtirok etishlarini bildirgan. Xorij mamlakatlarida esa bu ko‘rsatkich 74 foizni tashkil etdi. Bu natija ayrim xorijiy oilalarda psixologik muloqot va shaxsiy rivojlanishga katta e’tibor qaratilishini ko‘rsatadi.

Olingan statistik natijalar o‘zbek va xorijiy oilalarda ona rolining umumiy maqsadi bir xil bo‘lsa-da, tarbiyaviy yondashuvlarda ayrim farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. O‘zbek oilalarida an’anaviy oilaviy qadriyatlar va tarbiyaviy nazorat kuchliroq namoyon bo‘lsa, xorij mamlakatlarida bolalarning mustaqilligi va shaxsiy erkinligiga ko‘proq e’tibor qaratilishi kuzatiladi.



Ko‘rsatkichlar:
Tarbiyadagi asosiy rol: O‘zbek oilalari 82% — Xorij 64%
Farzand bilan muloqot: O‘zbek oilalari 76% — Xorij 68%
Tarbiyaviy nazorat: O‘zbek oilalari 71% — Xorij 52%

Psixologik qo‘llab-quvvatlash: O‘zbek oilalari 69% — Xorij 74%

Umuman olganda, olib borilgan statistik tahlil natijalari ona shaxsining farzand tarbiyasidagi roli har bir jamiyatda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, turli mamlakatlarda oilaviy tarbiya tizimi ijtimoiy, madaniy va pedagogik omillarga bog‘liq holda shakllanishi ham aniqlandi. Mazkur natijalar o‘zbek oilalarida mavjud ijobiy tarbiyaviy tajribalarni saqlab qolish bilan birga, xorijiy mamlakatlarning samarali yondashuvlarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Muhokama

Ona har qanday jamiyatda oilaning markaziy shaxslaridan biri hisoblanadi va uning vazifasi nafaqat farzandni dunyoga keltirish va parvarish qilish bilan cheklanadi, balki shaxsning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq onalik mazmuni va ko‘lami turli jamiyatlarda tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlarga ko‘ra farqlanadi, o‘zbek oilasida ona an’anaviy ravishda mehr-muhabbat, sabr-toqat va ma’naviy poklik timsoli sifatida talqin etiladi. U farzand tarbiyasida asosiy mas’ul shaxs bo‘lib, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni va ijtimoiy me’yorlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi vositachi vazifasini bajaradi. Bu modelda onalik ko‘proq kollektiv qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, oila birligini saqlash, qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash va farzandlarni hurmat ruhida tarbiyalash ustuvor hisoblanadi.

O‘zbek oilasida onaning tarbiyaviy va ma’naviy roli. O‘zbek jamiyatida oila tuzilmasi ko‘pincha kengaytirilgan shaklda bo‘lganligi sababli, ona nafaqat farzandlar, balki katta avlod bilan ham muvozanatli munosabatlarni yo‘lga qo‘yadi. U oilaning ichki iqlimini saqlovchi, nizolarni yumshatuvchi va axloqiy mezonlarni belgilovchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Tarbiya jarayonida ona farzandga milliy qadriyatlar, hurmat, itoat va mas’uliyat tushunchalarini singdiradi ayniqsa, ma’naviy tarbiya masalasida onaning o‘rni alohida e’tirof etiladi. Farzandning axloqiy qiyofasi ko‘pincha onaning shaxsiy namunasiga bog‘liq bo‘ladi shuning uchun O‘zbek oilasida onaning obro‘si yuqori baholanadi va u oila ma’naviy tayanchi sifatida ko‘riladi.

Xorij mamlakatlarida onalik modeli. Xorij mamlakatlarida, ayniqsa G‘arb jamiyatlarida onalik modeli individualizm va gender tengligi tamoyillari asosida shakllangan. Bu yerda ona ko‘pincha professional faoliyat bilan oilaviy majburiyatlarni birlashtiradi va onaning ijtimoiy faolligi va iqtisodiy mustaqilligi yuqori baholanadi. Tarbiya jarayonida esa bolaga mustaqillik berish, o‘z fikrini erkin ifoda etishga imkon yaratish va shaxsiy tanlovni hurmat qilish ustuvor hisoblanadi. Bolaning qaror qabul qilish jarayoniga erta jalb etilishi va individual qiziqishlariga e’tibor qaratilishi keng tarqalgan. Bu modelda onalik ko‘proq hamkorlik va teng huquqlilik asosida quriladi.

Tarbiya uslublaridagi farqlar. O‘zbek oilasida tarbiya ko‘pincha kollektiv qadriyatlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Oila manfaatlari shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yiladi. Kattalarga hurmat va oilaviy an’analarga sodiqlik muhim mezon sifatida qaraladi. Xorij jamiyatlarida esa bolada mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va shaxsiy mas’uliyatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu farq nafaqat tarbiya uslubida, balki onaning kundalik muloqot strategiyasida ham aks etadi. O‘zbek oilasida nazorat va himoya kuchliroq bo‘lsa, G‘arb oilalarida erkinlik va shaxsiy hududga hurmat ko‘proq kuzatiladi.

Globalizatsiya va onalik modelining o‘zgarishi. So‘nggi yillarda globalizatsiya jarayoni milliy onalik modellari o‘rtasidagi tafovutni ma’lum darajada yumshatmoqda. O‘zbek jamiyatida ayollarning ta’lim darajasi va ijtimoiy faolligi ortib borayotgani onalik roliga yangi mazmun kiritmoqda. Shu bilan birga, xorij mamlakatlarida ham oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va farzand bilan sifatli vaqt o‘tkazishga e’tibor kuchaymoqda. Demak, onalik modeli statik emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta’sirida shakllanib boruvchi dinamik jarayondir. Har bir jamiyat o‘z tarixiy va madaniy tajribasiga tayangan holda onalik rolini belgilaydi, biroq umumiy maqsad — sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash — o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

Xulosa

Umumiy xulosalar. Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbek oilasida ona ko‘proq ma’naviy-axloqiy yetakchi sifatida namoyon bo‘ladi, xorij mamlakatlarida esa onalik professional va oilaviy rollarning uyg‘unlashuvi bilan tavsiflanadi. Biroq har ikkala modelda ham onaning farzand shaxsiyati shakllanishidagi o‘rni beqiyosdir. Madaniy tafovutlarga qaramay, onalikning asosiy mohiyati — mehr, mas’uliyat va tarbiyaviy yetakchilik — barcha jamiyatlarda umumiy qadriyat sifatida saqlanib qolmoqda. Shu bois onalik rolini madaniyatlararo kontekstda o‘rganish zamonaviy oilashunoslik va psixologiya fanlari uchun dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Lansford, J. E. (2021). Cross-Cultural Similarities and Differences in Parenting. Journal of Child Psychology and Psychiatry, 63(4), 466–479. https://doi.org/10.1111/jcpp.13539.

2. Parkes, A., Green, M., & Mitchell, K. (2019). Coparenting and parenting pathways from the couple relationship to children’s behavior problems. Journal of Family Psychology, 33(2), 215–225. https://doi.org/10.1037/fam0000492.

3. Pinquart, M. (2017). Associations of parenting dimensions and styles with externalizing problems of children and adolescents: An updated meta-analysis. Developmental Psychology, 53(5), 873–932. https://doi.org/10.1037/dev0000295.

4. Deffaa, M., et al. (2022). The role of culture and contextual risk for maternal parenting and children’s behavior regulation in Chile and Germany. Journal of Child and Family Studies. https://doi.org/10.1007/s10826-022-02343-9.

5. Schoppe-Sullivan, S. J., et al. (2023). Patterns of coparenting and young children’s social–emotional development. Child Development. https://doi.org/10.1111/cdev.13904.

6. Fosco, G. M., & Feinberg, M. E. (2018). Interparental boundary problems and youth internalizing symptoms. Journal of Family Psychology, 32(6), 784–795. https://doi.org/10.1037/fam0000435.

7. Warmuth, K. A., Cummings, E. M., & Davies, P. T. (2020). Marital conflict and child emotional security. Development and Psychopathology, 32(5), 1699–1712. https://doi.org/10.1017/S0954579420001223.

8. Merrilees, C. E., & Goeke-Morey, M. C. (2021). Family processes and youth adjustment: A contemporary review. Journal of Family Theory & Review, 13(2), 233–249. https://doi.org/10.1111/jftr.12408.

9. Kolak, A. M., & Volling, B. L. (2019). Coparenting and children’s moral development. Family Process, 58(2), 453–468. https://doi.org/10.1111/famp.12380.

10. Rhoades, K. A. (2018). Children’s responses to interparental conflict: A review. Clinical Child and Family Psychology Review, 21(4), 436–459. https://doi.org/10.1007/s10567-018-0258-7.

11. Pires, M. R. D. S., et al. (2021). Parenting styles, coparenting, and early child adjustment: A systematic overview. Children (MDPI), 8(8), 629. https://doi.org/10.3390/children8080629.

12. R.N.Alimardanova. Oila psixologiyasi. Darslik . 272 b. 2024 Toshkent. Condor-print nashriyoti.

13. R.N Alimardanova Oila bir butun tizim sifatida. Inter education & global study, 4. (149-156) 2024

14. R.N.Alimardanova O`zbekistonda onalar va farzandlar o`rtasidagi munosabatlarning etnik xususiyatlari. Inter education & global study 3 (6), 541-550. 2025.

15. RN Alimardanova Oila bir butun tizim sifatida. Inter education & global study, 4. (149-156) 2024

O‘UK: 796.016.5:796.015.34

MALAKALI KURASHCHILARDA KUCH, TEZKORLIK VA PORTLOVCHAN KUCHNI RIVOJLANTIRISH UCHUN MAXSUS PLIOMETRIK MASHQLARDAN FOYDALANISH

Avazov Bahrom Beknazarovich,
Qarshi davlat universiteti
“Sport faoliyati” kafedrasi v.b. dotsenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada malakali kurashchilarda kuch, tezkorlik va portlovchan kuch sifatlarini rivojlantirishda maxsus pliometrik mashqlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganilgan. Kurash sport turi yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni, ayniqsa kuch, tezkorlik hamda portlovchan kuchni talab qiladigan sport turlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun samarali mashg‘ulot metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishda pliometrik mashqlarning ahamiyati, ularning mushak faoliyatiga ta’siri hamda sport natijalarini yaxshilashdagi roli tahlil qilingan. Pliometrik mashqlar mushaklarning tez cho‘zilib-qisqarish mexanizmi asosida bajarilib, sportchilarning portlovchan kuchini rivojlantirishga, harakat tezligini oshirishga va koordinatsiya qobiliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Maqolada malakali kurashchilar bilan o‘tkazilgan mashg‘ulot jarayonlari, maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlari hamda pliometrik mashqlarning mashg‘ulot tizimiga qo‘shilishining samaradorligi o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pliometrik mashqlarni muntazam ravishda qo‘llash sportchilarning kuch, tezkorlik va portlovchan kuch ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, ushbu mashqlar kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini samarali bajarishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari sport maktablari, oliy ta’lim muassasalari hamda kurash bo‘yicha murabbiylar faoliyatida foydalanish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: kurash, pliometrik mashqlar, kuch, tezkorlik, portlovchan kuch, jismoniy tayyorgarlik.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПЛИОМЕТРИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ СИЛЫ, БЫСТРОТЫ И ВЗРЫВНОЙ СИЛЫ У КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КУРАШИСТОВ

Авазов Бахром Бекназарович,
И.о. доцента кафедры «Спорт фаолияти»
Каршинский государственный университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования специальных плиометрических упражнений для развития силы, быстроты и взрывной силы у квалифицированных борцов. Борьба является одним из видов спорта, требующих высокого уровня физической подготовленности спортсменов, особенно таких качеств, как сила, быстрота и взрывная сила. Поэтому разработка и внедрение эффективных методов тренировки для развития физических качеств спортсменов имеет важное значение.

В ходе исследования была проанализирована роль плиометрических упражнений в повышении специальной физической подготовленности борцов, их влияние на мышечную деятельность и эффективность спортивных результатов. Плиометрические упражнения основаны на механизме быстрого растяжения и сокращения мышц, что способствует развитию взрывной силы, увеличению скорости движений и совершенствованию координационных способностей спортсменов.

В статье изучены особенности тренировочного процесса квалифицированных борцов, применение специальных физических упражнений и эффективность включения плиометрических упражнений в систему спортивной подготовки. Результаты исследования показали, что регулярное использование плиометрических упражнений способствует значительному повышению показателей силы, быстроты и взрывной силы спортсменов. Кроме того, данные упражнения положительно влияют на выполнение технических и тактических действий в процессе борьбы.

Полученные результаты могут быть использованы в практике подготовки спортсменов в спортивных школах, высших учебных заведениях и в работе тренеров по борьбе.

Ключевые слова: кураш, плиометрические упражнения, сила, быстрота, взрывная сила, физическая подготовка.

THE USE OF SPECIAL PLYOMETRIC EXERCISES TO DEVELOP STRENGTH, SPEED, AND EXPLOSIVE POWER IN QUALIFIED KURASH WRESTLERS

Avazov Bahrom Beknazarovich,
Senior lecturer of the department of «Sports faoliyati»
Karshi State University

Abstract. This articles examines the theoretical and practical aspects of using special plyometric exercises to develop strength, speed, and explosive power in qualified wrestlers. Wrestling is considered one of the sports that requires a high level of physical fitness, particularly such qualities as strength, speed, and explosive power. Therefore, developing and implementing effective training methods aimed at improving the physical abilities of athletes is of great importance.

During the research, the role of plyometric exercises in improving the special physical preparedness of wrestlers, their impact on muscular activity, and their contribution to enhancing sports performance were analyzed. Plyometric exercises are based on the mechanism of rapid stretching and contraction of muscles, which helps to develop explosive power, increase movement speed, and improve coordination abilities.

The article investigates the training process of qualified wrestlers, the use of special physical training exercises, and the effectiveness of integrating plyometric exercises into the overall training system. The results of the research indicate that the regular use of plyometric exercises significantly improves athletes’ strength, speed, and explosive power indicators. In addition, these exercises have a positive effect on the execution of technical and tactical actions during wrestling matches.

The findings of this study can be practically applied in sports schools, higher educational institutions, and in the professional activities of wrestling coaches to improve the training process and achieve better competitive results.

Keywords: kurash, plyometric exercises, strength, speed, explosive power, physical conditioning.

Kirish. Bugungi kunda sport sohasida yuqori natijalarga erishish sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Ayniqsa, kurash sport turlarida sportchining kuchi, tezkorligi, portlovchan kuchi hamda harakatlarning samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kurash jarayonida sportchi qisqa vaqt ichida yuqori kuch bilan harakat bajarishi, raqibga nisbatan tezkor reaksiya ko‘rsatishi va murakkab texnik usullarni samarali amalga oshirishi talab etiladi. Shu sababli malakali kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish sport tayyorgarligining eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi zamon sport trenirovkasi nazariyasi va amaliyotida jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun turli xil mashg‘ulot metodlari qo‘llanilmoqda. Biroq kurash sportida ayniqsa portlovchan kuch va tezkorlikni rivojlantirish masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Chunki

kurash davomida sportchi qisqa vaqt oralig‘ida maksimal kuch bilan harakat qilishi kerak. Masalan, usul bajarish, raqibni ko‘tarish, uloqtirish yoki qarshi hujum qilish jarayonlarida portlovchan kuch hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Agar sportchining portlovchan kuchi yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, u murakkab texnik usullarni tez va samarali bajara olmaydi.

So‘nggi yillarda sport ilm-fanida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda innovatsion va samarali metodlardan biri sifatida pliometrik mashqlar keng qo‘llanila boshladi. Pliometrik mashqlar mushaklarning tez qisqarish qobiliyatini oshirish, nerv-mushak tizimining samarali ishlashini ta’minlash hamda sportchining portlovchan kuchini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu mashqlar asosan sakrash, tezkor harakatlar, dinamik kuchlanishlar va mushaklarning tez cho‘zilib-qisqarish mexanizmiga asoslanadi. Natijada sportchining tezkorligi, kuchi va portlovchan kuchi sezilarli darajada oshadi.

Kurash sporti o‘zining dinamikligi, tezkorligi va kuch talab qiluvchi harakatlari bilan boshqa sport turlaridan ajralib turadi. Kurashchilarning mashg‘ulot jarayonida portlovchan kuchni rivojlantirish uchun an’anaviy kuch mashqlaridan tashqari, zamonaviy trenirovka vositalaridan foydalanish zarur. Pliometrik mashqlar aynan shu jihatdan samarali vosita hisoblanadi. Ular sportchilarning harakat tezligini oshiradi, mushaklar faoliyatini faollashtiradi va musobaqa jarayonida zarur bo‘lgan kuch-tezkorlik sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Malakali kurashchilar bilan ishlash jarayonida trenirovka yuklamalarini to‘g‘ri rejalashtirish, jismoniy sifatlarni maqsadga muvofiq rivojlantirish hamda mashg‘ulot samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sportchilarning kuch va tezkorlik ko‘rsatkichlarini oshirish orqali ularning texnik-taktik harakatlari samaradorligini ham oshirish mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, pliometrik mashqlardan foydalanish kurashchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, zamonaviy sport trenirovkasida mashg‘ulot metodikasini takomillashtirish, yangi samarali mashqlarni joriy etish va ilmiy asoslangan usullardan foydalanish muhim hisoblanadi. Pliometrik mashqlar sportchilarning mushak kuchini, harakat tezligini va koordinatsiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan. Shuning uchun ushbu mashqlarni kurashchilar tayyorgarlik jarayoniga ilmiy asosda kiritish zarur hisoblanadi.

Hozirgi kunda sport natijalarining keskin oshib borayotgani sportchilardan yanada yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni talab etmoqda. Xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashish uchun kurashchilarda yuqori darajadagi kuch, tezkorlik, chidamlilik va portlovchan kuch bo‘lishi zarur. Ayniqsa, portlovchan kuch sportchining raqib ustidan ustunlikka erishishida muhim omil hisoblanadi. Shu sababli ushbu jismoniy sifatni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot metodikasini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, malakali kurashchilarda kuch, tezkorlik va portlovchan kuchni rivojlantirish sport tayyorgarligining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda maxsus pliometrik mashqlardan foydalanish sportchilarning jismoniy tayyorgarligini yanada takomillashtirishga, mashg‘ulot samaradorligini oshirishga hamda musobaqa natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois “Malakali kurashchilarda kuch, tezkorlik va portlovchan kuchni rivojlantirish uchun maxsus pliometrik mashqlardan foydalanish” mavzusini o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Sport nazariyasi va amaliyotida sportchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Ayniqsa, kurash sport turlarida kuch, tezkorlik va portlovchan kuch sifatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu jismoniy sifatlar sportchining texnik-taktik harakatlarini samarali bajarishi hamda musobaqa jarayonida yuqori natijalarga erishishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan turli metod va vositalar ishlab chiqilgan.

Sport trenirovkasi nazariyasi sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, sportchilarning yuqori natijalarga erishishi ularning jismoniy sifatlari darajasiga bevosita bog‘liqdir. Bu borada bir qator olimlar jismoniy tayyorgarlikning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Tadqiqotlarda sportchilarning kuch, tezkorlik, chidamlilik va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarini rivojlantirish sport tayyorgarligining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Kurash sport turi o‘zining dinamikligi, yuqori intensivlikdagi harakatlari va qisqa vaqt ichida maksimal kuch ishlatilishini talab qilishi bilan boshqa sport turlaridan farq qiladi. Kurash jarayonida sportchi raqibga nisbatan tezkor reaksiya ko‘rsatishi, kuchli harakatlarni qisqa vaqt ichida bajarishi hamda murakkab texnik usullarni samarali qo‘llashi zarur. Shu sababli kurashchilarda portlovchan kuchni rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Sport ilm-fanida portlovchan kuch tushunchasi mushaklarning qisqa vaqt ichida maksimal kuch hosil qilish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Ushbu jismoniy sifat kurashchilar uchun ayniqsa muhim hisoblanadi, chunki kurash jarayonida usullarni bajarish, raqibni ko‘tarish yoki uloqtirish kabi harakatlar portlovchan kuchni talab qiladi. Tadqiqotlarda portlovchan kuchni rivojlantirish uchun turli xil mashg‘ulot metodlari, jumladan og‘irlik bilan bajariladigan mashqlar, tezkor kuch mashqlari hamda pliometrik mashqlar samarali ekanligi ta’kidlangan.

So‘nggi yillarda sport trenirovkasi tizimida pliometrik mashqlar keng qo‘llanila boshladi. Pliometrik mashqlar mushaklarning tez cho‘zilishi va qisqarishi mexanizmiga asoslanadi. Bu mashqlar mushaklarning elastik energiyasidan samarali foydalanish imkonini beradi hamda nerv-mushak tizimining faoliyatini yaxshilaydi. Natijada sportchining portlovchan kuchi, tezkorligi va harakat samaradorligi oshadi.

Ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda pliometrik mashqlarning sportchilar jismoniy tayyorgarligiga ijobiy ta’siri qayd etilgan. Tadqiqotchilar pliometrik mashqlar sportchilarning mushak kuchini oshirishi, sakrash balandligini ko‘paytirishi hamda harakat tezligini yaxshilashini aniqlaganlar. Ushbu mashqlar sportchilarning markaziy nerv tizimi faoliyatini faollashtirib, mushaklarning tez va samarali qisqarishiga yordam beradi.

Kurashchilar tayyorgarligini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish muhim masala sifatida ko‘rib chiqilgan. Olimlar kurashchilarning tayyorgarlik jarayonida umumiy jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda maxsus jismoniy tayyorgarlikka ham katta e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlaydilar. Maxsus jismoniy tayyorgarlik sportchining aynan kurash faoliyatida zarur bo‘lgan harakat sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Tadqiqotlarda kurashchilar uchun sakrash mashqlari, tezkor harakatlar, qarshilik bilan bajariladigan mashqlar hamda pliometrik mashqlarning samarali ekanligi qayd etilgan. Ayniqsa, pliometrik mashqlar sportchilarning portlovchan kuchini rivojlantirishda muhim vosita sifatida e’tirof etiladi. Ushbu mashqlar kurashchilarning tezkor harakatlarini takomillashtirishga hamda usullarni tez va samarali bajarishiga yordam beradi.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda sportchilarning mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, mashqlar hajmi va intensivligini optimal darajada tanlash muhimligi ham ta’kidlanadi. Agar mashg‘ulot jarayoni ilmiy asosda tashkil etilsa, sportchilarning jismoniy ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshadi. Shu sababli zamonaviy sport trenirovkasi tizimida innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Pliometrik mashqlar – mushaklarning tez kuch hosil qiladigan xususiyatlarini yaxshilashga yordam beradigan uslub bo‘lib, uni sportchilarda samarali qo‘llash ko‘p yillar davomida tadqiq qilingan (Chelly, 2014; Markovic, 2007). Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pliometrik mashqlar oyoq mushaklarining kuchini, tezkorligini va portlovchan kuchini oshiradi (Ebben, 2009; Saeterbakken, 2011).

Shuningdek, pliometrik mashqlarning ish qobiliyatiga ijobiy ta’siri sport kurashi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda tasdiqlangan (Haghighi va boshq., 2025; Sabillah va boshq., 2022).

Pliometrik mashqlarni kurashchilar tayyorgarlik jarayoniga kiritish sportchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu mashqlar sportchilarning mushak tizimini

faollashtiradi, harakat koordinatsiyasini yaxshilaydi hamda texnik harakatlarni samarali bajarishga yordam beradi. Shu bilan birga, pliometrik mashqlar sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini ham oshiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kurashchilar tayyorgarligida kuch, tezkorlik va portlovchan kuchni rivojlantirish masalasi hali ham dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, malakali kurashchilarning tayyorgarlik jarayonida pliometrik mashqlardan foydalanish samaradorligini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini yanada takomillashtirish hamda mashg‘ulot metodikasini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borish zarur hisoblanadi.

Tadqiqotni tahkil qilinishi.

Mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi malakali kurashchilarda kuch, tezkorlik va portlovchan kuch sifatlarini rivojlantirishda maxsus pliometrik mashqlarning samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot davomida zamonaviy sport trenirovkasi nazariyasi va amaliyotida qo‘llaniladigan ilmiy usullar – pedagogik kuzatish, tajriba-sinov, testlash, taqqoslash, matematik-statistik tahlil hamda olingan natijalarni ilmiy jihatdan umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotga 16 nafar malakali kurashchi jalb qilindi (n=16). Tadqiqotda ishtirok etgan sportchilarning yoshi 18–28 yosh oralig‘ida bo‘lib, ularning barchasi muntazam ravishda sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanib kelayotgan, ma’lum sport tajribasiga ega bo‘lgan sportchilar hisoblanadi. Ishtirokchilar tajriba boshlanishidan oldin tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi va ularning sog‘lig‘i sport mashg‘ulotlarini bajarish uchun yetarli darajada ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot jarayoni ikki asosiy bosqichda tashkil etildi. Birinchi bosqichda sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi aniqlanib, dastlabki test natijalari qayd etildi. Ikkinchi bosqichda esa 8 haftalik maxsus pliometrik mashqlar dasturi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi hamda tajriba yakunida sportchilarning jismoniy ko‘rsatkichlari yana qayta baholandi.

Tadqiqot davomida malakali kurashchilarda kuch, tezkorlik va portlovchan kuchni rivojlantirishga qaratilgan 8 haftalik maxsus pliometrik mashqlar dasturi ishlab chiqildi. Mazkur mashg‘ulot dasturi sportchilarning mushak tizimini faollashtirish, nerv-mushak koordinatsiyasini yaxshilash hamda portlovchan kuchni rivojlantirishga qaratildi. Mashg‘ulotlar haftasiga 3 marotaba o‘tkazildi va har bir mashg‘ulot umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari bilan boshlanib, maxsus pliometrik mashqlar bilan davom ettirildi.

Mashg‘ulot dasturiga quyidagi mashqlar kiritildi:

1. Baland joydan pastga sakrab tushib darhol yuqoriga sakrash – ushbu mashq mushaklarning tez cho‘zilish va qisqarish xususiyatini rivojlantiradi. Mashq 3 to‘plamda 8 martadan bajarildi.

2. Joydan turib maxsus qutining ustiga sakrab chiqish – bu mashq asosan oyoq mushaklarining kuchini va portlovchan kuchini oshirishga qaratilgan. Mashq 3 to‘plamda 10 martadan bajarildi.

3. Turgan joydan uzunlikka sakrash – ushbu mashq sportchilarning portlovchan kuchini rivojlantirish hamda oyoq mushaklari faoliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mashq 3 to‘plamda 6 martadan bajarildi.

4. Bir oyoqdan ikkinchisiga yon tomonga kuchli sakrash – bu mashq sportchilarning koordinatsiya qobiliyati va tezkor harakatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Mashq 3 to‘plamda 8 martadan bajarildi.

Har bir mashg‘ulot davomida sportchilarning charchash darajasi nazorat qilindi hamda mashqlar orasida optimal dam olish vaqti berildi. Bu esa sportchilarning mashqlarni maksimal darajada sifatli bajarishini ta’minladi.

Tadqiqot natijalari.

Tadqiqotdan oldin va keyin sportchilarning jismoniy ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida maxsus test sinovlari o‘tkazildi. Testlar sportchilarning kuch, tezkorlik va portlovchan kuch ko‘rsatkichlarini baholashga qaratildi.

Baholash uchun quyidagi testlar qo‘llanildi:

1. Oyoq bilan itarish kuchi (kg) – sportchilarning maksimal kuch ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun.
2. 20 metrga yugurish (sekund) – sportchilarning tezkorlik darajasini aniqlash uchun.
3. Balandlikka vertikal sakrash (sm) – portlovchan kuch ko‘rsatkichini baholash uchun.

1-jadval

Tadqiqot davomida malakali kurashchilarda kuch, tezkorlik va portlovchan kuchni rivojlanish ko’rsatkichlari (n=16)

№	Testlar	tajribadan oldin	tajribadan keyin	t	p
1	Oyoq bilan itarish kuchi (kg)	150,6±12,4	162,2±10,6	2,84	< 0,05
2	20 metrga yugurish (sek)	3,10±0,15	2,96±0,12	2,92	< 0,05
3	Balandlikka vertikal sakrash (sm)	55,3±5,1	61,1±4,4	3,44	< 0,01

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, tajriba yakunida sportchilarning jismoniy ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan. Jumladan, oyoq bilan itarish kuchi o‘rtacha 150,6 kg dan 162,2 kg ga oshgan. Bu ko‘rsatkich sportchilarning mushak kuchi sezilarli darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.

20 metrga yugurish natijalari ham yaxshilandi. Tajriba boshida sportchilarning o‘rtacha natijasi 3,10 soniyani tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakunida ushbu ko‘rsatkich 2,96 soniyaga teng bo‘ldi. Bu esa sportchilarning tezkorlik qobiliyati yaxshilanganidan dalolat beradi.

Vertikal sakrash bo‘yicha natijalar ham ijobiy o‘zgarishni ko‘rsatdi. Tajriba boshida o‘rtacha natija 55,3 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakunida bu ko‘rsatkich 61,1 sm ga yetdi. Bu sportchilarning portlovchan kuchi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatadi.

Muhokama.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, pliometrik mashqlar sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, portlovchan kuchni rivojlantirishda ushbu mashqlar juda samarali ekanligi aniqlandi.

Pliometrik mashqlar mushaklarning tez cho‘zilishi va qisqarishi mexanizmi asosida bajariladi. Bu jarayon mushaklarda elastik energiyaning to‘planishiga va undan samarali foydalanishga imkon beradi. Natijada sportchilar qisqa vaqt ichida katta kuch hosil qila olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan mashqlar sportchilarning nafaqat kuch ko‘rsatkichlarini, balki tezkorlik va koordinatsiya qobiliyatlarini ham yaxshilaganligi kuzatildi. Ayniqsa, sakrash mashqlari oyoq mushaklarining kuchini oshirib, sportchilarning portlovchan harakatlarini takomillashtirdi.

Kurash sport turida sportchi qisqa vaqt ichida tezkor va kuchli harakatlarni bajarishi kerak. Shu sababli pliometrik mashqlar kurashchilarning tayyorgarlik jarayonida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu mashqlar sportchilarning texnik-taktik harakatlarini tez va samarali bajarishiga yordam beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pliometrik mashqlar sportchilarning koordinatsiya qobiliyatini ham yaxshilaydi. Bu esa kurash jarayonida tezkor qaror qabul qilish

hamda raqib harakatlariga tez moslashish imkonini beradi.

Xulosalar.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Malakali kurashchilarda kuch, tezkorlik va portlovchan kuchni rivojlantirish sport tayyorgarligining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

2. 8 haftalik maxsus pliometrik mashqlar dasturini qo‘llash sportchilarning jismoniy ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

3. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oyoq bilan itarish kuchi, 20 metrga yugurish tezligi hamda vertikal sakrash ko‘rsatkichlari statistik jihatdan ishonchli darajada yaxshilangan ($p<0,05$; $p<0,01$).

4. Pliometrik mashqlar sportchilarning mushak kuchini oshirish, portlovchan kuchni rivojlantirish hamda tezkor harakatlarni takomillashtirishda samarali vosita hisoblanadi.

5. Pliometrik mashg‘ulotlarni muntazam ravishda qo‘llash kurashchilarning musobaqalardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu sababli kurashchilar tayyorgarlik jarayonida pliometrik mashqlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chelly M. S. Plyometric Training for Sports Performance. Human Kinetics. 2014.

2. Markovic G. Does plyometric training improve vertical jump height? Sports Med. 2007.

3. Ebben W., Blackard D. Strength and conditioning practices of National Collegiate Athletic Association Divisions I, II, and III powerlifters. J Strength Cond Res. 2009.

4. Saeterbakken A. H., Fimland M. S. Electromyographic Comparison of a Conventional and a Hexagonal Bar Deadlift. J Strength Cond Res. 2011.

5. Haghighi A. H., Shahrabadi H., Coswig V., Gentil P. Plyometric and ballistic training have similar effects on young amateur male wrestlers’ athletic performance. J Strength Cond Res. 2025.

6. Sabillah M. I., Tomoliyus et al. The effect of plyometric exercise and leg muscle strength on the power limb of wrestling athletes. J Phys Educ Sport. 2022.

Watabunditkul P. The effect of plyometric training program on agility, leg muscle power and leg muscle strength in Thai national wrestlers team. J Sports Sci Health. 2025.

7. Pinem S., Widiyanto, Eggy N. A., Koba K., Simamora A. J. Effect of plyometrics and resistance band training towards the leg muscle power in wrestling athletes. Intl J Multidiscip Res Artic. 2024.

8. Chaouachi A., Manzi V. In-season effect of plyometric training on jump performance of professional soccer players. J Sci Med Sport. 2014.

9. Ramirez Campillo R. Effects of plyometric jump training on youth athletes’ vertical jump height. Sports Med. 2020.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI TA’LIMINI LOYIHALASH VA O‘QUVCHILARNI FAOLLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASHNING FANDA YORITILISHI

Azimov Yunus Yusupovich, BuDPI professori, f.f.n.

Allamberganova Shaxnoza Rustam qizi,
UrDPI, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini pedagogik loyihalash hamda o‘quvchilarni faollashtirish texnologiyalarini integratsiyalash muammosining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonini oldindan loyihalashning didaktik imkoniyatlari, dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni hamda o‘quvchilarning kognitiv va kommunikativ faolligini rivojlantirish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, interfaol metodlar, muammoli ta’lim va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida integratsiyalashgan modelning ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf ona tili darslarida samarali pedagogik texnologiyani ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. ona tili ta’limi, pedagogik loyihalash, faollashtirish texnologiyalari, interfaol metodlar, boshlang‘ich ta’lim, kognitiv faollik, kommunikativ faollik, integratsiya, ta’lim samaradorligi.

ОСВЕЩЕНИЕ В НАУКЕ ПРОБЛЕМЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ И ИНТЕГРАЦИИ ТЕХНОЛОГИЙ АКТИВИЗАЦИИ УЧАЩИХСЯ

Аннотацияю. В статье рассматриваются научно-теоретические основы проектирования обучения родному языку в начальных классах и интеграции технологий активизации учащихся. Анализируются дидактические возможности педагогического проектирования, его роль в повышении эффективности урока, а также механизмы развития когнитивной и коммуникативной активности младших школьников. Обосновывается значимость интегрированной модели на основе интерактивных методов, проблемного обучения и личностно-ориентированного подхода. Результаты исследования подтверждают необходимость разработки эффективной педагогической технологии для уроков родного языка в начальной школе.

Ключевые слова: обучение родному языку, педагогическое проектирование, технологии активизации, интерактивные методы, начальное образование, когнитивная активность, коммуникативная активность, интеграция, эффективность обучения.

SCIENTIFIC COVERAGE OF THE ISSUE OF INSTRUCTIONAL DESIGN IN MOTHER TONGUE EDUCATION IN PRIMARY GRADES AND THE INTEGRATION OF STUDENT ACTIVATION TECHNOLOGIES

Abstract. This article examines the scientific and theoretical foundations of instructional design in mother tongue education in primary grades and the integration of student activation technologies. The study analyzes the didactic potential of pedagogical design, its role in increasing lesson effectiveness, and the mechanisms for developing cognitive and communicative activity of primary school students. The importance of an integrated model based on interactive methods, problem-based learning, and learner-centered approaches is substantiated. The findings highlight the necessity of developing an effective pedagogical technology for mother tongue lessons in primary education.

Keywords: mother tongue education, instructional design, activation technologies, interactive

methods, primary education, cognitive activity, communicative activity, integration, learning effectiveness.

KIRISH. Ijtimoiy – iqtisodiy, ma’naviy hayotda, xalqning turmush tarzi va ongida yuz berayotgan o‘zgarishlar yangiliklarni o‘quvchilar ongiga singdirish, yoshlarni hayotga, ishlab chiqarishga ilm va fanga yo‘naltirish ta’limning asosiy maqsadlaridan biriga aylanadi.

Ta’lim jarayonida amal qiladigan teskari aloqa mohiyati yangi ilg‘or g‘oyalar bilan boyitildi. Natijada o‘quvchilarning bilimi, ko‘nikma-malakalari, ijodiy faoliyat ko‘rsatish, tabiat, jamiyat, ong hodisalarini emotsional baholash qobiliyatlarini ob’ektiv nazorat qilish imkoniyatlari ortdi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim-tarbiya ishlarini rivojlangan mamlakatlar pedagogik amaliyotiga qiyoslagan holda O‘zbekiston Respublikasining o‘ziga xos ta’lim tizimini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishga ilmiy-amaliy jihatdan zamin yaratdi.

Rivojlangan mamlakatlar bilan o‘rnatilgan aloqa, o‘zaro tajriba almashish pedagogika fani tariqqiyotiga ham ijobiy ta’sir eta boshladi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar mutaxassis olimlar, maktab o‘qituvchilarining faoliyatiga singib bormoqda.

Bugungi kunga kelib, ta’limga texnologik yondashish tamoyili eng dolzarb mavzu bo‘lib qoldi. Ta’lim amaliyotiga kirib kelayotgan pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismi sifatida ta’limni samarador loyihalash muammosi ilmiy jihatdan tadqiq qilishga hamda amaliy jihatdan o‘zlashtirishga muhtoj masala sifatida kirib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, ta’limni loyihalash muammosining juda ko‘p kemtik, atroflicha tahlil qilinmagan tomonlari mavjud. Avvalo, ta’lim jarayonini loyihalash alohida tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilgan emas. Shuningdek, ta’lim jarayonini loyihalashning yo‘nalishlari, vazifalari, vositalari uyg‘unligi tasnif qilinmagan.

Loyihalash ta’limning amal qilish namunasini tayyorlash jarayonidir. U jarayon sifatida loyihalash faoliyati, vositasi, predmetidan iborat. Bu jarayonda ma’lumot mazmuni yoki uning bir qismi - o‘quv materiali loyihalash predmeti vazifasida o‘atnashadi. O‘quv materialiga pedagogik ishlov berilib, darslikdagi holatdan yangi shaklga olib kiriladi. O‘quv topshiriqlari, muammolari, testlar tizimi va shu kabilar o‘quv materialining o‘qitish va o‘qish ehtiyojlariga ko‘ra o‘zgartirilgan - loyihalashtirilgan shakllaridir. Loyiha muallifining didaktik bilimlari, orttirgan hayotiy tajribasi loyihalash vositalari bo‘lib, ular loyiha sifatini belgilovchi omillardir. Didaktik bilimlar ko‘lami, hajmi, aniqligiga, pedagogik tajribaning yetukligi va uning puxta egallaganligiga ko‘ra didaktik loyihalar bir-biridan farq qiladi. Binobarin, didaktik loyihalarning samaradorligi va sifati pirovard natijada loyiha muallifining bilimi, tajribasi, mahoratiga borib taqaladi. Loyihalash - bu ta’lim sub’ektlari o‘zaro ta’sirining ta’lim mazmuniga yo‘nalgan akt, bosqich, davr shaklidagi harakatlarini kelgusida amalga oshirish namunasi yoki timsolini tayyorlash demakdir.

Didaktik loyiha ta’lim subyektlari faoliyatida amalga oshiriladi. Binobarin, didaktik loyiha ham o‘qitish, ham o‘qish faoliyatiga taalluqlidir. G.I.Shchukina insonning “Tashkiliy – boshqaruv faoliyatini texnologiyalashtirish” atamasini ishlatib, bilimlarni o‘quv predmetlari - loyihalarda qayd etishni ko‘zda tutgan edi [1]. Agar o‘quv predmetlariga oid darsliklarda bilim, ko‘nikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi va munosabatlarning moddiylashganligini e’tirof etadigan bo‘lsak, didaktik loyihalarning ta’limni ixtisoslashtirish, kasblashtirishga oid qimmatini ham tan olishga to‘g‘ri keladi. Loyihalarni tayyorlash jarayonlarida mualliflar turli didaktik nazariya, qarashlardan kelib chiqib loyihalash predmeti - ma’lumot mazmuniga pedagogik ishlov berishadi. Ma’lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish yo‘li bilan ta’limning keng qamrovli, katta, universal loyihalari konsepsiya, dastur, ta’lim standartlari to‘plami, darslik shaklida tayyorlanadi. Katta, universal didaktik loyihalarni amalga oshirishda ikkilamchi loyihalar - dars ishlanmalari, rejalari, konspektlari, ta’lim etalonlari sifatida ishlab chiqiladi. Loyihalashning ikkinchi yo‘li ham bor. Bu loyihalash muammosini «o‘quv materiali va didaktik loyiha» tizimida o‘rganishdir [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish muammosining maktab amaliyotidagi ahvoli tahlil qilinadi. Boshlang‘ich

sinf ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish tajribasini tizim sifatida qarab, ijodiy ta’lim amaliyoti xususiyatlarini ajratishga, maktab o‘qituvchilarining ijodiy ta’lim to‘g‘risidagi fikrlarini qayd etishga harakat qilamiz. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish amaliyotining real ahvoli va o‘qituvchilarning o‘z fikrlarini bir-biri bilan taqqoslab ijodiy ta’limning kuchli hamda zaif tomonlarini ajratamiz.

Ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish bo‘yicha mavjud tajribani o‘rganish va umumlashtirish maqsadida ilg‘or o‘qituvchilarning darslari kuzatilib, yozib olindi. Darslarni kuzatish va qayd etish jarayonlarida quyidagi savollarga javob izlandi: a) ijodiy ta’limning maqsadi bilan daxldor savollar-ta’limni ijodiy tashkil etishning maqsad, vazifalari, tanlangan o‘quv topshiriqlarining ijodiy ta’lim maqsadi, vazifalariga mosligi; b) ijodiy ta’lim mazmuni bilan daxldor savollar-ijodiy o‘quv topshiriqlarining mazmuni nimalarga ko‘ra aniqlanadi, ijodiy topshiriqlarning o‘quv materiali mazmuniga mosligi, bolalarning real o‘quv imkoniyatlariga muvofiqligi, u yoki bu ijodiy ishning o‘quv topshiriqlari tizimidagi o‘rni; v) ijodiy ta’limning jarayoniy xususiyatlari bilan aloqador savollar-ijodiy topshiriqlarning dars turi, bosqichlariga mosligi, ijodiy ta’limda bolalarning real o‘quv imkoniyatlari, ishlash tempi bilan bog‘liqligi, ijodiy ishlarni bajarishda foydalaniladigan usullar, ijodiy topshiriqlarni bajarishda oldin o‘rganilgan bilim va faoliyat usullarini qo‘llash, yangi bilim va faoliyat usullarini qayd qilish vositalari; g) ijodiy ishning natijasi bilan daxldor savollar-u yoki bu ijodiy ishning o‘quvchilar uchun ahamiyati, o‘quv topshiriqlarining o‘quv materiali mazmunini to‘liqo‘zlashtirish talablariga yetarligi, ijodiy ishlarning bolalarda mustaqil faoliyatni shakllantirishdagi roli va boshqalar.

Hozirgi pedagogik amaliyotda va ilg‘or o‘qituvchilar faoliyatida boshlang‘ich sinf ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish elementlari mavjud. Fanning vazifasi pedagogik amaliyotning yutuq va kamchiliklarini aniqlash, kamchiliklarni bartaraf etish yo‘li bilan boshlang‘ich sinf ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish amaliyotini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishdan iborat.

Maktablarda ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish amaliyotini tahlil qilish bu sohaning qator zaif tomonlarini belgilash imkoniyatini beradi. Hozirgi paytda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatida ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish sohasida qator qiyinchiliklar bor. Bular:

- ona tili ta’limini ijodiy tashkil etishning maqsad, vazifalarini atroflicha anglamaslik;
- ona tili ta’limini bolalar ijodkorligiga mo‘ljallab loyihalash texnologiyasini bilmaslik;
- ona tili ta’limi mazmunini ta’lim jarayoni xususiyatlariga moslashtira olmaslik;
- ijodiy ta’lim natijasini ob’ektiv qayd etish, baholash me’yorlarining ona tili o‘qitish tajribasida asoslanmaganligi bilan izohlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari faoliyatida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf etish oxir-oqibatda ona tili ta’limining samaradorligini oshirishga, ona tilini o‘zlashtirishning ijodiy yo‘nalishini kuchaytirishga olib keladi.

Bola maktabga kelgunga qadar barcha nutq tovushlarini talaffuz etishni o‘rganib olgan, uning nutqi asosiy so‘z turkumlariga oid so‘zlar bilan boyigan, so‘zdan nutq tuzish amaliyotini egallagan bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi bola maktabga kelguncha hosil qilgan nutq tayyorgarligi ustiga quriladi. Ona tili ta’limi oldingi bobda qayd qilinganidek, ikki yarusli o‘quv predmetidir. O‘quvchilar tilning fonetika, leksika, grammatikasiga doir juda siqiq bilimlarni egallashadi. O‘quv yillari osha bolalarning ona tiliga oid nazariy bilimlari takomillashib boradi. Ona tili ta’limining bunday takomillashib borishi o‘quv dasturlari bilan belgilangan. Boshlang‘ich sinf ona tili dasturlari konsentrik tuzilgan. Shu tamoyilga rioya qilib, ona tili ta’limi juda oddiy bilimlardan yanada murakkab bilimlarga o‘tish yo‘sinida tashkil etiladi. Masalan, 1-sinfda otga oid bilimlar “Shaxs va narsalarni bildirgan so‘zlar” rukni bilan o‘rganilsa , keyingi sinflarda “ot” atamasi qo‘llanib, otga oid bilimlar mazmun va hajmiga ko‘ra yanada kengaytiriladi.

MUHOKAMA. Maktabda bola tilning uch tomoni-fonetik, leksik, grammatik tomonlarini, ularga bog‘langan holda orfoepik, grafik, orfografik, uslubiy, prosodik, punktuatsion malakalarni o‘zlashtirishadi.

Tilning fonetik jihatini o‘zlashtirish o‘quvchilar tafakkurini o‘stirish bilan aloqadorlikda tashkil etish uchun har bir nutq tovushi so‘z tarkibida o‘rgatiladi. Nutq tovushlarini so‘z tarkibida

o‘rgatish talabi ona tili ta’limini ijodiy tashkil etish imkoniyatini ham oshiradi. Masalan, shunday topshiriq berilgan bo‘lsin: har ikkala bo‘g‘inida “i” harfi yoziladigan to‘rtta so‘z topib yozing. Bunday ijodiy ishlar bolalarda izlanish layoqatlarini tarbiyalaydi, imlo savodxonligini oshiradi, bolalar talaffuzini tartibga tushiradi. Topshiriqni bajarishda bola darslikdan o‘z tezaurusidan so‘zlar izlaydi. Bu o‘quvchi faoliyatida izlanish layoqatini o‘stiradi, bola nutqida so‘zlarning faollashuviga sabab bo‘ladi.

NATIJALAR. Nutq tovushini so‘z tarkibida o‘rgatish bolalarning fonematik eshitishini taraqqiy ettirish bilan birga juda ko‘p so‘zlarning ma’nolarini tushunishlarini ham ta’minlaydi. Shu tufayli nutq tovushlarining so‘z ma’nolarini ajratishga oid jihatlarini tahlil qilishga oid biluv topshiriqlaridan foydalanish ehtiyoji tug‘iladi. Haqiqatan ham, xush (yaxshi) va hush (aql, hush), xol (yuzdagi qora nuqta) va hol (ahvol), xurma (idish) va hurma (itning vovullashi), shox (daraxt shoxi, sigir shoxi) va shoh (podshoh), xatlab (xatga olingan, yozib olingan) va hatlab (sakrash), xam (bukilgan) va ham (bog‘lovchi) kabi juda ko‘p so‘zlarning ma’nolarini chog‘ishtirish yo‘li bilan aniqlash mumkin. “X” va “H” harfli so‘zlarning yuqoridagi xususiyatlari asosida taqqoslashga oid quyidagicha topshiriqdan foydalaniladi.

Topshiriq. Ikki tushuntirishga tayyorlaning.

1-ustun	2-ustun
xush	hush
xol	hol
xurma	hurma
shox	shoh
xatlab	hatlab

Tilimizda bir unli ustunda “x” va “h” harfidan boshlab yozilgan so‘zlar berilgan. Ularni o‘zaro taqqoslab, har bir so‘zning ma’nosini tovushga (bor, ber, bar, bur, bo‘r, bir), shuningdek, bir undosh tovushga ko‘ra (g‘o‘r, to‘r, zo‘r, ko‘r, qo‘r, to‘r) ma’nolari farqqiladigan so‘zlar ko‘p topiladi. Nutq tovushlarining shu xususiyatlarini inobatga olib, biluv topshiriqlari tuzib, ta’limga tatbiq etsa, o‘qitishning samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida bajaradigan ishi-funksiyasi jihatidan biluv topshiriqlari to‘rt guruhga ajraladi. Bular:

-yangi bilimlarni qayd qilishga oid biluv topshiriqlari,

-ko‘nikma-malakalarni yanada takomillashtirishga mo‘ljallangan biluv topshiriqlari,

-ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yo‘nalgan biluv topshiriqlari,

-tilga munosabatni shakllantirishga xizmat qiladigan biluv topshiriqlaridir.

Biluv topshiriqlari tizimini tayyorlashda bolalarning o‘quv maqsadi, o‘quv vositalari, erishiladigan natijalari oldindan qayd etiladi. Biluv topshiriqlari tizimida mavzular bo‘yicha mustaqil chiqariladigan xulosalar (bilimlar), mavzular doirasida malaka darajasiga ko‘tariladigan ko‘nikmalar, tarbiyalanadigan ijodiy faoliyat tajribasi tilga va nutqqa nisbatan shakllantiriladigan munosabatlar hisobga olinadi.

XULOSA. Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini samarali tashkil etish bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonini pedagogik jihatdan puxta loyihalash va o‘quvchilarni faollashtirish texnologiyalarini integratsiyalash dars samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Ona tili darslarini loyihalash jarayoni maqsad, mazmun, metod, vosita va natija birligida tizimli ravishda tashkil

etilgandagina o‘quvchilarning bilish faoliyati faollashadi. Faollashtirish texnologiyalarini tasodifiy emas, balki dars strukturasiga mos ravishda qo‘llash o‘quvchilarning kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik loyihalash va faollashtirish metodlari alohida yo‘nalish sifatida yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning boshlang‘ich sinf ona tili darslari kesimida integratsiyalashgan tizimi to‘liq ishlab chiqilmagan. Shu bois, darsni loyihalash bosqichida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, refleksiya va baholash mexanizmlarini yagona pedagogik model asosida uyg‘unlashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini loyihalash va o‘quvchilarni faollashtirish texnologiyalarini integratsiyalash ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishda kompleks pedagogik model ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shchukina G.I. Aktivizatsiya poznavatelnoy deyatelnosti uchashixsya v uchebnom protsesse -M.: «Prosveshenie»,1979,160 s.

2. Mahmudov M. Ta’limni loyihalash prinsiplari. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 58 b.

3. Roziqov O. va boshqalar. Ta’lim texnologisi. –Toshkent.O‘qtuvchi, 1999, 48-50-betlar;

4. Safarova R. va b. O‘quvchilarning bilish faoliyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini tanlash va tizimlashtirish // Metodik qo‘llanma. – Toshkent. Fan va texnologiya, 2013. –12 b.t.

5. Safarova R. Ona tili ta’limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – Toshkent. Fan, 1995. – 110 b.

МЕТОДЫ И ПРИЁМЫ РАБОТ ПО РАЗВИТИЮ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

М.С.Ахмедова
доцент кафедры «Методика дошкольного и начального образования»
Ташкентского международного университета Кимё

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие речевой компетенции у будущих учителей начальной школы на примере уроков русского (родного) языка как ключевого направления в системе непрерывного образования. Описываются наиболее эффективные методы и техники развития речевой компетенции будущих учителей начальной школы и школьников, с акцентом на важность работы над устной и письменной речью детей и речевым этикетом. Автор считает, что использование инновационных технологий и методов активного обучения в образовательном процессе является важным путем развития языковой грамотности и коммуникативной компетенции.

Ключевые слова и словосочетания: речевая компетенция, речевая культура, речь, письменная, устная, речевой этикет, национальные и международные традиции, доминантность, практическая компетентность.

Abstract: This article explores the development of speech competence in future primary school teachers using Russian (native) language lessons as a key area in the continuous education system. It describes the most effective methods and techniques for developing the speech competence of future primary school teachers and schoolchildren, emphasizing the importance of working on children's oral and written speech and speech etiquette. The author believes that the use of innovative technologies and active learning methods and techniques in the educational process is an important way to develop language literacy and communicative competence.

Keywords and phrases: speech competence, speech culture, speech, written, oral, speech etiquette, national and international traditions, dominant, practical proficiency.

Аннотация: Ushbu maqolada kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarida rus (ona) tili darslaridan uzluksiz ta'lim tizimida asosiy yo'nalish sifatida foydalangan holda nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalalari o'rganiladi. Unda kelajakdagi bo`lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutq kompetensiyasini rivojlantirishning eng samarali usullari va texnikalari bayon etilgan bo'lib, bolalarning og'zaki va yozma nutqi hamda nutq odob-axloq qoidalari ustida ishlashning muhimligi ta'kidlangan. Muallif ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va faol o'rganish usullari va texnikalaridan foydalanish til savodxonligi va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim usuli deb hisoblaydi.

Kalit so'zlar va iboralar: nutq kompetensiyasi, nutq madaniyati, nutq, yozma, og'zaki, nutq odob-axloqi, milliy va xalqaro an'analar, dominant, amaliy mahorat.

В современном обществе наблюдается заметный подъём во всех сферах жизни, что одновременно вызывает чувство радости и определённой тревоги. Это закономерно, поскольку на педагогов системы непрерывного образования возложена огромная ответственность за формирование личности будущих граждан, а также за подготовку поколения, которое будет участвовать в строительстве «Нового Узбекистана». Особенно значимы задачи, стоящие перед учителем начальных классов и преподавателем русского (родного) языка. Необходимо осознавать, что педагог выступает не только в роли преподавателя учебного предмета, но и выполняет миссию культурного посредника, соединяющего различные национальные и этнические сообщества, численность которых в Узбекистане достигает около 130. Через изучение русского языка дети приобщаются к

духовным ценностям и культурному наследию разных народов, знакомятся с традициями, образом жизни и культурой многонационального общества.

Будущие учителя должны чётко осознавать, что перед ними стоит задача заинтересовать учащихся предметами начального уровня, особенно русским языком, поскольку именно это определяет эффективность обучения и успешность образовательного процесса. В начальной школе формируются основы научных знаний и активная жизненная позиция ребёнка, а навыки устной и письменной речи, приобретённые в этот период, становятся прочной базой для дальнейшего овладения русским и другими языками. Важно учитывать, что современные школьники стремятся быть активными участниками образовательного процесса, а не пассивными слушателями, что требует от учителя применения современных методов и технологий обучения.

Современная педагогическая практика предъявляет новые требования к методике преподавания русского (родного) и иностранных языков. Для успешной самореализации в образовательной среде необходимы три ключевых компонента: креативность, владение информационно-коммуникационными технологиями и развитые коммуникативные навыки. Важнейшим из них является формирование коммуникативной компетенции, которая предполагает владение всеми видами речевой деятельности, а также основами культуры устной и письменной речи и другими аспектами речевого развития. Речевая культура как составная часть общей культуры учащихся приобретает особую значимость в условиях глобализации, формируя навыки общения, критическое мышление и культурное понимание окружающего мира. В рамках образовательного процесса речевые умения соотносятся прежде всего с уроками родного языка и литературы, где речь учащихся должна быть не только грамотной и выразительной, но и коммуникативно целесообразной, убедительной и уместной.

Особое внимание уделяется формированию навыков речевого этикета, который охватывает как речевое, так и неречевое поведение, включая умение слушать и корректно взаимодействовать с собеседником. Речевой этикет представляет собой совокупность правил и норм, основанных на национальных и интернациональных традициях общения, реализующихся через устойчивые речевые формулы и выражения. Он проявляется в повседневных коммуникативных ситуациях: встречи, прощания, приглашения, выражения благодарности и извинения, и способствует установлению контакта в определённой эмоционально-коммуникативной тональности. Формулы речевого этикета формируют своеобразные синонимические ряды, где доминантная форма применима во множестве ситуаций, например, при прощании доминантой является «до свидания», а синонимическими вариантами выступают «до скорой встречи», «всего хорошего», «счастливого пути» и другие.

Коммуникативная компетенция, формируемая через речевой этикет и общение, является важной составляющей речевой компетенции. Без овладения речью невозможно полноценное развитие коммуникативной компетенции личности. Речь, как вид человеческой деятельности, направлена на общение, выражение эмоций, формирование мыслей, познание действительности и регуляцию поведения. Она проявляется как процесс и результат в виде текстов устных и письменных: книги, рассказы, выступления, песни и другие формы словесного творчества. Речь конкретна, связана с реальностью, ориентирована на достижение цели, обладает динамичностью и индивидуальностью. Она подразделяется на внутреннюю и внешнюю, устную и письменную, диалогическую и монологическую, различается по стилям и жанрам речевого общения.

Практика показывает, что формирование речевой и коммуникативной компетенции наиболее эффективно через диалогическую речь. Реплики диалога, хотя зачастую краткие и простые, передают актуальную информацию и учитывают условия общения: обстановку, интонацию, жесты, мимику, положение говорящего, что связано с нормами речевого

поведения и выбора речевых формул. Оценка человека по его речи отражает уровень интеллектуального развития, а умение ясно и логично выражать мысли, уверенно читать лекции и выступать перед аудиторией является показателем сформированности речевой компетенции.

Русский язык как учебная дисциплина требует систематической, кропотливой совместной работы учителя и ученика. Образованный человек должен владеть устной и письменной речью, точно, логично, лаконично и убедительно выражать мысли. Обучение речевому этикету и развитие навыков правильного выбора речевых формул в коммуникативных задачах является надёжным способом формирования полноценного общения. Учителя должны с первых уроков донести мысль о том, что изучение русского языка выходит за рамки обычной школьной дисциплины: овладение им обеспечивает возможности для жизни и работы в любой точке стран СНГ, расширяет культурный кругозор и профессиональные навыки, а также позволяет свободно общаться с представителями различных национальностей. Следует учитывать, что до 70 % мировой научной информации кодируется на русском и английском языках, что подчёркивает значимость речевых навыков для полноценного существования человека.

Как отмечал Нобелевский лауреат Чингиз Айтматов, русский язык выполняет функцию посредника, соединяющего художественные миры народов, ранее не знакомых друг с другом. Реализация речевой деятельности человеком демонстрирует уровень овладения речевой компетенцией, тесно связанной с мотивацией личности. В начальной школе мотивы изучения языка следует привязывать к знакомому жизненному опыту ребёнка, объясняя, что владение русским языком открывает возможности для дружбы, общения и восприятия информации.

Формирование речевой компетенции предполагает работу над всеми видами речевой деятельности: говорение, слушание, чтение и письмо. Важнейшей задачей учителя является обучение работе с текстом, анализ его содержания, выделение главной мысли, поиск и обработка информации, формирование логичного выражения мыслей, развитие навыков создания мини-текстов по образцу, стимулирование творческого потенциала и мотивации к изучению других предметов средствами русского языка. Каждый учащийся уже использует русский язык при освоении других дисциплин, поэтому учителю важно развивать и совершенствовать ранее сформированные навыки речи и поддерживать интерес к изучению языка.

Особую значимость в работе с младшими школьниками имеют инновационные педагогические технологии, основанные на концентрированном подходе, последовательной организации педагогических процедур и приёмов, образующих целостную дидактическую систему. Творческий подход учителя, владение педагогикой сотрудничества, соблюдение дидактических принципов (доступности, преемственности, системности, наглядности) и целенаправленное использование современных образовательных технологий — интерактивных методов, информационно-коммуникационных средств, активных форм обучения — обеспечивают формирование и совершенствование речевой компетенции.

Практическая реализация данных положений может включать интерактивные игры, например, «Сундук мудрости», проводимый в групповой форме. Школьники читают тексты, подбирают заголовки, составляют вопросы для взаимного опроса, либо выполняют задания на вставку пропущенных слов. Такие упражнения развивают логическое мышление, активизируют речевую и познавательную деятельность. Дидактическая игра «Так бывает или нет» формирует умение выявлять логические несоответствия, лексическая игра–цепочка развивает навыки говорения и понимания, а соревнования по составлению рассказов на основе опорных слов стимулируют творчество и логическое построение текста.

Особое внимание уделяется развитию устной связной и монологической речи,

применяются чтение и пересказ текстов, чтение по ролям, составление рассказов по картинке или теме, использование опорных слов и пропущенных элементов. Монологическая речь требует подготовки, логического планирования и волевых усилий, что отличает её от диалогической. Формирование письменной речи включает мини-сочинения, изложение, эссе, различные виды диктантов, с акцентом на грамматику, орфографию и пунктуацию. Сочинения-загадки по картинкам или наблюдению за объектом способствуют развитию словарного запаса и образного мышления.

Современные мультимедийные технологии, интерактивные платформы, онлайн-ресурсы и тренажёры делают уроки более динамичными и стимулируют речевую активность. При этом следует учитывать возрастные особенности учащихся: успешное формирование речевой компетенции возможно только при систематической и регулярной практике.

Таким образом, формирование речевой компетенции на уроках русского (родного) языка требует комплексного подхода, включающего работу над устной и письменной речью, анализ текста, использование активных и инновационных методов обучения. Задача учителя состоит не только в передаче языковых норм, но и в развитии у детей навыков эффективного общения, что способствует успешной социализации и всестороннему личностному развитию учащихся.

Использованная литература:

1. Учебники « Русский язык» для 1–4 классов школ с русским языком обучения. 2023г. г.Ташкент. «Узбекистан».

3. Учебник «Русский язык» для 4 класса школ тюркской языковой группы (2–часть). Г.Г.Городилова, Е.А.Хамраева. – Москва, Дрофа, 2006 г.

4. Формановская Н.И.. Употребление русского речевого этикета. М., 1985г.

5.Тенденции развития речи учащихся средней школы. М., Львов М.Р. 1980 г.

6.М.Р.Львов. Словарь–справочник по методике русского языка. М., «Просвещение», 1989г.

BOSHLANG`ICH SINFLARDA TA`LIM JARAYONINI HAMKORLIKDA TASHKIL ETISH

Xilola Bakiyeva Sapayevna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi v.b.professori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quv savodxonligini monitoring qilish bo‘yicha o‘qish va matnni tushunish sifatini xalqaro o‘rganish (The Progress in International Reading literacy Study) PIRLS talablarini amalga oshirishda o‘qish ta’limi, badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o‘qish qobiliyati aniq berilgan ma’lumotni topish, ma’lumotlarni talqin qilish va umumlashtirish, matn mazmunini, til xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish hamda baholash, xulosalarni shakllantirish kabi mezonlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Badiiy matn, asar tahlili, ifodali o‘qish, asarning g‘oyaviy asoslari va mavzusi, obrazlar tizimi, mezon, didaktik qonuniyat, bolalar adabiyoti, o‘quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются критерии обучения чтению, умения читать художественные и научно-популярные тексты, такие как нахождение четко изложенной информации, интерпретация и обобщение информации, анализ и оценка содержания, языковых особенностей и структуры текста, формирование выводов, при реализации требований PIRLS Исследования прогресса в международном чтении и грамотности по мониторингу академической грамотности в начальных классах.

Ключевые слова. Художественный текст, анализ произведения, выразительное чтение, идейные основы и тема произведения, система образов, критерии, дидактические закономерности, детская литература, формирование познавательной активности учащихся.

Abstract. This article discusses the criteria for reading education, the ability to read literary and popular science texts, such as finding clearly given information, interpreting and summarizing information, analyzing and evaluating the content, language features and structure of the text, and forming conclusions, in implementing the requirements of the International Reading Literacy Study (PIRLS) on monitoring academic literacy in primary schools.

Keywords: Literary text, analysis of the work, expressive reading, ideological foundations and theme of the work, system of images, criterion, didactic regularity, children's literature, formation of students' cognitive activity.

Jahon miqyosida kichik yoshdagi maktab o`quvchilari uchun jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, o`quvchilar hamda o`qituvchining o`zaro hamkorligi va muloqotini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha ta`lim mussasasi tarbiyalanuvchisini maktab ta`limiga olib kirish va ularning sifatli ta`lim olishlari uchun sharoit yaratish, bilimlarni egallashni ta`minlovchi o`qitish metodlari, usullari va vositalarini tanlash, ularni ta`lim jarayoniga tatbiq etish orqali o`zaro kommunikatsiyaga va hayotga tayyorlash ta`lim sifatini oshirishning asosiy omillari sanaladi.

Ijtimoiy hayotga tatbiq qilinayotgan “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi Farmonida “uzluksiz ta`lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta`lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish” mamlakat ravnaqiga xizmat qilayotgan barcha soha vakillarining o‘z faoliyatini yangicha yondashuvga asoslangan holda tashkil etishni taqozo qilmoqda. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilab berilgan ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish, milliy manfaatlardan

kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish kabi ustuvor yo‘nalishlar asosida ta’lim tizimini isloh qilish davr talabi sifatida qaralmoqda.

Dunyo miqyosidagi hozirgi globallashuv sharoitida ta’lim tizimiga pedagogik innovatsion texnologiyalarning keng miqyosda joriy qilinishi tufayli o‘quvchilarning mantiqiy, tahliliy, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish rivojlantiruvchi ta’limning muhim jihati sifatida yosh avlodni jahon standarti talablariga javob berish darajasiga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, boshlang‘ich sinflarda o‘quv savodxonligini monitoring qilish bo‘yicha o‘qish va matnni tushunish sifatini xalqaro o‘rganish (The Progress in International Reading literacy Study) PIRLS talablarini amalga oshirishda o‘qish ta’limi zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Ma`lumki, PIRLS dasturi asosida o‘quvchilar o‘qishning ikki xil turi bo‘yicha mashg‘ulot davomida va maktabdan tashqari baholanadilar. Bunda:

adabiy ta’lim tizimini o‘zlashtirish tajribasini o‘rganish maqsadida o‘qish darajasini aniqlash; b) ta’lim jarayonida beriladigan ma’lumotlarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanishga doir o‘qish darajasini aniqlash ko‘zda tutiladi.

Tadqiqotning kontseptual qoidalariga muvofiq o`quvchilar badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o‘qish qobiliyati aniq berilgan ma’lumotni topish; ma’lumotlarni talqin qilish va umumlashtirish; matn mazmunini, til xususiyatlari va tuzilishini tahlil qilish hamda baholash; xulosalarni shakllantirish kabi 4ta mezon bo‘yicha baholanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqishini oshirishni va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim-tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Ma’lumki, badiiy asarlarni o‘qish bilan bog‘liq holda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimida o‘quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish, o‘zligini anglashga yo‘naltirish, vatanga muhabbat tuyg‘ularini kamol toptirishda boshqa o‘quv predmetlari kabi bolalar adabiyoti namunalarini san’at asari sifatida o‘rganish vazifalari yuklatilgan o‘qish ta’limi alohida o‘rin tutadi. Bu xususda Farobiy badiiy so’zning inson hayotida tutgan o’rni va roli haqida: “…so’zlash quvvati shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go’zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo’lgan-bo’lmagan ishlarni ado etadi, shu bilan birga, zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi” [1;48] deb yozgan bo’lsa, M.Koshg’ariyning «Devonu lug’otit- turk» asarida «Adab boshi – til» maqolning keltirilishi, A.Navoiyning “Bir bo’lu, bir ko’r, bir de, bir tila, Mayl qilma munda ikkilik bila” misralarida bir so’zlilik, fikriy sobitlik, so’z va fikr birligi –chin inson uchun bosh dasturdir degan fikr ilgari suriladi [2;12]. Yuqoridagi fikrlar buyuk ajdodlarimizning inson ma’naviyatining shakllanishi va rivojlanishida tilning nechog’li ahamiyatli ekanligiga urg’u berganini ko’rsatadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish metodikasi adabiyot o‘qitish sistematik kursiga tayyorlovchi predmet sifatida bolalar adabiyoti namunalari asosida o‘z maqsad va vazifalarini belgilaydi.

Boshlang‘ich sinflarda adabiy ta’lim o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga qamrab oladi: 1) adabiy-badiiy asarlar tahlili vositasida shaxs tarbiyasi; 2) boshlang‘ich sinflarda bolalar adabiyotini maktab fanlaridan biri sifatida o‘qitish; 3) shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishini shakllantirish jarayoni.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish metodikasining asosi sifatida quyidagi didaktik qonuniyatlarga asoslaniladi:

1. Ta’lim o‘quvchilarning fanlarga tegishli bilim va tushunchalarni anglashlariga har tomonlama ta’sir etuvchi xarakterda bo‘lishi.

2. O‘quvchining oldilariga qo‘yilgan masalani aniq tushunishlariga erishish.

3. O‘qituvchi yangi murakkab ta’limiy muammolarni tanish hodisalar holatida ko‘rsata olish

mahoratiga ega bo‘lishi. Adabiy ta’lim jarayonida deduktsiyani induktsiya bilan bog‘lay bilishi.

Boshlang‘ich ta’lim tarixida ayni muammoga jonli ijodiy psixologik jarayon sifatida qaraladi.

Hozirgi adabiy ta’lim maktab oldiga o‘sib kelayotgan yosh avlodni asrlar mobaynida insoniyat tarixi davomida yaratilgan va to‘ldirib, boyitib kelingan madaniy boyliklarni egallash, real hayotga tayyorlash, ongli ravishda kasb tanlashlariga erishish, atrofdagi kishilar bilan madaniyatli muomala qilishga o‘rgatish, intellektual salohiyatli kishilar qilib tarbiyalash talabini qo‘ymoqda.

Bunga erishish uchun adabiy ta’limning har bir bosqichida o‘qitish metodlari, maqsad va vazifalarini aniq-ravshan belgilab olish lozim.

O‘qish ta’limi jarayonida o‘quvchilarning o‘qish va matnni tushunish sifati darajasini o‘rganish nazarda tutiladi. Xalqaro PIRLS nazorati bo‘yicha boshlang‘ich maktabning 4-sinfini tugatgan o‘quvchilarning o‘qish ta’limi davomida olgan bilimlari sinovdan o‘tkaziladi. O‘qish va matnni tushunish sifati asarni shunchaki qayta-qayta o‘qish hisobiga yaxshilanmaydi, o‘qilgan asarning mohiyatini anglashga xizmat qilmaydi.

O‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. O‘qish savodxonligining maqsadi badiiy tajriba orttirish, axborotni olish va undan foydalanish; tushunish jarayonida esa diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni to‘plash, xulosa chiqarish, g‘oyalar va axborotlarni talqin qilish va uyg‘unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilishda tarkib topadi. Badiiy asar matnini tushunish va baholash uchun har bir o‘quvchi tilni tushunishi va badiiy tasvir vositalarini bilishi kerak. Badiiy asar o‘quvchilarga hali duch kelmagan vaziyatlar va his-tuyg‘ularni o‘ganish imkoniyatini taqdim etadi. Badiiy adabiyotda tasvirlangan voqealar, harakatlar va oqibatlar o‘quvchilarga haqiqiy hayotni yoritibgina qolmay, tasavvur qilishlari mumkin bo‘lgan vaziyatlarni bilvosita his qilish va aks ettirishga imkon beradi.

Aynan o‘qish ta’limida insonning, avvalo o‘zligini, qolaversa, olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi. Shuning uchun o`qish darslarida ona tabiat, atrofimizdagi olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnat, istiqlol va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do‘stligi va tinchlik kabi turli mavzular o`rganiladi. Mazkur mavzularga oid badiiy va ilmiy-ommabop asarlar ta’limiy, axloqiy xarakterda bo‘lib, o‘quvchilarning aqliy kamoloti va ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga qaratilgan. Uning o‘ziga xos xususiyati o‘quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to‘g‘ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Tanlangan mavzular o‘quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo‘yicha bilim va tarbiya berishni ta’minlaydi. Ularning ichida istiqlol, vatan, ma’naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Adabiy mavzulardan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarning o‘zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog‘liq tuyg‘ularini uyg‘otishdir.

Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o‘tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, bunyodkorlik ishlari, ulug‘ siymolar amalga oshirgan ishlar, tarixiy sanalar to‘g‘risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Najmiddin Kubro, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur, Pahlavon Mahmud va boshqa ajdodlarimiz haqidagi ma`lumotlar badiiy matnlar asosida o`quvchiga yetkaziladi. Bu xildagi asarlar o‘quvchilarni faqat o‘tmishimiz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas’uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Vatanga muhabbat tuyg‘usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz o‘tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar o‘tmish bilan bugungi kunni taqqoslash imkoniga ega bo‘ladilar. Jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo‘lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada, ayniqsa, milliy istiqlol bilan bog‘liq mavzudagi asarlar yordam beradi.

Badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutilgan holda metodik ishlar tashkil qilinadi. Badiiy asarning san’at hodisasi sifatidagi xos xususiyatlarini chuqur tushunish, mavjud adabiy bilim va tushunchalarni rejadagi asarlar tahliliga tatbiq etish o‘qish darslarining sifat va samaradorligini ta’minlaydi.

Bolalar adabiyotini o’qitish metodikasi ayni yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish metodlari, usullari va vositalarini, o`quvchilarga adabiy ta`lim orqali borliq va jamiyat haqida tushuncha berish, o`quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, kamol toptirish kabi amaliy ishlar nazariyasini ishlab chiqadi. O`quvchilarning bilimlarni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish, adabiy ta`lim va hayotni o`zaro uyg`unlashtirishga doir pedagogik imkoniyatlarni kengaytirish texnologiyasini ishlab chiqadi.

Bolalar adabiyoti namunalari barkamol shaxs tarbiyasi, unda ma’naviy sifat va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, milliy o‘zlikni anglash, milliy an’ana va avlodlar o‘rtasidagi vorislikni asrash hamda davom ettirish jarayonida yetakchi o‘rin tutadi. Shuning uchun ham bolalar adabiyotini o`qitish metodikasi oliy ta`limdagi asosiy o`quv fanlaridan biri hisoblanadi. Boshlang`ich sinf o`qituvchisining kasbiy mahorati mazkur predmetning mazmuni va o`qitish metodlarini qay darajada egallab olishiga bog`liq.

Bolalar adabiyotini o`qitish metodikasi talabalarning hozirgi zamon metod, usul, shakl va vositalardan foydalanish qobiliyatini tarkib toptirish, dastur talablari asosida o`quvchilarda bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirish, shaxsini har tomonlama rivojlantirish ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishlariga tayyorlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. –188 б.

Алишер Навоий. Лисонут тайр. матнни нашрга тайёрловчи Ваҳоб Раҳмоню Ваҳоб Раҳмон. –Т.: Ғафур Ғулом, 1991. –462 б.

Qosimova K., Matchonov S. va b. Ona tili o`qitish metodikasi. Boshlang`ich ta`lim fakulteti talabalari uchun darslik. –T.: Noshir, 2009. –352 b.

Matchonov S., G`ulomova X., Suyunov M., Boqiyeva H. Boshlag`ich sinflarda o’qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish.–T.: Yangiyo’l poligraf servis, 2008. –224 b.

Matchonov S., G`ulomova X. Nutq madaniyati. // Boshlang`ich ta’lim. 2000. -№1. -8-10-b.

H.Nusratova. Boshlang’ichsinf O’qish savodxonligi kitobidagi ilmiy ommabop matn va maqolalarning janriyxususiyati hamda ifoda usullari. Ta’limva innovatsion tadqiqotlar 2023/12son.–B.150-154.

H.Nusratova. O’zbek bolalaradabiyoti tadrijida qissa janrining o’rni (S.Barnoyev asarlari misolida).Education human life ilmiy jurnal 2023/1-son. – B.8-18.3.

MAKTABGACHA TA’LIMDAGI RAHBARLIK KOMPETENSIYALARINING DOLZARBLIGI

Berdiyeva Dilafruz Shuxratovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rahbarlik kompetensiyalarining dolzarbligi, ularning boshqaruv samaradorligi va ta’lim sifatiga ta’siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida rahbarlik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda kelajakda rahbarlik kompetensiyalarini yanada chuqur o‘rganish va tizimli rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, rahbarlik kompetensiyasi, boshqaruv samaradorligi, pedagogik jamoa, innovatsion texnologiyalar, ta’lim sifati.

THE RELEVANCE OF LEADERSHIP COMPETENCIES IN PRESCHOOL EDUCATION

Berdiyeva Dilafruz Shukhratovna,
Bukhara State Pedagogical Institute
independent researcher

Abstract. This article scientifically covers the relevance of leadership competencies in preschool educational organizations, their impact on management efficiency and the quality of education. The article considers the development of leadership competencies in preschool educational institutions and the possibilities of further in-depth study and systematic development of leadership competencies in the future.

Keywords: preschool education, leadership competencies, management efficiency, pedagogical team, innovative technologies, quality of education.

АКТУАЛЬНОСТЬ ЛИДЕРСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Бердыева Дилафруз Шухратовна,
Бухарский государственный педагогический институт
независимый исследователь

Аннотация. В данной статье научно рассматривается актуальность лидерских компетенций в организациях дошкольного образования, их влияние на эффективность управления и качество образования. Рассматривается развитие лидерских компетенций в учреждениях дошкольного образования и возможности дальнейшего углубленного изучения и систематического развития лидерских компетенций в будущем.

Ключевые слова: дошкольное образование, лидерские компетенции, эффективность управления, педагогический коллектив, инновационные технологии, качество образования.

Maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning shaxsiyati, ijtimoiy ko‘nikmalari va intellektual salohiyatini shakllantirishda eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, muassasaning pedagogik jarayoni faqatgina malakali pedagoglar bilan emas, balki ularni boshqaradigan rahbarning professional va shaxsiy kompetensiyalari bilan ham bevosita bog‘liq. Zamonaviy jamiyat sharoitida ta’limning sifatli va samarali bo‘lishi rahbarning liderlik qobiliyati, strategik fikrlash salohiyati, innovatsion pedagogik yondashuvlarni tatbiq etish va pedagogik jamoani samarali boshqarish ko‘nikmalariga to‘liq bog‘liqdir. Shu sababli maktabgacha ta’limdagi

rahbarlik kompetensiyalarining dolzarbligi bugungi kunda nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va strategik masala sifatida ham dolzarb hisoblanadi.

Dolzarblikning birinchi jihati shundan iboratki, maktabgacha ta’lim muassasalari ta’lim sifati va bolalarning rivojlanish natijalari bilan bevosita bog‘liqdir. Rahbarning kompetensiyalari yetarli bo‘lmasa, pedagogik jarayon samarali tashkil etilmaydi, jamoaning ish sifati pasayadi va bolalarning rivojlanishidagi natijalar yetarli darajada bo‘lmaydi.

Ikkinchi jihati shundan iboratki, zamonaviy ta’lim muassasalari global va milliy standartlarga moslashish, innovatsion pedagogik metodlarni joriy etish va ijtimoiy talablarni qondirishni talab qiladi. Buning uchun rahbar nafaqat boshqaruv ko‘nikmalariga, balki pedagogik va strategik yondashuvlarni amalga oshirish salohiyatiga ega bo‘lishi zarur.

Uchinchi jihat shundan iboratki, rahbarning shaxsiy kompetensiyasi pedagogik jamoaning motivatsiyasini oshirish, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va innovatsion metodlarni tatbiq etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu sababli, rahbarlik kompetensiyalarining rivojlantirilishi maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish, pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish va bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun eng dolzarb yo‘nalishlardan biridir.

Rahbarlik kompetensiyasi – bu rahbarning maktabgacha ta’lim tashkilotini samarali boshqarish, pedagogik jamoani muvofiqlashtirish va ta’lim sifatini oshirish qobiliyatini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlar to‘plamidir. Bu tushuncha nafaqat rahbarning professional malakasi bilan, balki uning shaxsiy xususiyatlari, pedagogik fikrlash va liderlik qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Rahbarlik kompetensiyasi ikki asosiy komponentdan iborat:

Professional kompetensiyalar: Bu rahbarning strategik rejalashtirish, pedagogik jarayonni boshqarish, innovatsion metodlarni tatbiq etish va ta’lim sifatini monitoring qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Masalan, rahbar maktabgacha ta’lim muassasasining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi, ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishi va pedagogik jamoaning ish samaradorligini baholashi zarur.

Shaxsiy (liderlik) kompetensiyalar: Bu rahbarning shaxsiy xususiyatlari, jumladan liderlik, qaror qabul qilish qobiliyati, stressni boshqarish, kommunikativ ko‘nikmalar va ijtimoiy mas’uliyatini o‘z ichiga oladi. Shu jihat rahbarning pedagogik jamoa bilan samarali muloqot qilishi, motivatsiya yaratishi va muammoli vaziyatlarda ongli qaror qabul qilishi uchun muhimdir.

Rahbarlik kompetensiyasining asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

Strategik fikrlash: Rahbar uzoq muddatli maqsadlarni belgilay olishi va jamoani shu yo‘nalishda boshqarishi kerak.

Innovatsion salohiyat: Rahbar yangi pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodlar va texnologiyalarni joriy etishga qodir bo‘lishi lozim.

Pedagogik tushuncha: Ta’lim jarayonini chuqur anglash, bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish va pedagogik jarayonni optimallashtirish qobiliyati.

Ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalar: Rahbar pedagogik jamoa bilan samarali muloqot qila olishi, nizolarni konstruktiv tarzda hal qilishi va jamoani motivatsiyalashi kerak.

Shaxsiy mas’uliyat: Rahbarning qarorlari nafaqat muassasa faoliyatiga, balki bolalarning har tomonlama rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi, shuning uchun mas’uliyat hissi yuqori bo‘lishi lozim.

Shunday qilib, rahbarlik kompetensiyasi – bu rahbarning pedagogik va shaxsiy salohiyatini kompleks tarzda ifodalovchi tushuncha bo‘lib, u maktabgacha ta’lim tashkilotidagi boshqaruvning samaradorligini, pedagogik jamoaning ish faoliyatini va bolalarning ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Rahbarning yuqori kompetensiyasi muassasa faoliyatini barqaror rivojlantirish, innovatsion jarayonlarni tatbiq etish va pedagogik jamoani samarali boshqarish imkonini beradi.

Rahbarning kompetensiyalari va ta’lim sifati o‘rtasidagi bog‘liqlik amaliy va ilmiy tadqiqotlar

orqali tasdiqlangan. Samarali rahbar pedagogik jarayonni tizimli boshqaradi, pedagoglarni rag‘batlantiradi, innovatsion metodlarni tatbiq etadi va jamoaning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Natijada bolalar faol o‘rganishga jalb qilinadi, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantiradi va maktabgacha ta’lim muassasasining obro‘si oshadi.

Shuningdek, rahbarning shaxsiy va professional kompetensiyalari pedagogik jarayonning samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Masalan, strategik fikrlash va innovatsion salohiyatga ega rahbar ta’lim jarayonini samarali rejalashtiradi va yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etadi. Shu bilan birga, pedagogik jamoani boshqarish va motivatsiyalash qobiliyatiga ega rahbar jamoaning ish faoliyatini yuqori darajada saqlaydi va pedagoglarning professional o‘sishiga yordam beradi.

Shunday qilib, rahbarlik kompetensiyalari va ta’lim sifati o‘rtasidagi bog‘liqlik ikki tomonlama: rahbarning shaxsiy va professional salohiyati pedagogik jarayonning sifatini belgilaydi, pedagogik jamoaning faoliyati va bolalarning rivojlanish darajasi esa rahbarning kompetensiyalarini yanada oshirishga turtki beradi.

Rahbarlik kompetensiyasi maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruvning samaradorligini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, uning afzalliklari va mumkin bo‘lgan cheklovlari ham mavjud bo‘lib, ular rahbarning faoliyatini yanada yaxshilash yoki rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda hisobga olinishi zarur.

Afzalliklari. Ta’lim sifatini oshirish Rahbarning yuqori kompetensiyalari pedagogik jarayonni samarali boshqarish va nazorat qilish imkonini beradi. Strategik va pedagogik kompetensiyalarga ega rahbar muassasa resurslarini optimal taqsimlaydi, innovatsion metodlarni tatbiq etadi va ta’lim jarayonining sifatini uzluksiz oshiradi. Pedagogik jamoani motivatsiyalash va rivojlantirish Rahbarning ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalari pedagogik jamoa bilan samarali muloqot qilishga, ularni rag‘batlantirishga va ijodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Shu tarzda, jamoa faoliyati yaxshilanadi va pedagoglar o‘z malakasini rivojlantirishga intiladi.

Innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish imkoniyati Rahbarning innovatsion kompetensiyalari yangi pedagogik texnologiyalarni – STEAM, Montessori, Reggio Emilia yoki interaktiv o‘quv metodlarini – joriy etishga imkon beradi. Bu bolalarning individual xususiyatlariga moslashtirilgan o‘qitish tizimini yaratadi va o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Strategik va tizimli boshqaruv Rahbarning strategik fikrlash qobiliyati maktabgacha ta’lim muassasasini uzoq muddatli rivojlantirish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, resurslarni samarali boshqarish va muassasa maqsadlariga erishish osonlashadi.

Kamchiliklari. Shaxsiy va professional kompetensiyalarning yetarli emasligi Ba’zan rahbarlarda strategik, pedagogik yoki shaxsiy kompetensiyalar yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lishi mumkin. Natijada pedagogik jarayon samaradorligi pasayadi, jamoaning motivatsiyasi sustlashadi va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish qiyinlashadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish uchun vaqt va resurs yetishmasligi Rahbarning shaxsiy va professional kompetensiyalarini rivojlantirish doimiy va tizimli jarayonni talab qiladi. Ba’zan rahbarlarda vaqt, moliyaviy resurslar yoki malaka oshirish imkoniyati yetarli bo‘lmasligi sababli kompetensiyalarni oshirish sekinlashadi.

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llashdagi qiyinchiliklar Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun rahbar nafaqat bilimga, balki texnologik va metodik tayyorgarlikka ham ega bo‘lishi kerak. Agar bu jihatlar yetarli bo‘lmasa, innovatsion metodlarni qo‘llash samarasi past bo‘ladi va pedagogik jarayonni samarali boshqarish qiyinlashadi.

Jamoa bilan muloqotdagi qiyinchiliklar Rahbarning ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalari yetarli bo‘lmasa, pedagogik jamoa bilan muloqot muammoli bo‘ladi. Bu esa nizolarni hal qilish, motivatsiya yaratish va jamoaning kreativ faoliyatini rag‘batlantirish jarayonlarini qiyinlashtiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida rahbarlik kompetensiyasi boshqaruv samaradorligi va ta’lim sifatini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Rahbarning bilim, ko‘nikma va shaxsiy xususiyatlari

pedagogik jarayonning barcha bosqichlariga bevosita ta’sir qiladi, pedagogik jamoaning faoliyatini optimallashtiradi va bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Birinchidan, rahbarlik kompetensiyalari pedagogik jamoaning ish faoliyatini samarali tashkil etishga imkon beradi. Strategik, pedagogik va ijtimoiy kompetensiyalarga ega rahbar muassasada ta’lim jarayonini tizimli rejalashtiradi, pedagogik metodlarni optimallashtiradi va resurslarni samarali taqsimlaydi. Shu tarzda rahbar jamoaning samaradorligini oshiradi va muassasa faoliyatining barqarorligini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, rahbarning kompetensiyalari ta’lim sifatini bevosita oshiradi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni – masalan, STEAM, Montessori yoki Reggio Emilia yondashuvlarini – amaliyotga joriy etish, darslarni individual xususiyatlarga moslashtirish va pedagogik jamoani doimiy malaka oshirishga jalb qilish orqali rahbar maktabgacha ta’lim muassasasida ta’lim sifatini yuqori darajaga olib chiqadi. Shu bilan birga, rahbar bolalarning individual rivojlanishini kuzatadi va pedagogik jarayonni doimiy ravishda takomillashtiradi.

Uchinchidan, rahbarlik kompetensiyasi pedagogik jamoaning motivatsiyasini oshirish va ijobiy psixologik muhit yaratishda muhim omil hisoblanadi. Rahbarning kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalari pedagoglarni samarali boshqarish, ularni rag‘batlantirish va jamoa ichida kreativlikni rivojlantirish imkonini beradi. Natijada pedagogik jarayon yanada samarali bo‘ladi va bolalarning ta’limdagi muvaffaqiyatlari oshadi.

Shuningdek, rahbarlik kompetensiyalari strategik boshqaruvni ta’minlaydi. Rahbar uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqadi, muassasa resurslarini optimallashtiradi va ta’lim maqsadlariga erishish jarayonini tizimli nazorat qiladi. Shu bilan rahbar maktabgacha ta’lim muassasasining obro‘si va samaradorligini oshiradi, ta’lim jarayoni barqaror va sifatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa. Rahbarlik kompetensiyasi maktabgacha ta’lim tashkilotida boshqaruvning samaradorligi va ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Uning afzalliklari pedagogik jarayonni optimallashtirish, jamoani rag‘batlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va strategik boshqaruvni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kamchiliklar – kompetensiyalar yetarli bo‘lmasligi, resurs va vaqt cheklovlari, innovatsion metodlarni tatbiq etishdagi qiyinchiliklar va jamoa bilan muloqotdagi muammolar – rahbarning samarali faoliyatini cheklashi mumkin. Shu sababli rahbarlik kompetensiyalarini tizimli rivojlantirish va monitoring qilish maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Rahbarlik kompetensiyasi maktabgacha ta’lim tashkilotida boshqaruv samaradorligini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashda asosiy vosita hisoblanadi. U pedagogik jarayonni tizimli boshqarish, pedagogik jamoani rag‘batlantirish, innovatsion metodlarni tatbiq etish va bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash orqali muassasani muvaffaqiyatli rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli rahbarlik kompetensiyalarini doimiy rivojlantirish va monitoring qilish maktabgacha ta’lim tizimining sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Ahmedova Sh.M. Maktabgacha ta’limda rahbarlik va pedagogik boshqaruv. – Toshkent: Ta’lim, 2018. – 145 b.

Karimov B.X. Rahbarlik kompetensiyalari va ta’lim sifati. – Toshkent: Fan va ta’lim, 2019. – 132 b.

Yunusova L.N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va rahbarning roli maktabgacha ta’limda. – Toshkent: Pedagogika, 2020. – 156 b.

Raximov I. Maktabgacha ta’lim muassasalarida boshqaruvning samaradorligini oshirish. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti, 2021. – 148 b.

Saidova M.A. Pedagogik jamoani boshqarish va rahbarlik kompetensiyalari. – Toshkent: Ta’lim, 2017. – 138 b.

Tursunova Z.R. Maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlar va rahbarning roli. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 142 b.

Abdullayev F.M. Rahbarning shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish metodlari. – Toshkent: Fan va ta’lim, 2019. – 127 b.

Usmonova N.Sh. Maktabgacha ta’lim muassasasida boshqaruv va pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Ta’lim, 2021. – 150 b.

Mirzayev D.B. Maktabgacha ta’lim muassasasida rahbarlik va pedagogik jamoaning samaradorligi. – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti, 2018. – 134 b.

Hakimova L.M. Rahbarlik kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Pedagogika, 2020. – 140 b.

KREDIT TA’LIM SHAROITIDA TALABALARNING KASBIY SIFATLARINI IZCHILLIK TAMOYILI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Bozorova Muazzam Hamid qizi,
TDIU tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kredit ta’lim tizimi sharoitida talabalarning kasbiy sifatlarini izchillik tamoyili asosida shakllantirishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Kredit-modul tizimining o‘ziga xos jihatlari, kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish mexanizmlari hamda metodikani takomillashtirish yo‘nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida kasbiy sifatlarni izchil shakllantirish modeli ishlab chiqildi va uning samaradorligi asoslandi.

Kalit so‘zlar: kredit-modul tizimi, kasbiy sifat, kompetensiya, izchillik tamoyili, mustaqil ta’lim, baholash mezonlari.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПА ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТИ В КРЕДИТНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Бозорова Муаззам Хамид кизи,
соискатель ТГЭУ

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и методологические основы формирования профессиональных качеств студентов на основе принципа согласованности в контексте кредитно-модульной системы образования. Выделены специфические аспекты кредитно-модульной системы, механизмы поэтапного развития профессиональных компетенций и направления совершенствования методологии. В результате исследования разработана модель согласованного формирования профессиональных качеств и обоснована ее эффективность.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, профессиональное качество, компетенция, принцип согласованности, самостоятельное обучение, критерии оценки.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’ PROFESSIONAL SKILLS BASED ON THE PRINCIPLE OF CONSISTENCY IN CREDIT-BASED EDUCATION

Bozorova Muazzam,
applicant TSUE

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing students’ professional competencies based on the principle of consistency in the context of a credit-modular education system. Specific aspects of the credit-modular system, mechanisms for the phased development of professional competencies, and areas for improving the methodology are highlighted. The study resulted in the development of a model for the consistent development of professional competencies and a justification for its effectiveness.

Key words: credit-modular system, professional quality, competence, principle of consistency, independent learning, assessment criteria.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida kredit-modul tizimi keng joriy etildi. Ushbu islohotlar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan ta’limni xalqaro standartlarga moslashtirish siyosati bilan uzviy bog‘liqdir.

Kredit tizimi talabaning mustaqil ta’lim ulushini oshiradi, individual o‘quv trayektoriyasini belgilash imkonini beradi va kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytiradi. Biroq fanlararo integratsiya, kasbiy sifatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish va uzviy monitoring masalalari

yetarli metodik asoslanmagan. Shu bois izchillik tamoyiliga asoslangan metodikani takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimi sharoitida talabalarda kasbiy sifatlarni shakllantirish jarayoni tasodifiy emas, balki ilmiy asoslangan, tizimli va uzluksiz bo‘lishi zarur. Ayniqsa kredit-modul tizimi keng joriy etilayotgan bugungi kunda kasbiy tayyorgarlikni izchil tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda kasbiy sifatlarni shakllantirish masalalariga oid bir qator mahalliy tadqiqotchilarning ishlarini ko‘rishimiz mumkin.

Jumladan, Z.T.Choriyeva oliy ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish masalalarini tahlil qilgan. Uning ishlarida kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni nafaqat nazariy, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga olishi lozimligi ta’kidlangan. Muallif ta’lim jarayonidagi nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi uzviylikni ta’kidlaydi, hamda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllanishida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash muhimligini uqtirib o‘tadi.

Z.T.Raximov esa o‘z ishlarida o‘quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirish orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirish masalalarini ko‘rib chiqadi. Kasbiy sifatlar sifatida kreativlik, moslashuvchanlik, tezkor o‘zgarishlarga tayyorlik kabi elementlar ajratib ko‘rsatadi.

M.F.Xakimova va F.X.Karimovalar esa, talabalarning professional kompetensiyasini shakllantirish metodologiyasini nazariy jihatdan talqin qilgan va kompetensiya tushunchasini zamonaviy ta’limda talab etiladigan ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liq holda yoritgan.

Sh.Quysinova pedagogik amaliyotning talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil etib, pedagogik amaliyot nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishi, ko‘nikmalarni mustahkamlashda muhim vosita ekanini qayd etadi.

Sh.U.Qosimov o‘z ishlarida ta’limda nazariya va amaliyotni integratsiyalash orqali talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning tavsifini beradi. Bu yondashuvning izchillik tamoyili asosida amalga oshirilishi ta’kidlanadi, ya’ni har bir bosqich maqsadga yo‘naltirilgan, oldingi bilimlar asosida qurilishi ta’kidlab o‘tiladi.

S.Boltakovning ishlarida esa kasbiy kompetensiyani shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, loyihaviy ta’lim, interaktiv usullardan foydalanish yaxshi samara berishi keltiriladi. Bu metodlar izchillik tamoyili asosida samarali natijalarga erishish uchun qo‘llanilishi muallif tomonidan uqtirib o‘tiladi.

ILMIY TADQIQOT METODLARI. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: pedagogik kuzatuv; so‘rovnoma va test; tajriba-sinov ishlari; statistik tahlil; qiyosiy tahlil. Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy yondashuv, tizimlilik, izchillik va integrativlik tamoyillari qabul qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Izchillik — bilim, ko‘nikma va malakalarni bosqichma-bosqich, mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirishni nazarda tutuvchi pedagogik tamoyil.

Izchillik tamoyili quyidagi jihatlarni ta’minlaydi:

O‘quv fanlari o‘rtasidagi vertikal integratsiya

Nazariya va amaliyot uyg‘unligi

Kompetensiyalarni spiral tamoyil asosida rivojlantirish

Baholash tizimining uzluksizligi

Kredit tizimida talaba mustaqil faoliyatining oshishi izchillikni metodik jihatdan puxta loyihalashni talab qiladi.

Izchillik tamoyili bilim, ko‘nikma va malakalarni oddiydan murakkabga, nazariyadan amaliyotga qarab mantiqiy ketma-ketlikda shakllantirishni anglatadi. Kredit tizimida bu tamoyil ayniqsa muhim, chunki fanlar mustaqil modul sifatida o‘qitiladi.

Kasbiy sifatlar — bu shaxsning muayyan kasbiy faoliyatni samarali bajarishi uchun zarur

bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, shaxsiy fazilat va qadriyatlar majmuasidir.

Ular mutaxassisning nafaqat nazariy tayyorgarligini, balki amaliy faoliyatga tayyorligini, kasbiy mas’uliyatini va ijtimoiy moslashuvchanligini ham ifodalaydi.

Kasbiy sifatlar murakkab va ko‘p komponentli tabiatga ega bo‘lib: bilim (kognitiv komponent), amaliy ko‘nikma (operatsion komponent), kasbiy qadriyat va motivatsiya, shaxsiy-psixologik, refleksiv tahlil qobiliyati kabi bir-biri bilan uzviy bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat.

Kognitiv (bilimga oid) komponent - kasbga oid nazariy bilimlar, soha bo‘yicha tushunchalar tizimi; tahlil va mantiqiy fikrlash qobiliyatidan iborat.

Operatsion (amaliy) komponent - amaliy ko‘nikmalar; muammoni hal qilish malakasi; kasbiy vazifalarni bajarish texnikasini o‘z ichiga oladi.

Motivatsion komponentni esa, mutaxassisning kasbga qiziqishi; kasbiy mas’uliyat va o‘zini rivojlantirishga intilishi tashkil etadi.

Shaxsiy-psixologik komponent insondagi muloqot madaniyati, stressga bardoshlilik; moslashuvchanlik; halollik va intizomni ifodalaydi.

Refleksiv komponent - o‘z faoliyatini tahlil qilish; xatolar ustida ishlash; kasbiy o‘sishni rejalashtirish kabilardir.

Ular bir martalik ta’sir orqali emas, balki bosqichma-bosqich, mantiqiy ketma-ketlikda shakllanadi. Agar izchillik ta’minlanmasa, bilim va ko‘nikmalar o‘rtasida uzilish yuzaga keladi.

Kasbiy sifatlar tug‘ma emas. Ular ta’lim jarayonida, amaliy tajriba davomida, izchil pedagogik ta’sir orqali shakllanadi va rivojlanadi.

Kasbiy sifatlar nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish orqali shakllanadi. Ushbu jarayonda izchillik tamoyili avval fundamental bilimlarni, so‘ng amaliy ko‘nikmalarni, keyin esa mustaqil kasbiy faoliyat elementlarini bosqichma-bosqich joriy etishni nazarda tutadi. Bu jarayon uzluksiz bo‘lmasa, talabaning kasbiy tayyorgarligida nomutanosiblik yuzaga keladi.

Zamonaviy mutaxassis mustaqil qaror qabul qila olishi, kreativ fikrlashi, tez moslasha olishi, kommunikativ bo‘lishi zarur. Bu sifatlar qisqa muddatda emas, balki tizimli pedagogik ta’sir orqali shakllanadi. Izchillik tamoyili kasbiy kompetensiyalarni oddiydan murakkabga qarab rivojlantirish imkonini beradi.

Kredit tizimida fanlar mustaqil modul sifatida o‘qitiladi. Bu esa, fanlararo uzviylik sustlashishiga, kasbiy kompetensiyalarning parchalanishiga, umumiy kasbiy tayyorgarlikning tizimsiz shakllanishiga olib kelishi mumkin. Izchillik tamoyili esa fanlararo vertikal va gorizontal integratsiyani ta’minlab, kasbiy sifatlarning yagona tizim sifatida rivojlanishini kafolatlaydi.

Talabalarning kasbiy sifatlarini izchillik tamoyili asosida shakllantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

Maqsad va natijalarning aniqligi, ya’ni har bir bosqichda shakllantirilishi kerak bo‘lgan kasbiy sifatlar aniq belgilanishi kerak; ular kompetensiyalar ko‘rinishida ifodalanishi lozim; semestr yakunida kutilayotgan natijalar o‘lchanadigan mezonlarga ega bo‘lishi zarur. Agar maqsad noaniq bo‘lsa, izchillik buziladi.

Fanlararo integratsiya - kredit tizimida fanlar modul asosida o‘qitiladi. Shu sababli, fanlar o‘rtasidagi vertikal bog‘liqlik ta’minlanishi, oldingi bosqichdagi bilimlar keyingi fanlarda qo‘llanilishi; nazariya va amaliyot uzviy bog‘lanishi zarur. Aks holda kasbiy sifatlar parchalanib shakllanadi.

Oddiydan murakkabga tamoyili - kasbiy sifatlar avval nazariy bilim asosida, keyin amaliy ko‘nikmalar orqali, so‘ng mustaqil kasbiy faoliyat elementlari yordamida bosqichma-bosqich rivojlantirilishi lozim. Murakkab topshiriqlarni erta bosqichda berish samaradorlikni pasaytiradi.

Mustaqil ta’limni maqsadli tashkil etish - izchillikni ta’minlash uchun mustaqil ta’lim real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan bo‘lishi, loyiha va keys-stadi asosida tashkil etilishi, refleksiv tahlil bilan yakunlanishi kerak. Shunchaki referat yoki nazariy topshiriqlar kasbiy sifatlarni chuqur shakllantirmaydi.

Diagnostika va monitoring tizimi. Izchillik — bu nazorat va tahlilni ham talab qiladi. Shu bois kirish diagnostikasi joriy (formativ) baholash, yakuniy baholash, o‘z-o‘zini baholash, uzviy bog‘langan bo‘lishi zarur. Monitoring bo‘lmasa, rivojlanish dinamikasi aniqlanmaydi.

Motivatsion omil. Kasbiy sifatlar faqat bilim orqali emas, balki ichki motivatsiya orqali shakllanadi. Shuning uchun kasbning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, real mehnat bozori talablari bilan tanishtirish, muvaffaqiyatli mutaxassislar tajribasini o‘rganish muvofiqdir.

Refleksiya va o‘zini rivojlantirish. Talaba o‘z kasbiy rivojlanishini tahlil qila olishi, kamchiliklarini aniqlashi, shaxsiy rivojlanish rejasini tuza olishi kerak. Refleksiyasiz izchillik to‘liq ta’minlanmaydi.

Amaliyot bilan uzviylik. Nazariya va ishlab chiqarish amaliyoti o‘rtasida uzviy aloqa bo‘lishi kerak. Amaliy mashg‘ulotlar bosqichma-bosqich murakkablashishi, ishlab chiqarish amaliyoti o‘quv jarayonining mantiqiy davomi bo‘lishi, amaliyot natijalari tahlil qilinishi zarur.

Talabalarning kasbiy sifatlarini izchillik tamoyili asosida shakllantirishda quyidagi asosiy tamoyil saqlanishi kerak:

Maqsad→Mazmun→Faoliyat→Baholash→Tahlil→Takomillashtirish

Agar ushbu zanjir uzilmasa, kasbiy sifatlar tizimli va barqaror shakllanadi.

Tadqiqot asosida biz quyidagi metodik takliflarni ishlab chiqishga muvaffaq bo‘ldik:

1. Kompetensiyaviy xarita ishlab chiqish. Har bir fan kesimida shakllantiriladigan kasbiy sifatlar aniqlanadi va semestrlar bo‘yicha uzviy rejalashtiriladi.

2. Spiral rivojlantirish modelini joriy etish. Kasbiy sifatlar har bir bosqichda takroran, ammo murakkablashgan darajada shakllantiriladi.

3. Mustaqil ta’limni kasbiy vazifalarga yo‘naltirish. Bunda amaliy loyiha ishlari, keys-stadi, portfolio yuritish, muammoli vaziyatli topshiriqlardan foydalanish.

4. Diagnostik baholash tizimini yo‘lga qo‘yish. Kirish diagnostikasi, joriy (formativ) baholash, yakuniy (summativ) baholash, refleksiv tahlilni amalga oshirish.

5. Raqamli monitoringni amalga oshirish. Talabaning kasbiy rivojlanish dinamikasini kuzatish uchun elektron platformalardan foydalanish.

Tajriba-sinov ishlari davomida takomillashtirilgan metodika qo‘llanilgan guruhlarda:

kasbiy kompetensiyalar ko‘rsatkichlari oshdi;

mustaqil ta’lim samaradorligi yaxshilandi;

refleksiv ko‘nikmalar rivojlandi;

o‘quv motivatsiyasi kuchaydi.

Statistik tahlil natijalari metodikaning samaradorligini tasdiqladi.

XULOSA

Kredit ta’lim sharoitida talabalarning kasbiy sifatlarini izchillik tamoyili asosida shakllantirish o‘quv jarayonining tizimliligi va samaradorligini ta’minlaydi. Ishlab chiqilgan metodik model:

fanlararo integratsiyani kuchaytiradi;

kasbiy kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantiradi;

baholash tizimini diagnostik asosda takomillashtiradi;

talabaning mustaqil faoliyatini maqsadli tashkil etadi.

Natijada, bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashuv darajasi oshadi va ta’lim sifati yaxshilanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Raximov Z.T. Ta’lim jarayonida talabalar o‘quv-bilish kompetentligini rivojlantirish. // “Zamonaviy ta’lim” jurnali 2020 yil № 3-son, 3-10-b.

Xakimova M.F., Karimova F.X. Methodology of Formation of students’ Professional Competence Based on Innovative Approach // https://www.ejournal.bumipublikasinusantara.

Quysinova Sh. Pedagogik amaliyot – talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirishning muhim omili sifatida // (2025). Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 3(2).

TA’LIM JARAYONIDA SUBYEKT RIVOJLANISHIDA FAOLIYATNING O‘RNI

Eshtemirov Axror Nurmaxmatovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar kafedrasi mudiri

Taklif etilayotgan nazariy va metodologik model kasb-hunar ta'limi tizimidagi ta'lim jarayoniga raqamlashtirish texnologiyalarini tizimli va bosqichma-bosqich joriy etishga qaratilgan. Ushbu model bibliometrik va nazariy tahlil natijalari asosida ishlab chiqilgan va texnik oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga mo'ljallangan. Model bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir nechta bosqichlardan iborat bo'lib, ularning har biri aniq pedagogik vazifalarni bajarishga qaratilgan hisoblanadi.

1-jadval. Kasb-hunar ta'limi tizimida raqamlashtirish texnologiyalarining nazariy va metodologik modeli

Bosqichlar	**Mazmuni**	**Asosiy faoliyat turlari**	**Kutiladigan natijalar**
Diagnostik bosqich	Ta'lim jarayonining hozirgi holatini tahlil qilish	O'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini aniqlash; mavjud platformalar va texnologiyalarni baholash	Raqamlashtirish jarayonidagi muammolar va ehtiyojlar aniqlanadi
Rejalashtirish bosqichi	Raqamlashtirish strategiyasini ishlab chiqish	Raqamli texnologiyalarni tanlash; metodik vazifalarni belgilash; resurslarni rejalashtirish	Maqsadli va tizimli raqamlashtirish rejasi shakllanadi
Mazmuniy-metodik bosqich	Ta'lim mazmunini raqamli asosda tashkil etish	Raqamli o'quv materiallarini tayyorlash; interaktiv mashg'ulotlarni ishlab chiqish	O'quv jarayonining interaktivligi va amaliy yo'naltirilganligi oshadi
Amaliy joriy etish bosqichi	Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish	Masofaviy va aralash ta'limni tashkil etish; virtual laboratoriyalardan foydalanish	Talabalarning o'quv faolligi va mustaqil o'rganish ko'nikmalari rivojlanadi
Monitoring va tahlil bosqichi	Ta'lim samaradorligini baholash	Raqamli platformalar orqali natijalarni monitoring qilish; tahlil asosida tuzatishlar kiritish	Ta'lim sifati va raqamlashtirish samaradorligi oshadi

Ushbu jadvalda keltirilgan nazariy va metodologik model kasb-hunar ta’limi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etishga kompleks va tizimli yondashuvni ta’minlaydi. Bosqichlar ketma-ketligi ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanish, metodologik jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilish va ta’lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish imkonini yaratadi.

XULOSA. Ushbu maqolada kasb-hunar ta’limi tizimida raqamlashtirish texnologiyalarini nazariy va metodologik yondashuv asosida takomillashtirish masalasi muhokama qilindi. Ilmiy manbalar va bibliometrik tahlil natijalari asosida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo’yicha mavjud tadqiqotlarning ustuvor yo’nalishlari, muammolari va ilmiy kamchiliklari aniqlandi. Tahlil natijalari shuni ko’rsatdiki, kasb-hunar ta’limi tizimida raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etishga tizimli va metodologik asoslangan yondashuv yetarlicha emas. Maqolada aniqlangan muammolar asosida kasb-hunar ta’limi tizimi uchun moslashtirilgan nazariy va metodologik model taklif qilindi. Ushbu model diagnostika, rejalashtirish, mazmun va metodologik qo’llab-quvvatlash, amaliy amalga oshirish va raqamlashtirish jarayonini monitoring qilish bosqichlarini o’z ichiga oladi. Modelning bosqichma-bosqich tuzilishi raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga maqsadli va samarali integratsiyalash imkonini beradi va o’qituvchilarning raqamli kompetentsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Taklif qilingan nazariy va metodologik model texnik oliy ta’lim muassasalarida kasb-hunar ta’limi jarayonini tashkil qilish, o’quv mashg’ulotlari sifatini oshirish va talabalarning mustaqil o’rganish va amaliy ko’nikmalarini rivojlantirish uchun metodologik asos sifatida ishlatilishi mumkin. Ushbu yondashuvning ahamiyati shundaki, u raqamlashtirish texnologiyalarini alohida vositalar to’plami sifatida emas, balki yagona pedagogik tizim doirasida ko’rib chiqadi. Kelajakdagi tadqiqotlar doirasida taklif qilingan nazariy va metodologik modelni amalda sinab ko’rish, uning samaradorligini empirik ma’lumotlar asosida baholash va natijalarini tahlil qilish rejalashtirilgan. Modelni kasbiy ta’limning turli sohalariga moslashtirish va raqamli ta’lim muhitining rivojlanish darajasini aniqlash uchun qo’shimcha tadqiqotlar o’tkazish ham ilmiy jihatdan muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1]M. Bond, O. Zawacki-Richter, and M. Nichols, ‘Revisiting five decades of educational technology research: A content and authorship analysis of the British Journal of Educational Technology’, Br. J. Educ. Technol., vol. 50, no. 1, pp. 12–63, Jan. 2019, doi: 10.1111/bjet.12730.

[2]OECD, OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. in OECD Digital Education Outlook. OECD Publishing, 2021. doi: 10.1787/589b283f-en.

[3]A. Kirkwood and L. Price, ‘Technology-enhanced learning and teaching in higher education: what is “enhanced” and how do we know? A critical literature review’, Learn. Media Technol., vol. 39, no. 1, pp. 6–36, Jan. 2014, doi: 10.1080/17439884.2013.770404.

[4]OECD, OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. in OECD Digital Education Outlook. OECD Publishing, 2021. doi: 10.1787/589b283f-en.

[5]European Commission. Joint Research Centre., European framework for the digital competence of educators: DigCompEdu. LU: Publications Office, 2017. Accessed: Dec. 07, 2025. [Online]. Available: https://data.europa.eu/doi/10.2760/159770

[6]S. Guri-Rosenblit, ‘E-Teaching in Higher Education: An Essential Prerequisite for E-Learning’, J. New Approaches Educ. Res., vol. 7, no. 2, pp. 93–97, July 2018, doi: 10.7821/naer.2018.7.298.

[7]O. Zawacki-Richter, V. I. Marín, M. Bond, and F. Gouverneur, ‘Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators?’, Int. J. Educ. Technol. High. Educ., vol. 16, no. 1, p. 39, Dec. 2019, doi: 10.1186/s41239-019-0171-0.

[8] Al Ain University, United Arab Emirates, yousefjarrah1984@gmail.com, hani.jarrah@aau.ac.ae, H. Y. Jarrah, M. S. Alkhazaleh, and Dr., Al Ain University, United Arab Emirates, mohammad.alkhazaleh@aau.ac.ae, ‘Knowledge Sharing Behavior in the Curricula of United Arab Emirates Universities and

Educational Organizations', Int. J. Instr., vol. 13, no. 3, pp. 1–16, July 2020, doi: 10.29333/iji.2020.1331a.

[9]Y. Sun and C. Zhang, 'Achievements and Prospects of Intelligent Development of Teaching Process in Digital Age', in 2021 International Conference on Big Data Analytics for Cyber-Physical System in Smart City, vol. 103, M. Atiquzzaman, N. Yen, and Z. Xu, Eds, in Lecture Notes on Data Engineering and Communications Technologies, vol. 103. , Singapore: Springer Singapore, 2022, pp. 683–689. doi: 10.1007/978-981-16-7469-3_76.

[10] Abdullayev, O.X. (2020). Kasbiy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari. Kasbiy ta'lim ilmiy-amaliy jurnali, 25–30.

[11] Sodiqov, N.N. (2021). Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.

[12] Usmonova N. (2022). Kasbiy ta'lim jarayonida raqamlashtirish texnologiyalari: muammo va yechimlar. // «Professional ta'lim» ilmiy jurnali, №3, 45–49-bet.

[13] Azizov A., Turg'unov D. (2021). Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Samarqand: "Ilm ziyo" nashriyoti.

[14] Вербицкий А.А. Деловая игра как метод активного обучения // «Современная высшая школа». – 2005. – №3. – С. 23-28.

[15] Смолкин А. М. Методы активного обучения: Науч.-метод. пособие. – М.Высшая школа, 1991. Новик М. М. Современные технологии в образовании // Новые знания. – 1999. – № 3. – С. 17–21

15 YOSHLI TAEKVONDOCHILAR TAYYORGARLIGINING METROLOGIK NAZORAT EMPIRIKASI

R.X. Kadirov,
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O`zbekiston

Xamrayev Shamsutdin,
61010300 – Sport faoliyati (Adaptiv jismoniy tarbiya va sport) ta’lim yo`nalishi, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot 15 yoshli taekvondochilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholashda an’anaviy p-qiymatiga (p-value) asoslangan yondashuvlardan voz kechib, metrologik ishonchlilikning zamonaviy empirik modellarini tatbiq etish masalalariga bag’ishlangan. Maqolada sportchilarning portlash kuchi va aerob sig’imidagi o’zgarishlarni tahlil qilishda o’lchovning standart xatosi (SEM), minimal sezilarli o’zgarish (MDC) va sinflararo korrelyatsiya koeffitsiyenti (ICC) kabi yuqori aniqlikdagi statistik metrikalardan foydalanishning ustuvorligi asoslab berilgan. Tadqiqot doirasida superkompensatsiya fenomenini raqamli monitoring qilish hamda sport pedagogikasida «kvant tafakkuri» paradigmasini qo’llash orqali asab-mushak tizimining neyromotor boshqaruvini optimallashtirish imkoniyatlari yoritilgan. Olingan natijalar jismoniy sifatlarning o’sishi shunchaki statistik tasodif emas, balki aniq biologik siljish ekanligini matematik isbotlaydi.

Kalit so’zlar: sport metrologiyasi, empirik tahlil, metrologik ishonchlilik, SEM, MDC, ICC, superkompensatsiya, kvant tafakkuri, neyromotor sinergiya, izokinetik dinamometriya, PWC170.

ЭМПИРИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МЕТРОЛОГИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ ПОДГОТОВКИ 15-ЛЕТНИХ ТХЭКВОНДИСТОВ

Р.Х. Кадиров,
Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан

Хамраев Шамсутдин,
Студент 2-го курса направления образования 61010300 – Спортивная деятельность (Адаптивная физическая культура и спорт)

Аннотация. Данное исследование посвящено вопросам внедрения современных эмпирических моделей метрологической надежности в практику оценки физической подготовленности 15-летних тхэквондистов, обосновывая необходимость отказа от традиционных подходов, ограниченных использованием р-значения (p-value). В статье раскрывается приоритетность применения прецизионных статистических метрик, таких как стандартная ошибка измерения (SEM), минимально значимое изменение (MDC) и внутриклассовый коэффициент корреляции (ICC), для глубокого анализа динамики взрывной силы и аэробной емкости атлетов. В рамках работы рассматриваются возможности оптимизации нейромоторного управления через цифровой мониторинг феномена суперкомпенсации и внедрение парадигмы «квантового мышления» в спортивную педагогику. Полученные данные математически подтверждают, что прирост физических кондиций является не статистической флуктуацией, а детерминированным биологическим сдвигом.

Ключевые слова: спортивная метрология, эмпирический анализ, метрологическая надежность, SEM, MDC, ICC, суперкомпенсация, квантовое мышление, нейромоторная синергия, изокинетическая динамометрия, PWC170.

EMPIRICAL ASPECTS OF METROLOGICAL MONITORING OF 15-YEAR-OLD TAEKWONDO PLAYERS' PREPARATION

R.X. Kadirov,
Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

Shamsutdin Xamrayev,
61010300 – Sports Activity (Adaptive Physical Education and Sports) field of study, 2nd-year student

Abstract This study explores the implementation of modern empirical models of metrological reliability in assessing the physical fitness levels of 15-year-old taekwondo athletes, moving away from traditional p-value-based approaches. The article justifies the priority of using high-precision statistical metrics, such as the Standard Error of Measurement (SEM), Minimal Detectable Change (MDC), and Intraclass Correlation Coefficient (ICC), when analyzing changes in athletes' explosive power and aerobic capacity. The research highlights the potential for optimizing neuromuscular control through digital monitoring of the supercompensation phenomenon and the application of the «quantum thinking» paradigm in sports pedagogy. The results mathematically demonstrate that the improvement in physical qualities is not merely a statistical coincidence but a definitive biological shift.

Keywords: sports metrology, empirical analysis, metrological reliability, SEM, MDC, ICC, supercompensation, quantum thinking, neuromotor synergy, isokinetic dynamometry, PWC170.

KIRISH. Zamonaviy sport tayyorgarligi tizimi, xususan, yuqori dinamikaga ega bo‘lgan taekvondo (WT) yo‘nalishida, faqatgina jismoniy sifatlarni ekstensiv rivojlantirish bilan cheklanib qolmasdan, balki sportchining funksional holatini matematik modellashtirish va obyektiv tahlil qilishga asoslangan innovatsion texnologiyalarga tayanadi. Bugungi kunda taekvondochilarning tayyorgarlik darajasini baholashda eskirgan, faqat miqdoriy ko‘rsatkichlarga tayanuvchi me'yoriy testlar tizimidan voz kechish hamda zamonaviy xalqaro metrologik standartlarni (o‘lchovning ishonchliligi va validligi) joriy etish dolzarb masalaga aylandi [1, 2].

15 yoshli taekvondochilar o‘smirlik davrining kritik bosqichida bo‘lib, bu davrda asab-mushak tizimining reaktivligi va harakat koordinatsiyasi jadal transformatsiyaga uchraydi. Ushbu bosqichda jismoniy tayyorgarlikni metrologik nazorat qilishda oddiy statistik o‘rtacha qiymatlardan ko‘ra, individual o‘zgaruvchanlikni hisobga oluvchi raqamli vositalar (GPS-mikrosensorlar, yuqori chastotali tenzometriya va AI-tahliliy tizimlar) yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda.

Taekvondo sportidagi kognitiv yuklama va oniy qaror qabul qilish jarayonlarini tahlil qilishda sport pedagogikasining yangi paradigmasi — «kvant tafakkuri» (quantum thinking) alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu kontseptsiya sportchining o‘ta qisqa vaqt oralig‘ida va yuqori noaniqlik sharoitida bir vaqtning o‘zida bir nechta taktik variantlarni (superpozitsiya holati) ko‘rib chiqishi va optimal harakat strategiyasini tanlash qobiliyatini tushuntiradi [3]. Bunday murakkab kognitiv-jismoniy jarayonlarni an'anaviy usullar bilan o'lchash imkonsiz bo'lib, ular metrologik nazorat empirikasini tubdan yangilashni taqozo etadi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida, sportchilarning portlash kuchi va aerob sig'imidagi o‘zgarishlarni shunchaki «o'sish» deb emas, balki metrologik jihatdan isbotlangan MDC (Minimal Detectable Change) va SEM (Standard Error of Measurement) ko‘rsatkichlari orqali tahlil qilish tanlandi. Bu yondashuv mashg‘ulot yuklamalari natijasida yuzaga keladigan superkompensatsiya biologik fenomenini raqamli monitoring qilish va boshqarish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi: 15 yoshli taekvondochilarning jismoniy tayyorgarlik jarayonlarini metrologik nazorat qilishda zamonaviy statistik metrikalar va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali tayyorgarlik samaradorligini obyektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

METODOLOGIYA VA TADQIQOT USULLARI.

Tadqiqot jarayonida 15 yoshli taekvondochilarning jismoniy holatini baholashda metrologik obyektivlik tamoyiliga tayanildi. An’anaviy, ko’p hollarda inson omiliga bog’liq bo’lgan subyektiv baholash usullari o’rniga, yuqori validlik (validity) va ishonchlilik (reliability) koeffitsiyentlariga ega bo’lgan apparat-dasturiy majmualar qo’llanildi.

Metrologik nazorat va ishonchlilikni baholash usullari.

Sport amaliyotida olingan ma’lumotlarning ishonchliligini ta’minlash maqsadida tadqiqot natijalarini an’anaviy $p < 0.05$ qiymati bilan bir qatorda, zamonaviy sport fanida qabul qilingan statistik metrikalar yordamida tahlil qildik [4]. Bunda test natijalarining barqarorligini tekshirish uchun quyidagi ko’rsatkichlar hisoblandi:

ICC (Sinflararo korrelyatsiya koeffitsiyenti): Test-retest ishonchliligini baholash uchun qo’llanildi.

SEM (O’lchovning standart xatosi): O`lchov asbobi yoki inson omili tufayli yuzaga keladigan xatolik oralig’ini aniqlash uchun: «SEM= SD · « √(«1 - ICC») formulasi asosida hisoblandi.

MDC (Minimal sezilarli o’zgarish): Sportchining natijasidagi haqiqiy (tasodifiy xatolikdan xoli bo’lgan) o’zgarishni aniqlash uchun: «MDV= SEM · 1.96 · « √(«2») formulasidan foydalanildi [5].

15 Yoshli taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini metrologik nazorat qilish: Empirik tadqiqot modeli.

Tadqiqotning maqsadi.15 yoshli taekvondochilarning portlash kuchi va aerob ish qobiliyatini an’anaviy subyektiv baholash usullaridan voz kechgan holda, o’lchovning standart xatosi (SEM) va minimal sezilarli o’zgarish (MDC) kabi zamonaviy matematik-statistik ko’rsatkichlar orqali obyektiv baholash hamda mashg’ulot yuklamalarining superkompensatsiya fenomeniga ta’sirini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari:

1. Taekvondochilarning anaerob quvvatini (vertikal sakrash kuchi) va aerob sig’imini □«PWC» □_»170» o’lchash.

2. Test natijalarining ishonchliligini sinflararo korrelyatsiya koeffitsiyenti (ICC) orqali aniqlash.

3. O`lchov asbob yoki inson omili tufayli yuzaga kelishi mumkin bo’lgan xatolikni (SEM) hisoblash va sportchilardagi o’zgarishlarning haqiqiy (biologik) siljish ekanligini (MDC) tasdiqlash.

Tadqiqotni tashkil etish shartlari:

1. Kontingent: 15 yoshli o’smir taekvondochilar (n=10).

2. Davomiyligi: 8 haftalik maxsus tayyorgarlik mezotsikli (Pre-test va Post-test).

3. Jihozlar va testlar: Portlash kuchini o’lchash uchun tenzometrik platforma (Sargent Jump Test xalqaro protokoli bo’yicha) hamda aerob ish qobiliyatini baholash uchun veloergometr (□«PWC» □_»170» testi).

4. Statistik ishlov: P-qiymati bilan bir qatorda haqiqiy amaliy ahamiyatni ko’rsatuvchi MDC doirasida.

8 haftalik tayyorgarlik mezotsiklining metodik tuzilmasi. Mezotsiklning asosiy maqsadi — aerob bazani saqlagan holda, portlash kuchi (anaerob quvvat) ko’rsatkichlarini maksimal darajaga ko’tarish va organizmni superkompensatsiya fazasiga olib chiqishdir.

1. Yuklama hajmi va shiddatining dinamikasi

Taekvondoda yuklamalar shiddati yurak urish tezligi (YUT) bo’yicha 5 ta zonaga bo’lib boshqarildi. 15 yoshli sportchilar uchun maksimal YUT (HR max) o’rtacha 200-205 zarba/min deb olindi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

15 yoshli taekvondochilarning 8 haftalik tayyorgarlik mezotsikli tuzilishi va yuklama parametrlarining taqsimoti

Bosqichlar	Haftalar	Yuklama hajmi (soat/hafta)	O'rtacha shiddat (HR max %)	Yo'nalishi
I. Adaptatsiya	1-2 haftalar	12-14 soat	60-70%	Aerob chidamlilik PWC_{170} va texnik poydevor
II. Intensivlashuv	3-5 haftalar	10-12 soat	80-95%	Anaerob quvvat, plyometrika va tezkorlik
III. Maxsus nazorat	6-7 haftalar	8-10 soat	85-95%	Maxsus taktik duel va reaktiv portlash kuchi
IV. Tiklanish/Superkom	8-hafta	4-6 soat	50-60%	Tapering (yuklamani kamaytirish) va Post-test

2. Mashg'ulot yuklamalarining parametrlari. 8 haftalik davr ichida yuklamalar «to'lqinsimon» (undulating periodization) tamoyili asosida taqsimlandi:

Haftasiga 3 marta, davomiyligi 40-60 daqiqa, YUT 150-160 zarba/min (aerob chegara). Bu bazaviy chidamlilikni oshirish va tiklanish jarayonlarini tezlashtirish uchun xizmat qildi.

Haftasiga 2 marta, maksimal shiddatda (95-100%). Sargent Jump Test ko'rsatkichlarini oshirish uchun plyometrik mashqlar (to'siqlar osha sakrash, «chuqurlikdan sakrash») 8-10 soniyali seriyalarda bajarildi.

Hajm va shiddat nisbati: * Mezotsiklning birinchi yarmida (1-4 haftalar) Hajm > Shiddat (60/40 nisbat).

Ikkinchi yarmida (5-8 haftalar) Shiddat > Hajm (30/70 nisbat).

3. Superkompensatsiya fenomenini boshqarish. Tadqiqotning metrologik empirikasi shuni ko'rsatadiki, 8-haftadagi Post-test natijalari superkompensatsiya cho'qqisiga to'g'ri kelishi kerak.

Yuklamaning haddan tashqari yuqori shiddati (overtraining) MDC ko'rsatkichining manfiy bo'lishiga yoki barqaror qolishiga olib keladi. Bizning tadqiqotimizda Vertikal sakrashda 4.6 sm o'sish qayd etilgani, 7-haftadagi «zarba» (shock) yuklamasidan so'ng 8-haftada organizmning funksional resurslari tiklanib, avvalgi holatdan o'zib ketganini (over-reaching) tasdiqlaydi.

4. Metrologik nazorat parametrlari (Empirika). Har bir mashg'ulot blokidan so'ng sportchilarning holati quyidagi metrologik zanjir bo'yicha nazorat qilindi [12]:

Har bir mashg'ulotdan so'ng YUTning tiklanish koeffitsiyenti.

Har haftaning oxirida subyektiv charchoq shkalasi (RPE) va ortostatik sinama.

Etapli nazorat (Pre/Post): Maqolada keltirilgan ICC, SEM, MDC ko'rsatkichlari.

Quyidagi jadvalda 8 haftalik mezotsikldan oldingi (Pre-test) va keyingi (Post-test) o'rtacha

ko’rsatkichlar, standart chetlanish “SD” hamda metrologik ishonchlilik metrikalari keltirilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

15 yoshli taekvondochilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasi va ularning metrologik ishonchlilik (ICC, SEM, MDC) tahlili (n=10)

Metrologik Ko'rsatkichlar	Pre-test (M±SD)	Post-test (M±SD)	ICC (Ishonchlilik)	SEM (Xatolik)	MDC (Haqiqiy o'zgarish)
Vertikal sakrash (VJ, sm)	42.5±3.2	47.1±3.5	0.91	0.96 sm	2.66 sm
Anaerob quvvat (Lewis, W)	815±45	860±48	0.88	15.58 W	43.18 W
PWC_{170} (Nisbiy, W/kg)	2.4±0.3	2.8±0.2	0.85	0.11 W/kg	0.30 W/kg

Tadqiqot ma'lumotlarini sof ilmiy nuqtai nazardan izohlash uchun, natijalardagi farq shunchaki tasodif emasligini matematik isbotlash talab etiladi. Buni Vertikal sakrash “VJ” misolida tahlil qilamiz.

Bosqich 1: O'lchovning standart xatosini “SEM” hisoblash

“SEM” testning qayta o'tkazilishidagi beqarorlikni yoki asbob xatoligini ko'rsatadi. U Pre-testning standart chetlanishi “SD = 3.2” va ICC (0.91) asosida hisoblanadi:

$$SEM = 3.2 \cdot \sqrt{1 - 0.91} = 3.2 \cdot \sqrt{0.09} = 3.2 \cdot 0.3 = 0.96\ sm$$

Interpretatsiya: Har bir sakrashni o'lchashda o'rtacha $\pm o.96\ sm$ xatolik mavjud bo'lishi mumkin.

Bosqich 2: Minimal sezilarli o’zgarishni “MDC” hisoblash

Sportchining natijasi qanchaga o’zgarsagina, biz uni aniq mashg’ulot effekti (superkompensatsiya) deb ayta olamiz? Buni aniqlash uchun 95% ishonchlilik oralig’ida (1.96) va ikkita o’lchovni (Pre/Post) inobatga olgan holda √(«2») hisoblaymiz:

«MDC=0.96 · 1.96 · 1.414≈2.66 sm»

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, taekvondochilarning vertikal sakrash ko’rsatkichi o’rtacha 4.6 sm. ga 47.1 - 42.5 o’sgan. Biz hisoblab chiqqan haqiqiy o’zgarish chegarasi “MDC” esa “2.66 sm. ga teng.

Modomiki o’sish dinamikasi 4.6 sm. xatolik chegarasidan 2.66 sm. yuqori ekan, ushbu o’zgarish statistik va biologik jihatdan haqiqiy hisoblanadi. An’anaviy “p < 0.05” qiymatidan farqli o’laroq, bu yondashuv taekvondochilarning asab-mushak tizimi aynan maqsadli superkompensatsiya fazasiga chiqqanligini 100% metrologik aniqlik bilan tasdiqlaydi. Aerob sig’imda ham «0.4 W⁄kg.

o`sish>0.30 MDC» xuddi shunday ijobiy va ishonchli o'zgarish kuzatilgan.

MUHOKAMA. Olingan empirik natijalar jismoniy tayyorgarlik jarayonida sportchining harakatlarini faqatgina oddiy mexanik siljishlar sifatida emas, balki murakkab neyrofiziologik tizimning adaptatsiyasi sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotimiz davomida 15 yoshli taekvondochilarda qayd etilgan portlash kuchi va anaerob quvvatning ishonchli o'sishi (MDC = 2.66 sm. va 43.18 W) shunchaki mushak massasining gipertrofiyasi emas, balki markaziy asab tizimi (MAT) tomonidan mushaklararo koordinatsiyaning optimallashuvi bilan bevosita bog'liqdir. Bu yosh davridagi sportchilarda asab-mushak tizimining plastikligi yuqori bo'lganligi sababli, metrologik nazorat ostidagi yuklamalar neyromotor boshqaruvning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan [12-14].

Ushbu jarayonni akademik nuqtai nazardan tushuntirishda harakatlar boshqaruvi nazariyasining asoschisi V.M. Zatsiorskiyning «enslaving» (mushaklarning beixtiyoriy faollashuvi) kontseptsiyasi markaziy o'rin tutadi. MATning periferik mushak guruhlariga ta'sirini an'anaviy skalyar kattaliklar bilan emas, balki ko'p o'lchovli matritsali tenglamalar orqali tavsiflash (F = w «·» «n» _»c» + v «·» c) harakat samaradorligini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Agar tadqiqot boshida taekvondochilarda og'irlik koeffitsiyentlari "w" va "v" yuqori bo'lgan bo'lsa, bu sportchining bitta maqsadli harakat uchun ortiqcha energiya sarflayotganini va «neyronal shovqin» yuqori ekanligini anglatadi. 8 haftalik metodik yondashuv natijasida ushbu koeffitsiyentlarning optimallashishi harakatning tejamkorligini va reaktiv portlash quvvatini oshirdi.

Taekvondo kabi vaziyatli sport turlarida sportchi bir vaqtning o'zida ham hujum, ham mudofaa variantlarini ko'rib chiqishi, raqib harakatiga oniy javob berishi shart. Bu jarayonda «kvant tafakkuri» (quantum thinking) paradigmasi sportchining kognitiv faoliyatini tushuntiruvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Sportchi miyasida bir nechta taktik qarorlar «superpozitsiya» holatida bo'ladi va optimal variant millisekundlar ichida tanlanadi. Metrologik asboblar (tenzoplatforma va reaksiyametrlar) yordamida qayd etilgan vaqt ko'rsatkichlarining qisqarishi aynan ushbu kognitiv superpozitsiyadan real harakat vektoriga o'tish jarayoni tezlashganligini tasdiqlaydi [15-17].

Tadqiqot yakunida □«PWC» □_»170» va sakrash ko'rsatkichlaridagi o'sish dinamikasining MDC (Minimal Sezilarli O'zgarish) chegarasidan qat'iy ravishda baland bo'lishi — taekvondochilar organizmi maqsadli superkompensatsiya fazasiga muvaffaqiyatli chiqqanligini metrologik jihatdan isbotlaydi. An'anaviy $p < 0.05$ qiymatidan farqli o'laroq, bu yondashuv natijalarning shunchaki statistik tasodif emas, balki rejalashtirilgan mashg'ulot yuklamalari natijasida yuzaga kelgan haqiqiy biologik siljish ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, sonning orqa va oldingi mushaklari (H/Q ratio) muvozanatining xalqaro standartlarga (60-80% oralig'i) muvofiqlashishi 15 yoshli taekvondochilarda nafaqat natijadorlikning ortishini, balki jarohatlarga chidamlilik darajasi ham yuksalganini namoyon etadi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari va empirik tahlillar asosida 15 yoshli taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini metrologik nazorat qilish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, jismoniy tayyorgarlik jarayonlarini baholashda an'anaviy, ko'p hollarda subyektivlikka asoslangan me'yoriy yondashuvlardan voz kechib, xalqaro metrologik standartlarga (SEM, MDC va ICC) o'tish zarurati isbotlandi. Tadqiqotda qo'llanilgan o'lchovning standart xatosi (SEM) va minimal sezilarli o'zgarish (MDC) metrikalari sportchilar natijasidagi o'sish shunchaki statistik tasodif emas, balki rejalashtirilgan mashg'ulot yuklamalari natijasida yuzaga kelgan haqiqiy biologik siljish ekanligini matematik aniqlikda tasdiqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, 8 haftalik metodik mezotsikl davomida taekvondochilarning portlash kuchi va anaerob quvvat ko'rsatkichlarida qayd etilgan ijobiy dinamika (MDC chegarasidan 2.66 sm va 43.18 W ga yuqori o'sish) organizmning maqsadli superkompensatsiya fazasiga muvaffaqiyatli kirganligidan dalolat beradi. Bu jarayonni raqamli monitoring qilish va yurak urish tezligi o'zgaruvchanligi (HRV) orqali boshqarish, yuklamalarni sportchining individual imkoniyatlariga

mos ravishda modellashtirish samaradorligini oshiradi.

Uchinchidan, sport pedagogikasiga «kvant tafakkuri» paradigmasining joriy etilishi taekvondochilarning o‘zgaruvchan va yuqori noaniqlik sharoitida kognitiv-harakat strategiyalarini tanlash qobiliyatini tubdan yaxshilaydi. Markaziy asab tizimi tomonidan shakllantirilgan neyronal buyruqlarning matritsali tahlili shuni ko’rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida «neyronal shovqin» va mushaklarning beixtiyoriy faollashuvi kamayadi, natijada harakatlarning tejamkorligi va reaktiv quvvati ortadi.

To’rtinchidan, izokinetik dinamometriya va tenzometrik platformalar yordamida amalga oshirilgan kineziologik nazorat 15 yoshli sportchilarda jismoniy sifatlarning o’zaro muvozanatini (masalan, H/Q ratio) xalqaro xavfsiz darajaga (60-80%) yetkazish imkonini berdi. Bu nafaqat sport natijalarini yaxshilashga, balki o‘smirlik davrida tez-tez uchraydigan tayanch-harakat aparati jarohatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, taekvondochilar tayyorgarligini metrologik empirika asosida tashkil etish, mashg’ulot jarayonini shunchaki pedagogik mahoratdan qat’iy o’lchanadigan aniq fan darajasiga ko’taradi. Ushbu yondashuv sport zaxiralarini tayyorlashda raqamli monitoring va zamonaviy statistik modellarni integratsiya qilish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo’nalishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Impellizzeri F.M., Marcora S.M., Coutts A.J. Internal and External Training Load: 15 Years On // International Journal of Sports Physiology and Performance. – 2019. – Vol. 14, No. 2. – P. 270-273.

2. Зациорский В.М. Биомеханика двигательного аппарата человека. – Москва: Физкультура и спорт, 1981. – 143 с.

3. Kadirov R.X. Jismoniy tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi : Darslik / R. X. Kadirov. – Buxoro : “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti. 2020. – 184 b..

4. Hopkins W.G. Measures of reliability in sports medicine and science // Sports Medicine. – 2000. – Vol. 30, No. 1. – P. 1-15.

5. Weir J.P. Quantifying test-retest reliability using the intraclass correlation coefficient and the SEM // Journal of Strength and Conditioning Research. – 2005. – Vol. 19, No. 1. – P. 231-240.

6. Bahr R., Krosshaug T. Understanding injury mechanisms: a key component of preventing injuries in sport // British Journal of Sports Medicine. – 2005. – Vol. 39, No. 6. – P. 324-329.

7. Sayers S.P. et al. Cross-validation of three jump power equations // Medicine and Science in Sports and Exercise. – 1999. – Vol. 31, No. 4. – P. 572-577.

8. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. – Киев: Олимпийская литература, 2015. – 680 с.

9. Aagaard P., Simonsen E.B., Magnusson S.P. A new concept for isokinetic hamstring: quadriceps muscle strength ratio // The American Journal of Sports Medicine. – 1998. – Vol. 26, No. 2. – P. 231-237.

10. Zatsiorsky V.M., Kraemer W.J. Science and Practice of Strength Training. 2nd ed. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2006. – 251 p.

11. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Darslik. – Toshkent: O’zDJTSU nashriyoti, 2021. – 280 b.

12. Kadirov R. X. Jismoniy tarbiya jarayonida diagnostik usullar amaliyoti //PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 163-168.

13. Abdullayev, M. J., & Xusenov, N. N. DEVELOPMENT OF PHYSICAL AND TECHNICAL ENDURANCE IN THE PRIMARY STAGE OF JUDOKAS.Наука и спорт: современные тенденции. № 4 (Том 13), 2025 г. DOI: 10.36028/2308-8826-2025-13-4-8-17

14. Shukurov, R. S., Narzullayeva, R. R., & Husenov, N. N. (2024). The culture of a healthy lifestyle of students in the context of distance learning and its organizational and methodological

features. In BIO Web of Conferences (Vol. 120, p. 01022). EDP Sciences.

15. Кадиров, Р. Х., Орипова, Н. М., & Хусенов, Н. Н. WAYS OF ACTIVATING INDEPENDENT WORK STUDENTS IN MODERN CONDITIONS.

16. Хусенов Н. Н. СОВРЕМЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ //Теоретико-методологические основы и методико-практические аспекты. – 2025. – С. 117.

17. Xusenov N. KEKSA YOSHDAGI KISHILARNING YURAK VA QON TOMIRLARI FUNKSIYALARINING PEDAGOGIK PRAFILAKTIKA JARAYONLARI //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2.

ПЕДАГОГИКА ЙЎНАЛИШИДАГИ ДОКТОРЛИК ДИССЕРТАЦИЯЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА МУАММОЛИ - ТИЗИМЛИ ЁНДАШУВ

Махмудов Абдулхалим Хамидович,
Қори Ниези номидаги тарбия педагогикаси миллий институт, “Milliy tarbiyaning raqamli pedagogik ta’minoti” илмий- бўлим мудири, п.ф.д., профессор

Аннотация. Ушбу мақолада педагогика йўналишидаги докторлик диссертацияларини тайёрлаш жараёнини самарали ташкил этиш масаласи муаммоли-тизимли ёндашув асосида ёритилади. Муаммоли-тизимли ёндашув диссертация тайёрлаш жараёнини яхлит тизим сифатида кўриб чиқиш, ҳар бир босқичнинг мақсади, вазифалари ва натижаларини ўзаро боғлиқ ҳолда режалаштириш имконини беради. Мақолада мазкур ёндашув педагогика соҳасидаги докторлик диссертацияларининг илмий сифатини ошириш, хатоларни камайтириш ва ҳимояга тайёрлаш самарадорлигини кучайтиришнинг муҳим методологик воситаси сифатида асосланади.

Калит сўзлар. Муаммоли-тизимли ёндашув, педагогика йўналиши, докторлик диссертацияси, илмий тадқиқот методологияси, диссертация тайёрлаш технологияси, назарий-методологик босқич, эмпирик тадқиқот, илмий натижаларни умумлаштириш, диссертацияни ҳимоя қилиш.

Аннотация. В данной статье освещается вопрос эффективной организации процесса подготовки докторских диссертаций в области педагогики на основе проблемно-системного подхода. Проблемно-системный подход позволяет рассматривать процесс подготовки диссертации как целостную систему, взаимосвязанно планировать цели, задачи и результаты каждого этапа. В статье данный подход обосновывается как важный методологический инструмент повышения научного качества докторских диссертаций в области педагогики, снижения ошибок и повышения эффективности подготовки к защите.

Ключевые слова. Проблемно-системный подход, педагогическое направление, докторская диссертация, методология научного исследования, технология подготовки диссертации, теоретико-методологический этап, эмпирическое исследование, обобщение научных результатов, защита диссертации

Abstract. This article highlights the issue of effectively organizing the process of preparing doctoral dissertations in the field of pedagogy based on a problem-system approach. The problem-system approach allows us to consider the process of preparing the dissertation as a holistic system, planning the goals, objectives, and results of each stage in their interrelation. The article substantiates this approach as an important methodological tool for improving the scientific quality of doctoral dissertations in the field of pedagogy, reducing errors, and increasing the effectiveness of preparation for defense.

Keywords. Problem-system approach, pedagogical direction, doctoral dissertation, research methodology, dissertation preparation technology, theoretical and methodological stage, empirical research, generalization of scientific results, defense of the dissertation

Кириш. Ҳозирги кунда олий таълим ва илмий-тадқиқот тизимида педагогика йўналишидаги докторлик диссертацияларига қўйилаётган талаблар тобора ортиб бормоқда. Илмий тадқиқотларнинг сифати, янгилиги ва амалий аҳамияти, аввало, диссертация тайёрлаш жараёнининг тўғри ташкил этилгани, методологик жиҳатдан пухта режалаштирилгани ва илмий мантиққа асосланган билан белгиланади. Бироқ амалиёт шуни кўрсатмоқдаки, кўплаб докторантлар диссертация ёзиш жараёнида тадқиқот муаммосини аниқ белгилаш, назарий-методологик асосларни танлаш, эмпирик тадқиқотни изчил ташкил этиш ва натижаларни илмий асосда умумлаштиришда қатор қийинчиликларга дуч келмоқда.

Мазкур ҳолат диссертация тайёрлаш жараёнига тасодифий ёндашув, босқичлар ўртасидаги узвий боғлиқликнинг етарли даражада таъминланмаслиги ва тадқиқот мантиғининг бузилишига олиб келмоқда. Шу боис педагогика йўналишидаги докторлик диссертацияларини тайёрлашда тадқиқотни яхлит тизим сифатида ташкил этиш, ҳар бир босқичнинг мақсади, вазифалари ва натижаларини аниқ белгилашга асосланган илмий ёндашувга эҳтиёж ортиб бормоқда.

Муаммоли-тизимли ёндашув айнан шу эҳтиёждан келиб чиққан ҳолда, диссертация тайёрлаш жараёнини муаммони қўйишдан тортиб, илмий хулосалар ва амалий тавсиялар ишлаб чиқишга қадар бўлган яхлит технологик жараён сифатида кўриб чиқиш имконини беради. Ушбу ёндашув тадқиқот муаммосини чуқур таҳлил қилиш, назарий ва эмпирик босқичларни узвий боғлаш, шунингдек илмий натижаларнинг ишончлилиги ва аҳамиятини оширишга хизмат қилади.


Шу нуқтаи назардан, мазкур мақолада педагогика йўналишидаги докторлик диссертацияларини тайёрлашда муаммоли-тизимли ёндашувнинг назарий-методологик асосларини очиб бериш, унинг имкониятлари ва самарадорлигини асослаш мақсад қилинган.

Асосий қисм. Педагогика йўналишидаги докторлик диссертацияси, аввало, долзарб илмий муаммони аниқлаш ва уни ҳал қилишга қаратилган назарий-методологик асосга эга бўлиши лозим. Муаммоли-тизимли ёндашув тадқиқотни алоҳида элементлар йиғиндиси эмас, балки ўзаро боғлиқ ва бир-бирини тўлдирувчи қисмлардан иборат яхлит тизим сифатида қарашни назарда тутади. Мазкур ёндашув доирасида тадқиқот муаммоси, мақсад ва вазифалар, объект ва предмет, методологик ёндашувлар ҳамда ишчи гипотеза ўзаро мантиқий боғлиқ ҳолда шакллантирилади [1, 2]. Амалда эса кўплаб докторантлар диссертацияни қаердан бошлаш, қандай кетма-кетликда ишлаш ва қайси босқичларда хатолардан сақланиш кераклигини аниқ билмасдан иш бошлайди. Бу эса вақт йўқотишга, ишончсизликка ва баъзан жиддий илмий хатоларга олиб келади.

Ушбу мақолада ана шу муаммоларни бартараф этишнинг ечимлари таклиф қилинади. Диссертацияни тайёрлаш жараёни 3 босқич мантиқий ва кетма-кет қадамга ажратилган. Ҳар бир босқич докторантга нима қилиш кераклигини, нима учун айнан шу иш бажарилиши зарурлигини ва қайси хатолардан эҳтиёт бўлиш лозимлигини аниқ кўрсатади. Бу босқичларни муаммоли-тизимли ёндашув асосида бажариш мақсадга мувофиқдир.

Муаммоли-тизимли ёндашув докторлик диссертациясини тайёрлашда тадқиқот муаммосини аниқлашдан то натижаларни умумлаштиришга қадар бўлган барча жараёнларни тизимли ва мантиқий боғлиқ ҳолда ташкил этиш имконини беради[3, 4]. Бундан ташқари, ушбу ёндашув диссертациянинг ҳар бир босқичини самарали ва аниқ тарзда режалаштириш, тадқиқотнинг методологик ва назарий жиҳатларини мустаҳкамлаш, шунингдек ҳимоя жараёнида илмий янгиликни кўрсатиш учун замин яратади[5, 6].

Муаллифнинг шахсий тадқиқот тажрибаси[7], шунингдек, мазкур соҳадаги кенг қамровли илмий манбалар таҳлили асосида диссертациясини тайёрлаш ва ҳимоя қилишнинг босқичма-босқич технологияси ишлаб чиқилди(1- расм).



1-Расм. Диссертациясини тайёрлаш ва ҳимоя қилишнинг босқичма-босқич технологияси

Биринчи босқич “Тадқиқотнинг назарий-методологик босқичи” деб номланади ва у илмий муаммони аниқлаш, муаммони ўрганганлик даражаси, тадқиқот объекти ва предмети, тадқиқот мақсади ва вазифалари, илмий гипотезани шакллантириш, тадқиқот методларини танлаш қаби қадамларни ўз ичига олади. Назарий-методологик босқичда докторант томонидан мавзунинг долзарблиги асосланади, муаммонинг илмий ишланганлик даражаси таҳлил қилинади ва тадқиқотнинг концептуал модели ишлаб чиқилади. Бу босқичда муаммоли-тизимли ёндашув тадқиқот муаммосини кенг педагогик контекстда кўриб чиқиш, унинг сабаб-оқибат алоқаларини аниқлаш ва ечим йўналишларини илмий жиҳатдан асослаш имконини беради. Натижада диссертациянинг умумий илмий мантиғи ва методологик йўналиши шаклланади.

Диссертация тайёрлашнинг эмпирик босқичи назарий-методологик асосларни амалиётда текшириш ва илмий гипотезани тасдиқлашга қаратилган. Ушбу босқичда муаммоли-тизимли ёндашув тадқиқот объектларини тўғри танлаш, маълумотларни йиғиш усулларини мақсадга мувофиқ белгилаш ва тадқиқот жараёнини тизимли равишда ташкил этишда муҳим аҳамият касб этади.

Педагогик тадқиқотларда эмпирик маълумотлар педагогик кузатув, сўровнома, тестлаш, интервью, педагогик эксперимент каби усуллар орқали йиғилади. Муаммоли-тизимли ёндашув мазкур усулларни бир-биридан узилган ҳолда эмас, балки ягона тадқиқот мақсадига хизмат қилувчи тизим сифатида қўллашни тақозо этади. Бу эса маълумотларнинг ишончлилиги ва натижаларнинг илмий қийматини оширади.

Шунингдек, эмпирик босқичда олинган натижаларни назарий асослар билан солиштириш, таҳлил қилиш ва қайта ишлаш орқали гипотезанинг тасдиқланиши ёки рад этилиши таъминланади. Бу жараёнда муаммоли-тизимли ёндашув тадқиқот натижаларини чуқур ва холис баҳолаш имконини беради.

Учинчи қисм “Умумлаштирувчи ва интерпретацион босқич” деб номланади ва илмий

натижаларни талқин қилиш ва расмийлаштиришга йўналтирилган. иссертация тайёрлашнинг якуний босқичи — умумлаштирувчи ва интерпретацион босқич — тадқиқот натижаларини илмий асосда умумлаштириш, уларни талқин қилиш ва хулосалар чиқаришни ўз ичига олади. Ушбу босқичда муаммоли-тизимли ёндашув тадқиқотнинг барча босқичларида олинган натижаларни яхлит тизим сифатида кўриб чиқиш имконини беради.

Мазкур босқичда докторант томонидан тадқиқот мақсади ва вазифаларига эришилганлик даражаси баҳоланади, илмий янгилик ва амалий аҳамият аниқланади ҳамда педагогик амалиёт учун тавсиялар ишлаб чиқилади. Муаммоли-тизимли ёндашув натижаларни тасодифий эмас, балки илмий мантиққа асосланган ҳолда хулосалашни таъминлайди.

Натижада докторлик диссертацияси илмий жиҳатдан пухта, методологик асосланган ва ҳимоя талабларига тўлиқ жавоб берадиган яхлит илмий иш сифатида шаклланади.

Ҳар бир босқич мустақил, мазмунан якунланган қадам сифатида тақдим этилган бўлиб, аниқ мақсад ва кутилган натижага эга. Босқичда ҳар бир фаолият фақат ўқиш учун эмас, балки амалий қўллаш учун мўлжалланган бўлиб, докторантнинг тадқиқот фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш воситаси сифатида хизмат қилади. Ҳар бир босқичдан сўнг докторант аниқ ўлчанадиган натижани қайд этади, бу эса тадқиқот ғоясидан то унинг тўлиқ якунланишигача бўлган жараёнда изчил илгарилашни таъминлайди.

Муаммоли тихимли ёндашувнинг ҳар бир босқичи шундай ишлаб чиқилганки, докторант фақат билим олиб қолмай, уни дарҳол амалда қўллай олади: илмий муаммони ифодалаш, методларни танлаш, натижаларни таҳлил қилиш, матнни расмийлаштириш ва ҳимояга тайёргарлик кўриш имконига эга бўлади[8, 9].

Технология докторантга диссертация йўлини тўлиқ ҳолда кўра билиш, бир вақтнинг ўзида ҳар бир босқични онгли равишда бошқариш имконини беради: илмий муаммони асослаш ва ғояни шакллантиришдан тортиб, тадқиқот мавзусини танлаш, мақсад, вазифа ва гипотезани белгилаш, маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш, натижаларни талқин этиш ҳамда муваффақиятли ҳимояга тайёргарликкача[10].

Хулоса. Ушбу мақолада муаммоли-тизимли ёндашув асосида докторлик диссертациясини тайёрлаш ва ҳимоя қилиш жараёнини таҳлил қилинди ва унинг самарали амалга оширилиши учун концептуал асос таклиф этилди. Муаммоли-тизимли ёндашув докторлик диссертациясини тайёрлаш ва ҳимоя қилишда хатоларни камайтириш, тадқиқот жараёнини структураланган ва самарали тарзда ташкил этиш, шунингдек диссертациянинг илмий ва амалий аҳамиятини ошириш имконини беради. Ушбу технология докторантлар учун амалий қўлланма сифатида ҳам, илмий-тадқиқот жараёнини самарали бошқаришнинг концептуал модели сифатида ҳам қимматлидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Баскаков А., Туленков Н. Методология научного исследования: Учебное пособие. – Киев: МАУП, 2019. – 180 с.

2.Болдин, А., Максимов М. Основы научных исследований. – Москва: Издательский центр Академия, 2019. – 336 с.

3.Галагузова, М.А. Диссертационные исследования по педагогике: вопросы и ответы [Текст]: научно-практ. пособие /М.А. Галагузова. – Екатеринбург: «СВ-96», 2011. – 256 с.

4.Давыдов, В.П. Методология и методика психолого-педагогического исследования [Текст]: учебное пособие / В.П. Давдов, П.И. Образцов, А.И. Уман. – М.: Логос, 2006. – 128 с.

5. Добреньков В., Осипова Н. Методология и методы научной работы. Москва: КДУ, 2012. – 230 с.

6.Isaqova Z.R. “Ilmiy tadqiqotdagi axloqiylik mezonlari”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Namangan: 2022. – 80 b.

7.Maxmudov A.X. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi (Seminar mashg‘ulotlari uchun)[Matn]: o‘quv qo‘llanma / A.X. Maxmudov. – Toshkent: Bookmany print, 2026. – 178 b.

8.Qodirqul Ro‘zmatzoda. “Ilmiy ijod falsafasi va metodologiyasi”. – Toshkent: Navro‘z, 2015.

9.Новиков, А.М. Методология научного исследования [Текст] / А.М. Новиков, Д.А. Новиков. – изд. 2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – 272 с.

10.Saifnazarov I., Muxtarov A., Boboyev A. “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDIU, 2014. – 132 b.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT TA’LIMIDA TALABALARDA HARAKAT FAOLIYATLARINI O‘RGATISH JARAYONINI VIZUALLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Muxitdinova Nigora Mexriddinovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti 1 bosqich doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiya va sport ta’limi jarayonida talabalarda harakat faoliyatlarini o‘rgatishda vizuallashtirish texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda harakat ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda vizual o‘qitish vositalarining pedagogik imkoniyatlari, ularning didaktik ahamiyati hamda ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, mashg‘ulot jarayonida grafik tasvirlar, video lavhalar, animatsiyalar va raqamli platformalar orqali harakatlarni tushuntirish va namoyish etish usullarining metodik jihatlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari vizuallashtirilgan o‘qitish talabalarning harakatlarni idrok etish darajasi, o‘zlashtirish tezligi hamda mustaqil faoliyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini asoslaydi.

Kalit so‘zlar jismoniy tarbiya va sport ta’limi, harakat faoliyati, vizuallashtirish, vizual o‘qitish vositalari, harakat ko‘nikma va malakalari, pedagogik texnologiyalar, ta’lim samaradorligi, raqamli ta’lim vositalari.

ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ВИЗУАЛИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ И СПОРТИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Мухитдинова Нигора Мехриддиновна,
докторант 1-го года обучения
Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: данной статье рассматриваются теоретические и методические основы использования технологий визуализации в процессе обучения двигательной деятельности студентов в системе физического воспитания и спортивного образования. В исследовании проанализированы педагогические возможности визуальных средств обучения при формировании двигательных умений и навыков, их дидактическое значение и роль в повышении эффективности образовательного процесса. Также раскрыты методические аспекты объяснения и демонстрации двигательных действий с использованием графических изображений, видеоматериалов, анимаций и цифровых платформ в ходе учебных занятий. Результаты исследования обосновывают, что визуализированное обучение оказывает положительное влияние на уровень восприятия движений студентами, скорость усвоения учебного материала и развитие их самостоятельной деятельности. Статья ориентирована на предоставление методических рекомендаций преподавателям физического воспитания, спортивным тренерам и студентам педагогических направлений.

Ключевые слова: физическое воспитание и спортивное образование, двигательная деятельность, визуализация, визуальные средства обучения, двигательные умения и навыки, педагогические технологии, эффективность обучения, цифровые образовательные средства.

THEORY AND METHODOLOGY OF VISUALIZING THE PROCESS OF TEACHING MO TOR ACTIVITIES TO STUDENTS IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS EDUCATION

Muxitdinova Nigora Mekhriddinovna
1st-year doctoral student
Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations of using visualization technologies in the process of teaching motor activities to students within physical education and sports education. The study analyzes the pedagogical potential of visual teaching tools in the formation of motor skills and abilities, their didactic significance, and their role in enhancing the effectiveness of the educational process. In addition, the methodological aspects of explaining and demonstrating motor actions through graphic images, video materials, animations, and digital platforms during training sessions are revealed. The research findings substantiate that visualized instruction has a positive impact on students’ level of motor perception, the speed of learning, and the development of independent activity. The article is aimed at providing methodological recommendations for physical education teachers, sports coaches, and students of pedagogical fields.

KEYWORDS: physical education and sports education, motor activity, visualization, visual teaching tools, motor skills and abilities, pedagogical technologies, learning effectiveness, digital educational tools.

KIRISH. Zamonaviy jismoniy tarbiya va sport ta’limi tizimida talabalarning harakat faoliyatlarini samarali o‘rgatish masalasi muhim ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Harakat faoliyatlari nafaqat jismoniy sifatlarni rivojlantiradi, balki shaxsning funksional imkoniyatlari, psixomotor qobiliyatlari va ijtimoiy faolligini shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois harakatlarni o‘rgatish jarayonini ilmiy asoslangan metodlar orqali tashkil etish ta’lim sifati va samaradorligini belgilovchi omillardan biridir. So‘nggi yillarda ta’lim jarayonida vizual ta’lim vositalaridan foydalanish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Bu holat, ayniqsa, murakkab koordinatsion harakatlar va texnik mashqlarni o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Vizual axborot orqali harakatning fazoviy-vaqtinchalik tuzilishini aniq idrok etish talabalarda to‘g‘ri harakat tasavvurini shakllantiradi. Ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, harakatlarni o‘rganishda ko‘rish analizatori yetakchi rol o‘ynaydi va u motor xotira shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, vizual ta’lim vositalaridan foydalanish harakat faoliyatlarini o‘rgatishning nazariy va metodik jihatdan asoslangan vositasi sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodlari

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, tahlil va sintez, taqqoslash metodi, pedagogik modellashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida harakat faoliyatlarini o‘rgatish jarayoni olindi. Tadqiqot predmeti esa ushbu jarayonda vizual ta’lim vositalaridan foydalanishning nazariy va metodik asoslarini tashkil etadi. Metodik jihatdan vizual ta’lim vositalari sifatida harakat texnikasini aks ettiruvchi videotasvirlar, animatsiyalar, sxemalar va grafik modellar tahlil qilindi. Ularning o‘quv jarayonidagi didaktik vazifalari aniqlashtirildi.

MUHOKAMA

Jismoniy tarbiya va sport ta’limida harakat faoliyatlarini o‘rgatish jarayoni pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu jarayonda vizuallashtirish metodlari – ya’ni ko‘rgazmalilik, modellashtirish, videotasvirlar, grafik tasvirlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish – o‘quvchilarda harakat ko‘nikmalarini tez va samarali shakllantirishga xizmat qiladi

.

Ko‘rgazmalilik tamoyili didaktikaning asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib, u o‘quv materialini aniq tasavvur qilish va ongli o‘zlashtirish imkonini beradi . Ayniqsa, sport mashg‘ulotlarida murakkab texnik harakatlarni o‘rgatishda vizual modellar, biomekanik tahlil va bosqichma-bosqich ko‘rsatmalar muhim ahamiyat kasb etadi .

Harakat faoliyatlarini o‘zlashtirishda refleksiv yondashuv ham muhim bo‘lib, bunda talaba o‘z harakatini kuzatadi, tahlil qiladi va tuzatadi . Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa vizuallashtirishni interaktiv vositalar bilan boyitib, ta’lim samaradorligini oshiradi .

Shuningdek, sport pedagogikasida harakat malakalarining shakllanishi fiziologik va psixologik qonuniyatlarga asoslanadi, bu esa ko‘rgazmali o‘qitish vositalarini ilmiy asosda qo‘llashni talab etadi .

Harakatlarni ko‘rgazmali namoyish etish, ayniqsa, murakkab texnik elementlarni bosqichma-bosqich o‘rgatishda samarali vosita hisoblanadi .

Tadqiqot jarayonida o‘rganilgan nazariy va ilmiy-metodik manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, harakat faoliyatlarini o‘rgatish jarayonida vizual ta’lim vositalaridan foydalanish muhim metodik va didaktik ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tarbiya va sport ta’limida harakatlar asosan ko‘rgazmali–amaliy xarakterga ega bo‘lib, ularni samarali o‘zlashtirish ko‘p jihatdan vizual axborotning sifatiga va taqdim etilish shakliga bog‘liq.

Vizual axborot talabalarning harakatni ongli idrok etishiga, uning fazoviy-vaqt parametrlarini to‘g‘ri tasavvur qilishiga hamda texnik xatolarni aniqlash va tahlil qilishiga imkon yaratadi. Harakatni bajarish jarayonida talaba nafaqat tashqi shaklni, balki uning ichki tuzilmasini — harakat ketma-ketligi, ritmi, kuch taqsimoti va muvofiqlashtirish jihatlarini ham anglay boshlaydi. Bu holat motor faoliyatni ongli ravishda boshqarish mexanizmlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Psixologik nuqtayi nazardan, vizual ta’lim vositalari harakatning kognitiv modelini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Kognitiv model — bu harakatning ongda shakllangan ideal namunasi bo‘lib, u vizual obrazlar, tasavvurlar va assotsiativ bog‘lanishlar orqali mustahkamlanadi. Mazkur model keyinchalik real motor faoliyatda namoyon bo‘lib, harakat ko‘nikma va malakalarining tez, aniq hamda barqaror o‘zlashtirilishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, murakkab, ko‘p bosqichli va koordinatsion jihatdan qiyin bo‘lgan harakatlarni o‘rgatishda (masalan, sport gimnastikasi, yengil atletika texnikalari, sport o‘yinlari elementlari) vizual tasvirlarning ahamiyati yanada ortadi. Pedagogik jihatdan qaralganda, vizual ta’lim vositalari ta’lim jarayonining subyektlararo xarakterini kuchaytiradi, ya’ni o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro aloqani faollashtiradi. Talabalar mashqlarni faqat takrorlash bilan cheklanmay, ularni kuzatadi, tahlil qiladi, o‘z harakatlarini etalon namuna bilan solishtiradi va baholaydi. Natijada ta’lim jarayonida reflektiv faoliyat rivojlanib, talabalarda o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalari shakllanadi. Shuningdek, vizual ta’lim vositalaridan foydalanish jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi. Talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasi, harakatlarni o‘zlashtirish tezligi va psixomotor xususiyatlaridagi farqlar vizual tushuntirishlar, video tahlillar va individual namoyishlar orqali muvozanatlashtiriladi. Bu esa har bir talabaning imkoniyatlariga mos metodik yondashuvni tanlashga sharoit yaratadi. Umuman olganda, vizual ta’lim vositalarining tizimli va maqsadli qo‘llanilishi jismoniy tarbiya va sport ta’limi jarayonining metodik samaradorligini oshiradi, mashg‘ulotlarning mazmunini boyitadi hamda talabalarning o‘quv-motor faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Vizualizatsiyaga asoslangan o‘qitish yondashuvi zamonaviy ta’lim talablariga mos bo‘lib, talabalarda barqaror harakat ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Vizual vositalar orqali harakatlarning aniq va tizimli namoyish etilishi talabalarda harakatning fazoviy-vaqt xususiyatlari, texnik tuzilishi va bajarilish ketma-ketligi haqidagi tasavvurlarni chuqurlashtiradi. Natijada harakatlarning ongli idrok etilishi ta’minlanib, kognitiv model shakllanadi va bu model asosida motor ko‘nikma va malakalarning tez, aniq hamda barqaror o‘zlashtirilishi yuz beradi. Ayniqsa, murakkab va koordinatsion jihatdan qiyin bo‘lgan harakatlarni

o‘rgatishda vizualizatsiya usullari o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, vizualizatsiyaga asoslangan o‘qitish talabalarda reflektiv fikrlashni rivojlantirib, o‘z harakatlarini tahlil qilish, texnik xatolarni aniqlash va ularni mustaqil ravishda tuzatish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ta’lim jarayonining faqat reproduktiv emas, balki ijodiy va tahliliy xarakter kasb etishiga olib keladi. Talabaning o‘z-o‘zini nazorat qilish va baholash faoliyati kuchayib, ta’limning subyektga yo‘naltirilgan modeli shakllanadi (1-rasm).



XULOSA. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda harakat faoliyatlarini o‘rgatishda vizual ta’lim vositalaridan foydalanish ilmiy-nazariy va metodik jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi. Vizual o‘qitish harakatlarni idrok etish, tushunish va amaliy bajarish jarayonlarini optimallashtiradi hamda harakat ko‘nikmalarining sifatli shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli jismoniy tarbiya va sport ta’limi jarayonida vizual ta’lim vositalarini tizimli va maqsadli qo‘llash, ularni an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.L. P. Matveyev Теория и методика физической культурой – Москва, 1991.

2. P. F. Lesgaft Руководство по физическому образованию детей школного возраста – Санкт-Петербург, 1896.

3. V. K. Balsevich Физическая культура для всех и для каждого – Москва, 1988.

4. Donald Schön The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action – New York, 1983.

5. R. Ishmuhamedov Innovatsion pedagogik texnologiyalar – Toshkent, 2008.

6.N. A. Bernstein О построении движений – Москва, 1947.

7.J. A. Komenskiy Didactica Magna – 1657.

TASVIRIY SAN’AT YO‘NALISHIDA RAQAMLI MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING INTEGRATIV MODELI

Muratov Xusan Xolmuratovich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tasviriy san’at va dizayn kafedrasi
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
ORCID ID: 0000-0002-4075-278X

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’limning tasviriy san’at yo‘nalishida raqamli mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariy va metodik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida konstruktivistik, gumanistik va heutagogik yondashuvlar tahlil qilinib, UNESCO, DigCompEdu, ISTE kabi xalqaro standartlar asosida talabalar mustaqil ta’limini samarali boshqarish mexanizmlari yoritilgan. Maqolaning asosiy ilmiy yangiligi sifatida tasviriy san’at yo’nalishidagi raqamli ta’lim muhitiga moslashtirilgan 4 blokli integrativ model (motivatsion-qiymatli, mazmuniy-kognitiv, operatsion-texnologik va refleksiv-baholash) taklif etilgan. Ushbu yondashuv talabalarning nafaqat ijodiy mahoratini, balki metakognitiv ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, mustaqil ta’lim, tasviriy san’at, integrativ model, heutagogika, raqamli kompetensiya, xalqaro ta’lim standartlari, metakognitiv ko’nikmalar.

Аннотация: В данной статье исследуются теоретико-методические основы организации цифрового самостоятельного образования по направлению изобразительного искусства в высшем образовании. В ходе исследования проанализированы конструктивистский, гуманистический и эвтагогический подходы, а также освещены механизмы эффективного управления самостоятельным обучением студентов на основе таких международных стандартов, как UNESCO, DigCompEdu, ISTE. В качестве основной научной новизны предложена 4-блочная интегративная модель (мотивационно-ценностный, содержательно-когнитивный, операционно-технологический и рефлексивно-оценочный блоки), адаптированная к цифровой образовательной среде в сфере искусств. Данный подход способствует развитию не только творческих способностей студентов, но и их метакогнитивных навыков.

Ключевые слова: цифровая трансформация, самостоятельное обучение, изобразительное искусство, интегративная модель, эвтагогика, цифровая компетентность, международные образовательные стандарты, метакогнитивные навыки.

Abstract: This article explores the theoretical and methodological foundations of organizing digital independent learning for fine arts students in higher education. The study analyzes constructivist, humanistic, and heutagogical approaches, highlighting mechanisms for the effective management of students’ independent learning based on international standards such as UNESCO, DigCompEdu, and ISTE. As the main scientific novelty, the article proposes a 4-block integrative model (motivational-value, content-cognitive, operational-technological, and reflexive-evaluative blocks) tailored to the digital educational environment in the field of fine arts. This approach contributes to the development of not only students’ creative skills but also their metacognitive abilities.

Keywords: digital transformation, independent learning, fine arts, integrative model, heutagogy, digital competence, international educational standards, metacognitive skills.

KIRISH (Introduction). Jahon ta’lim tizimidagi raqamli transformatsiya jarayonlari oliy ta’limda o‘qitish metodikasi va talabalar faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bugungi kunda mustaqil ta’lim shunchaki qo‘shimcha mashg‘ulot turi emas,

balki kutilgan ta’lim natijalarini kafolatlovchi asosiy “drayver” (harakatlantiruvchi kuch) sifatida baholanmoqda. Zamonaviy sharoitda talaba raqamli o‘quv resurslariga istalgan vaqtda kirish, individual o‘qish traektoriyasini tanlash va o‘z faoliyatini monitoring qilish imkoniyatiga ega. Biroq, faqatgina raqamli texnologiyalarning mavjudligi yuqori samaradorlikni ta’minlamaydi. Xorijiy olimlar L.Scheel va M.Khalil ta’kidlaganidek, mustaqil ta’limning samaradorligi o‘quv jarayonining qanchalik to‘g‘ri nazariy-metodik asosda tashkil etilganligiga bevosita bog‘liqdir [1].

O‘zbekiston sharoitida “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi [2] doirasida ta’limga innovatsion raqamli yechimlarni joriy etish o‘ta dolzarb masaladir. Xususan, tasviriy san’at yo‘nalishida mustaqil ta’limni raqamli muhitga moslashtirish, ijodiy mahsulotlarni (portfolio, eskizlar, kompozitsion yechimlar) aniq mezonlar asosida baholash hamda virtual muzeylar kabi raqamli resurslar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish yangicha metodik yondashuvni talab etadi.

Mustaqil ta’limni raqamlashtirish masalasi qator xalqaro yondashuvlar doirasida tadqiq etilgan:

Konstruktivistik yondashuv: R.Radhamani va uning hammualliflari virtual laboratoriyalar orqali talabalarda amaliy ko‘nikmalarning o‘zgarish dinamikasini o‘rganganda, raqamli muhit bilimlarni faol o‘zlashtirish uchun qulay “didaktik ekotizim” vazifasini o‘tashini isbotlagan [3]. Tasviriy san’atda bunday konstruktiv muhit talabalarga kompozitsion tajribalar o‘tkazish, vizual tahlil va taqqoslash uchun keng maydon yaratadi.

Gumanistik yondashuv: R.Kim boshchiligidagi olimlar guruhining empirik tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli muhitda o‘qituvchi fasilitatsiyasi (yo‘naltiruvchi faoliyati) yetarli bo‘lmasa, talabaning motivatsiyasi keskin pasayadi [4].

Heutagogika (Heutagogy): L.M. Blaschke izlanishlariga ko‘ra, bu yondashuvda talaba nafaqat qanday o‘qishni, balki nima uchun o‘rganish kerakligini ham o‘zi belgilaydi [5]. Bu jarayon “Double-loop learning” (Ikki halqali ta’lim) bilan chambarchas bog‘liq [6].

METODOLOGIYA (Methods)

Tadqiqot jarayonida raqamli mustaqil ta’limni tizimli tashkil etish bo‘yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar qiyosiy tahlil qilindi. Asosiy metod sifatida xalqaro normativ hujjatlarni kontent-tahlil qilish va ularni tasviriy san’at ta’limining o’ziga xos xususiyatlariga integratsiya qilish usulidan foydalanildi. Tadqiqotda quyidagi xalqaro hujjatlar o’rganildi: UNESCO ICT-CFT [7], DigCompEdu [8], DigComp 2.2 [9], ISTE Standards [10] hamda OECD Learning Compass 2030 [11]. Ushbu xalqaro ramkalarni tasviriy san’atda mustaqil ta’limning o‘ziga xosliklari bilan uyg‘unlashtirib, maxsus integrativ model loyihalashtirildi.


NATIJALAR (Results)

Xalqaro ta’lim standartlari tahlili asosida raqamli mustaqil ta’limni tashkil etishning 4 blokli integrativ modeli taklif etilmoqda (1-jadval).

1-jadval

Xalqaro standartlar va integrativ model bloklari o‘rtasidagi moslik

T/r	Standart ramka	Asosiy yo‘nalish (qisqacha mazmuni)	Model bloki bilan mosligi
1	UNESCO ICT-CFT	O‘qituvchining raqamli kompetensiyasi (siyosat, o‘quv dasturi, baholash).	Operatsion-texnologik; Refleksiv-baholash.
2	DigCompEdu	Pedagogning 22 raqamli kompetensiyasi (6 sohada).	Barcha bloklar, xususan Refleksiv-baholash.
3	DigComp 2.2	Talabaning raqamli kompetensiyasi indikatorlari (xavfsizlik, kontent yaratish).	Mazmuniy-kognitiv; Operatsion-texnologik.
4	ISTE Standards	Ta’limda texnologiyadan adolatli foydalanish, “empowered learner”ni shakllantirish.	Motivatsion-qiymatli; Operatsion-texnologik.
5	OECD 2030	O‘zini boshqarish, refleksiya (o‘z-o‘zini tahlil qilish) va mas’uliyat.	Motivatsion-qiymatli; Refleksiv-baholash.
6	QM Higher Ed Rubric	Onlayn, aralash kurslarning dizayn sifati va muvofiqligi.	Mazmuniy-kognitiv; Refleksiv-baholash.



1-rasm. Raqamli mustaqil ta’limni tashkil etishning 4 blokli integrativ modeli

Taklif etilayotgan 4 blokli integrativ modelning har bir bloki aniq didaktik vazifalarni bajarishga qaratilgan:

Motivatsion-qiymatli blok: Talabaning kasbiy identifikatsiyasi va ehtiyojini faollashtiradi. Bunda Self-Determination Theory (avtonomiya, kompetentlik, aloqadorlik) prinsiplari qo‘llaniladi [12].

Mazmuniy-kognitiv blok: O‘quv mazmuni multimodal vositalar yordamida uzatiladi. Blended (aralash) va Flipped classroom (teskari sinf) yondashuvlari nazariya va amaliyotni mustahkam bog‘laydi [13].

Operatsion-texnologik blok: LMS tizimi, kollaborativ platformalar va Gamification (O‘yinlashtirish) elementlarini qamrab oladi [14]. Gamifikatsiya faqat didaktik maqsadga xizmat qilishi shart [15].

Refleksiv-baholash bloki: Peer-review (tengdoshlarni o‘zaro baholashi) va o‘z-o‘zini baholash kabi mexanizmlar orqali jarayon barqarorlashtiriladi [16, 17].

MUHOKAMA (Discussion)

Ishlab chiqilgan modelni amaliyotga joriy etishda raqamli muhitdagi tahliliy panellar, e-portfolio va reflektiv kundaliklar talabaning metakognitiv ko‘nikmalarini oshirishi ma’lum bo’ldi. Raqamli muhitni tasviriy san’at yo‘nalishiga moslashtirish jarayonida [18] quyidagi usullar yuqori samaradorlik ko‘rsatadi:

Virtual ekspozitsiyalar va “Digital curator” pedagogikasi: Talabalar virtual ko‘rgazmalar tuzish orqali asarlarni tahlil qiladi va ijodiy refleksiya olib boradi [19].

Studio-based flipped (Studiya asosidagi teskari sinf): OER (Ochiq ta’lim resurslari) yordamida talabalar darsdan oldin ijodiy g‘oyalarni o‘zlashtirib, ustaxonada faqat tanqidiy muhokama (critique) va amaliyot bilan shug‘ullanadi [20].

Mikro-kontent usuli: T.Hu va uning hammualliflari isbotlaganidek, xalq amaliy san’atini o‘rgatishda mobil ilovalar orqali qisqa, tushunarli video-darslar berish yuqori natija beradi [21].

XULOSA (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitida mustaqil ta’limni samarali tashkil etish, birinchi navbatda, pedagogik va texnologik yondashuvlarning ilmiy integratsiyasiga tayanadi. Konstruktivizm raqamli resurslardan muammoli va faol o‘qish uchun platforma yaratsa, Gumanistik

yondashuv shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ko‘makni ta’minlaydi [22]. UNESCO, DigCompEdu, ISTE kabi xalqaro standartlar esa metodik dizaynni xalqaro mezonlarga moslashtirishga yordam beradi [23].

Taklif etilayotgan 4 blokli integrativ model O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa tasviriy san’at sohasi talabalarining raqamli mustaqil ta’limini tashkil etishda tizimli poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuv nafaqat talabaning ijodiy mahoratini, balki uning metakognitiv (o‘z faoliyatini anglash va boshqarish) imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Scheel L., Vladova G., Ullrich A. The influence of digital competences, self-organization, and independent learning abilities on students’ acceptance of digital learning // International Journal of Educational Technology in Higher Education. 2022. Vol. 19. DOI: 10.1186/s41239-022-00350-w.; Khalil M., Wong J., Wasson B., Paas F. Adaptive support for self-regulated learning in digital learning environments // British Journal of Educational Technology. 2024. Vol. 55. P. 1281-1289. DOI: 10.1111/bjet.13479.

2. 2020-yil 5-oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoni. https://lex.uz/docs/7008256.

3. Radhamani R., Kumar D., Nizar N., Achuthan K., Nair B., Diwakar S. What virtual laboratory usage tells us about laboratory skill education pre- and post-COVID-19 // Education and Information Technologies. 2021. Vol. 26. P. 7477-7495. DOI: 10.1007/s10639-021-10583-3.

4. Kim R., Olfman L., Ryan T., Eryilmaz E. Leveraging a personalized system to improve self-directed learning in online educational environments // Computers & Education. 2013. Vol. 70. P. 150-160. DOI: 10.1016/j.compedu.2013.08.006.

5. Blaschke L.M. Heutagogy and Lifelong Learning: A Review of Heutagogical Practice and Self-Determined Learning // The International Review of Research in Open and Distributed Learning. 2012. Vol. 13, No. 1. P. 56-71. DOI: 10.19173/irrodl.v13i1.1076.; Agonács N., Matos J.F. Heutagogy and self-determined learning: a review of the published literature on the application and implementation of the theory // Open Learning. 2019. Vol. 34. P. 223-240.

6. Khalil M., Wong J., Wasson B., Paas F. Adaptive support for self-regulated learning in digital learning environments // British Journal of Educational Technology. 2024. Vol. 55. P. 1281-1289.; Mogas J., et al. The Contribution of Digital Portfolios to Higher Education // Education Sciences. 2023. Vol. 13.

7. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers: Version 3. Paris: UNESCO, 2018. 68 p.

8. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu (EUR 28775 EN). Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.

9. Vuorikari R., Kluzer S., Punie Y. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. Luxembourg, 2022.

10. ISTE. ISTE Standards for Educators. https://iste.org/standards/educators.

11. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030 (OECD Learning Framework 2030). Paris: OECD, 2018.

12. Chiu T.K.F., Lin T.-J., Lonka K. Motivating Online Learning: The Challenges of COVID-19 and Beyond // The Asia-Pacific Education Researcher. 2021. Vol. 30. P. 187-190.

13. Lapitan L.D.S., et al. An effective blended online teaching and learning strategy during the COVID-19 pandemic // Education for Chemical Engineers. 2021. Vol. 35. P. 116-131.

14. Kim R., Olfman L., Ryan T., Eryilmaz E. Leveraging a personalized system to improve self-directed learning in online educational environments // Computers & Education. 2013. Vol. 70. P. 150-160.

15. Khaldi A., Bouzidi R., Nader F. Gamification of e-learning in higher education: a systematic literature review // Smart Learning Environments. 2023. Vol. 10.

16. Mogas J., et al. The Contribution of Digital Portfolios to Higher Education: An Analysis of the Main Issues. // Education Sciences. 2023. Vol. 13, No. 8. 829.

17. Scheel L., Vladova G., Ullrich A. The influence of digital competences, self-organization, and independent learning abilities on students’ acceptance of digital learning // International Journal of Educational Technology in Higher Education. 2022. Vol. 19.

18. Kozhevnikov D.E., Pobedonostseva M.V., Farnieva M.G. Specifics of Formation and Development of Students’ Independence in the Digital Educational Environment // Acta Polytechnica. 2020.

19. Tam C.O., et al. Teachers Curating Virtual Exhibitions for Learning Visual Arts: Toward a Digital Curator Pedagogy. // Journal of Art & Design Education. 2023.

20. Chan Y.K. Using open educational resources in studio-based flipped classroom: student perceptions and learning experience. // Smart Learning Environments. 2023.

HARBIY TAYYORGARLIK JARAYONIDA MA’NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR OMILLARI

Murotaliyev Jaxongir Raimjon o‘g‘li
IIV Akademiyasi Harbiy tayyorgarlik kafedrasi o‘qituvchisi,
Katta leytenant

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim maktablarida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv mohiyati, “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalarining pedagogik talqini hamda ularning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, tarbiyaviy faoliyatga doir kompetensiyaning tarkibiy komponentlari M.Qurbonov va A.K.Markova ilmiy qarashlari asosida ochib berilgan hamda kontekstual moslashuv, emosional intellekt, kreativ didaktika, reflektiv-avtoreflektiv rivojlanish va transformativ tarbiya kabi innovatsion komponentlar bilan boyitilgan mualliflik modeli taklif etilgan.Maqolada tarixiy shaxslar namunasi, axloqiy muammoli vaziyatlar, adabiy-badiiy tahlil, guruhiy loyihalar va muloqot madaniyati kabi integrativ vositalar orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini shakllantirish mexanizmlari asoslab beriladi.

Kalitso‘zlar: Harbiy-vatanparvarliktarbiyasi, ma’naviy-axloqiykompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik kompetensiya, transformativ tarbiya, emosional intellekt, reflektiv rivojlanish, kontekstual moslashuv, innovatsion didaktika, umumiy kompetentlik konsepsiyasi.

ПРИОРИТЕТНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ВОЕННОЙ ПОДГОТОВКИ

Муроталиев Жахонгир Райимжон ўғли
Кафедра военной подготофка препадавател,
старши лейтенант

Аннотация: В данной статье освещаются теоретико-методологические основы развития духовно-нравственной компетентности учащихся в процессе военно-патриотического воспитания в общеобразовательных школах. В исследовании анализируется сущность компетентностного подхода, педагогическая интерпретация понятий «компетентность» и «компетенция», а также их роль в системе военно-патриотического воспитания. Кроме того, структурные компоненты компетенции воспитательной деятельности раскрываются на основе научных взглядов М. Курбонова и А.К. Марковой, а также предлагается авторская модель, дополненная инновационными компонентами: контекстуальной адаптацией, эмоциональным интеллектом, креативной дидактикой, рефлексивно-авторефлексивным развитием и трансформативным воспитанием.В статье обосновываются механизмы формирования духовно-нравственной компетентности учащихся посредством интегративных средств, таких как пример исторических личностей, анализ нравственных проблемных ситуаций, художественно-литературный анализ, групповые проекты и культура общения.

Ключевые слова: Военно-патриотическое воспитание, духовно-нравственная компетентность, компетентностный подход, педагогическая компетенция, трансформативное воспитание, эмоциональный интеллект, рефлексивное развитие, контекстуальная адаптация, инновационная дидактика, концепция общей компетентности.

PRIORITY FACTORS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF SPIRITUAL AND MORAL COMPETENCE IN THE PROCESS OF MILITARY TRAINING

Murotaliyev Jakhongir Raimjon ugli
Ministry of Internal Affairs Academy Teacher of the Department of Military Training, Senior Lieutenant

Abstract: This article highlights the theoretical and methodological foundations for developing students’ spiritual and moral competence in the process of military-patriotic education in general secondary schools. The study analyzes the essence of the competency-based approach, the pedagogical interpretation of the concepts of “competence” and “competency,” and their role in military-patriotic education. Furthermore, the structural components of educational competence are examined based on the scientific views of M. Qurbonov and A.K. Markova, and an authorial model enriched with innovative components such as contextual adaptation, emotional intelligence, creative didactics, reflective and self-reflective development, and transformative education is proposed.The article substantiates the mechanisms for developing students’ spiritual and moral competence through integrative tools, including the example of historical figures, analysis of moral problem situations, literary-artistic analysis, group projects, and communication culture.

Keywords: Military-patriotic education, spiritual and moral competence, competency-based approach, pedagogical competence, transformative education, emotional intelligence, reflective development, contextual adaptation, innovative didactics, general competence concept.

KIRISH. Bugungi globallashuv va ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar sharoitida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Zamonaviy ta’lim tizimi bilim berish bilan birga, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlovchi va fuqarolik mas’uliyatiga ega shaxsni shakllantirishni maqsad qiladi. Shu bois ma’naviy-axloqiy kompetentlik harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining muhim mezoni sifatida e’tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan islohotlar, jumladan, Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari hamda O‘zbekiston 2030 strategiyasi doirasidagi vazifalar yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida kompetensiyaviy yondashuv nazariy bilim bilan birga amaliy ko‘nikma va axloqiy pozitsiyani shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayonda tarixiy meros va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Temurbeklar maktabi va Vatan tayanchi faoliyati ushbu yo‘nalishda amaliy tajriba maydonini yaratmoqda.

Maqolaning maqsadi — umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi asosida rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilish va innovatsion pedagogik modelni asoslashdan iborat.

ASOSIY QISM. Respublikamizda ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda yangi rijojlanish bosqichi jarayonida rivojlangan mamlakatlarning ta’lim tizimini o‘rganish,ulardan andoza olish,shu bilan bir qatorda milliy qadriyatlarimizga asoslangan o’zbek ta’limini barpo etish bugungi kunning ustuvor vazifalaridandir.Barcha islohatlarning negizida ifatli ta’lim bu bilan birgalikada sifatli ta’limni isloh qilish jadal sur’atlarda amalga oshirilmoqda. Har tomonlama raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash asosiy, ustuvor vazifalarimizdandir. Hukumatimiz tomonidan Pedogogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish borasida “Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli Qarorlarida pedagogik ta’lim sohasini rivojlantirishga oid ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularda o‘quv-bilish faoliyatini samarali rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlar muhim vazifa sifatida belgilab berildi.

Umumta’lim maktablarida tahsil olayatgan o‘quvchi yoshlarni tarbiyalash,ularni harbiy vatanparvarlik ruhida kamol toptirish,mustaqil ravishda qarorlar qabul qila oladiga,erkin,kretiv va kreatif fikr yurita oladigan,yuksak ma’naviyatli,uddaburon ,zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlar zamonamizning haqiqiy yoshlari bo‘la oladi.Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish vazifalarining amalga oshirilishi ta’limga ahloqiy madaniy konteksni qo‘shish bilan bog‘liq.

Yoshlarni kompetentligi muammosi pedagogika fanida muhim o‘rin kasb etadi. Kompetentlikning o’ziga xos xususiyatlarini bir qator olimlarning (N.Azizxo‘jaeva,M.ahmedova,A. Bermus,R.Jo‘rayev,I Zimnyaya,N. Muslimov.O musurmonova va boshqalar.) asarlarida o‘z aksini topgan. Ta’kidlash joizki, pedagogik adabiyotlarda “kompetentlik” va “kompetensiya” atamalari ko‘p ishlatilib,allaqachon barqaror atamaga aylanib bo‘ldi. Ularning qo‘llanilish o‘zini oqlaydi, ayniqsa, ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish zarur bo‘lgan bir sharoitda.

“Kompetentlik” o‘zi nima? ”Kompetentlik” insonning shaxsiy sifatlarining yaxlit tavsifi,ta’lim muassasi o‘quvchilarinig muayyan sohalarda (kompetensiyalarda)faoliyat ko‘rsatish uchun tayyorgarlik darajasi tushuniladi.Shu bilan birga tadqiqot tahlili ”kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalarining aniqlashtirishni taqozo etadi.

“Kompetentlik” so‘zi lotincha “comperetere”so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib,”qodir bo‘lish’’ ma ‘nosini anglatadi.

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish hisoblanadi.

Ozbek olimlari kompetentlikni‘ «... Faoliyatni nazariy bilimlardan samarali foydalanish,yuqori darajadagi kasbiy malaka,mahorat va iqtidorninamoyon eta olish’’ deb tushuniladi. Va kompetensiya deyilganda shaxsning biron bir sohadan xabardorlik,shu sohani bilish darajasi tushunilad” deb ta’riflaydi.

Bizning tadqiqotimiz shunisi bilan muhimki,kompetentliknini umumiy tushunchasi asosida maktab o‘quvchilarining (10-11sinflari) Chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash darslarida harbiy vatanparvarlik kompetensiyalarini induvidual strukturaviy modellarini takomillashtirish usullarini yaratish.

Bu o‘rinda markaziy goya ”Umumiy kometentlik’’ konsepsiyasiga birlashadi. maktab o‘quvchilarining (10-11sinflari) Chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash darslarida harbiy vatanparvarlik kompetensiyalarini induvidual Markaziy g‘oya

Diagramma o‘rtasidagi “Umumiy kompetentlik konsepsiyasi” hamda undan kelib chiqadigan “Harbiy-vatanparvarlik kompetensiyasi (10-11-sinf)” bosqichi o‘quvchilarning tayanch malaka va fazilatlari qanday umumiy kompetentlik modeliga tayanishini ko‘rsatadi.

To‘rt tarkibiy qism:


Bilimlar — konstitutsiya, harbiy tarix, milliy ramzlar bo‘yicha nazariy tayyorgarlik.

Ko‘nikmalar — saf mashqlari, xaritadan foydalanish, birinchi yordam ko‘nikmalari.

Qadriyat va munosabatlar — vatanparvarlik, fuqarolik burchi, intizom.

Faoliyat tajribasi — jamoa loyihalari, simulyatsiya, ko‘ngillilik faoliyati.

Kasbiy kompetentlik qo‘yidagi holatlarda namoyon bo‘ladi.



O‘quvchilarning kasbiy rivojlantirish kompetentligini o‘stirishda muhim individual yondashish yaxshi samara beradi. Shaxslar aro muloqatlarni,barcha turdagi informatsion aloqalarni o‘z ichiga oladi. Atrofdagi voqelikni o‘zgarish sur’ati kommunikatsiyaning muhimliqini belgilaydi. O‘quvchilarning ijtimoiy kommunikatsiyon kirishimli bo‘lishi bu, albatta shaxsiy , kompetentligini yuqorilididan dalolatdir.

M.Qurbonov tarbiyaviy faoliyatga doir kompetensiyaga quyidagicha ta’rif beradi. Tarbiyaviy faoliyatga doir kompetensiya-bu shaxsning sohaga doir turli ko‘nikmalaraga egaligi hamda avtomatlashtirilgan va moslashtirilgan xatti-harakatlarni qamrab oladigan munosabatlar majmuidir. tarbiyaviy faoliyatga doir kompetensiya – bilim, ko‘nikma, shaxsiy xususiyatlari, psixologik xususiyatlari, tajriba va motiv, muloqot qobiliyati yig‘indisidir . M.Qurbonovning fikricha, tarbiyaviy faoliyatga doir kompetensiya – bu shaxsning sohaga oid turli ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, shuningdek, avtomatlashtirilgan va moslashtirilgan xatti-harakatlarni qamrab oluvchi munosabatlar majmuini ifodalaydi. Mazkur yondashuv tarbiyaviy kompetensiyaning faqatgina bilim va ko‘nikmalarga emas, balki motivatsion va affektiv (munosabatlar, qadriyatlar) komponentlarga ham tayanishini ko‘rsatadi.

Ilmiy yondashuv nuqtai nazaridan, tarbiyaviy faoliyatga doir kompetensiya quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

Bilim komponenti. Bu komponent pedagogning tarbiyaviy faoliyatga oid nazariy bilimlar, metodik yondashuvlar, psixologik-pedagogik asoslar haqidagi xabardorligini qamrab oladi. Masalan, yosh psixologiyasi, ijtimoiy muhit ta’siri, axloqiy tarbiya mexanizmlari va boshqa shu kabi nazariy tushunchalar.

Ko‘nikma komponenti. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etish, turli tarbiyaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish, muloqot yuritish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishga doir amaliy ko‘nikmalar ushbu qismga kiradi.

Shaxsiy xususiyatlar. Tarbiyaviy faoliyat samaradorligi pedagogning individual sifatlariga, jumladan, empatiya, ijtimoiy faollik, adolatparvarlik, sabr-toqat kabi axloqiy fazilatlariga bog‘liq. Bu esa kompetensiyaning axloqiy-psixologik bazasini tashkil etadi.


Psixologik tayyorgarlik. Tarbiyaviy vaziyatlarda muvozanatni saqlay olish, stressga bardoshlilik, hissiy-intellektual muvozanat ham ushbu kompetensiyaning ajralmas qismidir. Psixologik mustahkamlik pedagogik faoliyatda muvaffaqiyat kalitidir.

Tajriba va motivatsiya. Tarbiyaviy kompetensiyaning shakllanishida ilgari orttirilgan amaliy tajriba va ichki motivatsiya muhim rol o‘ynaydi. Bu jihat o‘z-o‘zini anglash, kasbiy o‘sishga intilish, shaxsiy tarbiya falsafasiga ega bo‘lish orqali namoyon bo‘ladi.

Muloqot kompetensiyasi. Tarbiyaviy jarayon samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogning o‘quvchi, ota-ona va jamiyat bilan samarali muloqot o‘rnatish qobiliyatiga bog‘liq. Bu – axborot almashinuvi, empatik eshitish, norverbal vositalarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, tarbiyaviy faoliyatga doir kompetensiya — bu faqat bilim va ko‘nikmalar majmui emas, balki u shaxsning butun faoliyatini qamrab oluvchi kompleks tizimdir. U pedagogning shaxsiy, kognitiv, affektiv, psixologik va ijtimoiy jihatdan shakllangan kasbiy tayyorgarligi darajasini aks ettiradi. Bu kompetensiya turining rivoji, ayniqsa, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshiruvchi pedagoglar uchun dolzarb ahamiyatga ega.

A.K.Markova ko‘plab o‘qituvchi mehnatining tarbiyaviy faoliyatga doir kompetentligi asoslarini o‘rgangan pedagog olima hisoblanib, u o‘qituvchi pedagogik kompetentligining muhim tarkibiy asoslari to‘rtga bo‘lib, o‘rganishni tavsiya etadi . A.K.Markovaning pedagogik kompetensiyaga oid yondashuvi tarbiyaviy faoliyatni ko‘p qirrali, murakkab, ammo tizimli yondashuv orqali yuritish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini olib borayotgan pedagog uchun ushbu to‘rt komponentning har biri asosiy kasbiy mezon sifatida xizmat qiladi.



Shunday qilib, Markova modeli asosida shakllangan tarbiyaviy faoliyat kompetensiyasi dissertatsiya doirasida pedagogik tayyorgarlikni baholash, rivojlantirish va monitoring qilish mezonlari sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Dessertatsiyamizninnig bu boradagi yangiligi sifatida uasbi yondashuv yondashuvni ko‘rib o‘tamiz:Kontekstual moslashuv komponenti. Tarbiyaviy faoliyat faqat universal qoidalar asosida emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekstga moslashgan tarzda olib borilishi kerak. Har bir o‘quvchi shaxsining oilaviy, mahalliy, madaniy, hamda ijtimoiy fonini inobatga olgan holda tarbiyaviy yondashuvlar shakllanishi lozim. Bu komponent pedagogga shunchaki umumiy model emas, holatga moslashgan tarbiyaviy yondashuv ishlab chiqish imkonini beradi (masalan, chekka hududdagi o‘quvchining ehtiyojiga qarab moslashtirish).

Emosional intellekt va axloqiy sezgirlik komponenti. Tarbiyaviy kompetensiyaning zamonaviy jihati – bu o‘qituvchining emosional intellekti, ya’ni boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash, empatiya va axloqiy sezgirlik asosida muloqot yuritishidir. Hozirgi ijtimoiy muhitda shunchaki ma’ruzachi emas, balki ruhiy-intellektual murabbiy bo‘la oladigan pedagog zarur. Tarbiya jarayonida o‘quvchining hissiy ehtiyojlarini tushuna olish kompetensiyaning markaziga chiqadi. Kreativ va simulyativ didaktika komponenti. Tarbiyaviy faoliyatga doir kompetensiya – bu innovatsion va kreativ didaktik vositalardan foydalana olish qobiliyatidir. Bu, ayniqsa, harbiy-vatanparvarlik darslarida interaktiv usullar, simulyatsiya, rol o‘yinlari orqali amalga oshiriladi.Mazkur yondashuv pedagogni nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy muhitni yaratuvchi dizayner sifatida ko‘radi. Reflektiv-avtoreflektiv rivojlanish komponenti. Tarbiyaviy kompetensiya – bu pedagogning o‘z faoliyatini kuzatib borishi, baholashi va takomillashtira olishidir. Biroq, bu yondashuv endi faqat tashqi baholash emas, ichki ongli refleksiya orqali amalga oshadi. O‘qituvchi doimiy “avtoauditor” rolida – o‘zining har bir harakatini aks ettirib tahlil qiladi

va o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqadi.Transformativ tarbiya komponenti.Tarbiya nafaqat axloqiy me’yorlarni singdirish, balki shaxsni ongli o‘zgartirish, ya’ni transformatsiya qilish jarayonidir. O‘qituvchi bu yerda faollashtiruvchi subyekt sifatida, o‘quvchini hayotiy qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi.Tarbiya – passiv emas, balki intellektual va ijtimoiy o‘zgarishga sabab bo‘ladigan faol jarayon sifatida qaraladi.

Tarbiyaviy faoliyatga doir kompetensiyani zamonaviy pedagogik tafakkur asosida qayta ko‘rib chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Yuqoridagi yangi komponentlar asosida shakllantirilgan model o‘qituvchining nafaqat bilim va ko‘nikmalariga, balki uning refleksiya qilish, kontekstni anglash, empatik yondashuv, kreativ fikrlash va transformatsion tarbiya olib borish qobiliyatlariga ham e’tibor qaratadi. Bu esa kompetensiyaning dinamik, kompleks va holatga yo‘naltirilgan xarakterini ta’minlaydi.

Ushbu rejada asosiy yangilik sifatida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini keltirib o‘tamiz.

Zamonaviy ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan eng muhim vazifalardan biri — o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirish va uni izchil rivojlantirishdan iborat. Ushbu kompetentlik shaxsning o‘zini tutishi, ijtimoiy munosabatlardagi axloqiy mezonlarga sodiqligi, vatanparvarlik, halollik, bag‘rikenglik kabi qadriyatlarni ongli ravishda o‘zlashtirishga asoslanadi. Mazkur yo‘nalishda pedagogika fanining nazariy hamda amaliy yondashuvlari asosida aniqlangan samarali vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ularni sharhlab o‘tamiz:

Tarixiy-shaxsiy namunalar asosidagi tarbiya vositasi. Ma’naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirishda tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatiga asoslangan tarbiya vositasi alohida o‘rin tutadi. Behbudiy kabi allomalar misolida o‘quvchilarga yuksak ma’naviy mezonlar, yetuk shaxsiy Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja fazilatlar, Vatanga sadoqat va axloqiy poklik singdiriladi. Bu vosita o‘quvchilarda o‘zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg‘usi, ijtimoiy mas’uliyat kabi qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi

Axloqiy muammoli vaziyatlar (sotsial voqealik modellashtirish). Muammoli vaziyatlar asosida olib boriladigan interaktiv mashg‘ulotlar (masalan, rolli o‘yinlar, «agar sen bo‘lsangchi?» senariylari) orqali o‘quvchilarda axloqiy tanlov qilish ko‘nikmasi, empatiya, mas’uliyatli qaror qabul qilish malakalari rivojlanadi. Bu vosita axloqiy tafakkur va insoniy qadriyatlarga asoslangan harakatlarni shakllantirish uchun muhim hisoblanadi.

Adabiy-badiiy matnlar asosida axloqiy tahlil qilish vositasi. Ma’naviy-axloqiy kompetentlikning shakllanishida badiiy adabiyot muhim vositadir. Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom, zamonaviy yozuvchilar asarlari orqali o‘quvchilarda ezgulik, adolat, halollik, sabr, sadoqat kabi tushunchalar tahlil etiladi. Bu orqali o‘quvchilar axloqiy mezonlar asosida fikrlash, matnga tayanib axloqiy baho berish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Guruhiy faoliyat va ijtimoiy loyihalar orqali tarbiya. O‘quvchilarni kichik guruhlar yoki ijtimoiy loyiha shaklida tashkil etilgan faoliyatga jalb qilish ularning mas’uliyat hissi, axloqiy o‘zaro munosabat, kooperatsiya, boshqalarga hurmat kabi axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi. Bu vosita o‘z-o‘zini baholash va o‘z harakatlariga mas’uliyat bilan yondashishni shakllantiradi

Muloqot madaniyatiga asoslangan kompetensiya vositasi. Muloqot jarayoni orqali axloqiy kompetentlikni shakllantirish — bugungi kunda pedagogik amaliyotda keng qo‘llanilayotgan usuldir. O‘quvchilarga axloqiy muammolar yuzasidan munozara qilish, fikr bildirish, boshqalarning fikrini eshitish, bahs yuritishda madaniyatni saqlash ko‘nikmalari beriladi. Bu vosita orqali sivil munosabat, boshqalarga hurmat, mulohazali qaror shakllantiriladi.

O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish kompleks vositalar tizimi orqali samarali amalga oshiriladi. Bunda tarixiy shaxslar hayoti, axloqiy muammolar tahlili, adabiy manbalar, guruhiy loyihalar va muloqot madaniyati asosiy o‘rin tutadi. Har bir vosita o‘ziga xos didaktik yondashuv asosida o‘quvchilarda vatanparvarlik, axloqiy qarorlar qabul qilish, samarali muloqot yuritish, shaxsiy mas’uliyat kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Yoshlarning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash nazariy metodologik asoslari keng yoritildi. Avvalo, umumta’lim maktablarida bu yo‘nalish mazmuni, vazifalari va bugungi talablari aniqlashtirildi.

Vatanparvarlik tushunchasi, uning tarixiy ildizlari va milliy merosdagi aks etishi (Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqa allomalar misolida) tahlil qilinib, yoshlarning milliy ma'naviy kamoloti asosida fikr yuritilishi tavsiflandi.

Ma'naviy axloqiy kompetentlikka erishishda tarixiy shaxs namunalari, axloqiy muammoli vaziyatlar, adabiy tahlil, guruhiy loyihalar va muloqot madaniyati kabi integrativ vositalar samaradorligi o'rganildi. Bu vositalar har bir o'qituvchi va o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Yusuf Mirziyoev, Islom Karimov va boshqa davlat rahbarlari qarorlari, "Temurbeklar maktabi" dasturi, "Vatan tayanchi" harbiy vatanparvarlik harakati va "O'zbekiston 2030" strategiyasi asosida amaliy chora tadbirlar tizimi vositasida tarbiyalash qayta tashkil etilgani ta'kidlandi. Bu islohotlar yoshlarni zamonaviy xavfsizlik muhitida yetuk, ma'naviy barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli insonlar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

M.Qurbonov va A.K.Markova nazariy yondashuvlari asosida innovatsion pedagogik kompetensiya modellarini yaratishga urg'u berildi. Bu modellar kontekstual moslashuv, emosional intellekt, kreativ didaktika, reflektiv autoreflektiv rivojlanish va transformativ tarbiya komponentlarini o'zida mujassamlashtiradi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, umumta'lim maktablarida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni ma'naviy-axloqiy kompetentlikni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki o'quvchilarda fuqarolik mas'uliyati, vatanparvarlik tuyg'usi, axloqiy barqarorlik va ijtimoiy faollikni shakllantirishni ham taqozo etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda bilim, ko'nikma, qadriyat va faoliyat tajribasining integratsiyasini ta'minlaydi. Tadqiqot davomida M.Qurbonov hamda A.K.Markova tomonidan ishlab chiqilgan tarbiyaviy kompetensiya modellari tahlil qilinib, ular asosida kontekstual moslashuv, emosional intellekt, kreativ didaktika, reflektiv-avtoreflektiv rivojlanish va transformativ tarbiya komponentlarini o'z ichiga olgan takomillashtirilgan model taklif etildi.

Shuningdek, tarixiy shaxslar namunasi, axloqiy muammoli vaziyatlar, adabiy-badiiy tahlil, guruhiy loyihalar va muloqot madaniyati kabi integrativ vositalar ma'naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirishda samarali metodik mexanizm ekanligi asoslandi.

Davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari, Temurbeklar maktabi tizimi, Vatan tayanchi faoliyati hamda O'zbekiston 2030 strategiyasi doirasidagi vazifalar harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Xulosa qilib aytganda, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kompetensiyaviy asosda tashkil etish o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashning samarali yo'li bo'lib, bu jarayon pedagogning innovatsion, reflektiv va transformativ faoliyatini talab etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. Toshkent.

2. O'zbekiston Respublikasi. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan farmon. Toshkent.

3. O'zbekiston Respublikasi. "Temurbeklar maktabi" faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar. Toshkent.

4. O'zbekiston Respublikasi. "Vatan tayanchi" harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar. Toshkent.

5. Mirziyoyev, Sh. M. Ta'lim tizimini yangilash konsepsiyasi – Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan farmon. Toshkent.

6. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish.O'quv uslubiy majmua.Buxoro 2024.17 -bet.

7. N.A.Muslimov, va boshqalarkasb ta'limi o'qituvchilarinig kasbiy kompetenligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya.-T:Fan va texnologiyalar nashriyoti.

8. Qurbonov M. Uzluksiz ta'limda fizik eksperimentlarning didaktik funksiyalari samaradorligini oshirish (Oliy taъlim misolida). P.f.d., dis. -Toshkent, 2012. - 255 b.

9. Маркова А.К. Психология профессионализма. -М.: Знание, 1996. -308 с.

РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Мустафоева Дурдона Асиловна,
"Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства"
Национальный исследовательский университет
д.п.н.(DSc), доцент

Аннотация. Изучение инновационных процессов в образовании, их функций, закономерностей развития, механизмов и технологий их реализации позволяет организовать в высших учебных заведениях на уровне мировых стандартов на основе достижений современной педагогики и педагогической науки.

Автор представляет научные труды и работы, которые проводятся последние годы в стране, направленные на совершенствование механизмов организации и управления образовательным процессом, внедрение инновационного управления образованием на основе демократических принципов, внедрение передовых педагогических технологий в систему непрерывного образования.

Ключевые слова: управленческая компетентность, управленческая деятельность, профессионализм, коммуникативность, индивидуальная деятельность, факторы развития, совершенствование.

DEVELOPMENT OF MANAGERIAL COMPETENCE OF HEADS OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. The study of innovative processes in education, their functions, patterns of development, mechanisms and technologies of their implementation makes it possible to organize in higher education institutions at the level of world standards based on the achievements of modern pedagogy and pedagogical science.

The author presents scientific papers and works that have been carried out in recent years in the country aimed at improving the mechanisms of organization and management of the educational process, the introduction of innovative educational management based on democratic principles, the introduction of advanced pedagogical technologies into the system of continuing education.

Keywords: managerial competence, managerial activity, professionalism, communication, individual activity, development factors, improvement

Введение. В последние годы в стране проводится значительная работа, направленная на совершенствование механизмов организации и управления образовательным процессом, внедрение инновационного управления образованием на основе демократических принципов и кластерного подхода к нему, внедрение передовых педагогических технологий в систему непрерывного образования. Изучение инновационных процессов в образовании, их функций, закономерностей развития, механизмов и технологий их реализации позволяет организовать в высших учебных заведениях на уровне мировых стандартов на основе достижений современной педагогики и педагогической науки. Эти требования, в свою очередь, обязывают проектирование содержания развития управленческой деятельности руководителей на основе кластерного подхода в специализированных кадрах в процессах интеграции нашей страны в мировую экономическую систему, выхода национальных кадров на мировые рынки труда, совершенствования организационно-управленческих механизмов развития управленческой деятельности, технологий развития эффективной управленческой деятельности и управленческой компетентности руководителей.

Сегодня эффективная деятельность образовательного учреждения во многом зависит от качества управления в нём. В то время как руководящий потенциал и навыки

руководителя образовательного учреждения определяют качество данного управления, сами эти характеристики основаны на базовых знаниях, умениях, навыках и квалификации руководящих сотрудников.

Руководитель организации постоянно находится в разнообразном информационном пространстве, содержание и направленность которого во многом определяют характер его управленческой деятельности. Коммуникативное (поведенческое) поведение руководителя - это сложная форма его социальной деятельности, направленная на достижение целей общения посредством коммуникации с другими субъектами организации во внешней и внутренней среде.

Методы. Индивидуально-психологические особенности руководителя образовательного учреждения проявляются в следующих качествах: в коммуникативных ситуациях между сотрудниками коллектива, в формировании коммуникативных способностей и коммуникативных компетенций.

О.Хайитов отмечал, что компетенция - это совокупность знаний, относящихся к оценке поведения личности, с помощью которых можно определить, какой уровень успешности достигается сотрудником в осуществлении своей деятельности на пути эффективного развития организации. Наличие компетенций обычно фиксируется через определенные обстоятельства, измеряющие (с помощью индикаторов) поведение человека (хорошо сформированные поведенческие компетенции).

Компетенции: 1) стандартное поведение, принятое в масштабах всей организации; 2) способность руководителя вести деятельность в соответствии со стандартами, принятыми в масштабах всей организации.

Коммуникативная компетентность – это способность руководителя овладевать технологиями устного и письменного общения на разных языках, а также способность руководителя и сотрудников вступать в отношения посредством коммуникативной речи. Некоторыми специалистами понятие социально-психологической компетентности также часто используется как синоним понятия “коммуникативная компетентность”. Для определения непосредственной коммуникативной компетентности используется ряд методик, таких как “Уровень коммуникативной компетентности”, “Способность высказывать свое мнение”, а также осознание того, насколько хорошо он может контролировать себя (специальный тест М.Снайдера).

В формировании коммуникативных компетенций у руководителей хотим проинформировать о таком качестве, как внимание к коммуникации, то есть умение руководителя контролировать процесс информационного обеспечения сотрудников. Руководитель, обладающий этой компетенцией: наблюдает за каждым сотрудником в коллективе, чтобы заранее знать о предстоящих планах и действиях, которые могут произойти; наблюдает, как управляющий делится своими планами с коллегами и другими заинтересованными сотрудниками; при передаче важных сообщений эффективно использует всевозможные средства коммуникации (деловое письмо, совещание, электронная почта); постоянно информирует управляющего о ходе работы и возможных трудностях, с которыми он может столкнуться, с целью избежать неожиданных инцидентов; следит за тем, чтобы обмен информацией происходил согласованно и непрерывно.

Результаты. Основным компонентом коммуникативной компетентности является способность руководителя профессионального образовательного учреждения координировать взаимодействие с учетом позиции другого участника в области коммуникативной и информационной грамотности. О.С. Анисимов выделяет четыре основные роли в процессе коммуникации: “авторство”,“взаимопонимание”, “критическое мышление” и “организация”.

Уровень эффективности коммуникативных способностей руководителя определяется

его поведением в межличностных отношениях. Конечно, в этот процесс включаются такие качества личности, как социальная среда и ее влияние, сформировавшиеся у сотрудников личностные ценности и индивидуально-психологические особенности, открытость, эмоциональность, выразительность, способность к адекватному социальному восприятию, наблюдательность, мнемонические способности и др.




Рисунок 1. Организационно-педагогические факторы коммуникативного поведения

Современная теория западных ученых сегодня отдает приоритет при классификации функций управления, прежде всего, его основным (общим) функциям, к которым относятся:

планирование;
организация;
регулирование;
координация;
контроль;
стимулирование, т.е. мотивирование.

1. Планирование считается основной и исходной функцией управления. Любое управление начинается с составления плана. В этом плане определяются цели и задачи управления, сроки их реализации, разрабатываются методы реализации задач, устанавливаются взаимосвязи звеньев народного хозяйства.

2. Организационная функция обеспечивает организацию всех управляющих и управляемых процессов в рамках объекта управления.

3. Регулирование и координация. В то время как планирование считается стратегией управления, координация решает тактические вопросы управления. Координация позволяет исключить параллелизм и дублирование в управлении с целью экономии средств. Регулирование является продолжением координации, направленное на реализацию производственных процессов путем устранения возникающих проблем. С его помощью предотвращается вероятность возникновения проблем.

4. Контроль. Целью данной функции является не “захват”, не “раскрытие” вины, а учет, проверка, анализ процессов, в которых находится объект управления и своевременная корректировка деятельности этого объекта в определенном порядке. Организация импульсивного контроля - это функциональная работа каждого руководителя. Высокие конечные результаты не могут быть достигнуты там, где нет регулярного контроля.

Современная теория западных ученых сегодня отдает приоритет при классификации функций управления, прежде всего, его основным (общим) функциям, к которым относятся:

планирование;

организация;
регулирование;
координация;
контроль;
стимулирование, т.е. мотивирование.

1. Планирование считается основной и исходной функцией управления. Любое управление начинается с составления плана. В этом плане определяются цели и задачи управления, сроки их реализации, разрабатываются методы реализации задач, устанавливаются взаимосвязи звеньев народного хозяйства.

2. Организационная функция обеспечивает организацию всех управляющих и управляемых процессов в рамках объекта управления.

3. Регулирование и координация. В то время как планирование считается стратегией управления, координация решает тактические вопросы управления. Координация позволяет исключить параллелизм и дублирование в управлении с целью экономии средств. Регулирование является продолжением координации, направленное на реализацию производственных процессов путем устранения возникающих проблем. С его помощью предотвращается вероятность возникновения проблем.

4. Контроль. Целью данной функции является не “захват”, не “раскрытие” вины, а учет, проверка, анализ процессов, в которых находится объект управления и своевременная корректировка деятельности этого объекта в определенном порядке. Организация импульсивного контроля - это функциональная работа каждого руководителя. Высокие конечные результаты не могут быть достигнуты там, где нет регулярного контроля.

Таким образом, под функцией управления понимается совокупность видов работ, направленных на решение конкретных задач, связанных с управлением тем или иным объектом. Следовательно, управление осуществляется через определенные функции. Выявление функций, раскрытие их сущности и изучение - важное условие правильной организации процесса управления.

Это позволяет планировать и организовывать содержание, форму, методы и средства стратегии профессионального развития в управленческой деятельности с учетом индивидуальных профессиональных потребностей руководителей и педагогических кадров, существующего уровня профессиональной и управленческой компетентности. При их реализации он служит развитию управленческой компетентности специализированных кадров и повышению их эффективности на основе кластерного подхода.

Обсуждение. На основе теоретического анализа, онлайн-опросов и выводов, сформированных на основе эмпирических исследований, а также на основе требований менеджмента усовершенствована педагогическая система организации процесса развития управленческой компетентности специализированных кадров высших учебных заведений на основе кластерного подхода, упомянутого выше в исследовательском процессе. Педагогическое воздействие в образовательном процессе, учебные материалы, подготовленные руководящими работниками (преподавателями, заместителями декана или тьюторами), тексты учебных материалов, аудио- и видеофайлы, нормативные документы и первичные источники являются одними из наиболее важных требований и размещаются на открытых и доступных для всех студенческих платформах в начале семестра. Следует отметить, что в этом процессе важным критерием считаются не только научные знания, но и улучшение коммуникации с преподавателями, заместителями деканов, ответственными лицами, назначенными руководством.

В ходе экспериментальной работы у респондентов наблюдалось осознание готовности к регулярному обучению в качестве будущего лидера, но при этом он должен демонстрировать высокие профессиональные навыки, стремление к личностному росту, развитие

профессиональных качеств и эффективную деятельность. Помимо этого, замечено, что независимо от возраста, если человек стремится к самосовершенствованию, самообучению и саморазвитию, это принесёт пользу для коллектива, руководителя и приведет к росту управленческой компетентности.

В экспериментальной работе были использованы следующие методы исследования:

методы эмпирического уровня (наблюдение, измерение, опыт, опрос, интервью, самоанализ, экспертная оценка);

методы теоретического уровня (анализ и синтез, сравнение, обобщение, индукция и дедукция).

Методом, наиболее ярко выражающим динамику изменений экспериментальной работы, является метод диагностики, отражающий три уровня (табл. 1).

Таблица 1

Таблица отражения динамики изменений экспериментальных работ

Показатели динамики изменений	**Критерии**
Результативность	Эрудиция, коммуникативные способности; умение эффективно применять полученные знания и навыки управленческой деятельности в практической деятельности; управленческие способности
Нормативность	Знание правил, инструкций, нормативно-правовых актов, регулирующих профессиональную деятельность руководителя-педагога, умение применять их в деятельности
Коммуникабельность	Вступление в коммуникативный диалог с руководителями и их подчиненными; умение индивидуально подходить к распределению задач и контролю за их выполнением

При развитии управленческой компетентности специализированных кадров использовался метод анкетирования для внедрения модели компетентности и количественной оценки результатов коммуникативного диалога в управленческой деятельности, повышения их готовности к управленческой деятельности. Для оценки эффективности модели развития управленческой компетентности специализированных кадров были разработаны следующие критерии оценки готовности специализированных кадров к управленческой деятельности:

1. Результативность: знания, коммуникативные способности; способность эффективно применять полученные знания и навыки, связанные с управленческой деятельностью, в практической деятельности; управленческие способности.

2. Нормативность: знание правил, инструкций и правовых документов, регулирующих профессиональную деятельность педагога-менеджера и умение применять их в деятельности.

3. Коммуникабельность: коммуникативное общение с руководителями и их подчиненными; умение индивидуально подходить к постановке задач и контролю их выполнения.

Заключение. По результатам исследования классифицированы организационно-педагогические основы эффективной управленческой деятельности на основе кластерного подхода специализированных кадров образовательных учреждений, методологические основы развития управленческой деятельности, анализ методов развития управленческой компетентности, усовершенствованы организационно-административные, социально-психологические и информационно-накопительные методы, в значительной степени соответствующие управлению специализированных кадров образовательных учреждений в современных социально-экономических условиях.

При развитии коммуникативно-управленческой деятельности в процессах управленческой деятельности специалистов образовательных учреждений на основе обеспечения взаимодействия и интеграции указанных в диссертации факторов:

определена личностно-жизненная позиция специалистов как активных участников социальных процессов, развитие их как полноценного субъекта инновационных процессов в образовательном учреждении;

научно – теоретически обоснована возможность систематизации целей таких функций, как уточнение информации, целенаправленная мотивация, предварительное прогнозирование, планирование, организационно-исполнительная, контрольно-диагностическая, регулятивно-координационная, с учетом их ориентации на личностные и профессиональные потребности, интересы, а также создание условий для адаптации к требованиям инновационной образовательной среды.

Использованная литература:

Атлас новых профессий. Московская школа управления «СКОЛКОВО» М.-2014.-168 с.

Базаров Т.Ю., Ермина Б.Е. Управление персоналом: Учебник для вузов /Под ред. Т.Ю. Базарова, Б.Л. Еремина. — 2-е изд., перераб. и доп. — М: ЮНИТИ, 2002. - 560 с.

Грибоедова, Т. П. Содержание понятия и особенности реализации социального партнерства в современном образовании // Известия РГПУ им. А.И. Герцена. – 2019. – № 68. –С.50-60.

Друкер П.Ф. Задачи менеджмента в XXI веке: Учеб. пособие / Пер. с англ. и ред. Н.М.Макаровой. М.: Вильямс, 2000

Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Эксперимент и инновации в школе. 2009. №2.

Исмаилова З.К., Мустафоева Д.А. Fundamentals of the development of axiological competence among teachers. // «Science and innovation» Международный научный журнал № 1 2023 г. стр. 58-62

TARBIYA DARSLARIDA O’QUVCHILARNING O`QUV FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Namozova Nigina Shuxratovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi) mutaxasisligi bo’yicha 1 kurs magistri

Mazkur maqolada tarbiya darslarida o’quvchilarning o’quv faoliyatini faollashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada individual yondashuv asosida har bir o’quvchining qiziqishi va bilim darajasidan kelib chiqib, sun’iy intellekt tomonidan moslashtirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: tarbiya darslari, o’quv faolligi, sun’iy intellekt, pedagogik innovatsiyalar, individual yondashuv, adaptiv ta’lim, ta’lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar, didaktik modellashtirish, kreativ yondashuv.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ АКТИВАЦИИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ НА УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЯХ

Намозова Нигина Шухратовна,
Бухарский государственный педагогический институт
1 курс магистратуры по специальности «Теория и история педагогики» (вид деятельности)

В данной статье научно и теоретически анализируются преимущества использования технологий искусственного интеллекта для активизации учебной деятельности учащихся на уроках. Кроме того, в статье обосновываются возможности разработки персонализированных заданий с использованием искусственного интеллекта на основе индивидуального подхода, учитывающего интересы и уровень знаний каждого ученика.

Ключевые слова: образовательные уроки, образовательная деятельность, искусственный интеллект, педагогические инновации, индивидуальный подход, адаптивное образование, повышение качества образования, цифровые технологии, дидактическое моделирование, творческий подход.

USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES TO ENHANCE STUDENT LEARNING IN CLASSROOMS

Nigina Shukhratovna Namozova,
Bukhara State Pedagogical Institute
First-year Master’s student in «Theory and History of Pedagogy» (activity)

This article provides a scientific and theoretical analysis of the benefits of using artificial intelligence technologies to enhance student learning in the classroom. It also explores the potential of developing personalized assignments using artificial intelligence, based on an individualized approach tailored to each student’s interests and knowledge level.

Key words: educational lessons, educational activities, artificial intelligence, pedagogical innovations, individual approach, adaptive education, improving the quality of education, digital technologies, didactic modeling, creative approach.

Kirish. Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy

izlanishlar bugungi kunda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari bilan chambarchas bog’lanmoqda. Zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik yangiliklarni klassifikatsiyalash, neologik va kreativ yondashuvlarni takomillashtirish, ta’limni integratsiyalash va modellashtirish jarayonlari SI asosida yangi bosqichga ko’tarilmoqda.

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar, xususan, sun’iy intellekt (SI) vositalari o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etishga xizmat qilmoqda. Tarbiya darslari esa shaxsning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan muhim fan hisoblanadi. Shu sababli, ushbu darslarda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv faolligini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik yangiliklarni tizimlashtirish va klassifikatsiyalash katta hajmdagi ma’lumotlarni chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Sun’iy intellekt esa ta’lim jarayonidagi innovatsion yondashuvlarni avtomatik tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash, rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash va “O’quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi kontseptsiyasi”da belgilangan yondashuvlar uchun prognoz modellar yaratishda muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Masalan, UNESCO ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo’yicha global tadqiqotlar olib bormoqda va SI asosida ta’lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini rivojlantirmoqda.

Jahon ta’lim amaliyotida pedagogik yangiliklarni klassifikatsiyalash, kreativ munosabatlarni takomillashtirish, ta’lim xizmatlarini diversifikatsiyalash va sifat menejmentini joriy qilish jarayonlari sun’iy intellekt texnologiyalari bilan uyg’unlashmoqda.

Tarbiya darslarida o’quvchilarning o`quv faoliyatini faollashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari shundan iboratki, sun’iy intellekt:

-ta’lim jarayonini modellashtirish;

-boshqarish;

-monitoring qilish;

-prognozlash;

-individuallashtirish kabi vazifalarni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Shu bois, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda sun’iy intellekt nafaqat texnologik vosita, balki ta’lim tizimini transformatsiya qiluvchi strategik resurs sifatida qaralmoqda.

Ta’limni axborotlashtirish sharoitida “o’quvchilar jamoasining ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarning mavjudligi” pedagogik jarayonda “sun’iy intellektdan foydalanish” tushunchasi mazmun mohiyatini ochishga yordam beruvchi, o’ziga xos tushuncha va pedagogik kategoriyalar tizimini aks ettiruvchi pedagogik shart sharoitlar, shakl, metod va vositalarini to’g’ri tanlashga bog’liqdir.

Sun’iy intellekt — bu kompyuter tizimlarining inson aqliy faoliyatiga xos bo‘lgan tahlil qilish, o‘rganish, muammoni hal etish va qaror qabul qilish kabi jarayonlarni bajarish qobiliyatidir.

Tabiiy ravishda sun’iy intellest nima ?- degan savol tug’iladi. Sun’iy intellekt (SI) — bu kompyuter tizimlari va dasturlariga inson aqliga xos bo‘lgan vazifalarni bajarish qobiliyatini beruvshi texnologiyadir. Bu vazifalarga quyidagilar kiradi: O‘rganish (ya’ni tajriba asosida yaxshilanish), mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish, tilni tushunish va ishlatish (masalan, tabiiy tilni qayta ishlash — NLP), ko‘rish va eshitish orqali tanib olish (masalan, yuzni yoki ovozni aniqlash), qaror qabul qilish.[13]

Masalan: ShatGPT — siz bilan muloqot qilish orqali savollarga javob beradigan SI. Google Translate — tillar o‘rtasida tarjima qiladi. Fase ID (iPhone) — yuzni tanib telefonni oshadi.

Turlari: Tor sun’iy intellekt (Narrow AI): faqat biror aniq vazifani bajaradi (masalan, shaxmat o‘ynaydigan dastur).

Keng sun’iy intellekt (General AI): inson kabi har xil vazifalarni bajarishga qodir (hozirsha mavjud emas).

Hozirgi kunda ta’lim pedagogk amaliyotida keng qo‘llanilib kelinayotgan sun’iy intellekt

tizimlarini ko‘rib shiqamiz.

SMODIN - ushbu intellektual tizimdan foydalangan holda istalgan mavzuda maqolalar, hikoyalar, esseylar yaratish mumkin. Ular har qanday antiplagiat platformalar xizmati tomonidan tekshirilganda o‘zining takrorlanmas ma’lumotlarini saqlab qoladi, ishonshli, yuqori sifatli ma’lumotlarga asoslanib ish ko‘radi.

ShatGPT – sun’iy intellektning ushbu versiyasi bugungi kunda eng ko‘p foydalaniladigan platformalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib ShatGPT platformasidan foydalanuvshilar soni dunyo bo‘yisha 100 milliondan ortiq kishini tashkil etadi. Ushbu universal shatbot o’quvchilarning mustaqil bilim olishlari ushun assistent-yordamshi vazifasini bajaradi va turli matnlarni yozish, asosiy dastur kodini yaratish, moliyaviy tahlilni o‘tkazish, texnik maqolalar yoki ilmiy tushunshalar bo‘yisha xulosalar shiqarish, berilgan g‘oya asosida tasvirlar va videolarni yaratish hamda aniq mavzular bo‘yisha g‘oyalarni shakllantirish imkonini beradi.

DEEPL – ushbu platformanini Google translyatorga munosib raqobatshi deyish mumkin.

Ta’lim tizimida SI: individual yondashuvni ta’minlaydi; o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qiladi; moslashtirilgan topshiriqlarni taklif etadi; real vaqt rejimida fikr-mulohaza (feedback) beradi.

Masalan, OpenAI tomonidan yaratilgan sun’iy intellekt asosidagi platformalar o‘quvchilarga mustaqil fikrlash, savol berish va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Tajribalarimizga tayanib aytishimiz mumkinki, tarbiya darslarida o’quv faolligini oshirish uchun an’anaviy va innovatsion usullarni uyg’unlashtirish, o’quvchini dars markaziga qo’yish va uning shaxsiy faolligini rag’batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Fikrimizcha, tarbiya darslarida o’quv faolligini oshirish quyidagi samarali yo’llar asosida tashkil etilsa, ko’zlangan pedagogik maqsadlarga erishish samaradorligi ortadi.[2]

1.Interaktiv metodlardan foydalanish – “Aqliy hujum”, “Keys-stadi”, “Debat”, “Rolli o’yin” kabi usullar o’quvchilarni faol muloqotga jalb etadi.

2.Muammoli vaziyat yaratish – hayotiy misollar asosida axloqiy va ijtimoiy muammolarni muhokama qilish o’quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

3.Guruhli va jamoaviy ishlarni tashkil etish – hamkorlikdagi faoliyat mas’uliyat, o’zaro hurmat va ijtimoiy kompetentsiyalarni shakllantiradi.

4.Raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish – adaptiv savol-javob platformalari, interaktiv testlar va tahlil vositalari orqali har bir o’quvchining faol ishtiroki ta’minlanadi.

5.Refleksiya va o’z-o’zini baholash – dars yakunida fikr-mulohaza almashish va o’z faoliyatini tahlil qilish o’quvchilarning ongli ishtirokini kuchaytiradi.

6.Ijodiy topshiriqlar berish – esse, loyiha, ijtimoiy rolik yoki taqdimot tayyorlash kabi vazifalar qiziqish va tashabbuskorlikni oshiradi.

Alohida ta’kidlash joizki, o’quv faolligini oshirishga qaratilgan samarali pedagogik usullar o’quv maqsadlari, jamoa psixologiyasi va mavzu mohiyatidan kelib chiqqan holda qo’llanilganda юqori samara beradi.

Tarbiya darslari ko‘proq muloqot, muhokama, tahlil va hayotiy misollar asosida olib boriladi. Sun’iy intellekt bu jarayonni quyidagi yo‘llar bilan faollashtiradi:

Interaktiv savol-javob tizimi SI asosidagi chatbotlar orqali o‘quvchilar mavzu yuzasidan savollar berishi va darhol javob olishi mumkin. Bu ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Muammoli vaziyatlarni modellashtirish axloqiy yoki ijtimoiy vaziyatlarni sun’iy intellekt yordamida simulyatsiya qilish orqali o‘quvchilar qaror qabul qilish jarayonida faol ishtirok etadilar.

Individual yondashuv har bir o‘quvchining qiziqishi va bilim darajasidan kelib chiqib, SI mos topshiriqlar ishlab chiqadi. Bu esa passiv o‘quvchilarni ham jarayonga jalb qiladi.

Refleksiya va tahlil dars yakunida SI o‘quvchilarning javoblarini umumlashtirib, kuchli va sust tomonlarini ko‘rsatib beradi. Bu o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari

O‘quv motivatsiyasini oshiradi Darsni qiziqarli va interaktiv qiladi

Vaqtdan samarali foydalanish imkonini beradi

O‘qituvchiga metodik yordam beradi

O‘quvchilarda raqamli kompetensiyani shakllantiradi

Adabiyotlar tahlili va tajribalarimizga tayanib aytishimiz mumkinki, tarbiya darslari — bu nafaqat bilim berish, balki barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan muhim pedagogik jarayondir.

Tarbiya darslari — o’quvchilarning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy, huquqiy va fuqarolik kompetentsiyalarini shakllantirishga qaratilgan ta’lim jarayoni hisoblanadi. Ushbu darslar shaxs kamoloti, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash, jamoada o’zini tutish madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tarbiya darslarining asosiy maqsadlari: o’quvchilarda vatanparvarlik va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat uyg’otish, axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, ijtimoiy faollik va mas’uliyatni oshirish, mustaqil fikrlash va ongli qaror qabul qilish ko’nikmasini shakllantirishdan iborat.

Tarbiya darslari muloqot va muhokamaga asoslanadi, hayotiy misollar bilan bog’liq bo’ladi, interfaol metodlar samarali qo’llaniladi, shaxsga yo’naltirilgan yondashuv ustuvor hisoblanadi

Bugungi kunda tarbiya darslarida interaktiv texnologiyalar, loyiha ishlari, keys-stadi, debatlar va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish o’quvchilarning faolligini oshirish va dars samaradorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Tarbiya darslarida qanday sun’iy intellektdan foydalanish mumkin?-degan savolni ilmiy amaliy jihatdan ko’rib chiqamiz.

Tarbiya darslarida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish o’quvchilarning ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy va fuqarolik kompetentsiyalarini shakllantirishda samarali vosita bo’la oladi. Quyida asosiy yo’nalishlar keltiriladi:

Intellektual chatbotlar va virtual maslahatchilar

OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan AI modellari kabi platformalar:

mavzu bo’yicha savol-javob tashkil etadi;

axloqiy vaziyatlar ɪozasidan fikr almashishni rag’batlantiradi;

mustaqil tahlil qilish ko’nikmasini rivojlantiradi.

2. Axloqiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish

SI asosida hayotiy muammoli holatlarni modellashtirish mumkin. Masalan: nizoli vaziyatda qaror qabul qilish;

jamoadagi munosabatlarni tahlil qilish; mas’uliyat va tanlov oqibatlarini baholash.

Bu usul o’quvchilarda tanqidiy fikrlash va ongli qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

3. Adaptiv o’qitish tizimlari

Sun’iy intellekt: har bir o’quvchining bilim darajasini tahlil qiladi; individual topshiriqlar taklif etadi; passiv o’quvchilarni faollashtirishga yordam beradi.

4. Refleksiya va tahlil vositalari

Dars yakunida SI: javoblarni umumlashtiradi; ishtirok darajasini tahlil qiladi; kuchli va rivojlantirilishi lozim bo’lgan jihatlarni ko’rsatadi.

5. Emotsional intellektni qo’llab-quvvatlash [12]

Ayrim SI dasturlari nutq va matn tahlili orqali: o’quvchilarning emotsional holatini aniqlaydi; stress yoki tushkunlik alomatlarini belgilaydi; psixologik qo’llab-quvvatlash mexanizmlarini taklif qiladi. Tarbiya darslarida sun’iy intellektdan foydalanish: darsni interaktiv va qiziqarli qiladi; o’quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi; shaxsga yo’naltirilgan ta’limni kuchaytiradi; ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonini zamonaviy bosqichga olib chiqadi.7[]

Muhimi, sun’iy intellekt o’qituvchini almashtirmaydi, balki uning pedagogik faoliyatini

qo’llab-quvvatlovchi innovatsion vosita sifatida xizmat qiladi.

Haqiqatdan ham ta’limni innovatsion rivojlantirish sharoitida ta’lim jarayonlarini boshqaruvshi intellektual ta’lim tizimlari (ITT) ta’lim sifati, samaradorligi va shaxsiylashtirilgan o‘qitishni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim jarayonlarini boshqaruvshi intellektual ta’lim tizimlaring imkoniyatlarini quyidagisha tahlil qilishni lozim topdik.

1.Shaxsiylashtirilgan ta’lim. Bunda har bir o’quvchining qiziqish va qobiliyati, bilim darajasi, o‘rganish tezligi va uslubiga mos ravishda individual ta’lim yo‘nalishiga ko’ra faoliyat yuritiladi. Yordamshi tavsiyalar, testlar va materiallar avtomatik tarzda shakllantiriladi.

2. O‘qituvshilar ushun yordamshi vosita Dars rejalashtirish, baholash va tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtiradi. Talabalarning faolligini, o‘zlashtirish darajasini monitoring qiladi va o‘qituvshiga tahliliy ma’lumot beradi.

3. Bilimlarni tahlil qilish va kuzatish Talabalar faoliyati asosida tahliliy hisobotlar tuzadi (masalan, qaysi mavzular murakkab, kim orqada qolmoqda). O‘qituvshilarga samarali pedagogik qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

4. Sun’iy intellekt asosida qaror qabul qilish Progressni prognoz qiladi (o’quvchining imtihon natijalari qanday bo‘lishi mumkin). Ta’lim jarayonidagi muammolarni oldindan aniqlaydi va shoralar taklif qiladi.

5. Adaptiv ta’lim muhiti O‘quv resurslarini avtomatik moslashtiradi (masalan, oson, o‘rta, murakkab darajadagi kontent). Foydalanuvshining holatiga qarab interfeys va metodikani moslashtiradi.

6. Masofaviy ta’limni qo‘llab-quvvatlash Onlayn darslar, sinovlar, interaktiv treninglar va virtual laboratoriyalarni boshqaradi. Har qanday joydan va vaqtda o‘qish imkonini beradi.

7. Avtomatik baholash tizimlari

Testlar, esse, loyihalarni avtomatik tahlil qiladi.

Baholashda inson xatolarini kamaytiradi va tezlikni oshiradi.

8. Resurslardan samarali foydalanish

Darslarga yuklama, auditoriyalarni to‘ldirish va o‘qituvshilar resurslarini optimallashtiradi. Ta’lim jarayonini rejalashtirishda yuqori darajadagi aniqlikni ta’minlaydi.[9]

Xulosa qilib aytganda, tarbiya darslarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtirishda samarali vosita hisoblanadi. U o‘quvchini dars markaziga olib chiqadi, mustaqil fikrlashga undaydi va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantiradi. Kelajak ta’limi — bu an’anaviy pedagogika va innovatsion texnologiyalar uyg‘unligidir. Sun’iy intellekt esa ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda.

Shuningdek, intellektual ta’lim tizimlari zamonaviy ta’limda innovatsion yondashuvni joriy etish, raqamli transformatsiyani amalga oshirish va ta’lim jarayonlarini samarali boshqarish ushun samarali vosita hisoblanadi. Bu tizimlar orqali ta’lim interaktiv, moslashuvshan, tahliliy asoslangan va natijaga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Mucurmanova O. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug’ati. / o’zbek, ruc, ingliz tillarida / T.: “TURON - IQBOL”, 2019. – 844 b

2.Mucurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim camaradorligi omili; monografiya / T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2020. -184 b

3.Musurmanova O. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug’ati. / o’zbek, rus, ingliz tillarida / T.: “TURON - IQBOL”, 2019. 844

4.Muclimov N.A., Ucmonboeva M., Mircolieva M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik» moduli bo’yicha UMK. -T., 2017. – 43-105 b.

5. 119.Tarbiya 1: 1-sinf o’quvchilari uchun darslik. 1-nashr. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshken – 2020 –64 b

6.Tarbiya 2: 2-sinf o’quvchilari uchun darslik. 1-nashr. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot –

matbaa ijodiy uyi. Toshken – 2020 –80 b

7.Tarbiya 3: 3-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshken – 2020 –92 b

8.Tarbiya 4: 4-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshken – 2020 –96 b

9. Umurov Z.L. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limiy muammolariga oid didaktik shart-sharoitlarni takomillashtirish Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Samarqand 2019 – 167 b.

10."UNIVERSAL" xalqaro ilmiy jurnali maxsus soni: "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqot

11.Biggest Limitations of Artificial Intelligence Technology | HackerNoon. (n.d.). Retrieved March 7, 2023, from https://hackernoon.com/the-missing-pieces-6- limitations-of-ai-s85r3upr

12.B.Ziyamuxamedov.Pedagogika/B.Ziyamuxamedov.-Toshkent:«TAMADDUN»nashrieti, 2014. — 256 b.

13.https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intelektning-pedagogik-faoliyatdagi-o-rni

AGROSANOAT QUYOSH PANELLARINING AVTOMATIK TOZALASH TIZIMLARI MISOLIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINING O’QITISH METODIKASI

Nekboyev Xurshid Xoliyorovich,
Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti

Axmatova Sabina Ubaydullayevna
Qarshi davlat texnika unversteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotning maqsadi agrosanoat hududlarida qo‘llanilayotgan quyosh panellarining avtomatik tozalash tizimlari misolida raqamli texnologiyalarning o‘rnini talabalarga o‘qitish metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot doirasida agrosanoat sharoitida quyosh panellari samaradorligiga ta’sir etuvchi chang va biologik ifloslanish omillari tahlil qilinadi, IoT monitoring, sensor texnologiyalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari asosida ishlovchi innovatsion yechimlar o‘rganiladi.

Shuningdek, mazkur texnologiyalarni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv, amaliy-loyihaviy ta’lim, raqamli laboratoriya ishlari hamda modulli o‘qitish texnologiyalari asosida metodik tizim ishlab chiqiladi. Taklif etilgan metodika samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali baholanadi hamda talabalarning kasbiy va raqamli kompetensiyalarini shakllantirish darajasi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar:Agrosanoat, raqamli texnologiyalar, quyosh panellari, avtomatik tozalash tizimi, energiya samaradorligi, fotoelektrik modullar, IoT monitoring, agrovoltaika, sensor texnologiyalari, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, kompetensiyaviy yondashuv, modulli ta’lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar, samaradorlik tahlili.

МЕТОДОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ ЦИФРОВЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ В АГРОТЕКЕ НА ПРИМЕРЕ АВТОМАТИЧЕСКИХ СИСТЕМ ОЧИСТКИ СОЛНЕЧНЫХ ПАНЕЛЕЙ

Некбоев Хуршид Холиёрович,
Доцент Каршиский государственный технический университет

Ахматова Сабина Убайдуллаевна
Магистратура 1-го курса каршийского государственного технического университета

Аннотация: Целью данного исследования является разработка и совершенствование методологии обучения студентов роли цифровых технологий в контексте автоматизированных систем очистки солнечных панелей, используемых в агропромышленных зонах. В рамках исследования анализируются факторы пылевого и биологического загрязнения, влияющие на эффективность солнечных панелей в агропромышленных условиях, изучаются инновационные решения на основе мониторинга IoT, сенсорных технологий и автоматизированных систем управления.

Также разработана методическая система, основанная на компетентностном подходе, практическом проектном обучении, работе в цифровой лаборатории и модульных учебных технологиях в преподавании этих технологий. Эффективность предложенной методологии оценивается посредством экспериментальной работы, и определяется уровень формирования профессиональных и цифровых компетенций студентов.

Ключевые слова: Агропромышленность, цифровые технологии, солнечные панели, автоматизированная система очистки, энергоэффективность, фотоэлектрические модули, мониторинг IoT, агровольтаика, сенсорные технологии, автоматизированные системы управления, компетентностный подход, модульное обучение, инновационные педагогические технологии, анализ эффективности.

METHODOLOGY OF TRAINING DIGITAL TECHNOLOGIES IN AGROINDUSTRY ON THE EXAMPLE OF AUTOMATIC CLEANING SYSTEMS FOR SOLAR PANELS

Nekboyev Xurshid Xoliyorovich,
Associate Professor, Karshi State Technical University

Akhmatova Sabina Ubaydullayevna
1st-course master student of Karshi state technical university

Abstract:The purpose of this study is to develop and improve the methodology for teaching students the role of digital technologies in the context of automatic cleaning systems for solar panels used in agro-industrial areas. Within the framework of the study, dust and biological pollution factors affecting the efficiency of solar panels in agro-industrial conditions are analyzed, innovative solutions based on IoT monitoring, sensor technologies and automated control systems are studied.

Also, a methodological system is developed based on a competency-based approach, practical project education, digital laboratory work and modular training technologies in teaching these technologies. The effectiveness of the proposed methodology is evaluated through experimental work and the level of formation of students' professional and digital competencies is determined.

Keywords:Agro-industry, digital technologies, solar panels, automatic cleaning system, energy efficiency, photovoltaic modules, IoT monitoring, agrovoltaics, sensor technologies, automated control systems, competency-based approach, modular education, innovative pedagogical technologies, efficiency analysis.

KIRISH. (Introduction). Bugungi kunda agrosanoat sohasini barqaror rivojlantirish, energiya resurslaridan samarali foydalanish hamda ekologik muammolarni kamaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligida elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, xususan, quyosh energiyasidan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Quyosh panellari agrosanoat obyektlarida sug‘orish tizimlari, issiqxonalar, nasos stansiyalari, omborxona va qayta ishlash korxonalarini elektr energiyasi bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, ochiq maydonlarda, ayniqsa paxta, g‘alla va boshqa ekin maydonlarida o‘rnatilgan quyosh panellari tez-tez chang, tuproq, qum va boshqa tashqi ifloslanish omillari ta’siriga uchraydi. Natijada quyosh panellari yuzasida hosil bo‘ladigan iflos qatlam ularning energiya ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tozalanmagan quyosh panellarining foydali ish koeffitsienti 20–40 foizgacha kamayishi mumkin. Quyosh panellarini qo‘lda tozalash esa ko‘p vaqt, mehnat va moliyaviy xarajatlarni talab qiladi, shuningdek, katta maydonlarda joylashgan panellar uchun bu usul samarasiz hisoblanadi. Shu sababli agrosanoat sharoitida quyosh panellari uchun avtomatik tozalash tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish muhim ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda. Avtomatik tozalash tizimlari inson omilini kamaytirish, suv va energiya sarfini optimallashtirish hamda quyosh panellarining uzluksiz va yuqori samaradorlikda ishlashini ta’minlash imkonini beradi. Mazkur maqolada agrosanoatda qo‘llaniladigan quyosh panellari uchun avtomatik tozalash tizimlarini ishlab chiqish masalalari, ularning samaradorligini oshirish imkoniyatlari hamda amaliy qo‘llash afzalliklari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari agrosanoat obyektlarida energiya tejamkorligini oshirish, ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tadqiqot usullari va metodikasi(Research Methadology). Mazkur tadqiqot ishida agrosanoat sohasida raqamli texnologiyalarning o‘rni, ahamiyati va samaradorligini o‘rganish maqsadida bir qator zamonaviy ilmiy tadqiqot usullari va metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli

tahlil, taqqoslash, kuzatish, modellashtirish hamda statistik tahlil usullari qo‘llanildi.

Tizimli tahlil usuli orqali agrosanoat sohasida qo‘llanilayotgan raqamli texnologiyalar, jumladan axborot tizimlari, IoT (Internet of Things) qurilmalari, sensor tizimlari, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va raqamli monitoring vositalarining umumiy ishlash prinsiplari o‘rganildi. Ushbu usul yordamida raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayonlariga ta’siri, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishdagi roli hamda boshqaruv tizimlarini takomillashtirishdagi imkoniyatlari tahlil qilindi. Taqqoslash usuli yordamida an’anaviy boshqaruv tizimlari va raqamli texnologiyalar asosida ishlovchi zamonaviy tizimlarning samaradorligi o‘zaro solishtirildi. Bu orqali raqamli texnologiyalarning afzalliklari, jumladan vaqtni tejash, inson omilini kamaytirish, ma’lumotlarning aniqligini oshirish va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlarini yaratishi asoslab berildi. Kuzatish usuli orqali agrosanoat sohasida qo‘llanilayotgan texnologiyalar, xususan quyosh panellari monitoring tizimlari, avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari va masofadan boshqariladigan qurilmalarning ishlash jarayoni o‘rganildi. Ushbu kuzatishlar asosida raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri aniqlandi.

Modellashtirish usuli yordamida agrosanoat sohasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan axborot tizimining konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu model orqali ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va foydalanuvchiga yetkazish jarayonlari ko‘rsatildi. Shuningdek, tizimning ishlash algoritmi va asosiy funksional imkoniyatlari ishlab chiqildi.Statistik tahlil usuli orqali agrosanoat sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash natijasida ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi va boshqaruv jarayonlarining optimallashuvi bo‘yicha natijalar tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar asosida raqamli texnologiyalarning agrosanoat rivojlanishidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy dasturiy vositalar, axborot tizimlari va raqamli platformalardan foydalanildi. Ushbu metodika asosida agrosanoat sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning samaradorligi baholanib, ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) So‘nggi yillarda global miqyosda quyosh energiyasidan foydalanish doimiy ravishda oshib bormoqda. Shu bilan birga, ochiq maydonda o‘rnatilgan quyosh panellari ifloslanish, chang, tuproq zarralari va o‘simlik qoldiqlarining ta’siriga duch keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, panel yuzasining 1–2% ifloslanishi ham elektr energiyasi ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin (Kumar va boshq., 2021).

Ko‘plab olimlar va muhandislar quyosh panellarini tozalashning samarali usullarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanmoqda. Masalan, Li va boshq. (2019) mexanik cho‘tkalar va sensorli boshqaruv tizimi yordamida avtomatik tozalash prototipini taklif qilgan, bu tizim energiya ishlab chiqarish samaradorligini 15–20% oshirgan. Shu bilan birga, Chen va boshq. (2020) suvni tejovchi tozalash tizimlarini ishlab chiqib, katta agrosanoat maydonlarida qo‘llashning iqtisodiy samaradorligini ko‘rsatgan.

O‘zbekiston sharoitida ham qishloq xo‘jaligi va energetika sohasida quyosh panellaridan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Biroq, amaliyotda panellarni tozalash ko‘pincha qo‘lda amalga oshiriladi, bu esa mehnat sarfi va suv resurslarini ko‘paytiradi hamda katta maydonlarda samaradorlikni pasaytiradi (Mirzaev, 2022). Shu sababli avtomatik tozalash tizimlarini ishlab chiqish va tadbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, avtomatik tozalash tizimlari:

energiya ishlab chiqarishni oshiradi;

ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi;

tizimning xizmat muddatini uzaytiradi;

ish jarayonini inson omilidan mustaqil qiladi (Rahimov, 2021).

Ushbu adabiyotlar tahlili asosida quyosh panellarini avtomatik tozalash tizimlarini ishlab chiqishning ilmiy va amaliy ahamiyati aniqlandi. Shu bilan birga, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, agrosanoat sharoitida tizimning samaradorligi va iqtisodiy foydasi aniqlanishi uchun eksperimental

va modellashtirish metodlarini qo‘llash zarur.

Tahlil va natijalar (Analysis and reults).

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, agrosanoat sharoitida ochiq maydonga o‘rnatilgan quyosh panellari ifloslanish, chang va tuproq zarralari ta’siriga duchor bo‘lib, ularning elektr energiyasi ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi. Eksperiment natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

1. Tozalash samaradorligi:

Qo‘lda tozalash tizimi panellar samaradorligini o‘rtacha 8–14% ga oshirdi.

Avtomatik tozalash tizimi panellar samaradorligini o‘rtacha 18–20% ga oshirdi.

2. Panel turi bo‘yicha ta’sir:

Monokristall panellar avtomatik tozalash tizimi yordamida samaradorligini 19–20% ga oshirdi. Polikristall panellarda samaradorlik oshishi 19–20% ga teng bo‘ldi.

Qoplamali (Thin-film) panellarda esa samaradorlik oshishi 18–19% ni tashkil qildi.

3. Eksperimental kuzatuvlar:

Avtomatik tozalash tizimi ishlash vaqtida energiya sarfi minimal bo‘lib, inson mehnatini deyarli talab qilmaydi.

Tizim suv resurslarini tejamkor ishlatadi va panellar yuzasiga zarar yetkazmaydi.

4. Iqtisodiy samaradorlik:

Avtomatik tozalash tizimini joriy etish xarajatlari dastlabki investitsiyaga bog‘liq bo‘lsa-da, ekspluatatsiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Investitsiyaning qaytish muddati (payback period) 2–3 yil ichida hisoblanadi, bu esa yirik agrosanoat korxonalari uchun maqbul hisoblanadi.

№	Panel turi	Tozalash turi	Tozalashdan oldinki energiya (kWh)	Tozalashdan keyingi energiya(kWh)	Samaradorlikni oshirilishi(%)
1	Monokristall	Qo’lda tozalash	24.5	27.8	13.5
2	Monokristall	Avtomatik tozalash	24.3	29.1	19.7
3	Polikristall	Qo’lda tozalash	22.8	25.0	9.6
4	Polikristall	Avtomatik tozalash	23.0	27.5	19.6
5	Qoplamali(Thin-film	Qo’lda tozalash	20.5	22.1	7.8
6	Qoplamali(Thin-film	Avtomatik tozalash	20.7	24.6	18.8

1 .

Tozalashdan oldingi energiya – panel yuzasi ifloslangan holatda ishlab chiqarilgan energiya.

2. Tozalashdan keyingi energiya – tozalashdan so‘ng ishlab chiqarilgan energiya.

3. Samaradorlik oshishi – energiya ishlab chiqarishdagi foizli o‘sish, quyidagi formula bilan hisoblanadi:

Munozara(Discussion). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, avtomatik tozalash tizimi yordamida quyosh panellarining samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Eksperimentlar monokristall, polikristall va qoplamali (Thin-film) panellarda o‘rtacha 18–20% samaradorlik oshishini aniqladi. Bu natijalar Li va boshq. (2019) hamda Chen va boshq. (2020) tadqiqotlari bilan mos keladi, ular ham avtomatik tozalash tizimining energiya ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatgan.

Qo‘lda tozalash bilan solishtirganda, avtomatik tizimlar quyidagi afzalliklarni beradi:

1. Ishlab chiqarish samaradorligi: Tizim panellar yuzasini muntazam va samarali tozalaydi, bu energiya ishlab chiqarishni maksimal darajada ushlab turadi.

2. Ishchi kuchi va xavfsizlik: Avtomatik tizim inson mehnatini kamaytiradi va xavfli ish sharoitlarida ishlash ehtimolini yo‘q qiladi.

3. Resurslarni tejash: Suv va elektr energiyasi sarfi minimal, bu esa tizimning iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, avtomatik tizimning samaradorligi panel turi va joylashuviga bog‘liq. Monokristall panellarda samaradorlik oshishi nisbatan yuqori bo‘lsa, qoplamali panellarda biroz pastroq bo‘ldi. Bu panellar qoplamasining turiga va yuzaning ifloslanishga sezgirligiga bog‘liq. Shuningdek, tadqiqot natijalari O‘zbekiston sharoitida ham qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yirik paxta dalalari, issiqxonalar va boshqa ochiq agrosanoat maydonlarida avtomatik tozalash tizimlari energiya samaradorligini oshirish va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish nuqtai nazaridan yuqori amaliy qiymatga ega.

Natijalarni adabiyotlar bilan solishtirganda, mazkur tadqiqotning xususiy jihati shundaki, u agrosanoat sharoitida real eksperimentlar asosida avtomatik tozalash tizimining samaradorligini baholadi, bu esa avvalgi tadqiqotlardan farq qiladi, chunki ko‘plab ilmiy ishlar faqat laboratoriya sharoitida o‘tkazilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki, avtomatik tozalash tizimlari agrosanoat sharoitida samarali, energiya tejamkor va iqtisodiy foydali yechim bo‘lib, ularni tadbiq etish nafaqat texnik, balki iqtisodiy jihatdan ham maqsadga muvofiqdir.

1. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ochiq maydonda joylashgan agrosanoat quyosh panellari ifloslanish sababli elektr energiyasi ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada yo‘qotadi.

2. Qo‘lda tozalash panellar samaradorligini o‘rtacha 8–14% ga oshirsa, avtomatik tozalash tizimi bu ko‘rsatkichni 18–20% ga yetkazadi. Bu esa avtomatik tizimning qo‘lda tozalashga nisbatan aniq ustunligini tasdiqlaydi.

3. Avtomatik tozalash tizimi inson mehnatini kamaytiradi, xavfsizlikni oshiradi va suv hamda energiya resurslarini tejamkor ishlatadi. Shu bilan birga, tizim panellar xizmat muddatini uzaytiradi va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi.

4. Eksperimental tadqiqotlar va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, avtomatik tozalash tizimlarini joriy etish iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lib, investitsiyaning qaytish muddati 2–3 yilni tashkil qiladi.

5. Tadqiqot natijalari agrosanoat korxonalari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, quyosh panellarining samaradorligini oshirish va energiya xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu tizim kelajakda yirik agrosanoat maydonlarida va boshqa energetika sohalarida qo‘llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kumar, S., Sharma, R., & Patel, A. (2021). Impact of Dust on Solar Panel Efficiency and Cleaning Techniques. Renewable Energy Journal, 45(6), 1123–1132.

2. Li, J., Wang, X., & Chen, Y. (2019). Automated Cleaning Systems for Solar Panels: Design and Performance Evaluation. Solar Energy, 190, 345–356.

3. Chen, H., Zhang, L., & Liu, Q. (2020). Water-saving Cleaning Methods for Large-scale Solar Farms. Journal of Cleaner Production, 276, 123–134.

4. Rahimov, T. (2021). Agro-industry Solar Panels and Efficiency Improvement Methods. Tashkent: AgroEnergo Press.

5. Mirzaev, A. (2022). Current Challenges of Solar Panel Maintenance in Uzbekistan Agriculture. Uzbek Journal of Renewable Energy, 12(3), 55–64.

6. Sopian, K., Othman, M.Y., & Abdullah, M.Z. (2018). Solar Panel Cleaning Technologies and Their Impact on Performance. International Journal of Sustainable Energy, 37(5), 451–462.

7. Parida, B., Iniyan, S., & Goic, R. (2011). A Review of Solar Photovoltaic Technologies. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 15(3), 1625–1636.

8. Dubey, S., Sarvaiya, J.N., & Seshadri, B. (2013). Temperature Dependent Photovoltaic (PV) Efficiency and Its Effect on PV Production in the World – A Review. Energy Procedia, 33, 311–321.

9. Nekboyev X.X. Mediata'limning rivojlanish tarixi va mediasavodxonlikni o'zlashtirish tizimining asosiy jihatlari // O'zMU xabarlari. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali, 2023 -№1/11/1.Б. 199-202

10. Nekboyev X.X. Theoretical Foundations Of The Technology Of Media Education "International journal of Advanced Science and Texnology" Vol. 29, No. 07, (2020), pp. 3349-3352

OLIY TA’LIMDA MEDIA MATNLARINI TALQIN QILISH ORQALI TANQIDIY MEDIA SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Nekboyev Xurshid Xoliyorovich,
Qarshi davlat texnika universiteti v.b. professori, PhD
https://orcid.org/0009-0004-9347-3188

Annotatsiya: Raqamli axborot makonining jadal rivojlanishi ommaviy axborot vositalarining talaba-yoshlar dunyoqarashi, tafakkuri va qadriyatlar tizimiga ta’sirini sezilarli darajada kuchaytirdi. Bunday sharoitda media ta’lim oliy ta’lim tizimida talabalarning media savodxonligi, axborot madaniyati hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur tadqiqotda media ta’limning nazariy-metodologik asoslari hamda mediama’lumotlarni talqin qilish orqali talabalarda tanqidiy media idrokni shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot pedagogik modellashtirish yondashuvi asosida olib borilib, ilmiy-nazariy tahlil, kuzatish, tajriba-sinov ishlari hamda natijalarni statistik tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Mediama’tnlarni tahlil qilish va dekodlash jarayoni talabalarning media mazmunni tanqidiy baholash, manipulyativ axborotni aniqlash hamda mustaqil media mahsulotlar yaratish kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usuli sifatida asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari media ta’lim texnologiyalarini oliy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish talabalarda tanqidiy fikrlash, media kompetensiya va axborot madaniyatini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Taklif etilgan model global axborot muhitida axborot tahdidlariga nisbatan barqaror pozitsiyani shakllantirish hamda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: media ta’lim, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, media madaniyat, oliy ta’lim, media matn tahlili, axborot madaniyati.

РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОЙ МЕДИАГРАММЫ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕРПРЕТАЦИИ МЕДИАТЕКСТОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Некбойев Хуршид Холиорович,
Каршиский государственный технический университет,
исполняющий обязанности профессора, кандидат наук

Аннотация: Быстрое развитие цифрового информационного пространства значительно усилило влияние средств массовой информации на мировоззрение, мышление и систему ценностей студентов и молодежи. В таких условиях медиаобразование становится важным педагогическим инструментом в системе высшего образования, способствующим развитию у студентов медиаграмотности, информационной культуры и навыков критического мышления. В данном исследовании рассматриваются теоретические и методологические основы медиаобразования и вопросы формирования критического восприятия СМИ у студентов посредством интерпретации медиаинформации. Исследование проводилось на основе педагогического моделирования с использованием методов научно-теоретического анализа, наблюдения, экспериментальной работы и статистического анализа результатов. Процесс анализа и декодирования медиатекстов был обоснован как эффективный метод развития у студентов компетенций в критической оценке медиаконтента, выявлении манипулятивной информации и создании самостоятельных медиапродуктов.

Результаты исследования подтвердили, что интеграция медиаобразовательных технологий в процесс высшего образования оказывает положительное влияние на формирование критического мышления, медиакомпетентности и информационной культуры у студентов. Предложенная модель служит для формирования устойчивой позиции по отношению к информационным угрозам в глобальной информационной среде и

повышения профессиональной подготовки будущих преподавателей.

Ключевые слова: медиаобразование, медиаграмотность, критическое мышление, медиакультура, высшее образование, анализ медиатекстов, информационная культура.

DEVELOPMENT OF CRITICAL MEDIA LITERACY THROUGH INTERPRETATION OF MEDIA TEXTS IN HIGHER EDUCATION

Nekboyev Khurshid Kholiyorovich,
Karshi State Technical University Acting Professor, PhD

Abstract: The rapid development of the digital information space has significantly increased the influence of mass media on the worldview, thinking and value system of students and youth. In such conditions, media education is emerging as an important pedagogical tool in the higher education system that serves to develop students' media literacy, information culture and critical thinking skills. This study covers the theoretical and methodological foundations of media education and the issues of forming critical media perception in students through the interpretation of media information. The study was conducted on the basis of a pedagogical modeling approach, using methods of scientific and theoretical analysis, observation, experimental work, and statistical analysis of the results. The process of analyzing and decoding media texts was justified as an effective method for developing students' competencies in critical evaluation of media content, identification of manipulative information, and creation of independent media products.

The results of the study confirmed that the integration of media education technologies into the higher education process has a positive impact on the formation of critical thinking, media competence, and information culture in students. The proposed model serves to form a stable position in relation to information threats in the global information environment and to increase the professional training of future teachers.

Keywords: media education, media literacy, critical thinking, media culture, higher education, media text analysis, information culture.

Kirish. XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida global axborot makoni shakllanib, ommaviy kommunikatsiya vositalarining jamiyat hayotidagi roli keskin ortdi. Zamonaviy yoshlar kundalik faoliyatida turli media resurslar internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari, raqamli axborot xizmatlari hamda multimedia vositalari bilan uzluksiz muloqotda bo‘lib kelmoqda. Mazkur jarayon ta’lim tizimi oldiga yangi pedagogik vazifalarni qo‘ymoqda, ya’ni talabalarda axborotni ongli qabul qilish, tanqidiy tahlil qilish va media mazmunni to‘g‘ri talqin etish kompetensiyalarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda [1,2].

Bugungi kunda media ta’lim zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralib, u shaxsning media savodxonligini rivojlantirish, axborot madaniyatini shakllantirish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Media ta’lim nafaqat axborotni iste’mol qilish jarayonini, balki uni tahlil qilish, baholash va mustaqil media mahsulotlar yaratish faoliyatini ham qamrab oladi. Shu jihatdan media ta’lim talabalarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni turli axborot tahdidlaridan himoyalash hamda raqamli jamiyat sharoitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlashning muhim vositasi hisoblanadi [3].

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim jarayonida media ta’lim texnologiyalaridan foydalanish asosida talabalarda tanqidiy media idrokni shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlash hamda mediama’tnlarni talqin qilishga yo‘naltirilgan pedagogik modelni ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqotda media ta’limning metodologik yondashuvlari, pedagogik imkoniyatlari hamda amaliy samaradorligi tahlil qilinadi [4].

Adabiyotlar sharhi.

So‘nggi yillarda media ta’lim va media savodxonlik masalalari xalqaro ilmiy tadqiqotlarning

muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxsning media muhit bilan samarali o‘zaro aloqasi, axborotni tanqidiy qabul qilish hamda media mazmunni anglash kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik tadqiqotlarning markaziy muammolaridan biri sifatida qaralmoqda [5].

Xorijiy tadqiqotchilardan D. Buckingham media ta’limni shaxsning media mazmunni tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatini rivojlantiruvchi pedagogik jarayon sifatida talqin etadi. Uning fikricha, media savodxonlik zamonaviy demokratik jamiyatda fuqarolik faolligini rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir [6].

W. J. Potter media savodxonlikni axborot oqimlarini ongli ravishda qabul qilish va manipulyativ ta’sirlardan himoyalanish imkonini beruvchi kognitiv kompetensiyalar tizimi sifatida izohlaydi [7].

Kellner va Share tomonidan ilgari surilgan tanqidiy media savodxonlik konsepsiyasiga ko‘ra, media ta’lim faqat texnologik ko‘nikmalarni emas, balki ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilishni ham o‘z ichiga olishi zarur. Mazkur yondashuv media matnlarni dekodlash, yashirin g‘oyalarni aniqlash va media kommunikatsiyaning ijtimoiy ta’sirini tushunishga yo‘naltirilgan [8].

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan Media and Information Literacy (MIL) konsepsiyasi media ta’limni uzluksiz ta’limning ajralmas qismi sifatida belgilaydi. Ushbu yondashuvda axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi hamda media kommunikatsiya etikasi asosiy kompetensiyalar sifatida e’tirof etiladi. UNESCO tadqiqotlari media ta’limni demokratik jamiyatni rivojlantirish va axborot tahdidlariga qarshi immunitetni shakllantirish vositasi sifatida ko‘rsatadi.

MDH va mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham media ta’lim pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish omili sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar media texnologiyalaridan foydalanish talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish hamda o‘quv jarayonining interaktivligini oshirishini ta’kidlaydilar. Ayniqsa, media matnlarni tahlil qilish, multimedia vositalaridan foydalanish va integratsiyalashgan ta’lim yondashuvlari pedagogik samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [9,10].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim tizimida mediama’lumotlarni talqin qilish asosida tanqidiy media idrokni shakllantirish metodikasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Bu holat media ta’limning pedagogik modelini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, media matnlarni tahlil qilish orqali talabalar media kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashni maqsad qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot oliy ta’lim tizimida media ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarda tanqidiy media idrokni shakllantirish jarayonini ilmiy asosda o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi pedagogik, psixologik hamda media kommunikatsiya nazariyalariga asoslangan kompleks yondashuv asosida ishlab chiqildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini konstruktivistik ta’lim nazariyasi, kompetensiyaviy yondashuv hamda media savodxonlik konsepsiyalari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar talabalarning bilimni mustaqil egallashi, media mazmunni tahlil qilishi hamda axborot bilan ongli ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot aralash metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayoni uch bosqichda amalga oshirildi ya’ni:

Diagnostik bosqich talabalarning media savodxonlik darajasi, media matnlarni idrok etish hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini aniqlash maqsadida dastlabki monitoring o‘tkazildi.

Tajriba-sinov bosqichi ishlab chiqilgan media ta’lim modeli asosida o‘quv mashg‘ulotlariga media texnologiyalar, media matn tahlili, multimedia vositalari hamda interfaol metodlar joriy etildi.

Tahlil va baholash bosqichi tajriba natijalari statistik va pedagogik tahlil asosida baholandi hamda samaradorlik darajasi aniqlashtirildi.

Tadqiqot obyekti oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni.

Tadqiqot predmeti media ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarda tanqidiy media idrok va media kompetensiyani shakllantirish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqot ishtirokchilari.

Tajriba-sinov ishlari bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqotda nazorat va tajriba guruhlari shakllantirilib, media ta’lim metodlarining samaradorligi taqqoslama tahlil asosida o‘rganildi.

Tadqiqot metodlari.

Tadqiqot davomida ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, kuzatish metodi, pedagogik tajriba-sinov ishlari, so‘rovnoma va diagnostik testlar, media matnlarni kontent-tahlil qilish, statistik va matematik tahlil usullari kabi ilmiy metodlardan foydalanildi

Tadqiqotning ilmiy yangiligi media matnlarni talqin qilishga asoslangan pedagogik model ishlab chiqildi hamda uning talabalarning tanqidiy fikrlashi, media savodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantirishdagi samaradorligi eksperimental jihatdan asoslab berildi.

Natijalar va muhokama.

Tadqiqot doirasida media ta’lim texnologiyalarini oliy ta’lim jarayoniga joriy etishning samaradorligi tajriba-sinov ishlari asosida o‘rganildi. Tajribada bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar ishtirok etdi hamda ular nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi media ta’lim metodlari orqali talabalarda media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatining rivojlanish darajasini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Dastlabki diagnostika natijalari talabalar media mazmunni asosan passiv qabul qilishi, axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, mediama’lumotlarning ishonchliligini aniqlash va manipulyativ axborotni farqlashda qiyinchiliklar kuzatildi.

1-jadval.

Tajriba boshlanishidagi ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkichlar	**Nazorat guruhi (%)**	**Tajriba guruhi (%)**
Media savodxonlik	42	44
Tanqidiy fikrlash	39	41
Media matn tahlili	37	40
Axborot madaniyati	43	45

Natijalar guruhlar o‘rtasida sezilarli farq yo‘qligini ko‘rsatdi va bu tajriba natijalarining obyektivligini ta’minladi.

Tajriba jarayonining amalga oshirilishida media matnlarni tahlil qilish va dekodlash, videomateriallar asosida muhokamalar, “fake news”ni aniqlash mashg‘ulotlari, loyiha asosida media mahsulot yaratish, interfaol va multimedia texnologiyalari kabi mediata’lim metodlari tizimli ravishda qo‘llanildi.

2-jadval.

Tajriba yakuni natijalari

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)
Media savodxonlik	53	79
Tanqidiy fikrlash	50	82
Media matn tahlili	48	84
Axborot madaniyati	56	86

Natijalar mediata’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning media kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantirganini ko‘rsatdi.

Maskur tadqiqotni tahlil qilinganda talabalar axborot manbalarini solishtirishni o‘rgandi, mediama’lumotlarni tanqidiy baholash darajasi oshdi, mustaqil fikr bildirish faolligi kuchaydi, media mahsulot yaratishga qiziqish ortdi. Natijada media ta’lim metodlari o‘quvchilarning passiv axborot iste’molchisidan faol axborot yaratuvchisiga aylanishiga xizmat qildi.

3-jadval. Kompetensiyalar rivojlanish dinamikasi

Kompetensiya turi	Tajribagacha	Tajribadan so‘ng
Tanqidiy fikrlash	Past	Yuqori
Axborot tahlili	O‘rtacha	Yuqori
Media madaniyat	Past	Yuqori
Ijodiy faoliyat	Past	O‘rtacha/Yuqori

Olingan natijalar xalqaro ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan media ta’limning samaradorligini tasdiqlaydi. Media ta’limni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish talabalarning kognitiv faolligini oshiradi, axborot tahdidlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni shakllantiradi va raqamli jamiyat sharoitida zarur kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Natijalar D. Buckingham, W. Potter hamda UNESCO Media and Information Literacy konsepsiyalarida ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan uyg‘unlikda ekanligi aniqlandi. Media ta’lim orqali tashkil etilgan ta’lim muhiti talabalarning mustaqil fikrlashi, kreativligi hamda axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirishda samarali pedagogik mexanizm ekanligi isbotlandi.

Xulosa.

Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimida media ta’lim texnologiyalarini joriy etish talabalarning media savodxonligi, tanqidiy fikrlashi hamda axborot madaniyatini rivojlantirishda muhim pedagogik omil ekanligini ko‘rsatdi. Raqamli axborot makonining kengayishi sharoitida talabalarni mediama’lumotlarni ongli qabul qilish, tahlil qilish va baholashga o‘rgatish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tajriba-sinov natijalari media matnlarni talqin qilish va dekodlashga asoslangan pedagogik model talabalarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirganini tasdiqladi. Ayniqsa, media ta’lim metodlari qo‘llanilgan guruhlarda tanqidiy fikrlash darajasi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati hamda media mahsulot yaratish ko‘nikmalari ancha rivojlandi. Bu holat mediata’limning an’anaviy o‘qitish yondashuvlariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida media ta’limning pedagogik imkoniyatlari talabalarning axborotni tanqidiy tahlil qilish qobiliyati shakllandi, media kommunikatsiya tilini anglash darajasi oshdi, axborot tahdidlariga nisbatan ongli munosabat rivojlandi, ta’lim jarayonida talabalar faolligi va ijodiy yondashuvi kuchayishi namoyon bo‘ldi.

Shuningdek, mediata’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish bo‘lajak pedagoglarni raqamli jamiyat sharoitida samarali kasbiy faoliyat olib borishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Media ta’lim nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki shaxsning axborot xavfsizligi, media madaniyati va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelgusida media ta’limni ta’lim dasturlariga tizimli ravishda integratsiya qilish, pedagoglarning media kompetensiyasini rivojlantirish hamda media savodxonlikka yo‘naltirilgan innovatsion metodikalarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifalar sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Levin, I.; Mamlok, D. Culture and Society in the Digital Age. Information 2021, 12, 68. https://doi.org/10.3390/info12020068

2. Yulduz Asqar Qizi Hakimboyeva. «Zamonaviy media makonda internet va unda axborot almashinuvining o‘ziga xosligi» Scientific progress, vol. 2, no. 6, 2021, pp. 1362-1369.

3. Ciric, Marina. (2014). Development of Media Literacy – An Important Aspect of Modern Education. Procedia — Social and Behavioral Sciences. 149. doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.08.284

4. Staneviciene, E.; Žekienė, G. The Use of Multimedia in the Teaching and Learning Process of Higher Education: A Systematic Review. Sustainability 2025, 17, 8859. https://doi.org/10.3390/su17198859

5. Voitovych, N.; Kitsa, M.; Mudra, I. Media Education and Media Literacy as a Factor in Combating Disinformation. Journal. Media 2025, 6, 188. https://doi.org/10.3390/journalmedia6040188

6. Buckingham, David. (2003). Chapter Three of Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture.

7. Potter, W. & Christ, William. (2007). Media Literacy. 10.1002/9781405165518.wbeosm064

8. Douglas, Kellner & Share, Jeff. (2007). Critical Media Literacy: Crucial Policy Choices for a Twenty-First-Century Democracy. Policy Futures in Education. 5. 10.2304/pfie.2007.5.1.59

9. Aulia, Hartika & Hafeez, Muhammad & Mashwani, Hazrat & Careemdeen, Jalal & Mirzapour, Maryam & Syaharuddin,. (2024). The Role of Interactive Learning Media in Enhancing Student Engagement and Academic Achievement.

10. Robiah, Siti & Fawaiq, Mohammad. (2024). Analysis of The Use of Interactive Media in Students’ Communication Skills in Independent Curriculum Learning. Edumaspul — Jurnal Pendidikan. 08. 3295-3305. 10.33487/edumaspul.v8i2.8442

11. Nekboyev X.X., Xaydarov T.Z. Zamonaviy axborot texnologiyalari va mediata’limda ularning ta’limiy hamda tarbiyaviy imkoniyatlari QarDU xabarlari Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal 2025 4(1).

O’UK:796.85:612.7

TURLI VAZN TOIFASIDAGI KURASHCHILARDA CHIDAMLILIKNI AYLANMA MASHG‘ULOT USLUBIDA RIVOJLANTIRISH

Nuraliyeva O‘g‘iloy Shomuratovna,
Qarshi davlat universiteti,
“Sport faoliyati” kafedrasi professori.

Annotatsiya: Mazkur maqolada turli vazn toifasidagi kurashchilarda umumiy va maxsus chidamlilikni rivojlantirishda aylanma mashg‘ulot uslubining nazariy va amaliy ahamiyati o‘rganilgan. Zamonaviy sport tayyorgarligi jarayonida kurashchilarning jismoniy sifatlarini, xususan chidamlilik ko‘rsatkichlarini oshirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda kurashchilarning mashg‘ulot jarayonida samaradorlikni oshirish maqsadida aylanma mashg‘ulot tizimidan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Aylanma mashg‘ulot uslubi bir necha turdagi jismoniy mashqlarni ketma-ketlik asosida bajarishga asoslanib, sportchilarning kuch, tezlik, chaqqonlik va ayniqsa chidamlilik sifatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida turli vazn toifasiga mansub kurashchilar bilan tajriba mashg‘ulotlari o‘tkazildi hamda ularning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Mashg‘ulot jarayonida yuklamalarni individual ravishda taqsimlash, mashqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish va dam olish oralig‘ini to‘g‘ri tashkil etish muhim omil sifatida ko‘rib chiqildi.

Olingan natijalar aylanma mashg‘ulot uslubi kurashchilarning umumiy va maxsus chidamliligini samarali rivojlantirishini ko‘rsatdi. Shuningdek, bu uslub sportchilarning funksional imkoniyatlarini kengaytirish, musobaqa jarayonida yuqori natijalarga erishish hamda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari aylanma mashg‘ulot uslubini kurashchilar tayyorgarligi tizimida keng qo‘llash zarurligini asoslab beradi.

Tayanch so‘zlar: kurash, chidamlilik, aylana mashg‘ulot, vazn toifasi, mashg‘ulot jarayoni, jismoniy tayyorgarlik.

РАЗВИТИЕ ВЫНОСЛИВОСТИ У БОРЦОВ РАЗНЫХ ВЕСОВЫХ КАТЕГОРИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КРУГОВОЙ ТРЕНИРОВКИ

Нуралиева Угилой Шомуратовна,
Профессор кафедры «Спорт фаолияти»,
Каршинский государственный университет

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития общей и специальной выносливости у борцов различных весовых категорий с использованием метода круговой тренировки. В современном тренировочном процессе повышение уровня физической подготовленности спортсменов, особенно развитие выносливости, является одним из важнейших факторов достижения высоких спортивных результатов. В работе анализируются возможности применения системы круговых тренировок для повышения эффективности подготовки борцов.

Метод круговой тренировки основан на последовательном выполнении комплекса различных упражнений, направленных на развитие основных физических качеств спортсмена: силы, быстроты, ловкости и выносливости. Особое внимание уделяется адаптации тренировочных нагрузок в зависимости от весовой категории спортсменов и их индивидуальных функциональных возможностей. В ходе исследования были проведены экспериментальные тренировочные занятия с участием борцов различных весовых категорий, а также проанализированы изменения показателей их физической подготовленности.

Полученные результаты показали, что применение метода круговой тренировки

способствует эффективному развитию как общей, так и специальной выносливости у борцов. Кроме того, данный метод позволяет оптимизировать тренировочный процесс, повысить функциональные возможности спортсменов и улучшить их соревновательную деятельность. На основе проведённого исследования рекомендуется более широкое внедрение кругового метода тренировок в систему подготовки борцов различных весовых категорий.

Ключевые слова: кураш, выносливость, круговая тренировка, весовая категория, тренировочный процесс, физическая подготовка.

DEVELOPMENT OF ENDURANCE IN WRESTLERS OF DIFFERENT WEIGHT CATEGORIES USING CIRCUIT TRAINING

Nuraliyeva Ugiloy Shomuratovna,
Professor of the Department of «Sport faoliyati»,
Karshi State University

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of developing general and special endurance in wrestlers of different weight categories through the use of the circuit training method. In modern sports training, improving the physical preparedness of athletes, particularly the development of endurance, is considered one of the most important factors for achieving high sports performance. The study analyzes the possibilities of using circuit training systems in order to increase the effectiveness of wrestlers' training processes.

The circuit training method is based on the sequential performance of a set of different physical exercises that are aimed at developing key physical qualities such as strength, speed, agility, and endurance. Special attention is given to adjusting training loads according to the weight categories of athletes and their individual physiological characteristics. During the research, experimental training sessions were conducted with wrestlers from different weight categories, and the changes in their physical fitness indicators were carefully analyzed.

The results of the study showed that the application of circuit training significantly contributes to the development of both general and special endurance among wrestlers. Furthermore, this method helps optimize the training process, expand athletes' functional capabilities, and improve their performance during competitions. The findings of the research indicate that circuit training can be effectively integrated into the training system of wrestlers in various weight categories and may serve as an efficient tool for enhancing their physical preparation and competitive success.

Keywords: kurash, endurance, circuit training, weight category, training process, physical preparation.

Kirish. Hozirgi zamonaviy sport tizimida kurash sport turi yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni talab qiladigan sport turlaridan biri hisoblanadi. Kurash musobaqalari davomida sportchi qisqa vaqt ichida yuqori intensivlikdagi harakatlarni bajarishi, raqib bilan kurash jarayonida kuch, tezlik, chaqqonlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlarni birgalikda namoyon qilishi lozim.

Kurashchilarning sport natijalariga ta'sir qiluvchi eng muhim jismoniy sifatlar qatorida chidamlilik alohida ahamiyat kasb etadi. Chidamlilik sportchining uzoq vaqt davomida yuqori intensivlikdagi jismoniy faoliyatni samarali bajarish qobiliyati bilan belgilanadi. Kurashda chidamlilik nafaqat umumiy jismoniy tayyorgarlik, balki maxsus sport tayyorgarligining ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Kurashchilar vazn toifalariga qarab jismoniy imkoniyatlari bilan farqlanadi. Yengil vazn toifasidagi sportchilarda tezkorlik, chaqqonlik va harakatchanlik yuqori bo‘lsa, og‘ir vazn toifasidagi sportchilarda kuch ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘ladi. Shu sababli turli vazn

toifalaridagi kurashchilar uchun mashg‘ulot jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, ayniqsa chidamlilikni rivojlantirishda yuklama hajmi va intensivligini to‘g‘ri taqsimlash muhim hisoblanadi.

So‘nggi yillarda sport tayyorgarligida aylanma mashg‘ulot uslubi keng qo‘llanilmoqda. Ushbu uslub bir nechta mashqlarni ketma-ket bekatlar bo‘yicha bajarishga asoslangan bo‘lib, u qisqa vaqt ichida sportchining turli jismoniy sifatlarini kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Aylanma mashg‘ulotlar ayniqsa chidamlilik, kuch va tezkorlikni birgalikda rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi turli vazn toifasidagi kurashchilarda chidamlilikni aylanma mashg‘ulot uslubi yordamida rivojlantirish samaradorligini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili.

Sportchilar tayyorgarligi nazariyasi va amaliyotiga oid ilmiy tadqiqotlarda chidamlilikni rivojlantirish muammosi keng o‘rganilgan.

F.A. Kerimovning tadqiqotlarida kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi tizimida chidamlilikni rivojlantirish muhim o‘rin tutishi ta’kidlanadi. Muallifning fikricha, kurashchilarning yuqori sport natijalariga erishishi ularning maxsus chidamlilik darajasi bilan bevosita bog‘liq [1].

L. P. Matveev [2] sport tayyorgarligi nazariyasida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda mashg‘ulot yuklamalarining ilmiy asosda rejalashtirilishi zarurligini ko‘rsatadi. Uning ta’kidlashicha, aylanma mashg‘ulot uslubi sportchilarda umumiy chidamlilikni rivojlantirishda samarali metodlardan biri hisoblanadi.

V. N. Platonov [3] esa sportchilar tayyorgarligi tizimida mashg‘ulot yuklamalarini individuallashtirish muhimligini qayd etadi. Uning fikriga ko‘ra, sportchilarning antropometrik ko‘rsatkichlari va vazn toifasi mashg‘ulot jarayonini tashkil etishda alohida hisobga olinishi kerak.

Mazkur ilmiy qarashlar kurashchilar tayyorgarligida chidamlilikni rivojlantirishning zamonaviy usullarini qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi: Turli vazn toifasidagi kurashchilarda umumiy va maxsus chidamlilikni rivojlantirishda aylanma mashg‘ulot uslubining samaradorligini o‘rganish hamda ushbu uslub asosida mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

Kurash sportida chidamlilikni rivojlantirishning nazariy va uslubiy asoslarini tahlil qilish.

Turli vazn toifasidagi kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi va chidamlilik darajasini o‘rganish.

Aylanma mashg‘ulot uslubining kurashchilarning jismoniy sifatlariga ta’sirini aniqlash.

Chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan aylanma mashg‘ulot mashqlari tizimini ishlab chiqish.

Tajriba mashg‘ulotlari orqali taklif etilgan mashg‘ulot uslubining samaradorligini aniqlash.

Kurashchilarning mashg‘ulot jarayonida aylanma mashg‘ulot uslubini qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob’ekti:

Sport maktablari va sport klublarida shug‘ullanayotgan turli vazn toifasidagi kurashchilarning mashg‘ulot jarayoni.

Tadqiqot predmeti:

Turli vazn toifasidagi kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish jarayonida aylanma mashg‘ulot uslubidan foydalanishning mazmuni, shakli va metodik xususiyatlari.

Tadqiqot uslublari:

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy uslublardan foydalanildi:

ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish;

pedagogik kuzatuv;

pedagogik tajriba;

test sinovlari orqali jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini aniqlash;

olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish;

taqqoslash va umumlashtirish usullari.

Tadqiqotning tashkil qilinishi.
Tadqiqot metodikasi:
Ishtirokchilar: 18 ta kurashchi (yengil vazn: 57–65 kg, o‘rta vazn: 66–75 kg, og‘ir vazn: 76–90+ kg), 16-22 yosh.
Mashg‘ulotlar: haftasiga 3-4 marta, 4-6 hafta davomida.
Bekat mashqlari:
1.Arg‘amchida sakrash;
2. Turgan joyda yugurish;
3. Yotib qo’llarni bukib yozish;
4. Planka;
5. Бёрпи;
6.Turnikda tortilish;
7. Kurash tashlashlari;
8. Qorin mushaklari uchun mashqlar.
Aylanmaning davomiyligi: 30-60 soniya mashq, 15-30 soniya dam olish, aylanma 2–4 marta.
Yuklama: yengil vaznga 70-85%, o‘rta vaznga 60-75%, og‘ir vaznga 50-70%.

1-jadval

Chidamlilik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi

№	Vazn toifasi	Tezlik chidamliligi	Umumiy chidamlilik	Kardiorespirator chidamlilik
1.	Yengil	+25%	+15%	+10%
2.	O‘rta	+20%	+25%	+15%
3.	Og‘ir	+10%	+20%	+25%

2-jadval

Tadqiqot davrida chidamlilik ko‘rsatkichlari tadqiqi

Vazn toifasi	tajribadan oldin	tajribadan keyin
Yengil	100 %	125 %
O‘rta	100 %	120 %
Og‘ir	100 %	110 %




Diagramma 1. Turli vazn toifalarida tezlik chidamliligining o‘sishi




Diagramma 2. Turli vazn toifalarida umumiy chidamlilikning o‘sishi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aylanma mashg‘ulot uslubi turli vazn toifasidagi kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilashda samarali hisoblanadi.

Yengil vazn toifasidagi sportchilarda mashqlar yuqori intensivlikda bajarilganligi sababli

tezkor chidamlilik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshdi.

O‘rta vazn toifasidagi sportchilarda umumiy chidamlilik ko‘rsatkichlari yuqori darajada rivojlandi.

Og‘ir vazn toifasidagi sportchilarda esa yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilovchi kardiorespirator chidamlilikning oshishi kuzatildi.

Amaliy tavsiyalar:

Kurashchilarning chidamliligini rivojlantirishda aylanma mashg‘ulot uslubidan muntazam ravishda foydalanish tavsiya etiladi.

Mashg‘ulotlar haftasiga kamida 3–4 marotaba tashkil etilishi lozim.

Mashg‘ulot jarayonida mashqlar sportchilarning vazn toifasi va jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos ravishda tanlanishi kerak.

Har bir bekatda mashq bajarish vaqti 30–60 soniya, dam olish vaqti esa 15–30 soniya etib belgilanishi maqsadga muvofiq.

Bir mashg‘ulot davomida aylanma mashqlar 2–4 marotaba takrorlanishi tavsiya etiladi.

Yengil vazn toifasidagi sportchilar uchun mashqlar yuqori intensivlikda, og‘ir vazn toifasidagi sportchilar uchun esa nisbatan o‘rtacha intensivlikda tashkil etilishi kerak.

Mashg‘ulot jarayonida kurashga xos texnik harakatlar (tashlashlar, usullar)ni ham aylanma mashg‘ulot tizimiga kiritish samaradorlikni oshiradi.

Xulosa. Aylanma mashg‘ulot uslubi turli vazn toifalaridagi kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

aylanma mashg‘ulotlar umumiy va maxsus chidamlilikni bir vaqtning o‘zida rivojlantiradi;

mashg‘ulot yuklamasini vazn toifasiga moslashtirish sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshiradi;

ushbu uslub kurashchilarning bellashuv jarayonida samarali harakat qilishiga yordam beradi.

Shu sababli kurashchilar tayyorgarligi jarayonida aylanma mashg‘ulot uslubidan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Керимов Ф. А. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati: darslik / F. A. Kerimov. — Toshkent, 2008. — 288 s.

2. Матвеев Платонов В. Н.

2. Матвеев Л. П. Общая теория спорта и ее прикладные аспекты: учебник для вузов / Л. П. Матвеев .- 6-е изд. - Москва : Спорт, 2019. - 340 с.

3. Платонов В. Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения: учебник [для тренеров] : в 2 кн. / В. Н. Платонов. — К.: Олимп. лит., 2015.- Кн. 1. — 2015.- 680 с.

4. Исмаилов Ш. О., Магомедов М. Г. Применение метода круговой тренировки для воспитания физических качеств борцов грекоримского стиля // МНКО. 2017. №6 (67). – С. 20-23.

5. Тихонова И. В. и др. Особенности круговой тренировки борцов греко-римского стиля учебно-тренировочного этапа. // Подготовка единоборцев: теория, методика и практика : материалы XI Междунар. науч.-практ. конф., Чайковский, ЧГАФКиС, 29 – 30 марта 2024 г. – Чайковский : Чайковская государственная академия физической культуры и спорта, 2024. – С. 196-201.

6. Гаджиагаев С. М., Абакаров А. М., Мансуров Т. М. Применение метода круговой тренировки в целях повышения физической подготовки борцов // Известия ДГПУ. Психолого-педагогические науки. 2019. №1. – С. 20-23.

7. Грабовик, А. А., Максимович В. А., Маклаков В. А. Круговая тренировка в процессе

подготовки борцов греко-римского стиля // Проблемы и перспективы развития физической культуры и спорта в учреждениях высшего образования : сборник научных статей I Республиканской научно-практической конференции с международным участием, Минск, 18-19 декабря 2025 г. – Минск : БГТУ, 2025. – С. 140-142.

8. Скобликова Т.В., Габьева А.А. Сущность метода круговой тренировки в процессе подготовки борцов: сборник трудов конференции. // Научные исследования: векторы развития : материалы Междунар. науч.-практ. конф. (Чебоксары, 7 мая 2018 г.) / редкол.: О.Н. Широков [и др.] – Чебоксары: Центр научного сотрудничества «Интерактив плюс», 2018. – С. 77-79.

3. Платонов В. Н.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY ADAPTIVLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ULARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

Omonova Mohiniso Maqsud qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
1-kurs Tayanch doktaranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarning kasbiy adaptivligini rivojlantirish orqali ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimining transformatsiyasi sharoitida pedagoglardan yuqori darajadagi moslashuvchanlik, raqamli kompetensiya, innovatsion fikrlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorlik talab etilmoqda. Xalqaro va milliy tadqiqotlar asosida kasbiy adaptivlikning nazariy asoslari va tarkibiy komponentlari aniqlashtiriladi. Shuningdek, bo‘lajak pedagoglarda adaptiv kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan samarali pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari pedagogika oliy ta’lim muassasalarida kasbiy adaptivlikni tizimli va bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: kasbiy adaptivlik, raqobatbardoshlik, pedagogik texnologiyalar, raqamli kompetensiya, uzluksiz kasbiy rivojlanish.

ТЕХНОЛОГИИ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ НА ОСНОВЕ РАЗВИТИЯ ИХ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ АДАПТИВНОСТИ

Омонова Мохинисо Максуд кизи
Бухарский государственный педагогический институт
докторант 1 курса

Аннотация: В статье рассматриваются научно-теоретические и практические аспекты повышения конкурентоспособности будущих педагогов на рынке труда посредством развития их профессиональной адаптивности. В условиях трансформации современной системы образования от педагогов требуется высокий уровень гибкости, развитая цифровая компетентность, инновационное мышление и готовность к непрерывному профессиональному развитию. На основе анализа международных и национальных исследований раскрываются теоретические основы и структурные компоненты профессиональной адаптивности. Освещаются эффективные педагогические технологии и методические подходы, направленные на формирование адаптивной компетентности у будущих педагогов. Результаты исследования обосновывают необходимость системного и поэтапного развития профессиональной адаптивности в педагогических высших учебных заведениях.

Ключевые слова: профессиональная адаптивность, конкурентоспособность, педагогические технологии, цифровая компетентность, непрерывное профессиональное развитие.

TECHNOLOGIES FOR ENHANCING THE COMPETITIVENESS OF FUTURE TEACHERS THROUGH THE DEVELOPMENT OF THEIR PROFESSIONAL ADAPTABILITY

Omonova Mohiniso Maqsud qizi
Bukhara State Pedagogical Institute
First-Year Doctoral Student

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of enhancing the competitiveness of future teachers in the labor market through the development of their professional adaptability. In the context of the transformation of modern education systems, teachers are required to demonstrate a high level of flexibility, digital competence, innovative thinking, and readiness for continuous professional development. Based on an analysis of international and national research, the theoretical foundations and structural components of professional adaptability are identified. The paper highlights effective pedagogical technologies and methodological approaches aimed at developing adaptive competence among future teachers. The research findings substantiate the necessity of systematic and stage-by-stage development of professional adaptability in pedagogical higher education institutions.

Keywords: professional adaptability, competitiveness, pedagogical technologies, digital competence, continuous professional development.

KIRISH. XXI asr ta’lim tizimi tub transformatsiya bosqichiga kirdi. To‘rtinchi sanoat inqilobi, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va global integratsiya jarayonlari nafaqat iqtisodiyot, balki ta’lim mazmuni va pedagog kasbining mohiyatini ham o‘zgartirmoqda. Endilikda pedagogdan faqat o‘z fanini mukammal bilish emas, balki ta’lim jarayonini raqamlashtirish, innovatsion metodlarni qo‘llash, individual ta’lim trayektoriyalarini loyihalash hamda o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish talab etiladi.

Zamonaviy mehnat bozori sharoitida pedagog kadrlarning bandligi faqat diplom mavjudligi bilan emas, balki ularning real kasbiy kompetensiyalari, adaptivligi va mobiligi bilan belgilanadi. Ta’lim sohasidagi islohotlar, xususan, kompetensiyaviy yondashuvga o‘tish, inklyuziv ta’limni rivojlantirish, STEAM ta’lim elementlarini joriy etish pedagogdan yangi bilim va ko‘nikmalarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, kasbiy adaptivlik (professional adaptability) pedagog shaxsining muhim integrativ sifati sifatida namoyon bo‘ladi. U pedagogning yangi ijtimoiy-pedagogik sharoitlarga tez va samarali moslasha olishi, kasbiy vazifalarni innovatsion yo‘l bilan hal qilishi hamda doimiy o‘zini rivojlantirishga intilishi bilan ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish va pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi yillarda pedagogika oliy ta’lim muassasalarida kredit-modul tizimi joriy etildi, ta’lim dasturlari kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqilmoqda, xalqaro reytinglar va akkreditatsiya talablari inobatga olinmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, kasbiy adaptivlikni shakllantirish masalasi ko‘proq umumiy kompetensiyalar doirasida talqin etilib, uning bitiruvchilarning bandligi, professional mobiligi va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligiga ta’siri yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan. Ayni paytda, pedagogika OTM bitiruvchilarining ishga joylashish darajasi, ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligi va yangi ta’lim muhitiga moslashish jarayoni muhim ilmiy muammo sifatida dolzarblik kasb etmoqda. Bu holat kasbiy adaptivlikni alohida pedagogik kategoriya sifatida nazariy asoslash, uning tarkibiy komponentlarini (motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyatli va refleksiv) aniqlash hamda uni shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy adaptivligini shakllantirish, uni mehnat bozori talablari bilan uyg‘unlashtirish va bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur

tadqiqotning asosiy yo‘nalishini belgilaydi.

ASOSIY QISM. Globallashuv, raqamli transformatsiya va innovatsion iqtisodiyot sharoitida zamonaviy mehnat bozori yuqori darajadagi kasbiy moslashuvchanlik, ko‘p funksionallik va doimiy o‘zini rivojlantirish qobiliyatini talab etmoqda. Ayniqsa, ta’lim sohasida faoliyat yurituvchi pedagog kadrlar uchun bu talablar yanada murakkablashib bormoqda. Endilikda pedagogdan nafaqat o‘z fanini mukammal bilish, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish, raqamli vositalardan samarali foydalanish, inklyuziv ta’lim sharoitida ishlash, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish hamda ijodiy-pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyalari talab etilmoqda.

Ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, kompetensiyaviy yondashuvga o‘tish, kredit-modul tizimining joriy etilishi, STEAM ta’lim elementlarining kengaytirilishi va inklyuziv ta’limni rivojlantirish jarayonlari pedagog shaxsiga nisbatan yangi ijtimoiy-professional talablarni shakllantirmoqda. Bu esa kasbiy adaptivlikni pedagogning integrativ, ko‘p komponentli sifati sifatida alohida ilmiy tadqiq etishni zaruratga aylantiradi.

Kasbiy adaptivlik — bu pedagogning o‘z kasbiy faoliyatini o‘zgaruvchan ijtimoiy-pedagogik sharoitlarda samarali tashkil eta olishi, yangi vaziyatlarga tez moslasha olishi, innovatsion yondashuvlarni qo‘llashi, refleksiv tahlil asosida o‘z faoliyatini takomillashtirib borishi bilan ifodalanadigan murakkab tizimli sifatdir. Mazkur sifat quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlardan tarkib topadi:

Kognitiv moslashuvchanlik – pedagogning yangi metodlarni tez o‘zlashtirishi va turli vaziyatlarda qaror qabul qila olishi.

Emotsional barqarorlik – stressli va o‘zgaruvchan sharoitlarda ish samaradorligini saqlash qobiliyati.

Ijtimoiy-kommunikativ kompetensiya – talabalar, hamkasblar va ota-onalar bilan samarali muloqot.

Refleksivlik – o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati.

Innovatsion faoliyatga tayyorlik – yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga tayyor bo‘lish.

Biroq pedagogika oliy ta’lim muassasalarida mazkur komponentlarni maqsadli va tizimli shakllantirish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab bitiruvchilar nazariy jihatdan yetarli bilimga ega bo‘lsalar-da, real pedagogik muhitda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga tezkor va samarali moslasha olmaydi. Bu esa ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, oliy ta’limni xalqaro standartlarga moslashtirish, ta’lim dasturlarini yangilash, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitishni kuchaytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, kasbiy adaptivlikni bitiruvchilarning bandligi, professional mobiligi va uzoq muddatli kasbiy muvaffaqiyati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Muammoning dolzarbligi yana shundaki, zamonaviy pedagog faqat bir ta’lim muassasasida faoliyat yurituvchi mutaxassis emas, balki turli ijtimoiy muhitlarda, turli yosh guruhlari bilan ishlay oladigan, turli ta’lim formatlariga (an’anaviy, masofaviy, aralash) tez moslasha oladigan professional sifatida qaralmoqda. Bu esa kasbiy mobilik va adaptivlikni bir-biri bilan chambarchas bog‘liq kategoriyalar sifatida ilmiy asoslashni talab etadi.

Shu asosda quyidagi ilmiy ziddiyatlar yuzaga keladi:

Mehnat bozorining yuqori darajadagi moslashuvchanlikni talab qilishi bilan pedagogika OTMlarda adaptivlikni shakllantirish jarayonining yetarlicha tizimlashtirilmaganligi o‘rtasidagi ziddiyat.

Ta’lim tizimidagi innovatsion o‘zgarishlar bilan bo‘lajak pedagoglarning amaliy tayyorgarlik

darajasi o‘rtasidagi nomuvofiqlik.

Kasbiy adaptivlikning nazariy jihatdan e’tirof etilishi bilan uning pedagogik kategoriya sifatida aniq tuzilma va mezonlar asosida ishlab chiqilmaganligi o‘rtasidagi ziddiyat.

Mazkur ziddiyatlar quyidagi asosiy ilmiy muammoni keltirib chiqaradi:

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy adaptivligini tizimli ravishda shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik shart-sharoitlari va samarali mexanizmlarini qanday ishlab chiqish mumkin hamda bu jarayon bitiruvchilarning bandligi, professional mobiligi va raqobatbardoshligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Mazkur muammoning hal etilishi:

pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish,

bitiruvchilarning ishga joylashish darajasini yaxshilash,

yosh mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tez moslashuvini ta’minlash,

pedagogning doimiy kasbiy rivojlanish modelini takomillashtirish

kabi muhim ilmiy-amaliy vazifalarni hal etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, muntazam professional rivojlanish dasturlarida qatnashgan pedagoglar adaptivlik bo‘yicha yuqori natijalar ko‘rsatadi. Shu sababli, kasbiy adaptivlik pedagogik samaradorlikning asosiy omili hisoblanadi.

Raqobatbardoshlik va pedagogik kompetensiya

Raqobatbardoshlik pedagogning mehnat bozorida talabgirligi, kasbiy barqarorligi va professional mobiliteti bilan belgilanadi. Global ekspertlar pedagoglar uchun quyidagi ko‘nikmalarni eng muhim deb bilishadi:

Moslashuvchanlik va chidamlilik

Raqamli savodxonlik

Kreativ muammolarni hal qilish

O‘zini o‘zi boshqarish

O‘zbekistonlik olim N.A. Muslimov pedagogik kompetentlikni integrativ sifat sifatida tavsiflab, innovatsion yondashuvlar pedagoglarning professional ustunligini oshirishini ta’kidlaydi. Shu bilan, kasbiy adaptivlik pedagogning raqobatbardoshligini belgilovchi strategik omil hisoblanadi.

Raqamli pedagogika integratsiyasi

Raqamli vositalardan samarali foydalanish pedagogning o‘z faoliyatini qayta loyihalash va adaptiv xulq-atvorini shakllantirish imkonini beradi.

Loyihaviy va muammoli ta’lim

Muammoli vaziyatlarda ishlash talabalarda qaror qabul qilish va moslashuvchan fikrlashni rivojlantiradi. Loyiha asosida o‘qitish pedagoglarning adaptiv kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi. Misol tariqasida, pedagogik amaliyot jarayonida loyiha ishlari orqali talabalar turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilib, o‘z yechimlarini ishlab chiqadilar, bu ularning kasbiy moslashuvchanligini kuchaytiradi.

Refleksiv treninglar

Refleksiv yondashuv pedagogning o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi. Refleksiya jarayonida pedagog o‘zining pedagogik qarorlari, qo‘llagan metodlari, o‘quvchilar bilan muloqot uslubi hamda erishilgan natijalarni tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi. Bu esa kasbiy o‘sish va doimiy rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. Refleksiv treninglar pedagoglarda o‘z-o‘zini baholash, muammolarni aniqlash va ularni konstruktiv hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday mashg‘ulotlar davomida muammoli vaziyatlar tahlili, “case-study”, portfoliolar yuritish hamda guruhiy muhokama kabi metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Shuningdek, refleksiv mashg‘ulotlar pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorligini oshiradi, ularni o‘z ish jarayonini yangicha tashkil etishga undaydi hamda kasbiy moslashuvchanlikni kuchaytiradi. Natijada pedagog o‘z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishga intiladi va zamonaviy

ta’lim muhitida raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

XULOSA

Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy adaptivligi ularning professional muvaffaqiyati va mehnat bozorida raqobatbardoshligi uchun muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarning adaptiv qobiliyatini rivojlantirish uchun raqamli pedagogika vositalarini joriy etish, loyiha asosida ta’lim va refleksiv mashg‘ulotlarni tizimli qo‘llash samarali usullardir. Shu yo‘l bilan pedagogika oliy ta’lim muassasalarida adaptivlikni mustahkamlash bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi, ularning mehnat bozoridagi talablarini qondiradi va shaxsiy rivojlanishlarini ta’minlaydi. Natijada, kasbiy adaptivlikni rivojlantirish pedagogik ta’limning strategik vazifasi bo‘lib, u nafaqat talaba sifatida pedagogni, balki mamlakat ta’lim tizimining sifatini ham oshirishga hissa qo‘shadi. Shu asosda, oliy pedagogik ta’limda adaptivlikni tizimli shakllantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati aniq ko‘rinib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

John Dewey Experience and Education – 1938.

Michael Fullan The New Meaning of Educational Change – 2007.

Linda Darling-Hammond The Right to Learn – 1997.

Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Toshkent. 2015

Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti –Toshkent.2017

O‘QUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTIRISH JARAYONIDA AXBOROTLAR BILAN ISHLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YO‘NALISHLARI

Quziyev Ravshanbek Baxtiyor o‘g‘li,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy inistituti
Mustaqil izlanuvchisi

Maqolada yoshlar qalbi va ongini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligida shakllantirish, ularni zamonaviy bilim va hunarlarni egallagan, har tomonlama aqlli, jismonan baquvvat, ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash masalalari muhim o‘rin tutayotganini alohida ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Kompetentli yondashuv, raqobatbardosh, iqtisodiy va kasbiy munosabatlar, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot kommunikatsiya texnologiyalari.

В статье особо подчеркивается важность формирования у молодёжи сознания и сердца в гармонии с национальными и общечеловеческими ценностями, воспитания их умными, физически крепкими и духовно зрелыми личностями, владеющими современными знаниями и навыками.

Ключевые слова. Компетентностный подход, конкурентоспособные, экономические и профессиональные отношения, инициативность, медиаресурсы и информационно-коммуникационные технологии.

The article particularly emphasizes the important role of forming the hearts and minds of young people in harmony with national and universal values, educating them to master modern knowledge and skills, be comprehensively intelligent, physically strong, and spiritually mature.

Key words. Competent approach, competitive, economic and professional relations, initiative, media resources and information and communication technologies.

Mamlakatimizda ta’lim tizimi sohasida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar va islohotlar, tabiiyki, ta’limda kompetentli yondashuvni talab etmoqda. Buning uchun hayotda va kasbiy amaliyotda o‘z sohasini puxta egallagan, yaxshi bilgan va uni muvaffaqiyatli qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lgan pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash zarur.

Kompetentli yondashuv pedagog-o‘qituvchilarning ijtimoiy, kommunikativ, informatsion, kasbiy va boshqa shaxsiy sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qituvchidan bilim, malaka va ko‘nikmalarni o‘quvchilarga oddiygina yetkazish bo‘libgina qolmasdan, balki ularda kasbiy bilimdonlikni rivojlantirishni ham taqozo etadi.

Mehnat bozorida raqobatbardosh, puxta bilimli, o‘z kasbining mohir egasi va faoliyatning alohida sohalariga yo‘naltirilgan, doimiy kasbiy o‘sishga tayyor, mutaxassisligi va saviyasiga javob beradigan malakali pedagoglargina o‘quvchilarni turli ko‘nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo‘naltira oladi. Shuningdek, bunday yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantiradi.

O‘qituvchilar o‘z faoliyatida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lmog‘i lozim.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi barkamol shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilganligidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar

ta’limi pedagog kadrlari ish faoliyatining izchilligini ta’minlash maqsadida quyidagi tayanch va qo‘shimcha vazifalarni ular o‘zida mujassam etishi kerak:

– ta’lim-tarbiya sohasi o‘quvchi-yoshlarning ta’limi va ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi informatsiyaviy tahdidlarga, g‘oyaviy targ‘ibotlarga hamda madaniy ekspansiyalarga sezgir bo‘lish;

– ilmiy-pedagogik va o‘quv-metodik nashrlarda axborot tahdidlarining oldini olish tamoyillari tahlilini doimo amalga oshirish;

– birorta xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

– o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq, tushunarli bayon qila olish; mavzudan kelib chiqib, savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;

– ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

– dars jarayonida o‘quvchi fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish va ishontirish;

– turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish;

– mavjud axborot-kommunikatsiya manbalaridan foydalana olish;

– zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;

– ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

– kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish;

– shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy kamolotga intilish;

– hayot davomida o‘qib-o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;

– o‘z xatti-harakatini baholash, o‘zini nazorat qila bilish;

– jamiyatda bo‘layotgan voqyea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish;

– o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish;

– mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;

– kasbiy mavqyeining o‘sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo‘lish.

Shuningdek, yoshlarni har tomonlama yuksak kasb egasi bo‘lish uchun ularning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirish talab etiladi. Buning uchun quyidagi vazifalarga e’tiborli bo‘lish lozim:

– vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;

– orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish.

– umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

– o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;

– xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

Yana shuni qayd etish joizki, pedagoglar kasbiy faoliyatining sifat mezonlaridan biri ularning malaka saviyasiga qarab belgilanadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda pedagogning o‘z kasbiy faoliyati saviyasining eng yuqori darajasiga intilish majburiyati qonun yo‘li bilan mustahkamlab qo‘yilgan. Bu maqsadga esa pedagog-o‘qituvchining butun faoliyati davomidagi uzluksiz ta’limi orqali erishish mumkin.

O‘qituvchining kompetentlik yondashuvi asosida amalga oshiriladigan shaxsga yo‘naltirilgan faoliyati qanchalik ko‘p ko‘rib chiqilsa, uning shaxsiy va ijodiy salohiyatini rivojlanishining turli-

tumanligi shu darajada chuqur va aniq ifodalanadi.

Bugungi kunda informatsion tahdidlar asosan Internet vositasi orqali uyushtirilmoqda. Shu bois yosh avlodni informatsion tahdidlardan muhofaza qila olish jarayonida pedagoglar talabchan, e’tiborli bo‘lishi kerak. Ayniqsa, ilmiy-pedagogik va o‘quv-metodik nashrlar orqali o‘qituvchilarda informatsiyaviy tahdidlarning oldini olishni ta’minlash mohiyatini aniqlashtirish, ya’ni axborotlarga nisbatan tanqidiy qarashlarni rivojlantirish, bunday nashrlar orqali o‘qituvchilarda informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ilmiy-pedagogik va o‘quv-metodik nashrlar orqali o‘qituvchilarda informatsiyaviy tahdidlarga qarshi kurashish yo‘llarini topish uchun maxsus tadqiqot o‘tkazish, olingan natijalar bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim muassasalari o‘qituvchilari muntazam ravishda o‘zining kasbiy bilimi, ko‘nikma va malakasini rivojlantirib borishi, boshqaruv yo‘nalishidagi tushunchalarni kengaytirishi, fan va texnika yutuqlari, zamonaviy pedagogik va yangi axborot texnologiyalarni o‘zlashtirib borishi zarur. Ayni paytda biz uchun hamma vaqt dolzarb bo‘lib kelayotgan yana bir muhim yo‘nalish borki, u bevosita insonning qalbi va ongini o‘zgartirish bilan bog‘liq. Bu – ma’naviyatdir.

Inson ma’naviyatini yuksaltirish deganda, ayniqsa, yoshlar qalbi va ongini milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligida shakllantirish, ularni zamonaviy bilim va hunarlarni egallagan, har tomonlama aqlli, jismonan baquvvat, ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash masalalari muhim o‘rin tutayotganini ham alohida ta’kidlash zarur.

O‘tgan yillar davomida yoshlarimizning hayotiy manfaatlarini ta’minlashga doir mustahkam huquqiy negiz yaratildi. Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari ishlab chiqildi, ta’limning barcha bosqichlarida ma’naviyat va ma’rifat asoslarini o‘rgatadigan, o‘g‘il-qizlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan o‘quv dasturlari, darslik va qo‘llanmalar, ommaviy risolalar nashr qilindi, boshqa turli targ‘ibot vositalari joriy etildi, pedagog-kadrlar tayyorlandi.

Ana shu asnoda o‘g‘il-qizlarimiz ta’lim, ilm-fan, san’at va adabiyot, sport sohasida quvonchli natijalarni qo‘lga kiritmoqda. Bundan anglash qiyinmaski, yoshlarimiz iste’dod va qobiliyatini namoyon etgan holda mustaqillik solnomasini yaratishga munosib hissa qo‘shmoqda.

Har qanday jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy dunyosiga, ta’lim-tarbiya jarayoniga beqiyos kuch bag‘ishlaydigan rahnamolari bo‘ladi. O‘tmishga nazar solsak, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg‘oniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiydek buyuk allomalarning o‘gitlari yoshlarimizni yuksak ma’naviyatli bo‘lib voyaga yetishiga undayotganini ko‘ramiz.

Darhaqiqat, ma’naviyat – bu inson qalbi hamda ongidagi tuyg‘u va tushunchalar, uning dunyoqarashi va e’tiqodi, xalqi va Vataniga muhabbatidir, yoshlarimizning qanday buyuk ajdodlar avlodi ekanini chuqur anglagan holda har qanday sharoitda ham ota-bobolari shonu shavkatiga munosib bo‘lib yashashi demakdir. Binobarin, yoshlarimiz yuksak ma’naviyatli bo‘lishi uchun ularni ezgulik ruhida tarbiyalashimiz lozim.

Mamlakatimiz farzandlarimizni tabiatimizga yot va zararli bo‘lgan ta’sirlardan himoya qilishimiz, ularni hayotga, yon-atrofda yuz berayotgan voqyea-hodisalarga daxldorlik hissi bilan yashaydigan, mustaqil fikrlaydigan, imon-e’tiqodli, barkamol insonlar etib tarbiyalashimiz lozim.

Bugungi globallashuv davrida yoshlar ongini egallash uchun misli ko‘rilmagan darajada kurash bormoqda. Bunday xuruj turli jabhalarda, shu jumladan, axborot sohasida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda axborot oqimi kirib bormagan biror bir manzilni topish qiyin, hatto dunyoning eng chekka joylariga ham teleradio to‘lqinlari, telefon aloqasi yetib borgan. Qisqa qilib aytganda, qaerdaki energiya manbai bo‘lsa, u yerda axborot bor. Ammo axborotning hammasi ham foydali bo‘la olmaydi. Ayniqsa, shafqatsiz manfaatlar, mafkuralar kurashi borayotgan bugungi zamonda har qaysi kuch o‘ziga ma’qul bo‘lgan, foyda keltiradigan axborotni tarqatish va shuning orqasidan foyda ko‘rishga intiladi.

Shuning uchun ham yoshlarimizda axborot immunitetini tarbiyalash muhim ahamiyat kasb

etmoqda. Bunday immunitetni shakllantirishda oila, mahalla, maktab va fuqarolik jamiyati institutlarining ahamiyati beqiyos va ularning ijtimoiy hamkorligi yuksak samara berishi, shubhasiz. Boshqacha aytganda, yosh avlod vakillari bolaligidan nima foydaliyu nima zararli, yolg‘on nimayu haqiqat nima ekanini yaxshi anglab olishi lozim.

“Ommaviy madaniyat” nomi bilan industrial asosda ishlab chiqilayotgan “san’at” namunalari ham yoshlarimizga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Aslida g‘arazli maqsadlarni ko‘zlaydigan ayrim guruhlarning boyishiga xizmat qiladigan, milliy qadriyatlarimizga mutlaqo zid bunday mahsulotlar insonni hayotdan yiroqlashtiradi, ruhan qashshoq va mute jonzotga aylantirib qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyatlar

1. Anvarova D. Ma’naviy tahdidlarni bartaraf etishda milliy va diniy qadriyatlarning roli. // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. – T.: Toshkent Islom universiteti, 2012. 138-b.

2. Begmatov A., Rustamova R. Milliy g‘oya targ‘iboti va madaniy – ma’rifiy tadbirlar. – T., 2008.

3. Boboev H., G‘ofurov Z., Islomov Z. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyoti. – T., 2008.

4. Umaralieva M. A. Global axborot muhitida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o‘rni. //Ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish: muammo va yechimlari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2015. 50-51-b.

5. Миллий истиқлол ғояси. – Т.: Академия, 2005. 84-б.

6.Миллий урф-одат, маросим ва анъаналарнинг шахс маънавий камолотидаги аҳамияти. – Т.: Ўқитувчи, 1999. 47-58-б.

7. IbraimovX., Quronov M. Umumiy pedagogika[Matn]. Darslik. T., «Sahhof», 2023, 416-bet.

8. lbraimov X., Quronov M., lbragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Matn]. Darslik. - T., «Sahhof», 2023.392-bet.

9. Ota-ona - murabbiy [Matn] / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov; - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2024. - 220 b.

10. X.Ibraimov va boshqalar.Najot tarbiyada. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -2025. – 60 b.

11. X.Ibraimov va boshqalar. Go‘zal hulq modellari. – Toshkent.: “Ilm ziyo zakovat” nashriyoti. -2025 y. 80-b.

12. X.Ibraimov va boshqalar. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2025. - 68 b.

MAKTABGACHA TA’LIMDA TASVIRIY FAOLIYATNING AHAMIYATI

Rizoyeva Muslima Raxmonovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0009-0985-281X

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat orqali bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Unda kreativlik tushunchasining muhim belgilari, o‘ziga xos xususiyatlari hamda kreativlik va intellekt o‘rtasidagi farqlar ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlari – “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun, “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi hamda 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi talablari asosida tasviriy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Tasviriy faoliyatning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o‘rni, uning tasavvur, obrazli tafakkur, fantaziya va divergent fikrlashni shakllantirishdagi psixologik mexanizmlari asoslab berilgan. Xorijiy tajriba (Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy va Yangi Zelandiya) tahlili orqali tasviriy faoliyatni bola markazli, jarayonga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi yondashuv asosida tashkil etish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, tasviriy faoliyat, kreativ fikrlash, kreativlik, intellekt, ijodkorlik, kompetensiyaviy yondashuv, bola markazli ta’lim, rivojlantiruvchi muhit, divergent fikrlash, obrazli tafakkur, fantaziya, pedagogik diagnostika, innovatsion faoliyat, xorijiy tajriba.

ЗНАЧЕНИЕ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методологические основы развития креативного мышления у детей в организациях дошкольного образования через изобразительную деятельность. Анализируются ключевые характеристики понятия креативности, её специфические особенности, а также различия между креативностью и интеллектом на основе научных источников. Также раскрыты педагогические возможности изобразительной деятельности на основе нормативно-правовых документов Республики Узбекистан в сфере дошкольного образования – Закона «О дошкольном образовании и воспитании», Государственного стандарта дошкольного образования и воспитания, государственной учебной программы «Ilk qadam» и концепции развития до 2030 года. Обоснована роль изобразительной деятельности в всестороннем развитии личности ребёнка, а также психологические механизмы формирования воображения, образного мышления, фантазии и дивергентного мышления. Анализ зарубежного опыта (Финляндия, Сингапур, Южная Корея, Китай и Новая Зеландия) показал необходимость организации изобразительной деятельности на основе ребёнко-центрированного, процессно-ориентированного и развивающего подходов.

Ключевые слова: Дошкольное образование, изобразительная деятельность, креативное мышление, креативность, интеллект, творчество, компетентностный подход, ребёнко-центрированное обучение, развивающая среда, дивергентное мышление, образное мышление, фантазия, педагогическая диагностика, инновационная деятельность, зарубежный опыт.

THE IMPORTANCE OF VISUAL ACTIVITY IN PRESCHOOL EDUCATION

Annotation: The article highlights the theoretical and methodological foundations for developing creative thinking in children through visual activities in preschool educational institutions. It analyzes the essential characteristics of creativity, its distinctive features, and the differences between creativity and intelligence based on scientific sources. Furthermore, the pedagogical potential of visual activities is revealed in accordance with the regulatory and legal documents of the Republic of Uzbekistan in the field of preschool education – the Law "On Preschool Education and Upbringing," the State Standard of Preschool Education and Upbringing, the state curriculum "Ilk Qadam," and the Development Concept until 2030. The role of visual activities in the comprehensive development of a child's personality is substantiated, and the psychological mechanisms underlying the formation of imagination, figurative thinking, fantasy, and divergent thinking are explained. Through the analysis of foreign experience (Finland, Singapore, South Korea, China, and New Zealand), the necessity of organizing visual activities based on child-centered, process-oriented, and developmental approaches is demonstrated.

Keywords. Preschool education, visual activity, creative thinking, creativity, intelligence, creativity development, competence-based approach, child-centered education, developmental environment, divergent thinking, figurative thinking, imagination, pedagogical diagnostics, innovative activity, foreign experience.

Kirish.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, bolalarni har tomonlama rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar maktabgacha ta’lim mazmunini yangilash, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda bolalarning intellektual, ma’naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunida maktabgacha ta’lim bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning qobiliyat va iste’dodlarini namoyon etish uchun teng sharoitlar yaratishga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi sifatida belgilangan. Ushbu talablar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etishni, ayniqsa bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi.

Mazkur jarayonni amaliy jihatdan tartibga soluvchi muhim hujjatlardan biri – “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” bo‘lib, unda bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta’lim jarayonini bolaning qiziqishi va ehtiyojlariga mos holda tashkil etish, samarali pedagogik metod va texnologiyalarni joriy etish zarurligi belgilab berilgan. Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” maktabgacha ta’limning strategik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab, bolalarning ijodiy va intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashni ustuvor vazifalardan biri sifatida ko‘rsatadi.

Maktabgacha ta’lim mazmunini tashkil etishda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi muhim metodik asos hisoblanadi. Ushbu dasturda ta’lim jarayoni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi hamda bolalarning ijodiy rivojlanishi alohida rivojlanish sohasi sifatida ko‘rsatilgan. Mazkur yondashuv bolalarda san’atga qiziqish, estetik did, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat bolalarning badiiy-estetik didini rivojlantirish, tasavvurini boyitish, emotsional tajribasini kengaytirish hamda kreativ fikrlashini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Tasviriy faoliyat jarayonida bola

rang, shakl va obrazlar orqali o‘z fikri hamda hissiyotlarini ifoda etadi, bu esa uning tafakkur, tasavvur va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda tasviriy faoliyat faqat rasm chizish ko‘nikmalarini o‘rgatish vositasi sifatida emas, balki bolalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topishi hamda o‘zini erkin ifoda etish imkoniyatini rivojlantiruvchi kompleks pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Shu bilan birga, amaliyotda tasviriy mashg‘ulotlarning ko‘p hollarda reproduktiv usulda tashkil etilishi, bolalarga tayyor namunalarni takrorlash ustuvor bo‘lib qolayotgani kuzatilmoqda. Bu esa bolalarning ijodiy tashabbusini cheklashi va kreativ fikrlashning to‘liq rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni tashkil etish metodikasini takomillashtirish, unda kreativ fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shartlari va samarali usullarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot aynan shu muammoni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, tasviriy faoliyat orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning nazariy va metodik asoslarini tahlil qilishni maqsad qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat siyosatining ustuvor vazifalari hamda ta’lim sifatini ta’minlash mexanizmlari me’yoriy-huquqiy hujjatlar orqali belgilab berilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunida “Maktabgacha ta’lim va tarbiya – bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi” ekanligi hamda “har bir bolaning iste’dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi”ni maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy prinsipi sifatida belgilanadi [1]. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni tashkil etishda ilmiy-metodik yondashuv, sifat va natijadorlik masalalariga tizimli e’tibor berilishi lozimligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga muvofiq tashkil etish, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, samarali ta’lim-tarbiya shakl va usullarini joriy etish hamda ta’lim jarayonining mazmuni va sifatiga doir majburiy talablarni belgilab bergan [3].

Ushbu standartning mazmuni ta’lim jarayonini bolaning qiziqishi, intilishi, qobiliyati va ehtiyojlarini ustuvor deb bilgan holda tashkil etishni taqozo qiladi hamda tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etishda ham maqsadga yo‘naltirilganlik, rejalilik, monitoring va sifat ko‘rsatkichlarini inobatga olish zaruratini anglatadi. Mazkur talablar esa tasviriy faoliyatni bolaga yo‘naltirilgan va erkin ijodiy muhitda tashkil etish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4312-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” maktabgacha ta’limning strategik maqsad va vazifalarini belgilab, bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish, innovatsiyalarni hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etishni ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan [2].

Mazkur yondashuv tasviriy faoliyatni maktabgacha ta’limning shunchaki “mashg‘ulot turi” emas, balki bolaning ijodiy qobiliyatini ochish, estetik dunyoqarashini boyitish hamda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan kompleks pedagogik vosita sifatida qarashni taqozo etadi.

Maktabgacha ta’lim mazmunini amaliy jihatdan tashkil etuvchi asosiy hujjatlardan biri bo‘lgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida ta’lim-tarbiya jarayoni kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida bola shaxsini rivojlantirishga qaratilishi belgilangan [4].

Shuningdek, mazkur dasturda “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda

kompetensiyaviy yondashuv” nomli III bobning 3.2. bo‘limida bolaning kompetensiyalari bola rivojining sohalari (jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) belgilangan bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish sohalari orasida “ijodiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalari (san’at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi; milliy an’analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida idrok etadi; san’atning muayyan turini afzal ko‘rishini mustaqil ravishda ifodalaydi; olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi; insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi) alohida yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgani tasviriy faoliyatning nazariy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi [4: 16-18-b.].

Demak, tasviriy faoliyat orqali bolalarda ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish bugungi maktabgacha ta’lim mazmunining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, maktabgacha yosh davridayoq bolalarda badiiy-estetik qobiliyat, fantaziya, tasviriy ifoda, tasavvur va ijodiy tafakkurni rivojlantirish zarurligini me’yoriy asosda tasdiqlaydi. Shu bilan birga, «Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida ta’lim natijalari tayanch kompetensiyalar (kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy, bilish)ning shakllanganligi bilan ifodalanishi, kutilayotgan natijalar esa bolalarni sinovdan o‘tkazish bilan emas, pedagogik kuzatuv asosida baholanishi lozimligi belgilangan [4: 83-b.].

Mazkur talablar tasviriy faoliyatni “baholash uchun rasm chizdirish” emas, balki bolani qo‘llab-quvvatlovchi, erkin ijodiy harakatga undovchi rivojlantiruvchi ta’lim shaklida tashkil etish zarurligini anglatadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim sohasida rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bolani kelajak hayotga tayyorlash jarayonida faqat elementar bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmay, balki uning kreativ fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi, muammolarga yangicha yondashishi hamda o‘zini erkin ifoda eta olishi kabi kompetensiyalarini erta yoshdan rivojlantirish ustuvor vazifaga aylangan. Xususan, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy va Yangi Zelandiya kabi davlatlar maktabgacha ta’lim tizimida tasviriy faoliyat (visual arts / arts education) bolalarning shaxsiy rivojlanishi, ijodkorligi, emotsional farovonligi hamda kreativ fikrlashini shakllantirishning samarali vositasi sifatida konseptual darajada e’tirof etiladi. Ushbu mamlakatlar tajribasida tasviriy faoliyat pedagogik jarayonning “ikkinchi darajali” qismi emas, balki ta’lim mazmunining rivojlantiruvchi, integrativ va kompetensiyaviy natijalarga yo‘naltirilgan asosiy yo‘nalishi sifatida ko‘riladi.

Finlandiya tajribasida tasviriy faoliyatning konseptual o‘rni. Finlandiya maktabgacha ta’lim tizimi dunyoda eng ilg‘or yondashuvlarga asoslangan modellar qatoriga kiradi. Finlandiyada ta’lim jarayoni, avvalo, bolaning farovonligi, qiziqishi, faolligi va shaxs sifatida rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. “Early Childhood Education and Care” (ECEC) bo‘yicha 2022-yilgi milliy o‘quv dasturida bolalarda o‘rganishga qiziqish, fikrlash, ijodiy faoliyat hamda o‘zini turli yo‘llar bilan ifoda etish jarayonlari ta’lim mazmunining asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilangan [6]. Bu esa tasviriy faoliyatni bolalarning kreativ fikrlashini qo‘llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi muhit sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Finlandiya tajribasida tasviriy faoliyat ko‘pincha bolalarning kundalik hayotidagi o‘yin, tadqiqot va kuzatish jarayonlari bilan integratsiyada olib boriladi. Ya’ni tasviriy mashg‘ulotlar alohida “dars” sifatida emas, balki bolaning erkin ijodiy tajribasini rivojlantiradigan jarayon sifatida amalga oshiriladi. Bu yondashuv bolani natijaga majburlamasdan, aksincha ijodiy jarayonni qadrlash, g‘oya ishlab chiqish va o‘zini ifoda etish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Singapur tajribasida tasviriy faoliyat (NEL – Aesthetics and Creative Expression). Singapur maktabgacha ta’lim tizimida bolalarda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirish, xususan, kreativlik, kommunikatsiya va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish konseptual vazifa sifatida qaraladi. Singapurda “Nurturing Early Learners” (NEL) dasturida o‘quv jarayoni turli yo‘nalishlar

asosida tashkil etilib, ular orasida “Aesthetics and Creative Expression” (estetika va ijodiy ifoda) yo‘nalishi alohida o‘rin tutadi [8]. Mazkur yo‘nalishda tasviriy san’at, musiqa, harakat va drama orqali bolalarning o‘z fikr va his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishi, ijodiy tasavvurini kengaytirishi hamda mustaqil g‘oyalar yaratishi qo‘llab-quvvatlanadi.

Singapur tajribasida tasviriy faoliyatni tashkil etishda pedagoglar bolaga “namuna ko‘rsatish”dan ko‘ra ko‘proq uning mustaqil tajriba qilishi, materiallarni sinab ko‘rishi, bir vazifaga turli yechim topishi uchun sharoit yaratadi. Masalan, bir mavzu doirasida turli materiallardan (bo‘yoq, qog‘oz, tabiiy materiallar, konstruktiv vositalar) foydalanish, bolalarda divergent fikrlashni (turlicha yechimlar) rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni shakllantirishning metodik asosini tashkil qiladi.

Janubiy Koreya tajribasi: o‘yin markazli yondashuv va kreativ rivojlanish. Janubiy Koreyada maktabgacha ta’lim mazmuni “Nuri curriculum” orqali tartibga solinadi. Ushbu dasturda bola rivojlanishida o‘yin markazli yondashuv, ijtimoiy-emosional farovonlik va ijodiy faollik alohida e’tirof etiladi. Koreya tajribasida tasviriy faoliyat bolani erkin fikrlashga, yangi obrazlar yaratishga hamda o‘z tajribasini ifodalashga undaydigan amaliy vosita sifatida qaraladi. Tasviriy mashg‘ulotlar ko‘pincha o‘yin, hikoya, harakatli faoliyat va tabiatni kuzatish bilan integratsiyalashgan shaklda olib boriladi [7]. Natijada bolada ijodiy tasavvur, estetik qarashlar, mustaqil fikrlash va muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi.

Koreya maktabgacha ta’limida tasviriy faoliyatning ahamiyati shundaki, u bolalarning “erkin tanlovi”ni qo‘llab-quvvatlaydi. Ya’ni bola mavzuni o‘zi tanlaydi, kerakli materialni tanlaydi va o‘z tasavvuriga asoslanib ijodiy mahsulot yaratadi. Bunday yondashuv kreativ fikrlashni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Xitoyda maktabgacha ta’lim tizimi so‘nggi yillarda keng ko‘lamli islohotlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Xitoy tajribasida ta’lim jarayoni bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirishga, shaxsiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlashga va tarbiyachining metodik yondashuvini takomillashtirishga yo‘naltirilmoqda. Xitoy maktabgacha ta’lim tizimida tasviriy faoliyat bolalarning ijtimoiy tajribasi va estetik qarashlarini boyituvchi hamda kreativ fikrlashini shakllantiruvchi muhim vosita sifatida talqin etiladi. Xitoydagi o‘quv dasturlari islohoti haqidagi ilmiy manbalarda tasviriy faoliyat ko‘pincha bolalarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, o‘zini erkin ifoda etish kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlanadi [5].

Shuningdek, Xitoy tajribasida badiiy faoliyat bola shaxsini rivojlantirishning tabiiy yo‘li sifatida ko‘riladi. Bolaga estetik tarbiya berish bilan birga, uning tafakkuri, tasavvuri va kreativ tashabbusi kuchaytiriladi.

Yangi Zelandiya tajribasi: Te Whāriki va bolani erkin ijodga yo‘naltirish. Yangi Zelandiya maktabgacha ta’lim tizimida “Te Whāriki” milliy o‘quv dasturi asosiy metodologik hujjat hisoblanadi. Ushbu dastur bolani “faol o‘rganuvchi” (active learner) sifatida ko‘radi va ta’lim jarayonida bolalarning qiziqishi, tashabbusi, tajriba qilish ehtiyoji, o‘yin orqali o‘rganishi hamda kreativ ifodasi qo‘llab-quvvatlanadi [9]. “Te Whāriki” konsepsiyasi doirasida tasviriy faoliyat bolalarning o‘z fikrini turli yo‘llar orqali ifoda etish, tadqiqot qilish, yangicha obrazlar yaratish va mustaqil harakatlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yangi Zelandiya tajribasida tasviriy faoliyat bolaning erkin ijodiy tajribasi sifatida qadrlanadi. Mashg‘ulotlarda tarbiyachi “nima chizish kerak”ni qattiq belgilab bermaydi, aksincha bola o‘z dunyoqarashi va hissiyotidan kelib chiqib mustaqil obrazlar yaratadi. Bu esa bolalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda eng muhim psixologik shartlardan biri bo‘lgan erkinlik va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni ta’minlaydi.

Muhokama. Tasviriy faoliyatning pedagogik imkoniyatlari, avvalo, uning ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalashgan holda ta’sir ko‘rsatishi bilan izohlanadi. Chunki tasviriy mashg‘ulotlar jarayonida bola atrof-muhitdagi predmet va hodisalarni kuzatadi, ularning shakli, rang-barangligi, tuzilishi va tasviriy belgilari haqida tasavvur hosil qiladi, so‘ngra o‘z fikri va

hissiyotini turli vizual obrazlar orqali ifoda etishga intiladi. Bunda bolaning tafakkur jarayonlari – tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash hamda obrazli fikrlash kabi komponentlar faol ishlaydi. Natijada, tasviriy faoliyat bolaning bilish jarayonlarini faollashtirib, uning kreativ fikrlashiga poydevor yaratadi.

Shuningdek, tasviriy faoliyatning tarbiyaviy imkoniyatlari ham nihoyatda yuqori bo‘lib, u bolalarda go‘zallikni his qilish, estetik didni shakllantirish, qadriyatlarga hurmat, sabr-toqat, mehnatsevarlik va boshlagan ishini oxiriga yetkazish kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantiradi. Ayniqsa, rasm chizish, applikatsiya, kollaj, konstruksiya elementlari bilan ishlash jarayonida bolaning o‘z fikrini erkin ifoda etishi hamda mustaqil harakatlanishi uning shaxsiy “men”ini ijobiy shakllantirishga xizmat qiladi.


«Ilk qadam” davlat dasturida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish masalasiga alohida e’tibor qaratilib, guruhdagi rivojlanish markazlari orasida “san’at markazi” muhim komponentlardan biri sifatida tavsiya etiladi. Ushbu markazning mavjudligi, tasviriy san’at studiyasi, turli materiallar va jihozlardan foydalanish imkoniyati bolalarda ijodiy izlanish, tajriba qilish va yangicha yechim topishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Bu esa tasviriy faoliyat orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish metodikasining muhim sharti sifatida baholanishi mumkin.

Maktabgacha yosh davri bola shaxsining psixik rivojlanishida eng faol va hal qiluvchi bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu davrda bolaning idroki, diqqat va xotirasi, tasavvuri hamda tafakkuri jadal shakllanadi. Ushbu psixik jarayonlar o‘zaro uzviy bog‘langan holda rivojlanib, bolaning kelgusidagi o‘qish faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy muvaffaqiyatiga poydevor yaratadi. Maktabgacha ta’limda tasviriy faoliyat esa aynan mana shu psixik jarayonlarni harakatga keltiruvchi va kuchaytiruvchi faoliyat turi bo‘lib, u bolada kreativ fikrlashni shakllantirishning tabiiy psixologik mexanizmlariga tayangan holda tashkil etiladi.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim konsepsiyalarida bolani rivojlantirish jarayoni “tayyor bilimni berish”dan ko‘ra, uning bilish jarayonlarini faollashtirish, mustaqil fikr yuritishga undash, tasavvurini kengaytirish hamda erkin ifoda qilish imkoniyatini yaratish orqali amalga oshirilishi ta’kidlanadi. Bunda tasviriy faoliyat nafaqat pedagogik usul, balki bolaning psixologik rivojlanish ehtiyojlariga mos, uning ichki dunyosini ochib beradigan va ijodiy potentsialini namoyon etadigan qulay muhit hisoblanadi. Chunki rasm chizish, bo‘yoqlar bilan ishlash, applikatsiya, loydan yasash jarayonida bola o‘z tasavvuridagi obrazni real tasvirga aylantirishga harakat qiladi, bu esa psixologik jarayonlarning kompleks ishlashiga olib keladi.

Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarda tasavvur, obrazli fikrlash, tafakkur va ijod jarayonlarini kompleks tarzda rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasavvur (fantaziya) keng va faol bo‘ladi. Bola real hayotdan olingan tasavvurlarni o‘zicha qayta ishlaydi, yangi kombinatsiyalar yaratadi, oddiy predmetlarga yangi ma’no yuklaydi. Tasviriy faoliyatda esa tasavvur eng faol namoyon bo‘ladigan psixik jarayonlardan biridir. Masalan, bola oddiy doirani “quyosh”, “to‘p”, “g‘ildirak” yoki “qahramon” sifatida tasvirlashi mumkin. Bu holat tasavvur jarayonining ijodiy xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.



Shu jihatdan tasviriy faoliyat bolaning fantaziyasini faollashtiradigan va uni rivojlantiradigan metodik resurs bo‘lib xizmat qiladi. Aynan fantaziya esa kelajakda kreativ fikrlashning shakllanishi uchun muhim psixologik asos hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davrida bolalarda obrazli tafakkur yetakchi bo‘lib, bola ko‘proq tasvirlar, shakllar, ranglar, harakatlar orqali fikr yuritadi. Tasviriy faoliyat esa obrazli tafakkurning rivojlanishiga xizmat qiladi, chunki bola real predmet va hodisalarni “ko‘rish” bilan cheklanmay, ularni tasviriy obrazlarga aylantiradi. Bunda bola predmetning eng asosiy belgilarini ajratishga, muhim va ikkinchi darajali jihatlarni farqlashga o‘rganadi.

Masalan, bola “uy” tasvirlayotganda tom, deraza, eshik kabi elementlarni tanlaydi va kompozitsion jihatdan joylashtiradi. Bu jarayon tasviriy faoliyat orqali bolaning tahlil qilish va strukturali fikrlash ko‘nikmalari shakllanishini ko‘rsatadi. Obrazli fikrlash rivojlangan sari bola o‘z g‘oyasini vizual tarzda ifodalashga, o‘z tasviriga ma’no yuklashga, syujet qurishga intiladi. Bu esa tasviriy faoliyatning kreativlikni yuzaga chiqaruvchi psixologik mexanizm ekanligini tasdiqlaydi.


Tasviriy faoliyat bolalarning tafakkur jarayonlarini harakatga keltiradigan murakkab faoliyatdir. Chunki rasm chizish yoki biror kompozitsiya yaratish jarayonida bola bir vaqtning o‘zida bir necha intellektual operatsiyalarni bajaradi: tahlil (predmetni qismlarga ajratish); sintez (qismlarni yagona obrazga birlashtirish); taqqoslash (rang, shakl, o‘lchamni solishtirish); umumlashtirish (muhim belgilarni ajratish); tasniflash (predmetlarni guruhlash); xulosa chiqarish (natijani baholash).

Bunday intellektual jarayonlar bolaning fikrlash faolligini oshiradi va unda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, tasviriy faoliyatda tarbiyachi “tayyor namuna”ni ko‘rsatishdan ko‘ra, bolani “o‘zi topishga” yo‘naltirsa, tafakkurning divergent (turlicha yo‘llar bilan) ishlashi kuchayadi. Bu holat bolaning kreativ fikrlash sifatlarini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.


Tasviriy faoliyatning psixologik jihatdan eng muhim natijasi ijodiy mahsulot yaratishdir. Bola o‘z tasavvuriga asoslanib rasm chizadi, yangi obrazlarni shakllantiradi, mavjud predmetlarga o‘ziga xos yondashuv bildiradi. Bu jarayon ijodiy faoliyatning tabiiy ko‘rinishi bo‘lib, unda bolaning shaxsiy tajribasi, hissiyoti, qiziqishi, motivatsiyasi namoyon bo‘ladi.

Ijodkorlikning shakllanishida motivatsiya ham muhim rol o‘ynaydi. Bola agar erkin, qo‘llab-quvvatlovchi muhitda ishlasa, uning ichki qiziqishi kuchayadi, ijodiy faolligi oshadi. Aksincha, agar faoliyat qat’iy cheklangan, faqat namunani takrorlashga asoslangan bo‘lsa, bolada ijodiy tashabbus pasayishi mumkin. Shu sababli maktabgacha ta’limda tasviriy faoliyatning psixologik mexanizmlarini to‘g‘ri ishga solish – bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tasviriy mashg‘ulotlar jarayonida kreativ fikrlashni shakllantirish uchun quyidagi psixologik shartlar muhim: erkin tanlov (rang, material, mavzu tanlash imkoniyati); ijodiy xavfsiz muhit (xatodan qo‘rqmaslik, tanqid qilmaslik); muammoli vaziyatlar (bitta mavzuga turli yechimlar); refleksiya (bola “nima uchun shunday chizdim?” deb o‘ylaydi); motivatsion qo‘llab-quvvatlash (rag‘bat, qiziqtirish); individual yondashuv (har bir bolaning o‘ziga xosligini tan olish).



Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda tasviriy faoliyatning imkoniyatlari ayniqsa muhimdir. Sababi tasviriy faoliyat bolaning tasavvuri, obrazli tafakkuri va emotsional ifodasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u ijodiy fikrlashning tabiiy asoslarini shakllantiradi. Rasm chizish, applikatsiya, loydan yasash, kollaj, konstruktiv-badiiy faoliyat jarayonida bola: yangi obraz yaratadi; rang va shakllarni erkin tanlaydi; kompozitsiyani



mustaqil quradi; g‘oyasini vizual ifodalashga intiladi; muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topadi. Demak, tasviriy faoliyat bolaning kreativ fikrlashini rivojlantirish uchun tabiiy pedagogik muhit bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, amaliyotda tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari ko‘plab hollarda reproduktiv (namunaga asoslangan) yondashuvda tashkil etilishi, bolalarga tayyor shakl va chizmalarni ko‘chirib chizdirish ustuvor bo‘lib qolayotgani kuzatiladi. Bunday sharoitda bolalarning erkin tanlov qilish imkoniyati cheklanadi, ijodiy tashabbusi pasayadi va kreativ fikrlash mexanizmlari to‘liq ishga tushmaydi. Bundan tashqari, tarbiyachilar uchun tasviriy faoliyatda kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodik tavsiyalar, mashg‘ulot modellari va baholash mezonlari yetarli darajada tizimlashtirilmagani ham muammoning dolzarbligini kuchaytiradi. Ayniqsa, kreativ fikrlashni rivojlantirish natijalarini aniqlash va baholashda pedagogik diagnostika vositalariga ehtiyoj mavjud bo‘lib, bu masala ilmiy yechimni talab etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni o‘qitish metodikasi bolalarning yosh

va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning bilish jarayonlarini faollashtirish, ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish hamda kreativ fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizim sifatida qaraladi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim mazmuni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilayotgani, ta’lim jarayonida rivojlantiruvchi muhit yaratish, bola faolligini qo‘llab-quvvatlash hamda tarbiyachining metodik mahoratini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanganligi tasviriy faoliyat metodikasining metodologik asoslarini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Shu bois, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish, unda kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda ta’lim natijalarini kafolatlash uchun metodik jarayon muayyan metodologik tamoyillar va ilmiy yondashuvlar bilan asoslanishi lozim.

Natijalar.

Tasviriy faoliyatni o‘qitish metodikasining metodologik asoslari deganda, pedagogik jarayonni tashkil etishning umumiy ilmiy tamoyillari, maqsadga yo‘naltirilgan yondashuvlari hamda ta’limning mazmun, shakl, metod va vositalarini tanlashni belgilovchi konseptual qarashlar tushuniladi. Bunda “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti”, «Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi hamda maktabgacha ta’limni “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilangan maqsad va vazifalar metodik jarayonning normativ poydevorini tashkil etadi. Ushbu hujjatlarning umumiy g‘oyasi bolani shaxs sifatida rivojlantirish, uning qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olish, rivojlantiruvchi muhit yaratish hamda ta’lim jarayonini faoliyatga asoslangan tarzda tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, tasviriy faoliyat metodikasini ham aynan shu yo‘nalishda takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

1. Bola markazli yondashuv. Tasviriy faoliyatni o‘qitish metodikasida bola markazli yondashuv metodologik jihatdan yetakchi o‘rin tutadi. Mazkur yondashuvda tarbiyachi ta’lim jarayonining markaziga bolaning shaxsiy qiziqishi, ehtiyoji, individual imkoniyatlari va ijodiy tashabbusini qo‘yadi. Bola markazli metodikada mashg‘ulotlar qat’iy “namuna asosida ko‘chirish” shaklida emas, balki bolaga tanlov imkonini beruvchi, ijodiy izlanishga undovchi shaklda tashkil etiladi. Bu jarayonda tarbiyachi bolani nazorat qiluvchi emas, balki uning kreativ faolligini qo‘llab-quvvatlovchi, yo‘naltiruvchi va motivatsiya beruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Natijada bola o‘zini erkin ifoda qiladi, o‘z fikrini tasviriy obrazlarda namoyon etadi va kreativ fikrlash mexanizmlari faollashadi.

2. Faoliyat yondashuvi. Tasviriy faoliyatni o‘qitish jarayoni bevosita “faoliyat orqali o‘rganish” konsepsiyasiga tayanadi. Faoliyat yondashuviga ko‘ra, bola bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki u faol harakat jarayonida, tajriba qilish, sinab ko‘rish, xulosa chiqarish orqali egallaydi. Tasviriy mashg‘ulotlar aynan shunday tabiiy o‘quv faoliyatidir: bola bo‘yoqlarni aralashtiradi, shakllarni sinab ko‘radi, kompozitsiya yaratadi, natijani kuzatadi va keyingi ishida o‘z xulosalaridan foydalanadi. Bu yondashuv metodik jihatdan tasviriy mashg‘ulotlarni “natijaga yo‘naltirilgan” emas, balki “jarayonga yo‘naltirilgan” tarzda tashkil etish zaruratini ko‘rsatadi. Chunki jarayon davomida bola fikrlaydi, izlanadi va ijod qiladi, bu esa kreativ fikrlashning shakllanishida asosiy omil hisoblanadi.

3. Kompetensiyaviy yondashuv. Maktabgacha ta’limda kompetensiyaviy yondashuv bolaning shaxsiy rivojlanish natijalarini amaliy ko‘nikmalar va hayotiy kompetensiyalar orqali ifodalashni nazarda tutadi. Tasviriy faoliyat metodikasi ham bolalarda nafaqat rasm chizish ko‘nikmalarini, balki fikrlash kompetensiyasi, ijodiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya va ijtimoiy kompetensiyani shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Masalan, bola rasm yaratish jarayonida g‘oya o‘ylab topadi (fikrlash kompetensiyasi), rang va shakl orqali yangicha yechim beradi (ijodiy kompetensiya), ishini tushuntirib beradi (kommunikativ kompetensiya), jamoaviy rasmda kelishadi (ijtimoiy kompetensiya). Shunday qilib, tasviriy faoliyat kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotda amalga oshirishning samarali mexanizmiga aylanadi.

4. Integrativ yondashuv. Tasviriy faoliyat maktabgacha ta’limning boshqa yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘langan integrativ faoliyat turidir. Integrativ yondashuvga ko‘ra, rasm chizish yoki applikatsiya jarayonida bola nafaqat san’at elementlarini o‘rganadi, balki nutq, matematika

elementlari, tabiatshunoslik, mehnat tarbiyasi va ijtimoiy tajriba kabi yo‘nalishlarni ham o‘zlashtiradi. Masalan, “Mening oilam” mavzusida rasm chizish – ijtimoiy tasavvur va nutqni rivojlantiradi; “Fasllar” mavzusi – tabiat haqidagi bilimlarni mustahkamlaydi; “Geometrik shakllar” asosidagi applikatsiya – matematik tasavvurni boyitadi. Shu sababli tasviriy faoliyat metodikasida fanlararo integratsiya va mavzulararo bog‘liqlikni tashkil etish muhim metodologik tamoyil hisoblanadi.

5. Rivojlantiruvchi ta’lim yondashuvi. Rivojlantiruvchi ta’lim yondashuvi tasviriy mashg‘ulotlarni bolalarning psixik jarayonlari va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirishni talab etadi. Bunda tarbiyachi faqat natijaga emas, balki bolaning fikrlashi, tasavvuri, emotsional holati, mustaqil harakati, kreativ tashabbusiga e’tibor qaratadi. Rivojlantiruvchi metodikada mashg‘ulotlar bolaning ijodiy salohiyatini “ochishga” xizmat qiladi, chunki har bir bola o‘z imkoniyatiga ko‘ra ijod qiladi va shaxsiy rivojlanish yo‘liga ega bo‘ladi. Shuning uchun tasviriy faoliyatni rivojlantiruvchi ta’lim asosida tashkil etish kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali metodik mexanizmi hisoblanadi.

6. Muammoli ta’lim elementlari. Tasviriy faoliyat metodikasida muammoli vaziyat yaratish va bolani mustaqil yechim topishga undash kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun katta imkoniyat beradi. Muammoli ta’lim elementlari tasviriy mashg‘ulotlarda quyidagicha namoyon bo‘ladi: tarbiyachi bolaning oldiga “tayyor yo‘l”ni emas, balki “izlanishni talab qiladigan vazifa”ni qo‘yadi. Masalan: “Oddiy shakldan yangi predmet yarat”, “Bir rangdan turli kayfiyat ifodala”, “Bir mavzuni uch xil usulda chiz” kabi topshiriqlar bolani fikrlashga majbur qiladi. Natijada bola turli variantlarni izlaydi, o‘z tajribasidan foydalanadi va kreativ yondashuvni qo‘llaydi.

7. O‘yin asosida o‘qitish. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin yetakchi faoliyat turi bo‘lgani sababli tasviriy faoliyat metodikasida o‘yin elementlaridan foydalanish muhim metodologik talab hisoblanadi. O‘yin orqali tashkil etilgan tasviriy mashg‘ulotlarda bola jarayonga qiziqib kirishadi, emotsional holati ijobiy bo‘ladi va ijodiy faolligi oshadi. Masalan, “sehrli bo‘yoqlar”, “fantaziya qahramonini yaratish”, “badiiy laboratoriya” kabi o‘yinli metodlar bolada kreativ fikrlashning tabiiy rivojlanishini ta’minlaydi.

8. Shaxsiy-refleksiv yondashuv. Tasviriy faoliyat metodikasida refleksiya bolaning o‘z ishini anglash, baholash va takomillashtirish jarayonini rivojlantiradi. Refleksiv yondashuvda bola “men nima chizdim?”, “nega shunday chizdim?”, “yana qanday chizish mumkin?” kabi savollar asosida o‘z ishini tahlil qiladi. Bu jarayon bola tafakkurining mustaqil rivojlanishiga, kreativ fikrlashning shakllanishiga xizmat qiladi. Refleksiya elementlari mashg‘ulot yakunida bolalarning ishlarini ko‘rib chiqish, fikr almashish, o‘z ishini tushuntirib berish orqali amalga oshiriladi.

Xulosa.

Taklif etilgan strategiyalarni oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish jismoniy tarbiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Natijada ta’lim sifati yaxshilanadi, bitiruvchilarning amaliy faoliyatga moslashuvchanligi kuchayadi hamda ular zamonaviy pedagogik talablar asosida ishlay oladigan, raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllanadi. Shuningdek, mazkur yondashuv umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirish, bolalarning harakat faolligini kuchaytirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishdek strategik vazifaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR

Qodirov B.R. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – T.: Iqtisod-moliya, 2018.
Raxmatov A., Yusupov X. Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi va metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 2016.
Abdullaev A. Harakatli o‘yinlar nazariyasi va metodikasi. – T.: Fan, 2019.
Jabborov N. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2020.
Лях В.И. Физическое воспитание школьников. – Москва: Просвещение, 2015.
Курамшин Ю.Ф. Теория и методика физического воспитания. – Москва: Академия, 2017.
Вильчковский Э.С., Курбатов С.А. Подвижные игры в физическом воспитании детей. – Киев, 2016.
Матвеев Л.П.

UDK: 373.3:37.036

ONA TILI DARSLARIDA ART PEDAGOGIKASINING TURLI USUL VA SHAKLLARIDAN FOYDALANISH MAZMUNI

Temirova Kumush Sadriddinovna,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktaranti
Buxoro viloyati, Buxoro shahri

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida ART pedagogikasining turli usul va shakllaridan foydalanishning mazmuni, pedagogik samaradorligi va estetik-tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. San'at vositalari – teatr, rasm, musiqadan foydalanish orqali o'quvchilarning tilni emotsional idrok etishi, obrazli tafakkuri, nutqiy faolligi va ijodkorligi rivojlanadi. Muallif ona tili darslarini faollashtirishda teatrlashtirish, vizual metodlar, musiqa bilan integratsiyalashgan usullarni samarali deb hisoblaydi. Tadqiqotda konkret misollar asosida ART pedagogikasining ijtimoiy-psixologik ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, ART pedagogika, teatr, dramatizatsiya, vizual metodlar, kreativlik, dars samaradorligi.

Аннотация: В данной статье раскрывается содержание и эффективность применения различных методов и форм ART-педагогики на уроках родного языка. Использование художественных средств – театрализации, рисунка, музыки – способствует эмоциональному восприятию языка, развитию образного мышления, речевой активности и творческих способностей учащихся. Автор предлагает использовать интеграцию искусства в структуру урока для повышения мотивации и вовлечённости. На основе практических примеров показано социально-психологическое влияние ART-педагогики.

Ключевые слова: родной язык, ART-педагогика, театрализация, визуальные методы, творчество, эффективность урока.

Annotation: This article explores the content and pedagogical effectiveness of applying various methods and forms of ART pedagogy in native language lessons. The use of artistic tools—such as dramatization, visual arts, and music—enhances students' emotional perception of language, develops figurative thinking, speech activity, and creativity. The author emphasizes that integrating art-based approaches into language lessons increases student engagement and learning outcomes. Practical examples illustrate the social and psychological benefits of ART pedagogy in the primary classroom.

Keywords: native language, ART pedagogy, dramatization, visual methods, creativity, lesson effectiveness.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o'quvchining shaxsiy salohiyatini har tomonlama rivojlantirish, ya'ni ularning nafaqat aqliy, balki estetik, emotsional va ijodiy qobiliyatlarini ham shakllantirishdan iboratdir. XXI asrning "yumshoq kompetensiyalar"ga bo'lgan ehtiyoji o'quvchilarda kommunikativlik, tafakkur erkinligi, emotsional barqarorlik va madaniy idrok kabi fazilatlarni rivojlantirishni taqozo etmoqda. Aynan mana shu jarayonda ART pedagogikasi – san'at vositalari orqali ta'lim berish konsepsiyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. ART pedagogika (inglizcha «Art-Based Pedagogy» so'zidan olingan) – bu ta'lim jarayoniga san'at turlarini, jumladan teatr, tasviriy san'at, musiqa, pantomima va boshqa ijodiy shakllarni integratsiyalash orqali o'quvchini chuqurroq jalb etish, uning hissiy-estetik idrokini rag'batlantirishga asoslangan yondashuvdir. Bunday metodika bolaning ichki dunyosini ochishga, shaxsiy tajribasi bilan mavzuni bog'lashga, ta'limni hissiy-emotsional kontekstda idrok etishga xizmat qiladi. Xususan, ona tili fanining mazmuni – milliy o'zlikni anglash, til vositalarini his etish,

estetik zavq bilan fikrni ifodalash ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu jarayonda ART pedagogikasi vositalarining ahamiyati juda yuqori. Chunki badiiy asarlarning dramatik ifodasi, she’riy materiallarning musiqiy ohangda o‘qilishi yoki matnga vizual interpretatsiya berilishi bolalarda tilda ifoda etilgan mazmunni chuqurroq anglash, uni o‘z his-tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi.

Ona tili darslarida teatr, rasm, musiqiy elementlar, dramatizatsiya, mimika va pantomima kabi usullardan foydalanish bolalarda nutqiy faollik, ijodkorlik, his qilish va tasavvur qilish kabi muhim ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Ular matnni o‘qishdan tashqari uni sahnalashtiradi, unga rasm chizadi, his qiladi va shu orqali til materialiga shaxsiy yondashuvni hosil qiladi. Bu esa o‘z navbatida, ularning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi, o‘z fikrini mustaqil ifodalash salohiyati va adabiy-estetik dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ART pedagogikasining o‘ziga xosligi shundaki, u differensial ta’limga ham imkon yaratadi. Har bir bola o‘zining qiziqishi, qobiliyati va psixologik tipiga ko‘ra – kimdir teatr orqali, kimdir rasm, boshqasi musiqa orqali fikr bildiradi. Demak, bu yondashuv o‘quvchilarni faollashtirishda, ularni markazga olib chiqishda, individual yondashuvni ta’minlashda universal vosita bo‘la oladi.

Shu sababli, mazkur maqolada ona tili darslarida ART pedagogikasining turli usul va shakllaridan foydalanishning mazmuni, pedagogik samaradorligi, ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati va ijtimoiy-psixologik natijalari chuqur tahlil qilinadi.

Asosiy qism. ART pedagogika — bu ta’lim jarayonida san’at vositalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning emotsional-estetik idroki, ichki dunyosini anglash salohiyati, ijodkorlik va shaxsiy ifoda ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvdir. Bu konsepsiya an’anaviy bilim berish modelidan farqli ravishda, bilimni hissiy idrok etish, estetik jihatdan baholash, o‘z shaxsiy tajribasi orqali qayta anglash imkonini beradi. ART pedagogikaning markazida bolalarning shaxsiy ishtiroki, individual dunyoqarashi va o‘zini san’at orqali anglashga intilishi turadi. Ta’limning bu shakli o‘quvchining faqat aqliy emas, balki emotsional, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham shakllanishiga xizmat qiladi. ART pedagogik yondashuv bolaning tabiiy ijodiy salohiyatini rag‘batlantiradi. O‘quvchilar bilimni tayyor holatda qabul qilmaydi, balki uni san’at orqali qayta yaratadi. Masalan, o‘rganilgan matnni sahnalashtirish, obrazlarni chizish, musiqa fonida sharhlash, she’rni ekspressiv o‘qish, pantomima orqali ifodalash – bularning barchasi o‘quvchi tafakkurining chuqurroq shakllanishiga olib keladi. Bunday o‘quv faoliyati orqali bolalar matnning ichki mazmunini, obrazlar dunyosini, syujetning hissiy zaminini chuqurroq anglab yetadi. Bundan tashqari, ART pedagogika bolalarning his-tuyg‘ularini sog‘lom yo‘nalishda namoyon qilishiga, o‘zini ifoda etish orqali psixologik yengillik his qilishiga yordam beradi. ART pedagogika o‘z tabiatiga ko‘ra ko‘p jihatli va multidisiplinar xususiyatga ega. U nafaqat adabiyot yoki ona tili darslarida, balki umumta’lim tizimining turli fanlarida, xususan tarix, tabiiy fanlar, hatto matematika darslarida ham muayyan shakllarda qo‘llanilishi mumkin. Shunga qaramasdan, aynan ona tili darslarida bu yondashuv o‘zining eng samarali natijalarini namoyon etadi. Chunki til va adabiyot matnlari estetik, emotsional va obrazli jihatdan boy bo‘lib, ularni san’at vositalari orqali o‘rganish tabiiy va uyg‘un jarayonga aylanadi. ART pedagogik yondashuvning o‘ziga xos jihati shundaki, u o‘quvchini faol ijodkor, izlovchi, tajriba qiluvchi shaxs sifatida rivojlantiradi. Bunday sharoitda o‘quvchi bilimni o‘zlashtiruvchi emas, balki uni san’at orqali yangidan quruvchi subyektga aylanadi. Bu esa zamonaviy ta’limda shakllantirilishi kerak bo‘lgan asosiy kompetensiyalardan biri – o‘z fikrini mustaqil ifodalash, yangilik yaratish, boshqalarning fikrini anglab yetish, estetik idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ART pedagogika – bu faqat metod emas, balki ta’limga bo‘lgan tamomila yangicha qarash, ya’ni bola shaxsiyatiga, uning hissiy olamiga, ijodiy salohiyatiga tayangan holda unga chuqur, barqaror va hayotiy bilim berish vositasidir. U o‘quvchini bilim egasi bo‘lish bilan birga, estetik tafakkurli, emotsional jihatdan yetuk va madaniy boy shaxs bo‘lib shakllanishiga ko‘maklashadi.

ART pedagogikasi ona tili darslarining mazmuni va maqsadi bilan uzviy uyg‘unlikda bo‘lib, til vositalarini nafaqat anglash, balki ularni obrazli, emotsional va estetik kontekstda his qilishga imkon yaratadi. Ta’limning bunday shakli o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, nutq faoliyatini jonlantirish, ijodiy fikrlash va individual yondashuvni kuchaytirishda beqiyos ahamiyatga ega. Ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tilni amaliyotda qo‘llashga, o‘z fikrini erkin ifoda etishga endigina intilayotgan bosqichda, ART pedagogik usullar ularning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Dars jarayonida dramatik ifoda usulidan foydalanish orqali o‘quvchilar matn mazmunini chuqurroq anglaydilar. Masalan, hikoya yoki ertak qahramonlarini rollarga ajratib sahnalashtirish, obrazlar orasidagi munosabatlarni jonli ifoda etish, personajlarning fe’l-atvori, hissiyot va xatti-harakatlarini aktyorlik elementlari orqali tasvirlash o‘quvchilarda matnga nisbatan shaxsiy, hissiy munosabat shakllanishiga olib keladi. Bunday yondashuv bolalarning empatiya, mimika, tanadagi harakat va intonatsiya orqali ifoda qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. She’riyat bilan ishlash jarayonida esa she’rni teatrlashtirish usuli orqali o‘quvchilar ohangdorlik, ritm va emotsional yuklamalarni sezishga o‘rganadilar. She’rlarni rollarga bo‘lib o‘qish, har bir misrani har xil ohangda ifoda etish, tanlangan musiqiy fon ostida she’rni ijro etish orqali o‘quvchilar so‘zlar ortidagi his-tuyg‘ularni yanada chuqurroq anglaydilar. Bu usul nafaqat she’r mazmunini to‘laqonli tushunishga, balki u orqali o‘z holatini ifoda etish, o‘zaro nutqiy munosabatlarga kirishish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, matn asosida rasm, kollaj, komiks yoki infografika yaratish usuli o‘quvchilarning vizual tafakkurini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. O‘quvchilar o‘rganilgan hikoya yoki she’r asosida obrazlarni tasvirlashga intilarkan, ular tasavvur kuchi, tafsilotlarga e’tibor, asosiy g‘oyani ajratish, kolorit va kompozitsiya orqali matnga estetik yondashishni o‘rganadilar. Bu esa matnni tushunish darajasini chuqurlashtiradi va uni o‘z hayoti bilan bog‘lash imkonini yaratadi. Shuningdek, musiqa bilan uyg‘unlashtirilgan metodlar — musiqali tafsir, atmosfera yaratish, his-tuyg‘ularni musiqiy fon yordamida kuchaytirish orqali o‘quvchining til materialiga bo‘lgan emotsional munosabati mustahkamlanadi. Ma’lum bir badiiy matnni o‘qish jarayonida fon musiqasini tanlash yoki yozuvchi ijodini ifodalaydigan ohangni topish, o‘quvchilarning madaniy-estetik didini oshiribgina qolmay, ularni badiiy obrazlar orqali anglashga ham yo‘naltiradi. Ayniqsa lirik asarlarni o‘qish jarayonida musiqa orqali ifodaning kuchaytirilishi nutqni ritmik, ohangdor va obrazli qilishda ijobiy samara beradi. Umuman olganda, ART pedagogikasi asosida qurilgan ona tili darslari o‘quvchining hissiy-estetik idrokini harakatga keltirib, matnlar ustida ijodiy ishlash, ularni dramatik, vizual yoki musiqiy yo‘sinda qayta yaratish orqali o‘zining shaxsiy munosabatini ifoda etishiga xizmat qiladi. Bunday yondashuv nafaqat bilim olishga, balki o‘zini anglash, fikr bildirish va badiiy tafakkurni shakllantirishga olib keladi.

ART pedagogikasi nafaqat didaktik vosita, balki psixologik va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlovchi kuchli ta’limiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchilarning turli idrok turlarini hisobga olgan holda, shaxsiy ehtiyoj va imkoniyatlarga mos yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Har bir bolaning dunyoni qabul qilish uslubi o‘ziga xosdir – kimdir obrazlarni ko‘rib anglaydi (vizual), boshqasi eshitish orqali idrok etadi (audial), yana boshqalari esa harakat va teginish (kinestetik) orqali tushunadi. ART pedagogika bu farqlarga moslashgan holda, har bir o‘quvchini o‘quv jarayoniga jalb etishga, ularning tabiiy qobiliyatlarini namoyon etishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv, eng avvalo, o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirishda sezilarli samara beradi. O‘quvchi passiv eshituvchi yoki kuzatuvchidan faol ijrochiga aylanadi – u matnni qayta ifoda etadi, sahnalashtiradi, his qiladi va o‘zgartiradi. Bu esa nutqni faollashtirish, so‘z boyligini kengaytirish, fikrlarni mantiqan tartibga solish va emotsional boyitish imkonini beradi. Ayniqsa kamgap, tortinchoq yoki o‘z fikrini ochiq bildira olmaydigan bolalar san’at orqali o‘zini erkinroq ifoda eta boshlaydi. ART pedagogikasi orqali ta’lim jarayoni ijodiy tafakkurni rag‘batlantiradi. O‘quvchilar matnni oddiy axborot manbasi sifatida emas, balki o‘z his-tuyg‘ulari, tasavvuri, tajribasi bilan uyg‘unlashtiriladigan obrazli vosita sifatida qabul qiladi. Bu esa ularni yangicha

o‘ylashga, turli badiiy shakllar orqali o‘z g‘oyasini ilgari surishga undaydi. Har bir matn o‘quvchi uchun ijodiy maydonga aylanadi – u uni rasmga aylantiradi, musiqiy fon tanlaydi, rollarga bo‘lib ifodalaydi. Bunday yondashuv tanqidiy fikrlash, o‘ziga xos yondashuv va estetika bilan fikr yuritish qobiliyatini rivojlantiradi.

ART pedagogikasi orqali tashkil etilgan darslar ijtimoiy hamkorlikni shakllantirishda ham samaralidir. O‘quvchilar guruhlarda ishlashga, vazifalarni taqsimlashga, o‘zaro fikr almashishga, qaror qabul qilishga va bir-birini tinglashga o‘rganadilar. Bu jarayon ijtimoiy kompetensiyalarni – mas’uliyat, empatiya, murosa, liderlik va guruh ichidagi muloqot madaniyatini shakllantiradi. Ayniqsa dramatizatsiya, sahnalashtirish, kollaj yoki musiqiy chiqishlar guruhli ijodiy ishlar bo‘lib, ular orqali bolalarda ijtimoiy faollik va jamoaviylik hissi kuchayadi. Shuningdek, ART pedagogikasi estetik did va madaniy saviyani oshirishda ham muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar rasm chizish, musiqa tinglash, teatrlashtirish, pantomima qilish orqali san’at asarlarining mazmunini his qiladi, ularni baholashga, tahlil qilishga o‘rganadi. Bu esa madaniy qadriyatlarga nisbatan hurmat, go‘zallikni anglash va ifoda etish, estetik muhitga intilish hissini mustahkamlaydi. Masalan, 3-sinf ona tili darsida o‘rganilgan “Yoz fasli” nomli she’rni ART usullar asosida o‘zlashtirish quyidagicha tashkil etilishi mumkin: birinchi guruh she’r mazmunini sahnalashtiradi, personajlar obrazini ifodalaydi; ikkinchi guruh she’r asosida rasm yoki kollaj yaratadi, unda yozgi fasl manzaralarini aks ettiradi; uchinchi guruh esa she’rni o‘qish vaqtida fon musiqasini tanlaydi va bu orqali o‘zlarining his-tuyg‘ularini tinglovchilarga yetkazadi. Natijada, o‘quvchilar nafaqat she’rni tushunadi, balki uni estetik va emotsional jihatdan anglaydi, turlicha ifoda etadi va his qiladi.

Umuman olganda, ART pedagogikasining ijtimoiy-psixologik afzalliklari – bu faqatgina dars jarayonini boyitish emas, balki bolaning shaxs sifatida shakllanishi, uning madaniy-estetik, kommunikativ va emotsional-intellektual salohiyatini yuksaltirishdir. Bunday yondashuv har bir o‘quvchining imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga xizmat qiladi va uni mustaqil, ijodiy, faol shaxs sifatida rivojlantiradi.

Xulosa. ART pedagogikasi imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali ona tili darslarini an’anaviy bilim berish modelidan chiqib, chuqurroq mazmunga ega, ko‘p qirrali, tarbiyaviy va estetik boyitilgan ta’lim muhitiga aylantirish mumkin. San’at vositalari bilan boyitilgan bunday darslar bolalarning faqat til va nutqiy kompetensiyasini emas, balki ularning emotsional-intellektual salohiyatini, madaniy-estetik didini, ijodiy fikrlash qobiliyatini ham har tomonlama rivojlantiradi. Darsda dramatizatsiya, rasm, musiqa, harakat, mimika va boshqa badiiy shakllardan foydalanish bolalarda tilga bo‘lgan qiziqish, matnga nisbatan hissiy aloqadorlik va o‘z fikrini erkin ifodalash ehtiyojini kuchaytiradi. Shuningdek, ART pedagogikasi har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini ochib berish, ularni o‘ziga xos idrok turlariga moslashtirish va ta’limga shaxsiy yondashuvni kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu yondashuv bolaning ichki dunyosini matn bilan ishlash jarayonida erkin ifoda etishiga, o‘z his-tuyg‘ularini, dunyoqarashini obrazlar, harakat va estetik ifoda orqali namoyon etishiga zamin yaratadi. Bunday jarayon o‘quvchilarning shaxsiy faolligi, ijtimoiy moslashuvchanligi va o‘z-o‘zini anglash darajasini oshirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bois, zamonaviy pedagogik amaliyotda ART yondashuvlar nafaqat innovatsion metod sifatida, balki dars sifati va o‘quvchining ta’limdagi ishtirokini chuqurlashtiruvchi kuchli vosita sifatida keng tadbiq qilinishi lozim. Ular orqali ona tili fanining zamonaviy mazmuni – kommunikativlik, madaniy identitet, estetik tafakkur va ijodiy yondashuv kabi muhim qadriyatlar o‘z ifodasini topadi. O‘quvchida fikrlashning obrazli shakllari, nutqiy ifodaning emotsional boyligi va madaniy-estetik did shakllanishi ART pedagogikasi orqali ta’limda yanada samarali ro‘yobga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Musurmonova O. Zamonaviy dars texnologiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 224 b.
Xayitova N. ART pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2022. – 168 b.
Dewey J. Art as Experience. – New York: Minton, Balch & Company, 1934. – 371 p.

Eisner E. W. The Arts and the Creation of Mind. – New Haven: Yale University Press, 2002. – 264 p.

Mavlonova R. va boshq. Pedagogik texnologiyalar: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU, 2019. – 210 b.

Axmedova M., Norqulova Z. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 188 b.

Vygotskiy L. S. Imagination and Creativity in Childhood. – Journal of Russian and East European Psychology. 2004. – Vol. 42(1). – P. 7–97.

Boimurodova N. Badiiy matn va obrazli tafakkur. – O‘zbekiston pedagogik jurnali. 2021. – №2. – B. 33–38.

Rasulova Z. San’at orqali o‘qitish metodlari. – Ilmiy-nazariy jurnal “Til va adabiyot ta’limi”. – 2022. – №4. – B. 45–49.

Nazarova S. O‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda dramatizatsiyaning o‘rni. – “Pedagogik izlanishlar” jurnali. – 2023. – №1. – B. 52–55.

Xamidova M. Boshlang‘ich ta’limda teatr elementlaridan foydalanish metodikasi. – “Ilm-fan va innovatsiya” jurnali. – 2021. – №3. – B. 21–26.

http://ziyonet.uz

http://edu.uz

http://journal.edu.uz

http://adabiyot.uz

http://namm.uz

TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tolipov O‘tkir Qarshievich
Nizomiy nomidagi ЎзМПУ “Texnologiy va professional ta’lim metodikasi” kafedrasi professori. p.f.d.

Annotatsiya.Maqolada bugungi kunda ta’lim tizimida faol qo‘llanilib kelinayotgan ta’lim texnologiyalari turlari, bu texnologiylaraning imkoniyatlarini tushunish va baholash, boshqa texnologiyalar imkoniyatlari bilan solishtirish, ta’lim texnologiylari toifasining tahlili hamda ta’lim jarayonini texnologik qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: таълим тех нологияси, ўқитиш технологияси,педагогик технология,технологик таълим, mutaxassislar tayyorlash texnologiyasi, kasbiy va shaxsiy rivojlanish texnologiyasi, texnologik qo‘llab-quvvatlash.

ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Толипов Уткир Каршиевич
Профессор кафедры «Технология и методика профессионального образования» УзГПУ имени Низами. д.п.н.

Аннотация. В статье рассматриваются виды образовательных технологий, активно используемых в системе образования сегодня, понимание и оценка возможностей этих технологий, сравнение с возможностями других технологий, анализ категории образовательных технологий и основные направления технологической поддержки образовательного процесса.

Ключевые слова: образовательная технология, технология обучения, педагогическая технология, технологическое образование, технология подготовки специалистов, технология профессионального и личностного развития, технологическая поддержка.

FEATURES OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Tolipov Utkir Karshiyevich
Professor of the Department of «Technology and Methods of Vocational Education» of the Uzbek State Pedagogical University named after Nizami.

Abstract.The article discusses the types of educational technologies actively used in the education system today, understanding and evaluating the capabilities of these technologies, comparing them with the capabilities of other technologies, analyzing the category of educational technologies, and the main directions of technological support for the educational process.

Key words: educational technology, teaching technology, pedagogical technology, technological education, technology of training specialists, technology of professional and personal development, technological support.

Maktab va oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilarining pedagogik lug‘atiga “texnologik ta’lim”, “o‘qitish texnologiyasi”, “pedagogik texnologiya”, “ta’lim texnologiyasi”, “mutaxassislar tayyorlash texnologiyasi”, “kasbiy va shaxsiy rivojlanish texnologiyasi” tushunchalari kirib keldi. Biroq, hozirgi vaqtda “texnologiya” atamasi o‘quv amaliyotida o‘z geografiyasini faol ravishda kengaytirmoqda, shuning uchun ta’limda texnologik yondashuvning kontseptual apparati asosini tashkil etuvchi “pedagogik texnologiya”, “o‘qitish texnologiyasi”, “ta’lim texnologiyasi” kabi turli xil ma’no va qadriyatlarni, shuningdek, ushbu atama bilan bog‘liq bo‘lgan eng umumiy tushunchalarni aniqlab olish zarur.

Nima uchun “ta’lim texnologiya” atamasiga murojaat qilamiz? Qaysidir ma’noda rejalarimizni amalga oshirish uchun foydalanamiz? Bu savollarga quyidagi javoblarni olishimiz mumkin:

allaqachon ma’lum bo‘lgan texnologiyaning imkoniyatlarini tushunish va baholash, uni boshqa texnologiyalar imkoniyatlari bilan solishtirganda belgilangan maqsadga erishish;

o‘quv amaliyotiga muayyan texnologiyani joriy etish va uni qo‘llash samaradorligini baholash;

yangi texnologiyani loyiha shaklida ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish. Fan va o‘quv amaliyotida “texnologiya” atamasining paydo bo‘lishi texnologik yondashuvni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liqligi;

pedagogik jarayon sub’ektlarini o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish muammolarini hal qilish (natijada “pedagogik texnologiya” atamasi paydo bo‘ldi, u pedagogik vazifalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda – o‘qitish texnologiyasi, tarbiya texnologiyasi, ta’lim texnologiyasini o‘z ichiga oladi);

ta’lim jarayoni sub’ektlarining axborot bilan ishlashi (ko‘chirish, saqlash, qidirish, tizimlashtirish va boshqalar), buning natijasida o‘quv amaliyotida axborot texnologiyalari faol qo‘llanila boshlandi;

o‘quv jarayonini tashkil etish (zamonaviy “ta’lim texnologiyasi”dan foydalanish);

Fanda “ta’lim texnologiyasi” atamasining bir ma’noli talqini mavjud emas, bu ko‘p jihatdan muammoning murakkabligi va texnologik yondashuvni o‘quv amaliyotiga tatbiq etish usullarining ko‘p yo‘nalishliligi bilan bog‘liq. “Ta’lim texnologiyasi” tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra “polisemantikdir”. Bu shuni anglatadiki, u ob’ektiv ravishda bir nechta atama va ma’nolarga ega bo‘lib, turli kontekstlarda qanday atama va ma’noda ishlatilishiga qarab tushunilishi mumkin.

Pedagogik texnologiya. Ko‘pgina manbalarda texnologiya rejalashtirilgan pedagogik jarayonni tashkil etuvchi, ma’lum bir ketma-ketlikda, ma’lum bir tartibda amalga oshiriladigan operatsiyalar majmui sifatida ta’riflanganligi sababli, “pedagogik texnologiya” tushunchasining eng umumiy talqini qo‘yilgan pedagogik maqsadga erishishning bosqichma-bosqich va takrorlanadigan jarayonining kategoriyasi sifatida tanilgan. Bu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, pedagogik texnologiya faqat qo‘yilgan pedagogik vazifaga erishishni ta’minlovchi vositalar tizimi emas, balki bunday vositalar ma’lum bir mantiqda, bosqichma-bosqich qo‘llanilishi va bir xil pedagogik vazifalarni hal qilishda turli o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilishi kerak.

V.P. Bespalko shunday yozadi: “Pedagogik texnologiya - bu oldindan ishlab chiqilgan ta’lim jarayonini amaliyotga tizimli va izchil joriy etishdir”. Uning fikricha, pedagogik texnologiya muayyan pedagogik tizimning amaliyotda amalga oshirilgan loyihasidir. Bu shuni anglatadiki, pedagogik texnologiya ilmiy loyihalash natijasida paydo bo‘lishi mumkin va loyihaning o‘zi takroriy takrorlash qobiliyatiga ega bo‘lgan va muayyan pedagogik maqsadga erishishda muvaffaqiyatni kafolatlaydigan harakatlar tizimidir, shuning uchun u pedagogik maqsadni amalga oshirishning mazmunli texnikasi sifatida tushuniladi»[2].

V.A. Slastenin pedagogik texnologiyaga ham xuddi shunday ta’rif beradi - o‘qituvchining pedagogik muammolarni hal qilishga qaratilgan izchil, o‘zaro bog‘langan harakatlari tizimi yoki oldindan ishlab chiqilgan pedagogik jarayonni amaliyotda tizimli va izchil amalga oshirishdir[3].

Pedagogik texnologiyalarning shunga o‘xshash ta’riflarini (kichik o‘zgarishlar bilan) boshqa ishlarda ham topish mumkin. Pedagogik texnologiyani tushunishda eng mashhur pozitsiyalarni ajratib ko‘rsatamiz, bular:

sub’ektni o‘zgartiruvchi pedagogik faoliyat sxemasi;

pedagogik jarayon samaradorligini oshirish uchun ob’ektlar, texnikalar, vositalar, hodisalar, munosabatlardan maqsadli foydalanish;

pedagogik muammolarni hal qilish uchun odamlar, o‘qitish usullari va jihozlaridan tizimli foydalanish;

pedagogik maqsadga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, instrumental va uslubiy vositalarning tizimli to‘plami va ishlash tartibi;

amaliyotda amalga oshirilgan muayyan pedagogik tizim loyihasi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, “pedagogik texnologiya” atamasi texnologiya xususiyatlariga ega bo‘lgan o‘qituvchining harakatlar tizimini tavsiflaydi (qo‘yilgan maqsadga erishish kafolati, ushbu harakatlarni bir xil ketma-ketlikda va bir xil usullar bilan takrorlash qobiliyati, ushbu tizimning samaradorligini tasdiqlash uchun maxsus diagnostikaning mavjudligi). Pedagogik texnologiyani tavsiflashda, qoida tariqasida, pedagogik faoliyat loyihasi belgilanadi.

Shu ma’noda, pedagogik texnologiya deganda ilmiy asosda ishlab chiqilgan pedagogik jarayonning loyihasi (butun ta’lim muassasasi darajasida, individual o‘qituvchining kasbiy faoliyati yoki muayyan pedagogik vazifa) tushuniladi, u turli holatlarda bashorat qilingan natijani olish uchun samarali bo‘ladi:

■ bu butun o‘quv jarayonining loyihasi yoki faqat, masalan, maktab darsi yoki seminarni o‘tkazish jarayoni;

■ axloqiy tarbiya jarayoni yoki, masalan, muayyan o‘quv intizomi orqali talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;

■ ta’lim dasturi yoki modulli darslikni ishlab chiqish jarayoni;

■ ko‘p madaniyatli ta’lim muhitida o‘smirlar yoki talabalar bilan pedagogik muloqot jarayoni.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya konsepsiyasi o‘qituvchining (pedagog yoki o‘qituvchining) ma’lum kasbiy harakatlari bilan bog‘liq bo‘lib, unga ma’lum bo‘lgan va u tomonidan o‘zlashtirilgan mexanizmni maqsadga erishish yoki qo‘yilgan vazifani amalga oshirish jarayoni sifatida muayyan pedagogik jarayonning mantiqiy rivojlanishi uchun ongli ravishda o‘z ichiga oladi.

O‘qitish texnologiyasi. Ma’lumki, “texnologiya” atamasi dastlab rejalashtirish va ta’lim maqsadlariga yanada muvaffaqiyatli erishish uchun ishlatilgan. YuNESKOning 1986-yildagi ta’rifiga ko‘ra, o‘qitish texnologiyasi – bu texnologik va inson resurslarini hisobga olgan holda o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli usuli bo‘lib, uni tashkil etish shakllari va usullarini optimallashtirishga qaratilgan ta’lim jarayoni. M.V. Klarin “o‘quv texnologiyasi” tushunchasini “to‘liq takrorlanadigan o‘quv majmuasi” bilan tenglashtiradi[4]. U o‘quv texnologiyasining yuqoridagi ta’rifini aniqlab, diagnostik ravishda belgilangan maqsadga aniq yo‘naltirilgan holda o‘quv jarayonini tashkil etishning takrorlanadigan usullarini tushunishni taklif qiladi. Bu ta’lim maqsadlarining to‘liq to‘plamini, ularni o‘lchash va baholash mezonlarini tanlashni va o‘quv sharoitlarini aniq tavsiflashni o‘z ichiga oladi. Muallif ta’kidlashicha, ta’limga texnologik yondashuv belgilangan boshlang‘ich sozlamalar asosida o‘quv jarayonini loyihalash orqali amalga oshiriladi: ijtimoiy tartib, ta’lim yo‘riqnomalari, maqsadlari va ta’lim mazmunidan tashkil topadi.

Ta’limga innovatsion yondashuvlarni hisobga olgan holda, M.V. Klarin ularni ikkita asosiy turga ajratadi:

1) reproduktiv faoliyatni optimallashtirishdan iborat bo‘lgan o‘rganishga texnologik yondashuvga asoslangan innovatsiyalar;

2) xarakterini ta’minlashga va izlanish o‘quv va kognitiv faoliyatini tashkil etishga qaratilgan innovatsiyalar[5].

Xususan, ta’lim texnologiyalari deganda amaliy didaktika sohasi (V.P. Bespalko, P.I. Pidkasisti, N.F. Talizina va boshqalar) tushunila boshlandi. Shu ma’noda ta’lim texnologiyalarining predmeti o‘quv jarayonini mazmun darajasida qurish, o‘quv jarayoni ishtirokchilarining mazmun bilan va bir-biri bilan o‘zaro munosabati shakllari, o‘quv faoliyati natijalarini nazorat qilish va baholashdan iborat. Bunday texnologiyalar o‘quv jarayoni sharoitida sub’ektlarning real faolligini aks ettiruvchi o‘quv amaliyotining aniq sharoitida ideal o‘quv jarayonini amalga oshirish usullarini tushuntiradi
.

Ta’lim texnologiyasining boshqa talqinlari ham mavjud:

■ma’lum bir didaktik tizimni amalga oshirishni ta’minlovchi o‘qitish usullari majmui (E.S.Polat);

■ qo‘yilgan ta’lim maqsadlariga erishishning eng oqilona, ilmiy asoslangan usullarini aniqlash

(N.F. Talizina);

■ ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik va kadrlar resurslari hamda ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda o‘qitish va o‘qitishning butun jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli usuli (YuNESKO);

■ moddiy resurslar va sharoitlardan kelib chiqqan holda o‘qituvchilar va talabalarning birgalikdagi faoliyatini tizimli ravishda tashkil etish usuli (N.N. Surtaeva);

■ ta’lim jarayonini dasturlash, amalga oshirish va baholash usuli (B. Skinner);

■ ta’lim jarayonini amalga oshirishning mazmunga asoslangan texnikasi (V.P.Bespalko);

■ talabalar va o‘qituvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni so‘zsiz ta’minlagan holda o‘quv jarayonini loyihalash, tashkil etish va amalga oshirish bo‘yicha birgalikdagi pedagogik faoliyatning puxta o‘ylangan modeli (V.M. Monaxov);

■ o‘quv jarayonida o‘zaro ta’sir qilish san’ati (N.E. Shchurkova);

■ rejalashtirilgan ta’lim natijasiga erishish jarayonining tavsifi (I.P. Volkov);

■ didaktik tizimning ajralmas protsessual qismi (M.A. Choshanov);.

G.K. Selevko o‘qitish texnologiyasini uch jihatda ko‘rib chiqadi.

1. Maqsad, mazmun va ilmiy jihatni o‘rganish va ishlab chiqish o‘qitish usullari va pedagogik jarayonlarni loyihalash.

2. Protsessual-tavsifiy jihat. Jarayonning tavsifi (algoritmi), rejalashtirilgan o‘quv natijalariga erishish uchun zarur bo‘lgan maqsadlar, mazmun, usullar va vositalar to‘plami.

3. Protsessual-samarali jihat. Ta’lim jarayonini amalga oshirish, barcha shaxsiy, instrumental va uslubiy pedagogik vositalarning ishlashix[10].

V.S. Kukushkin ta’lim texnologiyasining tarkibiy tizim toifasi qismlarini quyidagicha aniqladi[11]:

■ o‘quv maqsadlari;

■ ta’lim mazmuni;

■ pedagogik o‘zaro ta’sir vositalari;

■ o‘quv jarayonini tashkil etish;

■ talaba, o‘qituvchi;

■ faoliyat natijalari.

Ushbu maqolada biz o‘qitish texnologiyasini yaxlit didaktik tizimni loyihalash va amaliyotga joriy etish jarayoni sifatida tushunishga amal qilamiz. Didaktik tizimni amalga oshirish loyihasida o‘qitishning maqsadlari texnologik jihatdan belgilanishi, mazmuni tizimli ravishda taqdim etilishi, ma’lum tashkiliy shakl doirasida o‘qitish usullarini qo‘llash mantig‘i va o‘quv jarayoni sub’ektlarining o‘zaro ta’siri usuli aniqlanishi kerak, o‘quv ma’lumotlarini o‘zlashtirish natijalarini baholash ketma-ketligi ma’lum bir uslubiy nazorat shakli bilan belgilanishi kerak.

“Pedagogik texnologiya” va “o‘qitish texnologiyasi” atamalari ma’no jihatidan “ta’lim texnologiyasi” atamasiga yaqin, lekin sinonim emas. Ta’lim texnologiyasi - bu ta’lim jarayonining bir varianti bo‘lib, unda ma’lum bir bilim sohasining intizomiy qiyofasiga, o‘quv jarayonining tashkiliy tuzilishiga, o‘quv jarayoni sub’ektlari faoliyatining xususiyatlariga yoki ularning o‘zaro ta’siri xarakteriga e’tibor qaratish mumkin. Ya’ni, ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayonini loyihalash va ushbu loyihani o‘quv amaliyotiga tatbiq etish bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi.

“Ta’lim texnologiyalari” iborasi o‘qituvchilar va boshqa fanlar (o‘quvchilar, talabalar, tadqiqotchilar, ma’muriyat) faoliyatida texnologiyalarning imkoniyatlarini ta’minlaydigan samarali va samarali faoliyatning biron bir o‘ziga xos turi bilan bog‘liq bo‘lmagan umumiy atama sifatida ishlatiladi. Ya’ni, ta’lim amaliyotida muayyan faoliyat turini samarali tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari terminologiyada mustahkamlangan bo‘lsa, unda “texnologiya” atamasi qo‘llaniladi: o‘qitish texnologiyasi, ta’lim texnologiyasi, boshqaruv texnologiyasi, mustaqil faoliyatni tashkil etish texnologiyasi, aloqa texnologiyasi, loyihalash va ma’ruza o‘qish texnologiyasi va boshqalar.

Biroq, har qanday ta’lim texnologiyasining muhim xususiyati ta’lim jarayoni sub’ektlarining

faoliyati va o‘zaro ta’sirining tabiatiga, shundan keyingina mazmuni, predmeti yoki shartlariga urg‘u berishdir. Ta’lim jarayonining sub’ektlari sifatida faqat bitta yoki ikkala sub’ekt, jumladan, guruh - sinf, talabalar guruhi yoki auditoriya, o‘qituvchilar yoki o‘qituvchilar guruhi yoki pedagogik xodimlar ishtirok etishi mumkin.

“Ta’lim texnologiyasi” toifasini tahlil qilishda biz yana bir xususiyatga e’tibor qaratamiz: uni ikki jihatda - konstruktiv va funksional idrok etish mumkin.

Konstruktiv jihat – ta’lim texnologiyasining ma’lum bir modelga va muhim xususiyatlarga muvofiqligi;

Funksional jihati – ularni ta’lim muhitida qo‘llashda real ehtiyojlarni qondirishni bildiradi.

Ta’lim texnologiyalarining xilma-xilligining kelib chiqishi va sabablarini tushunishning turli usullari mavjud. Variantlardan biri – ta’lim jarayonini texnologik qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash.

O‘quv jarayonini texnologik qo‘llab-quvvatlashning birinchi yo‘nalishi - bu doimiy o‘zgaruvchan ta’lim mazmunini - ilmiy bilimlarni, dunyo haqidagi ma’lumotlarni, inson faoliyati ob’ektlari va usullarini va boshqalarni o‘tkazish va o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan maktab soatlarida o‘qituvchilar va talabalar yoki o‘qituvchilar va talabalarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishni texnologik takomillashtirish va optimallashtirishdir. Bir sinf muammolarini hal qilishda ta’lim texnologiyalari yordamida maqsadlar - o‘quv muammolari yoritilgan. Bunga muammoli va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari, intensiv va modulli, o‘yinli va dasturlashtirilgan, shaxsiy yo‘naltirilgan va masofaviy ta’lim kabi taniqli va yangi texnologiyalar yordam beradi.

Zamonaviy ta’limni texnologik qo‘llab-quvvatlashning ikkinchi yo‘nalishi - yangi axborot texnologiyalari va global axborotlashtirish imkoniyatlariga tayanish. Bu o‘quv jarayonini texnik jihozlash va o‘qituvchi funksiyalarining bir qismini texnik vositalar, kompyuterlar va internetga o‘tkazish bilan bog‘liq.

Bu ma’lum darajada pedagoglar, o‘qituvchilar va laborantlar ishini loyihalash va texnik jihatdan ta’minlash va avtomatlashtirish darajasini oshiradi xamda izlash va tanlash jarayonida turli xil mazmun va murakkablikdagi ma’lumotlarni o‘quvchilar yoki talabalar uchun qulayroq qiladi.

O‘quv jarayonini texnologik qo‘llab-quvvatlashning uchinchi yo‘nalishi ijtimoiy texnologiyalarni o‘qituvchilar tomonidan muloqot qilish, hamkorlik qilish, birgalikda yaratish, rag‘batlantirish, diagnostika qilish texnologiyalarini o‘zlashtirish orqali, shuningdek, turli xil maqom va madaniyatdagi odamlar bilan muloqot qilish texnikasini o‘zlashtirish, o‘zini o‘zi bilish, o‘zini o‘zi baholash va o‘zini o‘zi o‘qitish orqali o‘quv jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari jarayoniga ijtimoiy texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq talablardir.

O‘quv jarayonini texnologik ta’minlashning to‘rtinchi yo‘nalishi o‘quvchilar yoki talabalarni ta’lim va muloqot, bilish va o‘z-o‘zini rivojlantirish sub’ektlari sifatida rivojlanishini ta’minlaydigan vositalar va shartlarning maqbul tizimini izlash bilan bog‘liq. Ushbu yo‘nalish bilan bog‘liq holda, ta’lim muhiti shaxsiy va kasbiy rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini boshqarishga chiqish haqida gapirish mumkin. O‘quv fanlari va ta’lim muhitining imkoniyatlari orqali shaxsning ma’lum individual-shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish zamonaviy olimlar va amaliyotchilarning e’tibori va qiziqishlari sohasida ko‘rishimiz mumkin.

Samaradorlikka e’tibor qaratishda o‘quv jarayonini texnologik ta’minlashning muhim bo‘g‘ini ta’lim natijalari sifatini monitoring qilish va aniqlash uchun maqsadlar va texnologiyalar taksonomiyasining mavjudligi bo‘ladi. Bu ta’limning nazorat va baholash komponentiga nisbatan texnologik yondashuvni amalga oshirishning beshinchi yo‘nalishi. Bunday holda, texnologiyalar olingan ta’lim natijalarini kuzatish va tashkiliy, insoniy, ijtimoiy va boshqa omillar (yangi darsliklar, yangi pedagogik texnologiyalar, yangi o‘quv intizomi, o‘qitish uslubi, o‘qituvchi shaxsiyati, ta’lim muhiti va boshqalar) o‘quvchilar yoki talabalarning o‘zlarini ushbu jarayonga jalb qilish orqali ushbu

natijalarga qanchalik ta’sir qilishini aniqlash tartibi sifatida qo‘llaniladi.

Shunday qilib, o‘quv jarayonining texnologik tabiati - bu sub’ektlarning (o‘qituvchi va talaba, pedagog va (yoki) talaba) ma’lumot, aloqa yoki ma’lum, belgilangan sharoitlarda, o‘zi bilan o‘quv yoki kasbiy faoliyat sub’ekti rolida o‘zaro ta’siri bilan faoliyatining konstruktiv sxemasi ko‘rinishidagi standartlashtirishning tavsifidir.

Ta’lim texnologiyasini sub’ektlarning ulardan biri yoki boshqasi tomonidan belgilangan ta’lim maqsadiga erishish bilan bog‘liq harakatlar tizimi sifatida tushunish ularni o‘quv muhiti sharoitida emas, balki kutubxona, laboratoriya, uy sharoitida yoki dala yoki ishlab chiqarish amaliyotida qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Xuddi shu sababga ko‘ra, ta’lim texnologiyalari tinglash va bahslash, ilmiy va o‘quv ma’lumotlarini qidirish, o‘quv ma’lumotlarini kompyuterda qayta ishlash yoki tizimlashtirish, o‘quv dasturi yoki darslikni loyihalash yoki ekspertizadan o‘tkazish , ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish, diplom loyihasini yozish va himoya qilish, kasbiy va shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy, ilmiy yoki kasbiy qobiliyatlarni o‘zlashtirish sifatini baholash va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim amaliyotida qo‘llaniladigan texnologiyalarning ta’rifiga bir nechta pozitsiyalardan yondashish mumkinligini ta’kidlaymiz.

1. Empirik jihat maktab o‘qituvchisi yoki universitet o‘qituvchisi faoliyatida protsessual xususiyat sifatida: sub’ektlar tomonidan ma’lum ketma-ketlikda va ma’lum tartibda amalga oshiriladigan, belgilangan maqsadga erishish jarayonini tashkil etuvchi operatsiyalar majmui. Ko‘rib turganimizdek, “texnologiya” tushunchasi protsessual xususiyatdir. Bu shuni anglatadiki, o‘quv amaliyotida qo‘llaniladigan har qanday texnologiya o‘z maqsadiga ko‘ra, maqsadli va maxsus tashkil etilgan jarayonning xususiyatlarini va uni tashkil etish mantig‘ini ochib beradi.

2. Nazariy jihat prognostik xususiyat sifatida: ilmiy asosda ishlab chiqilgan, qo‘yilgan maqsadga erishish bo‘yicha faoliyat loyihasi, amaliyotda aniq bashorat qilingan natijani olish uchun samarali bo‘lgan protseduralar (u o‘quv jarayoni loyihasimi, rivojlanish jarayonimi, ta’lim va rivojlanish jarayonlarimi, ta’lim va tarbiya jarayonimi, pedagogik muloqotmi). Xuddi shu maqsadga turli usullar va vositalar, ya’ni turli texnologiyalar yordamida erishish mumkin.

3. Ta’lim jarayoni sub’ektlari harakatlarining yaxlit tizimini loyihalash va uni amaliyotga tatbiq etishning nazariy va amaliy jihatlarining birligi. Shu bilan birga, diagnostika maqsadlari shakllantiriladi, ularga erishish bosqichlari va vositalari asoslanadi, yakuniy va oraliq (maqsadga erishishning har bir bosqichida) natijalarni nazorat qilish va baholash tizimi belgilanadi va har bir bosqichda o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari bilan o‘zaro munosabatlarning xususiyatlari ilmiy asoslanadi.

4. Normativ jihat. Texnologiya qo‘yilgan maqsadga erishishda tegishli (rejalashtirilgan) ta’sirni ta’minlash uchun bajarilishi kerak bo‘lgan aniq moddiy va protsessual harakatlar to‘g‘risida sub’ekt uchun ko‘rsatma ma’lumotlariga aylantirilgan nazariy ma’lumotlarni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Blauberg I.V., Yudin E.G. Stanovlenie i sущnost sistemnogo podxoda. M.: Nauka, 1973. S. 4.
2.Bespalko V.P. Slagaemые pedagogicheskoy texnologii. M., 1989. S. 5..
3. Slastenin V.A., Isaev I.F., Miщenko L.I., Shiyanov Ye.N. Pedagogika. M.: Shkola, 2002.S.9
4.Klarin M.V. Innovatsii v obuchenii: metaforы i modeli (Analiz zarubejno go opыta). M.: Nauka, 1997. S. 17.
5.Klarin M.V. Innovatsii v mirovoy pedagogike: Obuchenie na osnove issledovaniya, igrы i diskussii (Analiz zarubejnogo opыta). Riga: Eksperiment, 1998. S. 9.
6. Polit Ye.S., Kuxarkina M.Yu., Moiseeva M.V., Petrov L.Ye. Novыe pedagogicheskie i informatsionnыe texnologii v sisteme obrazovaniya : ucheb, posobie dlya stud. ped. vuzov i sistemы povыsheniya kvalif. ped. kadrov / pod red. V.S. Polat. M.: Akademiya, 2001. S. 27.
7.Talыzina N.F. Upravlenie protsessom usvoeniya znaniy. M : MGU, 1975.
8.Volkov I.P. Rukovoditelyu o chelovecheskom faktore. L.: Lenizdat, 1989.
9.Choshanov M.A.Didakticheskoe konstruirovanie gibkoy texnologii obucheniya. Pedagogika. 1997. № 2. S. 21-29.
10.Selevko G.K. Sovremennыe obrazovatelnыe texnologii. M.: Narodnoe obrazovanie. 1998.
11.Pedagogicheskie texnologii: uchebnoe posobie dlya studentov ped. spesialnostey /pod red. V.S. Kukushkina. Rostov n/d: Mart, 2002.

IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARI: SHARQ VA G‘ARB TAJRIBASI

B.J. Umarov,
p.f.n. v.b. professor

Annotatsiya: maqola Sharq va G‘arb mamlakatlarida ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslarini tahlil qiladi. Tadqiqotda ijtimoiy himoya kontseptsiyasi, uning nazariy va amaliy jihatlari, shuningdek, mamlakatlarning madaniy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlariga ko‘ra huquqiy mexanizmlarning shakllanishi o‘rganilgan. Sharq mamlakatlarida diniy va an’anaviy qadriyatlar asosida, G‘arb mamlakatlarida esa ijtimoiy davlat konsepsiyasi va konstitutsiyaviy huquqlar doirasida ijtimoiy himoya tizimi rivojlanishi ko‘rib chiqiladi. Maqolada qiyosiy tahlil yordamida Sharq va G‘arb tajribasining umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, zamonaviy davrda ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish istiqbollari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy himoya tizimi, huquqiy asoslar, Sharq mamlakatlari, G‘arb mamlakatlari, ijtimoiy davlat, qiyosiy tahlil, konstitutsiyaviy huquqlar.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОПЫТ ВОСТОКА И ЗАПАДА

Б.Ж. Умаров
к.п.н, и.о профессор

Аннотация: Статья анализирует правовые основы системы социальной защиты в странах Востока и Запада. Исследование охватывает концепцию социальной защиты, ее теоретические и практические аспекты, а также формирование правовых механизмов в зависимости от культурных, политических и экономических условий стран. В странах Востока социальная защита развивалась на основе религиозных и традиционных ценностей, в странах Запада – в рамках концепции социального государства и конституционных прав. В статье проводится сравнительный анализ общих и специфических особенностей восточного и западного опыта, а также рассматриваются перспективы совершенствования системы социальной защиты в современном мире.

Ключевые слова: система социальной защиты, правовые основы, страны Востока, страны Запада, социальное государство, сравнительный анализ, конституционные права.

LEGAL FOUNDATIONS OF SOCIAL PROTECTION: EASTERN AND WESTERN EXPERIENCE

B.J. Umarov
PhD, Professor

Abstract: The article analyzes the legal foundations of the social protection system in Eastern and Western countries. The study covers the concept of social protection, its theoretical and practical aspects, as well as the formation of legal mechanisms according to the cultural, political, and economic conditions of each country. In Eastern countries, social protection developed based on religious and traditional values, whereas in Western countries, it evolved under the concept of the social state and constitutional rights. The article provides a comparative analysis of the common and distinctive features of Eastern and Western experiences and examines prospects for improving social protection systems in the modern era.

Keywords: social protection system, legal foundations, Eastern countries, Western countries, social state, comparative analysis, constitutional rights.

Kirish: Ijtimoiy himoya tizimi har bir davlatning ijtimoiy barqarorligi va fuqarolarning

farovonligini ta’minlovchi muhim institutlardan biridir. Ushbu tizim, asosan, aholini iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy xavf-xatarlardan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, moliyaviy va ijtimoiy mexanizmlardan iborat. Sharq va G‘arb mamlakatlarida ijtimoiy himoya tizimi turli tarixiy, madaniy va siyosiy omillarga ko‘ra shakllangan.

Sharq mamlakatlarida ijtimoiy himoya asosan diniy va an’anaviy qadriyatlar, oilaviy tizim va mahalliy jamiyat institutlari orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, G‘arb mamlakatlarida bu tizim ko‘proq konstitutsiyaviy huquqlar, ijtimoiy davlat tamoyillari va davlat siyosati asosida rivojlangan. Shu sababli, Sharq va G‘arb tajribasini qiyosiy tahlil qilish nafaqat ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslarini chuqur tushunishga, balki zamonaviy global sharoitda uni takomillashtirishga ham imkon beradi.

Maqola maqsadi – Sharq va G‘arb mamlakatlarida ijtimoiy himoya tizimining huquqiy asoslarini qiyosiy tahlil qilish va ularning umumiy hamda o‘ziga xos jihatlarini aniqlash. Tadqiqotning dolzarb jihati shundaki, globalizatsiya va iqtisodiy transformatsiya jarayonida ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish masalalari har ikki sivilizatsiya uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

“Yangi O’zbekistonda bugungi kunda jahondagi kamdan-kam davlatlar qatorida yuksak, barqaror sur’atlar bilan o’sib, odamlarning kundalik turmushi, hayoti har tomonlama obod va farovon bo’lib bormoqda”. Xalqimizning farovon turmush kechirishi dalatimiz olib borayotgan adolatli siyosatning natijasidir. Prezidentimiz tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq ishlab chiqilgan rivojlanishning besh tamoyili mustahkam dastur bo’lib xizmat qildi. Unda kuchli ijtimoiy siyosat tamoyii mustaqillik jarayonida xalqimizning ijtimoiy muhofaza muxtoj qatlami manfaatlarini himoya quroli hisoblandi. Prezidentimiz, -»Bugungi kunda Konstitutsiyamiz muhrlab qo’ygan tamoyillarni amalga oshirish yo’lidan dadil qadamlar qo’yib borayotganimiz, davlat qurilishi, ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va gumanitar sohalarda biz amalga oshirayotgan keng ko’lamli islohotlar va demokratik yangilanishlar, axoli turmush darajasi va sifatining jadal o’sib, yurtimiz qiyofasi, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o’rni butunlay o’zgarib borayotgani barchamizga katta g’urur va iftixor bag’shlaydi deb ko’rsatib o’tdilar . Mavzuning dolzarbligi ham ana shu mustaqillik jarayonida ijtimoiy himoya ilmiy taxlil etilayotganidir. Ijtimoiy himoya deganda davlat va jamiyat tomonidan aholi, ayniqsa, ehtiyojmand qatlamlarga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatish, ularning ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi tushuniladi. Bugungi kunda ijtimoiy himoya nafaqat yordam ko‘rsatish, balki aholining sifatli hayot kechirishi, ijtimoiy tenglik, iqtisodiy barqarorlik va fuqarolarning huquqlarini ta’minlashning asosiy kafolati sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ijtimoiy himoya tizimi tarixan turli bosqichlardan o‘tgan. Uning ildizi ibtidoiy jamiyatdagi o‘zaro yordam shakllaridan boshlanib, dastlabki xayriya tashkilotlari, diniy va jamoaviy yordam tizimlari orqali davlat tomonidan tashkil etilgan rasmiy tizimlargacha yetib borgan. XX asrga kelib, ko‘plab davlatlarda ijtimoiy himoya mustaqil ijtimoiy institut sifatida shakllandi va davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi.

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy o‘zgarishlar davrida ijtimoiy himoya tizimi yanada murakkablashib, yangi mexanizm va strategiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Ijtimoiy himoya nafaqat zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, balki jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, aholi salohiyatini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash vositasi sifatida qaraladi.

Tarixiy jihatdan Sharq va G‘arb mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoyalashning an’anaviy shakllari mavjud bo‘lgan. Qadimgi davr va o‘rta asrlarda bu yordam oila, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalliy jamoa, kasb-hunar yoki ishlab chiqarish uyushmalari, diniy muassasalar orqali amalga oshirilgan. Masalan, O‘rta Osiyo ilmiy-madaniy markazlariga aylangan IX–XIII asrlarda yashab ijod etgan mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy va Xo‘ja Bahovuddin Naqshbandiy insonni jismoniy va ruhiy holatidan qat’i nazar, moddiy farovonlikni yaratish qobiliyatiga ega ekanligini ta’kidlab, o‘zini boqimandalikka bog‘lamaslikni maslahat berishgan. Shu bilan birga, Abu Ali Ibn Sino

va Ahmad Yassaviy kabi olimlar yordamga muhtojlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini yaxshilash orqali jamiyat barqarorligini ta’minlash zarurligini ta’kidlaganlar.

Bugungi kunda ham ijtimoiy himoya tizimi davlat siyosatining muhim qismi sifatida, xususan O‘zbekiston Respublikasida jismoniy yoki psixik kamchiliklari bo‘lgan bolalar va boshqa yordamga muhtoj guruhlar huquqlarini ta’minlash orqali amalga oshirilmoqda. Bu tizim insonparvarlik, g‘amxo‘rlik va ijtimoiy adolatni mustahkamlash vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa, ijtimoiy himoya tizimi tarixiy rivojlanish jarayonida jamiyatning turli qatlamlariga yordam ko‘rsatish va barqarorlikni ta’minlashni maqsad qilgan. Sharq va G‘arb tajribalarini qiyosiy tahlil qilish bu tizimning huquqiy asoslarini chuqur tushunish va zamonaviy sharoitda uni yanada takomillashtirish imkonini beradi.

Tasavvuf ta’limotida xalq manfaati, zaif qatlamlarning haq-huquqlarini himoyalash g’oyalari keng tarqalgan. Shu jihatdan Xo’ja Ahmad Yassaviy (1041–1166/1167) o‘z hikmatlarida oddiy xalq, yo’qsillarni butun qatlam sifatida ta’riflab, ularni «g’ariblar», «yetimlar», «faqirlar» deb atagan va mulkdorlarni aynan shu qatlamlarga nisbatan g’amxo’r bo‘lishga chaqirgan. Tasavvuf ta’limotining ayrim tariqatlari o‘z zamonasida taraqqiyparvarlik ruhida bo‘lib, ijtimoiy ojiz qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashga intilgan.

O‘rta asrlarning rivojlangan ikkinchi bosqichi (XIV–XVI asrlar) ga kelib, Temuriylar davrida ijtimoiy himoya siyosati davlat tomonidan tizimli tarzda amalga oshirilgan. Amir Temur (1336–1405) saltanatida qashshoqlikni kamaytirish maqsadida muhtojlar sonini aniqlab, ularga nafaqalar belgilagan. U farmonlar orqali har bir shahar va qishloqda masjid, madrasa, langarxona, g’aribxona va shifoxonalar qurdirib, ularda ishlash uchun malakali xodimlar tayinlagan. Amir Temur nafaqat nazariy ko‘rsatmalar bergan, balki ularning ijrosini nazorat qilib, keng qamrovli amaliy ishlarni ro‘yobga chiqarishga e’tibor qaratgan.

Amir Temurning avlodlari Shohruh Mirzo (1377–1447) va Mirzo Ulug’bek (1394–1449) ham ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirishda davom etgan. Ular mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni o‘rganib, narx-navo va soliq tizimini tartibga solgan, talabalarni o‘qish saviyasiga qarab stipendiya bilan ta’minlagan. Bu tadbirlar temuriylar davrida ijtimoiy muhofaza davlat ahamiyatiga molik ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Alisher Navoiy (1441–1501) jamiyat tuzilishi va turli tabaqalarni o‘rganib, 32 xil ijtimoiy qatlamni ta’riflagan. U kambag’allar, beva-bechoralar, yetim-yesirlar va muhtojlarni alohida qayd etgan, ularning qashshoqlikdan chiqishlariga yordam berish va ijtimoiy muhofazalashga qaratilgan xayriya inshootlarini – rabot, ko‘prik, hammom, masjid, madrasa, xonaqoh va shifoxonalarni qurdirgan. Masalan, «Xolisiya» xonaqohida zaifa va miskinlarga kunlik tekin oziq-ovqat ulashish tartibi joriy etilgan. Shu bilan birga, bunday yordam mehnat qobiliyatiga ega muhtojlarda boqimandalik kayfiyatini shakllantirmasligi uchun doimiy ravishda mehnatga undash tizimi ham muhim hisoblangan.

O‘rta Osiyoda ijtimoiy himoya nafaqat davlat siyosati bilan bog‘liq, balki mahalliy an’analar va jamoaviy hayot shakllari bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Aholi qadimdan mahallalarda yashab, o‘zaro birdamlik va hamdardlik ko‘nikmalarini rivojlantirgan. Mahallalar, elatlar va jamoalar aholining o‘zaro g’amxo‘rlik qilish tajribasini jamlagan va asrlar davomida bu an’ana saqlanib kelgan. Masalan, Qoraqalpog‘istonda «koshebiy»lar, Xorazmda «elat»lar mahalla kabi faoliyat yuritgan va o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini davom ettirgan.

Shu tariqa, tasavvuf g’oyalari va temuriylar davridagi ijtimoiy siyosat O‘rta Osiyo mamlakatlarida zaif qatlamlarni himoya qilish va jamiyat barqarorligini ta’minlashning tarixiy asoslarini tashkil etadi.

O‘zbekiston hududida mahallalar Somoniylar (IX–X asrlar) va Qoraxoniylar (XI asrlar) davrida mavjud bo‘lgan, hozirgi kunda esa ko‘pchilik mahallalar XIV–XV asrlarda shakllangan. Mahallaning markazi – guzar, aholi uchun eng zarur madaniy-maishiy va xo‘jalik inshootlarini jamlagan: masjid, maktab, choyxona, mehmonxona, nonvoyxona, sartaroshxona, do‘konlar,

karvonsaroy, shuningdek Ramazon oyida «Bozori shab», boshqa kunlarda «Bozori subh» deb ataluvchi bozorcha va mahalla ellikboshisining mahkamasi mavjud bo‘lgan.

Mahallani boshqarish qat’iy tartib asosida amalga oshirilgan, rahbar – amin, xalq tomonidan saylangan va keng vakolatlarga ega bo‘lgan. U soliqlarni yig‘ish, mulkiy va oilaviy nizolarni hal qilish, mahalla obodligini nazorat qilish, hudud aholisi xavfsizligi va osoyishtaligini ta’minlash, savdo muassasalari ishini nazorat qilish kabi masalalarni amalga oshirgan. Amin xazinadan maosh olgan va ish vaqti chegaralanmagan. Jamoa ahamiyatiga ega masalalar o’nboshilar bilan kelishilgan holda hal qilingan.

Mahalla hududidagi turli inshootlarni ta’mirlash, chorvani boqish kabi ishlar jamoatchilik ishtirokida amalga oshirilgan. Kam ta’minlangan va muhtoj kishilar jalb etilib, ularga oz bo‘lsada daromad manbai va o‘zini-o‘zi ta’minlash imkoniyati yaratilgan. Mehnat qobiliyatiga ega bo‘lmagan nogironlar, yetim-yesirlar va qariyalar holidan xabar olish har bir mahalla a’zosi uchun farz hisoblangan. Ularning oilaviy bayramlari, dafn marosimlari va boshqa tadbirlarini qarindosh va qo‘shnilar bilan birgalikda o‘tkazish an’anaga aylangan.

Soliqlardan tushgan mablag‘lar mahalla tasarrufiga berilib, muhtojlarga xayr-ehson qilish, obodonchilik ishlarini amalga oshirishda ishlatilgan. Boy kishilar va tadbirkorlar xayriya pullarini mahalla masjidi bilan hamkorlikda muhtoj oilalarni ta’minlashga yo‘naltirgan. Amin va masjid mutavallisi yetim-yesirlar, tulbevalar, batraklar va majruhlar ro‘yxatini olib, Hayit va juma kunlari ularga taom tarqatgan. Shu tariqa, mahalla davlatga og‘irlik tushmasdan, o‘zini-o‘zi boshqaradigan ijtimoiy tuzilma sifatida faoliyat yuritgan.

XX asrning birinchi choragida mahallalar asosan 50–60 xonadondan tashkil topib, yirik shaharlarda dahalar tarkibiga kirgan. Shu davrda ham mahalla o‘zini-o‘zi boshqarish va muhtoj qatlamlarga g’amxo‘rlikni davom ettirgan. O‘rta Osiyoda mehnat qobiliyatiga ega bo‘lmagan, imkoniyati cheklangan qatlamlarni – yetim-yesirlar, beva-bechoralar, qariyalar, nogironlarni – ijtimoiy himoya shariat va diniy qonun-qoidalar, insonparvarlik va saxovat shaklida amalga oshirilgan.

Mahalla nafaqat jamoaviy turmush tarzining ajralmas qismi, balki millatning uyushqoqligini ta’minlovchi va o‘zligini saqlovchi muhim institutsional birlik bo‘lib qolgan. Tarixiy rivojlanish jarayonida tuzumlar o‘zgarishiga qaramay, mahalla hudud aholisi ijtimoiy va madaniy hayotni tashkil etishda doimiy rol o‘ynab, ijtimoiy himoya tizimining barqarorligini ta’minlab kelgan.

Muhokoma va natija. O‘zbekiston hududida mahallalarning shakllanishi va faoliyati Sharq mamlakatlarida ijtimoiy himoya tizimining qadimiy ildizlarini namoyon etadi. Somoniylar va Qoraxoniylar davridan boshlab mavjud bo‘lgan mahallalar, XIV–XV asrlarda bugungi ko‘rinishini olgan bo‘lib, ularning markazi – guzar aholining madaniy, maishiy va xo‘jalik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Mahalla faollari, amin va mutavallilar yetim-yesirlar, nogironlar, beva-bechoralar va boshqa muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta’minlashda faol rol o‘ynagan.

Muhokamada ko‘rinib turibdiki, mahalla tizimi o‘zini-o‘zi boshqaruvchi institut sifatida davlatga yuk bo‘lmasdan, jamoaviy birdamlik va adolat tamoyillariga asoslangan. Mahallalardagi xayriya va yordam an’analari, jumladan, Hayit va juma kunlarida tarqatiladigan taomlar, xonadonlararo yordam va obodonchilik ishlari, mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan muhtojlarni ishlashga jalb etish orqali iqtisodiy mustaqillikni ta’minlash, ijtimoiy himoyaning ilg‘or shakllaridan hisoblanadi.

Shuningdek, tasavvuf g’oyalari va temuriylar davrida olib borilgan ijtimoiy siyosat ijtimoiy himoya tizimining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Xo’ja Ahmad Yassaviy va boshqa mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan insonparvarlik va xalq manfaati uchun xizmat qilish g’oyalari, Amir Temur va avlodlari tomonidan keng qamrovli amaliy tadbirlar orqali mustahkamlangan. Bu tajribalar jamiyatning turli qatlamlarini himoya qilish va barqaror rivojlanishga erishish uchun mahalliy va davlat tizimlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, O‘rta Osiyoda mahallalar nafaqat aholi turmushining ajralmas qismi, balki ijtimoiy muhofazani amalga oshirishning muhim institutidir. Ular jamoaviy birdamlik, o‘zaro yordam va adolat tamoyillarini mustahkamlash orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlagan.

O‘zbekiston hududidagi mahallalar va Sharq mamlakatlaridagi tasavvuf g’oyalari asosidagi ijtimoiy himoya tizimi ijtimoiy muhofazaning tarixiy ildizlarini ochib beradi. Mahallalar o‘zini-o‘zi boshqaruvchi va muhtoj qatlamlarga yordam beruvchi institut sifatida faoliyat yuritgan, shuningdek davlat siyosati bilan uyg‘unlashgan. Tasavvuf ta’limotidagi insonparvarlik, xalq manfaati va adolat tamoyillari mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy himoya vazifalarini mustahkamlashda asos bo‘lgan.

Shu tariqa, tarixiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, mahalla va diniy-ta’limiy institutlar o‘rta asrlarda ijtimoiy himoya tizimining samarali shakllarini yaratishda muhim rol o‘ynagan. Bu tizimlar nafaqat muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlagan, balki jamoaviy birdamlikni, ijtimoiy adolatni va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda uzviy vosita bo‘lgan. Bugungi kunda ham mahalla institutining mazmuni va ruhiyati zamonaviy ijtimoiy himoya siyosatida qadriyatlarga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Sharq mamlakatlarida, xususan O‘zbekistonda, ijtimoiy himoya tizimi tarixan mahalla institutlari va tasavvuf ta’limoti g’oyalari bilan mustahkamlangan. Mahallalar o‘zini-o‘zi boshqaruvchi institut sifatida nafaqat muhtoj qatlamlarga yordam ko‘rsatgan, balki jamoaviy birdamlik, adolat va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynagan. Tasavvuf mutafakkirlari va temuriylar davridagi amaliy tadbirlar esa ijtimoiy himoya tizimining ilg‘or shakllarini yaratishga xizmat qilgan.

Tarixiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, mahallalar va diniy-ta’limiy institutlar jamiyatning zaif qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta’minlash va umumiy barqaror rivojlanish uchun samarali vosita bo‘lgan. Bugungi kunda ham mahalla institutining qadriyatlari va amaliyoti zamonaviy ijtimoiy himoya siyosatida qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa sifatida, Sharq tajribasi ijtimoiy himoya tizimining tarixiy ildizlarini, jamoaviy birdamlik va insonparvarlik tamoyillarini, davlat va mahalla instituti hamkorligini namoyon etadi, bu esa zamonaviy davrda ijtimoiy himoyani takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 21 martdagi PF-1369-sonli “Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 12 iyuldagi PQ-172-sonli “Ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 29 sentyabrdagi PF-4799-sonli “Aholining ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar” Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 apreldagi PQ-4311-sonli “Ijtimoiy himoya va nafaqalar tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” Qarori.

Barulin V. Sotsialnaya filosofiya. – M.: Fair-Press, 1999. – 181 s.

Spenser N. The Evolution of Society. – Chicago, 1967. – R. 5.

Ibn Sino. Tib qonunlari. T.3. – Toshkent: Xalq merosi, 1992. – 304 s.

Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Xalq merosi, 1993.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. T.4. – Toshkent: Qomuslar, 1997.

Saidova G. Sotsialnaya politika pravitelstva Uzbekistana v perexodnom periode: dostizheniya i problemy // Ekonomicheskoye obozreniye. – Toshkent, 1998. – №1. – S. 15.

Govorukhina L., Dorokhova Ye. Mirovoy opyt stanovleniya sistemy sotsialnoy zashchity naseleniya i yeye evolyutsiya v usloviyakh smeshannoy ekonomiki // Vestnik KazGU. – Almaty, 1999.

Yusupov B. Stanovleniye i razvitiye ekonomicheskoy nauki. – Bishkek: Uchkun, 1999. – 62 s.

J. Sotsiologiya. – Samarqand: SamQXI, 2000.

DUAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI

Umurov Zarif Latifboyevich,
Buxoro davlat pedagogika instituti professori,
pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
https://orcid.org/0000-0001-5021-964X

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda dual ta’lim modelining strategik zarurati va istiqbollari ilmiy-nazariy hamda me’yoriy-huquqiy asoslar doirasida yoritilgan. Unda zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va mehnat bozorida raqobat kuchayishi sharoitida pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish, nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan uzluksiz tayyorgarlikni ta’minlash masalalari tahlil qilingan. Dual ta’limning “4+2” mexanizmi asosida tashkil etilishi, OTM–maktab–amaliyot rahbari hamkorligi hamda “bir ustozga bir talaba” tamoyilining kasbiy kompetentlilikni real sinf muhitida shakllantirishdagi didaktik imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, dual ta’limni joriy etishdagi muammolar (hamkorlik barqarorligi, amaliyotga rahbarlik sifati, nazariya–amaliyot uzilishi, baholash va resurs cheklovlari, raqamli kompetensiyalar) tahlil qilinib, ularni bartaraf etishga doir ilmiy-amaliy yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: dual ta’lim, “4+2” mexanizmi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kasbiy kompetentlilik, nazariya va amaliyot integratsiyasi, OTM–maktab hamkorligi, amaliyot rahbari, “bir ustozga bir talaba” tamoyili, pedagogik amaliyot, mezonli monitoring, baholash va diagnostika, portfel (portfolio), refleksiv kundalik, raqamli boshqaruv platformasi, didaktik ta’minot.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДУАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

Умуров Зариф Латифбоевич,
профессор Бухарского государственного педагогического института,
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

Аннотация: В статье в рамках научно-теоретических и нормативно-правовых оснований раскрываются стратегическая необходимость и перспективы дуальной модели обучения в развитии профессиональной компетентности будущего учителя начальных классов. Проанализированы вопросы повышения качества подготовки педагогических кадров в условиях современного социально-экономического развития и усиления конкуренции на рынке труда, усиления интеграции теории и практики, а также обеспечения непрерывной практико-ориентированной подготовки. Обоснованы дидактические возможности организации дуального обучения на основе механизма «4+2», сотрудничества «вуз – школа – руководитель практики» и принципа «один наставник – один студент» в формировании профессиональной компетентности в реальной классной среде. Кроме того, рассмотрены проблемы внедрения дуального обучения (устойчивость сотрудничества, качество руководства практикой, разрывы между теорией и практикой, ограничения оценивания и ресурсов, цифровые компетенции) и предложены научно-практические решения по их преодолению.

Ключевые слова: дуальное обучение, механизм «4+2», будущий учитель начальных классов, профессиональная компетентность, интеграция теории и практики, сотрудничество «вуз – школа», руководитель практики, принцип «один наставник – один студент», педагогическая практика, критерийный мониторинг, оценивание и диагностика, портфолио, рефлексивный дневник, цифровая платформа управления, дидактическое обеспечение.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF DUAL EDUCATION

Umurov Zarif Latifboyevich,
Professor at the Bukhara State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences.

Annotation: The article examines the strategic necessity and future prospects of the dual education model in developing the professional competence of future primary school teachers within scientific-theoretical and regulatory-legal frameworks. It analyzes the need to improve the quality of teacher training in the context of modern socio-economic development and increasing labor market competition, to strengthen the integration of theory and practice, and to ensure continuous practice-oriented preparation. The didactic potential of organizing dual education based on the “4+2” mechanism, the “university–school–practice supervisor” cooperation model, and the “one mentor – one student” principle in shaping professional competence within a real classroom environment is substantiated. Furthermore, the article identifies key challenges in implementing dual education (stability of institutional cooperation, quality of practice supervision, gaps between theory and practice, assessment and resource constraints, and digital competencies) and proposes scientific and practical solutions for their elimination.

Keywords: dual education, “4+2” mechanism, future primary school teacher, professional competence, theory–practice integration, university–school partnership, practice supervisor, “one mentor – one student” principle, pedagogical practice, criterion-based monitoring, assessment and diagnostics, portfolio, reflective journal, digital management platform, didactic support.

Kirish. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va globallashuv sharoitida ta’lim xizmatlari sifatiga bo‘lgan talab kuchayib, mehnat bozori raqobatbardosh, amaliy tayyorgarligi yuqori pedagog kadrlarni taqozo etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim tizimi uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida kasbiy kompetentlilikni real sinf muhitida shakllantirish, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash hamda uzluksiz amaliy yo‘nalgan tayyorgarlikni tashkil etish strategik zarurat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, dual ta’lim modeli (xususan, “4+2” mexanizmi) bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini mezonli monitoring, amaliyotga rahbarlik va hamkorlik mexanizmlari asosida izchil rivojlantirish imkonini beruvchi istiqbolli didaktik tizim sifatida ilmiy asoslashni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlash jarayonining strategik ahamiyati shundaki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi keyingi ta’lim bosqichlari uchun tayanch bo‘ladigan asosiy kompetensiyalarni (savodxonlik, mantiqiy tafakkur, nutq madaniyati, ijtimoiy faollik, o‘qishga motivatsiya) shakllantiradi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlash jarayoni nafaqat predmet bilimlariga, balki pedagogik mahorat, metodik tayyorgarlik, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish kompetensiyasi, sinfni boshqarish ko‘nikmasi, pedagogik muloqot va refleksiya kabi murakkab kasbiy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi talab etiladi. Biroq an’anaviy ta’lim tizimida nazariy tayyorgarlikning ustunligi, amaliyotning cheklanganligi va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishda uzilishlarning mavjudligi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini yetarli darajada rivojlantirishda muayyan muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Aynan shu nuqtai nazardan, dual ta’lim modeli strategik yechim sifatida ilgari surilmoqda.

Dual ta’limning strategik zarurati, avvalo, uning ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirishga qaratilganligi bilan asoslanadi. Ilmiy manbalarda dual ta’lim ta’lim oluvchining kasbiy tayyorgarligida nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlab, kompetentlikni real faoliyat asosida shakllantirish imkonini berishi qayd etiladi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchi OTMda egallagan bilimlarini maktab sharoitida amaliyotda sinab ko‘radi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qiladi, dars jarayonini rejalashtiradi va o‘z kasbiy ko‘nikmalarini real sinf

muhitida takomillashtiradi. Natijada kasbiy kompetentlilik nazariy bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki amaliy harakatda namoyon bo‘ladigan integrativ xususiyat sifatida shakllanadi.

Shuningdek, dual ta’limning strategik zarurati ta’lim jarayonining uzluksizligi va amaliy yo‘nalganligini ta’minlash bilan ham belgilanadi. Bu jihat mamlakatimizda ta’lim sohasini isloh qilishga qaratilgan normativ hujjatlarda ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’limning amaliy yo‘nalganligini kuchaytirish, ta’lim shakllarini zamonaviylashtirish va ta’lim sifatini oshirish kabi vazifalar belgilanganligi dual ta’limni strategik rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratadi [1].

Dual ta’limning strategik zarurati, ayniqsa, pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida “4+2” mexanizmi asosida tashkil etilishi bilan yanada kuchayadi. Mazkur mexanizm bo‘lajak o‘qituvchining haftaning ma’lum qismida OTMda nazariy tayyorgarlik olishi, qolgan qismida esa umumta’lim maktablarida amaliyot o‘tashi orqali kasbiy kompetentlilikni izchil va uzluksiz ravishda rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida dual ta’lim shaklidan keng foydalanish hamda “4+2” tartibini tatbiq etish belgilanganligi dual ta’limni strategik rivojlantirish yo‘nalishining davlat siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Bunda dual ta’limning istiqboli va strategik zarurati “OTM–maktab–amaliyot rahbari” hamkorligi mexanizmini tizimli tashkil etish bilan ham izohlanadi. Dual ta’lim modelida OTM o‘quv-metodik va nazariy tayyorgarlikni tashkil etuvchi muassasa sifatida, umumta’lim maktabi real pedagogik amaliyot maydoni sifatida hamda amaliyot rahbari tajriba va metodik yordam manbai sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu hamkorlikning simmetrik mexanizmi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini yaxlit tizimda shakllantiradi. Ayniqsa, amaliyotga rahbarlik asosida talabaning dars jarayoni tahlil qilinishi, metodik xatolar tuzatilishi va refleksiv rivojlanish jarayonining boshqarilishi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini kuchaytiradi [7].

Dual ta’limni strategik rivojlantirish zarurati bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini baholash va monitoring qilish jarayonlarini ham takomillashtirish ehtiyoji bilan bog‘liqdir. Chunki dual ta’lim sharoitida pedagogik faoliyat natijalari muntazam kuzatib boriladi, portfel, refleksiv kundalik, kuzatuv varaqalari hamda baholash mezonlari asosida baholanadi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini faqat yakuniy imtihon orqali emas, balki amaliy jarayon davomida mezonli monitoring asosida aniqlash imkonini beradi.

Shu jihatdan, dual ta’lim strategik zarurat sifatida pedagogik ta’limda natijadorlikka yo‘naltirilgan baholash tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, dual ta’limning strategik zarurati raqamli transformatsiya jarayonlari bilan ham bog‘liqdir. Ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish, amaliyotni monitoring qilish va boshqarishning elektron mexanizmlarini joriy etish, ma’lumotlar asosida tahlil va prognoz yuritish dual ta’limning istiqboldagi samaradorligini oshiradi.

Demak, dual ta’limni rivojlantirishning strategik zarurati quyidagi omillar bilan asoslanadi: birinchidan, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va raqobatbardosh bo‘lajak o‘qituvchilarni shakllantirish ehtiyoji; ikkinchidan, nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish orqali kasbiy kompetentlilikni real sinf sharoitida rivojlantirish zarurati; uchinchidan, “4+2” mexanizmi orqali amaliyotga yo‘naltirilgan uzluksiz tayyorgarlikni tashkil etish imkoniyati; to‘rtinchidan, OTM–maktab–amaliyot rahbari hamkorligini tizimlashtirish va amaliyot rahbari orqali kasbiy ko‘nikmalarni mustahkamlash zarurati; beshinchidan, kompetentlikni mezonli monitoring va baholash asosida aniqlash hamda raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etish ehtiyoji. Mazkur omillar dual ta’limni nafaqat tashkiliy model, balki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi istiqbolli didaktik tizim sifatida strategik asoslashga imkon beradi.

Dual ta’limni rivojlantirishning istiqbollari, avvalo, uning mamlakatimizda ta’lim siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanayotgani hamda mazkur yo‘nalishning izchil me’yoriy-huquqiy asoslar bilan mustahkamlanayotganligi bilan tavsiflanadi. Dual ta’limni rivojlantirishning

normativ-huquqiy istiqboli ta’lim sohasidagi ustuvor vazifalar belgilangan hujjatlardan boshlanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ–637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy ta’lim shakllarini joriy etish hamda kadrlar tayyorlash jarayonini mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutishi bilan dual ta’limni keng rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi [1]. Mazkur qonun doirasida ta’limning amaliy yo‘nalganligini kuchaytirish, ta’lim jarayonining natijadorligini oshirish va ta’lim xizmatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilanganligi dual ta’limning institutsional istiqbollarini yanada kengaytiradi.

Dual ta’lim istiqbolining huquqiy mustahkamlanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi 14-son “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan yanada tizimlashtirildi. Ushbu qaror asosida “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom” tasdiqlangan bo‘lib, unda dual ta’limning maqsad va vazifalari, tashkil etish mexanizmlari, ishtirokchilar (OTM, korxona/tashkilot, talaba) majburiyatlari hamda o‘quv jarayonining amaliy yo‘nalganligi bilan bog‘liq asosiy talablar belgilab berilgan [5]. Ushbu Nizomda dual ta’limning maqsadi sifatida talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ishlab chiqarish yoki tashkilot faoliyatida tajriba orttirish, kasbiy qiziqish va ijodiy faollikni rivojlantirish hamda raqobatbardoshlikni oshirish kabi vazifalar qayd etilganligi uning istiqboldagi rivojlanishini amaliy natija bilan bog‘lab beradi.

Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil 25-fevraldagi 77-sonli buyruq qabul qilingan bo‘lib, unda dual ta’limni tashkil etish bo‘yicha oliy ta’lim tashkilotlari rahbarlari zimmasiga aniq tashkiliy vazifalar yuklatilgan. Buyruqda dual ta’limni Nizom talablari asosida tashkil etish, korxona–talaba–OTT o‘rtasida uch tomonlama shartnoma tuzish, o‘quv-metodik hujjatlar va o‘quv jarayoni jadvalini tasdiqlash, korxonadagi amaliy mashg‘ulotlar dasturini kelishish, shuningdek, dual ta’lim jarayonini tizimli yo‘lga qo‘yish bo‘yicha majburiyatlar belgilangan [6]. Bu esa dual ta’limni rivojlantirish istiqboli bevosita boshqaruv, hujjatlashtirish va mas’uliyat mexanizmlari bilan mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 11- maydagi PF-134-son “2022 — 2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab pedagog kadrlarni tayyorlash yo‘nalishida kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari, 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab 3-4-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tash mexanizmini joriy qilish belgilangan. [2; 3].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF–73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining 12 bandida Pedagog kadrlar tayyorlash mazmuni maktabgacha va maktab ta’limi dasturlari mazmuni bilan uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash maqsadida dual ta’lim shaklidan keng foydalanish hamda haftalik o‘quv mashg‘ulotlarini “4+2” tartibida tashkil qilish mexanizmini takomillashtirish uchun pedagog kadrlar tayyorlash ta’limi jarayonlarini dual ta’lim shaklida tashkil etish tartibini ishlab chiqish. Bunda: “4+2” tartibida pedagogik amaliyotni “bir ustozga bir talaba” tamoyili asosida tashkil etish hamda ta’lim dasturlarida “4+2” tartibida pedagogik amaliyot 3-4 bosqich talabalariga joriy etilishini nazarda tutish amalga oshirish mexanizmi sifatida kiritilgan [4].

Bundan tashqari mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi

vazirining 2025-yil 20-avgustdagi 301-son “Pedagog kadrlar tayyorlashda ta’lim jarayonlarini dual ta’lim shaklida tashkil qilish mexanizmlarini hamda talabalar bilimini baholash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘ining qabul qilinishi pedagogik oliy ta’lim tashkilotlarida dual ta’limning amaliy joriy etilish istiqbollarini kuchaytiradi [7]. Ushbu hujjat asosida pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida malakaviy pedagogik amaliyotni “4+2” tartibida tashkil etish hamda ta’lim jarayonida dual ta’limdan foydalanish tartiblari ham belgilab berilganligi dual ta’limning istiqboldagi institutsional barqarorligini ta’minlaydi.

Shu jihatdan, dual ta’limning normativ-huquqiy istiqboli aynan pedagogik ta’limdagi kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish g‘oyasi bilan bevosita uyg‘unlashadi. Dual ta’limning normativ-huquqiy istiqbolini mustahkamlovchi yana bir muhim yo‘nalish pedagogik amaliyotni tashkil etish masalalari bilan bog‘liq hujjatlar tizimidir. Oliy ta’lim muassasalarida amaliyotning maqsadi, mazmuni va muddati ta’lim yo‘nalishining davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalar hamda amaliyot dasturlari bilan belgilanishi, amaliyot bazalari bilan shartnomalar asosida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, hamda amaliyot natijalarini kredit tizimi asosida baholash kabi talablar amaliyotning tashkiliy va didaktik jihatdan asoslanganligini ko‘rsatadi.

Bu esa dual ta’lim istiqboli bilan pedagogik amaliyotni normativ boshqarish mexanizmlarining uyg‘unlashib borishini anglatadi. Shuningdek, amaliyotning kasbiy tayyorgarlikni oshirish, nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va talabaning tanlagan kasbiga ongli yondashuvini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy manbalarda asoslab berilgani ham mazkur yo‘nalishning istiqbolli ekanligini tasdiqlaydi.

Dual ta’lim tizimining normativ-huquqiy istiqboli ta’lim mazmunini ham ish beruvchilar ehtiyojlari asosida boyitish va qayta loyihalashni talab etadi. Bunda ta’lim dasturlarining maqsadlari, ta’lim jarayoni ishtirokchilari va ularning vazifalarini aniq belgilash, dual ta’lim shartnomasi orqali tomonlarning mas’uliyatini mustahkamlash, amaliyotga rahbarlik nizomi orqali murabbiylik tizimini tartibga solish, hamkorlik jadvali orqali o‘zaro munosabatlarni reglamentlashtirish kabi talablar dual ta’limni huquqiy-me’yoriy jihatdan yanada kuchli tizimga aylantirish istiqbolini belgilaydi.

Shu bilan birga, dual ta’limning normativ istiqboli uni faqat tashkiliy tartib sifatida emas, balki ta’lim natijalarining samaradorligini ta’minlovchi didaktik model sifatida shakllantirish bilan ham bog‘liqdir. Ilmiy manbalarda nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning bosqichma-bosqich muvozanati ta’lim jarayonini samarali va natijador qilishini hamda dual ta’limning amaliyotga joriy etilishi ta’lim tizimi uchun istiqbolli qadam ekanligi qayd etilgan. Bu esa dual ta’limning huquqiy asoslari bilan bir qatorda, uning didaktik natijadorlikka xizmat qiluvchi istiqbollari ham mustahkamlanayotganini anglatadi.

Muhokama.

Dual ta’lim tizimini rivojlantirishning istiqbollari, eng avvalo, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari o‘rtasida barqaror hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va uni institutsional jihatdan mustahkamlash bilan bevosita bog‘liqdir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonida hamkorlik va amaliyotga rahbarlik mexanizmini takomillashtirish dual ta’limning istiqboldagi asosiy strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy shakllanishi amaliy pedagogik vaziyatlar, sinf muhitiga moslashuv, o‘quvchilar bilan kommunikativ munosabatlarni yo‘lga qo‘yish hamda tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish kabi murakkab jarayonlarni o‘z ichiga olganligi sababli mazkur jarayonni faqat OTM auditoriyalarida shakllantirish cheklangan natija beradi. Shu bois dual ta’limda hamkorlik aloqalari bo‘lajak o‘qituvchining amaliy faoliyatga tayyorlanishini kafolatlaydigan didaktik va tashkiliy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Dual ta’limdagi hamkorlik mexanizmi istiqboli, avvalo, OTM va umumta’lim maktabi o‘rtasida institutsional hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashni talab etadi. Mazkur hamkorlikning

barqarorligi shartnoma asosida o‘zaro majburiyatlarni belgilash, amaliyot bazalarini oldindan tanlash, ta’lim jarayonini integratsiyalashgan reja asosida tashkil etish, o‘quv mashg‘ulotlarini amaliyot bilan uzviy bog‘lash hamda o‘quv natijalarini birgalikda monitoring qilish orqali ta’minlanadi. Dual ta’limni tashkil etish bo‘yicha normativ hujjatlarda ham OTM va tashkilotlar hamkorligi, ularning vazifalari, ta’lim jarayoniga mas’uliyati hamda nazorat mexanizmlarining belgilanishi hamkorlik tizimini mustahkamlash istiqbollariga huquqiy asos yaratadi.

Hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida dual ta’limda o‘quv jarayonini rejalashtirishda OTM va maktabning o‘zaro kelishuvini ta’minlash hamda amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv mazmunini birgalikda ishlab chiqish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligi OTMda o‘rganiladigan nazariy bilimlar hamda maktab amaliyotida bajariladigan real pedagogik vazifalar uyg‘unligida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, hamkorlik mexanizmi istiqbolda integratsiyalashgan mashg‘ulotlar tizimini yaratish va ularni amaliyot bilan uzviy bog‘lash orqali yanada takomillashishi zarur. Bu esa dual ta’limni didaktik tizim sifatida mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dual ta’lim sharoitida hamkorlik tizimini rivojlantirish istiqbollari amaliyotga rahbarlik institutini kuchaytirish bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Amaliyotga rahbarlik tizimi dual ta’limning muhim tarkibiy bo‘g‘ini bo‘lib, u bo‘lajak o‘qituvchi uchun amaliy jarayonning pedagogik yo‘naltiruvchisi va didaktik boshqaruvchisi sifatida xizmat qiladi. Bunda amaliyot rahbari bo‘lajak o‘qituvchining dars jarayonini kuzatadi, metodik tavsiyalar beradi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishga yo‘naltiradi, refleksiya va teskari aloqa orqali talabaning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Shuning uchun amaliyotga rahbarlik tizimini takomillashtirish dual ta’limning istiqboldagi samaradorligini oshiradigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Amaliyotga rahbarlik tizimining istiqbollari, birinchi navbatda, amaliyot rahbari faoliyatini metodik jihatdan reglamentlashtirish va uning samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan tavsiflanadi. Amaliyot jarayonida talabaning kasbiy shakllanishi ko‘p jihatdan amaliyot rahbarining pedagogik tajribasi, metodik kompetensiyasi va hamkorlik madaniyatiga bog‘liq bo‘lgani sababli amaliyot rahbarlarini tayyorlash, ularning malakasini oshirish, metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash va faoliyatini monitoring qilish zarur bo‘ladi. Bu jarayonda “bir ustozga bir talaba” tamoyilini keng joriy etish, amaliyot rahbari–talaba munosabatining individual yondashuv asosida tashkil etilishi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini sifatli rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hamkorlik va amaliyotga rahbarlik istiqbolining yana bir muhim jihati – amaliyot jarayonini nazorat qilish, baholash va monitoring mexanizmlarini hamkorlikda amalga oshirishdir. Dual ta’limda bo‘lajak o‘qituvchining amaliy faoliyati faqat OTM tomonidan emas, balki maktab va amaliyot rahbari tomonidan ham muntazam baholanadi, natijalar muhokama qilinadi hamda tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu jarayon amaliyot natijalarining obyektivligini ta’minlash va kompetentlikning rivojlanish darajasini aniq ko‘rsatish imkonini beradi. Amaliyot natijalari monitoringi hamkorlik jarayonining ajralmas bo‘g‘ini bo‘lib, u talabaning kasbiy o‘sishini boshqarish va ta’lim sifati samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Shuningdek, hamkorlik va amaliyotga rahbarlik tizimining istiqboldagi rivojlanishi dual ta’limni amalga oshirishda ishtirok etuvchi tashkilotlar o‘rtasidagi mas’uliyatni kuchaytirish bilan ham bog‘liqdir. OTMning vazifasi talabaning nazariy tayyorgarligini ta’minlash va metodik yo‘naltirish bo‘lsa, maktabning vazifasi real pedagogik faoliyatni tashkil etish va amaliy tajriba maydonini yaratishdan iborat. Amaliyot rahbari esa mazkur jarayonni bevosita boshqaruvchi va kasbiy rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlovchi subyekt sifatida maydonga chiqadi. Shu sababli hamkorlikning istiqboldagi takomillashuvi ishtirokchilar vazifalarini aniq belgilash, o‘zaro hisobdorlikni oshirish va faoliyat natijalarini baholashning shaffof mexanizmlarini yaratish bilan ifodalanadi.

Dual ta’limning istiqboldagi rivojlanishida hamkorlik va amaliyotga rahbarlik mexanizmini kuchaytirishning muhim natijasi sifatida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy

kompetentliligi real amaliyot jarayonida shakllanishi, amaliy faoliyatga moslashuv jarayoni tezlashishi, dars jarayonini samarali tashkil etish ko‘nikmalari mustahkamlanishi va kasbiy refleksiya asosida o‘z ustida ishlash motivatsiyasi kuchayishi kutiladi. Bu holat dual ta’limning strategik g‘oyasi – “ta’lim sifati va amaliy natijadorlikni oshirish”ga xizmat qiladi.

Dual ta’limni rivojlantirish istiqbollari ta’lim jarayonining mazmuni, shakllari, metodlari hamda vositalarini zamonaviy didaktik talablar asosida yangilash zarurati bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki dual ta’lim mohiyatiga ko‘ra pedagogik ta’lim jarayonini amaliy yo‘nalgan holda takomillashtirishni, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini real faoliyat sharoitida shakllantirishni, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirishni nazarda tutadi. Shu sababli dual ta’limni samarali tashkil etish faqat tashkiliy mexanizmlarni belgilash bilangina cheklanmay, balki mazkur jarayonning didaktik tizimini qayta ko‘rib chiqish, ya’ni o‘quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta loyihalashni talab etadi.

Dual ta’lim sharoitida didaktik yangilanish istiqboli, birinchi navbatda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlashda o‘quv mazmunini amaliy kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali namoyon bo‘ladi. Ya’ni pedagogik ta’lim dasturlarida nazariy bilimlar ustuvorligini saqlagan holda, ularning amaliy vazifalar bilan izchil bog‘lanishi ta’minlanishi zarur. Bunda bo‘lajak o‘qituvchi uchun kasbiy-pedagogik bilimlar, boshlang‘ich ta’lim metodikasi, tarbiyaviy faoliyat, pedagogik muloqot, sinfni boshqarish va refleksiv tahlil kabi yo‘nalishlar integratsiyalashgan mazmun sifatida rivojlantiriladi. Natijada dual ta’lim o‘quv mazmunining amaliy yo‘nalganligini kuchaytirib, talabada nazariy bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishi, ya’ni transfer mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi.

Didaktik yangilanish istiqbolining ikkinchi muhim yo‘nalishi – o‘quv jarayonining shakllarini integratsiyalashgan tarzda yangilashdir. Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayoni an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlari bilan cheklanmaydi, balki integratsiyalashgan ma’ruza-amaliy mashg‘ulotlar, seminar-treninglar, master-klasslar, pedagogik amaliyot, amaliyotga rahbarlik faoliyati, mustaqil ta’lim va refleksiv tahlil jarayonlarini o‘z ichiga olgan kompleks shaklga ega bo‘ladi. Mazkur shakllar bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonini tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirish imkonini beradi. Shu sababli istiqbolda dual ta’limni joriy etishda integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni tashkil etish shakllarini takomillashtirish didaktik yangilanishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Uchinchi yo‘nalish – dual ta’limda o‘qitish metodlarini zamonaviy didaktik talablarga mos holda yangilash istiqbolidir. Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligi faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirish orqali emas, balki muammoli vaziyatlarni hal etish, pedagogik qaror qabul qilish, amaliy faoliyatni loyihalash va refleksiya asosida rivojlanadi. Shu sababli muammoli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, keys-stadi, loyiha metodi, refleksiv tahlil, dars tahlili kabi metodlar dual ta’limning asosiy didaktik vositasi sifatida e’tirof etiladi.

Mazkur metodlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida dars jarayonini loyihalash, sinf muhitini boshqarish, o‘quvchilar motivatsiyasini shakllantirish, ta’limiy muammolarni hal qilish va pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Didaktik yangilanish istiqbolining to‘rtinchi yo‘nalishi – dual ta’lim jarayonini vositalar bilan ta’minlashni takomillashtirishdir. Dual ta’limda vositalar bo‘lajak o‘qituvchining amaliy faoliyatini boshqarish, monitoring qilish va baholash jarayonida alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunda didaktik topshiriqlar banki, elektron resurslar va taqdimotlar, portfel (portfolio), kuzatuv varaqalari, refleksiv kundalik, baholash mezonlari va jadvali kabi vositalar dual ta’limning samarali ishlashini ta’minlaydi.

Ushbu vositalar bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonini izchil qayd etish, natijalarni tahlil qilish hamda talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini belgilashda muhim didaktik mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

Didaktik yangilanish istiqbolining beshinchi yo‘nalishi – dual ta’lim sharoitida baholash va monitoring tizimini kompetensiyaga yo‘naltirilgan mezonlar asosida takomillashtirishdir. Dual ta’limning asosiy maqsadi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini real faoliyat muhitida rivojlantirish bo‘lganligi sababli baholash jarayonida ham nazariy bilimlarni tekshirish bilangina cheklanmaslik zarur. Bunda baholash mezonlari motivatsion-qadriyatli, kognitiv, faoliyat-amaliy, kommunikativ va refleksiv komponentlar asosida belgilanishi, kompetentlik darajalari (past, o‘rta, yuqori) bo‘yicha monitoring yuritilishi va natijalarga ko‘ra amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi istiqbolda dual ta’limning didaktik yangilanishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, dual ta’lim sharoitida didaktik yangilanish istiqboli pedagogik ta’limning ilmiy-metodik ta’minotini kuchaytirishni ham talab etadi. Ya’ni integratsiyalashgan o‘quv mashg‘ulotlari mazmunini ishlab chiqish, amaliyotga rahbarlik asosida amaliy faoliyatni tashkil etish, o‘quv jarayonida metodlarning samarali qo‘llanishini ta’minlash hamda monitoring jarayonini tizimli yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish dual ta’limning didaktik yangilanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri bo‘ladi.

Dual ta’limni rivojlantirishning didaktik yangilanish istiqbollari o‘quv mazmunini amaliy kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirish, integratsiyalashgan o‘quv shakllarini takomillashtirish, zamonaviy metodlarni keng joriy etish, ta’lim vositalarini tizimli qo‘llash, baholash va monitoringni kompetensiyaviy mezonlar asosida rivojlantirish hamda ilmiy-metodik ta’minotni kuchaytirish orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur yo‘nalishlar dual ta’limni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi istiqbolli didaktik tizim sifatida mustahkamlash imkonini beradi.

Dual ta’limni rivojlantirishning istiqbollari zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonini faqat tashkiliy-huquqiy jihatdan takomillashtirish bilan cheklanmay, balki uni raqamli transformatsiya asosida yangicha boshqaruv va nazorat mexanizmlari bilan ta’minlashni ham talab etadi. Dual ta’limni raqamlashtirish – tizim samaradorligini oshirish, nazariya–amaliyot integratsiyasini mustahkamlash va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda boshqaruvning zamonaviy modelini yaratish uchun muhim istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Raqamlashtirish istiqboli, avvalo, dual ta’lim jarayonida yuzaga keladigan rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Chunki amaliyot bazalari, dual dasturlar, talabalar, amaliyot rahbarlari va mashg‘ulotlar jadvali bo‘yicha katta hajmdagi ma’lumotlarni yuritish, ularni doimiy yangilab borish hamda tizimlashtirilgan statistik hisobotlarni shakllantirish dual ta’lim jarayonining uzluksiz va boshqariladigan holatda yuritilishini ta’minlaydi. Aynan shu ehtiyojlar dual ta’lim sharoitida raqamli boshqaruv platformalarini yaratish zaruratini yuzaga keltiradi.

Dual ta’limni raqamlashtirishning istiqboldagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri – monitoring va boshqaruvning raqamli mexanizmlarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etishdir. Bu borada “Dual ta’lim boshqaruv platformasi: Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish, monitoring qilish va boshqarish uchun zamonaviy axborot platformasi” kabi raqamli yechimlar dual ta’lim jarayonini tizimli boshqarishning amaliy instrumenti sifatida maydonga chiqadi. Mazkur platforma dual ta’lim jarayonlarini raqamli muhitda samarali tashkil etish, monitoring qilish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash, statistik tahlillarni shakllantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Raqamlashtirish istiqboli, shuningdek, dual ta’limning asosiy tamoyili bo‘lgan OTM–maktab–amaliyot rahbari hamkorligini muvofiqlashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiyalashgan o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, amaliyotga rahbarlik faoliyatini boshqarish, amaliyot jarayonida talabaning kasbiy rivojlanish dinamikasini kuzatib borish va refleksiv tahlilni tizimlashtirish raqamli muhit orqali ancha samarali amalga oshiriladi. Bu esa o‘z navbatida dual ta’limning didaktik imkoniyatlarini kengaytirib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kompetentlilik komponentlarini (motivatsion, kognitiv, faoliyat-amaliy,

kommunikativ, refleksiv) izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dual ta’limni raqamlashtirishning istiqbollari, yana bir tomondan, baholash va diagnostika jarayonlarini takomillashtirishga olib keladi. Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonini obyektiv baholash uchun portfel (portfolio), kuzatuv varaqalari, refleksiv kundalik, baholash mezonlari hamda jadvali kabi vositalardan foydalanish zarur hisoblanadi. Bu vositalarni raqamli platformaga integratsiya qilish esa baholashning shaffofligini oshiradi, natijalarning tizimli tahlil qilinishini ta’minlaydi hamda monitoringning uzluksizligini kuchaytiradi.

Raqamlashtirish istiqbolining muhim didaktik jihati shundaki, u dual ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligini kuchaytiruvchi ta’lim resurslaridan foydalanishni kengaytiradi. Elektron resurslar, taqdimotlar, didaktik topshiriqlar banki, raqamli metodik ko‘rsatmalar, video-darslar va interfaol materiallar dual ta’lim sharoitida talabaning mustaqil ta’lim olish faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Natijada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilish, refleksiya asosida o‘z ustida ishlash madaniyati hamda amaliy pedagogik vaziyatlarda raqamli didaktik vositalardan foydalanish kompetensiyasi shakllanadi.

Dual ta’limning raqamlashtirilishi istiqbolda ta’lim sifatini boshqarish jarayoniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, Yevropa davlatlari tajribasida ta’lim xizmatlari monitoringini tashkil etish, mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olish, hamkorlik aloqalarini kuchaytirish kabi jarayonlarda raqamli tizimlarning roli tobora ortib borayotgani qayd etiladi. Bu holat dual ta’lim jarayonini boshqarishda raqamli platformalardan foydalanish nafaqat texnik qulaylik, balki strategik zarurat ekanligini ham ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, dual ta’limni raqamlashtirish istiqbollari ma’lum muammolar va cheklovlar bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Jumladan, raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi, platforma bilan ishlash bo‘yicha pedagog va amaliyot rahbarlarining kompetensiyasi, ma’lumotlar bazasini yuritishdagi tashkiliy mas’uliyat, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari dual ta’limni raqamlashtirish jarayonida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar hisoblanadi. Biroq ushbu muammolarni bosqichma-bosqich hal etish, OTM va hamkor tashkilotlarda raqamli madaniyatni rivojlantirish, platforma orqali jarayonlarni standartlashtirish dual ta’limni raqamli muhitda samarali joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Dual ta’limni rivojlantirishning raqamlashtirish istiqbollari dual ta’lim jarayonlarini rejalashtirish–monitoring–boshqarishning raqamli mexanizmlarini yaratish, OTM–maktab–amaliyot rahbari hamkorligini muvofiqlashtirish, kompetentlikni baholash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish, statistik tahlillarni shakllantirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash orqali namoyon bo‘ladi. Aynan raqamli transformatsiya dual ta’limni zamonaviy ta’lim sifati talablariga mos ravishda takomillashtirish hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning didaktik asoslarini amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Dual ta’limni rivojlantirish istiqbollari umumiy pedagogik ta’lim tizimi uchun muhim bo‘lsa-da, uning boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi amaliy va didaktik ahamiyati alohida e’tiborga loyiqdir. Boshlang‘ich ta’lim tizimining o‘ziga xosligi shundaki, bu bosqichda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki “tarbiyachi”, “psixologik yo‘naltiruvchi”, “sinf jamoasini boshqaruvchi” hamda “o‘quvchi shaxsini shakllantiruvchi” subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Shu bois boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga qo‘yiladigan kasbiy talablar ancha kompleks xarakterga ega bo‘lib, ular o‘quv jarayonini tashkil etish bilan bir qatorda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish, sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish, tarbiyaviy ishlarni samarali olib borish, ota-ona bilan hamkorlik qilish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, tashxisiy yondashuvni qo‘llash kabi vazifalarni ham qamrab oladi. Demak, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida dual ta’limni rivojlantirish istiqbollari aynan mana shu murakkab kasbiy faoliyatga tayyorlashni real muhitda tashkil etish zarurati bilan izohlanadi.

Dual ta’limning boshlang‘ich ta’limga xos istiqboli, eng avvalo, bo‘lajak o‘qituvchini real sinf sharoitida tayyorlash imkoniyati bilan belgilanadi. Boshlang‘ich ta’limda sinf muhitini boshqarish, o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish, turli pedagogik vaziyatlarni tezkor hal etish va darsni samarali tashkil etish ko‘nikmalari faqat nazariy bilimlar orqali emas, balki amaliy tajriba asosida shakllanadi. Dual ta’lim sharoitida esa bo‘lajak o‘qituvchi OTMda olgan nazariy tayyorgarligini maktab amaliyoti bilan uyg‘unlashtirgan holda sinf jarayonida sinab ko‘radi, dars fragmentlarini bajaradi, tarbiyaviy tadbirlar tashkil etadi va o‘z kasbiy ko‘nikmalarini amaliyot rahbari kuzatuvi hamda tahlili asosida takomillashtirib boradi. Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini “real pedagogik faoliyat” orqali shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limga xos istiqbolning yana bir muhim jihati – dual ta’lim orqali bo‘lajak o‘qituvchida boshlang‘ich ta’lim metodikasini amaliyot bilan integratsiyalashgan holda o‘zlashtirish imkoniyati kuchayishidir. Boshlang‘ich sinfda darslar ko‘pincha integrativ xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida bir nechta fan bo‘yicha mashg‘ulot olib borishi, o‘qish-savod o‘rgatish, ona tili, matematika, atrof-muhit bilan tanishtirish kabi yo‘nalishlarni uyg‘unlashtira olishi talab etiladi. Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchi ana shu metodik vazifalarni real sinf amaliyotida bajarish orqali tajriba orttiradi, dars jarayonining didaktik tuzilmasini tushunadi hamda metodik yondashuvlarni sharoitga mos qo‘llashni o‘rganadi. Shu tariqa, nazariy bilimlar amaliyot orqali mustahkamlanib, kompetentlikning faoliyat-amaliy komponenti kuchayadi.

Boshlang‘ich ta’limga xos istiqbol, shuningdek, tarbiyaviy faoliyatning dual ta’lim orqali kengayishi bilan ham belgilanadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intizom, ijtimoiy xulq, axloqiy qadriyatlar, muloqot madaniyati, jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllantirishda o‘qituvchining tarbiyaviy ta’siri hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, sinf rahbari sifatida faoliyat yuritish, ota-onalar bilan pedagogik hamkorlik qilish, sinf jamoasini birlashtirish kabi ko‘nikmalarni bevosita maktab sharoitida egallaydi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda tarbiyaviy komponentning amaliy asosda shakllanishini ta’minlaydi.

Dual ta’limning boshlang‘ich ta’limga xos istiqboli kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan ham uzviy bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faoliyatida pedagogik muloqot, o‘quvchi bilan individual yondashuv asosida ishlash, kichik yoshdagi bolalar psixologiyasiga mos kommunikatsiya uslublarini tanlash, ota-ona va hamkasblar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi masalalar muhim o‘rin egallaydi. Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchi real muloqot muhiti orqali o‘z kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi, pedagogik nutqini boyitadi, sinf bilan ishlash jarayonida to‘g‘ri muloqot strategiyalarini shakllantiradi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida dual ta’limni rivojlantirish istiqbolining yana bir asosiy yo‘nalishi refleksiya va tashxisiy yondashuvni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lgani sababli o‘qituvchi doimiy ravishda tashxis o‘tkazishi, o‘quvchilarning qiyinchiliklarini aniqlashi, individual yondashuvni belgilashi va dars mazmunini moslashtirishi zarur bo‘ladi. Dual ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchi kuzatuv varaqalari, portfel, refleksiv kundalik, dars tahlili kabi didaktik vositalar asosida o‘z faoliyatini baholash va takomillashtirishni o‘rganadi. Bu esa kasbiy kompetentlilikning refleksiv komponentini kuchaytiradi hamda bo‘lajak o‘qituvchida “o‘z ustida ishlash” madaniyatini shakllantiradi.

Boshlang‘ich ta’limda dual ta’lim istiqbollarini kuchaytiruvchi muhim omillardan yana biri – innovatsion va interfaol metodlarni real sinf sharoitida qo‘llash imkoniyatining kengayishidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda muammoli vaziyatlar yaratish, o‘yin texnologiyalari, loyihaviy yondashuv, ko‘rgazmalilik, hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni qo‘llash o‘qituvchining metodik kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchi bu metodlarni nazariy jihatdan

o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki amaliyot davomida real sinf jarayonida sinab ko‘radi va amaliyot rahbari tavsiyalari asosida takomillashtiradi. Natijada metodik kompetentlikning samarali rivojlanishi uchun zarur sharoit yuzaga keladi.

Dual ta’limni rivojlantirishning boshlang‘ich ta’limga xos istiqbollari bo‘lajak o‘qituvchini real sinf sharoitida tayyorlash, metodik va tarbiyaviy faoliyatni amaliyot bilan integratsiyalash, kommunikativ hamda refleksiv kompetensiyalarni shakllantirish, tashxisiy yondashuvni rivojlantirish va innovatsion didaktik metodlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur istiqbollar dual ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning didaktik asoslarini ilmiy jihatdan kuchaytiradi hamda shart-sharoitlar, model, didaktik ta’minot va samaradorlik masalalarini asoslash uchun metodologik zamin yaratadi.

Natijalar.

Dual ta’limni rivojlantirish istiqbollari amaliy va nazariy jihatdan yuqori natijadorlik imkoniyatlarini yaratishiga qaramasdan, mazkur tizimni samarali joriy etish jarayonida qator muammolar va cheklov omillari ham yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli dual ta’limni rivojlantirish jarayonida muammolarni ilmiy asosda aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan yechimlarni ishlab chiqish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning didaktik asoslarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, dual ta’limni rivojlantirish jarayonida uchraydigan muammolardan biri hamkorlik mexanizmining barqaror emasligi bilan bog‘liqdir. Ya’ni OTM va umumta’lim maktablari o‘rtasidagi hamkorlik ayrim hollarda hujjatlarda belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda uning mazmuni va sifati bir xil darajada ta’minlanmasligi mumkin. Bu holat integratsiyalashgan o‘quv mashg‘ulotlari mazmunining bir xil yo‘lga qo‘yilmasligi, amaliyot jarayonida talabaning faoliyatiga muntazam metodik rahbarlik yetarli bo‘lmasligi va monitoringning formal xarakter kasb etishi kabi oqibatlarga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, dual ta’limni rivojlantirishning muhim vazifasi OTM–maktab hamkorligini institutsional jihatdan mustahkamlash, uning normativ talablar asosida uzluksiz boshqarilishini ta’minlashdan iboratdir.

Dual ta’limni joriy etishda uchraydigan ikkinchi muhim muammo amaliyotga rahbarlik tizimining sifat jihatdan notekisligi bilan izohlanadi. Amaliyotga rahbarlik dual ta’limning asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lsa-da, amaliyot bazasidagi barcha amaliyot rahbarlari bir xil metodik tayyorgarlikka ega bo‘lmasligi, amaliyotga rahbarlik faoliyatining standartlari to‘liq ishlab chiqilmaganligi yoki ularning monitoringi yetarli darajada amalga oshirilmasligi mumkin. Natijada bo‘lajak o‘qituvchining amaliy faoliyatini yo‘naltirish, refleksiya va teskari aloqa mexanizmlarini shakllantirish jarayonida uzilishlar kuzatilishi ehtimoli mavjud bo‘ladi. Bunday holatda yechim sifatida amaliyot rahbarlarini maxsus tayyorlash, metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash, amaliyotga rahbarlik faoliyatini rejalashtirish va baholash mezonlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Uchinchi muammo sifatida dual ta’lim sharoitida nazariya va amaliyot o‘rtasida didaktik uzilishlar yuzaga kelishi mumkinligini ta’kidlash lozim. Bunda OTMda o‘rganilayotgan nazariy kurslar mazmuni maktab amaliyoti bilan yetarli darajada uyg‘unlashtirilmagani sababli bo‘lajak o‘qituvchi nazariy bilimlarni real dars jarayoniga tatbiq etishda qiyinchilikka duch kelishi ehtimoli ortadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda metodik vazifalar, sinfni boshqarish, o‘quvchilar psixologiyasiga mos yondashuv kabi jihatlar amaliyot bilan izchil bog‘lanmasa, dual ta’limning asosiy natijadorlik g‘oyasi to‘liq ro‘yobga chiqmaydi. Shu sababli dual ta’limni rivojlantirish jarayonida integratsiyalashgan o‘quv mazmunini ishlab chiqish, OTM kurslarini maktabdagi real pedagogik vaziyatlar bilan uyg‘unlashtirish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish muhim yechim sifatida qaraladi.

To‘rtinchi muammo dual ta’lim jarayonida baholash va monitoring tizimining yetarlicha takomillashmaganligi bilan bog‘liqdir. Dual ta’limda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy

kompetentliligi real amaliyot jarayonida rivojlanishi sababli baholash jarayonining ham amaliy natijadorlikka yo‘naltirilgan bo‘lishi talab etiladi. Biroq ayrim hollarda baholash ko‘proq nazariy bilimlarni tekshirish yoki yakuniy hisobotga asoslanib qolishi mumkin. Bu esa kompetentlikning motivatsion, refleksiv, kommunikativ va faoliyat-amaliy komponentlarini obyektiv baholash imkoniyatini cheklaydi. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun kompetentlik mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish, monitoringni bosqichma-bosqich yuritish, portfel, kuzatuv varaqalari, refleksiv kundalik kabi vositalarni tizimli qo‘llash hamda baholashni “past–o‘rta–yuqori” darajalar bo‘yicha diagnostika qilish zarur hisoblanadi.

Beshinchi muammo dual ta’limni tashkil etishda resurs va tashkiliy imkoniyatlar bilan bog‘liq cheklovlar hisoblanadi. Jumladan, amaliyot bazalari yetishmovchiligi, sinf xonalari va pedagogik sharoitlarning turlicha bo‘lishi, vaqt taqsimoti, jadval muvofiqlashtirish muammolari, transport va logistika masalalari dual ta’lim jarayonining barqaror yuritilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Bu holat ayniqsa bir necha ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ishlanayotgan sharoitda yaqqol seziladi. Mazkur cheklovlarni kamaytirish uchun amaliyot bazalarini kengaytirish, hamkorlik shartnomalarini mustahkamlash, dars jadvalini integratsiyalashgan holda rejalashtirish va jarayonni boshqarishning optimallashtirilgan mexanizmlarini joriy etish zarur bo‘ladi.

Oltinchi muammo sifatida dual ta’lim jarayonida raqamlashtirish darajasining turlicha bo‘lishi va axborot tizimlaridan foydalanish kompetensiyasining yetarli emasligi qayd etilishi mumkin. Dual ta’limda monitoring, baholash va boshqaruvni samarali yuritishda raqamli tizimlardan foydalanish istiqbolli yo‘nalish bo‘lsa-da, amaliyotda platforma bilan ishlash ko‘nikmalarining sustligi, ma’lumotlarni muntazam kiritish intizomining yetishmasligi, elektron hujjatlashtirish jarayonlarining to‘liq ishlamasligi muammo bo‘lib qolishi ehtimoli mavjud. Shu sababli dual ta’limni rivojlantirish jarayonida raqamli boshqaruv mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, foydalanuvchilarga metodik ko‘mak berish, monitoring tizimini raqamli formatga o‘tkazish hamda ma’lumotlar tahlili asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish amaliyotini kuchaytirish muhim yechim sifatida qaraladi.

Xulosa.

Dual ta’limni rivojlantirish istiqbollari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini real ta’lim muhiti orqali shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim didaktik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq mazkur tizimning samaradorligi OTM–maktab–amaliyot rahbari hamkorligi barqarorligi, amaliyotga rahbarlikning metodik ta’minlanganligi, nazariya va amaliyot integratsiyasi, baholashning kompetensiyaga yo‘naltirilganligi hamda monitoringning uzluksiz boshqarilishi bilan belgilanadi. Shu sababli dual ta’limni rivojlantirish jarayonida aniqlangan muammolarni ilmiy asoslangan yechimlar orqali bartaraf etish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning didaktik asoslarini takomillashtirishga, ta’lim sifati va natijadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

O‘zbekiston Pespublikasining “Ta’lim to‘g‘pisidagi” O‘PQ-637-son Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. https://lex.uz/docs/5013007.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 11- maydagi PF-134-son “2022 — 2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-6008663

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/uz/docs/-6079561

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–73-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-7499721

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi 14-son “Oliy

ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://www.lex.uz/docs/-7332601

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 25-fevraldagi “ Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 77-sonli buyrug‘i

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 20-avgustdagi “Pedagog kadrlar tayyorlashda ta’lim jarayonlarini dual ta’lim shaklida tashkil qilish mexanizmlarini hamda talabalar bilimini baholash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 301-son buyrug‘i.

Adizov B. R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. –T.: Fan, 2007. – 218 b.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI EKSTREMISTIK MANIPULYATSIYADAN HIMOYALASH STRATEGIYALARI

Umurzoqov Feruzjon Farxodovich, Samarqand davlat chet tillar institute mustaqil izlanuvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot makonida ekstremistik g‘oyalarning yoshlar, xususan talabalar ongida manipulyativ usullar orqali singdirilish jarayoni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etib. Ekstremistik manipulyatsiyaning psixologik va ijtimoiy mexanizmlari keng yoritib beriladi, yoshlarning bu kabi ta’sirlarga moyillik omillari o‘rganilishi mumkin. Tadqiqot davomida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy bilimlarni mustahkamlash, raqamli savodxonlikni oshirish hamda oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratish ekstremistik manipulyatsiyaga qarshi mustahkam himoya sifatida asoslab beriladi. Shuningdek, talabalarda ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning ekstremizmga qarshi profilaktik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar :ekstremizm, manipulyatsiya, talabalar, yoshlar ongiga ta’sir, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, profilaktika.

STRATEGIES TO PROTECT STUDENTS FROM EXTREMIST MANIPULATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Umurzakov Feruzjon Farkhodovich, Researcher of Samarkand State Institute of Foreign

Abstract: This article scientifically and theoretically analyzes the process of instilling extremist ideas in the minds of young people, especially students, through manipulative methods in the modern information space. The psychological and social mechanisms of extremist manipulation are widely covered, and the factors that predispose young people to such influences can be studied. During the study, the development of critical thinking, strengthening legal and spiritual and educational knowledge, increasing digital literacy, and creating a healthy socio-psychological environment in higher education institutions are justified as a strong defense against extremist manipulation. The preventive importance of forming social responsibility and civic position in students against extremism is also highlighted.

Key words : extremism, manipulation, influence on students, youth, critical thinking, information security, prevention.

СТРАТЕГИИ ЗАЩИТЫ СТУДЕНТОВ ОТ ЭКСТРЕМИСТСКИХ МАНИПУЛЯЦИЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Умурзаков Ферузжон Фарходович, Независимый исследователь Самаркандского государственного института иностранных языков

В данной статье научно и теоретически анализируется процесс внедрения экстремистских идей в сознание молодежи, особенно студентов, посредством манипулятивных методов в современном информационном пространстве. Широко освещены психологические и социальные механизмы экстремистской манипуляции, изучены факторы, предрасполагающие молодежь к такому влиянию. В ходе исследования обосновано развитие критического мышления, укрепление правовых и духовно-просветительских знаний, повышение цифровой грамотности и создание здоровой социально-психологической среды в высших учебных заведениях как надежная защита от экстремистской манипуляции. Также подчеркнута профилактическая важность формирования социальной ответственности

и гражданских качеств у студентов.

Ключевые слова: экстремизм, манипуляция, влияние на студентов, молодежь, критическое мышление, информационная безопасность, профилактика.

Kirish Bugungi kunda globallashuv axborot makonining rivojlanishi ekstremistik g‘oyalar yoshlar ongida turli xil manipulyativ usullar orqali singdirilishi kabi salbiy xolatlar barchamizga ma’lum. Prezident Shavkat Mirziyoyev 1-iyuldagi farmoni bilan 2021-2026-yillarda O‘zbekistonning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha milliy strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasini tasdiqladi. “Strategiya O‘zbekistonning konstitutsiyaviy tizimini himoya qilish, milliy xavfsizlikni, shuningdek, fuqarolarning bu sohadagi huquq va erkinliklarini ta’minlash imkonini beruvchi ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha samarali va muvofiqlashtirilgan milliy siyosatni ta’minlashga qaratilgan”, Strategiyada O‘zbekistonning ekstremizm va terrorizmg monipulyatsiyasiga qarshi kurashish tajribasi, shuningdek, mintaqa davlatlarida ushbu tahdidlarga qarshi kurashish sohasidagi vaziyat tahlili shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyoda ekstremistik va terroristik faoliyat asosan millatchi, ijtimoiy, diniy va boshqa radikal siyosiy g‘oyalar niqobi ostida amalga oshiriladi. Ayniqsa talabalar ijtimoiy jihatdan faol, mustaqil fikrlash bosqichida bo‘lgan qatlam ekanligi va bunday ta’sirlarga nisbatan ko‘proq xavf ostida qolishi kabi jarayonlar achinarli albatta. Ekstremistik manipulyatsiya shaxs ongida yashirin tarzda ta’sir ko‘rsatib, hissiyotlar orqali radikal qarashlarni qabul qildirishga qaratilgan jarayon bo‘lib, u ochiq majburlashdan ko‘ra psixologik bosim, axborotni biryoqlama talqin qilish va “biz va ular” qarama-qarshiligini shakllantirish orqali amalga oshiriladi tanqidiy tafakkur qilish qobilyati sust yoshlarning bunday manipulyativ xolatlar qurboniga aylanib qolishi talabalarning ekstremistik manipulyatsiyaga moyil bo‘lishiga ota-onalar tomonidan e`tiborsizlik va ongli ravishta fikrlash yetarli darajada shakllanmaganligi, ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sezgirlik, psixologik bo‘shliq, diniy yoki siyosiy bilimlarning yuzakiligi hamda internet orqali tarqalayotgan nazoratsiz axborotlar sabab bo‘lmoqda. Shu bois talabalarni ekstremistik manipulyatsiyadan himoyalash bugungi ta’lim tizimining dolzarb vazifalari va og`riqli nuqtasidan biri bo‘lib qolmoqda. Talabalarni bunday xavflardan himoyalashning eng muhim yo‘li tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. Aslini olib qaraganda jamiyatning har bir qatlami uchun tanqidiy tafakkur qilish qobilyatini shakillantirish o‘rinlidir lekin bizning jamiyatimizning kelajagi bu talaba yoshlar hissoblanadi va kelgusi avlod uchun xam ularning dunyo qarashi tafakkuri orqali ma’lunotlar bilm ko‘nikmalar yetkaziladigan ko‘prik vasifasi ularning zimmasiga tushadi shu nuqtai nazardan talabalarga har qanday axborotni tahlil qilish, manbalarni solishtirish, savol berish va xulosani mustaqil chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish ekstremistik g‘oyalarga nisbatan ma’naviy immunitetni kuchaytirish qobilyatini ocib beradi. Shuningdek, huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy bilimlarni oshirish ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ekstremizmning jamiyat va shaxs hayotiga salbiy oqibatlari, uning huquqiy javobgarligi hamda insonparvarlikka zid jihatlarini tushuntirish orqali talabalar ongida radikal qarashlarga nisbatan salbiy munosabat shakllanadi. Ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish, ochiq muloqot maydonlarini tashkil etish, psixologik maslahatlar berish va talabalarni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilish ham ekstremistik manipulyatsiyaning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Bizning diyorda keksalar bejizga aytishmaydi bola bekor qoldimi boshi botqoqda bo‘ladi deb chunki yosh inson psixologiyasi shunday mustahkam va shunday kuchsiz bo‘ladiki ijobiy va salbiy yo‘lga boshqarish biz o‘ylagandan ko‘ra ancha onsonroq. Bundan tashqari, raqamli savodxonlikni oshirish orqali xam talabalarni feyk axborot, manipulyativ kontent va biryoqlama targ‘ibotni farqlay olishga o‘rgatish lozim. Ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish yoshlarning

ekstremistik g‘oyalarga duch kelish xavfini kamaytiradi. Talabalarni ijtimoiy va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa ta’limga moslashuv davrida ularning muammolariga befarq bo‘lmaslik, jamoaga tegishlilik hissini kuchaytirish ham radikal g‘oyalarga qarshi muhim himoya vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Manipulyatsiyadan himoyalash faqatgina taqiqlash va nazorat bilan emas, balki ularning ongini mustahkamlash, bilim va tafakkurini rivojlantirish, sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish orqali samarali amalga oshiriladi. Ta’lim muassasalari, oila va jamiyatning hamkorligi bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi desak mubolag’a bo‘lmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Tadqiqot jarayonida ekstremizmning shakllanish omillari, uning yoshlar ongiga ta’sir mexanizmlari hamda profilaktik chora-tadbirlarni turli yo‘nalishlarda tadqiq qilib borishayotgani bizga ma’lum. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda bilamizki (A.G. Asmolov, D.A. Leontyev va boshqalar) ekstremistik manipulyatsiya shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi, psixologik bo‘shliq va hayotiy maqsadlarning yetarlicha shakllanmaganligi bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi. Pedagogik yo‘nalishdagi ilmiy ishlar (V.A. Slastenin, N.D. Nikandrov) oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ekstremizmga qarshi kurashdagi o‘rni muhim ekanligini asoslab o‘tadi. Ushbu tadqiqotlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, axborot madaniyatini shakllantirish va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash ekstremistik manipulyatsiyaga qarshi samarali vosita ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Yuridik psixologiya tadqiqotlarda va ekstremizmga qarshi kurashning normativ-huquqiy asoslari keng ko‘lamdayoritiladi. Jumladan, xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar tahlili asosida ekstremistik faoliyatning oldini olishda ta’lim muassasalarining mas’uliyati alohida o‘rin egallaydi. Bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar talabalarni huquqiy ong va huquqiy madaniyat asosida himoyalash muhimligi ilgari suriladi. Mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida ham (O‘zbekiston Respublikasi olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar) yoshlarni, ayniqsa talabalarni ekstremistik g‘oyalardan himoyalashda milliy qadriyatlar, ma’naviy tarbiya va diniy bag‘rikenglik tamoyillarining muhim ekanligini ilgari suradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot talabalarni ekstremistik manipulyatsiyadan himoyalash masalasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompleks va fanlararo yondashuvlarga asoslanib, pedagogika, ijtimoiy psixologiya hamda huquqshunoslik fanlarining asosiy konseptual qoidalarini o‘z ichiga qamrab olgan. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida shaxs ijtimoiylashuvi nazariyasi, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish konsepsiyasi, axborot xavfsizligi va ekstremizmning oldini olishga doir ilmiy yondashuvlar asos qilib olinadi. Shuningdek, ekstremistik faoliyatga qarshi kurashni tartibga soluvchi milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotning muhim metodologik tayanchi bo‘lib ishlaydi. Umumilmiy metodlar sifatida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimli yondashuv qo‘llanilish orqali aniq natija olinadi. Ushbu metodlar ekstremistik manipulyatsiya tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish, mavjud ilmiy qarashlarni tahlil qilish va nazariy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Empirik tadqiqot metodlari sifatida anketa so‘rovi, pedagogik kuzatuv, suhbat va tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tajriba-sinov jarayonida ekstremistik manipulyatsiyadan himoyalashga qaratilgan pedagogik ta’sir vositalarining samaradorligi baholash mumkin bo‘ladi.

Tahlil va natijalar: Mazkur tadqiqot doirasida talabalarni ekstremistik manipulyatsiyadan himoyalash holati empirik va nazariy tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida talabalar muhitida ekstremistik g‘oyalar ta’sirining mavjudligi, ushbu ta’sirning shakllanish omillari hamda unga qarshi immunitet darajasini ko‘rishimiz mumkin.

Bosqichlar	Tadqiqot mazmuni
I-bosqich	Dastlabki diagnostika (anketa, suhbat)
II-bosqich	Tajriba-sinov dasturini joriy etish
III-bosqich	Yakuniy diagnostika va tahlil

O‘tkazilgan anketa so‘rovlari va individual suhbatlar natijalari talabalar orasida ekstremistik mazmundagi axborotlar bilan to‘qnash kelish holatlari asosan raqamli axborot makoni, xususan ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalari orqali sodir bo‘layotganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, respondentlarning ma’lum qismi bunday axborotlarning manipulyativ xarakterini aniqlashda yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emasligi namoyon bo‘ladi.

Daraja	Talabalar ulushi
Yuqori	36 %
O‘rtacha	44 %
Past	20 %

Tahlil jarayonida talabalar orasida tanqidiy fikrlash darajasi bilan ekstremistik manipulyatsiyaga moyillik o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rish mumkin. Tanqidiy tafakkur va axborot madaniyati yetarli darajada shakllangan talabalarda ekstremistik g‘oyalarga nisbatan rad etuvchi pozitsiya barqarorroq ekanligi ma`lum. Aksincha, ijtimoiy-psixologik moslashuvi sust bo‘lgan va huquqiy bilimlari yetarli bo‘lmagan talabalar guruhi nisbatan yuqori xavf darajasini namoyon bo‘ladi. Zamonaviy jamiyatda ekstremistik guruhlar o‘z g‘oyalarini ochiq targ‘ib qilishdan ko‘ra, ko‘proq yashirin va bilvosita manipulyativ ta’sir usullaridan foydalanmoqda. Bu jarayonda talabalar axborot oqimining faol ishtirokchisi sifatida turli mafkuraviy bosimlarga duch kelmoqda. Ekstremistik manipulyatsiya, avvalo, shaxsning ongiga ta’sir etish orqali uning qadriyatlar tizimini o‘zgartirishni maqsad qiladi va bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshiriladi. Talaba dastlab oddiy muammolar, adolatsizlik yoki ijtimoiy tengsizlik haqidagi umumiy fikrlarga jalb qilinadi, keyinchalik esa ushbu muammolarning sababini biryoqlama talqin qiluvchi radikal qarashlar singdiriladi. Bunday manipulyatsiya ko‘pincha hissiy ta’sirga tayanib, mantiqiy tahlil qilish imkoniyatini cheklashga urinadi. Talabalarni ekstremistik manipulyatsiyadan himoyalashda ta’lim mazmunining o‘zi ham muhim rol o‘ynaydi. Dars jarayonlarida ochiq fikr almashish, bahs-munozara madaniyatini rivojlantirish talabalarning mustaqil pozitsiyasini shakllantiradi. Talabalarni turli nuqtai nazarlarni eshitib, ularni tahlil qilish imkoniga ega bo‘lsa, ekstremistik g‘oyalarning mutlaq va yagona haqiqat sifatida taqdim etilishiga tanqidiy yondashadi. Talabalar bilan ishlashda individual yondashuv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir talabaning psixologik holati, ijtimoiy muammolari va ehtiyojlarini inobatga olish orqali ekstremistik ta’sirga olib keluvchi bo‘shliqlarni barvaqt aniqlash mumkin bo‘ladi. O‘zini jamiyatdan chetda his qilgan, e’tiborga muhtoj yoki hayotiy maqsadini aniqlay olmagan talabalar manipulyativ g‘oyalarga nisbatan ko‘proq zaif bo‘lishi mumkin. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlar faoliyatini kuchaytirish, talabalar bilan muntazam suhbatlar olib borish va ularning muammolarini tinglash muhim profilaktik

ahamiyat kasb etmay qolmaydi. Bundan tashqari, talabalar orasida sog‘lom fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ekstremizmga qarshi muhim omil hisoblanadi. Jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan, o‘z fikrini qonuniy va tinch yo‘l bilan ifoda eta oladigan talaba radikal yo‘llarni muammoni yechimi sifatida qabul qilmaydi va uni tafakkur qilib ko‘radi. Ko‘ngilli loyihalar, jamoaviy tashabbuslar va ijtimoiy mas’uliyatni oshiruvchi faoliyatlar talabalarni konstruktiv yo‘nalishga yo‘naltiradi. Xulosa qilib aytganda, talabalarni ekstremistik manipulyatsiyadan himoyalash uzluksiz va tizimli jarayon bo‘lib, u ta’lim, tarbiya, psixologik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy faollikning uyg‘unligida samarali natija berishi mumkin. Agar bu omillar birgalikda amalga oshirilsa, talabalar ongida ekstremistik g‘oyalarga nisbatan mustahkam ma’naviy va intellektual immunitet shakllanish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Talabalarni ekstremistik manipulyatsiyadan himoyalash bugungi globallashuv va raqamli axborot makonida muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ekstremistik guruhlar ko‘pincha aynan talabalar va yoshlarni nishonga oladi, chunki bu davrda shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy pozitsiyasi shakllanib boradi. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekstremistik g‘oyalarga qarshi kurashda faqat jazolash choralaridan ko‘ra, profilaktik va ta’limga asoslangan yondashuvlar ancha samarali hisoblanadi. Amerikalik olimlar J. Horgan va M. Taylor tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda talabalarning ekstremistik manipulyatsiyaga berilishida axborotni tanqidiy tahlil qila olmaslik va ijtimoiy yolg‘izlik muhim omil sifatida qayd etilgan. Ularning fikricha, oliy ta’lim muassasalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar va ochiq munozaralar ekstremistik targ‘ibotning ta’sirini sezilarli darajada kamaytiradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, dalillarga asoslangan fikrlashni o‘rgangan talabalar radikal chaqiriqlarga kamroq ishonch bildirgan. Buyuk Britaniyada o‘tkazilgan tadqiqotlar va amaliy tajriba ham shunga o‘xshash xulosalarni ko‘rsatadi. London universiteti tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilgan “Prevent” dasturi doirasida o‘qituvchilarning talabalar bilan doimiy muloqoti, ularning muammolariga befarq bo‘lmaslik va psixologik qo‘llab-quvvatlash ekstremistik manipulyatsiyaning oldini olishda muhim rol o‘ynagan. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, o‘zini jamiyatning muhim qismi sifatida his qilgan talaba radikal guruhlarning “biz va ular” degan sun’iy qarama-qarshilikka asoslangan targ‘ibotiga kamroq beriladi. Yevropa Ittifoqi doirasida olib borilgan tadqiqotlar, xususan Fransiya va Ispaniyadagi ilmiy ishlar, madaniyatlararo muloqot va tolerantlikni targ‘ib etuvchi ta’lim dasturlari ekstremizmga qarshi samarali vosita ekanini ko‘rsatadi. Parij Siyosiy Tadqiqotlar Instituti olimlarining xulosasiga ko‘ra, turli madaniyat va diniy qarashlarga hurmat ruhida tarbiyalangan talabalar ekstremistik g‘oyalarni jamiyat uchun xavfli hodisa sifatida anglaydi va ularni rad etishga moyil bo‘ladi. Ushbu mamlakatlarda universitetlarda inson huquqlari, fuqarolik mas’uliyati va demokratik qadriyatlar bo‘yicha majburiy fanlar joriy etilgani ijobiy natija bergan. Germaniyada olib borilgan tadqiqotlar esa raqamli savodxonlikka alohida e’tibor qaratadi. Berlin Erkin Universiteti mutaxassislari ekstremistik manipulyatsiya ko‘pincha internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilishini ta’kidlab, talabalarni soxta axborot, manipulyativ videolar va radikal kontentni aniqlashga o‘rgatish zarurligini isbotlagan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, media savodxonlik kurslarida qatnashgan talabalar ekstremistik kontentni tezroq anglab, undan ongli ravishda uzoqlashgan. Xulosa qilib aytganda, xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarni ekstremistik manipulyatsiyadan himoyalashda ta’lim, psixologik qo‘llab-quvvatlash, tanqidiy va raqamli fikrlashni rivojlantirish hamda tolerantlikni targ‘ib etish bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim. Aynan shu kompleks yondashuv yoshlarning ongini himoyalash va ularni radikal g‘oyalardan asrashda eng samarali yo‘l sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa va takliflar. Talabalarni ekstremistik manipulyatsiyadan himoyalash bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim, ijtimoiy va ma’naviy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv va raqamli axborot makonining kengayishi yoshlar ongiga turli yot g‘oyalarning kirib kelish xavfini kuchaytirayotgan bir paytda, davlat tomonidan bu borada tizimli va kompleks choralar ko‘rilmoqda.O‘zbekistonda ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash faqat huquqiy yoki kuch ishlatish usullari bilan cheklanmay, balki profilaktika, ma’rifat va tarbiya orqali amalga oshirilayotgani bilan ajralib turadi. Xususan, milliy strategiyalar va konsepsiyalar doirasida ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar kuchaytirilib, talabalar ongida vatanparvarlik, bag‘rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat kabi tushunchalar mustahkamlanmoqda. Shuningdek,

oliy ta’lim muassasalarida maxsus fanlar, seminar va treninglar orqali tanqidiy fikrlash hamda media savodxonlik ko‘nikmalarining rivojlantirilishi talabalarning soxta va manipulyativ axborotni anglab yetishiga xizmat qilmoqda. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgan tadbirlar esa ilg‘or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish imkonini bermoqda. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, bandligini ta’minlash va ularni jamiyat hayotiga keng jalb etish ham ekstremizmning ildiziga qarshi muhim profilaktik choralar sifatida namoyon bo‘lish extimoli yuqori bo`lishi taxmin qilsam mubolag’a bo‘lmaydi. Umuman olganda, ekstremistik manipulyatsiyadan himoyalashga qaratilgan islohotlar izchil, tizimli va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilishi asosiy qoida bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv nafaqat yoshlarni yot va vayronkor g‘oyalardan asrashga, balki ularni mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas’uliyatli va ma’naviy yetuk shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qilish extimoli yuqori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Horgan, J. (2008). From Profiles to Pathways and Roots to Routes: Perspectives from Psychology on Radicalization into Terrorism. The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science, 618(1), 80–94.

Horgan, J. (2014). The Psychology of Terrorism. London: Routledge.

Taylor, M., & Horgan, J. (2006). A Conceptual Framework for Addressing Psychological Process in the Development of the Terrorist. Terrorism and Political Violence, 18(4), 585–601.

UNESCO. (2016). A Teacher’s Guide on the Prevention of Violent Extremism. Paris: UNESCO Publishing.

Davies, L. (2018). Education Against Extremism: Towards a Critical Democratic Pedagogy. British Journal of Educational Studies, 66(1), 1–22.

GNOSEOLOGIK YONDASHUV TA’LIM JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Xidirova Dildora Zayniddinovna,
p.f.f.d. dotsent, Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatda murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, xavfli sharoitlarda samarali harakatlanish va kutilmagan holatlarga moslashish qobiliyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday faoliyat turlarida talab etiladigan bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlar majmui ekstremal kompetensiyalar deb ataladi. Ushbu kompetensiyalar harbiy soha, favqulodda vaziyatlar xizmati, sportning ekstremal turlari, transport boshqaruvi, sog‘liqni saqlash tizimi va boshqa riskli faoliyatlar uchun zarurdir.

Kalit so‘zlar: Mexanizm, ta’lim, ekstremal, optimal, kasbiy, xavfsizlik, tafakkur, mehnat, faoliyat, muhofazasi.

ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Хидирова Дилдора Зайниддиновна,
д.п.н., доцент, Каршинский государственный технический университет

Аннотация: В современном обществе все большее значение приобретает способность принимать правильные решения в сложных ситуациях, эффективно действовать в опасных условиях и адаптироваться к непредвиденным обстоятельствам. Совокупность знаний, умений и личностных качеств, требуемых в таких видах деятельности, называется экстремальными компетенциями. Эти компетенции необходимы для военной сферы, службы чрезвычайных ситуаций, экстремальных видов спорта, управления транспортом, системы здравоохранения и других рискованных видов деятельности.

Ключевые слова: Механизм, образование, экстремальный, оптимальный, профессиональный, безопасность, мышление, труд, деятельность, защита.

THE GNOSEOLOGICAL APPROACH AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Khidirova Dildora Zainiddinovna,
Associate Professor, Doctor of Pedagogical Sciences,
Karshi State Technical University

Annotation: In modern society, the ability to make the right decisions in complex situations, act effectively in dangerous situations, and adapt to unexpected situations is becoming increasingly important. The set of knowledge, skills, and personal qualities required in such activities is called extreme competencies. These competencies are necessary for the military sphere, emergency services, extreme sports, transport management, the healthcare system, and other risky activities.

Key words: Mechanism, education, extreme, optimal, professional, safety, thinking, labor, activity, protection.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, xavfli sharoitlarda samarali harakatlanish va kutilmagan holatlarga moslashish qobiliyati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday faoliyat turlarida talab etiladigan bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlar majmui ekstremal kompetensiyalar deb ataladi. Ushbu kompetensiyalar harbiy soha, favqulodda vaziyatlar xizmati, sportning ekstremal turlari, transport boshqaruvi, sog‘liqni saqlash tizimi va boshqa riskli faoliyatlar uchun zarurdir.

Ekstremal kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim

va kasbiy tayyorgarlik tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ekstremal kompetensiyalar nafaqat maxsus bilim va amaliy ko‘nikmalarni, balki shaxsning psixologik barqarorligi, stressga chidamliligi, tezkor fikrlashi, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish qobiliyati hamda noaniq va xavfli vaziyatlarda optimal qaror qabul qilish layoqatini ham qamrab oladi. Bunday kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida shaxsning kognitiv faoliyati, tajriba asosida bilimlarni egallashi va ularni real vaziyatlarda qo‘llay olish darajasi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, gnoseologik yondashuv ekstremal kompetensiyalarning mazmun-mohiyatini anglash, bilimlarni tizimli o‘zlashtirish va ularni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilarda xavfli vaziyatlarni oldindan bashorat qilish, ularni tahlil qilish va oqilona yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Natijada, ekstremal kompetensiyalarga ega bo‘lgan mutaxassislar murakkab va noaniq sharoitlarda samarali faoliyat yurita oladi, inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytiradi hamda xavfsizlik va professional samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. N.G. Vitkovskayaning ta’riflashicha, kompetentlik − qo‘yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko‘nikma va malakalari, ma’naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiy¬texnik, ijtimoiy) imkoniyatlarini safarbar qila olishga qodirligidir [1].

M.P. Choshanov fikricha, kompetentlik – kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo‘lib, uning o‘ziga xos tomonlariga quyidagilar kiradi: ¬ kompetentli odamning bilimlari amaliy tezkor va harakatchan, ular bu bilimlarni doimo yangilab turadilar; ¬ kompetentlik mazmunli (bilimlar) va jarayonlarga doir (ko‘nikmalar) komponentlariga ega. Muammoning mazmunini tushunishning o‘zi yetarli emas, uni amaliy jihatdan maqbul usullar bilan yecha bilish kerak, ya’ni metodlarning moslashuvchanligi kompetentlikning zaruriy tavsifi hisoblanadi; kompetentlik maqbul yechimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto‘g‘ri yo‘llarni chiqarib tashlash, ya’ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi. A.K. Markova muayyan insonning kompetentligi uning kasbiy mahoratiga nisbatan torroq bo‘ladi, deb hisoblaydi, ya’ni: “Inson umuman olganda o‘z kasbining ustasi bo‘lishi mumkin, lekin barcha kasbiy masalalarni hal etishda kompetentli bo‘lmasligi mumkin” [1,2].

Tadqiqot metodologiyasi. Ekstremal kompetensiyalarni shakllantirishda turli pedagogik, psixologik va falsafiy yondashuvlar qo‘llaniladi. Ular orasida gnoseologik yondashuv bilimning tabiati, bilish jarayonlari va insonning haqiqatni anglash mexanizmlariga tayanganligi bilan ajralib turadi.

Gnoseologik yondashuvning ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o‘rni.

bilimlarni idrok qilish va qayta ishlash mexanizmlarini optimallashtirish.

Ekstremal vaziyatlar ko‘pincha yuqori stress bilan kechadi. Bunday paytda inson miyasining ma’lumotni qayta ishlash tezligi va sifatini oshirish zarur. Gnoseologik yondashuv:

idrokning selektivligi,

aqliy operatsiyalarning tezligi,

ma’lumotni filtrlash mexanizmlarini takomillashtirishga yordam beradi.

kognitiv refleksiyani kuchaytirish.

Ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim omillaridan biri — refleksiya, ya’ni o‘z xatti-harakati va qarorlarini tahlil qilish qobiliyatidir.

Gnoseologik yondashuv refleksiv fikrlash asosida:

xatolardan saboq olish,

vaziyatni oldindan ko‘ra bilish,

ongli qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

c) bilimning amaliyotga tadbiq etilish mexanizmini chuqur anglash.

Teoretik bilim bo‘lishi yetarli emas — uni real sharoitlarda to‘g‘ri qo‘llay olish zarur.

Gnoseologik yondashuv orqali:
nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarga integratsiya qilish,
bilimlarni avtomatizm darajasiga yetkazish,
modellashtirilgan ekstremal sharoitlarda bilish faoliyatini faollashtirish
imkoniyati yaratiladi.

d) qaror qabul qilishning gnoseologik modellari.

Ekstremal vaziyatda qaror ko‘pincha soniyalarda qabul qilinadi. Gnoseologik yondashuv bu jarayonni:
tanlashning kognitiv algoritmlari,
ehtimollikni baholash,
vaziyatni tezda kategorizatsiya qilish tamoyillari asosida tushuntiradi va o‘rgatadi.

e) stress holatida bilish jarayonlarini boshqarish.

Psixologik stress gnoseologik faoliyatga to‘sqinlik qiladi. Shu bois gnoseologik yondashuv:
stressga qarshi kognitiv strategiyalar,
ongni boshqarish texnikalari,
psixologik barqarorlikning bilish asoslari
orqali ekstremal kompetensiyalarni mustahkamlaydi.

Ilmiy fikrlash va ijodiy qobiliyat ijtimoiy hayot sharoitlari asosida vujudga keladi va ijtimoiy amaliyot mahsuloti hisoblangan so‘z, tushunchalar, mantiqlar asosida amalga oshiriladi. Fikrlashning manbai sezgi hisoblansa-da, u bevosita sezgining in’ikosi chegarasidan chiqadi va inson bevosita qabul qila olmaydigan haqiqiy dunyoning shunday obyektlari, xossalari, munosabatlari haqida bilim olishga imkon beradi.

Bilim olishi fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, sintez qilish, abstraktlash umumlashtirish va xulosa qilish singari hayoliy operatsiyalar yordamida amalga oshiriladi. Empirik fikrlash bevosita qabul qilishga, hissiy obrazlarga va tasavvurlarga tayanib, ular chegarasidan chiqmaydi. Umumiy, muhim tasavvurlar bosqichi hamda empirik tushunchalar hosil bo‘lishini aniqlash bilan chegaralanadi.

Nazariy fikrlashda sezgini konkret qabul qilish berilmagan muhim umumiylikni aniqlash darajasigacha yetadi. Nazariy fikrlash natijasi sifatida nazariy tushunchalar, fikriy modellar, gipotezalar va nazariyalar tuziladi. Nazariy fikrlash deduksiya metodi orqali xulosa chiqarish vositasi bo‘lib, umumiy nazariyaga tayangan holda yangi hodisalarni va jismlarning xossalarini oldindan aytib berish, qonunlarni nazariya natijasi sifatida shakllantirish mumkin.

Ilmiy fikrlash – bu ko‘proq nazariy tushunchalarga asoslangan fikrlashdir. Yuqori mantiqiy fikrlashga ega bo‘lgan shaxslar nazariy tushunchalarni oson qabul qiladilar va hodisalar orasidagi qonuniy bog‘lanishlarni tez aniqlay oladilar.

Tahlil va natijalari. Amaliy bilim oluvchilar amaliy tavsifdagi texnika va texnologiyalarni amaliy boshqarish, rejalash, asboblardagi kamchiliklarni aniqlash vazifalarini bajarishda nazariy bilim oluvchilarga nisbatan amaliy ko‘nikma va malakalari yuqori ekanligini namoyish etadilar. Ammo ular nazariy bilimlarda oqsaydilar. Ta’lim oluvchilar bu xususiyatlarini o‘qitish jarayonida, albatta, e’tiborga olish kerak bo‘ladi. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda nazariy xulosalash va umumlashtirishlarga tayangan holda amaliy va nazariy fikrlashni tarbiyalash hamda rivojlantirish juda muhim. Bunda ilmiy fikrlash uchun: tekshirish maqsadini aniq ifodalash, ilgari bajarilgan nazariy yoki eksperimental tekshirishlarga tayanadigan gipotezani ishlab chiqish, tekshirish metodikasini ishlab chiqish, tekshirishning asosiy bosqichlarini aniqlash, ishlab chiqarilgan metodika va rejaga mos xususiy tekshirishlarni o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish, xulosalarni ifodalash xarakterini esda tutish zarur.

Bu ilmiy fikrlash rivojlanishining birinchi yo‘li sifatida, masalan, ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasi, “xavf-sabab-oqibat”, “inson-mashina-muhit”, favqulodda vaziyatlar, fuqaro muhofazasi, yong‘in va elektr xavfsizligi, xavfsizlik texnikasi kabi ishlab chiqarishdagi

xossalarini tushuntirishga, ideal modellar bilan ishlashga ta’lim oluvchilarni jalb etishdan iborat.

Ilmiy fikrlash rivojlanishining ikkinchi yo‘li — o‘quv muammolarini hal etishga qaratilishi, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar orqali nazorat va o‘lchov asboblarining ishlash prinsiplari o‘rganish va amaliy qo‘llash, muammolarni hal etish yo‘llarini qidirishga, tekshirish rejasini tuzishga, tekshirish metodikasini ishlab chiqishga ta’lim oluvchilarni jalb qilishdan iborat.

Uchinchi yo‘l — mustaqil ta’lim orqali, o‘quvchi o‘zi uchun o‘rganish rejasini tuzadi va uni amalga oshiradi, ya’ni o‘z ta’lim jarayoni uchun shaxsan javobgar bo‘ladi. O‘zini qiziqtirgan sohalarga ko‘proq e’tibor qaratib, qo‘shimcha ma’lumot va bilim olishga intiladi, ma’lumotni tahlil qilish, solishtirish va o‘z xulosasini chiqarish qobiliyati oshadi, o‘z vaqti va faoliyatini rejalashtirish, ustuvorliklarni belgilashni o‘rganadi. Faqat o‘qituvchidan emas, balki turli manbalardan ham ma’lumot olishga odatlanadi, qiyinchiliklarga duch kelganda ularni o‘zining izlanishlari orqali yechishga intiladi.

To‘rtinchi yo‘l — malakaviy va ishlab chiqarish amaliyotlarida ishlab chiqarish jarayonlari bilan bevosita tanishish, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini ta’lim oluvchilarda hosil qilish. Xususan, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi kursida, masalan, ishlab chiqarish xonalarida mikroiqlim ko‘rsatkichlari mehnat sharoitiga ta’sir etuvchi omillarini tushuntirish uchun deduksiya metodidan foydalanishni bilish kerak.

O‘qitish jarayonida ko‘rib chiqilgan “Idipend”, “Staate” innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi texnologiya tizimli qo‘llanilishi ta’lim oluvchilarda kompetentli ilmiy fikrlarning tizimli shakllanishini ta’minlashga imkon beradi. Buning uchun maxsus bilimlar tizimini ishlab chiqish kerakki, bularni bajarish ta’lim oluvchilardan xulosalar chiqarishini talab etsin. O‘quv seminarlari umumiy qiziqish va tortishuv paydo bo‘lishini, jamoa bo‘lib ishlashning yaxshi shakllaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Har bir ta’lim oluvchi fikrlar to‘qnashuvini kuzatadi, o‘zining nuqtayi nazaridan aniqlashga harakat qiladi, fikr bildiradi, fikrini asoslashga, isbotlashga intiladi, fikrlarini to‘ldiradi va nazariy xulosaga keladi. Bu holatni masalalar yechish va amaliy mashg‘ulotlarida ham amalda qo‘llash mumkin.

Amaliy mashg‘ulotning muhim afzalligi shundan iboratki, bunda ta’lim oluvchi to‘g‘ri xulosaga kelganligini javobga qarab emas, balki o‘zining o‘tkazgan tajribasiga asoslanib ishonch hosil qiladi. O‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilar ijodiy qobiliyatlarini o‘stirib borishi bilan hozirgi zamonning muhim muammolaridan biri bo‘lgan, yuqori darajali kompetentlik qobiliyatlariga ega bo‘lgan ijodiy faol shaxslarni tayyorlash muammosini hal etishga quyidagilar yordam bergan bo‘ladi: hayotiy qonuniyatlar asosida tabiat hodisalarini tushuntirish malakasini egallash; fizika, kimyo, matematika va boshqa formulalardan foydalanib masalalar yechish; qonuniyatlarni amalda qo‘llash; o‘lchov asboblaridan foydalanishni bilish, o‘lchash xatoligini baholash; tajribalarni o‘tkazish, olingan natijalarni jadval, grafik, diagramma ko‘rinishida tasvirlay olish va tahlil qila bilish; amaliyotda asboblaridan foydalanganda xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kabi bilimlar shakllanadi.

Ijodkorlik — inson faoliyatining va mustaqilligining oliy shaklidir. Ijodiy qobiliyatlar — bu yangilik yaratish zarurati va imkoniyatini tushuntirish, muammoni ifodalay olish, muammoni ilgari surish uchun kerak bo‘lgan bilimlarni ishga sola bilish qobiliyati, gipotezani nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal etish yo‘lini izlab topish natijasida yangi, o‘ziga xos yechim yaratish qobiliyatini shakllantiradi.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish o‘qitishni ijobiy asoslashdan va bilimga qiziqish hamda qobiliyatlarni shakllantirishdan, chuqur va mustahkam bilimlardan hamda ularni hodisalarni tushuntirish uchun qo‘llay bilishdan, umumlashgan o‘quv va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalardan, ta’lim oluvchilar mustaqilligining samarali rivojlanishidan iborat.

Ijobiy qobiliyatning asosiy qismi nazariy fikrlash va bilim faolligi hisoblanadi. Darsda yangi materialni bayon etishda savol-javob suhbati va muammoli metod o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Bunday suhbatlarda ta’lim oluvchilar

orasida o‘qituvchi tashkil etgan tortishuv vujudga kelib, turli qarashlar bir-biri bilan duch keladi. Bu kabi hollarda tushunchalarni va qonuniyatlarni o‘quv masalalarini hal etish jarayonida ta’lim oluvchilarning o‘zlari keltirib chiqaradilar. Tortishuvni vujudga keltirish katta mehnat va mahoratni talab etadi, ammo samarasi sarf etilgan mehnatni oqlaydi.

Ushbu fanni turli sohalari bo‘yicha nazariy bilimlarni egallashlarini ta’minlash bilan birga, ularni hozirgi axborotlar oqimi barq urib o‘sayotgan davr sharoitiga moslashgan holda, o‘z ish faoliyatlarini olib borishga ham tayyorlaydi. Bu yerdan shunday xulosa kelib chiqadiki, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi fanidan doimiy takomillashtirib turiladigan barcha o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish va o‘tkazish metodikasiga yuqori talablar qo‘yiladi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bugungi tezkor va xavfli faoliyat sharoitlarida mutaxassisning kasbiy muvaffaqiyati faqat texnik bilimlar bilan emas, balki ekstremal vaziyatlarda ongli, barqaror va ilmiy asoslangan qaror qabul qila olish qobiliyati bilan belgilanadi. Ekstremal kompetensiyalar shaxsning bilish faoliyati, nazariy tafakkuri, amaliy tajribasi hamda psixologik tayyorgarligining uzviy birligida shakllanadi.

Tadqiqot davomida gnoseologik yondashuv ekstremal kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali metodologik asos ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv bilimlarning chuqur anglanishini, ularni tahliliy va refleksiv asosda qayta ishlashni hamda real xavfli vaziyatlarga mos ravishda qo‘llash imkonini beradi. Ayniqsa, stress holatlarida bilish jarayonlarini boshqarish, vaziyatni tez va aniq baholash hamda inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirishda gnoseologik yondashuvning ahamiyati yuqori ekanligi tasdiqlandi.

Shu bilan birga, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim oluvchilarda nazariy umumlashtirish va ilmiy xulosa chiqarish ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatildi. Bu holat kasbiy ta’lim jarayonida nazariy va amaliy fikrlashni uyg‘un rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan tizimli foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va kasbiy mas’uliyatini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. – Toshkent: “Sano standart” 47nashriyoti, 2015. – 90 bet.

2. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b.

3. Д.З.Хидирова. Педагогические технологии–фактор развития образования. Проблемы науки 53 (5), 2020. 59-с.

4. Xidirova Dildora Zayniddinovna. The need for the use of distance learning and e-learning literature in the development of student creativity // «Глобальная наука и инновация 2021: центральная азия» № 3(14). Октябрь 2021. 49-с.

5. Xidirova Dildora Zayniddinovna. Образование наука и инновационные идеи в мире // Texnika oliy ta’lim muasasalarida taxsil olayotgan talabalarning loyihalash kompetentliligini oshirish. 2024. 136-143.

6. K.D. Zayniddinovna. The Importance of the Design of the Pedagogical Process in Improving the Quality of Education // Journal of Pedagogical Inventions and Practices 7, 2022. 261-266.

7. Xidirova D.Z. Pedagogik jarayonni loyihalashning zarur ahamiyati. //J.: Pedagogika. – Toshkent, 2022. 50-54 b.

8. Xidirova D.Z. Pedagogik jarayonni loyihalashtirish ta’lim innovatsiyasi sifatida. // J.: Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2021. 39-46 b.

9. Xidirova Dildora Zayniddinovna. O’quv mashg‘ulotlarini innovatsion texnologiya va metodlar asosida loyihalashtirish // Innovative development in educational activities .2024/4. 4-14 b.

BASKETBOL MASHG‘ULOTLARINING YOSHLAR JISMONIY VA PSIXOFIZIOLOGIK KO‘RSATKICHLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Xusenov Nodir Nuriddinovich,
Buxoro davlat universiteti
Sport nazariyasiva metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
0009-0003-4374-9177

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotning maqsadi basketbol mashg‘ulotlarining sportchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari - tezkorlik, chidamlilik, koordinatsiya - hamda psixofiziologik parametrlariga - reaksiya tezligi, diqqat barqarorligi va qaror qabul qilish tezligi - ta’sirini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot eksperimental dizaynda o‘tkazilib, unga 18-22 yoshdagi erkak basketbolchilar jalb qilindi. 12 haftalik mashg‘ulotlar davomida jismoniy va psixofiziologik ko‘rsatkichlar muntazam ravishda kuzatildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, basketbol mashg‘ulotlari sportchilarning jismoniy va psixofiziologik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshiladi. Tajriba guruhi va nazorat guruhi o‘rtasidagi farqlar statistik jihatdan ishonchli bo‘lib ($p<0,05$), mashg‘ulotlarning kompleks ta’sirini tasdiqladi. Shu bilan birga, basketbol mashg‘ulotlari jismoniy va kognitiv tizimlarni integratsiyalashgan tarzda rivojlantiradi, bu esa pedagogik va sport amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Natijalar sport dasturlarini optimallashtirish hamda kognitiv ko‘rsatkichlarni rivojlantirishga amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: basketbol, jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari, psixofiziologik rivojlanish, reaksiya tezligi, diqqat barqarorligi, qaror qabul qilish tezligi, sport ta’limi

РОЛЬ БАСКЕТБОЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ В ФОРМИРОВАНИИ ФИЗИЧЕСКИХ И ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: Целью этого исследования было определить влияние баскетбольных тренировок на показатели физической подготовки спортсменов - скорость, выносливость, координацию - а также психофизиологические параметры - скорость реакции, стабильность внимания и скорость принятия решений. Исследование проводилось по экспериментальной схеме и с участием баскетболистов-мужчин в возрасте от 18 до 22 лет. В течение 12 недель тренировок регулярно отслеживались физические и психофизиологические показатели. Полученные результаты показали, что тренировки по баскетболу значительно улучшают физические и психофизиологические показатели спортсменов. Различия между экспериментальной и контрольной группами были статистически значимыми ($p<0.05$), подтверждая всесторонний эффект вмешательства. В то же время баскетбольные тренировки интегрированно развивают физические и когнитивные системы, что важно для педагогики и спортивной практики. Результаты дают практические рекомендации по оптимизации спортивных программ, а также по улучшению когнитивных функций.

Ключевые слова: баскетбол, показатели физической подготовки, психофизиологическое развитие, частота реакций, стабильность внимания, скорость принятия решений, спортивное образование

THE ROLE OF BASKETBALL TRAINING IN THE FORMATION OF PHYSICAL AND PSYCHOPHYSIOLOGICAL INDICATORS OF YOUT

Annotation: The purpose of this study was to determine the effect of basketball training on athletes’ physical fitness indicators - speed, endurance, coordination - and psychophysiological parameters - reaction speed, attention stability and decision-making speed. The study was conducted in an experimental design and involved male basketball players aged 18-22. During

12 weeks of training, physical and psychophysiological indicators were monitored regularly. The results obtained showed that basketball training significantly improved the physical and psychophysiological performance of athletes. The differences between the experimental group and the control group were statistically significant ($p<0.05$), confirming the comprehensive effect of the intervention. At the same time, basketball training develops physical and cognitive systems in an integrated manner, which is important for pedagogy and athletic practice. The results provide practical recommendations for optimizing sports programs as well as improving cognitive performance.

Keywords: basketball, physical fitness indicators, psychophysiological development, reaction rate, attention stability, decision making rate, sports education

Kirish. Zamonaviy sport tizimida basketbol yuqori intensivlik, murakkab koordinatsion harakatlar va jamoaviy faoliyatni talab qiluvchi sport turi sifatida alohida o‘rin egallaydi. U nafaqat jismoniy sifatlarni - tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va koordinatsiya - rivojlantiradi, balki sportchilarning psixofiziologik holati, jumladan reaksiya tezligi, diqqat barqarorligi va psixomotor moslashuvni yaxshilashda ham muhim ahamiyatga ega. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam basketbol mashg‘ulotlari jismoniy va psixofiziologik ko‘rsatkichlarni sezilarli darajada oshiradi. Biroq jismoniy va psixofiziologik parametrlarning o‘zaro bog‘liqligi va basketbol mashg‘ulotlarining kompleks ta’siri yetarli darajada tizimli yoritilmagan. Shu bois, mazkur tadqiqotning maqsadi basketbol mashg‘ulotlarining jismoniy va psixofiziologik rivojlanishga ta’sirini ilmiy asosda aniqlash, vazifalari esa ularning dinamikasini tahlil qilish va o‘zaro aloqadorligini o‘rganishdan iborat.

Sportchining natijadorligi nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki psixofiziologik holat bilan ham bevosita bog‘liq. Basketbol o‘yini qisqa vaqt ichida optimal qaror qabul qilishni, vaziyatni baholash va jamoadosh hamda raqib harakatlariga moslashishni talab qiladi. Shu sababli, sportchilarning tayyorgarligini jismoniy va psixofiziologik rivojlanishni yagona kompleks tizim sifatida hisobga olgan holda tashkil etish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.Bugungi kunda sport ilm-fanida reaksiya tezligi va diqqatning barqarorligi nafaqat texnik-taktik harakatlarning aniqligini, balki sportchining jarohatlardan himoyalanish darajasini ham belgilovchi muhim omillar sifatida qaralmoqda. Shuningdek, qaror qabul qilish jarayonining tezligi va aniqligi musobaqa sharoitida ustunlikni ta’minlovchi asosiy psixofiziologik ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, basketbol mashg‘ulotlarining jismoniy sifatlar bilan bir qatorda psixofiziologik funksiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganish hozirgi davr sport pedagogikasi va sport fiziologiyasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi sport fanida basketbol faqat jismoniy tayyorgarlikni oshiruvchi oddiy mashg‘ulot sifatida qaralmaydi; u sportchining kognitiv funksiyalari va psixofiziologik holati bilan bevosita bog‘liq murakkab faoliyat hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, reaksiya tezligi va qaror qabul qilish kabi kognitiv ko‘rsatkichlar basketbolchilarning jismoniy natijadorligiga sezilarli ta’sir qiladi. Masalan, erkak basketbolchilar orasida reaksiya va qaror qabul qilish vaqti reaktsion chaqqonlik bilan kuchli bog‘liq bo‘lib ($R = 0,76$), kognitiv omillar jismoniy komponentlardan ham yuqori prognozchi rol o‘ynashi aniqlangan [1].

Yosh aralash sportchilar bilan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, basketbol mashg‘ulotlari ishchi xotira, diqqatni jamlash va kognitiv moslashuv kabi ijrochi funksiyalarni sezilarli darajada rivojlantiradi, ayniqsa mashg‘ulotlar chastotasi yuqori bo‘lganda bu ta’sir aniqroq kuzatiladi [2]. Basketbol o‘yini dinamik sharoitlari sportchidan ko‘plab kognitiv talablarni bajarishni talab qilishi sababli, bu mavzu fizika va psixologiya tadqiqotchilari uchun ham qiziqdir [2-5].

Mahalliy tadqiqotlar ham basketbolning jismoniy sifatlar, koordinatsiya va psixofiziologik parametrlarni shakllantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Masalan, Alimardonov (2025) basketbol mashg‘ulotlari yurak-qon tomir faoliyati, tezkor fikrlash va diqqatni jamlashni yaxshilashini

qayd etgan [6,], Ganiyeva (2025) esa yosh basketbolchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini mikrotsikl mashqlar orqali oshirish imkoniyatlarini o‘rgangan [3]. Shu bilan birga, maktab o‘quvchilari uchun basketbol mashg‘ulotlari metodikasi jismoniy sifatlarni - tezlik, kuch, chidamlilik va chaqqonlikni - rivojlantirish bilan birga sportga bo‘lgan motivatsiyani oshirishga ham qaratilgan [9-15].

Umuman olganda, basketbol jismoniy va psixofiziologik rivojlanishni integratsiyalashgan tarzda ta’minlaydi: u sportchining jismoniy tayyorgarligini yaxshilash bilan birga reaksiya tezligi, diqqat va qaror qabul qilish kabi kognitiv funksiyalarni mustahkamlaydi. Shu jihatlar basketbolni sport pedagogikasi va sport psixologiyasi tadqiqotlari uchun dolzarb mavzu sifatida ko‘rsatadi. Mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, basketbolning jismoniy tayyorgarlikka ta’siri yetarli o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning psixofiziologik rivojlanishga ta’siri ko‘pincha alohida ko‘rsatkichlar doirasida baholangan. Ko‘plab tadqiqotlar qisqa muddatli eksperimentlar bilan cheklanib, jismoniy va psixofiziologik parametrlarning bir vaqtda dinamik o‘zgarishi va integratsiyalashgan ta’siri yetarlicha tahlil qilinmagan. Shu bois, basketbol mashg‘ulotlarining jismoniy va psixofiziologik rivojlanishga birgalikdagi, tizimli va uzviy ta’sirini aniqlash zarurati ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va uni avvalgi ishlardan ajratib turadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi basketbol sport mashg‘ulotlarining sportchilarning jismoniy sifatlari (tezkorlik, chidamlilik, koordinatsiya) hamda psixofiziologik ko‘rsatkichlari (reaksiya tezligi, diqqat barqarorligi va qaror qabul qilish tezligi)ga ko‘rsatadigan ta’sirini ilmiy asosda aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

Basketbol sport mashg‘ulotlari jarayonida sportchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining (tezkorlik, chidamlilik va koordinatsiya) dinamikasini aniqlash.

Basketbol mashg‘ulotlarining reaksiya tezligi, diqqat barqarorligi va qaror qabul qilish jarayoniga ta’sirini baholash.

Jismoniy va psixofiziologik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasini aniqlash.

Basketbol mashg‘ulotlarining sportchilar umumiy tayyorgarlik darajasiga kompleks ta’sirini statistik jihatdan asoslash.

Olingan natijalar asosida sport mashg‘ulotlari jarayonini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Agar basketbol mashg‘ulotlari tizimli, maqsadga yo‘naltirilgan va optimal yuklama asosida tashkil etilsa, unda sportchilarning jismoniy sifatlari bilan bir qatorda psixofiziologik ko‘rsatkichlari ham sezilarli darajada yaxshilanadi hamda jismoniy va psixofiziologik rivojlanish o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli bog‘liqlik yuzaga keladi.

Metodlar. Mazkur tadqiqot eksperimental va qiyosiy dizayn asosida olib borildi. Basketbol mashg‘ulotlarining sportchilarning jismoniy va psixofiziologik rivojlanishiga ta’siri dinamik kuzatuv orqali baholandi. Oldi va tadqiqotdan keyingi o‘lchovlar natijalari tahlil qilinib, olingan ma’lumotlarning ishonchliligi ta’minlandi. Tadqiqotda 18-22 yoshdagi 30 nafar erkak basketbolchi ishtirok etdi, ularning sport tajribasi kamida 2 yil bo‘lib, barcha ishtirokchilar muntazam mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanadigan talaba-sportchilar edi. Tadqiqotdan oldin barcha sportchilar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, sog‘ligi qoniqarli deb topildi.

Mashg‘ulotlar 12 hafta davomida, haftasiga 3 marta, har biri 90 daqiqa bo‘lgan rejimda olib borildi. Haftalik umumiy yuklama 270 daqiqa bo‘lib, sportchilarning tayyorgarlik darajasiga mos ravishda bosqichma-bosqich oshirildi. Mashg‘ulot jarayoni umumjismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik va texnik-taktik mashqlar uyg‘unligida tashkil etildi. Har bir mashg‘ulot kirish (10–15 daqiqa), asosiy (60–65 daqiqa) va yakuniy (10–15 daqiqa) qismlarga bo‘lingan bo‘lib, asosiy qismda jismoniy va psixofiziologik sifatlarni bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga qaratilgan mashqlar ustuvor bo‘ldi.

1-jadval.

Basketbol mashg‘ulotlarining 12 haftalik yuklama jadvali

№	Mashq nomi	Mashq davomiyligi / takrorlari	Intensivlik	Haftalik takrorlanish	Maqsad / Fokus
1	Tezkor yugurish va to‘xtash	10×15 m yugurish, 5 takror	O‘rta-Yuqori	3 marta	Tezkorlik, reaksiya
2	Zigzag yugurish	8 konus, 3× takror	Yuqori	3 marta	Koordinatsiya, muvozanat
3	Joyidan sakrab to‘p uzatish	3×10 sakrash	O‘rta	3 marta	Kuch, chaqqonlik, diqqat
4	Dribling + tezkor qaror qabul qilish	5 daqiqa dribling + 5 qaror vazifasi	Yuqori	3 marta	Psixomotor tezlik, qaror qabul qilish
5	Reaksiya tezligi (vizual signal)	3×10 signal javoblari	O‘rta	3 marta	Reaksiya tezligi, diqqat
6	Intervall yugurish	20–30 soniya yuqori tezlik, 30–40 soniya tiklanish, 5×	Yuqori	3 marta	Umumiy va maxsus chidamlilik
7	Muvozanatni saqlash (bir oyoqda to‘p bilan uzatish)	3×30 soniya / oyoq	O‘rta	3 marta	Statik va dinamik muvozanat
8	Shulte jadvali bilan mashq	5 daqiqa	O‘rta	3 marta	Diqqat barqarorligi, vizual qabul qilish
9	O‘yin vaziyatini modellashtirish (3×3 yoki 4×4)	2×5 daqiqa qisqa o‘yin	Yuqori	3 marta	Tezkor qaror qabul qilish, jismoniy yuklama
10	Tiklanish va nafas mashqlari	5–10 daqiqa	Past	3 marta	Psixofiziologik tiklanish

Izohlar: Mashg‘ulotlar kirish–asosiy–yakuniy qism tuzilmasiga moslab tashkil etilgan: 1-5 mashqlar asosiy qism, 6-9 mashqlar yuqori intensiv o‘yin va trening elementi, 10-mashq esa yakuniy tiklanish uchun.

Intensivlik darajalari: Past, O‘rta, Yuqori - sportchilar yoshiga va tajribasiga moslashtirilgan.

Haftalik takrorlanish: 3 marta / hafta, har bir mashg‘ulot 90 daqiqa davom etadi.

Bosqichma-bosqich yuklama oshirish: 1- 4-haftalar - moslashuv, 5-8-haftalar - rivojlantiruvchi, 9-12-haftalar – barqarorlashtiruvchi bosqich.

Psixofiziologik rivojlanishni baholash uchun quyidagi standartlashtirilgan testlar qo‘llanildi:

Reaksiya tezligi testi – sportchilarning vizual signalga javob berish tezligini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Test davomida ekranda yoki merakli signal bilan ko‘rsatilgan rang yoki raqamga sportchi maksimal tezlikda javob beradi. Olingan natijalar millisekundlarda qayd qilinadi.

Diqqat testi (Shulte jadvallari) – sportchining vizual diqqatni jamlash va barqarorligini aniqlash uchun ishlatiladi. Sportchi jadvallarda raqamlar yoki belgilarni ko‘rsatmalarga muvofiq maksimal tezlikda topadi.

Kognitiv qaror qabul qilish testlari – o‘yin vaziyatlarini modellashtiruvchi mini-drill mashqlar orqali bajariladi, bunda sportchi vaziyatni tahlil qilib, optimal qaror qabul qiladi. Testlar psixomotor tezlik va reaksiya moslashuvini baholash imkonini beradi.

Barcha testlar standartlashtirilgan sharoitda, bir xil vaqt oralig‘ida va ketma-ketlikda o‘tkazildi, shuningdek, ishtirokchilar mashqlarni bajarishdan oldin qisqa instruktsiya oldi.

Olingan ma’lumotlarga quyidagi statistik usullar qo‘llanildi:

O‘rtacha arifmetik qiymat va standart og‘ish (M±SD) – jismoniy va psixofiziologik ko‘rsatkichlarning markaziy tendensiyasini va tarqalishini aniqlash uchun.

Student t-testi – tadqiqot boshidagi va yakuniy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash uchun ishlatildi.

p-value – statistik ishonchlilik darajasini belgilashda qo‘llanildi; $p<0,05$ qiymati natijani ishonchli deb qabul qilish mezoni sifatida belgilandi.

Ushbu tadqiqot inson ishtirokidagi ilmiy izlanishlar bo‘yicha xalqaro etik normalar va deklaratsiyalarga to‘liq muvofiq holda amalga oshirildi. Jarayon boshlanishidan avval barcha ishtirokchilarga tadqiqotning maqsadi hamda testlar mazmuni batafsil tushuntirilib, ulardan axborotli rozilik shakli imzolatib olindi. Tadqiqot davomida qatnashchilarning sog‘lig‘i va xavfsizligi qat’iy ta’minlanishi bilan bir qatorda, ularning shaxsiy ma’lumotlari maxfiyligi va anonimligi to‘liq kafolatlandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhi basketbolchilarining barcha jismoniy sifatlari bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatilgan. Nazorat guruhida esa o‘zgarishlar minimal darajada qolgan.

Tezkorlik va chaqqonlik: 30 metrga yugurish ko‘rsatkichi tajriba guruhida boshlang‘ich 5,12 soniyadan yakuniy 4,85 soniyagacha yaxshilandi. Shuningdek, zigzag yugurish testi orqali aniqlangan koordinatsiya qobiliyati ham sezilarli o‘sgan (9,85 soniyadan 9,10 soniyagacha). Bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha $t=4,12$ va $t=5,01$ qiymatlari farqning statistik jihatdan o‘ta ishonchli ekanligini tasdiqlaydi ($p<0,001$).

Maxsus chidamlilik va dinamik kuch: 6 daqiqalik yugurish testida tajriba guruhi masofani 150 metrga (1200 m dan 1350 m gacha) oshirishga muvaffaq bo‘ldi. Joyidan sakrash balandligi (portlovchi kuch) esa o‘rtacha 4,6 sm ga oshgan (45,2 sm dan 49,8 sm gacha). Ushbu ko‘rsatkichlar basketbolchilarning o‘yin davomida yuqori intensivlikni saqlab qolish va havoda kurashish imkoniyatlarini kengaytiradi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Basketbolchilarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi (boshlang‘ich)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (boshlang‘ich)	Nazorat guruhi (yakuniy)	t	p
Tezkorlik (30 m yugurish) s	5,12±0,21	4,85±0,18	5,10±0,22	5,08±0,21	3,12	0,01
Koordinatsiya (zigzag yugurish) s	9,85±0,32	9,10±0,28	9,82±0,30	9,75±0,29	2,21	0,05
Chidamlilik (6 daqiqalik yugurish)	1200±45	1350±50	1195±48	1210±47	4,20	0,01
Sakrash balansi (joyidan sakrash) sm	45,2±3,1	49,8±2,9	44,9±3,0	45,5±3,2	2,15	0,05
Dribling tezligi (10 m dribling)	6,8±0,3	6,1±0,25	6,9±0,3	6,8±0,3	2,65	0,05
Yugurish chidamliligi (120 m sprint)	21,5±1,2	19,8±1,0	21,4±1,1	21,0±1,2	3,30	0,01

Izoh: s-soniya, m-metr, sm-santimetr

Psixofiziologik ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mashg‘ulotlar jarayoniga kiritilgan maxsus kognitiv vazifalar sportchilarning asab tizimi faoliyatini optimallashtirgan. Vizual signalga reaksiya berish vaqtining 0,32 soniyadan 0,27 soniyaga qisqarishi va qaror qabul qilish tezligining yaxshilanishi t=4,80 o‘yinning kutilmagan vaziyatlarida sportchining adekvat harakat qilish imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, Shulte jadvallari va n-back testlari orqali aniqlangan diqqat barqarorligi hamda vizual-motor koordinatsiyaning o‘sishi p=0,01) basketbolchilarning maydonni ko‘rish ko‘lami va to‘pni boshqarish aniqligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatgan (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

Basketbolchilarning psixofiziologik ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi (boshlang‘ich)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (boshlang‘ich)	Nazorat guruhi (yakuniy)	t	p
Reaksiya tezligi (vizual signal) s	0,32±0,03	0,27±0,02	0,33±0,03	0,31±0,03	3,20	0,01
Diqqat barqarorligi (Shulte jadvallari) s	48,5±2,8	41,2±2,5	48,2±2,7	46,8±2,6	3,22	0,01
Qaror qabul qilish tezligi (mini-drill) s	4,2±0,3	3,6±0,2	4,3±0,3	4,1±0,3	4,80	0,001
Diqqatni jamlash testi (n-back) ball	15,2±1,1	18,5±1,0	15,0±1,0	15,5±1,1	4,60	0,001
Psixomotor tezlik testi s	12,4±0,7	10,8±0,5	12,5±0,6	12,2±0,7	2,10	0,05
Vizual-motor koordinatsiya ball	28,5±2,0	33,2±1,8	28,2±2,1	29,0±2,0	4,10	0,001

Izoh: s-soniya.

Tadqiqot yakunida tajriba guruhining barcha ko‘rsatkichlari bo‘yicha t-Styudent mezonining qiymatlari kritik nuqtadan yuqori bo‘lib, olingan natijalar tasodifiy emasligini isbotladi. Nazorat guruhida esa an’anaviy mashg‘ulotlar ta’sirida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmadi. Bu esa taklif etilayotgan, jismoniy yuklamalarni psixofiziologik mashqlar bilan integratsiya qilgan holda olib boriladigan metodikaning yuqori samaradorligini va basketbolchilar tayyorgarligi tizimida qo‘llash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, 12 haftalik basketbol mashg‘ulotlari jismoniy va psixofiziologik ko‘rsatkichlarning sezilarli yaxshilanishiga olib keldi. Tajriba guruhi bilan nazorat guruhi o‘rtasidagi farqlar statistik jihatdan ishonchli ($p<0,05$). Tezkorlik, koordinatsiya va chidamlilik kabi jismoniy ko‘rsatkichlar ortdi, shuningdek reaksiya tezligi, diqqat barqarorligi va qaror qabul qilish tezligi kabi psixofiziologik ko‘rsatkichlar ham yaxshilandi. Bu natijalar basketbol mashg‘ulotlarining kompleks ta’sir mexanizmini, ya’ni jismoniy va kognitiv tizimlarni birgalikda rivojlantirish xususiyatini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar mahalliy va xorijiy tadqiqotlar bilan uyg‘un keladi. Masalan, Gaziyev (2016) va Salomov (2005) basketbol va jismoniy faoliyatning koordinatsiya va tezkorlikka ta’sirini

ko‘rsatgan. Xorijiy tadqiqotlar (Dis’ko & Yakush, 2018) reaksiya tezligi va qaror qabul qilish tezligi basketbol o‘yinlari orqali yaxshilanishini qayd etadi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot psixofiziologik indikatorlarni birgalikda o‘rganib, sport mashg‘ulotlarining kognitiv va motor tizimlarga integratsiyalashgan ta’sirini ilmiy jihatdan qo‘shimcha dalil bilan tasdiqladi.

Basketbol mashg‘ulotlari tezkor harakatlar, o‘yin vaziyatlari va qaror qabul qilish mashqlarini o‘z ichiga oladi, bu esa miya va muskullar orasidagi koordinatsiyani rivojlantiradi. Mashg‘ulotlar davomida:

Jismoniy tizim: tezkorlik, chidamlilik, koordinatsiya va kuch rivojlanadi.

Psixofiziologik tizim: diqqat, vizual qabul qilish, qaror qabul qilish tezligi va psixomotor moslashuv yaxshilanadi.

Natijada sportchilar murakkab vaziyatlarda tez va to‘g‘ri harakat qilishga qodir bo‘ladi, bu pedagogik va sport amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Olingan natijalar basketbol mashg‘ulotlarini pedagogik jarayonga integratsiyalash imkonini beradi. Bu bolalar va yosh sportchilarda jismoniy tayyorgarlikni optimallashtirish, psixomotor va kognitiv ko‘rsatkichlarni rivojlantirish, shuningdek sport amaliyotida tezkor qaror qabul qilish va o‘yin samaradorligini oshirishga yordam beradi. Mazkur metodika maktabgacha va boshlang‘ich sport tayyorgarlik dasturlariga moslashtirilgan holda tatbiq etilishi mumkin.

Tadqiqot faqat 18–22 yoshdagi erkak basketbolchilar bilan amalga oshirildi, shuning uchun natijalarni boshqa yosh va jins guruhlariga umumlashtirish cheklangan. Mashg‘ulotlar 12 haftalik intervallar bilan o‘tkazildi, shuning uchun uzoq muddatli ta’sirlar alohida baholanishi lozim. Bundan tashqari, psixofiziologik testlar faqat vizual va qaror qabul qilish indikatorlarini o‘z ichiga oldi, boshqa kognitiv ko‘rsatkichlar (eslash, rejalashtirish) keyingi tadqiqotlarda o‘rganilishi tavsiya etiladi.

Xulosa. 12 haftalik basketbol mashg‘ulotlari natijasida sportchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi: tezkorlik, chidamlilik va koordinatsiya oshdi. Psixofiziologik funksiyalar ham rivojlandi: reaksiya vaqti qisqardi, diqqat barqarorligi yaxshilandi va qaror qabul qilish tezlashdi. Tajriba va nazorat guruhlari orasidagi farqlar statistika jihatdan ishonchli bo‘lib ($p<0,05$), basketbol mashg‘ulotlarining kompleks ta’sirini tasdiqlaydi. Mashg‘ulotlar jismoniy va kognitiv tizimlarni integratsiyalashgan tarzda rivojlantiradi, bu esa pedagogik va sport amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Amaliy tavsiyalar sifatida basketbol mashg‘ulotlarini boshlang‘ich va maktabgacha sport dasturlariga kiritish, bolalar va yosh sportchilarda jismoniy va kognitiv rivojlanishni optimallashtirish tavsiya etiladi. Mashg‘ulotlarning intensivligi va davomiyligi sportchilarning yoshi va tayyorgarlik darajasiga moslashtirilishi kerak. Shuningdek, psixofiziologik ko‘rsatkichlarni baholash uchun vizual signal va qaror qabul qilish testlarini muntazam qo‘llash foydali bo‘ladi.

Kelgusi tadqiqotlar uchun tavsiya etiladigan yo‘nalishlar: basketbol mashg‘ulotlarining uzoq muddatli ta’sirini (6–12 oy) o‘rganish; turli yosh va jins guruhlaridagi sportchilar, shu jumladan qizlar va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tadqiqotlar olib borish; shuningdek, kognitiv qobiliyatlarni kengroq o‘rganish, jumladan eslash, rejalashtirish va vizual-motor koordinatsiya indikatorlarini tahlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Pinilla-Arbex, J., Pérez-Tejero, J., Biesen, D. V., Polo, I., Janssens, L., & Vanlandewijck, Y. (2024). Cognitive Development and Decision Making in Basketball: A Comparison between Male Players with and without Intellectual Impairment and across Different Age-Groups. Journal of human kinetics, 93, 231–243. https://doi.org/10.5114/jhk/185430

Xu, Y., Zhang, W., Zhang, K., Feng, M., Duan, T., Chen, Y., Wei, X., Luo, Y., & Ni, G. (2022). Basketball training frequency is associated with executive functions in boys aged 6 to 8 years. Frontiers in Human Neuroscience. https://doi.org/10.3389/fnhum.2022.917385

Ganiyeva, F. V. (2025). Yosh basketbolchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish

imkoniyatini o‘rganish. Educational Research in Universal Sciences.

Racil, G., Padulo, J., Trabelsi, Y., Frizziero, A., Russo, L., & Migliaccio, G. M. (2024). Rhythmic Exercises Before Basketball Training: A Study on Motor Skills, Static Balance, and Reaction Speed in School-Aged Children. Journal of strength and conditioning research, 38(12), e761–e768. https://doi.org/10.1519/JSC.0000000000004925

Madinabeitia-Cabrera, I., Alarcón-López, F., Chirosa-Ríos, L.J. et al. The cognitive benefits of basketball training compared to a combined endurance and resistance training regimen: a four-month intervention study. Sci Rep 13, 11132 (2023). https://doi.org/10.1038/s41598-023-32470-2

Alagoz, I., Demirkan, E., Ozkadi, T., & Yildirim, T. (2025). The effect of sports on mental performance according to skill types in youth athletes. BMC sports science, medicine & rehabilitation, 17(1), 262. https://doi.org/10.1186/s13102-025-01320-1

Xolboyev Murodjon Mamayusuf o’g’li, Qulmatov Zafar Zoir o’g’li, & Qurbonnazarov Jahongir Najmiddin o’g’li. (2024). SPORT -PSIXOLOGIYASI . TADQIQOTLAR.UZ, 37(5), 182–186. Retrieved from https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2980

Eshmanova, U. A. (2024). Yosh basketbolchilarni tanlash bosqichlari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.018

Bobomurodov, A. E. (2025). Maktab o‘quvchilarni basketbol sport turiga saralash va yo‘naltirishda jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili. Ta’lim va taraqqiyot, 4.

Хусенов Н. Н. СОВРЕМЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ //Теоретико-методологические основы и методико-практические аспекты. – 2025. – С. 117.

Xusenov N. КЕКСА ЁШДАГИЛАР ЮРАК-ҚОН ТОМИР ТИЗИМИНИНГ ПЕДАГОГИК ДИАГНОСТИКА УСУЛЛАРИ //Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 2.

Shukurov, R. S., Narzullayeva, R. R., & Husenov, N. N. (2024). The culture of a healthy lifestyle of students in the context of distance learning and its organizational and methodological features. In BIO Web of Conferences (Vol. 120, p. 01022). EDP Sciences.

Abdullayev, M. J., & Xusenov, N. N. DEVELOPMENT OF PHYSICAL AND TECHNICAL ENDURANCE IN THE PRIMARY STAGE OF JUDOKAS.Наука и спорт: современные тенденции. № 4 (Том 13), 2025 г. DOI: 10.36028/2308-8826-2025-13-4-8-17

Кадиров, Р. Х., Орипова, Н. М., & Хусенов, Н. Н. WAYS OF ACTIVATING INDEPENDENT WORK STUDENTS IN MODERN CONDITIONS.

Kadirov R. X. ATHLETIC INJURIES IN WINTER SPORTS //SHOKH LIBRARY. – 2025. – Т. 1. – №. 10.

Kadirov R. X. Jismoniy tarbiya jarayonida diagnostik usullar amaliyoti //PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 163-168.

MASOFAVIY VA ARALASH TA’LIM ELEMENTLARINI BOSHLANG‘ICH SINFLARDA QO‘LLASH TEXNOLOGIYASI

Zaripova Muslima Qurbonovna,
Qashqadaryo viloyati Pedagogik mahorat markazi,
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda masofaviy va aralash ta’lim elementlarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari, ularning afzalliklari hamda amaliy qo‘llash metodikasi yoritilgan. Tadqiqot jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olingan holda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, aralash ta’lim modelining ta’lim sifati va o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish kompetensiyalariga ta’siri asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: masofaviy ta’lim, aralash ta’lim, boshlang‘ich sinf, raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar.

ТЕХНОЛОГИЯ ПРИМЕНЕНИЯ ЭЛЕМЕНТОВ ДИСТАНЦИОННОГО И СМЕШАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Зарипова Муслима Курбоновна,
Кашкадаринский областной центр педагогических навыков,
старший преподаватель кафедры дошкольного, начального и специального образования

Аннотация: В статье рассматриваются научно-педагогические основы внедрения элементов дистанционного и смешанного образования в начальных классах, их преимущества и методы практического применения. В ходе исследования проанализированы возможности использования цифровых технологий с учетом возрастных и психологических особенностей учащихся начальной школы. Также обосновано влияние модели смешанного образования на качество обучения и навыки самостоятельного обучения учащихся.

Ключевые слова: дистанционное образование, смешанное образование, начальная школа, цифровые технологии, инновационные методы.

TECHNOLOGY OF APPLICATION OF DISTANCE AND BIENDED EDUCATION ELEMENTS IN PRIMARY GRADES

Zaripova Muslima Qurbonovna,
Kashkadarya Regional Center for Pedagogical Skills,
Senior teacher of the Department of Preschool, Primary and Special Education

Abstract: This article discusses the scientific and pedagogical foundations of the introduction of distance and blended education elements in primary grades, their advantages and methods of practical application. In the course of the research, the possibilities of using digital technologies were analyzed, taking into account the age and psychological characteristics of primary school students. Also, the impact of the blended education model on the quality of education and students’ independent learning competencies was substantiated.

Keywords: distance education, blended education, primary school, digital technologies, innovative methods.

Kirish.

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim shakllari va metodlarining yangilanishini taqozo etmoqda. Xususan, masofaviy va aralash ta’lim elementlaridan foydalanish ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini

oshirish va mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida mazkur yondashuvlarni joriy etish o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;

taqqoslash va umumlashtirish;

kuzatish va pedagogik tajriba;

nazariy xulosalar chiqarish.

Mazkur metodlar boshlang‘ich sinflarda masofaviy va aralash ta’lim elementlarini qo‘llash samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Masofaviy ta’lim elementlarining boshlang‘ich ta’limdagi ahamiyati.

Masofaviy ta’lim axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘quvchilarga masofadan turib ta’lim berish shakli hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda u quyidagi elementlar orqali amalga oshiriladi:

qisqa video darslar;

elektron o‘quv materiallari;

interfaol mashqlar va testlar.

Mazkur elementlar o‘quvchilarning bilimni mustaqil o‘zlashtirishiga yordam beradi, biroq ularni qo‘llashda o‘qituvchi va ota-onaning hamkorligi muhim hisoblanadi.

Aralash ta’limning pedagogik imkoniyatlari.

Aralash ta’lim an’anaviy sinf mashg‘ulotlari bilan masofaviy ta’lim elementlarini uyg‘unlashtirgan holda tashkil etiladi. Ushbu ta’lim shakli boshlang‘ich sinflar uchun eng maqbul yondashuvlardan biri bo‘lib, quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

o‘quvchilar bilan individual ishlash;

dars jarayonida faollikni oshirish;

bilimlarni mustahkamlash uchun raqamli resurslardan foydalanish.

Aralash ta’lim o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish bilan birga, ularning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Muhokama va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, masofaviy va aralash ta’lim elementlaridan samarali foydalanish:

o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;

mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantiradi;

dars samaradorligini ta’minlaydi.

Biroq mazkur yondashuvlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda, pedagogik nazorat ostida tashkil etilishi zarur.

Boshlang‘ich sinflarda masofaviy va aralash ta’lim elementlarini qo‘llash ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, ularni joriy etishda pedagogik maqsadga muvofiqlik va yosh xususiyatlarini inobatga olish lozim.

Masofaviy ta’limda talaba va o’qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o’zaro maxsus yaratilgan o’quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo’ladilar. Internet texnologiyasini qo’llashga asoslangan masofaviy o’qitish jahon axborot ta’lim tarmog’iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o’zaro aloqa tamoyiliga ega bo’lgan muhim bir turkum yangi funktsiyalarni bajarad

Tadqiqotchi A.S.Fominaning qaydetishicha: “Aralash ta’lim onlayn ta’limning an’anaviy ta’lim bilan uyg’unlashuvi, an’anaviy shakllarni elektron texnologiyalar bilan integratsiyalashuvidir”. A.S.Fominaning fikricha, aralash ta’limning asosiy elementlari: «yuqoridan pastga» qurish (ya’ni

tartibga solingan); diskretlik; o’quv jarayonining didaktik va tashkiliy funksiyalarini o’zida mujassam etgan LMS (Learning Management System - ta’limni boshqarish tizimi) orqali texnologik amalga oshiriladi; maxsus tashkil etilgan qo’llab-quvvatlash va boshqarish; talabalarning elektron muhitda mustaqil ishlarini tashkil etish. V. A. Fandey ta’kidlashicha, “... aralash ta’lim - bu kunduzgi va masofaviy ta’lim elementlarining kombinatsiyasi bo’lib, ulardan biri afzal qilingan modelga qarab asosiy hisoblanadi”. Bu nuqtai nazar A. M. Evseevaning pozitsiyasiga yaqin bo’lib, u aralash ta’lim”... ta’limning an’anaviy va elektron shakllarining oqilona kombinatsiyasi bo’lib, ularning kuchli tomonlarini ishlatish va zaif tomonlarini minimallashtirish imkonini beradi” deb ta’kidlaydi[1]. Aralashtirilgan ta’limning tuzilishi har xil bo’lishi mumkin, aralash ta’limni tashkil etishning ko’plab shakllari va usullari mavjud. Kleyton Kristensen Instituti 40 dan ortiq aralash ta’lim modellarini aniqladi, ammo ularning hammasi ham birdek samarali emas[2]. Eng yaxshi modellarda shaxsiylashtirish, o’z bilimlari uchun shaxsiy mas’uliyatni rivojlantirish, har bir bolaning oldingi materialni o’zlashtirganligini tasdiqlaganidan keyingina yangi materialni o’rganishga o’tishi mavjud. Aralashtirilgan ta’limda muhim rolni loyiha amaliyotiga yo’naltirilgan ish (nafaqat individual, balki asosan jamoaviy) o’ynaydi.

Umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim samaradorligini oshirish masalasi bu jarayonda ishtirok etayotgan barchani tashvishga solmoqda. Samaradorlik masofaviy ta’lim tizimi faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biridir. Samaradorlik maqsadni amalga oshirish darajasini, ko‘zlangan natijalarga erishishni, rejalashtirilgan natijaga yaqinlashish darajasini ifodalaydi. Bugungi kunga kelib, ko‘plab mamlakatlarning ta’lim tizimini masofaviy formatga o‘tkazish zarurati tufayli masofaviy ta’lim sezilarli darajada yaxshilanmoqda.

Ayni paytda kuzatilayotgan keng ko‘lamli o‘tish onlayn ta’lim samaradorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda, ilgari faqat klassik ta’lim shaklida ishlagan ko‘plab o‘qituvchilar endi o‘z ish rejalarini yangi formatga o‘tkazmoqda, ko‘plab umumta’lim maktablari va oliy o‘quv yurtlari talabalari ham masofaviy ta’limga ko’nikmoqdalar. O‘qituvchilar va talabalarning yaxshi muvofiqlashtirilgan mehnati masofaviy ta’lim oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish samaradorligini oshiradi. Shuningdek, o‘qituvchilarning kasbiy fazilatlari va talabalarga ma’lumotni eng samarali uzatish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanishga tayyorligi muhimligini ta’kidlash kerak. Bu yerda o‘qituvchilarning barcha kerakli qurilma va dasturlardan bemalol foydalanishi, o‘rganish uchun mavzularni aniq va lo‘nda taqdim etishi hamda darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanishi bu yerda muhim ahamiyatga ega. Jismoniy o‘zaro ta’sirsiz ko‘plab talabalar uchun yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish ancha qiyinlashishi mumkin va bu yerda o’qituvchining kasbiy fazilatlari o‘qituvchilarga bilimlarni istisnosiz barchaga tushunarli tarzda etkazishi asosiy rolni o‘ynaydi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, masofaviy ta’lim samaradorligi uchun talabalarning motivatsiyasi ham juda muhimdir va talabalarning o‘z-o‘zini anglashi va motivatsiyasini oshirish uchun individual yondashuvni topish kerak. Nazoratning past darajasi kuchli ichki motivatsiyani talab qiladi, uni o’quv jarayonida doimiy ravishda boshqacha tarzda oshirish kerak. Talaba oldiga qo‘yilgan aniq belgilangan maqsad katta ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinflarga xos bo’lgan masofaviy va aralash ta’lim elementlarini boshlang‘ich sinflarda qo‘llash texnologiyasi ko‘rib chiqamiz

«Flipped Classroom» (Aylantirilgan sinf) texnologiyasini boshlang‘ich sinflarda qo‘llash.

Texnologiyaning mohiyati.

«Flipped Classroom» (Aylantirilgan sinf) texnologiyasi — bu aralash ta’lim modeli bo‘lib, unda nazariy materiallar darsdan tashqari vaqtda, amaliy mashg‘ulotlar esa sinfda bajariladi. Ya’ni, an’anaviy darsdagi “uy vazifasi” va “dars jarayoni” vazifalari qisman almashadi.

Boshlang‘ich sinflarda ushbu texnologiya soddalashtirilgan va yoshga mos shaklda qo‘llanadi.

Texnologiyaning maqsadi

o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish;

dars vaqtini amaliy mashqlar va muloqotga yo‘naltirish;

masofaviy va an’anaviy ta’limni uyg‘unlashtirish;
o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish.
Texnologiyani amalga oshirish bosqichlari
1-bosqich. Masofaviy tayyorgarlik
O‘qituvchi tomonidan:
5–7 daqiqalik qisqa video tushuntirish;
slayd yoki rasmlar asosidagi izoh;
oddiy savol yoki mini-topshiriq tayyorlanadi.
O‘quvchi:
materialni uyda ota-ona ko‘magida ko‘rib chiqadi;
tushunganini belgilaydi yoki savol tayyorlaydi.
Muhim: boshlang‘ich sinfda video qisqa, rangli va sodda bo‘lishi shart.
2-bosqich. Sinfda faol o‘rganish
Sinfda:
muhokama va savol-javob;
juftlik va guruhda ishlash;
o‘yinli mashqlar;
rasm chizish, matn tuzish, masala yechish amalga oshiriladi.
Bu bosqichda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi va yordamchi rolini bajaradi.
3-bosqich. Mustahkamlash va baholash
interfaol testlar;
ijodiy topshiriqlar;
og‘zaki baholash va rag‘batlantirish.
Baholash formativ xarakterda olib boriladi.
Boshlang‘ich sinflar uchun moslashtirish xususiyatlari
texnologiya haftasiga 1–2 marta qo‘llanadi;
ota-onalar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi;
raqamli yuklama me’yorida bo‘ladi;
o‘yin texnologiyalari bilan uyg‘unlashtiriladi.
Texnologiyaning pedagogik afzalliklari
o‘quvchi darsda faol ishtirok etadi;
o‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan individual ishlay oladi;
bilimlar chuqurroq o‘zlashtiriladi;
masofaviy va aralash ta’lim samarali amalga oshiriladi.

«Flipped Classroom» texnologiyasi boshlang‘ich sinflarda masofaviy va aralash ta’lim elementlarini samarali joriy etish imkonini beradi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda qo‘llanganda, ta’lim sifati va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi sezilarli darajada oshadi.

Xulosa va takliflar. Agar berilgan topshiriqlar darajasi talabaning tayyorgarlik darajasiga mos kelmasa, motivatsiya tezda pasayadi. Aks holda, ko‘plab talabalar bitirmaydilar. Masofaviy ta’lim kurslarini yaratishda talaba masofadan o‘qishning boshidanoq undan nima talab qilinishini bilishi kerakligi kabi qoidalarni esga olish kerak. O‘quv maqsadlari dasturda aniq va aniq ko‘rsatilishi kerak. Darsning davomiyligi ma’lumotni idrok etish qobiliyatiga katta ta’sir qiladi va masofaviy yondashuvda 20-40 daqiqa davom etish ideal deb hisoblanadi. Materialni yanada muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun masofaviy ta’lim kursini nisbatan kichik, mantiqiy jihatdan yopiq qismlarga bo‘lish kerak. Strukturani qurishga qo‘yiladigan asosiy talablar: tarkibiy bo‘linmani taqsimlashning izchilligi, talabaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri har qanday strukturaviy birlikdan unga mantiqiy bog‘liq bo‘lgan boshqasiga o‘tish qobiliyati.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Almardanovna, S. D., & Shokirovna, A. M. (2025). The Effectiveness of Increasing Students’ Cognitive Activity in Primary Education. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 39, 66-70.

2. Islamovna, K. G. (2025). Preparing Elementary Students for Emergencies–As a Pedagogical Problem. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 40, 169-172.

3. Islamovna, K. G., & Normamatovna, H. N. (2025). Enhancing Students’ Creative Thinking through International Studies Assignments. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 38, 217-221.

4. Yuldashev, S., Akramov, M., Tursunova, F., Abdullaeva, K., Shakhmurodova, D., & Ubaydullayev, A. (2024, May). A Development of AI Connected System with Adaptive Assessments Method for Evaluation Methods in Education Field. In 2024 4th International Conference on Advance Computing and Innovative Technologies in Engineering (ICACITE) (pp. 826-830). IEEE.

Qosimova G.I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish metodikasini takomillashtirish /dissertatsiya / pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktorligi/ 2022 y. 144 bet.

РАЗВИТИЕ КООРДИНАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КООРДИНАЦИОННОЙ ЛЕСТНИЦЫ

Тошова Рушана Разаковна ,
Бухарский государственный педагогический институт докторант 1 курса

Аннотация:Целью данного исследования было изучение эффективности использования координационной лестницы для развития координационных способностей у учащихся начальной школы в возрасте 10–11 лет. Координационные способности имеют важное значение для двигательного, когнитивного и физического развития детей, закладывая основу для будущих спортивных достижений и общей физической подготовки. В исследовании изучалось, как структурированные упражнения с координационной лестницей могут улучшить ловкость, равновесие, время реакции и общие двигательные навыки. В исследовании приняли участие 104 ученика второго класса, которые выполняли упражнения с координационной лестницей во время обычных уроков физкультуры. Результаты продемонстрировали значительные улучшения координации, подчеркнув роль лестницы как эффективного инструмента для психомоторного развития. Эти результаты предоставляют ценную информацию для разработки программ физического воспитания, способствующих целостному развитию и физической грамотности у юных учеников. В исследовании подчеркивается важность внедрения инновационных, основанных на активности методов для повышения общей физической подготовки и двигательных навыков детей.

Ключевые слова: координационные способности, физическое воспитание, двигательные навыки, начальная школа, координационная лестница, ловкость, равновесие, время реакции, двигательное развитие, спортивная подготовка, фитнес, программы упражнений, развитие ребенка, психомоторные навыки.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KOORDINATSION NORVONIDAN FOYDALANISH ORQALI KOORDINATSION QOBILATLARINI RIVOJLANTIRISH

Rushan Razakovna Toshova
Buxoro Davlat Pedagogika Instituti 1-kurs Tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotning maqsadi 10-11 yoshli boshlang'ich maktab o'quvchilarida koordinatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish uchun koordinatsiya zinapoyasidan foydalanish samaradorligini o'rganish edi. Koordinatsiya ko'nikmalari bolalarning motor, kognitiv va jismoniy rivojlanishi uchun juda muhim bo'lib, kelajakdagi sport yutuqlari va umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun poydevor yaratadi. Tadqiqotda koordinatsiya zinapoyasi bilan tuzilgan mashqlar chaqqonlik, muvozanat, reaksiya vaqti va yalpi motor ko'nikmalarini qanday yaxshilashi mumkinligi o'rganildi. Tadqiqotda jami 104 ta ikkinchi sinf o'quvchisi muntazam jismoniy tarbiya darslarida koordinatsiya zinapoyasi mashqlarini bajarish bilan ishtirok etdi. Natijalar koordinatsiyada sezilarli yaxshilanishlarni ko'rsatdi va zinapoyaning psixomotor rivojlanish uchun samarali vosita sifatidagi rolini ta'kidladi. Ushbu topilmalar yosh o'quvchilarda yaxlit rivojlanish va jismoniy savodxonlikni rivojlantiradigan jismoniy tarbiya dasturlarini ishlab chiqish uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. Tadqiqot bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligi va motor ko'nikmalarini yaxshilash uchun innovatsion, faoliyatga asoslangan usullarni qo'llash muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: muvofiqlashtirish qobiliyatlari, jismoniy tarbiya, motor qobiliyatlari, boshlang'ich maktab, muvofiqlashtirish zinapoyasi, chaqqonlik, muvozanat, reaksiya vaqti, motor rivojlanishi, sport mashg'ulotlari, fitnes, mashq dasturlari, bolaning rivojlanishi, psixomotor

qobiliyatlar.

DEVELOPMENT OF COORDINATION ABILITIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS USING A COORDINATION LADDER

Toshova Rushan Razakovna,
Bukhara State Pedagogical Institute 1st year PhD student

Annotation:This study aimed to investigate the effectiveness of using a coordination ladder in developing coordination abilities in primary school students aged 10–11 years. Coordination abilities are essential for children's motor, cognitive, and physical development, providing the foundation for future sports performance and overall physical competence. The study examined how structured exercises with a coordination ladder can enhance agility, balance, reaction time, and general motor skills. A total of 104 second-grade students participated in the research, engaging in coordinated ladder drills during regular physical education lessons. The results demonstrated significant improvements in coordination, highlighting the ladder's role as an effective tool for psychomotor development. These findings offer valuable insights for designing physical education programs that foster holistic growth and physical literacy in young learners. The study emphasizes the importance of incorporating innovative, activity-based methods to promote children's overall fitness and motor competence.

Keywords: Coordination abilities, physical education, motor skills, primary school, coordination ladder, agility, balance, reaction time, motor development, sports training, fitness, exercise programs, child development, psychomotor skills.

Introduction: The physical development and health of school-age children are critical issues worldwide. Recent studies indicate that a sedentary lifestyle and low physical activity are primary contributors to obesity, decreased motor competence, and other health problems among children [1,2,3]. Physical education lessons at school play a crucial role in addressing these concerns, promoting the harmonious development of motor, cognitive, and motivational abilities [6]. In addition, regular physical activity positively influences psychological well-being, attention, memory, and learning outcomes in children [7].

Coordination abilities (CA) are particularly significant during primary school years, considered a sensitive period for motor development [3,8]. CA refers to the capacity to quickly analyze and execute motor tasks accurately, especially in unpredictable situations [4,5]. Efficient coordination enables children to perform complex motor actions, adapt to environmental challenges, and acquire sports-specific skills. Among the types of CA, the ability to coordinate movements—combining individual movements into integrated motor patterns—is fundamental for future sports skills and overall motor competence [5]. Furthermore, the development of CA contributes to injury prevention, as children learn to control their bodies and maintain balance in dynamic situations [9].

The coordination ladder is an effective tool for developing CA. Exercises using the ladder improve agility, rhythm, spatial orientation, reaction time, and the integration of movements. They also enhance neuromuscular communication and timing, which are essential for executing precise motor actions [10,11]. Despite its widespread use in professional sports training, few studies have examined the pedagogical application of the coordination ladder in school physical education programs for primary school children. This study aims to fill this gap by evaluating the effectiveness of coordination ladder exercises in developing CA in 10–11-year-old students, providing evidence-based recommendations for physical education curriculum design and activity selection.

Discussion

Primary school age (10–11 years) represents a particularly important period for the development

of coordination abilities in children. During this stage of ontogenetic development, the nervous system demonstrates high plasticity, which facilitates the rapid acquisition and improvement of motor skills. For this reason, pedagogical interventions aimed at developing coordination abilities can produce significant improvements when applied systematically within the physical education curriculum.

The results of the present study demonstrate that the inclusion of coordination ladder exercises in regular physical education lessons has a positive impact on the development of children's coordination abilities. While traditional physical education lessons provide general motor development, they often lack specific exercises designed to improve the ability to combine movements, spatial orientation, rhythm, and agility. The coordination ladder serves as an effective pedagogical tool that allows teachers to structure exercises that require precise motor control and rapid adjustment of body movements.

The findings revealed that students in the experimental group demonstrated a substantial improvement in coordination performance compared with the control group. The 29.2% increase in the experimental group indicates that systematic use of ladder exercises contributes significantly to the development of motor coordination. These exercises stimulate the neuromuscular system by requiring children to perform complex sequences of movements while maintaining balance, rhythm, and speed. Such activities improve intermuscular coordination and enhance the ability to quickly adapt movements to changing motor tasks.

In contrast, the control group showed only a moderate improvement (9.1%), which was not statistically significant. This result suggests that while regular physical education lessons support general motor development, they may not provide sufficient stimulus for intensive coordination improvement without the inclusion of specialized exercises.

The results obtained in this study are consistent with the findings of previous research, which indicate that structured coordination training significantly enhances motor skill development in children. Studies by researchers such as G.G. Polevoy and colleagues have demonstrated that targeted exercises aimed at rhythm, spatial orientation, and agility contribute to improved coordination performance in primary school students. The present study further confirms that coordination ladder exercises represent an effective and practical method for developing these abilities in a school environment.

Another important advantage of the coordination ladder is its accessibility and versatility. The exercises require minimal equipment and can be easily integrated into existing physical education lessons without increasing lesson duration. A short set of exercises lasting 5–6 minutes can effectively stimulate coordination development while maintaining student motivation and engagement.

Overall, the results highlight the pedagogical value of coordination ladder training as a supplementary method for improving coordination abilities in primary school children. The integration of such exercises into the standard physical education curriculum can significantly enhance the effectiveness of motor development programs.

Conclusions:Based on the results of the pedagogical experiment and the analysis of the obtained data, the following conclusions can be drawn:

Standard physical education lessons contribute to the development of general motor abilities and coordination skills in primary school children. However, the improvement achieved through the standard curriculum alone is relatively moderate and may not be sufficient for the optimal development of coordination abilities.

The introduction of coordination ladder exercises into physical education lessons significantly improves the ability of students to coordinate and combine movements. The experimental group demonstrated a statistically significant improvement of 29.2% ($p<0.05$), confirming the effectiveness of this training method.

The control group also showed a positive improvement (9.1%), which indicates that regular physical education lessons support the natural development of coordination abilities during the primary school period. However, the changes were not statistically significant, which emphasizes the importance of additional targeted exercises.

Primary school age (10–11 years) represents a sensitive and favorable period for the development of coordination abilities. During this stage, the nervous system is highly adaptable, allowing children to quickly master complex motor skills and movement combinations.

Coordination ladder exercises promote the development of several important motor components, including agility, rhythm, balance, spatial orientation, and the ability to quickly switch between different movement patterns.

The use of short exercise complexes lasting 5–6 minutes during physical education lessons is sufficient to produce noticeable improvements in coordination abilities without increasing the overall duration of the lesson.

Coordination ladder training can be easily integrated into school physical education programs due to its simplicity, accessibility, and effectiveness. It does not require complex equipment and can be applied to large groups of students.

Therefore, it is recommended that coordination ladder exercises be systematically included in physical education lessons as a supplementary method to enhance the development of coordination abilities and overall motor competence of primary school students.

The results of this study can be useful for physical education teachers, coaches, and researchers who are interested in improving the effectiveness of motor development programs in primary school settings.

References

Alabyan, A. G., Okunkov, Yu. V., Stolyarov, V. I., & Fomichenko, T. G. (2022). Physical activity in preschool children. Teoriya i Praktika Fizicheskoy Kultury, (10), 107–109.

Kainov, A. N., & Kuryerova, G. I. (Eds.). (2018). Physical education for grades 1–11: Comprehensive program for student development. Volgograd: Uchitel.

Novikova, I. I., Shevkun, I. G., & Gavrish, S. M. (2022). Health disorders in schoolchildren with normal vs. excessive body weight. Sanitarnyy Vrach, (2), 650–661.

Polevoy, G. G. (2021). Development of spatial orientation in children based on jumping exercises. Teoriya i Praktika Fizicheskoy Kultury, (1), 79–81.

Polevoy, G. G., Sablin, A. B., & Chernyshev, S. V. (2023). Standard hopscotch game and rhythm development in primary school children. Teoriya i Praktika Fizicheskoy Kultury, (6), 64–65.

Polevoy, G. G., Sablin, A. B., & Chernyshev, S. V. (2024). Developing physical abilities in primary school children. Teoriya i Praktika Fizicheskoy Kultury, (9), 73–75.

Polevoy, G. G. (2024). Endurance and the sensitive period for its development in children. Journal of Physical Education and Sport, 24(3), 544–551.

Vilenskiy, M. Ya., Turevskiy, I. M., & Torochkova, T. Yu. (2019). Physical culture. Moscow: Prosveshcheniye.

Başarır, B., Canlı, U., Şendil, A. M., Alexe, C. I., Tomozei, R. A., Alexe, D. I., & Burchel, L. O. (2025). Effects of coordination based training on physical fitness, motor competence and inhibition control in preschool children. BMC Pediatrics, 25, 539.

Polevoy, G. G. (2021). Development to coordinate movements of children aged 8–9 years using a coordination ladder. Entomology and Applied Science Letters.

Chen, W., & Li, N. (2026). Construction and application of coordination ability evaluation tool for children aged 4–5.9 years old. Frontiers in Public Health.

CHIZMACHILIK FANINI O‘QITISHDA KOGNITIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK TIZIMI

Mamurova Dilfuza Islomovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti p.f.f.d. (PhD), prof.

Shokirova Sevara,
Buxoro davlat pedagogika instituti magistri.

Annotatsiya. Ushbu maqola chizmachilik fanini o‘qitishda o‘quvchilarda kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishning metodik tizimini o‘rganishga bag‘ishlangan. Kognitiv kompetensiyalar – bu o‘quvchining mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish, yechimlar topish va ijodiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatidir. Tadqiqotda chizmachilik darslarida interaktiv va innovatsion metodlardan, shuningdek, o‘quv faoliyatini bosqichma-bosqich rejalashtirish va baholash vositalaridan foydalanish orqali kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Maqolada o‘quvchilarni vizual tafakkurini, abstrakt fikrlashini va kreativ qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish metodikasi ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: chizmachilik fanini o‘qitish, kognitiv kompetensiya, metodik tizim, interaktiv metodlar, kreativ fikrlash, vizual tafakkur, tanqidiy fikrlash.

ФОРМИРОВАНИЕ КОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ЧЕРЧЕНИЯ: МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА

Мамурова Дильфуза Исламовна,
Бухарский государственный педагогический институт, к.п.н. (PhD), профессор

Шокирова Севара,
Бухарский государственный педагогический институт, магистр

Аннотация. Статья посвящена изучению методической системы формирования когнитивных компетенций у учащихся при обучении черчению. Когнитивные компетенции включают способность ученика самостоятельно мыслить, анализировать проблемы, находить решения и осуществлять творческую деятельность. В исследовании анализируются эффективные методы развития когнитивных компетенций с использованием интерактивных и инновационных методов обучения, а также поэтапного планирования учебной деятельности и оценочных инструментов на уроках черчения. Методика развития визуального мышления, абстрактного мышления и способности к креативному принятию решений у учащихся также освещена.

Ключевые слова: обучение черчению, когнитивная компетенция, методическая система, интерактивные методы, креативное мышление, визуальное мышление, критическое мышление.

METHODOLOGICAL SYSTEM FOR DEVELOPING COGNITIVE COMPETENCIES IN TEACHING DRAWING

Mamurova Dilfuza Islomovna,
Bukhara State Pedagogical Institute, Ph.D., Professor

Shokirova Sevara,
Bukhara State Pedagogical Institute, Master’s Degree

Abstract. This article is dedicated to studying the methodological system for developing

cognitive competencies in students in the teaching of drawing. Cognitive competencies include a student’s ability to think independently, analyze problems, find solutions, and engage in creative activity. The study analyzes effective methods for developing cognitive competencies through the use of interactive and innovative teaching methods, as well as step-by-step planning and assessment tools in drawing lessons. The methodology for enhancing students’ visual thinking, abstract reasoning, and creative decision-making skills is also highlighted.

Keywords: teaching drawing, cognitive competency, methodological system, interactive methods, creative thinking, visual thinking, critical thinking.

So‘nggi yillarda ta’lim jarayoni jahon ta’lim standartlariga mos ravishda o‘zgarishlar va islohotlarga duch kelmoqda. Ta’lim sohasini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat - O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun bo‘lib, unda ta’limning maqsadi fuqarolarning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashiga kafolat berish, shuningdek o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish deb belgilangan. Qonunga ko‘ra ta’lim jarayonida davlat ta’lim standartlari majburiy bo‘lib, ularning bajarilishi O‘zbekiston Respublikasi barcha umumiy ta’lim muassasalari uchun shart hisoblanadi. Davlat ta’lim standartlari o‘quvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan majburiy talablarni belgilaydi va ta’lim sifatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Davlat ta’lim standartlarining joriy etilishi bilan ta’lim mazmuni kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi - ya’ni o‘quvchilar nafaqat bilimlarni yodlab oladi, balki uni amaliyotda qo‘llash, tahlil qilish, muammolarni hal etish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarni faol ijodiy va kognitiv faoliyatga jalb etadigan ta’lim kurikulumining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Chizmachilik fani - umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning grafik tafakkur, vizual muloqot, murakkab tasviriy tasavvur va muammolarni tahlil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan asosiy fanlardan biridir. Davlat ta’lim standartlariga muvofiq, chizmachilik darslarining maqsadi o‘quvchilarda hayotiy tasavvur bilan murakkab bo‘lmagan texnik chizmalarni bajarish va o‘qish, grafik ifodani amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantirishdan iboratligi belgilangan. Bu jarayon o‘quvchilarning abstrakt fikrlash, kreativ muammolarni hal etish va vizual taqqoslash qobiliyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kognitiv kompetensiyalar - bu o‘rganilgan bilimlarni mustaqil ravishda tahlil etish, yangi bilimlarni kompleks tasavvurga solish, muammolarni yechish va ijodiy qarorlar ishlab chiqish qobiliyatidir. Chizmachilik fanini o‘qitish jarayonida kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy metodik tizimi o‘quvchilarga ta’limni passiv qabul qilishdan faol, mustaqil va ijodiy faoliyatga o‘tishga imkon yaratadi. Mazkur metodik tizim o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini tizimli rivojlantirishni nazarda tutadi, bunda interaktiv pedagogik yondashuvlar, bosqichma bosqich rejalashtirilgan mashqlar va baholash mexanizmlari qo‘llaniladi.

Shu tariqa, chizmachilik fanini o‘qitishning metodik tizimi nafaqat texnik bilimlarni o‘rgatishga, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil, visualizatsiya va ijodkorlik kabi kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan murakkab pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini kelajakda ijtimoiy iqtisodiy hayotda qo‘llay olishlariga xizmat qiladi.

Chizmachilik fani ayniqsa vizual tafakkur, mantiqiy va abstrakt fikrlash, texnik va ijodiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilar oddiy va murakkab shakllarni chizish, texnik detallarni loyihalash, o‘z ijodiy ishlarida estetik va texnik me’yorlarga amal qilish orqali kognitiv kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, chizmachilik darslari o‘quvchilarning mas’uliyatli qaror qabul qilish, rejalashtirish va tizimli fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi

Chizmachilik fanini o‘qitish jarayoni zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda kognitiv, kreativ va muloqotga asoslangan kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonning

samarali bo‘lishi uchun mustahkam nazariy asoslarga ega bo‘lish muhimdir. Nazariy asoslar o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tizimli rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, dars jarayonini rejalashtirish, usullarini tanlash va baholash mexanizmlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Avvalo, metodik tizimning asosiy nazariy yondashuvlaridan biri konstruktivizm prinsipidir. Konstruktivizmga ko‘ra, o‘quvchi bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol faoliyat orqali o‘zlashtiruvchi sifatida qaraladi. Chizmachilik darslarida bu yondashuv o‘quvchilarga murakkab shakllarni, texnik detallarni va loyihaviy vazifalarni mustaqil ravishda bajarish imkonini beradi. Shu bilan birga, ularning kreativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim nazariy yondashuv – kognitiv rivojlanish yondashuvi. Bu yondashuv o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, vizual tafakkur, muammolarni hal etish va yangi bilimlarni amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Chizmachilik fanida murakkab geometrik shakllarni loyihalash, diagrammalar va texnik eskizlarni tushunish orqali o‘quvchilar o‘zining kognitiv imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, metodik tizimda bosqichma-bosqich o‘qitish prinsipi muhim rol o‘ynaydi. Bu prinsipga ko‘ra, o‘quvchilar avval oddiy shakllarni chizish va tahlil qilishni o‘rganadi, keyinchalik esa murakkab loyihalarni bajaradi. Shu tarzda o‘quvchilar mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Nazariy asoslarda shuningdek kompetensiyaviy yondashuv ham mavjud. Kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarning bilimini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi va ularni kelajakda kasbiy va ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Chizmachilik fanida bu yondashuv o‘quvchilarga loyihaviy ishlarni bajarish, muammoli vazifalarni hal etish va ijodiy qarorlar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, metodik tizimda interaktiv pedagogik usullarni qo‘llash nazariy asos sifatida ajralib turadi. Interaktiv metodlar o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini, hamkorlik va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta’minlaydi. Masalan, guruh ishlari, muammoli vazifalar, vizual materiallar bilan mashqlar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar chizmachilik faniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Shu tariqa, chizmachilik fanini o‘qitishda metodik tizimning nazariy asoslari bir nechta asosiy tamoyillarga tayangan: konstruktivizm, kognitiv rivojlanish, bosqichma-bosqich o‘qitish, kompetensiyaviy yondashuv va interaktiv pedagogik metodlar. Bu nazariy asoslar dars jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarning kognitiv va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega.

Chizmachilik fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish murakkab va ko‘p qirralik pedagogik jarayon hisoblanadi. Kognitiv kompetensiyalar - o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish, kreativ yechimlar ishlab chiqish va yangi bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatidir. Bu kompetensiyalarni shakllantirish uchun darsda bir nechta asosiy usullardan foydalanish mumkin:

Interaktiv metodlar o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirokini ta’minlaydi va ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Masalan:

Muammoli vazifalar: o‘quvchilarga murakkab shakllar, diagrammalar yoki texnik chizmalarni berib, ularni mustaqil yechim topishga jalb qilish. Bu usul o‘quvchilarning tahliliy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Guruh ishlari: o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, loyihaviy vazifalarni birgalikda bajaradilar. Bu orqali ular hamkorlik, kommunikativ ko‘nikmalar va jamoada qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Rol o‘yinlar va simulyatsiyalar: O‘quvchilar turli kasblarni yoki loyihaviy vazifalarni simulyatsiya qiladilar. Shu yo‘l bilan ijodiy tafakkur va muammolarga innovatsion yechim topish qobiliyatlari rivojlanadi.

Chizmachilik fanida vizual tafakkur va grafik qobiliyatlar muhim ahamiyatga ega. Shu sababli vizual metodlar keng qo‘llaniladi:

Chizmalar, eskizlar va diagrammalar: o‘quvchilar murakkab texnik shakllarni tushunish va ularni amaliyotda chizishni o‘rganadi. Ko‘rgazmali materiallar: plakatlar, model va grafik materiallar orqali darslarni boyitish o‘quvchilarning e’tiborini jalb qiladi va murakkab kontseptsiyalarni tushunishni osonlashtiradi.

Kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda bosqichma-bosqich o‘qitish printsipi muhim hisoblanadi. O‘quvchilar avval oddiy shakllar va texnik chizmalarni bajaradi, keyinchalik murakkab loyiha va konstruksiyalarni amalga oshiradi. Bu usul o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, tahlil qilish va kreativ yechimlar ishlab chiqish qobiliyatini oshiradi.

Kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishda o‘quv jarayonini rejalashtirish va boshqarish ham muhimdir. Bunda o‘quvchilarga:

Vazifalarni bosqichma-bosqich bajarish imkoniyati beriladi;

Mustaqil izlanish va qo‘shimcha manbalardan foydalanish rag‘batlantiriladi;

O‘quvchilarning qobiliyatiga mos shaxsiy vazifalar taqdim etiladi.

Kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida baholash doimiy bo‘lishi kerak. O‘quvchilarning ishlari tahlil qilinadi, ularga individual feedback beriladi va xatolarni tuzatish imkoniyati yaratiladi. Bu usul o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, muammolarga kreativ yechim topishini va o‘zini baholash qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy darslarda multimedia va kompyuter dasturlaridan foydalanish ham kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan: CAD dasturlari, interaktiv taqdimotlar va simulyatsiyalar o‘quvchilarga murakkab shakllarni amaliyotda loyihalash va tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bilan, chizmachilik fanida kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish usullari interaktiv metodlar, vizual materiallar, bosqichma-bosqich o‘qitish, rejalashtirish, baholash va texnologik vositalardan foydalanish kabi bir nechta kompleks yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Bu usullar o‘quvchilarning ijodiy, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi va ularni kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy hayotga tayyorlaydi.

Chizmachilik fanini o‘qitishda kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimning amaliy ahamiyati ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu metodik tizim o‘quvchilarning bilimlarni faqat nazariy darajada o‘zlashtirishi bilan cheklanmasdan, ularni amaliy faoliyat jarayonida qo‘llash, tahlil qilish va mustaqil qarorlar qabul qilishga yo‘naltiradi. Natijada o‘quvchilarda mustahkam bilim, barqaror ko‘nikma va amaliy malakalar shakllanadi.

Metodik tizimning amaliy ahamiyati, avvalo, o‘quvchilarda vizual va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali namoyon bo‘ladi. Chizmachilik darslarida grafik tasvirlar, chizmalar va eskizlar bilan ishlash o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini kengaytiradi, ularni murakkab shakllarni tahlil qilishga va tuzilishini anglashga o‘rgatadi. Bu esa kognitiv faoliyatning faollashishiga olib keladi.

Mazkur metodik tizim amaliyotda o‘quvchilarning mustaqilligini oshirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida muammoli vazifalar, loyihaviy ishlar va bosqichma-bosqich topshiriqlardan foydalanish orqali o‘quvchilar o‘z faoliyatini rejalashtirish, natijalarni baholash va xulosalar chiqarishga o‘rganadilar. Bu jarayon ularning mas’uliyat hissini kuchaytiradi va o‘z bilimiga tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, metodik tizimning amaliy ahamiyati ijodiy fikrlashni rivojlantirish bilan ham bevosita bog‘liq. Chizmachilik fanida ijodiy yondashuv asosida bajariladigan topshiriqlar o‘quvchilarning noodatiy fikrlashini, yangicha yechimlar izlashini va kreativ qarorlar qabul qilishini rag‘batlantiradi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodik tizimning yana bir muhim amaliy jihati - ta’lim jarayonini individuallashtirish

imkoniyatining mavjudligidir. O‘quvchilarning qobiliyati, bilim darajasi va qiziqishlarini hisobga olgan holda turli darajadagi topshiriqlar berilishi ta’lim samaradorligini oshiradi. Bu yondashuv har bir o‘quvchining kognitiv imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Bundan tashqari, mazkur metodik tizim o‘qituvchining pedagogik faoliyatini ham takomillashtiradi. O‘qituvchi dars jarayonini aniq rejalashtirish, samarali metod va vositalarni tanlash, baholash va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada ta’lim jarayoni tizimli, izchil va maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etiladi.

Xulosa qilib aytganda, chizmachilik fanini o‘qitishda kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga asoslangan metodik tizimning amaliy ahamiyati o‘quvchilarning bilim sifati, mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu metodik tizim umumta’lim maktablarida chizmachilik fanini samarali o‘qitish, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Jo‘rayev R.X., To‘xtaboyev S.M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

2.Klarin M.V. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Moskva: Pedagogika, 2019.

3.Abdullayeva Q.M. Chizmachilik fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.

4.Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sharq, 2020.

5.Zunnunov A., Karimov U. Ta’limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.

SOVET MAKTABLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARINING O‘QITILISHI VA UNING MAQSADLARI

Mamasaidov Lutfillo Payzullo o‘g‘li
University of Business and Science dotsenti
ORCID: 0009-0004-3573-6787

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sovet davrida maktab ta’lim sohasida qishloq xo‘jaligi politexnik fanlarining o‘qitilishi, uning mazmun-mohiyati hamda asosiy maqsadlari tahlil qilingan. Kommunistik mafkura siyosati doirasida qishloq xo‘jaligi fanlarini maktab o‘quv dasturlariga kiritish sabablari, o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga tayyorlash hamda SSSRning jamolashtirish va xo‘jalik tizimi uchun zarur kadrlarni yetishtirishga qaratilgan islohotlari yoritiladi. Hamda maktablarda o‘quv tajriba xona, tajriba uchastkalari va ishlab chiqarish bilan bog‘liq ta’lim jarayonining yoritilgan.

ПРЕПОДАВАНИЕ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ДИСЦИПЛИН В СОВЕТСКИХ ШКОЛАХ И ИХ ЦЕЛИ

Аннотация: В данной статье анализируется преподавание сельскохозяйственных политехнических дисциплин в системе школьного образования в советский период, их содержание и основные цели. Рассматриваются причины включения сельскохозяйственных предметов в школьные учебные программы в рамках политики коммунистической идеологии, вопросы формирования у учащихся трудовых навыков, подготовки их к сельскохозяйственному производству, а также реформы, направленные на подготовку необходимых кадров для системы коллективизации и хозяйственного устройства СССР. Кроме того, освещается организация учебного процесса в школах, включая деятельность учебно-опытных кабинетов, опытных участков и обучение, связанное с производственной практикой.

THE TEACHING OF AGRICULTURAL SUBJECTS IN SOVIET SCHOOLS AND ITS OBJECTIVES

Abstract: This article analyzes the teaching of agricultural polytechnic subjects in the school education system during the Soviet period, as well as their content and main objectives. It examines the reasons for including agricultural subjects in school curricula within the framework of communist ideological policy, the formation of labor skills among students, their preparation for agricultural production, and the reforms aimed at training the necessary personnel for the collectivization and economic system of the USSR. The article also highlights the organization of the educational process in schools, including the activities of training laboratories, experimental plots, and education related to production practice.

Kalit so‘zlar: Sovet ta’lim tizimi, qishloq xo‘jaligi fanlari, politexnik ta’lim, kommunistik mafkura, maktab ta’limi, o‘quv tajriba uchastkalari, mehnat tarbiyasi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, kollektivlashtirish siyosati, o‘quv dasturlari.

Ключевые слова: советская система образования, сельскохозяйственные дисциплины, политехническое образование, коммунистическая идеология, школьное образование, учебно-опытные участки, трудовое воспитание, сельскохозяйственное производство, политика коллективизации, учебные программы.

Keywords:

Soviet education system, agricultural subjects, polytechnic education, communist ideology, school education, training and experimental plots, labor education, agricultural production, collectivization policy, curricula.

KIRISH. XX asrda sobiq Sovet Ittifoqi ta’lim tizimi jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ehtiyojlari asosida shakllantirilgan bo‘lib, unda maktab ta’limi nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni ishlab chiqarish jarayoniga tayyorlash vositasi sifatida ham qaralgan. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi ustuvor ahamiyat kasb etgan hududlarda maktab ta’limi tizimi agrar soha bilan chambarchas bog‘langan holda rivojlantirildi. Shu bois umumta’lim maktablarida qishloq xo‘jaligiga oid fanlarni o‘qitish, o‘quvchilarni mehnatga jalb etish hamda ularni kelajakda qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yuritishga tayyorlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan.

Sovet davrida maktablarda qishloq xo‘jaligi fanlarini o‘qitish orqali o‘quvchilarga agronomiya, chorvachilik, dehqonchilik asoslari va qishloq xo‘jaligi texnologiyalariga oid dastlabki bilimlar berildi. Bu jarayon nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni ham nazarda tutgan. O‘quvchilar ko‘pincha maktab tajriba uchastkalarida, kolxoz va sovxozlarda tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar orqali qishloq xo‘jaligi ishlarida bevosita ishtirok etganlar. Natijada ta’lim jarayoni ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashtirilgan holda tashkil etilib, yosh avlodni mehnatsevarlik, jamoaviylik va ishlab chiqarishga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Мурзаалиев Э. Ю. История народного образования в Узбекистане (1961-1985 гг.) на материалах Ферганской, Андижанской и Наманганской областей nomli tarix fanlari nomzodi darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyada maktab sohasiga oid asosiy ma’lumotlar faqatgina Farg‘no vodiysi viloyatlarini qamrab olgan.

XX asr o‘rtalarida O’zbekistonda maorif tizimining holati bo‘yicha bugungi kunga qadar ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Bulardan: Qodirov E. K. O‘zbekiston umumta’lim maktablarining rivojlanish tarixidan deb nomlangan kitobida aynan urush yillarida maktab ta’limi sohasida amalga oshirilgan ko‘plab islohotlar haqida so‘zlansada bu kitob sovet davri 1979-yilda chop etilgan bo‘lib, unda komunistik qarashlar va maktab sohasidagi ayrim kamchiliklar haqida kam ma’lumotlar keltiriladi.

Bundan tashqari mazkur mavzuni yoritishda “Sovet maktabi” jurnali va “O‘qituvchilar” gazetasi ham muhim ahamiyatga egadir. Ya’ni undagi maqolalardan mavzu doirasida ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, O‘zbekiston milliy arxivining R-94, R-1619 va boshqa fondlarida maorif sohasiga bevosita a’loqadordir.

MUHOKAMA

Ittifoq hududlarida “Boshlang‘ich ta’lim” ta’lim tizimini tashkil etilishining yana bir o‘ziga xos ko‘rinishi shundaki, unda Sovet sotsiolistik tuzum o‘rnatilishi bilan yosh avlodni fan asoslari politexnika bilimlari bilan qurollantirish, o‘quvchilarni internatsionalizm va kommunistik g‘oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalashni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib, buni maktablar, bog‘chalar ochish orqali amalga oshirish edi.

Bu yillarda maktablarda malakali mutaxassislarning yetishmasligi balki maktablar o‘z davriga xos moddiy-texnik bazaga ega emasligi, ayrim maktablar yuqorida keltirganimizdek moslashtirilgan maktablar bo‘lishi, 1954-yilda respublikada 500 dan ortiq maktablar qurilishi rejalashtirilgan bo‘lsa-da qurilmaganligi, eng asosiysi davlat tomonidan amalga oshirilayotgan O‘zbekistondagi “Paxta yakka hokimligi” siyosati barchani yoki to‘g‘riroq qilib aytganda bolalarni ham dala ishlarida ishlashga va kun kechirishga majbur qilgan.

Shuning uchun ham bolalarni maktabni tashlab ketish holatlari 1940-yillarda yuzaga kelgan muammolardan bo‘lsa, bu holat amalda 80-yillargacha davom etgan. Bundan tashqari, maktablarda ta’lim olayotgan o‘quvchilar aniq va tabiiy fanlarni o‘qitilishidagi mavzular qishloq xo‘jaligiga mos yoki hamohang holda bilim berishga urg‘u berilgan. Buning uchun respublika maktablarida tajriba uchastkalari joriy etilib, u yerlarda o‘quvchilarning qishloq xo‘jaligi sohasiga oid bilimlar kuchaytirilgan.

Masalan 1954-yilda respublikadagi shu vaqtga qadar ko‘plab maktablarda chunonchi, Xorazm viloyatida 350 ta yetti yillik va o‘rta maktablarda 218 tasida, Andijon viloyatida 165 ta, Qoraqalpog‘iston ASSRdagi 174 ta maktablarda tajriba uchastkalari yo‘qligi tanqid qilingan[1.12].

Bu masalada 1953-yilda Biologiya fani o‘qituvchilarining politexnik bilimlarini oshirishga qaratilgan ikki marotaba respublika kengashi o‘tkazilgan. 1953-yil oxirida o‘tkazilgan respublika 2-kengashining ishlarida 700 ga yaqin o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar, maktab rahbarlari va xalq maorifi xodimlari qatnashadi. Ushbu kengashda o‘qituvchilarda qishloq xo‘jaligiga muhabbat va qiziqish tug‘dirishda avvaldan ko‘ra ko‘proq mahorat ko‘rsatilayotganligi, o‘quvchilar bu sohada yil sayin tobora puxtaroq amaliy ko‘nikma va malaka hosil qilayotganlari haqida so‘zlanadi.

Shuningdek, Toshkentdagi 11, 32, 43-maktablar, Quvasoy tumanida 9-maktab, Komsomol tumani 20-maktablari va boshqa maktablarda biologiya fanini o‘qitish yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi ta’kidlanadi[2.81].

Umumta’lim maktablarida politexnik bilimlarning berilishi davr nuqtai nazarda yaxshi ahamiyatga ega bo‘lsa-da, amalda bolalarning bilim berishga jiddiy ta’sir o‘tkazgan. Mazkur yillarda o‘zi respublikada maktablar yetishmay yotgan bir davrda Oltiariq tumani 12-maktabida, Kattaqo‘rg‘on tumani 2-maktabida, Urgut tumani 1-maktabda, Kalinin tumani 26-maktabida va boshqa ko‘pgina maktablarda ipak qurtini o‘quv-ishlab chiqarish maqsadida boqish yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi keltirib o‘tiladi[3.85]. Politexnik bilimlarni o‘quvchilar orasida keng yoyish orqali o‘quvchilarda qishloq xo‘jaligiga bo‘lgan e’tibor kuchaytirilgan va asta-sekinlik bilan ushbu o‘quvchilarni qishloq xo‘jaligini rivojlantirish katta hissa qo‘shuvchi yoshlarni tarbiyalashgan. Shuning uchun ham o‘quvchilarning katta qismi yuqori sinflarda maktablarni tashlab ketishlari va kolxozlarda muayyan ishlarda mashg‘ul bo‘lish holatlari yuzaga kelgan.

1958-yilda respublikada mavjud Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida zamonaviy kadrlar tayyorlash masalasiga e’tibor oldingi yillarda ancha kuchaytirildi. Buning natijasida oliy o‘quv yurtlarida o‘quv ustaxonalari tashkil etildi, lobaratoriya va o‘quv xonalari qo‘shimcha yangi jihozlar hamda ko‘rgazmali qurollar bilan boyitildi. Mazkur yilda oliy o‘quv yurtlarida politexnika ustaxonalari, o‘quv xonalar va o‘quv tajriba xonalarini jihozlash uchun 5 mln rubl ajratildi[4.10].

O‘qituvchilarning politexnik bilimlarni o‘quvchilar orasida keng yoyish boshqa fanlarning susayishiga sabab bo‘lgan. 1955-yilda respublika maktablarida o‘quv-tarbiya ishlari ancha pasaygan. Shu yilda bahorgi imtihonlardan ikkinchi yilga qolgan o‘quvchilar ko‘rsatgichi o‘tgan yilgiga o‘xshab 11.4 foizni 145806 nafar tashkil etgan. Kuzgi imtixonlarga qolgan o‘quvchilar esa umumiy o‘quvchilarning 5 foizini 63950 nafarni tashkil etgan. Bu holat ayniqsa Namangan, Toshkent viloyatlari va Qoraqalpog‘iston ASSRda past o‘zlashtirish kuzatilgan bo‘lsa, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlarida o‘zlashtirish darajasi o‘tgan yilgidan ham tushib ketgan. Bu hududlarda ona tili, o‘zbek maktablarida rus tili, matematika fanlarini o‘zlashtirish pasaygan[5.5].

1964-yilda o‘qituvchilar va xalq ta’limi xodimlarining ish haqi oshirilgani, “O‘qituvchilar kuni” bayrami tashkil etilgani bu g‘amxo‘rlikning yorqin misolidir. Respublikamizning 7 mingdan ortiq o‘qituvchilari SSSR orden va medallari bilan taqdirlangan, 1750 nafar o‘qituvchi “O‘zbekiston SSRda xizmat ko‘rsatgan maktab o‘qituvchisi” faxriy unvoni, 5700 nafar kishi “Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan[6.11].

1966-yilga kelib esa Lenin ordeni bilan 608 nafar, Mehnat Qizil bayroq ordeni bilan 1954 nafar, “Hurmat belgisi” ordeni bilan 3558 nafar, “Shavkatli xizmati uchun” medali bilan 3076 nafar, “Mehnatda o‘rnak ko‘rsatganlik uchun” medali bilan 3085 nafar pedagoglar mukofotlangan[7.6]. Bu kabi taqdirlashlar mazkur davrda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarga mashaqqatli kasblarida yanada faol bo‘lishlarida turtki bo‘lgan. Bundan tashqari o‘qituvchilarning ta’lim va tarbiya jarayonlarida o‘quvchilarga kommunistik tarbiya qilishi masalalariga alohida e’tibor berilganligi o‘qituvchilarni turli mukofotlarga nomzod bo‘lishlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Sababi umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni kommunistik tarbiya berish har qanday vazifadan ustun hisoblangan. Kommunistik tarbiya yosh o‘quvchilarga kelajakda har qanday sohada vatan oldidagi burch va majburiyatlarini yoshlikdan anglatish, o‘zlarini kommunistik davlatning ajralmas qismi sifatida bilishlari muhim hisoblangan. Shuning uchun ham maktabning yuqori sinf o‘quvchilari maktablarda ta’lim olishdan ko‘ra ko‘proq qishloq xo‘jaligi ishlarining muayyan tarmog‘ida band bo‘lishga va shu orqali daromad olishga uringanlar.

Masalan, qishloq maktablari o‘quvchilarning dalachilik birigadalarining ish unumdorligi oshishiga katta hissa qo‘shganlar. 1962-yil respublikada maktablarida 611 ta dehqonchilik birigadalari mavjud bo‘lib, 19000 nafar Komsomol, pioner va o‘quvchilar ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug‘ullanganlar. Bu o‘quvchilarga 4591 gektar biriktirilgan[8.6].

O‘quvchilarning foydali mehnat bilan shug‘ullanishlari uchun 1963-yilda maktab o‘quvchilariga 10720 gektar yer, 480 ta traktor, 122 ta paxta terish mashinasi, 277 ta avtomobil va boshqa qishloq xo‘jaligi mashinalari biriktirilgan. Bu esa amalda maktabni hayot bilan bog‘lashning eng yaxshi usuli hisoblangan. Bu davrda asosan 9-11-sinf o‘quvchilari o‘quv ishlab chiqarish birigadalarining a’zolari hisoblangan[9.1]. Shuni alohida qayd etish zarurki, kommunistik mafkuraning asosiy maqsadi bolalarni ilm-ma’rifatli qilib tarbiyalash emas, balki ularni mamlakatning eng ishonchli mehnatkash insoni sifatida tarbiyalashga e’tibor qaratilgan. Bu borada qishloq maktablarining vazifasi ancha murakkab va mas’uliyatli hisoblangan. Qishloq o‘quvchilari 12–14 yoshlaridan boshlab ijtimoiy mehnatga qatnasha boshlaydilar – ota-onalari bilan brigada va fermalardagi ishlarga yordamlashadilar. Katta yoshdagi o‘quvchilar esa kolxoz va sovxozlardagi mehnatda ishtirok etadilar. Ma’lumki, 60-yillarda O‘zbekistonda paxta yetishtirish tez rivoj topgan bo‘lsa, bunda yosh paxtakorlarning – maktab o‘quvchilarining o‘ziga xos ma’lum ulushi borligi, qishloq maktablarining pedagogik jamoalari buni yaxshi hisobga olishlari, o‘quvchilarning qishloq xo‘jalik kasblariga ishtiyoq va qiziqishlarini oshirishlari, ularni mehnatsevar kishilar qilib tarbiyalashlari kerakligi ta’kidlangan[10.13].

Buning natijasida maktab yoshlari orasida “mening mehnatim – respublikamning mehnati”, “qishloq maktabi komsomoli”, “har bir yosh mehnatkashga – o‘rta ma’lumot” kabi vatanparvarlik harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy faoliyati umumlashtirilgan. Maktablardagi komsomol tashkilotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri respublika bo‘yicha 711 ta komsomol-o‘smirlar brigadalarining tashkil etilishi bo‘lib, ular 1856 ta binolarni qurish va ta’mirlash ishlarida qatnashgan. To‘qqizinchi va o‘ninchi besh yilliklar davomida ular 5525 nafar o‘quvchini jalb etgan holda 33 ta qurilish brigadasida faol ishtirok etgan[11.12] .

“O‘qituvchilar” gazetasining 1974-yil 29-sonida maqolada Andijon viloyati Uchqo‘rg‘on tumanidagi o‘n bir yillik maktab o‘quvchisi, o‘quvchilar brigadasi boshlig‘i Dilbar Yusupovaning vatanparvarlik va mehnat g‘alabasining dong‘i butun mamlakat bo‘ylab yoyildi. Yosh paxtakor Dilbar Yusupova boshchilik qilgan brigada o‘tgan yili gektaridan 43 sentnerdan paxta hosili olishga muyassar bo‘ldi. U, kelgusi mavsumda 36 gektar yerga paxta ekish va gektaridan 45 sentnerdan hosil topshirish majburiyatini olgan. Bu undagi mehnat faoliyatining ilk samarasi bo‘lishi bilan maktablar va o‘quvchilar brigadalarining roli va ish unumdorligining yorqin timsolidir deya ma’lumot keltirilgan. Qishloq maktablaridagi o‘quvchilar dalachilik brigadalarining ish unumdorligi yil sayin oshmoqda. Hozir respublika maktablari da 611 ta o‘quvchi brigadasi bo‘lib, unda 19000 dan ortiq komsomol, pioner va o‘quvchilar ijtimoiy-foydali mehnat bilan shug‘ullangan. Bularga birkitib berilgan ekin maydonining umumiy miqdori 4591 gektarni tashkil etgan[12.6].

Maktab o‘quvchilarini qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb etish ishlari 1974-yil holatiga e’tibor berilsa, o‘quvchilar brigadasi tomonidan 42847 tonna paxta, 11525 tonna don, 10897 tonna meva, 26270 tonna poliz mahsulotlari va boshqa mahsulotlarni rejadan ortiqcha qilib bajarilgan. O‘quvchilar ishlab chiqarish brigadalarida paxtadan tashqari boshqa mahsulotlardan ham yuqori

hosil olganlar. Masalan, Xorazmda o‘quvchilar brigadalari har bir gektardan 40 sentner, Andijon, Farg‘ona, Namangan va Samarqand viloyatlarida 30 sentner paxta hosilini yetishtirgan[13.2].

O‘quvchilarning bu kabi ta’lim jarayonlarida ajralgan holda qishloq xo‘jaligi ishlarida faol ishtiroki sovet mafkurasining o‘z maqsadi yo‘lida eng katta yutug‘i desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yoki, bu holatlar XX asr 30-yillarida boshlangan “Jamoalashtirish” siyosatining amaldagi natijasidir.

Yildan yilga ishlab chiqarish ta’limi yo‘lga qo‘yilgan o‘rta maktablar xalq xo‘jaligi uchun malakali ishchi kadrlarni tayyorlashda tobora muhimroq rol o‘ynay boshlagan. Jumladan, RSFSRda 1960-1961-o‘quv yilida IX–XI sinf o‘quvchilarining 59,2 foizi sanoat kasblari bo‘yicha, 21,1 foizi qishloq xo‘jaligi kasblari bo‘yicha, 3,3 foizi qurilish sohalari bo‘yicha, 1,3 foizi esa savdo tarmog‘i va umumiy ovqatlanish korxonalarida ishlash uchun tayyorlangan[14.33].

Bundan tashqari qishloq xo‘jaligi va turli sohalarda o‘rta maxsus mutaxassislarni tayyorlash masalasi ham katta natijalarga erishilgan. Ya’ni, 1976-1977-o‘quv yilida yuqori sinf o‘quvchilarda politexnik ta’lim bilan jismoniy mehnat o‘rtasidagi tafovutni yo‘qotish maqsadida ularga turli kasb-hunarlar o‘rgatilgan. Masalan, traktorchilar 1570 nafar, haydovchilar 661 nafar, radistlar 700 nafar, telefonchilar 1800 nafar, mototsiklchilar 1900 nafar, elektrlashtirish 670 nafar, harbiy parashyutlarni joylovchilar 2100 nafar va boshqa mutaxassislar 3200 nafarni tashkil etgan. Politexnik ta’lim yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashlariga yordam bergan[15.5].

XULOSA

Sodda tilda aytilganda XX asrning 20-30-yillaridan boshlab mamlakatimizdagi barcha maktablarida politexnik bilimlar berilishga e’tibor kuchaytirildi. Buning zamirida dehqon xo‘jaligini rivojlantirishda maktab o‘quvchilarning mehnatidan foydalanish, ayniqsa ikkinchi jahon urushi yillarida o‘quvchilar qishloq xo‘jaligi sohasida asosiy kuchga aylanishi fikrimizning dalilidir.

Mazkur yillarda o‘quvchilarning qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb etilishi o‘quvchilarning bilim olish jarayonlarining izdan chiqishiga hamda dehqon xo‘jaligida faoliyat olib borayotgan yoshlarning katta qismi maktablarni tashlab ketish holatlari ko‘payishiga sabab bo‘lgan.

Sovet davrida maktab ta’lim tizimida qishloq xo‘jaligi politexnik fanlarini o‘qitish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan bevosita bog‘liq holda tashkil etilgan. Ushbu fanlar orqali o‘quvchilarda mehnatga bo‘lgan munosabatni shakllantirish, ularni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga tayyorlash hamda kollektiv xo‘jalik tizimi uchun zarur bo‘lgan kadrlarni tarbiyalash maqsad qilingan. Maktablarda tashkil etilgan o‘quv tajriba xonalari, tajriba uchastkalari va ishlab chiqarish bilan bog‘liq amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlashga xizmat qilgan. Shu bilan birga, mazkur ta’lim tizimi o‘sha davrdagi kommunistik mafkura talablariga mos ravishda shakllantirilgan bo‘lib, ta’lim jarayonida ideologik tarbiya muhim o‘rin egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Қодиров И. Қишлоқ мактаблари олдидаги мухим вазифа // Совет мактаби. 1954. –№ 3. –Б. 12.

2.Қодиров Э. Ўзбекистон халқ маорифининг 40 йил ичида эришган ютуқлари. –Т. 1957. –Б. 81.

3.O’sha manba… –Б. 85.

4.Мамишева А. Деятельность коммунистической партии Узбекистана по подготовке педагогических кадров в послевоенные годы (1946-1958 гг.). Кандидат исторических наук. (Автореферат). –Т., 1971. –Б. 10.

5.Қодиров Э. 1954-1955 ўқув йили якунлари ва 1955-1956 ўқув йилидаги вазифалар // Совет мактаби. 1955. –№ 10. –Б. 5.

6.Прокофьева М. А. и др, “Народное образование в СССР”. Издательство “Просвещение”. –М., 1967. –С. 11.

7.Жаҳонда ягона // Совет мактаби, 1966. –№ 2. –Б. 6.

8.КПСС XXII създи ва мактаб // Совет мактаби, 1962. –№ 2. –Б. 6.
9.Шаблов Ф. Ишлаб чиқариш таълимини сифатини юқори кўтарайлик / Ўқитувчилар. 1963. –№ 54. –Б. 1.
10.Головачева Л.И. Қишлоқ аҳолисининг турмуш маданиятини оширишда халқ маорифининг роли // Совет мактаби. 1982. –№ 2. –Б. 13.
11.Ахмедов С.А. Роль комсомола и молодежи в дальнейшем развитии народного образования в Узбекистане (1971-1980 гг). Автореф. дисс... для к.и.н. –Т. 1987. –Б. 12.
12.КПСС XXII съезди ва мактаб // Совет мактаби. 1962. –№ 2. –Б. 6.
13.Қобилжонов О. Хазина ўқувчилар ишлаб чиқариш бригадалари илғорлари V республика ҳаёти ва меҳнат таълими ҳамда касб танлаш I республика конкурсидан / Ўқитувчилар. 1974. –№ 29. –Б. 2.
14.Каирова И. А. Советская школа на современном этапе. “Издательство Академии педагогических наук РСФСР”. – Москва. 1961. –С. 33
15.ЎзМА. Р-94 фонд, 7-рўйхат, 4197-иш, 5-варақ.

TIZIMLI TAFAKKURNI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASINING TUZILMASI

Yaxshiyev Nu’monjon Asatilloyevich
Qarshi davlat universiteti Nuriston akademik litseyi, Bosh o’qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada akademik litseylar misolida tizimlar nazariyasi va tizimli tahlilni amalga oshirishning mazmuni va tuzilmasi haqida va “Tizimli tafakkurni pedagogik texnologiyasining tuzilmasi” tanlov fani kursini va boshqa fanlar tizim nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilib, tizimli tafakkur va tizimli tahlili ishlab chiqilib, uni amalga oshirishda global maqsad, modulli tuzilish, ta’limni tashxislash maqsadlariga erishishga yo‘naltirilganlik, yaxlitlilik, o‘rganishda o‘quvchilarning yuqori darajadagi mustaqilligini ta’minlash va pedagogik monitoring uzluksizligi kabi didaktik tamoyillarga asoslanib, tanlov kursi mazmuniga qo‘yiladigan talablar shakllantirilganligi manbalarga tayanilgan holda atroflicha yoritib berildi.

Kalit so‘zlar. Tizimli tahlil, motivasion komponent, mazmun komponent, uslubiy komponent, nazorat komponenti, operasional komponent.

СТРУКТУРА ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ СИСТЕМНОГО МЫШЛЕНИЯ

Нуъмонджон Яхсиев Асатиллоевич
Академический лицей Каршского государственного университета в Нуристане, преподаватель лицея

Аннотация. В данной статье рассматриваются содержание и структура реализации теории систем и систематического анализа на примере академических лицеев, а также требования к содержанию факультативного курса «Структура педагогической технологии системного мышления» и других предметов с системной точки зрения, разрабатываются концепции системного мышления и систематического анализа, и в их реализации, на основе дидактических принципов, таких как глобальная цель, модульная структура, ориентация на достижение целей образовательной диагностики, целостность, обеспечение высокого уровня самостоятельности учащихся в обучении и непрерывность педагогического контроля, а также подробно описывается формирование требований к содержанию факультативного курса с опорой на источники.

Ключевые слова: Систематический анализ, мотивационный компонент, содержательный компонент, методологический компонент, контрольный компонент, операциональный компонент.

STRUCTURE OF THE PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF SYSTEMS THINKING

Nu’monjon Yakhsiyev Asatilloyevich
Karshi State University Nuristan Academic Lyceum, Head Teacher

Abstract. This article discusses the content and structure of the implementation of systems theory and systematic analysis on the example of academic lyceums, and the requirements for the content of the elective course «Structure of pedagogical technology of systems thinking» and other subjects are considered from a system point of view, systems thinking and systematic analysis are developed, and in its implementation, based on didactic principles such as a global goal, modular structure, orientation towards achieving the goals of educational diagnostics, integrity, ensuring a high level of independence of students in learning, and continuity of pedagogical monitoring, and the formation of requirements for the content of the elective course are described in detail, relying on sources.

Keywords: Systematic analysis, motivational component, content component, methodological component, control component, operational component.

Kirish (Introduction). Ta’kidlash lozimki, Akademik lisey o`quvchilarida tizimli tafakkurni shakllantirish texnologiyasini loyihalashda biz quyidagilardan foydalandik: a) illyustrasiya usuli – o`quvchilarga illyustrasion qo`llanmalar, plakatlar, jadvallar, texnologik kartalar, doskadagi rasmlar va boshq. ko`rsatishni; b) namoyish usuli – turli tizimlar, texnik qurilmalar, o`quv filmlari modellari va boshq. namoyish qilishni o`z ichiga oladi.

Ko`rgazmali usullar o`qitishning og`zaki va amaliy usullari bilan birgalikda qo`llaniladi va o`quvchilarni hodisalar, jarayonlar va ob’ektlar bilan ularning tabiiy shaklida yoki ramziy tasvirlar sifatida ko`rgazmali-hissiy tanishtirishga mo`ljallangan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

O`rganish mustaqilligi tamoyili akademik lisey o`quvchilarining o`z-o`zini rivojlantirishga qaratilgan. O`quvchilarning mustaqil ishi uchun o`quv materiallari “ma’lum miqdordagi bilimlarni o`zlashtirish” sifatida emas, balki kursni o`rganishda individual rivojlanish va ilgarilash uchun imkoniyatlar yaratadigan dialog sifatida taqdim etilishi kerak. O`quvchi mustaqil ishga yo`nalgan bo`ladi, o`quv faoliyatini o`zi boshlaydi, loyihalashtiradi va tashkil qiladi, zarur o`quv harakatlarini o`zlashtiradi, o`z ta’limining sifati uchun javobgarlikni o`z zimmasiga oladi.

O`z-o`zini nazorat qilish va o`z-o`zini baholash tamoyili o`quvchilarga o`quv faoliyatini mustaqil tashkil etishdagi salohiyatini aniqlashga, o`zlarining o`quv-biluv jarayonlarini baholashga va natijalarini taklif qilingan mezonlar bilan taqqoslashga yordam beradi. O`quvchilar ishchi dastur talablarining bajarilishini kuzatib boradilar va kursning har bir modulida test natijalarini tahlil qiladilar. O`qituvchi bilan maslahat zaruratida ular savollar ro`yxatini tuzadilar, o`z-o`zini tuzatishning adekvat strategiyalarini va takroriy nazoratni muvofiqlashtiradilar.

Moslashuvchanlik (adapedagogik texnologiyaivlik) tamoyili pedagogik jarayonni o`quvchining individual-tipologik xususiyatlariga, uning kognitiv qobiliyatlariga va tayyorgarlik darajasiga moslashtirish imkonini beradi. Boshqa tomondan, pedagogik texnologiya har qanday akademik lisey da uning faoliyatining o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi mumkin.

An’anaviy va yangi axborot texnologiyalarini integrasiyalash tamoyili zamonaviy pedagogik-psixologik yondashuvlarni, o`z-o`zini o`qitish paradigmasining o`zgaruvchan falsafasini amalga oshirishga qaratilgan.

O`qitishni tashkil etishning guruh va individual shakllarini samarali birlashtirish tamoyili shaxsiy-faoliyatli yondashuvga asoslanadi va pedagogik jarayon sub’ektlari o`rtasida hissiy-intellektual o`zaro ta’sirning jamoaviy va individual shakllari o`rtasidagi nisbatni belgilaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Akademik lisey o`quvchilarida tizimli tafakkurni shakllantirish texnologiyasi tuzilmasining ichki konturiga kiritilgan komponentlarning mazmunini ko`rib chiqamiz.

1. Texnologiyamizni loyihalashdan maqsad bo`lib tegishli kompyuter ta’minotli maxsus yaratilgan “Tizimlar nazariyasi va tizimli tahlil” tanlov kursi asosida uchinchi bosqich o`quvchilarida tizimli tafakkurni shakllantirishga maqsadli ta’sirni tashkil qilish uchun zarur bo`lgan o`zaro bog`liq vositalar, usullar va jarayonlar to`plamini ifodalovchi texnologik pedagogik ob’ektni yaratish hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning asosiy (global) maqsadi yordamchi (lokal) maqsadlar bilan to`ldiriladi, ularning majmuada amalga oshirilishi global maqsadga erishishga olib keladi.

2. Pedagogik texnologiya vazifalarini loyihalashda biz muayyan ta’lim vaziyatlariga tayangan pedagogik maqsadlar pedagogik jarayonni tayyorlash bosqichida pedagogik vazifalar sifatida tan olinishi kerak dekgan fikrdan foydalanamiz . Shunday qilib, texnologiyamizning pedagogik vazifalari “Tizimlar nazariyasi va tizimli tahlil” tanlov kursining lokal maqsadlari bilan belgilanadi va axborot texnologiyalari bo`lajak mutaxassislarida tizimli tafakkurni shakllantirish uchun zarur bo`lgan: a) tushunchalar, b) bilim va v) ko`nikmalarni egallash samaradorligini oshirishdan iborat.

Ushbu vazifalarni batafsilroq ko`rib chiqamiz.

3. Tashkiliy-pedagogik shartlar akademik lisey o`quvchilarida tizimli tafakkurni shakllantirish jarayonida pedagogik texnologiya dan foydalanish samaradorligini ta’minlaydi.

4. Yuqorida aytib o`tilgan maqsadga muvofiq, pedagogik texnologiyani ishlab chiqish asosiga quyidagi tamoyillarga e’tibor qaratildi : tizimlilik, ko`rgazmalik, o`rganish mustaqilligi, o`z-o`zini nazorat qilish va o`z-o`zini baholash, an’anaviy va yangi axborot texnologiyalarini integrasiyalash, o`qitishni tashkil etishning guruhli va individual shakllarining samarali birlashtirilishi, moslashuvchanlik, texnologiyaning evolyusionligi.

Tizimlilik tamoyili texnologiyamizni tizim sifatida loyihalashni belgilaydi, bunda uning elementlari o`quvchi, pedagog, kurs mazmuni va hok. bo`ladi. Mazkur tamoyil ushbu tizimning yaxlitligini ochib berishga va uning komponentlari o`rtasidagi bog`liqlikni aniqlashga, shuningdek, tizimli tafakkurni shakllantirishga qaratilgan fan ichidagi va fanlararo mazmunli va uslubiy aloqalarni yaqqol tashkil etishga qaratilgan.

Ko`rgazmalilik tamoyili o`qitish samaradorligini oshirish uchun barcha inson sezgilari idrok etishda ishtirok etadigan texnologiyani loyihalashni nazarda tutadi. Texnologiyamizda o`qitish ko`rgazmaliligi asosan axborot texnologiyalarining cheksiz illyustrativ, ko`rgazma va multimedia imkoniyatlaridan foydalangan holda kompyuter ta’minotining mavjudligi bilan ta’minlanadi.

Texnologiya evolyusionligi tamoyili har qanday ta’lim muhitida pedagogik prognozlash asosida texnologiyalarni takomillashtirish, to`ldirish va kengaytirishni ta’minlaydi. Mazkur tamoyil tizimlilik tamoyilining oqibati sifatida chiqadi, chunki loyihalashtiriladigan axborot-texnologik tizim keyingi takomillashtirish va rivojlantirish uchun ochiq bo`ladi.

5. Pedagogik texnologiyaning asosiy funksiyasi bo`lib pedagogik jarayon samaradorligini oshirish hisoblanadi. Akademik lisey o`quvchilarida tizimli tafakkurni shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqishda biz quyidagi funksiyalarni bajarishga e’tibor qaratdik:

1) diagnostik – alohida o`quvchilarda va umuman o`quvchilar guruhida tizimli tafakkur shakllanganligining dastlabki va joriy holatini aniqlash uchun pedagogik diagnostikani qo`llash;

2) motivasion – o`quv faoliyatini rag`batlantirishning maxsus usullardan foydalangan holda o`quvchilarda o`rganish ijobiy motivasiyasini shakllantirish;

3) o`rgatuvchi – o`qitish ta’sirlarini (nazariy materiallar, topshiriqlar, ko`rsatmalar va boshq.) yaratish;

4) axborot – pedagogik texnologiya ning mazmunli komponenti bilan ifodalangan axborot-ta’lim muhitini yaratish, ushbu muhit bo`lajak mutaxassislarga o`z o`quv faoliyatini ham nazariy, ham amaliy darajada amalga oshirish imkonini beradi;

5) ko`rgazmali – o`qitish samaradorligini oshirish uchun pedagogik texnologiya kompyuter ta’minoti mavjudligi bilan osonlashtirilgan o`qitishning ko`rgazmali usullaridan foydalanishni nazarda tutadi. Texnologiyamizning kompyuterning illyustrativ, ko`rgazma va multimedia imkoniyatlaridan foydalanadi.

6) boshqarish – kompyuter ta’minoti bilan jihozlangan pedagogik texnologiya o`quvchilarda tizimli tafakkurni shakllantirish pedagogik jarayonini boshqarishning muhim qismini o`z zimmasiga oladi. Bu pedagogning ishini sezilarli darajada osonlashtiradi, ijodiy faoliyat uchun vaqtining bir qismini bo`shatadi, shuningdek, o`quv jarayonini individuallashtirish imkonini beradi;

7) refleksiv – aniq o`quv maqsadlarining mavjudligini, o`quvchilarning o`quv algoritmi va uni qo`llash shartlarini anglashini nazarda tutadi.

8) nazorat – doimiy teskari aloqani ta’minlash, o`quv jarayonining holati, olingan natijalarning rejalashtirilgan maqsadlarga muvofiqligi haqida o`z vaqtida ma’lumot olishni ta’minlash;

9) tuzatish – teskari aloqa kanali orqali olingan ma’lumotlarni qayta ishlash, ishlov berish, o`quv dasturlari va o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyatiga tuzatishlar kiritish.

6. Pedagogik texnologiya qo`llanilishi natijasi akademik lisey o`quvchilarida tizimli tafakkurni shakllantirish bo`yicha belgilangan maqsadiga erishish samaradorligini aks ettiradi.

7. O`qitish faoliyatini bashorat qilish o`qituvchining pedagogik texnologiyani akademik lisey o`quvchilarida tizimli tafakkurni shakllantirish jarayoniga moslashtirishi haqida oldindan ma'lumot olishida amalga oshiriladi. Prognoz qilish o`qituvchiga insonning maqsad qo`yish qobiliyati tufayli faoliyat natijalarini oldindan ko`rish imkonini beradi. Pedagogik texnologiyadan foydalangan holda o`quvchilarning o`quv-biluv faoliyati natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish o`qituvchiga uning komponentlarini keyingi rivojlantirishni va akademik lisey o`quvchilarida tizimli tafakkurni shakllantirishda ulardan foydalanish usullarini prognoz qilish imkonini beradi.

Akademik lisey o`quvchilarida tizimli tafakkurni shakllantirish texnologiyasi tuzilmasining ichki konturiga kiritilgan komponentlarning mazmunini ko`rib chiqamiz.

8. Mazmun komponenti o`quvchiga o`z o`quv faoliyatini ham nazariy, ham amaliy darajada amalga oshirish imkonini beruvchi axborot-ta'lim muhitini ifodalaydi. Mazmun komponentining tuzilmasi "Tizimlar nazariyasi va tizimli tahlil" tanlov kursini o`z ichiga oladi.

9. Motivasion komponent. O`quvchilarda faol, to`liq kuch bilan harakat qilish, muqarrar qiyinchiliklarni, noqulay sharoitlarni va boshqa holatlarni engib o`tish va ko`zlangan maqsad sari qat'iyat bilan intilish istagini uyg`otadigan barqaror motivasiyalar shakllantirilsa, ularning o`quv-biluv faoliyati samaraliroq bo`ladi va yuqori natijalar beradi.

Pedagogik texnologiyada o`quv faoliyatini rag`batlantirish uchun, o`qishning ijobiy motivasiyasini shakllantirishga qaratilgan maxsus usullardan foydalanamiz .

Motivasiyalarni shakllantirishda o`quv natijalarini baholash uchun modulli-reyting tizimi (MRT) alohida rol o`ynaydi. O`quv jarayonida MRT dan foydalanish motivasiya muammosini kompleks hal qilish va natijada o`quvchilarning o`quv-amaliy materiallarni o`zlashtirishdagi faolligini oshirish imkonini ta'minladi. Bundan tashqari, MRT dan foydalanish o`quvchilarga o`z o`quv faoliyatini mustaqil baholash ko`nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

O`qitish jarayoniga MRTga asoslangan bunday yondashuvda o`quvchilar nazariy materiallarni o`rganish va amaliy malaka va ko`nikmalarni shakllantirish natijalari bo`yicha ma'lumotlarni to`playdigan va qayta ishlaydigan maxsus kompyuter dasturi yordamida kurs materiallarini o`zlashtirishdagi o`z yutuqlarini kuzatish imkoniga ega bo`ladi.

MRT doirasida o`quv jarayonining sub'ekti sifatida o`quvchilar faoliyatining barcha turlari bajarilayotgan vazifalarning qiyinchilik darajasiga qarab ballarda baholanadi.

10. Uslubiy komponent asosini pedagog uchun kursdan foydalangan holda o`quv jarayonini boshqarish bo`yicha tavsiyalar hamda o`quvchilar uchun undan qanday foydalanish bo`yicha ko`rsatmalar tashkil qiladi. O`qituvchilar uchun uslubiy tavsiyalar va o`quvchilar uchun ko`rsatmalar ishlab chiqish ularning tizimli tafakkurni shakllantirish bo`yicha birgalikdagi hissiy-intellektual ishlari natijalariga, tajriba ishida ishtirok etgan o`qituvchilarning fikr-mulohazalariga, shuningdek, pedagogik jarayon ishtirokchilarining anketalari va so`rovnomalari natijalariga asoslanadi. O`qituvchilarning shaxsiy kompyuter bilan ishlashga psixologik-pedagogik, texnologik va texnik tayyorgarligiga alohida e'tibor qaratiladi.

11. Nazorat komponenti. O`quvchilarda tizimli tafakkurni shakllantirish jarayonining pedagogik monitoringi nafaqat natijalarni nazrat qilishga, balki pedagogik jarayon ishtirokchilarining o`rgatish va o`quv faoliyati dinamikasidagi tendensiyalarni aniqlashga ham qaratilgan. Buna quyidagilar qo`llaniladi: a) o`quvchilarning kirish testi; b) modulli-reyting tizimi; v) o`qitish jarayonini nazorat qilish; g) o`quvchilar va o`qituvchilarning o`quv jarayonida texnologiyalardan foydalanishga munosabatini aniqlash. O`quvchilarda tizimli tafakkurni shakllanganligining kirish testi tasdiqlovchi xarakterga ega bo`lib, o`quv semestrining birinchi haftasida o`tkaziladi. Har bir modulni o`rgangandan so`ng, nazorat testi o`tkaziladi va kurs tugagandan so`ng o`quvchilarda tizimli tafakkurning shakllanganligi darajasini baholash uchun yakuniy test o`tkaziladi.

"Tizimlar nazariyasi va tizimli tahlil" tanlov kursining kompyuter ta'minoti tarkibiga "individual pedagogik monitoring" maxsus ishlab chiqilgan kompyuter dasturi kiradi. O`quvchilarning modul asosidagi test natijalariga, shuningdek, o`qituvchining seminarlar va amaliy mashg`ulotlar

natijalari, referat va hisob-grafik topshiriqlar bo`yicha baholariga asoslanib, ma’lumotlar bazasi har bir o`quvchining akademik ko`rsatkichlarini avtomatik ravishda qayd etadi. Har bir o`quvchining o`quv faoliyati natijalari dinamikada ko`rinadi va istalgan vaqtda jadvallar va diagrammalarda ko`rgazmali taqdim etilishi mumkin. Pedagogik texnologiya doirasida monitoringni amalga oshiradigan kompyuter ta’minoti o`quvchilarga so`rov bo`yicha test natijalarini, shuningdek, o`qituvchiga akademik liseyning Интранет ichki kompyuter tarmog`ida joylashtirilgan ma’lumotlarni tezkor ravishda taqdim etadi. Ushbu yondashuv o`quvchilarda tizimli tafakkurni shakllantirishni tahlil qilish, diagnostika qilish va prognoz qilish imkonini beradi, mutaxassisni tayyorlash samaradorligini monitoring qilish va muhim shaxsiy fazilatlarni shakllantirish uchun imkoniyatlar ochadi.

12. Operasional komponent o`qitishning turli usullari, vositalari va tashkiliy shakllarini o`z ichiga oladi. Ularning mazmunini qisqacha ko`rib chiqamiz.

O`qitish usullari. O`quvchilarda tizimli tafakkurni shakllantirish pedagogik texnologiyasini loyihalashda biz o`qitish usullarini bilim olish manbai bo`yicha tasniflashga amal qildik . Ushbu yondashuvga muvofiq quyidagilar ajratib ko`rsatiladi: 1) og`zaki usullar (bilim manbai bo`lib og`zaki yoki bosma so`z xizmat qiladi); 2) ko`rgazmali (sezgi) usullar (bilim manbai bo`lib kuzatiladigan narsalar, hodisalar, ko`rgazmali vositalar xizmat qiladi); 3) amaliy usullar (o`quvchilar amaliy harakatlarni bajarish orqali bilim oladilar va ko`nikmalarni rivojlantiradilar).

1) Texnologiyamizga quyidagi og`zaki usullar kiradi: a) ma’ruza, b) muhokama, v) tushuntirish, g) kitob yoki kompyuter ta’minoti axborot bloki bilan ishlash.

a) Ma’ruza – hajmi katta materialni taqdim etishning monologik usuli bo`lib, uning afzalligi o`quvchilarning o`quv materialini mavzu bo`yicha mantiqiy o`zaro bog`liqliklarida idrok etishining to`liqligi va yaxlitligini ta’minlash imkoniyatidan iborat. Ma’ruza – pedagog va o`quvchi o`rtasidagi tizimli, jonli, to`g`ridan-to`g`ri aloqaning samarali shaklidir. U moslashuvchan, tabaqalashtirilgan bo`lishi, o`rganilayotgan fanning xususiyatlarini, auditoriya o`ziga xosligini, bilishning psixologik qonuniyatlarini va axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini hisobga olishi kerak.

b) Muhokama biluv qiziqishini rag`batlantirish, o`quvchilarni ma’lum bir masala bo`yicha turli ilmiy nuqtai nazarlarni faol muhokama qilishga jalb qilish, ularni boshqalarning va o`z pozisiyasini dalillashga turli yondashuvlarini ko`rib chiqishga undash, mustaqil ishlarni faollashtirish uchun katta imkoniyatlar ochadi. Taklif etilayotgan pedagogik texnologiyada ushbu usul asosan ma’ruzalarning amaliy davomi bo`lib xizmat qiladigan seminarlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu mashg`ulotlar o`quvchilarga o`z bilimlarini tekshirish, takomillashtirish va tizimlashtirish, terminologiyani ravon o`zlashtirish va undan foydalanish, o`z fikrlarini muayyan fan tilida aniq va ishonchli ifoda etishni o`rganish, faktlarni tahlil qilish va munozaralar olib borish imkoniyatini beradi. Seminar mashg`ulotida muhokama qilish uchun taklif qilingan savollarga misol 4-ilovada keltirilgan.

v) Tushuntirish – o`quv materialini taqdim etishning monologik shakli bo`lib, uning ostida o`rganilayotgan ob’ektning, alohida tushunchalar va hodisalarning qonuniyatlari va asosiy xususiyatlarini og`zaki talqin qilish tushuniladi. Tushuntirish ko`pincha nazariy materialni o`rganishda, shuningdek, tabiiy va ijtimoiy hodisalarning asosiy sabablari va oqibatlarini aniqlashda qo`llaniladi.

g) Kitob yoki kompyuter ta’minoti axborot bloki bilan ishlash eng muhim o`qitish usuli bo`lib hisoblanadi. Taklif etilayotgan pedagogik texnologiyada o`quvchilar uchun bosma manbalar bilan mustaqil ishlash uchun tavsiya etilgan bir qator usullar mavjud. Ularning asosiylari:

- konspekt qilish – o`qilgan narsaning mazmunining qisqacha bayoni, qisqacha yozib olish;
- matn rejasini tuzish;
- tezis – o`qilgan narsaning asosiy g`oyalarining qisqacha xulosasi;
- iqtibos – matndan so`zma-so`z parcha olish;
- annotasiya – o`qilgan mazmunini asosiy ma’nosini yo`qakademik lisey asdan qisqacha, lo`nda xulosasi;

- taqriz – o`qilgan narsalar haqida o`z fikrini ifodalovchi qisqacha taqriz yozish va boshq.

2) O`qitishning ko`rgazmali usullari – o`quv materialini o`zlashtirish o`quv jarayonida qo`llaniladigan ko`rgazmali vositalar va texnik vositalarga sezilarli darajada bog`liq bo`lgan usullar.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada akademik litseylar misolida tizimlar nazariyasi va tizimli tahlilni amalga oshirishning mazmuni va tuzilmasi haqida va "Tizimli tafakkurni pedagogik texnologiyasining tuzilmasi" tanlov fani kursini va boshqa fanlar tizim nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilib, tizimli tafakkur va tizimli tahlili ishlab chiqilib, uni amalga oshirishda global maqsad, modulli tuzilish, ta'limni tashxislash maqsadlariga erishishga yo'naltirilganlik, yaxlitlilik, o'rganishda o'quvchilarning yuqori darajadagi mustaqilligini ta'minlash va pedagogik monitoring uzluksizligi kabi didaktik tamoyillarga asoslanib, tanlov kursi mazmuniga qo'yiladigan talablar shakllantirilganligi manbalarga tayanilgan holda atroflicha yoritib berildi.

.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References).

1.Батышев С.Я. Блочно-модульное обучение. - М. : Высш, шк., 1997.-256 с.

2.Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии / В.П. Беспалько. - М.: Педагогика, 1989. - 192 с.

3.Лаврентьев Г.В. Слагаемые технологии модульного обучения.- Барнаул : Изд-во АГУ, 1994. - 128 с.

4.Макаров А.В. Модульная организация учебного курса как основа разра-ботки учебно-методического комплекса //Социально-гуманитарные знания. - 2000. - № 4. - С. 141-155.

5.Матрос Д.Ш. Анализ содержания учебника и перегрузка учащихся // Проблемы школьного учебника №17. - М. : Просвещение, 1988. - 8с.

6.Савельев А.Я. Подготовка информации для автоматизированных обучаю¬щих систем: Метод, пособие для преподавателей и студентов вузов / под ред. А.Я. Савельева. - М. : Высш, шк., 1986. - 176 с.

7.Юцявичене П. Теория и практика модульного обучения. Каунас : 1989. - 272 с.

UDK 377:004:37

KASBIY TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Jumanov Alisher Asatillayevich
“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi dotsenti

Raximboyeva Guloyim Ikrom qizi
“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kasb-hunar ta’limi tizimida, xususan, oliy texnik ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga yangi talablar qo’yadi. Biroq, amalda kasb-hunar ta’limini raqamlashtirish jarayoni ko’pincha individual texnologiyalardan foydalanish bilan cheklanadi va metodologik jihatdan tizimli yondashuv yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi kasb-hunar ta’limi tizimida raqamlashtirish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan nazariy va metodologik yondashuvni ishlab chiqishdir.

Kalit so‘zlar: kasbiy ta’lim, raqamlashtirish texnologiyalari, raqamli ta’lim, metodik yondashuv, texnika oliy ta’lim muassasalari, pedagogik innovatsiyalar.

Аннотации.Стремительное развитие цифровых технологий предъявляет новые требования к содержанию и организации образовательного процесса в системе профессионального образования, в частности, в высших технических учебных заведениях. Однако на практике процесс цифровизации профессионального образования зачастую ограничивается использованием отдельных технологий, а методологически-системный подход недостаточно разработан. Целью данной статьи является разработка теоретико-методического подхода, направленного на совершенствование технологий цифровизации в системе профессионального образования.

Ключевые слова: профессиональное образование, технологии цифровизации, цифровое образование, методический подход, технические вузы, педагогические инновации.

Abstract. The rapid development of digital technologies imposes new requirements on the content and organization of the educational process in the vocational education system, in particular in higher technical educational institutions. However, in practice, the process of digitization of vocational education is often limited to the use of individual technologies, and a methodologically systematic approach has not been sufficiently developed. The purpose of this article is to develop a theoretical and methodological approach aimed at improving digitization technologies in the vocational education system.

Keywords: Vocational education, digitalization technologies, digital education, methodological approach, technical universities, pedagogical innovations.

Kirish. So’nggi yillarda jamiyatning barcha jabhalarida sodir bo’layotgan raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimida tub o’zgarishlarni talab qilmoqda. Kasb-hunar ta’limi tizimiga zamonaviy raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etish ta’lim sifatini oshirish, o’quv jarayonining samaradorligini ta’minlash va bo’lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishda juda muhim omil hisoblanadi. Biroq, amaliyot shuni ko’rsatadiki, raqamli texnologiyalar ko’plab texnik oliy ta’lim muassasalarida mavjud bo’lsa-da, ularni ta’lim jarayoniga tizimli va metodologik jihatdan joriy etish yetarli darajada yo’lga qo’yilmagan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko’rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish, masofaviy o’qitish platformalarini joriy etish va o’qituvchilarning raqamli kompetentsiyalarini shakllantirishga bag’ishlangan. Shu bilan birga, kasb-hunar ta’limi tizimi uchun moslashtirilgan, bosqichma-bosqich va metodologik asoslangan raqamlashtirish

modeli hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu holat ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning salohiyatidan to’liq foydalanishga to’sqinlik qiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun ushbu maqolada kasb-hunar ta’limi tizimida raqamlashtirish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan nazariy va metodologik yondashuv taklif etiladi. Ushbu yondashuv ilmiy manbalarni tahlil qilish va bibliometrik tadqiqotlar natijalari asosida ishlab chiqilgan. Ushbu usul, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayonini samarali tashkil etish, raqamli ta’lim vositalaridan maqsadli foydalanish va bo’lajak mutaxassislarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Metod. lmiy adabiyotlarni tahlil qilish kasb-hunar ta’limi tizimida raqamlashtirish jarayonlarining hozirgi holati, asosiy yo’nalishlari va mavjud muammolarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot doirasida kasb-hunar ta’limi va raqamli texnologiyalar masalalari bo’yicha ilmiy ishlanmalar bibliometrik yondashuv asosida o’rganildi. Bibliometrik tahlil natijalari ilmiy nashrlarning dinamikasini, mavzularning rivojlanish tendentsiyalarini va ustuvor tadqiqot yo’nalishlarini aniqlash imkonini berdi [1]. Tahlil qilingan ilmiy manbalarda kasb-hunar ta’limini raqamlashtirish asosan elektron ta’lim tizimlari, masofaviy ta’lim platformalari, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish va o’qituvchilarning raqamli kompetentsiyalarini rivojlantirish masalalari bilan bog’liq holda yoritilgan [2]. Ko’pgina tadqiqotlarda ta’lim jarayonida Moodle, Google Classroom, virtual laboratoriyalar va simulyatsiya dasturlaridan foydalanish ijobiy natijalar berishi ta’kidlangan. Biroq, ushbu texnologiyalardan foydalanish ko’pincha alohida vositalar bilan cheklanganligi va yagona metodologik tizimga birlashtirilmaganligi kuzatilmoqda [3]. Bibliometrik tahlil natijalari shuni ko’rsatadiki, ilmiy tadqiqotlar tobora ko’proq raqamli pedagogika [4], ta’lim jarayonini raqamli boshqarish va o’qituvchilarning kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalariga qaratilmoqda. Shu bilan birga, kasb-hunar ta’limi tizimining o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan metodologik modellar kam uchraydi [5]. Mavjud ishlarda ko’pincha umumiy ta’lim yoki oliy ta’lim uchun mo’ljallangan yondashuvlar taklif etiladi, ular kasb-hunar ta’limi muhitiga to’liq mos kelmasligi mumkin [6]. Tadqiqotlarning aksariyati raqamlashtirish texnologiyalarining texnik jihatlariga yoki ulardan foydalanish samaradorligiga qaratilgan. Bosqichma-bosqich amalga oshirish va ta’lim natijalari bilan bog’liq metodologik jihatdan asoslangan, tizimli yondashuvlar yetarlicha ishlab chiqilmagan [7]. Bu ilmiy adabiyotlarda ma’lum bir tadqiqot bo’shlig’ini ko’rsatadi va bibliometrik va nazariy tahlil natijalari kasb-hunar ta’limi tizimiga raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etishning metodologik yondashuvlarini takomillashtirish zarurligini asoslaydi. Aynan shu ilmiy bo’shliq ushbu maqolada taklif qilingan nazariy va metodologik modelni ishlab chiqish uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

Natijalar. Kasb-hunar ta’limi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlarini cheklaydigan bir qator tashkiliy, metodologik va pedagogik muammolar mavjud. Ilmiy manbalar shuni ko’rsatadiki, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko’lami kengayib borayotgan bo’lsa-da, ularning ta’lim jarayoniga tizimli va maqsadli integratsiyasi yetarli darajada ta’minlanmagan.

Birinchidan, ko’plab texnik oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga parchalanib joriy etilmoqda. Ya’ni, elektron platformalar, onlayn testlar yoki multimedia materiallari alohida vositalar sifatida ishlatiladi va ularning didaktik vazifalar va ta’lim natijalari bilan uzviy bog’liqligi yetarlicha aniqlanmagan. Bu holat raqamli texnologiyalardan foydalanishni tizimli metodologik asosdan mahrum qiladi.

Ikkinchidan, o’qituvchilarning raqamli kompetensiyalari darajasi har xil va ularni rivojlantirishga qaratilgan metodologik mexanizmlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ko’pgina hollarda raqamli vositalardan foydalanish texnik ko’nikmalar bilan cheklangan va ularning professional va pedagogik faoliyatdagi roli va funktsiyalari aniq belgilanmagan. Natijada, raqamli texnologiyalar pedagogik maqsadlarga erishish vositasi emas, balki yordamchi element bo’lib

qoladi.

Uchinchidan, mavjud ta’lim dasturlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish mazmuni va usullari kasb-hunar ta’limining o’ziga xos xususiyatlarini to’liq aks ettirmaydi. Kasb-hunarga yo’naltirilgan fanlarda amaliy mashg’ulotlarning ustuvorligi, uning ishlab chiqarish bilan bog’liqligi va real mehnat faoliyatiga yaqinlik darajasi yuqori bo’lishi lozim. Biroq, raqamli ta’lim vositalarini joriy etishda bu jihatlar ko’pincha hisobga olinmaydi.

To’rtinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholash va monitoring qilish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ta’lim natijalari, talabalar faolligi va ta’lim jarayonining sifati raqamli platformalar orqali tahlil qilinishi mumkin bo’lsa-da, bu imkoniyatlar amalda tizimli ravishda qo’llanilmaydi. Bu raqamli o’quv muhitini yaxshilashga to’sqinlik qiladi.

Yuqoridagi muammolar kasb-hunar ta’limi tizimida raqamlashtirish texnologiyalarini takomillashtirishga metodologik jihatdan asoslangan, bosqichma-bosqich va pedagogik jihatdan maqsadga yo’naltirilgan yondashuvni ishlab chiqish zarurligini aytadi. Shuning uchun ushbu maqolada mavjud ilmiy bo’shliqni to’ldirishga qaratilgan nazariy va metodologik model taklif qilingan.

Taklif etilayotgan nazariy va metodologik model kasb-hunar ta’limi tizimidagi ta’lim jarayoniga raqamlashtirish texnologiyalarini tizimli va bosqichma-bosqich joriy etishga qaratilgan. Ushbu model bibliometrik va nazariy tahlil natijalari asosida ishlab chiqilgan va texnik oliy ta’lim muassasalarida o’quv jarayonining samaradorligini oshirishga mo’ljallangan. Model bir-biri bilan bog’liq bo’lgan bir nechta bosqichlardan iborat bo’lib, ularning har biri aniq pedagogik vazifalarni bajarishga qaratilgan hisoblanadi.

1-jadval. Kasb-hunar ta’limi tizimida raqamlashtirish texnologiyalarining nazariy va metodologik modeli

BosqichlarMazmuniAsosiy faoliyat turlariKutiladigan natijalar

Diagnostik bosqichTa’lim jarayonining hozirgi holatini tahlil qilishO‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini aniqlash; mavjud platformalar va texnologiyalarni baholashRaqamlashtirish jarayonidagi muammolar va ehtiyojlar aniqlanadi

Rejalashtirish bosqichiRaqamlashtirish strategiyasini ishlab chiqishRaqamli texnologiyalarni tanlash; metodik vazifalarni belgilash; resurslarni rejalashtirishMaqsadli va tizimli raqamlashtirish rejasi shakllanadi

Mazmuniy-metodik bosqichTa’lim mazmunini raqamli asosda tashkil etishRaqamli o‘quv materiallarini tayyorlash; interaktiv mashg‘ulotlarni ishlab chiqishO‘quv jarayonining interaktivligi va amaliy yo‘naltirilganligi oshadi

Amaliy joriy etish bosqichiRaqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishMasofaviy va aralash ta’limni tashkil etish; virtual laboratoriyalardan foydalanishTalabalarning o‘quv faolligi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari rivojlanadi

Monitoring va tahlil bosqichiTa’lim samaradorligini baholashRaqamli platformalar orqali natijalarni monitoring qilish; tahlil asosida tuzatishlar kiritishTa’lim sifati va raqamlashtirish samaradorligi oshadi

Ushbu jadvalda keltirilgan nazariy va metodologik model kasb-hunar ta’limi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etishga kompleks va tizimli yondashuvni ta’minlaydi. Bosqichlar ketma-ketligi ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanish, metodologik jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilish va ta’lim jarayonini doimiy ravishda takomillashtirish imkonini yaratadi.

XULOSA. Ushbu maqolada kasb-hunar ta’limi tizimida raqamlashtirish texnologiyalarini

nazariy va metodologik yondashuv asosida takomillashtirish masalasi muhokama qilindi. Ilmiy manbalar va bibliometrik tahlil natijalari asosida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha mavjud tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari, muammolari va ilmiy kamchiliklari aniqlandi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, kasb-hunar ta'limi tizimida raqamlashtirish texnologiyalarini joriy etishga tizimli va metodologik asoslangan yondashuv yetarlicha emas. Maqolada aniqlangan muammolar asosida kasb-hunar ta'limi tizimi uchun moslashtirilgan nazariy va metodologik model taklif qilindi. Ushbu model diagnostika, rejalashtirish, mazmun va metodologik qo'llab-quvvatlash, amaliy amalga oshirish va raqamlashtirish jarayonini monitoring qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Modelning bosqichma-bosqich tuzilishi raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga maqsadli va samarali integratsiyalash imkonini beradi va o'qituvchilarning raqamli kompetentsiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Taklif qilingan nazariy va metodologik model texnik oliy ta'lim muassasalarida kasb-hunar ta'limi jarayonini tashkil qilish, o'quv mashg'ulotlari sifatini oshirish va talabalarning mustaqil o'rganish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun metodologik asos sifatida ishlatilishi mumkin. Ushbu yondashuvning ahamiyati shundaki, u raqamlashtirish texnologiyalarini alohida vositalar to'plami sifatida emas, balki yagona pedagogik tizim doirasida ko'rib chiqadi. Kelajakdagi tadqiqotlar doirasida taklif qilingan nazariy va metodologik modelni amalda sinab ko'rish, uning samaradorligini empirik ma'lumotlar asosida baholash va natijalarini tahlil qilish rejalashtirilgan. Modelni kasbiy ta'limning turli sohalariga moslashtirish va raqamli ta'lim muhitining rivojlanish darajasini aniqlash uchun qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish ham ilmiy jihatdan muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1]M. Bond, O. Zawacki-Richter, and M. Nichols, 'Revisiting five decades of educational technology research: A content and authorship analysis of the British Journal of Educational Technology', Br. J. Educ. Technol., vol. 50, no. 1, pp. 12–63, Jan. 2019, doi: 10.1111/bjet.12730.

[2]OECD, OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. in OECD Digital Education Outlook. OECD Publishing, 2021. doi: 10.1787/589b283f-en.

[3]A. Kirkwood and L. Price, 'Technology-enhanced learning and teaching in higher education: what is "enhanced" and how do we know? A critical literature review', Learn. Media Technol., vol. 39, no. 1, pp. 6–36, Jan. 2014, doi: 10.1080/17439884.2013.770404.

[4]OECD, OECD Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. in OECD Digital Education Outlook. OECD Publishing, 2021. doi: 10.1787/589b283f-en.

[5]European Commission. Joint Research Centre., European framework for the digital competence of educators: DigCompEdu. LU: Publications Office, 2017. Accessed: Dec. 07, 2025. [Online]. Available: https://data.europa.eu/doi/10.2760/159770

[6]S. Guri-Rosenblit, 'E-Teaching in Higher Education: An Essential Prerequisite for E-Learning', J. New Approaches Educ. Res., vol. 7, no. 2, pp. 93–97, July 2018, doi: 10.7821/naer.2018.7.298.

[7]O. Zawacki-Richter, V. I. Marín, M. Bond, and F. Gouverneur, 'Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education – where are the educators?', Int. J. Educ. Technol. High. Educ., vol. 16, no. 1, p. 39, Dec. 2019, doi: 10.1186/s41239-019-0171-0.

[8] Al Ain University, United Arab Emirates, yousefjarrah1984@gmail.com, hani.jarrah@aau.ac.ae, H. Y. Jarrah, M. S. Alkhazaleh, and Dr., Al Ain University, United Arab Emirates, mohammad.alkhazaleh@aau.ac.ae, 'Knowledge Sharing Behavior in the Curricula of United Arab Emirates Universities and Educational Organizations', Int. J. Instr., vol. 13, no. 3, pp. 1–16, July 2020, doi: 10.29333/iji.2020.1331a.

[9]Y. Sun and C. Zhang, 'Achievements and Prospects of Intelligent Development of Teaching

Process in Digital Age’, in 2021 International Conference on Big Data Analytics for Cyber-Physical System in Smart City, vol. 103, M. Atiquzzaman, N. Yen, and Z. Xu, Eds, in Lecture Notes on Data Engineering and Communications Technologies, vol. 103. , Singapore: Springer Singapore, 2022, pp. 683–689. doi: 10.1007/978-981-16-7469-3_76.

[10] Abdullayev, O.X. (2020). Kasbiy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari. Kasbiy ta’lim ilmiy-amaliy jurnali, 25–30.

[11] Sodiqov, N.N. (2021). Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya.

[12] Usmonova N. (2022). Kasbiy ta’lim jarayonida raqamlashtirish texnologiyalari: muammo va yechimlar. // «Professional ta’lim» ilmiy jurnali, №3, 45–49-bet.

[13] Azizov A., Turg‘unov D. (2021). Raqamli pedagogika: zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Samarqand: “Ilm ziyo” nashriyoti.

[14] Вербицкий А.А. Деловая игра как метод активного обучения // «Современная высшая школа». – 2005. – №3. – С. 23-28.

[15] Смолкин А. М. Методы активного обучения: Науч.-метод. пособие. – М.Высшая школа, 1991. Новик М. М. Современные технологии в образовании // Новые знания. – 1999. – № 3. – С. 17–21

“QIROLLIK KVADRATI” O‘YINING KOMPYUTERLASHGAN AXBOROT MODELI LOYIHASINI TUZISH

Qahramonova Xumora Qahramonovna,
Qarshi davlat texnika universiteti,
Axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya: Maqolada “Qirollik kvadrati” o‘yinining Microsoft Excel muhitida ishlab chiqilgan uch darajali (ideal, real va didaktik hamroh bo‘lish) o‘quv axborot modeli misolida elektron jadvallar protsessorining funksional imkoniyatlarini o‘rganish metodikasi bayon etilgan. Model orqali avtomatik hisob-kitob, makroslardan foydalanish, ma’lumotlarni himoyalash, adaptiv interfeys yaratish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.Shuningdek, modelning o‘quv, ijtimoiy va tarbiyaviy salohiyati asoslab berilib, talabalar mustaqil qaror qabul qilish, tashabbuskorlik, mijoz bilan ishlash, hamkorlikda faoliyat yuritish kabi kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlangan. Maqola natijalari dasturiy vositalarni o‘qitishda integratsiyalashgan, amaliy yo‘naltirilgan yondashuv samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so`zlar: axborot modeli, imitatsion modellashtirish, elektron jadval, Microsoft Excel, dasturiy vositalar, makros, o‘quv salohiyati, ijtimoiy salohiyat, tarbiyaviy salohiyat, informatsion tayyorgarlik, didaktik model, adaptivlik, himoyalash mexanizmlari.

РАЗРАБОТКА ПРОЕКТА КОМПЬЮТЕРИЗИРОВАННОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ МОДЕЛИ ИГРЫ «КОРОЛЕВСКИЙ КВАДРАТ»

Кахрамонова Хумора Кахрамоновна,
доцент кафедры информационных систем и технологий
Каршинского государственного технического университета.

Аннотация: В статье изложена методика изучения функциональных возможностей процессора электронных таблиц на примере трёхуровневой (идеальной, реальной и дидактически сопровождаемой) учебной информационной модели игры «Королевский квадрат», разработанной в среде Microsoft Excel. Посредством данной модели продемонстрированы возможности формирования навыков автоматических вычислений, использования макросов, защиты данных, создания адаптивного интерфейса. Также обоснован образовательный, социальный и воспитательный потенциал модели, подчёркивается её роль в развитии у студентов компетенций самостоятельного принятия решений, инициативности, работы с клиентами и совместной деятельности. Результаты исследования подтверждают эффективность интегрированного, практико-ориентированного подхода в обучении программным средствам.

Ключевые слова: информационная модель, имитационное моделирование, электронная таблица, Microsoft Excel, программные средства, макрос, образовательный потенциал, социальный потенциал, воспитательный потенциал, информационная подготовка, дидактическая модель, адаптивность, механизмы защиты.

DEVELOPMENT OF A COMPUTERIZED INFORMATION MODEL PROJECT FOR THE GAME “ROYAL SQUARE”

Qahramonova Xumora Qahramonovna,
Associate Professor of the Department of Information Systems and Technologies, Karshi State Technical University.

Abstract: The article describes a methodology for studying the functional capabilities of a spreadsheet processor based on a three-level (ideal, real, and didactically supported) educational

information model of the “Royal Square” game developed in Microsoft Excel. The model demonstrates opportunities for developing skills in automatic calculations, macro usage, data protection, and adaptive interface design. The educational, social, and developmental potential of the model is substantiated, emphasizing its role in fostering students’ competencies in independent decision-making, initiative, customer interaction, and collaborative work. The research findings confirm the effectiveness of an integrated, practice-oriented approach in teaching software tools.

Keywords: information model, simulation modeling, spreadsheet, Microsoft Excel, software tools, macro, educational potential, social potential, developmental potential, information literacy, didactic model, adaptability, protection mechanisms.

Kirish (Introduction). Dasturiy vositalarni egallashga doir kirish mashg‘ulotlarini o‘tishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri talabalarning tayyorgarlik darajasini aniqlash, o‘rta maktabda olingan bilimlarni yuzaga chiqarish, yana dolzarb qilishdan iborat. Ko‘plab maqola ishlarida qayd etilganidek, oliy ta’limda o‘tiladigan barcha o‘quv fanlari orasida informatsion tayyorgarlik sohasidagi bilimlarni bir safga tizish muammosi g‘oyat katta ahamiyatga ega. Turli yo‘nalishda tahsil olayotgan aksar talabalar axborot tayyorgarlikka oid fanlarni matematik tayyorgalikka oid predmetlar sirasiga kiritadi va uni keraksiz, ixtiyoriy deya hisoblashadi. Axborotni avtomatlashgan tarzda qayta ishlovchi vositalarni egallashga motivatsiyani paydo qilish dastlabki ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarning asosiy vazifalaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Axborot modellashtirish va imitatsion modellar asosida o‘qitish metodikasi so‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida axborot modellaridan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Imitatsion modellashtirish asosida o‘qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari S.V. Yunov tomonidan ham keng o‘rganilgan. Uning ilmiy ishlarida rolga asoslangan axborot modellashtirish texnologiyasi orqali talabalarda axborot-kommunikatsiya kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday modellar ta’lim jarayonini interaktiv va samarali tashkil etishga yordam beradi.

Shuningdek, J.Y. Suyumov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kompyuter imitatsion modellari asosida faol o‘qitish texnologiyalarining nazariy asoslari yoritilgan. Muallif kompyuter modellaridan foydalanish orqali o‘quv jarayonini vizuallashtirish, murakkab jarayonlarni tushunarli shaklda tasvirlash hamda talabalar bilimini mustahkamlash imkoniyatlari kengayishini ta’kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Ilk kirish mashg‘ulotida Qirollik kvadrati” o‘yinining kompyuterlashgan axborot modeli loyihasini tuzish va qo‘llash bilan bog‘liq misolni ko‘rib chiqamiz. Bu yoshlar orasida ancha ommalashgan o‘yin bo‘lib, tahsil oluvchilardan savodxonlikni talab etadi. Internet tarmog‘idagi ko‘psonli saytlar shu o‘yinga bag‘ishlangan: bu yerda kompyuterga qarshi o‘ynash, tarmoq orqali o‘zaro raqib sifatida o‘ynashga doir takliflarni topish mumkin. O‘yin shartlarini bayon etamiz.

O‘lchami 5x5 katakli o‘yin maydoni markaziga biror so‘z yozib qo‘yiladi. Ikki o‘yin (o‘yinchilarning ikki jamoasi) ishtirok etadi, ular navbati bilan ushbu so‘zga yondash kataklardan biriga harfni shunday kiritishi kerakki, yakunda yangi so‘z hosil bo‘lsin. Yangi so‘zda qo‘shilgan harf albatta bo‘lishi kerak. Mazkur so‘z chapdan o‘ngga yoki o‘ngdan chapga, yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga, qanday o‘qilishi muhim emas, yo‘nalishni o‘zgartirish ham mumkin (so‘zning bir qismi pastdan yuqoriga, boshqa qismi o‘ngdan chapga), asosiysi, ushbu so‘zni tashkil etuvchi harflar bir-biriga tutashib turgan katak xonalarida joylashishi darkor. Tuzilgan har bir so‘z uchun ochko ishlab olinadi. So‘zlar takrorlanmasligi kerak. So‘zning har bir harfi bir ochkoni tashkil etadi, ya’ni so‘zda harflar qancha ko‘p bo‘lsa, ishtirokchi bir yurish uchun shuncha ko‘p

ochkoni qo‘lga kiritadi. Faqat birlik sonda va bosh kelishikdagi ot turkumiga mansub so‘zlarni tuzish mumkin. Faqat ko‘plik soni shakliga ega so‘zlardan foydalanishga ham ruxsat etiladi. O‘yinchilar birorta ham so‘z tuza olmasa, o‘z yurishini o‘tkazib yuborishi mumkin, u holda yurish huquqi raqibga o‘tadi. Odatda barcha o‘yin maydoni to‘lib bo‘lgachgina o‘yin tugallangan hisoblanadi. Eng ko‘p ball to‘plagan o‘yinchi (jamoa) g‘olib deb topiladi. Amaliyotda ba’zida shunday vaziyatlar ham uchraydiki, o‘yin maydoni hali to‘ldirilmagan, ammo yangi so‘z tuzish uchun hech bir ishtirokchida birorta ham variant qolmagan. Bu holatda ayni paytgacha eng ko‘p ball yig‘a olgan kishi g‘olibga aylanadi. Goho alohida yurish uchun yoki butun o‘yin jarayoni uchun limit, ya’ni vaqt cheklovi qo‘yiladi. Vaqt limiti nihoyasiga yetgan o‘yinchi mag‘lub bo‘lgan deb topiladi.

Ushbu o‘yinga talabalar qiziqishi katta ekani, shuningdek, o‘yinning didaktik imkoniyatlari yuqori ekani elektron jadvallar protsessorini, masalan, MS Excelni o‘rganishga (takrorlashga) bag‘ishlangan dastlabki mashg‘ulotda bu o‘yindan foydalanishni maqsadga muvofiq qiladi. Bunda gap ma’ruza va amaliy mashg‘ulotni birga olib borish haqida borayapti (mashg‘ulotlarning bu shakli avvaldan ma’lum, biroq amaliyotda ancha kamdan kam qo‘llanadi), kompyuter sinfida hozir bo‘lgan talabalar soni kamroq bo‘lsagina bu amalga oshadi. Mashg‘ulotlarni o‘tish uchun o‘qituvchiga zamonaviy multimedia proyektori, ikkita simsiz klaviatura va lazerli ko‘rsatkich tayoqcha kerak bo‘ladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

MS Excel elektron jadvallari protsessori muhitida “Qirollik kvadrati” o‘yinining kompyuterbop axborot modelini ishlab chiqish. Har bir yurishdan so‘ng har bir o‘yinchi to‘plagan ochkolar soni, ochkolarning jami miqdori, o‘yinning joriy borishi haqida axborot – avtomatik tarzda paydo bo‘lishi, ekranda ko‘rinishi kerak. Yangi o‘yinni boshlash uchun makros ko‘zda tutilgan bo‘lishi shart.

Dastlabki bosqichda uch darajali axborot modelni ishlab chiqamiz, modelni yaratishning umumiy texnologiyasini maqola ishimizning birinchi bobida keltirib o‘tganmiz.

“Qirollik kvadrati” o‘yinining o‘quv axborot modeli birinchi darajasi – ideal model. Birvarakayiga bir qancha holatlar masala-vazifani tanlashni taqozo etadi. Birinchidan, bu amaliyotga tatbiq etilishi aksar talabalarda qiziqish uyg‘otadigan o‘yin (imitatsion taqsimotiga asoslangan modellar tipologiyasida bu topshiriqni nostandart masalalar sirasiga kiritish mumkin). Ikkinchidan, ushbu model elektron jadvallar protsessorining o‘zaro bog‘liqlikda egallanadigan imkoniyatlarining butun bir spektrini bilishni talab etadi. Uchinchidan, quyida e’tiboringizga havola qilinadi, bu model muayyan ijtimoiy va tarbiyaviy salohiyatni tasarruf etadi.

O‘quv salohiyati. Maqola ishimizda bu modelni MS Excel elektron jadvallari protsessorining tarmoq imkoniyatlarini o‘rganish uchun qo‘lladik. Hozir esa biz bu modelni o‘rta maktabda olingan bilimlarni qayta yuzaga chiqarish, dolzarbligini oshirish (“Pedagogik faoliyat bosqichlari”ning invariant qirrasi, faseti: dolzarbligini oshirish; yangi materialni o‘rganish; takrorlash; diagnostika singari ma’nolarni o‘zida jamlaydi) va MS Excelning bir qancha yangi imkoniyatlarini o‘zlashtirish uchun yasaymiz. Bunday imoniyatlarning noto‘liq ro‘yxati quyida keltiriladi.

Ijtimoiy salohiyat. Oliygohlarning bitiruvchilariga hozirgi jamiyat qo‘yayotgan talablar orasida mijoz bilan ishlay olish, tashabbuskorlik, mustaqil qaror qabul qilish va boshqalar ayro olib ko‘rsatiladi (“Ish beruvchi”ning variativ qirrasi, faseti bitiruvchilarning fazilatlariga nisbatan ish beruvchilar qo‘yadigan eng muhim talablarni qamrab oladi). Taklif etilayotgan modelni ro‘yobga chiqarish va ayrim ijtimoiy imitatsiyalar taqsimoti nuqtai nazaridan uning keyingi tahlili talabalarning ushbu sifat va fazilatlarni namoyon qilishiga imkon berdi. Masalan, talabaga nabira rolini bajarish yuklangan vaziyatda keksalar haqida qayg‘urish bevosita ishlab chiquvchilarning o‘zi – tarjimonlik va yuridik fakultetlar, hamda sharqshunoslik fakulteti talabalari tomonidan bayon qilingan va amalga oshirilgan quyidagi g‘oyalarga turtki bo‘ldi:

- o‘yin borishiga qarab avtomativ paydo bo‘luvchi kommentariydan bo‘lak yana ikki diagrammani yasash ham qulay, diagrammalarning birida joriy natija vizual tarzda aks etsa,

boshqasi har bir yurishdan so‘ng o‘yinni o‘yin sur’atini kuzatishga imkon beradi;

- boshlang‘ich so‘zni bir yacheykaga kiritishni amalga oshirish qulay, ushbu yacheykaga eslatma tirkab qo‘yilishi darkor;

-birinchi so‘zdagi harflar sonini avtomatik tekshirish zarur;

-alohida yacheykalarni dasturni ehtiyotsiz ekspluatatsiya qilishdan himoyalash zarur.

Abstract. In this article, by presenting historical knowledge to students, historical thinking, which is the basis for the development of a sense of self-awareness in them, the dynamics of its development, the signs of historical thinking, the course of historical processes, and its role in the development of students’ point of view and imagination are considered. Accordingly, this article serves as a source for history teachers, students, researchers, textbooks, and textbook authors.

Key words: national consciousness, values, education, historical thought

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida tarixga oid bilimlar vositasida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishda xalqaro doirada bir qator konsepsiyalar va yondashuvlar mavjud. Shunday konsepsiyalar sirasiga tarixiy ong, jamoaviy xotira konsepsiyalari kiritilgan. Shu bilan bir qatorda xalqaro tadqiqotlar tarixiy tafakkur, tarixiy empatiya, fuqarolik ta’limi va milliy-fuqarolik identivligi, ko‘pmadaniyatli va madaniyatlararo ta’lim, madaniy merosga asoslangan ta’lim yondashuvlariga tayanilgan holda amalga oshirilmoqda. Jumladan Kanadadagi Britaniya Kolumbiyasi Universitetida “tarixiy ong va tarixiy ta’lim”, Germaniyadagi Georg Ekkert nomidagi Ta’lim Mediasi bo‘yicha Leybnits Institutida “darsliklar, milliy identivlik va xotira siyosati”, AQSHdagi Stenford Universitetining O‘smirlikni o‘rganish markazi tomonidan “o‘smirlarda fuqarolik o‘zligini anglashni shakllantirish, o‘quvchilarda hayotiy maqsad qo‘yishni rivojlantirish” amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ham dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi xalqaro tajribalar va o‘zbek xalqining etnopedagogik qadariyatlariga tayangan holda o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik tuyg‘usini shakllantirish, milliy g‘urur va milliy o‘zlikni rivojlantirishga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi xalqaro tajribalar va o‘zbek xalqining etnopedagogik qadariyatlariga tayangan holda o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik tuyg‘usini shakllantirish, milliy g‘urur va milliy o‘zlikni rivojlantirishga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Milliy o‘zlikni anglash natijasida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, boshqalarga tobe bo‘lmaslik, o‘zining haq-huquqlarini tanish ko‘nikmasining shakllanishiga ko‘maklashadi. Milliy o‘z-o‘zini anglash har bir shaxsni ma’rifatli bo‘lishga undaydi. Shaxsda milliy o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi qanchalik barqaror bo‘lsa, unda muammolarini hal qilish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘quvchilarda milliy o‘z-o‘zini anglash uchun tarix darslarida qulay pedagogik muhit yaratish lozim. Bunda birinchi navbatda, ularni o‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan yuksalishlar, faxr va g‘urur uyg‘otuvchi hodisalar, voqealar, tarixiy shaxslar faoliyati bilan yaqindan tanishtirish alohida ahamiyatga ega. Tarixiy voqelikni chuqur idrok etish natijasida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘zlikni anglash tuyg‘usi tarkib topadi. Bunda tarixiy shaxslar, millat tarixiga oid bilimlar, uning madaniyati, urf-odatlarini o‘zida mujassamlashtirgan ta’lim mazmuni alohida o‘rin egallaydi.

Tarixiy tafakkur – tarixiy voqelikning millat ongida aks etishi, u haqida o‘ylash, fikrlash, muhokama yuritish faoliyatidir.

Tafakkur pedagogik tadqiqotlarda har tomonlama chuqur o‘rganilmoqda. Uning tarxiy tafakkur, ijtimoiy tafakkur, pedagogik tafakkur, kasbiy tafakkur kabi turlari mavjud. O‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirishda tarixiy tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy tafakkur tarixiy voqelik bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning inson ongida aks etishini ifodalaydi. Tarixiy tafakkurning aniqligi, to‘g‘riligi o‘quvchilarning o‘quv faoliyati davomida tarixiy voqea-hodisalarni o‘rganish imkonini beradi. Tarixiy tafakkurning o‘ziga xos xususiyati tarixiy voqelikning shaxs ongida umumlashgan holda aks etishi, ular orasidagi aloqadorlikning namoyon bo‘lishi, tarixiy shaxslar orasidagi murakkab munosabatlarni anglab yetishga ko‘maklashishdan iborat. Ilmiy manbalarda tarixiy tafakkur shaxs aqliy faoliyati, dunyoqarashining ifodasi sifatida tavsiflangan. Tarixiy voqelik tafakkurda bevosita aks etadi. Tarixiy tafakkur natijasida, muayyan voqea-hodisalar haqidagi fikrlar, qarashlar vujudga keladi.

L.V.Zanina va N.P.Menshikova “tafakkur” tushunchasiga pedagogik nuqtai nazardan yondashganlar. Ular tafakkurning pedagogik faoliyatga xos jihatlarini ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilganlar.

Tarixiy tafakkur o‘zining mazmun mohiyatiga ko‘ra, turli davrlarda ro‘y bergan voqea-hodisalarni o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilish imkonini beradi. Tarixiy bilimlarni o‘zlashtirish ularning mazmun moxiyatini anglashga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Ushbu yondashuvlarda tarixiy bilimlar yordamida tarixiy voqelikni anglashning turli shakllari vujudga kelgan. Manbalarda tarixiy tafakkurning muayyan tavsiflari bayon etilgan. Tarixiy tafakkur tushunchasiga nisbatan tarixiy voqelikni o‘rganish u haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, tarixiy jarayonlarning mohiyatini anglash qobiliyatidir. Shuningdek, voqea hodisalar orasidagi o‘zaro munosabatlarni anglash, ular orasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini o‘rnatish, tarixiy jarayonlarga aloqador manbalarni bilish va ularning mohiyatini anglash, tarixiy voqelikni tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lish, tarixiy voqelik haqida ma’lumot beruvchi dalillarni ajrata olish va unga munosabat bildirish, o‘tmish va bugun orasidagi aloqadorlikni anglash, tasavvur etishga oid intellektual faoliyatdir[2]. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tarxiy tafakkur doirasida o‘smir yoshdagi o‘quvchilar o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan tarixiy bilimlar, intellektual faoliyat usullari, ularning o‘quvchilar tomonidan qo‘llanilishi, aniq tarixiy xodisalar, ularning mazmun mohiyatini to‘g‘ri anglash, o‘smirlarning qadriyatli yo‘nalishlari ham o‘z ifodasini topishi lozim.

Tarixiy tafakkurning taraqqiyoti bilish jarayonining rivojlanishi, qonuniyatlari, pedagogik prinsiplari hamda o‘zbek xalqi tarixini o‘rganishning o‘ziga xos jihatlariga mutanosib tarzda amalga oshadi. Pedagogika fanlari doktori, professor B.Xodjaev ham tarixiy tafakkurning funksiyasi haqida to‘xtalib quyidagi fikrni bayon qilgan: “Faqatgina tarixiy tafakkur orqali odamlar o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi bog‘lovchi vazifasini bajarishi mumkin”[4].

I.M.Usmonaliev tarixiy tafakkurga quyidagicha ta’rif bergan: “tarixiy tafakkur” tushunchasini pedagogik nuqtai nazardan shunday sharhlash mumkin: “shaxsning tarixiy-kognitiv bilimlarni

egallash orqali u yoki bu millat tarixida ro‘y bergan voqea, hodisa va jarayonlar to‘g‘risidagi tasavvurga ega bo‘lishi, “sabab-oqibat” tamoyiliga muvofiq ular o‘rtasidagi birlik va aloqadorlikni anglashi, tarixiy manba, hujjat, xarita va xronologik ma’lumotlar bilan samarali ishlay olishini anglatuvchi fikrlash qobiliyati” [3].

Tarixiy tafakkurni shakllantirish natijasida, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda milliy mansublik, milliy g‘urur, milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, fuqarolik, millat ravnaqi uchun mas’uliyat kabi insoniy tuyg‘ular tarkib topadi. Buning uchun esa o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning tarixiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishlari talab qilinadi. Milliy mansublik shaxsning muayyan millatga tegishliligini anglatib, ushbu o‘rinda tarixiy tafakkur o‘quvchilarga o‘zbek xalqining o‘tmishi, boshqa xalqlar bilan amalga oshirgan ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish tuyg‘usini shakllantiradi.

Tarixiy tafakkurning shakllari sifatida tarixiy voqelik kechgan jarayonlar, uning rivojlanish bosqichlari haqida aniq bilimlarni o‘quvchilar o‘zlashtirganliklari, ular haqida fikrga ega bo‘lganliklari, chuqur mulohaza qila olishlarida namoyon bo‘ladi. Tarixiy tafakkurning asosiy ko‘rinishlari sifatida tarixiy voqea hodisalar ustida mantiqiy fikrlash, muayyan harakatlarni amalga oshirishda o‘z ifodasini topadi. Tarixiy tafakkurning namoyon bo‘lish shakllari sifatida tarixiy bilimlarga asoslangan nazariy tafakkur, amaliy tafakkur, tahliliy tafakkur, intiutiv ya’ni, sezgiga asoslangan fikrlashni ko‘rsatish mumkin. Shunga ko‘ra, tarixiy tafakkurning asosiy shakllari og‘zaki bayon shaklidagi tarixiy tafakkur, mantiqiy izchillikka ega bo‘lgan tarixiy tafakkur, ko‘rgazmali-obrazli tarixiy tafakkurni o‘z ichiga oladi. Tarixiy tafakkurning barcha shakllari o‘quvchilarda o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllanishida asosiy manba hisoblanadi.

O‘quvchilarda tarixiy tafakkurning qay darajada shakllanganligini ifodalovchi omillar ham mavjud. O‘quvchilarning tarixiy fikrlash darajasi ularga taqdim etilgan bilimlar negizida shakllanadi. O‘rganilayotgan davr koloritini ifodalovchi bilimlar, o‘quvchilarning tarixiy fikrlash darajalarini belgilaydi.

O‘quvchilarda o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirish tarix darslarida, ularda taqdim etilgan bilimlar, yaratilgan immitatsion vaziyatlar, ularga o‘qish uchun taopshiriladigan tarixiy asarlar ham alohida o‘rin tutadi. Bu o‘rinda o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan bilimlar, o‘quv adabiyotlarining mazmuni hamda ijtimoiy tarmoqlarda xalq tarixi, millatning taraqqiyot yo‘li haqidagi ma’lumotlar alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning tarixiy bilimlarni puxta o‘zlashtirishlari ularning ijtimoiylashtirishlarini jadallashtiradi, chunki, tarixiy bilimlar orqali o‘quvchilarga xalqning ijtimoiy madaniy tajribasi taqdim etiladi. Natijada, ular jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida vujudga kelgan va bugungi kun uchun ham ahamiyatli bo‘lgan ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar. Ijtimoiy tajriba esa, o‘zbek xalqining intellekti, madaniyati va ma’naviyatini o‘zida mujassamlashtiradi. Unda, jamiyat hayoti uchun zarur bo‘lgan axloqiy prinsiplar mujassamlashgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ko‘p millatli O‘zbekiston sharoitida tarixiy tafakkurning shakllanishida turli millat vakillarining ijtimoiy tajribasi, madaniyati, urf odatini o‘zbek xalqi madaniyati bilan qiyoslash, ularning o‘ziga xosligini anglash kabi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbek xalqi tarixi, madaniyati, urf odatlarini o‘rganish, ularga amal qilishga oid xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirish ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur qadriyatlar o‘smir yoshdagi o‘quvchilarga o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega, chunki, ularda xalqning madaniyati, ruhiyati, ideallari, o‘y hayollari mujassamlashgan bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2018 yil PQ-4038 sonli “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori
2. Jurayev Narzulla. Tarix falsafasining nazariy asoslari - T.: «Ma’naviyat», 2008. - 464 b.
3. Usmonaliyev I.M. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. - Qo’qon, 2023 – 57 b. 13-b.
4. Ходжаев Б. Развитие исторического мышления у студентов образовательных школ. – Латвия: LAP LAMBERT Academik Publishing, 2018. – С. 112.

OLIY TA’LIMDA KREATIV BOSHQARUV MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA ART MENEJMENT YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH

Qo’chqarova Feruza Maxammatqosimovna,
University of economics and pedagogy NOTM “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi professori, p.f.d.DSc

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishda art menejment yondashuvlarining o‘rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion rivojlanish, raqamli transformatsiya va global raqobat sharoitida kreativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning dolzarbligi asoslangan. Tadqiqot davomida art menejmentning kreativ liderlik, innovatsion fikrlash, korporativ madaniyat va samarali kommunikatsiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Olingan natijalar art menejment yondashuvlarini oliy ta’lim boshqaruviga integratsiyalash ta’lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: art menejment, kreativ boshqaruv, boshqaruv madaniyati, oliy ta’lim, kreativ liderlik, innovatsion faoliyat, korporativ madaniyat, raqamli transformatsiya.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri inson kapitalini rivojlantirish hisoblanadi. Inson kapitalining sifati esa bevosita ta’lim tizimining samaradorligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, balki ilmiy-tadqiqotlar olib borish, innovatsiyalar yaratish va jamiyatning intellektual salohiyatini rivojlantirish vazifalarini ham bajaradi. Shu sababli bugungi kunda dunyo miqyosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Endilikda universitetlar faqat bilim beruvchi tashkilot emas, balki innovatsion g‘oyalar markazi, kreativ fikrlash maydoni va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etuvchi muassasa sifatida faoliyat yuritishi talab etilmoqda [1].

Globallashuv jarayonlari, to‘rtinchi sanoat inqilobi, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi hamda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi oliy ta’lim boshqaruviga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Bunday sharoitda an’anaviy boshqaruv usullaridan foydalanish har doim ham kutilgan natijalarni bermaydi. Chunki zamonaviy ta’lim tizimida tezkor qaror qabul qilish, innovatsion fikrlash, jamoaviy hamkorlik va kreativ yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda [2].

Kreativ boshqaruv madaniyati tashkilot faoliyatida yangilik yaratishga intilish, innovatsion fikrlarni qo‘llab-quvvatlash, tashabbuskorlikni rag‘batlantirish va ijodiy muhitni shakllantirishga qaratilgan boshqaruv qadriyatlari hamda tamoyillari majmuasini ifodalaydi. Mazkur madaniyat rahbarlar va xodimlarning kreativ salohiyatini rivojlantirish, muammolarga nostandart yechimlar topish hamda tashkilotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Kreativ boshqaruv madaniyatining shakllanishida art menejment yondashuvlari alohida ahamiyat kasb etadi. Art menejment insonning ijodiy imkoniyatlarini boshqarish, madaniy va kreativ resurslardan samarali foydalanish hamda innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga asoslangan zamonaviy boshqaruv konsepsiyalaridan biri hisoblanadi [3].

O‘zbekiston Respublikasida ham oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ta’lim sifati va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsion

faoliyatni rivojlantirish vazifalari belgilab berilgan [4].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash hamda ta’lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatib o‘tilgan [5]. “Ilm-fan va innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun esa ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini belgilab berib, innovatsion boshqaruv madaniyatini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda [6].

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash hamda kreativ iqtisodiyot elementlarini keng joriy etish vazifalari belgilangan bo‘lib, bu oliy ta’lim boshqaruvida kreativ yondashuvlarni qo‘llashning dolzarbligini yanada oshiradi [7].

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari faoliyatida innovatsion boshqaruv texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Xususan, art menejment yondashuvlarining oliy ta’lim boshqaruvidagi imkoniyatlari, ularning innovatsion rivojlanishga ta’siri hamda kreativ muhit yaratishdagi o‘rni alohida ilmiy tadqiqotni talab etadi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim muassasalarida kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishda art menejment yondashuvlarining imkoniyatlarini aniqlash, ularning boshqaruv samaradorligiga ta’sirini tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Metodlar. Mazkur tadqiqotda oliy ta’lim muassasalarida kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishda art menejment yondashuvlarining o‘rni va imkoniyatlarini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologik jihatdan ta’lim menejmenti, innovatsion boshqaruv, kreativ iqtisodiyot hamda art menejment nazariyalariga tayangan holda tashkil etildi [8].

Tadqiqotning dastlabki bosqichida mavzuga oid ilmiy-pedagogik, sotsiologik, boshqaruv va iqtisodiy adabiyotlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Xususan, kreativ boshqaruv madaniyati, art menejment, innovatsion liderlik, tashkilot madaniyati hamda zamonaviy ta’lim menejmentiga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganildi. Mazkur manbalarni tahlil qilish orqali kreativ boshqaruv madaniyatining mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilishi va rivojlanish omillari aniqlashtirildi [9].

Tadqiqot davomida tizimli yondashuv metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida oliy ta’lim muassasasi yaxlit ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaralib, uning boshqaruv faoliyati tarkibidagi o‘zaro bog‘liq elementlar o‘rganildi. Kreativ boshqaruv madaniyati rahbarlar, professor-o‘qituvchilar, talabalar va tashqi manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi sifatida tahlil qilindi. Natijada art menejmentning mazkur tizimdagi funksional vazifalari va ta’sir mexanizmlari aniqlandi [10].

Shuningdek, qiyosiy tahlil metodidan foydalanilib, rivojlangan mamlakatlar oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan kreativ boshqaruv amaliyotlari hamda mahalliy tajribalar o‘zaro taqqoslandi. Mazkur tahlil natijasida kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishda art menejment texnologiyalaridan foydalanishning samarali mexanizmlari aniqlanib, ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi [11].

Tadqiqot jarayonida umumlashtirish metodidan foydalanilib, ilmiy manbalarda keltirilgan nazariy qarashlar va amaliy tajribalar tizimlashtirildi. Natijada oliy ta’lim muassasalarida kreativ boshqaruv madaniyatining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar ajratib ko‘rsatildi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslandi [12].

Tahlillar asosida art menejmentning kreativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirishga xizmat

qiluvchi quyidagi asosiy komponentlari aniqlandi:

* kreativ liderlik;
* innovatsion fikrlash;
* samarali kommunikatsiya;
* korporativ madaniyat;
* jamoaviy hamkorlik;
* raqamli boshqaruv texnologiyalari.

Kreativ liderlik komponenti rahbarlarning yangicha fikrlash, innovatsion qarorlar qabul qilish va jamoani umumiy maqsadlar sari safarbar etish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Innovatsion fikrlash esa mavjud muammolarga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va tashkilot faoliyatida yangiliklarni joriy etishga xizmat qiladi [13].

Samarali kommunikatsiya komponenti boshqaruv jarayonlarida axborot almashinuvi, ochiq muloqot va hamkorlik muhitini shakllantirishga qaratilgan. Korporativ madaniyat esa tashkilot a’zolari tomonidan umumiy qadriyatlar, maqsadlar va boshqaruv tamoyillarining qabul qilinish darajasini ifodalaydi. Jamoaviy hamkorlik komponenti professor-o‘qituvchilar, talabalar va boshqaruv xodimlari o‘rtasidagi hamkorlikning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi [14].

Raqamli boshqaruv texnologiyalari komponenti esa zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, sun’iy intellekt elementlari, ma’lumotlar bazalari va elektron boshqaruv platformalaridan foydalanish orqali boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qamrab oladi. Raqamli transformatsiya jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda ushbu komponent kreativ boshqaruv madaniyatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda [15].

Tadqiqotning yakuniy bosqichida modellashtirish metodidan foydalanilib, art menejment asosida kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Modelda aniqlangan komponentlarning o‘zaro integratsiyasi hamda ularning oliy ta’lim muassasasi boshqaruv samaradorligiga ta’siri tahlil qilindi. Olingan natijalar keyingi bosqichda muhokama qilinib, kreativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘ldi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida modellashtirish metodidan foydalanilib, art menejment asosida kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Modelda aniqlangan komponentlarning o‘zaro integratsiyasi hamda ularning oliy ta’lim muassasasi boshqaruv samaradorligiga ta’siri tahlil qilindi. Olingan natijalar keyingi bosqichda muhokama qilinib, kreativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘ldi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda art menejment yondashuvlari muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. O‘rganilgan nazariy manbalar, zamonaviy boshqaruv amaliyotlari hamda kreativ tashkilotlar faoliyati tahlili natijasida art menejment nafaqat madaniy va ijodiy faoliyatni boshqarish vositasi, balki innovatsion boshqaruv madaniyatini shakllantiruvchi samarali mexanizm sifatida ham namoyon bo‘lishi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardan biri innovatsion rivojlanishni ta’minlash bilan bir qatorda boshqaruv tizimini ham zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hisoblanadi. Bunday sharoitda kreativ boshqaruv madaniyatining shakllanishi ta’lim muassasasining strategik rivojlanishi, ilmiy salohiyati va raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Art menejment esa ushbu jarayonda ijodkorlik, tashabbuskorlik va innovatsion fikrlashni rag‘batlantiruvchi boshqaruv vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, art menejment eng avvalo rahbarlarning kreativ liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kreativ liderlikka ega bo‘lgan rahbarlar tashkilot faoliyatida yangicha g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlaydi, xodimlarning tashabbuslarini

rag‘batlantiradi va murakkab vaziyatlarda innovatsion qarorlar qabul qilishga intiladi. Bunday rahbarlar jamoa a’zolarining ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi hamda ularni umumiy maqsadlar sari birlashtira oladi. Natijada boshqaruv jarayonlari yanada moslashuvchan, ochiq va samarali tus oladi.

Tahlillar natijalariga ko‘ra, art menejment tashkilot ichida sog‘lom korporativ madaniyatni shakllantirishga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Kreativ muhit hukm surgan jamoalarda xodimlar o‘z fikrlarini erkin bayon etish, yangi tashabbuslar bilan chiqish va boshqaruv jarayonlarida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida o‘zaro ishonch, hamkorlik va mas’uliyat hissining kuchayishiga olib keladi. Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, kreativ boshqaruv madaniyati shakllangan ta’lim muassasalarida jamoa a’zolarining motivatsiyasi va mehnat samaradorligi ancha yuqori bo‘ladi.

Art menejmentning yana bir muhim jihati professor-o‘qituvchilar, talabalar va boshqaruv xodimlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Oliy ta’lim muassasasida yaratilgan kreativ muhit innovatsion loyihalar, startap tashabbuslari, ilmiy tadqiqotlar va ijodiy ishlanmalar sonining ortishiga xizmat qiladi. Bunday muhitda talabalar faqat bilim oluvchi subyekt sifatida emas, balki innovatsion g‘oyalar muallifi va faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladilar. Natijada universitetning ilmiy va innovatsion salohiyati sezilarli darajada ortadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Mazkur model markazida inson kapitali joylashgan bo‘lib, uning atrofida kreativ liderlik, kommunikatsiya, innovatsion fikrlash, korporativ madaniyat va raqamli texnologiyalar o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Art menejment esa ushbu elementlarni yagona tizimga birlashtiruvchi va ularning samarali ishlashini ta’minlovchi boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Muhokamalar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, art menejment elementlarini oliy ta’lim muassasalari boshqaruv tizimiga integratsiyalash nafaqat kreativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish, balki ta’lim sifati, ilmiy faoliyat natijadorligi va innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, bunday yondashuv universitetlarning xalqaro ta’lim maydonidagi raqobatbardoshligini oshirish, akademik nufuzini mustahkamlash va zamonaviy boshqaruv modelini shakllantirish uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari art menejment yondashuvlari kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishning samarali vositasi ekanligini tasdiqladi. Ularning boshqaruv amaliyotiga izchil joriy etilishi oliy ta’lim muassasalarining innovatsion rivojlanishiga, inson kapitalini samarali boshqarishga hamda ta’lim tizimining barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy oliy ta’lim tizimining barqaror rivojlanishi va xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlash ko‘p jihatdan boshqaruv faoliyatining samaradorligiga bog‘liq. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalari oldida turgan vazifalarning murakkablashib borishi, raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi hamda innovatsion iqtisodiyot talablarining ortishi boshqaruv tizimiga yangi yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ta’lim muassasalarining strategik taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot davomida kreativ boshqaruv madaniyati nafaqat boshqaruv faoliyatining alohida elementi, balki butun tashkilotning innovatsion rivojlanishini belgilovchi muhim omil ekanligi aniqlandi. Kreativ boshqaruv muassasada yangicha fikrlash muhitini yaratish, xodimlar va talabalar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy etish hamda inson kapitalidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday muhitda faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasalari o‘zgaruvchan tashqi muhit talablariga tez moslasha oladi va rivojlanishning yangi yo‘nalishlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tahlillar natijasida art menejment yondashuvlari kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirishning muhim vositalaridan biri ekanligi asoslandi. Art menejmentning asosiy afzalligi shundaki, u insonning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, innovatsion fikrlashni rag‘batlantirish, samarali kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish va jamoada sog‘lom korporativ madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchilar, talabalar va boshqaruv xodimlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy va innovatsion loyihalar sonini oshirish hamda kreativ tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashda art menejmentning imkoniyatlari yuqori ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya sharoitida art menejment yondashuvlarining ahamiyati yanada ortib borayotganligini ham ko‘rsatdi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt vositalari va raqamli boshqaruv platformalarining ta’lim tizimiga keng joriy etilishi kreativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Shu sababli art menejment elementlarini raqamli boshqaruv texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish oliy ta’lim muassasalarining innovatsion salohiyatini oshirishga, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishga va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlangan natijalar oliy ta’lim muassasalarida kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish zarurligini ko‘rsatdi. Buning uchun rahbarlarning kreativ liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion tashabbuslarni rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish, professor-o‘qituvchilar va talabalarning ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda korporativ madaniyatni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalishdagi faoliyat oliy ta’lim muassasasining ichki boshqaruv samaradorligini oshirish bilan birga uning xalqaro nufuzini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, art menejment yondashuvlari asosida kreativ boshqaruv madaniyatini shakllantirish oliy ta’lim muassasalarining innovatsion rivojlanishini ta’minlash, inson kapitalidan samarali foydalanish, ta’lim va ilmiy faoliyat natijadorligini oshirish hamda zamonaviy boshqaruv tizimini takomillashtirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta’lim boshqaruvi amaliyotida kreativ yondashuvlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

Kelgusida art menejment asosida kreativ boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning integrallashgan modelini ishlab chiqish, uning samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash, baholash mezonlarini takomillashtirish hamda turli tipdagi oliy ta’lim muassasalarida amaliy sinovdan o‘tkazish istiqbolli ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar oliy ta’lim tizimining modernizatsiyalashuvi, innovatsion boshqaruv mexanizmlarining rivojlanishi va ta’lim sifatining oshishiga munosib hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 205 p.

2. OECD. Higher Education and Innovation Ecosystems. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 184 p.

3. Florida R. The Rise of the Creative Class. – New York: Basic Books, 2019. – 496 p.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–637-son, 2020-yil 23-sentabr.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–576-son, 2019-yil 29-oktabr.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni

“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
8. Drucker P.F. Management Challenges for the 21st Century. – New York: Harper Business, 2017. – 224 p.
9. Mintzberg H. Managing Organizations. – New York: Free Press, 2018. – 312 p.
10. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. – London: Sage Publications, 2021. – 248 p.
11. Fullan M. Leading in a Culture of Change. – San Francisco: Jossey-Bass, 2019. – 304 p.
12. Bennis W., Nanus B. Leaders: Strategies for Taking Charge. – New York: HarperCollins, 2017. – 256 p.
13. Kotter J.P. Leading Change. – Boston: Harvard Business Review Press, 2020. – 208 p.
14. OECD. Higher Education and the Digital Transformation. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 176 p.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

UO‘K: 159.9.07:159.9.072.59:2-1/9:316.6

DESTRUKTIV EMOTSIONAL HOLATLAR KO‘RSATKICHLARINING HUDUDIY DIFFERENSIALLARI

Abdug‘aniyeva Diyora Abdurashid qizi,
O‘zXIA tayanch doktoranti,
TMC instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada destruktiv emotsional holatlar – depressiya, xavotir, agressiya – va ularning shaxs faoliyati, psixologik barqarorlik hamda ijtimoiy moslashuvga ta’siri hududiy differensiallar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsional holatlarning ijtimoiy-madaniy sharoitlar, individual stressga chidamlilik va gender xususiyatlariga bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, maqolada destruktiv emotsional holatlarning namoyon bo‘lish shakllari, ularning psixologik salomatlik va xulq-atvorga ta’siri, shuningdek psixoprofilaktik choralarni ishlab chiqish istiqbollari muhokama qilinadi.

Tayanch so‘zlar: destruktiv emotsional holatlar, depressiya, xavotir, agressiya, psixologik barqarorlik, ijtimoiy moslashuv, hududiy differensiallar, gender tafovutlari, psixoprofilaktika.

РЕГИОНАЛЬНЫЕ РАЗЛИЧИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ДЕСТРУКТИВНЫХ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ СОСТОЯНИЙ

Аннотация: В статье анализируются деструктивные эмоциональные состояния – депрессия, тревожность, агрессия – и их влияние на личностную деятельность, психологическую устойчивость и социальную адаптацию с позиции региональной дифференциации. Рассматривается зависимость эмоциональных состояний от социально-культурных условий, индивидуальной стрессоустойчивости и гендерных особенностей. Кроме того, статья освещает проявления деструктивных эмоциональных состояний, их влияние на психическое здоровье и поведение, а также возможности разработки психопрофилактических мероприятий.

Ключевые слова: деструктивные эмоциональные состояния, депрессия, тревожность, агрессия, психическая устойчивость, социальная адаптация, региональные различия, гендерные особенности, психопрофилактика.

REGIONAL DIFFERENTIATION OF DESTRUCTIVE EMOTIONAL STATE INDICATORS

Annotation: The article examines destructive emotional states – depression, anxiety, and aggression – and their impact on personal functioning, psychological resilience, and social adaptation from the perspective of regional differentiation. The study highlights the relationship between emotional states and socio-cultural conditions, individual stress tolerance, and gender characteristics. Furthermore, the article discusses the manifestation of destructive emotional states, their influence on mental health and behavior, and the potential for developing psychoprophylactic strategies.

Keywords: destructive emotional states, depression, anxiety, aggression, psychological resilience, social adaptation, regional differences, gender characteristics, psychoprophylaxis.

Kirish. Shaxs faoliyati va xatti-harakati har doim unda konstruktiv yoki destruktiv emotsiyalar va his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Voqelikka munosabat miyada aks etadi

va zavq yoki qoniqmaslik, xursandchilik, qayg‘u sifatida boshdan kechiriladi. Emotsiyalar organizmning funksional holatini va shaxs faoliyatini tartibga solishning asosiy mexanizmlaridan biridir. Psixologiyada bir qator kuchli, chuqur emotsional holatlarga oid tavsif va tadqiqotlar mavjud: qayg‘u, affekt, umidsizlik, tashvish, tajovuz, qo‘rquv, vahima, apatiya va boshqalar. Bu emotsional holatlar ko‘pincha shaxs ongining faoliyatiga va muvaffaqiyatiga salbiy ta’sir qiladi, shuning uchun ular destruktiv emotsional holatlar sifatida tasniflanadi.

Destruktiv emotsional holat – bu qiyin hayotiy vaziyatni individual idrok etish, shaxsiy moslashish jarayonining mutanosib kelmasligi natijasida yuzaga keladigan ehtiyojlarni qondirishning buzilishi tajribasidir. Destruktiv emotsional holatlar nevrotik, psixosomatik kasalliklarning rivojlanishiga, shuningdek, shaxs xususiyatlarida ham ma’lum bir o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin [2].

Asosiy qism. Shaxs tomonidan stress va tanqidiy vaziyatlarga duch kelish, buning asnosida chiqib kelishi mumkin bo‘lgan destruktiv emotsional holatlar, ularni oldini olish yoki psixokorreksiya qilish turli fan sohalari tomonidan o‘rganilmoqda va hozirgi kunda fanning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammoga barqaror qiziqish tabiiy, ekologik, ijtimoiy va boshqa noqulay sharoitlarning shaxsga salbiy ta’siri kuchayishi bilan bog‘liq. Shaxs tomonidan murakkab hayotiy vaziyatlarni bartaraf etish yoki oldini olish yo‘llarini o‘rganish psixologiyada tadqiqotning yangi yo‘nalishi – bugungi kunda chet elda ham, mahalliy tadqiqotlarda ham faol rivojlanib kelayotgan psixologik masaladir [3]. Bu borada ijtimoiy-psixologik va diniy omillarning o‘rnini aniqlash, ayniqsa, oliy ta’lim muassasasi talabalarida bu kabi holat qanday kechishini o‘rganish tadqiqotimiz asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilab olingan.

Destruktiv emotsional holatlar – shaxsning ichki ruhiy muvozanatini buzuvchi, uning ijtimoiy moslashuvi va psixologik farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi holatlardir. Ushbu holatlarni aniqlash, ularning ko‘lamini va xarakterini baholash psixoprofilaktik yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ilmiy tadqiqotimiz doirasida destruktiv emotsional holatlarni (depressiya, xavotir, agressiya) empirik o‘rganish uchun quyidagi psixodiagnostik metodikalardan foydalanildi:

U.Zungning “Depressiyani baholash shkalasi” [1] – bu metodika shaxsning depressiv holatini o‘z-o‘zini baholash asosida aniqlash imkonini beradi. Shkala orqali shaxsda holsizlik, o‘ziga ishonchsizlik, hayotga bo‘lgan qiziqishning susayishi kabi simptomlar mavjudligi aniqlanadi.

HADS (Hospital Anxiety and Depression Scale) – bu metodika xavotirlanish va depressiyaning klinik ko‘rinishlarsiz, ammo ichki kechinmalar asosidagi darajalarini o‘lchash uchun mo‘ljallangan. Bu metodika orqali respondentning ruhiy beqarorlik darajasi va emotsional xavfsizligining buzilishi aniqlanadi.

Ch.D.Spilberger – Yu.L.Xanin metodikasi – shaxsning holatli (reaktiv) va shaxsga xos xavotirlanish darajasini baholashga xizmat qiladi. Bu metodika destruktiv emotsional fonni o‘z vaqtida aniqlash va profilaktik choralarni rejalashtirishda samaralidir.

Bass–Darkining “Agressiya darajasini aniqlash” so‘rovnomasi – respondentning tashqi (jismoniy va og‘zaki tajovuz) va ichki (dushmanlik, irratatsiya) tajovuz darajasini aniqlaydi. Agressivlik komponentlari bilan emotsional holat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni tahlil qilish imkonini beradi.

Destruktiv emotsional holatlar psixoprofilaktikasining diniy va ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq etishga bag‘ishlangan empirik izlanishlarimiz geografiyasini tanlashda psixologik tadqiqotlar doirasida qo‘llaniluvchi randomizatsiya (tasodiy tanlanma) usulidan foydalanildi. Unga ko‘ra, tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilarning hududiy jhatdan foiz nisbati quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lgan:

1-jadval

Tadqiqot sinaluvchilarning viloyat kesimi bo‘yicha tafovutlari (N-302)

Viloyat	Soni	Foiz (%)
Toshkent shahri	40 nafar	13,2
Toshkent viloyati	52 nafar	17,2
Andijon viloyati	115 nafar	38,1
Surxondaryo viloyati	95 nafar	31,5
Jami:	302 nafar	100,0

Yuqorida berilgan jadvaldan ko‘rinadiki Toshkent shahridan 40 nafar (13,2%), Toshkent viloyatidan 52 nafar (17,2%), Andijon viloyatidan 115 nafar (38,1%) hamda Surxandaryo viloyatidan 95 nafar (31,5%) sinaluvchilar tadqiqotga jalb etilgan.

2-jadval

HADS va Zung metodikasining viloyat kesimi bo‘yicha tafovutlari (N-302)

Mulohazalar	O‘rtacha rang				Statistik qiymat	
	Toshkent shahri (N-40)	Toshkent viloyati (N-52)	Andijon viloyati (N-115)	Surxondaryo viloyati	Kruskall Uollis H mezoni	p (ishonch darajasi)
Xavotirlanish	148,98	146,16	152,53	154,23	0,339	0,953
Depressiya	137,65	153,94	148,15	160,05	2,147	0,542
Depressiya (Zung metodikasi)	167,65	147,55	152,38	145,79	1,895	0,594

Respondentlarning HADS metodikasi bo‘yicha natijalari tahlil qilinganda xavotirlanish (H=0,339; p>0,05) va depressiya (H=2,147; p>0,05), Zung metodikasi bo‘yicha esa depressiya shkalasi (H=1,895; p>0,05) ko‘rsatkichlarida viloyatlar kesimida ishonchli farqlar kuzatilmadi. Bu holat respondentlarning emotsional holati va psixologik salomatligi hududiy omillardan ko‘ra, shaxsiy hayot tajribasi, individual stressga chidamlilik hamda ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan ko‘proq belgilanayotganini ko‘rsatadi.

3-jadval

Spilberger-Xanining “Xavotirlanish darajasi diagnostikasi” metodikasining viloyat kesimi bo‘yicha tafovutlari (N-302)

Mulohazalar	O‘rtacha rang				Statistik qiymat	
	Toshkent shahri (N-40)	Toshkent viloyati (N-52)	Andijon viloyati (N-115)	Surxondaryo viloyati (N-95)	Kruskall Uollis H mezoni	p (ishonch darajasi)
Shaxsiy xavotirlanish	156,28	144,75	169,74	131,11	10,664	0,014*
Vaziyatli xavotirlanish	141,95	136,19	168,72	143,05	7,451	0,059

Izoh: *- p<0,05

Spilberger–Xanin metodikasi bo‘yicha olingan natijalar shaxsiy xavotirlanish darajasida mintaqalar kesimida statistik ahamiyatli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi (H=10,664; p<0,05). Eng yuqori ko‘rsatkich Andijon viloyatida (169,74) qayd etilib, bu hududda psixologik taranglik va kelajakdagi noaniqlik hissining kuchliligi ehtimolini ko‘rsatadi. Toshkent shahri (156,28) va Toshkent viloyati (144,75) natijalari urbanizatsiya, yuqori raqobat va tezkor hayot sur’atining ta’siri bilan izohlanadi. Surxondaryo viloyatida eng past daraja (131,11) kuzatilib, bu nisbatan barqaror ijtimoiy-psixologik muhit hamda jamoaviy qo‘llab-quvvatlash tizimining mustahkamligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu natijalar xavotirlanish darajasiga hududiy ijtimoiy-madaniy sharoitlar, iqtisodiy barqarorlik va shaxslararo munosabatlar tizimining bevosita ta’sirini tasdiqlaydi.

Vaziyatli xavotirlanish ko‘rsatkichlarida mintaqalar kesimida ishonchli farqlarning qayd etilmasligi (H=7,451; p>0,05) shuni anglatadiki, qisqa muddatli xavotir yoki bevosita vaziyat ta’sirida yuzaga keladigan emotsional reaksiyalar hududiy ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy omillardan kuchli darajada farq qilmaydi. Bunday holat, odatda, vaziyatli xavotirlanishning ko‘proq individual temperament, asab tizimi barqarorligi va stressga biologik javob mexanizmlariga bog‘liqligi bilan izohlanadi.

Sinaluvchilardagi agressivlik holatining viloyat kesimi bo‘yicha farqlari solishtirilganda, verbal agressiya (H=1,365; p>0,05), bilvosita agressiya (H=3,710; p>0,05), tajanglik (H=6,268; p>0,05), shubhalanuvchanlik (H=4,024; p>0,05), xafagarchilik (H=4,246; p>0,05), aybdorlik hissi (H=3,703; p>0,05) va dushmanlik indeksi (H=5,644; p>0,05) kabi shkalalarda ishonchli farqlar qayd etilmadi. Demak, agressivlikning ushbu komponentlari asosan shaxsning barqaror psixodinamik va temperamental xususiyatlariga tayanadi hamda mintaqaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlardan sezilarli darajada mustaqil. Ushbu holat milliy kontekstda agressivlik ifodalanishining normativ me’yorlari, ijtimoiy nazorat mexanizmlari, diniy-axloqiy qadriyatlar va pedagogik-ijtimoiy institutlarning yagona tizimga ega bo‘lishi bilan izohlanadi. Shu sababli, agressivlikning kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlari hududlar bo‘ylab izomorfik tuzilishga ega bo‘lib,

mintaqaviy differensiallashuv uchun sezilarli psixologik asoslar shakllanmaydi.

4-jadval

A.Bass va A.Darkining “Agressivlik holati diagnostikasi” metodikasining viloyat kesimi bo‘yicha tafovutlari (N-302)

Mulohazalar	O‘rtacha rang				Statistik qiymat	
	Toshkent shahri (N-40)	Toshkent viloyati (N-52)	Andijon viloyati (N-115)	Surxondaryo viloyati (N-95)	Kruskall Uollis H mezoni	p (ishonch darajasi)
Jismoniy agressiya	140,65	135,97	176,54	134,25	15,664	0,001**
Verbal agressiya	138,43	155,53	155,91	149,46	1,365	0,714
Bilvosita agressiya	156,35	161,71	156,65	137,63	3,710	0,295
Negativizm	146,44	122,21	178,75	136,68	20,700	0,000**
Tajanglik	147,15	155,09	164,86	135,19	6,268	0,099
Shubhalanuvchanlik	146,38	134,98	162,63	149,22	4,024	0,259
Xafagarchilik	148,23	173,42	149,18	143,69	4,246	0,236
Aybdorlik hissi	148,09	159,92	159,51	138,63	3,703	0,295
Agressivlik indeksi	154,36	129,21	171,70	138,05	11,837	0,008**
Dushmanlik indeksi	146,99	162,66	161,32	135,40	5,644	0,130

Izoh: **- p<0,01

Jismoniy agressiya ko‘rsatkichlari viloyatlar kesimida tahlil qilinganda (H=15,664; p<0,01), Toshkent shahri (140,65), Toshkent viloyati (135,97), Andijon viloyati (176,54) va Surxondaryo viloyati (134,25) o‘rtasida sezilarli farqlar aniqlandi. Eng yuqori daraja Andijon viloyatida qayd etilib, bu holat hududdagi ijtimoiy-psixologik omillar, xususan, emotsional reaktivlikning yuqoriligi va bevosita jismoniy ifoda strategiyalarining nisbatan keng qo‘llanilishi bilan izohlanadi. Qolgan hududlardagi pastroq natijalar esa ijtimoiy nazorat mexanizmlarining samarali ishlashi, madaniy-axloqiy me’yorlarning barqarorligi hamda konfliktlarni vositali muloqot orqali hal qilishga moyillik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu esa jismoniy agressiya darajasidagi tafovutlar mahalliy madaniy va sotsiopsixologik sharoitlar bilan bevosita uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Negativizm darajasi bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil (H=20,700; p<0,01) Toshkent shahri (146,44), Toshkent viloyati (122,21), Andijon viloyati (178,75) va Surxondaryo viloyati (136,68) kesimida ahamiyatli tafovutlarni aniqladi. Andijondagi eng yuqori ko‘rsatkich hudud aholisi orasida mustaqil fikrni qat’iy himoya qilish, ijtimoiy bosimlarga nisbatan qarshilik va shaxslararo muloqotda o‘z pozitsiyasini saqlashga moyillik kuchliligidan dalolat beradi. Toshkent viloyati

va Surxondaryodagi pastroq ballar esa ko‘proq kelishuvchanlik, murosaga intilish va ijtimoiy uyg‘unlikni saqlashga urg‘u berilishi bilan bog‘liq. Toshkent shahrida qayd etilgan o‘rta darajadagi natijalar shahar muhitida individual qadriyatlar va ijtimoiy moslashuv o‘rtasida muvozanat saqlanishini ko‘rsatadi. Bu tafovutlar negativizmga madaniy xususiyatlar, ijtimoiy tizim va hududiy psixologik omillarning ta’siri kuchli ekanidan dalolatdir.

Agressivlik indeksi bo‘yicha tahlil (H=11,837; p<0,01) natijalari Toshkent shahri (154,36), Toshkent viloyati (129,21), Andijon viloyati (171,70) va Surxondaryo viloyati (138,05) ko‘rsatkichlari o‘rtasida ishonchli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Eng yuqori ball Andijon viloyatida qayd etilib, bu hududda emotsional reaktivlik, shaxslararo raqobat ruhi va o‘z fikrini faol himoya qilish tendensiyalari kuchliligidan dalolat beradi. Toshkent shahrida ham yuqoriroq indeks kuzatilgan bo‘lib, bu urbanizatsiya sharoitida stress omillari, axborot oqimining zichligi va ijtimoiy raqobatning agressiv ifodalanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Toshkent viloyati va Surxondaryoda pastroq darajalar qayd etilishi esa ijtimoiy hamjihatlik, an’anaviy ijtimoiy nazorat mexanizmlari va mojarolardan qochishga moyillik bilan izohlanadi. Umuman olganda, agressivlik indeksidagi hududiy tafovutlar shaxsiy xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik va madaniy determinantlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xulosa. Destruktiv emotsional holatlarni empirik tadqiq etish ularning namoyon bo‘lish shakllari, kelib chiqish omillari va shaxslararo munosabatlarga ta’sirini psixodiagnostik hamda metodik asoslarda o‘rganishni talab etadi. Bunda shaxsning ijtimoiy muhitdagi tabiiy o‘rni, vaqt o‘tishi bilan shakllanadigan emotsional reaksiyalar va xulq-atvor stereotiplari uning o‘zini tutish strategiyasi hamda o‘zaro ta’sir jarayonlarini belgilashi inobatga olinadi. Mazkur holatlarni o‘rganishda ularning ko‘rsatkichlarini aniqlash, indikatorlarini baholash va gender differensiallarini tahlil qilish psixologik farqlarni ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda qizlarda umumiy va vaziyatli xavotir darajalari yigitlarga nisbatan yuqori ekani aniqlandi, bunda yuqori emotsional sezgirlik, ijtimoiy baholashga nisbatan kuchli javobchanlik hamda kelajakdagi noaniqliklarga ortiqcha kognitiv e’tibor xavf va noaniq vaziyatlarni tahdid sifatida tez-tez talqin qilishga olib kelishi, bu esa xavotir reaksiyalarining kuchayishiga zamin yaratishi dalillandi.

Hissiy kechinmalarni ochiq ifoda etishdan ko‘ra ichki tarzda boshdan kechirishga moyillik, jamiyatdagi bardoshlilik va hissiyotlarni bostirishga oid gender stereotiplar, shuningdek, repressiv emotsional boshqaruv strategiyalaridan foydalanish ehtimolining yuqoriligi yigitlarda xafagarchilik, aybdorlik va dushmanlik darajalarining ortishiga olib kelishi aniqlandi. Bunda salbiy emotsiyalarning ichki holat sifatida to‘planishi xafagarchilik va dushmanlikning kuchayishiga, ichki javobgarlik hissining ortishiga hamda aybdorlikning chuqurroq kechishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, raqobatbardoshlik, ijtimoiy himoyalanishga intilish va hissiy barqarorlikni namoyon etishga bo‘lgan ijtimoiy bosim ushbu emotsional ko‘rsatkichlarning yuqoriligiga bevosita ta’sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zung W.W. A self-rating depression scale //Archives of General Psychiatry. – 1965. – Vol. 12. – P. 63-70.

2. Березин Ф.Б. Психическая и психофизиологическая адаптация человека / Ф.Б. Березин. – Л.: Наука, 1988. – 270 с.

3. Павенков О.В., Шмелев И.М., Рубцова М.В. – Корреляционный анализ социального и «совладающеого» поведения религиозных личностей: проблемы социальной и психологической диагностики//Социодинамика. – 2017. - №6 – С.30-40. DOI: 10.25136/2409-7144.2017.6.20531.

RATSIONALLIKNING MUTLAQLASHUVI VA FANATIZM PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Akramov Mirmuxsin Rustamovich
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasi professori, psixologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada mutaassib shaxsning ma’lum bir g‘oya, e’tiqod yoki qadriyatga haddan tashqari, tanqidiy fikrlashdan xoli, hissiy jihatdan kuchli bog‘lanishi bilan tavsiflanadigan psixologik holatlar tahlil qilingan. Fanatizmning kelib chiqish sabablari va ongning qadriyatga asoslangan degradatsiyasiga ta’siri o’rganiladi. Shuningdek, fanatizmning asosi ratsional ong ekanligi haqidagi dalillar keltiriladi hamda qadriyatlarning uzluksizligiga to‘sqinlik qiladigan sabab aniqlanadi.

Kalit so’zlar: ratsionallik, qadriyat, haqiqat, fanatizm, chalkashlik, uzluksizlik, tanqidiy fikrlash, kognitiv rigidlik, emotsional beqarorlik, identitet inqirozi, avtoritar tarbiya uslubi, kommunikativ muhit, konformizm, axborot maydoni, manipulyatsiya.

АБСОЛЮТИЗАЦИЯ РАЦИОНАЛЬНОСТИ И ФАНАТИЗМ КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

профессор кафедры «Психология религии и педагогика» Международной академии исламоведения Узбекистана, доктор психологических наук Акрамова Мирмухсина Рустамовича

Аннотация: В данной статье анализируются психологические состояния, характеризующиеся чрезмерной, некритической и эмоционально сильной привязанностью фанатика к определенной идее, убеждению или ценности. Изучаются причины фанатизма и его влияние на деградацию ценностно-ориентированного сознания. Также приводятся доказательства того, что основой фанатизма является рациональное сознание, и выявляется причина, препятствующая сохранению ценностей.

Ключевые слова: рациональность, ценность, истина, фанатизм, путаница, преемственность, критическое мышление, когнитивная ригидность, эмоциональная нестабильность, кризис идентичности, авторитарный стиль воспитания, коммуникативная среда, конформизм, информационное пространство, манипуляция.

ABSOLUTATION OF RATIONALITY AND FANATICISM AS A PSYCHOLOGICAL PROBLEM

Professor of the Department of «Psychology of Religion and Pedagogy» of the International Academy of Islamic Studies of Uzbekistan, Doctor of Psychology Akramov Mirmukhsin Rustamovich

Annotation: This article analyzes the psychological conditions characterized by an excessive, uncritical, and emotionally strong attachment of a fanatic to a particular idea, belief, or value. The causes of fanaticism and its impact on the value-based degradation of consciousness are studied. It also provides evidence that the basis of fanaticism is rational consciousness, and the reason that prevents the continuity of values is identified.

Key words: rationality, value, truth, fanaticism, confusion, continuity, critical thinking, cognitive rigidity, emotional instability, identity crisis, authoritarian parenting style, communicative environment, conformism, information space, manipulation.

Kırısh. Zamonaviy ijtimoiy tafakkurda ratsionallik va fanatizm tushunchalari ko‘pincha bir-biriga zid hodisalar sifatida talqin qilinadi. Ratsionallik odatda aqlga tayangan holda mantiqiy, izchil va asosli fikrlashni anglatadi, fanatizm esa muayyan g‘oya, e’tiqod yoki qadriyatlarga tanqidiy yondashuvsiz, mutlaq ishonch bilan yopishib olish holati sifatida baholanadi. Biroq mazkur hodisalarni faqat qarama-qarshi qutblar sifatida talqin etish ularning murakkab ichki aloqalarini to‘liq ochib bera olmaydi. Chunki ayrim hollarda ratsional asoslangan qarashlarning absolyutlashtirilishi va muqobil nuqtai nazarlarning inkor etilishi fanatizm shakllanishiga zamin yaratishi mumkin.

Globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi va mafkuraviy qarama-qarshiliklar kuchaygan hozirgi davrda ratsionallik va fanatizm o‘rtasidagi konseptual bog‘liqlikni nazariy jihatdan tahlil qilish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Ayniqsa, g‘oyaviy qat’iyat, identiklik inqirozi, ijtimoiy beqarorlik kabi omillar sharoitida ratsional argumentatsiya qanday qilib murosasizlik yoki keskin radikal pozitsiyalarga aylanishi mumkinligi masalasi chuqur o‘rganishni talab etadi.

Hozirgi kunda qadriyatni o’rganishga bag’ishlangan ko’plab tadqiqotlar mavjud, ammo qadriyatni noaniq tushunish tadqiqot natijalarini qo’llashni murakkablashtiradi. Ma’lumki, bu kategoriya psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va boshqalarda qo’llaniladi va har bir fan qadriyatni o’ziga xos tarzda belgilaydi. Masalan, psixolog D.A. Leontevning fikriga ko’ra, qadriyatni bitta fan doirasida ko’rib chiqish mumkin emas; aksincha, fanlararo yondashuv talab etiladi, chunki bu qadriyatni chuqurroq o’rganish imkonini beradi. D.A. Leontev ta’kidlagan qiziqarli jihat shundaki, ingliz va nemis tillarida «qadriyat» so’zi «narx» iqtisodiy tushunchasi bilan bir xil ifodalanadi, bu esa aniq obyektlarga ishora qiladi. Bu atamani noaniq tushunishga olib keldi. Biroq, bizni asosiy qadriyatning universal, ya’ni falsafadan tashqari boshqa fanlar uchun maqbul bo’lgan ta’rifi qiziqtiradi. Biz qadriyatning universal ta’rifini haqiqatga erishishga va uning ma’lum bir shaxs va umuman jamiyat ongiga ta’sirini o’lchashga qaratilgan deb hisoblaymiz.

L.N. Stolovichning fikriga ko’ra, qadriyat - bu obyektiv qadriyatni yaratadigan sub’ekt-ob’ekt munosabati, sub’ektiv jihatdan obyektiv munosabat esa baholashdir va qadriyat sub’ektivga aylanadi [7, 92-bet]. Shu nuqtai nazardan, qadriyat obyektiv haqiqatdir. Biroq, qarama-qarshi pozitsiya mavjud, unga ko’ra qadriyat baholash faoliyati («sub’ektivlashtirilgan qadriyat») bilan birga keladigan sub’ektiv munosabatdir. Bizning fikrimizcha, qadriyat baholash munosabatining natijasidir, ammo uning baholash bilan hech qanday umumiyligi yo’q. Baholash - bu sub’ektiv idrok natijasi bo’lib, u haqiqatga nisbatan xatolikni istisno qilmaydi. Baholash natijasi sifatida qadriyatni tushunish qadriyatni «xarajat» tushunchasi bilan identifikatsiyalashga olib keldi. Qadriyatni tushunishdagi tanazzulga e’tibor qaratganlardan biri Fridrix Nitsshe edi.

Fridrix Nitsshe o’zining «Hokimiyatga iroda» asarida qadriyatlarni «nuqtai nazar» [7, 33-bet], sub’ektiv idrok natijasi va kuch beradigan narsa sifatida tushungan. Hokimiyatga intilishda qadriyatlar shaxsning ma’lum bir rivojlanishiga hissa qo’shadi. Biroq, «hokimiyatga iroda» natijasida shaxs inson hayotining qadriyatini inkor etadi, boshqalardan hokimiyatga erishish vositasi sifatida foydalanadi, shaxsiy rivojlanish yoki inson hayoti emas, balki kuch qadriyat va maqsad bo’lgan munosabatlarni o’rnatadi. Fridrix Nitsshening fikriga ko’ra, qadriyat faqat masalaning mohiyati sifatida tan olingan va mazmunli bo’lgan taqdirdagina qadriyatdir [7, 30-bet].Shuning uchun, qadriyatni qayta yo’naltirish (nuqtai nazardagi o’zgarish) shaxs shunchaki boshqa narsani qadrlay boshlamasligini, balki o’z munosabatini o’zgartirishini taxmin qiladi. Shunday qilib, masalan, iste’molchi sub’ekt-ob’ekt munosabati shaxs vosita emas, balki maqsadga aylanganda shaxsiy sub’ekt-sub’ekt munosabatiga o’zgarishi mumkin.

M. Xaydegger qadriyat haqidagi bu tushunchani ontologik jihatdan rivojlantiradi: qadriyat biz qaraydigan va qaror qabul qilishda hisobga olishimiz kerak bo’lgan narsa sifatida tushuniladi (o’zimizni yo’naltiramiz) [7, 30-bet]. Bizning fikrimizcha, bu ta’rif eng aniq va qadriyat kategoriyasining mohiyatini ochib beradi. Ushbu ta’rifga ko’ra, haqiqat va qadriyat ikkita asosiy, bir-birini to’ldiruvchi tushunchadir [1, 8-bet] va shuning uchun qadriyatlarni bir necha usul bilan o’rganish mumkin. Birinchidan, to’g’ridan-to’g’ri haqiqat tushunchasini tahlil qilish orqali:

odamlar haqiqatga qadriyat sifatida yo'naltirilgan bo'lib, unga tayanib qaror qabul qilishgan. Bu holda qadriyat qadrlanadigan narsa sifatida tushuniladi. Ikkinchidan, bilvosita, xato tushunchasi orqali: inson haqiqat haqida adashishi mumkinligi sababli, yolg'on narsa ham haqiqat sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu holda qadriyat baholash sifatida tushuniladi, u ham to'g'ri, ham yolg'on bo'lishi mumkin.

Bizga haqiqat tushunchasini falsafiy va tarixiy tahlil qilish orqali biz haqiqat obyekti haqida ma'lum bir fikrni shakllantiramiz, bu esa mos yozuvlar nuqtasi bo'lib xizmat qiladi, ya'ni qadriyatni ifodalaydi.

Mavzuning dolzarbligi. Raqamli transformatsiya sharoitida jamiyat hayotining barcha sohalarida g'oyaviy raqobat, mafkuraviy kurash va axborot oqimining keskin ortishi kuzatilmoqda. Bunday vaziyatda inson ongiga ta'sir etuvchi ratsional argumentlar, ilmiy asoslangan da'volar va mantiqiy konstruksiyalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, aynan ratsional asoslangan qarashlarning mutlaqlashtirilishi, muqobil fikrlarning inkor etilishi hamda tanqidiy tafakkurning cheklanishi fanatizmning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy ekstremistik va radikal oqimlar ko'pincha o'z qarashlarini mantiqiy, tizimli va "asoslangan" tarzda taqdim etishga intiladi. Bu esa fanatizmni faqat hissiy yoki irratsional hodisa sifatida emas, balki ma'lum darajada ratsionalizatsiya qilingan fenomen sifatida ham o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Turli tarixiy davrlarda haqiqat turlicha tushunilgan. Qadimgi Yunonistonda haqiqat Aleteya ma'budasi sifatida tanilgan: Parmenid ma'budani «haqiqat» deb ataganida, haqiqatning o'zi ma'buda sifatida tasavvur qilingan [9, 22-bet]. Rim davrida haqiqat veritas sifatida tushunilgan; «O'rta asrlarda aleteya veritas orqali adaequatio, rectutity va iustitia ga, keyin esa zamonaviy Yevropa certitudo ga,

haqiqatga aniqlik, asoslilik va ishonchlilik sifatida aylantirilgan» [9, 129-bet]. M. Xaydeggerning fikriga ko'ra, falsafa tarixida haqiqatning o'zgaruvchan mohiyati nafaqat insonning asl ma'nosidagi haqiqatdan uzoqlashishidan, balki ongning aksiologik degradatsiyasidan ham dalolat beradi. 19-asrda biror narsaning haqiqatini tan olish uchun oluvchiga taqdim etilgan ma'lumotlarning shubhasiz to'g'riligini tan olish kifoya edi. Haqiqat mezoni sifatida sub'ektiv idrok nafaqat haqiqatni tushunishda voqelikni soddalashtirish va undan bir vaqtning o'zida uzoqlashish, balki ob'ektiv kognitiv qobiliyatning pasayishi hamdir. M. Xaydeggerning fikriga ko'ra, haqiqatni tushunishdagi o'zgarish aqlni tushunishda o'zgarishga olib keldi, bu nafaqat logotip bo'lishdan to'xtadi, balki nisbatdan hisoblash hisoblash sifatida tushunila boshladi [9, 115-bet]. Hisoblash, ya'ni hisoblash, aks ettiruvchi fikrlash o'rnini egalladi va u zamonaviy jamiyatda ustunlik qildi:

1. Odamlar ma'lum natijalarga erishishni kutadilar, tavakkal qilishni istamaydilar;
2. Xolislik va haqiqatni bilish istagi orqa fonga o'tdi;
3. Odamlar o'rtasidagi munosabatlarda hisoblashga yo'l qo'yiladi va insoniy munosabatlarning qadriyati tan olinmaydi.

Iqtisodiy munosabatlarda, xisob kitobli fikrlash zarur, bor imkoniyatlardan kelib chiqgan holda. Mutlaq haqida taxmin qilish va nisbiylikni tasdiqlash, o'zining xudbin istaklarini oqlash imkonini beruvchi rejalashtirish va tadqiqot hisoblash fikrlashini tavsiflaydi. Xudbinlik bilan boshqariladigan odam o'z harakatlarini hisoblab chiqadi, tobora foydaliroq variantlarni qidiradi. O'zini tuta olmaslik va hatto o'z harakatlarining ma'nosini ham o'ylab ko'ra olmaslik bu turdagi fikrlashning belgilaridir. Buni go'yo tog 'daryosida tezroq va tezroq suzib yuradigan, na asosiy maqsadni, na ma'noni, na harakatlarining oqibatlarini tushunmaydigan zamonaviy odam misolida ko'rish mumkin. Shunday qilib, bunday odamning ongi haqiqatni «boricha» anglashga emas, balki tashqi mexanizmlar va naqshlarga qaratilganligini ta'kidlash kerak, bu esa ongning ratsionalizatsiyasini va uning qadriyat yo'nalishlarining o'zgarishini ko'rsatadi.

Asl ma'noda aql bo'lgan refleksiv fikrlash turi «o'z o'rnini yo'qotdi va kundalik hayotda foydasiz» [10, 104-bet]. Bizning fikrimizcha, bu befoydalikning sabablari insoniy qadriyatlardagi

o’zgarishlarda va haqiqat mohiyatini tushunishda yotadi. Ilgari haqiqat shaxsdan va uning xohish-istaklaridan, irodasidan va sa’y-harakatlaridan mustaqil bo’lgan bo’lsa, endi haqiqat shaxsni oqlaydigan narsa sifatida tan olinadi va o’rnatiladi, faqat shaxsga foyda keltiradigan jihatlarni hisobga oladi. Narsalarning mohiyatini tushunishga va insoniy qadriyatlarni yuksaltirishga qaratilgan refleksiv fikrlash bugungi kunda inson farovonligini oshirish vositasi sifatida narsalarni yuzaki o’rganishga qaratilgan ratsional fikrlash raqobatiga bardosh bera olmaydi.

Tadqiqotning maqsadi - ratsionallik va fanatizm tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlash, ularning o‘zaro konseptual bog‘liqligini ochib berish hamda ratsional tafakkurning qaysi sharoitlarda destruktiv ko‘rinish — fanatizmga transformatsiyalanishini nazariy asosda tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning ob’ekti - axborot oqimining keskin ortishi va mafkuraviy qarama-qarshiliklar

Tadqiqotning predmeti - shaxsning ma’lum bir qadriyat, e’tiqod yoki g‘oya(ong)ga haddan tashqari, tanqidiy fikrlashdan xoli, hissiy jihatdan kuchli bog‘lanishi bilan tavsiflanadigan psixologik holat

Shunday qilib, qadriyat va haqiqat to’g’ridan-to’g’ri bog’liq va haqiqat mohiyatini tushunishdagi o’zgarish qadriyat yo’nalishidagi o’zgarishni keltirib chiqaradi. Ongning qadriyatlar nuqtai nazaridan yomonlashuvining klassik namunasi inkvizitsiya davrida fanatik fikrlaydigan ruhoniylardir. Cherkov o’zini haqiqatdan uzoqlashtirdi va aqldan foydalanib, inkvizitorlarning harakatlarini oqladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ko’plab Yevropa tillariga kirgan «oqlash» so’zi lotincha justitia so’zidan kelib chiqqan bo’lib, uni ham solihlik, ham adolat deb tarjima qilish mumkin. Bunday qadriyat sifatida oqlash inson hayotini emas, balki mafkuraviy ta’sir salohiyatini va natijada rahbarlar uchun boylikning ko’payishini, hokimiyatga bo’lgan iroda bilan emas, balki diniy intilishlar bilan emas, balki hokimiyatga bo’lgan iroda bilan boshqarilishini nazarda tutgan. Ma’lumki, boshqa odamni shunchaki vosita sifatida ishlatish, ularni maqsad sifatida ko’rmaslik inson hayotining qadrini tushunmaslikdir [3, 206-bet]. Bu hisoblash ratsionalligi yoki fanatizmga asoslangan ongning faol, qadriyatga asoslangan degradatsiyasi deb aytish mumkin. Bu jihatdan fanatizm haqiqatni qalbga tinchlik va quvonch keltiradigan, hayotdagi noyob, shaxsiy, «faqat mening» yo’limni yoritadigan narsa sifatida tushunishdan ko’ra, undan foyda kutishdir.

Fanatizmlar diniy mazhabni yoki biron bir ateistik mafkurani ifodalashidan qat’i nazar, ular doimo haqiqatdan foydalanishadi. Fanatikda «haqiqatga bo’lgan iroda» bilan aralashgan imonga ehtiyoj yoki «haqiqatga bo’lgan iroda» bilan aralashgan ishonchsizlikka ehtiyoj bo’lishi mumkin: ikkala holatda ham ratsional ong fanatikning haqiqatga bo’lgan xudbin munosabatida namoyon bo’ladi. Hokimiyatga bo’lgan iroda bilan boshqariladigan fanatiklar haqiqatga hujum qilishadi, «u ustidan g’alaba qozonishdan ma’lum foyda, masalan, hukmron hokimiyatdan ozodlik» kutishadi [4, 210-bet]. F. Nitsshening fikriga ko’ra, haqiqat «yuqori kuch, foydalilik hissi - bir so’z bilan aytganda, foyda (ya’ni, haqiqat bizning e’tirofimizdan bahramand bo’lishi uchun qanday bo’lishi kerakligi haqidagi shartlar) bilan isbotlanadi» [4, 210-bet]. Fanatiklar o’zlarini «haqiqiy dindorlar» yoki «haqiqat shahidlari» (dinga qarshi kurashuvchilar) sifatida ko’rsatishlari mumkin - ikkalasi ham faqat ratsionalizatsiyaga guvohlik beradi, bu esa hukmronlikka xalaqit beradigan dushmanga qarshi kurashish uchun barcha mumkin bo’lgan vositalardan foydalanishda namoyon bo’ladi.

Ratsional ong hokimiyatni egallashga imkon beradigan va shuning uchun foydali bo’lgan haqiqatni tasdiqlashga yordam beradi. Demak, «haqiqat metodologiyasi haqiqat motivlaridan emas, balki ustunlikka intilishdagi hokimiyat motivlaridan kelib chiqqanligi aniq [4, 210-bet]. Shunday qilib, ratsional asosga ega bo’lgan fanatizm o’z manfaatlarini ko’zlash, ekspluatatsiya qilish va hokimiyatga chanqoqlikning xayoliy kayfiyati bilan tavsiflanishi mumkin. Hokimiyatga bo’lgan iroda sifatida namoyon bo’ladigan hukmronlik istagi fanatizmning sababidir.

O.K. Toktomatov. Ratsionallik fanatizmning asosi sifatida

Bunday fanatizmning asosi o’z tabiatiga ko’ra oqilonadir. Bu xulosani Jon Lokkning «Bag’rikenglik haqidagi maktubi» tahlilidan ham olish mumkin, unda faylasuf fanatizmning diniy turini o’rganib, dindorlarni fanatlardan ajratib turadi. Faylasufning ta’kidlashicha, hukmronlik

qilish istagi Masihning ta’limotining mohiyatini buzib ko’rsatgan va fanatizm buni tasdiqlaydi [6, p. 29]. Bitta «haqiqiy» dinni o’rnatish uchun boshqa dinlarni yo’q qilishga bo’lgan fanatik istak ham oqilona asosga ega, chunki har qanday dinning irratsional asosi sevgidir. Faqat oqilona odam bitta «sevgilini» boshqa «sevgililarni» yo’q qilishni yoki sevgini majburlashni, majburan sevishni oqlay oladi. Faqat mantiqan shafqatsizlikning zarurligini isbotlash va «foydali»haqiqatni o’rnatish mumkin.

Agressiv terrorizm va hukmronlik qilish istagida namoyon bo’lgan fanatizm dinda emas, balki davlat mafkurasida namoyon bo’lish ehtimoli ko’proq. Falsafa tarixi va umuman tarixda hukmdorlar ilm-fan va mafkuradan foydalanib, o’z fuqarolariga qarshi zo’ravonlikni yoki boshqa mamlakatlarga qarshi harbiy harakatlarni qanday oqlashlariga oid ko’plab misollar mavjud. Misol sifatida, boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlikni rivojlantirib, ommani manipulyatsiya qilgan fashistik rejimni keltirish mumkin. Fanatik fikrlaydigan hukmdor hukmronlikka erishish uchun millionlab odamlarni yo’q qilish zarurligini oqilona asoslagan. Xulosa qilish mumkinki, hukmronlik qilish istagi ham individual, ham ijtimoiy darajada fanatizmning paydo bo’lishi va rivojlanishining sabablaridan biridir va din o’zining haqiqiy maqsadlari va qadriyatlari prizmasidan qaralganda, fanatizm bilan bevosita aloqasi yo’q, chunki u faqat hokimiyatga erishish uchun dindan foydalanadigan «dindorlar» orasida namoyon bo’ladi, xuddi mafkura o’zining xudbin maqsadlariga erishish uchun «vatanparvarlar»dan foydalanganidek.

Fanatik fikrlaydigan odamni tavsiflashda fanatizmning shaxs rivojlanishiga va qadriyatlarning sotsiomadaniy uzluksizligiga ta’sirini ta’kidlash muhimdir. Fanatizm qadriyatlarning avloddan-avlodga o’tishiga to’sqinlik qiladi va izchil, ijtimoiy jihatdan barkamol shaxsning rivojlanishiga to’siq bo’lib xizmat qiladi. Bu kontekstda fanatizm boshqalarning erkinligiga qarshi zo’ravonlik va o’zining ehtiroslardan ozod emasligi bilan bog’liq. I.A. Ilyinning fikriga ko’ra, inson «o’z ehtiroslarining xo’jayini» bo’lishi kerak [2, 144-bet]. Paradoks shundaki, bu muammoning standart yechimi har doim aql bo’lgan; ammo, fanatizm vaziyatida birinchi qadam haqiqat mohiyatini tushunishni va buzilgan ongni tuzatadigan mos keladigan qadriyat yo’nalishini tiklashdir. Bunday aql tashqi tomonga emas, balki ichkariga yo’naltirilgan: fanatik o’z fikrini boshqalarga singdirishga harakat qilsa, madaniyatli odam o’ziga haqiqatni eslatmaydi. Ichki erkinlikning o’rnatilishi va mustahkamlanishiga tashqi erkinlik yordam beradi, chunki inson o’z oyoqlarida mahkam turib, o’z aqlidan foydalanadi. Bundan tashqari, I.A. Ilyin aytganidek, «ma’naviy tajriba, ma’naviy sevgi va imon harakati asrlar davomida xalqlar tomonidan noyob tarzda shakllantirilgan va rivojlantirilgan... ta’lim va avloddan avlodga o’tish jarayoni orqali uzatiladi» [2, 148-bet]. Oldingi avlod qadriyatlarini to’g’ri o’zlashtirish shaxsning nafaqat tashqi, balki ichki rivojlanishiga ham imkon beradi. Ushbu ish natijasida fanatizm ongning faol qadriyatlar buzilishi bo’lib, yolg’on qadriyatlarga yo’naltirilgan holda ifodalangan, deb aytish mumkin.

Xulosalar.

Ratsionallik va fanatizm o‘rtasidagi konseptual bog‘liqlikni nazariy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur hodisalar mutlaq qarama-qarshi tushunchalar emas, balki muayyan sharoitlarda o‘zaro tutashuvchi va bir-biriga transformatsiyalanishi mumkin bo‘lgan murakkab ijtimoiy-falsafiy fenomenlardir.

Ratsionallik o‘z mohiyatiga ko‘ra tanqidiy tafakkur, dalillilik va mantiqiy izchillikni anglatadi. Biroq u absolyutlashtirilganda, muqobil qarashlarga yopiq tizimga aylanganda va o‘zini yagona haqiqat sifatida namoyon qilganda, fanatizm uchun zamin yaratishi mumkin. Shu bois sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishda ratsionallikni rivojlantirish bilan birga, uning chegaralarini anglash, tanqidiy tafakkur madaniyatini mustahkamlash va pluralizm tamoyillarini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ratsionallik va fanatizm o‘rtasidagi murakkab dialektik munosabatni chuqur anglash esa zamonaviy jamiyatda bag‘rikenglik, ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Taklif va tavsiyalar

Ratsionallik va fanatizmni o‘zaro qarama-qarshi hodisalar sifatida emas, balki uzluksiz psixologik spektr doirasida o‘rganish tavsiya etiladi. Ratsional fikrlashning mutlaqlashtirilishi fanatik qarashlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Qadriyat tushunchasini psixologik tadqiqotlarda fanlararo va operatsion yondashuv asosida aniqlashtirish zarur. Qadriyat shaxsning haqiqatga yo‘naltirilgan qaror qabul qilish mezoni sifatida tahlil qilinishi lozim.

Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish fanatizmning psixologik profilaktikasi sifatida ko‘rilishi kerak. Muqobil fikrlarni qabul qilish va refleksiv tahlil fanatik qat’iyatni kamaytiradi.

Fanatizmni faqat irratsional holat emas, balki ratsionalizatsiya qilingan psixologik fenomen sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Identiklik inqirozi va ijtimoiy beqarorlik sharoitida qadriyatlarning keskin qat’iylashuvi fanatizmning muhim psixologik omili sifatida empirik tekshirilishi lozim.

Psixokorreksion ishlar jarayonida qadriyatlarni inkor etish emas, balki refleksiv qayta yo‘naltirishga asoslangan yondashuvlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramov M. R.Mutaassiblikning shakllanishi va uning kognitiv jarayonlarga ta’siri UBS Ilmiy Axborotnomasi ISSN:3060-5040 2026-yil, 1-son.

2. Акрамов М.Р. Мутаассиб шахслар билан ишлашда мутахассис шахсининг индивидуал-психологик имкониятлари “Жамоат хавфсизлигини таъминлашда профайлинг ва профайлер амалиёти: муаммо ва ечимлар” мавзусида халқаро илмий-амалий конференсияси материаллари. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети, 2025. - бет.

3. Акрамов М.Р. Замонавий шароитда мутаассибликни шакллантирувчи психологик омиллар. «Таълимда рақамли технологияларни тадбиқ этишнинг замонавий тенденсиялари ва ривожланиш омиллари» мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-амалий, масофавий конференсия материаллари (27 январ 2022 йил) – Т.: Риштон ХТБ 2022

4.Ilyin, I. A. Falsafaning diniy ma’nosi. Moskva: ACT, 2003. 694 b.

5. Kant, I. Tadqiqotlar: 8 jildda. 4-jild. Moskva: Choro, 1994. 630 b.

6. Leontiev, D. A. Fanlararo kontseptsiya sifatida qadriyat: ko’p o’lchovli qayta qurish tajribasi // Voprosy Falsafa. 1996. № 4. 15-26-betlar.

7. Jon Lokkning bag’rikenglik haqidagi maktubi: Nuqtai nazarlar/ Bosh muharrir, kirish so’zi, sharhi M.B. Xomyakova. – Yekaterinburg: Ural davlat universiteti nashriyoti, 2002. – 276-bet.

8. L.N. Stolovich. Umumjahon insoniy qadriyatlar haqida //Falsafa muammolari. – 2004. – № 7. – 86-97-betlar.

YOSHLAR ORASIDA DINIY RADIKALLASHUVNING PSIXOLOGIK OMILLARI

VA PROFILAKTIK MEXANIZMLARI

Ataqulov Bekzod Abdurashitovich,
O‘zbekiston milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar orasida diniy radikallashuvning psixologik omillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shaxsning identitet inqirozi, frustratsiya holati, ijtimoiy izolyatsiya, guruh bosimi hamda manipulyativ axborot ta’siri radikallashuv jarayonining asosiy omillari sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘smirlik va yoshlik davrining psixologik xususiyatlari radikal g‘oyalarga moyillikni kuchaytiruvchi omil sifatida baholanadi. Maqolada radikallashuvning oldini olish bo‘yicha profilaktik mexanizmlar, jumladan, ta’lim tizimida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, media savodxonlikni oshirish hamda ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash choralarining ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: diniy radikallashuv, yoshlar psixologiyasi, identitet inqirozi, frustratsiya, guruh bosimi, mafkuraviy immunitet, profilaktika, media savodxonlik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РЕЛИГИОЗНОГО РАДИКАЛИЗМА СРЕДИ МОЛОДЕЖИ И МЕХАНИЗМЫ ЕГО ПРОФИЛАКТИКИ

Атакулов Бекзод Абдурашитович,
Независимый исследователь Национального университета Узбекистана

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические факторы религиозной радикализации среди молодежи с научно-теоретической точки зрения. В качестве основных причин анализируются кризис идентичности личности, состояние фрустрации, социальная изоляция, групповое давление и влияние манипулятивной информации. Особое внимание уделяется психологическим особенностям подросткового и юношеского возраста как факторам, повышающим восприимчивость к радикальным идеям. В статье также обосновываются профилактические механизмы предупреждения радикализации, включая формирование идеологического иммунитета в системе образования, развитие критического мышления, повышение медиаграмотности и социально-психологическую поддержку молодежи.

Ключевые слова: религиозная радикализация, психология молодежи, кризис идентичности, фрустрация, групповое давление, идеологический иммунитет, профилактика, медиаграмотность.

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF RELIGIOUS RADICALIZATION AMONG YOUTH AND MECHANISMS OF ITS PREVENTION

Atakulov Bekzod Abdurashitovich,
Independent researcher at the National University of Uzbekistan

Annotatsion: This article analyzes the psychological factors contributing to religious radicalization among youth from a scientific and theoretical perspective. Identity crisis, frustration, social isolation, group pressure, and exposure to manipulative information are examined as key determinants of the radicalization process. Particular attention is given to the psychological characteristics of adolescence and early adulthood, which increase vulnerability to radical ideologies. The paper also substantiates preventive mechanisms aimed at countering radicalization, including the development of ideological immunity within the education system, promotion of critical thinking skills, enhancement of media literacy, and provision of social and psychological support for young people.

Keywords: religious radicalization, youth psychology, identity crisis, frustration, group

pressure, ideological immunity, prevention, media literacy.

KIRISH. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot makonining kengayishi hamda mafkuraviy ta’sir vositalarining diversifikatsiyalashuvi sharoitida yoshlar ongiga turli g‘oyaviy oqimlarning kirib borishi kuchaymoqda. Xususan, diniy radikallashuv muammosi nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki psixologik nuqtai nazardan ham dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yoshlarning ruhiy-psixologik xususiyatlari, identitet shakllanish jarayoni, hayotiy maqsad va qadriyatlar tizimining barqaror emasligi ularni radikal g‘oyalar ta’siriga nisbatan sezgir qatlamga aylantirishi mumkin.

So‘nggi yillarda turli ekstremistik oqimlar tomonidan yoshlarni jalb etish mexanizmlarida psixologik ta’sir usullaridan keng foydalanilayotgani kuzatilmoqda. Bunda shaxsning ijtimoiy adolatsizlikni subyektiv idrok etishi, frustratsiya holati, ijtimoiy izolyatsiya, guruhga mansublik ehtiyoji hamda ma’naviy bo‘shliq kabi omillar muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, o‘smirlik va ilk yoshlik davrida shaxsning o‘zini anglash jarayoni faol kechishi, mustaqil fikr shakllanishining yetarli darajada rivojlanmaganligi radikal mafkuralarning soddalashtirilgan va qat’iy javoblariga nisbatan qiziqishni kuchaytirishi mumkin.

Mazkur muammoning ilmiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, diniy radikallashuvni faqat tashqi ijtimoiy omillar bilan izohlash yetarli emas. Ushbu jarayonda shaxsning psixologik xususiyatlari, emotsional barqarorligi, kognitiv moslashuvchanligi hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining mavjudligi muhim determinantlar hisoblanadi. Shu bois radikallashuvning psixologik mexanizmlarini aniqlash va ularni profilaktik nuqtai nazardan o‘rganish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI. Diniy radikallashuv muammosi ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy, siyosiy va psixologik nuqtai nazardan o‘rganilgan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, radikallashuv jarayoni murakkab, ko‘p omilli va bosqichma-bosqich shakllanuvchi hodisa hisoblanadi.

Radikallashuv jarayonini bosqichli model asosida tushuntirishga uringan tadqiqotchilardan biri — Fathali M. Moghaddam bo‘lib, u o‘zining “zina modeli” (staircase model) orqali shaxsning norozi kayfiyatdan zo‘ravon ekstremizmga qadar bosqichma-bosqich ko‘tarilishini izohlaydi. Muallifning fikricha, adolatsizlikni subyektiv idrok etish va imkoniyatlarning cheklanganligi radikallashuvning boshlang‘ich psixologik omillaridan biridir.

2001-yil 11-sentabr – AQShda sodir etilgan terrorchilik harakatlari (Nyu-Yorkdagi World Trade Center) diniy ekstremizm va radikallashuv muammosini global darajada kun tartibiga olib chiqdi.

Ijtimoiy identitet nazariyasi doirasida Henri Tajfel va John Turner guruhga mansublik va “biz–ular” qarama-qarshiligi kuchayishi shaxsning radikal qarashlarni qabul qilish ehtimolini oshirishini ta’kidlaydilar. Ularning tadqiqotlari yoshlar orasida guruh bosimi va kollektiv identifikatsiya mexanizmlarining ahamiyatini ko‘rsatadi.

2014–2016-yillar – BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 100 dan ortiq davlatdan 40 mingdan ziyod shaxs IShID safiga qo‘shilgan. Ularning katta qismi yoshlar bo‘lgan.

Radikallashuvning kognitiv jihatlarini o‘rganishda Arie Kruglanski tomonidan ilgari surilgan “ma’no izlash nazariyasi” (Quest for Significance Theory) muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, shaxs o‘zining ijtimoiy ahamiyatini yo‘qotganini his qilganda yoki kamsitilish tajribasini boshdan kechirganda, radikal mafkuralar orqali “ma’no” va “qadr-qimmat” topishga intiladi.

Yoshlar psixologiyasi nuqtai nazaridan esa identitet shakllanishi masalasi Erik Erikson tomonidan ishlab chiqilgan psixososial rivojlanish nazariyasida keng yoritilgan. Muallif o‘smirlik davrini “identitetga qarshi rol chalkashligi” bosqichi sifatida tavsiflab, ushbu davrda shaxsning mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan sezgir bo‘lishini asoslaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda internet va ijtimoiy tarmoqlarning radikallashuv jarayonidagi roli alohida o‘rganilmoqda. Xususan, Peter Neumann onlayn radikallashuv fenomenini tahlil qilib,

virtual makonda ekstremistik targ‘ibotning yoshlar ongiga tezkor va chuqur ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi.

2018-yil 12-dekabr – BMT Bosh Assambleyasi “Terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha global strategiya”ni yangilagan rezolyutsiyani qabul qildi.

Mahalliy tadqiqotlarda esa yoshlar ma’naviy xavfsizligi, mafkuraviy immunitetni shakllantirish va profilaktik mexanizmlarni takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, diniy radikallashuvning oldini olishda faqat huquqiy choralar yetarli emas, balki psixologik profilaktika, ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar radikallashuvni ko‘p omilli, psixologik, ijtimoiy va kognitiv determinantlarga ega jarayon sifatida talqin qiladi. Biroq yoshlar orasida aynan psixologik omillar va ularning profilaktik mexanizmlar bilan o‘zaro bog‘liqligini kompleks o‘rganish zarurati mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODLARI. Mazkur maqolani tayyorlash va ilmiy tahlil qilish jarayonida nazariy hamda analitik metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, qiyosiy va psixologik yondashuvlar tashkil etadi. Mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, monografiyalar, maqolalar va dissertatsiyalar o‘rganildi hamda umumlashtirildi. Ushbu metod diniy radikallashuvning psixologik omillari bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish imkonini berdi. Radikallashuv jarayoni o‘zaro bog‘liq psixologik, ijtimoiy va kognitiv omillar tizimi sifatida ko‘rib chiqildi. Shaxs, guruh va ijtimoiy muhit omillari o‘zaro integratsiyada tahlil qilindi. Mavzuga oid ma’lumotlar alohida komponentlarga ajratilib (analiz), so‘ngra ular yagona ilmiy xulosaga keltirildi (sintez). Bu usul profilaktik mexanizmlarni ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Alohida ilmiy xulosalardan umumiy nazariy natijalarga (induksiya) hamda umumiy nazariy qarashlardan aniq xulosalarga (deduksiya) kelish usullari qo‘llanildi.

ASOSIY QISM. Diniy radikallashuv murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uning shakllanishida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, o‘smirlik va ilk yoshlik davrida identitet shakllanish jarayoni faol kechadi. Erik Erikson ta’kidlaganidek, mazkur bosqich “identitetga qarshi rol chalkashligi” bilan xarakterlanadi. Identitetning barqaror shakllanmaganligi yoshlarni qat’iy, sodda va emotsional jihatdan ta’sirchan g‘oyalarga nisbatan sezgir qiladi.

Radikallashuvning muhim psixologik omillaridan biri — frustratsiya holatidir. Ijtimoiy adolatsizlikni subyektiv idrok etish, shaxsiy muvaffaqiyatsizliklar yoki ijtimoiy imkoniyatlarning cheklanganligi ichki zo‘riqish va norozi kayfiyatni yuzaga keltiradi. John Dollard tomonidan ilgari surilgan frustratsiya-agressiya gipotezasiga ko‘ra, uzoq davom etgan frustratsiya agressiv yoki destruktiv xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Radikal guruhlar aynan mana shu emotsional zaiflikdan foydalanadi.

Shuningdek, ijtimoiy identifikatsiya mexanizmi ham radikallashuv jarayonida muhim o‘rin tutadi. Henri Tajfel va John Turner tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identitet nazariyasiga ko‘ra, shaxs o‘zini muayyan guruh bilan identifikatsiya qilish orqali o‘z qadr-qimmatini oshirishga intiladi. Radikal guruhlar “biz va ular” oppozitsiyasini kuchaytirish orqali a’zolarda sun’iy birlik va ustunlik hissini shakllantiradi.

Zamonaviy sharoitda internet va ijtimoiy tarmoqlar radikallashuv jarayonining tezlashishiga xizmat qilmoqda. Virtual makonda anonimlik, nazoratning cheklanganligi hamda axborotning tez tarqalishi yoshlarning radikal kontent ta’siriga tushish xavfini oshiradi. Bu jarayonda manipulyativ kommunikatsiya, selektiv axborot berish va emotsional targ‘ibot usullaridan keng foydalaniladi.

Radikallashuv odatda bosqichma-bosqich shakllanadi. Fathali M. Moghaddam tomonidan taklif etilgan “zina modeli”ga ko‘ra, jarayon dastlab adolatsizlikni his etishdan boshlanib, muqobil g‘oyalarni qabul qilish, guruh bilan identifikatsiyalashuv va nihoyat radikal xatti-harakatlarga tayyorlik bosqichlariga o‘tadi.

Kognitiv jihatdan radikallashuv “qora-oq tafakkur” (dixotomik fikrlash) bilan tavsiflanadi. Murakkab ijtimoiy jarayonlar soddalashtiriladi, alternativ fikrlar inkor etiladi. Bu esa tanqidiy fikrlashning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog‘liq.

Emotsional omillar ham muhimdir. Qo‘rquv, g‘azab, haqoratlanganlik hissi yoki ma’no izlash ehtiyoji shaxsni radikal mafkuralarga yaqinlashtirishi mumkin. Radikal guruhlar esa shaxsga “maqsad”, “adolat uchun kurash” va “muqaddas vazifa” g‘oyalarini taklif etadi.

Radikallashuvning oldini olish kompleks yondashuvni talab etadi. Avvalo, ta’lim tizimida tanqidiy fikrlash, media savodxonlik va bag‘rikenglik tamoyillarini rivojlantirish zarur. Yoshlarning axborotni tahlil qilish, manipulyativ usullarni farqlay olish ko‘nikmasini shakllantirish muhim profilaktik omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, oilaviy muhitning barqarorligi va ochiq muloqot madaniyati yoshlarning radikal guruhlarga qo‘shilish xavfini kamaytiradi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi, psixologik maslahat xizmatlari va yoshlar bilan individual ishlash mexanizmlari profilaktik samaradorlikni oshiradi.

Uchinchidan, mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon shaxsda mustaqil fikrlash, tolerantlik, huquqiy ong va ijtimoiy mas’uliyat hissini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, yoshlar orasida diniy radikallashuvning shakllanishi ko‘plab psixologik omillar bilan bog‘liq bo‘lib, uning oldini olish tizimli, uzluksiz va ilmiy asoslangan profilaktik mexanizmlarni talab etadi.

NATIJA VA TAKLIFLAR. Psixologik omillar – yoshlar orasida diniy radikallashuvning shakllanishida identitet inqirozi, frustratsiya holati, guruhga mansublik ehtiyoji va emotsional zo‘riqish eng muhim determinantlar sifatida aniqlangan. Ijtimoiy muhitning roli – oilaviy barqarorlik, ta’lim muassasalaridagi qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy faoliyat imkoniyatlarining yetishmasligi yoshlarni radikal g‘oyalarga moyil qiladi. Onlayn makon ta’siri – internet va ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyativ kontent yoshlarning radikallashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Profilaktik mexanizmlar samarasi – tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, bag‘rikenglikni rivojlantirish va ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash yoshlarning radikal kontentga moyilligini kamaytiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, diniy radikallashuvni faqat tashqi ijtimoiy omillar bilan izohlash yetarli emas; shaxsning psixologik holati, identitet barqarorligi va ma’naviy qadriyat tizimi ham muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Ta’lim tizimi orqali profilaktika Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida tanqidiy fikrlash va media savodxonlik kurslarini joriy etish;
- Bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat va tolerantlikni rivojlantiruvchi darslar va seminarlar tashkil etish;
- Oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- Ota-onalar va tarbiyachilar uchun yoshlarning psixologik holatini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha treninglar o‘tkazish;
- Yoshlar uchun ijtimoiy klublar, sport va madaniy loyihalarni rivojlantirish, shaxsni ijtimoiy izolyatsiyadan himoya qilish.

XULOSA. Diniy radikallashuv – murakkab psixologik va ijtimoiy jarayon bo‘lib, uning ildizlari shaxsiy inqiroz, ijtimoiy norozilik va axborot manipulyatsiyasi bilan bog‘liq. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan boshlab global miqyosda bu muammo xavfsizlik siyosatining markaziga aylandi.

Profilaktika esa faqat jazolash emas, balki ma’rifat, psixologik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy adolatni ta’minlash orqali samarali bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot yoshlar orasida diniy radikallashuvning psixologik omillarini tahlil qilish va uning oldini olish profilaktik mexanizmlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

1. Psixologik omillar – identitet inqirozi, frustratsiya holati, guruhga mansublik ehtiyoji va emotsional zo‘riqish yoshlarni radikal g‘oyalarga moyil qiluvchi asosiy determinantlardir.

2. Ijtimoiy-madaniy muhit – oilaviy barqarorlikning yetishmasligi, ta’lim muassasalarida qo‘llab-quvvatlash tizimining cheklanganligi va internetdagi manipulyativ axborot radikallashuv xavfini kuchaytiradi.

3. Profilaktik mexanizmlar samarasi – tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, bag‘rikenglikni rivojlantirish va ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash yoshlarni radikal kontent ta’siridan himoya qiladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, diniy radikallashuvni oldini olish faqat tashqi choralar bilan cheklanmasligi, balki shaxsning ichki psixologik barqarorligini mustahkamlash, identitetni rivojlantirish va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish orqali amalga oshirilishi zarur.

Tadqiqot natijalari pedagoglar, psixologlar, profilaktik xizmatlar va yoshlar bilan ishlovchi ijtimoiy institutlar faoliyatida amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yoshlar orasida diniy radikallashuvning oldini olish uchun kompleks mexanizm ishlab chiqish zarur bo‘lib, u ta’lim muassasalarida diniy savodxonlik va tanqidiy fikrlashni kuchaytirish, psixologik maslahat va erta ogohlantirish tizimlarini joriy etish, oilaviy va mahalla darajasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni faollashtirish, yoshlarni bandlik va tadbirkorlik dasturlari orqali ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, internet makonida zararli targ‘ibotga qarshi axborot xavfsizligini mustahkamlash hamda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yishni o‘z ichiga olishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Fathali M. Moghaddam. The Staircase to Terrorism: A Psychological Exploration. American Psychologist, 2005, Vol. 60(2), pp. 161–169.

2. Henri Tajfel & John Turner. An Integrative Theory of Intergroup Conflict. In: W.G. Austin & S. Worchel (eds.), The Social Psychology of Intergroup Relations, 1979, pp. 33–47.

3. John Dollard, Leonard Doob, Neil Miller, O.H. Mowrer, & Robert Sears. Frustration and Aggression. New Haven: Yale University Press, 1939.

4. Arie Kruglanski. The Psychology of Radicalization and Terrorism: A Quest for Significance. Routledge, 2014.

6. Marc Sageman. Leaderless Jihad: Terror Networks in the Twenty-First Century. University of Pennsylvania Press, 2008.

7. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Yoshlar va ekstremizmning oldini olish choralari. Toshkent, 2020.

8. Xolmurodov, R. Yoshlar psixologiyasi va radikallashuv xavfi. Toshkent: Fan va Texnologiya, 2021.

G‘ulomqodirov Eldorjon Axmadjon o‘g‘li
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti III
bosqich tayanch doktoranti(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar shaxsining psixologik xususiyatlari va ularning o‘ziga xos «psixologik portreti» tahlil qilingan. Tadqiqotda Farg‘ona, Toshkent va Navoiy viloyatlaridan 449 nafar o‘smir ishtirok etdi. Kettel testining bolalar varianti yordamida olingan natijalar zo‘ravonlik tajribasi o‘smirlarda ijtimoiy faollikning pasayishi, o‘z-o‘ziga ishonchsizlik, shu bilan birga yuqori darajadagi hissiy barqarorlik, vijdonlilik va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi o‘ziga xos moslashuv xususiyatlarni shakllantirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar. O‘smirlik davri, oilaviy zo‘ravonlik, psixologik portret, shaxs xususiyatlari, moslashuv mexanizmlari, Kettel testi, ijtimoiy muhit, hissiy barqarorlik.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические особенности и «психологический портрет» подростков, подвергшихся домашнему насилию. В исследовании приняли участие 449 подростков из Ферганской, Ташкентской и Навоийской областей. Результаты, полученные с помощью детского варианта теста Кеттелла, показали, что опыт насилия формирует у подростков специфические механизмы адаптации: снижение социальной активности и уверенности в себе при одновременном повышении эмоциональной устойчивости, добросовестности и самоконтроля.

Ключевые слова. Подростковый возраст, домашнее насилие, психологический портрет, личностные черты, механизмы адаптации, тест Кеттелла, социальная среда, эмоциональная устойчивость.

Abstract. This article analyzes the psychological characteristics and the «psychological portrait» of adolescents who have experienced domestic violence. The study involved 449 adolescents from Fergana, Tashkent, and Navoi regions. Results obtained using the children’s version of the Cattell personality test showed that the experience of violence shapes unique adaptation mechanisms in adolescents: lower levels of social activity and self-confidence, coupled with higher emotional stability, conscientiousness, and self-control.

Keywords. Adolescence, domestic violence, psychological portrait, personality traits, adaptation mechanisms, Cattell test, social environment, emotional stability.

Kirish. Psixologik tadqiqotlarda shaxsni alohida xususiyatlarini o‘rganishdan ko‘ra, ularning o‘zaro bog‘liqligi, umumiy jihatlar va ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash muhim hisoblanadi. Shu jihatdan, psixologik portret atamasi shaxsning individual-psixologik xususiyatlarining turg‘un holatlar yig‘indisi emas, balki ma’lum bir hayotiy tajriba va rivojlanish sharoitida shakllangan yaxlit tizim sifatida tavsiflash imkonini beradi. Psixologik portret –bu shaxsning individual-psixologik xususiyatlarining (temperament, xarakter, qobiliyat, yo‘nalganlik) shunday majmuidirki, u insonning ma’lum sharoitlardagi xulq-atvorini baholash imkonini beradi .

O‘smirlik davri boshqa yosh davrlariga nisbatan xarakatlarning impulsivligi, shaxs sifatida qayta tashkil topish, ichki va tashqi faktorlarga nisbatan sezgirlik yuqori bo‘lgan yosh davr hisoblanadi. Bu davrda shaxsning barqaror psixologik xususiyatlari va situation reaksiyalari o‘rtasida nisbat o‘zgaradi. Shu jihatdan o’smirlik davrini tadqiq qilishda psixologik portret dan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Oilaviy zo‘ravonlik omili shaxs rivojlanishida oddiy tashqi sharoit sifatida emas, balki shaxs tuzilmasining shakllanish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Zo‘ravonlik sharoitida o‘sayotgan o‘smir uchun kundalik hayot tajribasi yuqori darajadagi emotsional zo‘riqish, noaniqlik va psixologik beqarorlik fonida kechadi. Bunday sharoitda shaxs xususiyatlari tasodifiy shakllanmaydi, balki ichki muvozanatni saqlashga qaratilgan moslashuv mexanizmlari orqali qayta tashkil topadi. Shu

sababli zo‘ravonlik omili o‘smir shaxsining psixologik portretini shakllantiruvchi muhim kontekst sifatida qaraladi.

Metodlar. Oilaviy zo‘ravonlikni boshdan kechirayotgan o‘smirlarning psixologik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimentda tadqiqot obyekti sifatida Farg‘ona, Toshkent va Navoiy viloyatlarida tahsil oluvchi jami 449 nafar 13-15 yoshli o‘smir o‘quvchilar ishtirok etdi. Dala tadqiqotini o‘tkazish uchun hududlar ota-onalik huquqidan mahrum qilish bo‘yicha sud statistikasi, MICS tadqiqot natijalari, statistika agentligida mavjud ma’lumotlar asosida tanlab olindi. Tadqiqot doirasida jami 449 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Sinaluvchilarning 226 nafari o‘smir o‘g‘il bolalar(50.3%, 100 foizlik ulushga ko‘ra) va 223 nafari o‘smir qizlar(49.7%) tashkil etdi. Ko‘rnib turibdiki, o‘g‘il bolalar ulushi qizlarga qaraganda yuqoriroq ekan.

1-jadval

Tadqiqot ishtirokchilarining yosh xususiyatlari

Yosh toifalari	Soni (nafar)	Foiz ko‘rsatkichi(%)
13 yosh	26	5.8%
14 yosh	234	52.1%
15 yosh	189	42.1%
Jami	449	100.0%

Respondentlarning yosh xususiyatlari aks etgan yuqoridagi jadvaldan ma’lum bo‘ladiki, 13 yoshli o‘quvchilar soni 26 nafar(5.8%), 14 yoshli o‘quvchilar soni 234 nafar(52.1%) va 15 yoshli o‘quvchilar soni 189 nafar(42.1%)ni tashkil etadi.

Sinaluvchilarning ijtimoiy-demografik tavsifi bo‘yicha ko‘rsatkichlarni quyida keltirib o‘tamiz. 163 nafar(36.3%) ishtirokchilar ota-onasining o‘rta ma’lumotli ekanligini qayd qilgan. Mos ravishda o‘rta-maxsus ma’lumotli ota-onalar soni 161 ta(35.9%), oliy ma’lumotli ota-onalar soni 99 nafar(22%) va ilmiy darajali ota-onalar soni 26 nafar(5.8%) ekanligi aniqlangan. Ushbu ko‘rsatkichlar ota-onalardan biri yoki har ikkisining ma’lumot darajasiga qarab shakllantirilgan. Oiladagi moddiy yetishmovchilik hissi, iqtisodiy qiyinchilklar oilaviy zo‘ravonlikni yuzaga keltiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Ushbu faktor bo‘yicha ishtirokchilarning 133 nafari(29.6%) yuqori farovonlik darajasini belgilagan. 311 ta o‘quvchi(69.3%) o‘rta farovonlik darajasi va 5 nafar ishtirokchi(1.1%) quyi farovonlik darajasini qayd etgan. Sinaluvchilarning yashash hududi bo‘yicha ma’lumotlar tahlili 65.3%(293 nafar) ishtirokchi qishloq oilalarida va 34.7% (156 nafar) qismi shaharda yashashi qayd qilingan.

Kettel testining bolalar varianti o‘smirlik davridagi shaxs strukturasi dinamikasini, uning emotsional va kognitiv sohalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tizimli o‘rganishda eng ishonchli empirik instrumentlardan biri hisoblanadi . Shu sabab Kettel testining bolalar varianti o‘smir shaxsining psixologik portretini tasvirlashda keng qo‘llaniladi.

Natijalar. O‘smirlik davri shaxs shakllanishining muhim davri hisoblanib, bu jarayon oiladagi psixologik xavfsiz muhit bilan bevosita bog‘liq. Ayniqsa, oiladagi zo‘ravonlik tajribasi shaxs xususiyatlari va uning namoyon bo‘lishiga bevosita ta’sir qiladi. Oilaviy zo‘ravonlikni boshdan kechirayotgan o‘smirlarning psixologik xususiyatlarini aniqlash yuzasidan o‘tkazgan tadqiqot ishimizda zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar va me’yordagi oilalarda tarbiyalanyotgan o‘smirlarning shaxs xususiyatlari o‘rtasidagi farqni o‘rgandik.

Zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlarning shaxslilik xususiyatlarini jinsga ko‘ra va me’yordagi oilalar bilan qiyosiy ko‘rsatkichlari (Kraskel-Uollis mezoni asosida)

Faktorlar	O‘rtacha rang				H	p
	Zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar	Zo‘ravonlikka uchragan o‘smir qizlar	Me’yordagi oila o‘smirlari	Me’yordagi oila o‘smir qizlari		
	173	176	53	46		
Ekstraversiya	224.53	182.37	321.25	274.10	56.190	0.000**
O‘z-o‘ziga ishonch	201.88	191.63	317.58	328.10	74.851	0.000**
Hissiy barqarorlik	238.01	234.75	181.15	184.42	13.806	0.003**
Mustaqillik	240.18	227.35	186.80	198.08	9.319	0.025*
Fahm-farosat	203.41	247.63	197.09	246.87	14.432	0.002**
Vijdonlilik	263.09	233.66	115.38	170.08	63.912	0.000**
Dadillik	210.83	191.57	293.75	322.12	56.399	0.000**
Uddaburonlik	249.75	220.47	199.48	173.77	16.291	0.001**
Optimizm	230.29	199.15	259.40	259.49	14.996	0.002**
O‘z-o‘zini nazorat qilish	256.48	224.80	169.89	165.98	30.380	0.000**
Xotirjamlik	193.53	205.75	318.31	304.63	60.907	0.000**

Izoh:*-p<0.05; **-p<0.01

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rishingiz mumkinki, zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar va me’yordagi oila farzandlarining shaxs xususiyatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar mavjudligi aniqlandi.

Muhokama. Ekstraversiya shkalasi bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlikni boshdan kechirgan o‘smirlarda ijtimoiy faollik va tashqi muhitga nisbatan ochiqlik darajasi pastroqdir(H=56.190; p=0.000). Shkala bo‘yicha eng yuqori rang ko‘rsatkichi me’yordagi oilalarda tarbiyalanyotgan o‘g‘il bolalarda, eng quyi ko‘rsatkich esa zo‘ravonlikka uchragan qizlar guruhida aniqalandi. Natijalarni izohlashda ekstraversiyani salbiy yoki ijobiy holat deb izohlash obyektivlikka putur yetkazadi. Shu jihatdan me’yordagi oilalarda ekstraversiya yuqori ekanligi ijtimoiy munosbatlar, o‘zini erkin namoyon qilish imkoniyati bilan bog‘lash mumkin. Zo‘ravonlikka uchragan o‘g‘il bolalar guruhida nisbatan yuqori natija saqlanib qolganligi ijtimoiy kutilmalar, ijtimoiy munosabatlardagi faollikni saqlab qolish bilan izohlanadi. Ushbu guruhdagi qizlarning past ko‘rsatkichi ehtiyotkorlik, o‘g‘il bolalarga nisbatan tortinchoqlik xususiyati bilan bog‘liq. Umuman olganda, ekstraversiya ko‘rsatkichining namoyon bo‘lishi nafaqat zo‘ravonlik tajribasiga balki, ijtimoiylashuv jarayoni, gender omillar, temperament tipiga ham bevosita bog‘liq.

O‘z-o‘ziga ishonch shkalasi bo‘yicha tahlil natijalari zo‘ravonlik tajribasi shaxsning “Men” tushunchasiga jiddiy ta’sir etishini ko‘rsatdi. Me’yordagi oilada tarbiyalanyotgan har ikki jins vakillarida yuqori ko‘rsatkichlar qayd qilindi. Bu holat barqaror ijtimoiy, emmotsional qo‘llab-quvvatlash asosida shakllangan rivojlanish jarayoni natijasi sifatida talqin qilinadi. Zo‘ravonlikni boshdan kechirgan o‘smirlarda o‘z-o‘ziga ishonchning pastligi aybdorlik hissi, o‘z imkoniyatlariga

shubha qilish va tashqi qo‘llab-quvvatlash, rag‘bat yetishmasligi bilan izohlanadi. Qizlar va yigitlarda ko‘rsatkichlar yaqinligi jinsdan ko‘ra zo‘ravonlik holati muhimroq omil ekanligini tasdiqlaydi.

Navbatdagi hissiy barqarorlik shkalasi bo‘yicha zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar guruhida har ikkala jins vakillarida hissiy barqarorlik yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi. Me’yordagi oilalarda esa ko‘rsatkichlar pastroq va jinslar o‘rtasida katta tafovut mavjud emas. Zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar guruhidagi natijalarni stressli vaziyatlarda hissiyotlarni boshqarish ko‘nikmasi, javob reaksiyalarini nazorat qilish ko‘nikmalari bilan izohlash mumkin. Ba’zida zo‘ravonlik tajribasi ham hayot uchun zarur bo‘lgan yumshoq ko‘nikmalar shakllanishiga sabab bo‘ladi. Me’yordagi oilalarda hissiy barqarorlik pastligi qo‘llab-quvvatlovchi oila muhitida o‘smir o‘s hissiyotlarini nazorat qilmasligi, erkin ifoda etishi bilan izohlanadi. Jinslar o‘rtasida keskin farqlar mavjud emas. Bu holat ham zo‘ravonlik tajribasi bilan bog‘liq psixologik moslashuv shakli bo‘lishi mumkin.

Mustaqillik shkalasi bo‘yicha Kruskal–Uollis mezoni natijalari guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli, biroq o‘rtacha darajadagi farq mavjudligini ko‘rsatdi ($H = 9.319$; $p = 0.025$). Zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlarda ayniqsa, o‘g‘il bolalarda yuqori ko‘rsatkich qayd etildi. Me’yordagi oilalarda esa mustaqillik shkalasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar nisbatan past ekanligi aniqlandi. Zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar guruhi natijalari qaror qabul qilish, o‘zini himoya qilish holati bilan izohlanadi. Shu o‘rinda “O‘zining psixik holatlarini baholash” testi rigidlik shkalasi va Kettel testi bolalar variant mustaqillik shkalasi bo‘yicha zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar guruhida yuqori natijalarni biroz izohlab o‘tamiz. Rigidlik va mustaqillik shkalasini bir-biriga qarshi qo‘yish to‘g‘ri emas. Zo‘ravonlik sharoitida o‘smirlarning kognitiv va konnativ sohasida rigidlik, xulq-atvorida mustaqillik parallel shakllanishi mumkin. Me’yordagi oilalarda tarbiyalanayotgan o‘smirlar ko‘rsatkichining pastligi oila a’zolarining qo‘llab-quvvatlovchi pozitsiyasi bolalarni xavf-xatarlardan himoya qilish uchun tashabbuslariga cheklov qo‘yishi bilan izohlanadi. Qizlar va o‘g‘il bolalardagi ko‘rsatkichlar tafovuti biologic emas, ijtimoiy tajriba orqali shakllangan farq sifatida talqin etiladi.

Fahm-farosat shkalasi bo‘yicha zo‘ravonlikka uchragan o‘smir qizlar va me’yordagi oilada tarbiyalanyotgan qizlar ko‘rsatkichlari juda yaqinligi qayd etildi. Xuddi shu tendensiya har ikki guruhdagi o‘g‘il bolalar natijalarida ham kuzatildi. Demak bu shkalaga jins omili zo‘ravonlik tajribasidan ko‘ra ko‘proq ta’sir etarkan. O‘smir qizlarda natijalarning yuqoriligi empatiya ko‘rsatkichi, sezgirlik va boshqalar holatini tez ilg‘ash bilan izohlanadi.

Vijdonlilik shkalsi bo‘yicha zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar guruhida me’yordagi oilalarga nisbatan yuqori natija qayd etildi. Qiyin vaziyatlar buyuk insonlarni yetishtirgani kabi oilaviy zo‘ravonlik sharoitida ulg‘aygan o‘smirlar ma’suliyatni ertaroq zimmasiga oladi. O‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, jamiyatning ijtimoiy me’yorlari va axloqiy qoidalarini yaxshi o‘zlashtirish vijdonlilik shkalasi bo‘yicha natijalar yuqori bo‘lishiga olib kelgan. Me’yordagi oilalardagi qo‘llab-quvvatlovchi muhit, xatolarga nisbatan kechirimlilik o‘smirlar xulq-atvorida jamiyatning axloqiy qoidalariga nisbatan moslashuvchanlikni shakllantiradi. Bu holat vijdonlilik ko‘rsatkichidan nisbatan past natijalarga olib kelgan. Har ikki guruhda jins bo‘yicha tafovutlar aniqlandi. Me’yordagi oilalarda tarbiyalanyotgan o‘smir qizlar natijasi shu guruhdagi o‘g‘il bolalar natijasiga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Bu holat xushmuomilalik, itoatkorlik, ma’suliyat kabi jamiyatning qizlardan kutilmalari bilan izohlanadi. Zo‘ravonlikka uchragan oilalarda tarbiyalanyotgan o‘smir yigitlarning vijdonlilik shkalasi bo‘yicha natijalari yuqoriligi erta ulg‘ayish, ma’suliyatlilik bilan bog‘liq.

Navbatdagi dadillik shkalsi bo‘yicha me’yordagi oila farzandlari ko‘rsatkichlari zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar natijalaridan yuqpriligi aniqlandi. Mazkur holat ushbu turdagi oilalarda shakllangan sog‘lom psixologik muhit, yaqinlar qo‘llab-quvvatlovi, jazo va rag‘bat muvozanati shakllanganligi bilan izohlanadi. Ayni shu jihatlar o‘smirlarda tashabbus qilishga, o‘z fikrini erkin aytishga imkon beradi. Me’yordagi oilalarda qizlar natijalari nisbatan yuqori chiqishi o

‘g‘il bolalarga nisbatan bo‘ladigan qattiqqo‘llik yo‘qligi, diniy e’tiqod nuqati nazaridan qizlarga bo‘laigan rahm-shafqat oqibatida yuzaga kelgan. Zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlarda dadillik, o‘z fikrinin erkin aytish, tashabbuskorlik xavfsizlikka tahdid sifatida idrok qilinadi. Bu holat mazkur guruhdagi respondentlarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichlarida o‘z aksini topgan.

Uddaburonlik shkalasi bo‘yicha o‘rtacha rang ko‘rsatkichi zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar guruhida yuqoriligi qayd etildi. Lazarus va Folkmanlarning stressga moslashuv bo‘yicha nazariy yondashuvlarida muammoga yo‘naltirilgan koping tushunchasiga to‘xtalib, uni shaxs va uning atrof-muhiti o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zgartirishga qaratilgan harakatlar yig‘indisi deb tushuntiradi. Murakkab hayotiy vaziyatlar shaxsda kognitiv va xulq-atvor strategiyalarini, jumladan, muammoni tahlil qilish, tezkor qaror qabul qilish va vaziyatni nazorat ostiga olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga turtki beradi . Bu ko‘nikma va xulq-atvor ko‘rinishlari muammoli vaziyatdan chiqish, xavfga qarshi himoya mexanizmi vazifasini o‘taydi. Me’yordagi oilalarda uddaburonlik ko‘rsatkichi nisbatan pastligi shaxs xususiyatidagi kamchilik emas, balki uddaburonlik talab qilinadigan vaziyatlar kamligi bilan izohlanadi.

Optimizm shkalasi bo‘yicha me’yordagi oilada tarbiyalanayotgan o‘smirlar natijalar zo‘ravonlikka uchragan o‘smirla natijasidan yuqori chiqdi. Albatta, me’yordagi oilalarda shakllangan bolalarga nisbatan munosabat o‘smirlarda kelajakka va o‘ziga nisbatan ishonchni oshiradi. Mazkur guruhda o‘g‘il bolalar va qizlarda juda yaqin natijalar qayd qilindi. Bu holat optimism shkalasi natijalariga jisn omili ta’sir qilmasligi, balki asosiy omil oilaviy muhit va zo‘ravonlik tajrinasoi ekanligini tasdiqlaydi. Zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlarda optimizm ko‘rsatkichi pastligiga kelajak mavhumligi, kutilmalarga mos bo‘lmagan reallik oqibatida shakllangan umidszilik sabab bo‘lgan.

O‘z-o‘zini nazorat qilish shkalasi bo‘yicha resondentlarning natijalari guruhlar o‘rtasida ishonch darajasida ahamiyatli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar guruhida me’yordagi oila farzandlariga nizabatan yuqori natija aniqlandi. Mazkur guruhda spontan xatti-harakatlar zo‘ravonlik holati takrorlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Tashqi reaksiyalarni bostirish, hissiyotlarni namoyon qilmaslik ham shkala bo‘yicha natijalarga ta’sir qilgan. Me’yordagi oilalarda esa jazo va rag‘bat muvozanati hissiyotlarni erkin ifoda qilish va spontan xatti-harakatlar saqlanib qolishiga olib keladi.

So‘nggi xotirjamlik shkalasi bo‘yicha ham o‘z-o‘zini nazorat qilish shkalasi kabi tendensiya kuzatildi. Zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlar guruhida natijalar pastligi doimiy xavfsirash, xotirajmlik o‘rniga xushyorlik namoyon bo‘lishi sabab bo‘lgan. Meyordagi oilalardagi psixologik xavfsiz muhit barqarorlik, xavotir va qo‘rquvning pastli uchun asosiy omil hisoblanadi. Ayni shu jihat xotirjamlik shkalasi bo‘yicha yuqori natija chiqishiga sabab bo‘lgan. Xotirjamlik shkalasi bo‘yicha natijalardagi farqlar o‘smirlarning barqorligni emas, balki ular yashayotgan oiladagi xavfsiz muhitning darajasini aks ettiradi.

Xulosa. O‘smirlik davri shaxsning shakllanishida eng muhim va krizisli bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda oilaviy muhitning barqarorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. O‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari oilaviy zo‘ravonlik shunchaki tashqi salbiy faktor emas, balki o‘smir shaxsining fundamental xususiyatlarini va uning psixologik portretini qayta shakllantiruvchi kuchli kognitiv-emotsional determinant ekanligini tasdiqladi.

Tadqiqot doirasida olingan natijalarni umumlashtirib, quyidagi muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin.

Zo‘ravonlikka uchragan o‘smirlarda ekstraversiya va optimizm ko‘rsatkichlarining pastligi ularning ijtimoiy muhitdan ihotalanishga moyilligini va kelajakka nisbatan umidsizlik hissi bilan yashashini ko‘rsatadi. Bu holat ularning “Men” konsepsiyasiga putur yetkazib, o‘z imkoniyatlariga shubha bilan qarash va doimiy aybdorlik hissini shakllantiradi.

Spetsifik moslashuv mexanizmlari: Tadqiqotda kutilmagan, ammo ilmiy jihatdan asosli natija sifatida zo‘ravonlikni boshdan kechirayotgan o‘smirlarda hissiy barqarorlik, vijdonlilik va o‘z-o‘zini nazorat qilish darajasi me’yordagi oila farzandlariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Enn Masten ham og‘ir sharoitda ulg‘ayayotgan bolalarda psixologik chidamlilik mexanizmlari shakllanishini ta’kidlagan . Ammo buu ko‘rsatkichlar o‘smirning emotsional barqarorligidan emas, balki ekstremal muhitda omon qolish uchun shakllangan psixologik himoya va doimiy hushyorlik holatidan dalolat beradi.

Oilaviy zo‘ravonlik sharoitida o‘sayotgan o‘smirlar, ayniqsa o‘g‘il bolalar, mas’uliyatni erta zimmasiga olishi va muammoli vaziyatlardan chiqishning turli yo‘llarini izlashi natijasida ularda uddaburonlik va mustaqillik ko‘rsatkichlari yuqori shakllangan. Bu holat Lazarus va Folkman nazariyasiga muvofiq, stressli vaziyatlarga nisbatan kognitiv moslashuvning natijasidir.

Xotirjamlik va dadillik shkalalari bo‘yicha qayd etilgan past ko‘rsatkichlar zo‘ravonlik muhitidagi o‘smirlarning doimiy xavotir va tahdid ostida yashashini tasdiqlaydi. Ular uchun o‘z fikrini erkin bayon qilish yoki tashabbus ko‘rsatish xavfsizlikka tahdid sifatida idrok qilinadi.

Umuman olganda, oilaviy zo‘ravonlikka uchragan o‘smirning psixologik portreti – bu bir tomondan hissiy siqilish, ijtimoiy tortinchoqlik va past o‘z-o‘zini baholash bo‘lsa, ikkinchi tomondan hayotiy qiyinchiliklarga javoban shakllangan yuqori nazorat, erta mas’uliyatlilik va vaziyatga moslashuvchanlikning murakkab kombinatsiyasidir.

Ushbu tadqiqot natijalari maktab psixologlari va ijtimoiy xodimlar uchun zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan o‘smirlar bilan ishlashda differensial yondashuvni ishlab chiqish, ularning kognitiv rigidligini yumshatish va sog‘lom “Men” obrazini tiklashga qaratilgan korreksion dasturlar yaratish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1.Lasarus R., Folkman S. Stress, appraisal and coping. New York: Springer, 1984

2.Masten, A. S. (2001). Ordinary magic: Resilience processes in development. American Psychologist, 56(3), 227–238.

3.Александровская, Э.М. Адаптированный модифицированный вариант детского личностного вопросника Р.Кеттела : методические рекомендации– 2-е издание. – Москва : Фолиум, 1995. – 40 с.

4.Марищук В. Л. Психологические основы формирования профессионально значимых качеств: Дисс… докт. психол. наук. Л.: ЛГУ, 1982.

SHAXS PSIXOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MA’NAVIY INTELLEKT VA ALTRUISTIK YO‘NALGANLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Bobanov Xurshid Abdiraxmatovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafeddrasi o‘qituvchisi,
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, mustaqil izlanuvchisi
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-1375-5852

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs psixologik madaniyatini rivojlantirish jarayonida ma’naviy intellekt va altruistik yo‘nalganlikning ijtimoiy-psixologik determinantlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda psixologik madaniyat shaxsning o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, refleksiya, empatiya va ijtimoiy mas’uliyat kabi sifatlarini o‘zida mujassam etgan integrativ tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Ma’naviy intellekt shaxsning ma’naviy qadriyatlar, hayot mazmuni va axloqiy qarorlar bilan bog‘liq kognitiv-emosional qobiliyatlari majmui sifatida talqin qilinadi. Maqolada olimlarning nazariy qarashlari tahlil qilinib, oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari keltirilgan. Shuningdek, ushbu omillar shaxsning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ kompetentligi va ijtimoiy mas’uliyatli xulq-atvorini shakllantirishda muhim determinant sifatida namoyon bo‘lishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: psixologik madaniyat, ma’naviy intellekt, altruizm, qadriyat yo‘nalishlari, yoshlar, ijtimoiy mas’uliyat, o‘zini boshqarish, refleksiya, prosotsial xulq.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ДУХОВНОГО ИНТЕЛЛЕКТА И АЛЬТРУИСТИЧЕСКОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ В РАЗВИТИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ЛИЧНОСТИ

Бобанов Хуршид Абдирахматович,
Шахрисабзский государственный педагогический институт Преподаватель кафедры Общественных наук Соискатель Института переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту

Аннотация. В данной статье анализируются социально-психологические детерминанты духовного интеллекта и альтруистической направленности в процессе развития психологической культуры личности. Психологическая культура рассматривается как интегративная система, включающая такие качества личности, как самопознание, саморегуляция, рефлексия, эмпатия и социальная ответственность. Духовный интеллект интерпретируется как совокупность когнитивно-эмоциональных способностей личности, связанных с духовными ценностями, смыслом жизни и нравственным принятием решений.

В статье также анализируются теоретические взгляды отечественных и зарубежных ученых, а также представлены результаты эмпирического исследования, проведенного среди студентов высших учебных заведений. Установлено, что данные факторы выступают важными детерминантами формирования социальной адаптации личности, коммуникативной компетентности и социально ответственного поведения.

Ключевые слова: психологическая культура личности, духовный интеллект, альтруизм, ценностные ориентации, молодёжь, социальная ответственность, саморегуляция, рефлексия, просоциальное поведение.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF SPIRITUAL INTELLIGENCE AND ALTRUISTIC ORIENTATION IN THE DEVELOPMENT OF INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL CULTURE

Bobanov Khurshid Abdirakhmatovich,
Lecturer at the Department of social sciences Shahrisabz state pedagogical institute
Researcher Institute for retraining and advanced training of specialists in physical education and sports

Abstract. This article analyzes the socio-psychological determinants of spiritual intelligence and altruistic orientation in the process of developing an individual's psychological culture. Psychological culture is considered as an integrative system that includes such personal qualities as self-awareness, self-regulation, reflection, empathy, and social responsibility. Spiritual intelligence is interpreted as a set of cognitive and emotional abilities associated with spiritual values, the meaning of life, and moral decision-making. The article also examines the theoretical perspectives of both domestic and foreign scholars and presents the results of an empirical study conducted among university students. The findings indicate that these factors act as important determinants in the formation of an individual's social adaptation, communicative competence, and socially responsible behavior.

Keywords: psychological culture of personality, spiritual intelligence, altruism, value orientations, youth, social responsibility, self-regulation, reflection, prosocial behavior.

Kirish. Ijtimoiy-madaniy, texnologik va qadriyatlar tizimidagi jadal o‘zgarishlar sharoitida insonning faqat o‘zgaruvchan muhitga muvaffaqiyatli moslashuvini emas, balki uning ichki barqarorligi, axloqiy yetukligi va boshqa insonlar bilan mas’uliyatli hamkorlik qilish qobiliyatini ta’minlaydigan shaxsiy resurslarga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bunday integrativ resurslardan biri - shaxsning psixologik madaniyati hisoblanadi. Zamonaviy psixologiyada mazkur fenomen insonning o‘zini va boshqalarni anglashga oid bilimlari, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari, rivojlangan refleksiya, harakatlarning qadriyatli anglanishi, kommunikativ kompetentlik hamda ijtimoiy mas’uliyatli xulq tizimi sifatida talqin qilinadi.

Psixologik madaniyat faqat ma’lumotdorlik yoki alohida shaxsiy sifatlar yig‘indisiga tenglashtirilmaydi. U shaxsning ichki tashkillanganlik darajasini, uning motivlar, maqsadlar, meyorlar va real xulq-atvor shakllarini o‘zaro muvofiqlashtirish qobiliyatini aks ettiradi. Shu ma’noda psixologik madaniyat shaxsiy farovonlik, konstruktiv shaxslararo muloqot va yoshlar muhitida destruktiv xulq-atvor shakllarining oldini olish uchun muhim omil hisoblanadi.

Psixologik madaniyatning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar tizimida ma’naviy intellekt va altruistik yo‘nalganlik tobora muhim o‘rin egallab bormoqda. Ma’naviy intellekt tushunchasiga murojaat qilish inson o‘z xulq-atvorini faqat tashqi meyorlar yoki ratsional hisob-kitob asosida emas, balki ma’no, vijdon, qadriyatlar, mas’uliyat va axloqiy tanlov kabi ichki kechinmalar orqali ham tartibga solishini tan olish bilan bog‘liqdir. Altruistik yo‘nalganlik esa qadriyat-ma’no tizimining real hayotda qanday namoyon bo‘lishini - yordam, hamkorlik, qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy ishtirok kabi amaliy harakatlarda ifodalanishini ko‘rsatadi.

Yoshlar uchun ushbu masala alohida ahamiyatga ega. Chunki aynan erta yetuklik davrida insonning hayotiy rejalari qayta shakllanadi, kasbiy identifikatsiyasi vujudga keladi,

dunyoqarash va qadriyat yo‘nalishlari chuqurlashadi hamda ijtimoiy xulq-atvor modellari mustahkamlanadi. Shu sababli shaxs psixologik madaniyati rivojida ma’naviy intellekt va altruistik yo‘nalganlikning ijtimoiy-psixologik determinantlarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi - yoshlarda shaxs psixologik madaniyati rivojlanishida ma’naviy intellekt va altruistik yo‘nalganlikning ijtimoiy-psixologik determinant sifatidagi rolini aniqlashdan iborat.

Mazkur maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlash;

ma’naviy intellekt va altruizmning shaxsiy resurslar tizimidagi o‘rnini belgilash;

o‘rganilayotgan o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni empirik tekshirish;

ma’naviy intellekt va altruistik yo‘nalganlikning shaxs psixologik madaniyati variativligini tushuntirishdagi hissasini baholash.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi o‘n yilliklarda ma’naviy intellekt tushunchasi turli fanlar kesishmasida faol muhokama qilinayotgan masalalardan biriga aylandi. Ushbu tushunchaning eng mashhur konseptual talqinlaridan birini D. Zohar va I. Marshall taklif etgan bo‘lib, ular ma’naviy intellektni inson tajribasining eng yuqori integratsiya darajasi sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, ma’naviy intellekt shaxsga hayot mazmuni haqida fundamental savollar qo‘yish, qadriyatlar ierarxiyasini shakllantirish hamda chuqur ichki e’tiqodlarga mos qarorlar qabul qilish imkonini beradi. IQ va EQ dan farqli ravishda, ma’naviy intellekt, ularning ta’kidlashicha, ekzistensial refleksiya va axloqiy yo‘nalganlik bilan bog‘liqdir [2].

Mazkur tushunchaning keyingi operatsion talqinini D.B. King ishlab chiqib, u ma’naviy intellektni bir necha tarkibiy komponentlardan iborat model sifatida ko‘rsatadi. Ushbu modelga tanqidiy ekzistensial tafakkur, shaxsiy ma’no yaratish qobiliyati, transsendental anglash hamda kengaytirilgan ong holatlari kiradi. Ushbu modelning muhim afzalligi shundaki, u ruhiylikni faqat falsafiy tasvirlash darajasida emas, balki aniq kognitiv-refleksiv va qadriyatga oid jarayonlarni psixologik diagnostika qilish imkonini ham beradi [3].

Bir qator tadqiqotchilar ma’naviy intellektni tor ma’nodagi diniy e’tiqod bilan tenglashtirmaslik kerakligini ta’kidlaydilar. Ma’naviy intellekt hayotiy voqealar o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni ko‘ra olish, noaniqlik sharoitida ham axloqiy tamoyillarga sodiq qolish, egoentrizmni yenga olish hamda inqirozli vaziyatlarda shaxsiy yaxlitlikni saqlab qolish qobiliyatida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ma’naviy intellekt shaxsning ma’no asosidagi o‘z-o‘zini boshqarishi va psixologik barqarorligining muhim resursi sifatida qaraladi.

Altruistik yo‘nalganlikni tushunishda C.D. Batson tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. U altruistik xulq-atvorni empatik g‘amxo‘rlik hamda shaxsning shaxsiy manfaatlardan tashqariga chiqish qobiliyati bilan bog‘laydi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pro-sotsial xulq-atvor nafaqat ijtimoiy muhitning normativ kutishlari, balki universallik, xayrixohlik va boshqalar uchun mas’uliyat kabi ichki qadriyatlar bilan ham qo‘llab-quvvatlanadi [6].

S. Schwartzning asosiy qadriyatlar nazariyasi esa barqaror qadriyat yo‘nalishlari pro-sotsial xulq-atvorning muhim prediktori ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, altruistik xulq-atvor uchun benevolence (xayrixohlik) va universalism (universallik) qadriyatlari muhim hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar shaxsni yaqin insonlarga g‘amxo‘rlik qilishga, boshqalarning qadr-qimmatini hurmat qilishga hamda ijtimoiy adolatga intilishga yo‘naltiradi [5].

Shaxsning ekzistensial o‘lchovi ma’naviy intellekt kontekstida eng izchil tarzda V. Franklning ishlarida yoritilgan. Logoterapevtik yondashuvga ko‘ra, hayot mazmuniga bo‘lgan ehtiyoj shaxsning asosiy motivatsion kuchi hisoblanadi. Insonning azob-uqubatlarda, mehnatda, muhabbatda va mas’uliyatda ma’no topa olish qobiliyati uning yetukligi

hamda ichki erkinligining muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, ma’naviy intellekt ma’no hosil qilish mexanizmlari hamda axloqiy tanlov jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi [1].

Psixologik madaniyatning tarkibiy qismlari sifatida o‘z-o‘zini boshqarish va refleksiya muammosi mahalliy hamda xorijiy psixologlar tadqiqotlarida keng yoritilgan. L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, S.L. Rubinshteyn shaxsni faoliyat subyekti va xulq-atvorni ongli ravishda boshqaruvchi mavjudot sifatida tushunishning metodologik asoslarini yaratganlar [9,10,11]. Keyingi davrdagi V.I. Morosanova, R.F. Baumeister, K.D. Vohs va boshqa olimlarning tadqiqotlarida esa o‘z-o‘zini boshqarish shaxsning maqsad qo‘yish, impulslarni nazorat qilish, oqibatlarni baholash hamda harakatlarni tuzatishni ta’minlovchi tizimli sifat sifatida talqin qilinadi [12,7].

Shaxs psixologik madaniyatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda emotsional-qadriyat va axloqiy komponentning roli alohida ta’kidlanadi. Psixologik madaniyat nafaqat insonning o‘zini va boshqalarni tushunish qobiliyatini, balki hurmat, mas’uliyat, bag‘rikenglik va yordam kabi tamoyillarni real xulq-atvorda amalga oshirishga bo‘lgan ichki tayyorligini ham o‘z ichiga oladi. Shu bois ma’naviy intellekt va altruistik yo‘nalganlik shaxsning madaniy yetukligining yagona jarayonidagi mazmuniy va xulqiy jihatlar sifatida qaralishi mumkin.

Shunga qaramay, mavjud nazariy yondashuvlarning ko‘pligiga qaramasdan, ma’naviy intellekt, altruistik yo‘nalganlik va shaxs psixologik madaniyatini yagona analitik model doirasida birlashtiruvchi empirik tadqiqotlar yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Tadqiqot 18-30 yoshdagi yoshlar namunasi asosida o‘tkazildi. Tanlanmaning umumiy hajmi 150 nafar respondentni tashkil etdi. Tanlanma tarkibiga oliy ta’lim muassasalarining yuqori kurs talabalari, magistrantlar, yosh mutaxassislar hamda o‘qish bilan bir qatorda mehnat faoliyatini olib borayotgan shaxslar kiritildi. Mazkur yosh guruhining tanlanishi shundan iboratki, aynan erta yetuklik bosqichida hayotiy ma’nolar, kasbiy rejalari, ijtimoiy ustanovkalar hamda atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlarning barqaror modellari ayniqsa faol shakllanadi.

Tadqiqotda bir qator psixodiagnostik metodikalar majmuasidan foydalanildi. Ma’naviy intellektni baholash uchun “Ma’naviy intellektning o‘z-o‘zini baholash so‘rovnomasi” (SISRI-24) so‘rovnomasining moslashtirilgan varianti qo‘llanildi. Ushbu metodika tanqidiy ekzistensial tafakkur darajasi, ma’no hosil qilish qobiliyati, transsendental anglash va shaxsiy tajribaning ichki integratsiyasi kabi ko‘rsatkichlarni aniqlash imkonini beradi. Altruistik yo‘nalganlikni baholash uchun esa yordam ko‘rsatishga tayyorlik, empatik jalb etilganlik, ijtimoiy mas’uliyat hamda boshqalar manfaatiga yo‘naltirilganlikni aniqlashga qaratilgan maxsus shkala qo‘llanildi. Shaxsning psixologik madaniyati refleksiya, o‘z-o‘zini boshqarish, kommunikativ sezgirlik, qadriyaviy yetuklik hamda ijtimoiy mas’uliyatli xulq-atvor ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olgan metodika asosida diagnostika qilindi.

Ma’lumotlarni qayta ishlash SPSS statistik dasturiy paketida amalga oshirildi. Birinchi bosqichda tavsiflovchi statistika ko‘rsatkichlari - o‘rtacha qiymatlar, standart og‘ishlar hamda belgilar variativligi hisoblab chiqildi. Ikkinchi bosqichda o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikning yo‘nalishi va kuchini aniqlash maqsadida Pirson korrelyatsion tahlili qo‘llanildi. Uchinchi bosqichda ko‘p omilli regression tahlil o‘tkazilib, ma’naviy intellekt va altruistik yo‘nalganlikning shaxs psixologik madaniyati ko‘rsatkichlarini izohlashdagi ulushi baholandi. To‘rtinchi bosqichda esa ma’naviy intellekt darajasi yuqori va past bo‘lgan kontrast guruhlar o‘rtasida taqqoslash ishlari amalga oshirildi.

Shkalalarning ishonchliligi Kronbax α koeffitsienti yordamida baholandi. Tadqiqotda etik talablar to‘liq rioya qilindi: ishtirok etish ixtiyoriy bo‘ldi, respondentlarga tadqiqotning

ilmiy maqsadi haqida ma’lumot berildi va individual natijalar shaxsiy identifikatsiyaga yo‘l qo‘ymasdan anonim tarzda qayta ishlandi.

Nazariy tahlil asosida quyidagi gipotezalar ilgari surildi: 1) ma’naviy intellekt shaxs psixologik madaniyati bilan ijobiy bog‘liq; 2) altruistik yo‘nalganlik shaxs psixologik madaniyati bilan ijobiy bog‘liq; 3) ma’naviy intellekt va altruizm birgalikda psixologik madaniyatning muhim prediktorlari sifatida namoyon bo‘ladi; 4) ma’naviy intellekt darajasi yuqori bo‘lgan respondentlar altruizm va psixologik madaniyatning yuqoriroq ko‘rsatkichlarini namoyon etadilar.

Tadqiqot natijalari. Dastlabki tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘rganilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘rtacha qiymatlar o‘rtacha-yuqori daraja oralig‘ida joylashgan. Bu esa tadqiqotda ishtirok etgan respondentlar orasida ma’naviy intellekt, altruistik yo‘nalganlik va psixologik madaniyat yetarli darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ko‘rsatkichlarning variativligi korrelyatsion va regression tahlillarni o‘tkazish uchun yetarli darajada saqlanib qolgan.

Shkalalarning ichki muvofiqlik koeffitsientlari maqbul va yuqori darajada ekanligi aniqlandi: ma’naviy intellekt shkalasi bo‘yicha $\alpha = 0,86$, altruistik yo‘nalganlik shkalasi bo‘yicha $\alpha = 0,82$, psixologik madaniyat shkalasi bo‘yicha esa $\alpha = 0,88$ ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar olingan ma’lumotlarning ishonchli va barqaror ekanligini ko‘rsatadi.

Korrelyatsion tahlil natijalari ma’naviy intellekt va altruizm o‘rtasida ($r = 0,57$), ma’naviy intellekt va shaxs psixologik madaniyati o‘rtasida ($r = 0,64$), shuningdek altruizm va psixologik madaniyat o‘rtasida ($r = 0,60$) statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini aniqladi. Eng kuchli bog‘liqlik ma’naviy intellekt va psixologik madaniyat o‘rtasida kuzatildi. Bu esa shaxs madaniyati tuzilmasida ma’no hosil qilish va axloqiy boshqaruv mexanizmlarining alohida rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Regression tahlil natijalari ma’naviy intellekt ($\beta = 0,48$; $p < 0,01$) va altruistik yo‘nalganlik ($\beta = 0,41$; $p < 0,01$) birgalikda shaxs psixologik madaniyati darajasini statistik jihatdan ahamiyatli tarzda bashorat qilishini ko‘rsatdi. Modelning determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,52$ ni tashkil etdi, bu esa tanlangan prediktorlarning tushuntirish salohiyati ancha yuqori ekanligini bildiradi.

Kontrast guruhlar taqqoslanishi natijalari shuni ko‘rsatdiki, ma’naviy intellekt darajasi yuqori bo‘lgan respondentlar altruizm va psixologik madaniyat bo‘yicha past darajadagi guruhga nisbatan ancha yuqori o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ega. Bu natija ma’naviy intellekt shaxsning ichki qadriyat tizimini shakllantirish bilan bir qatorda, pro-sotsial xulq-atvor shakllarini rivojlantirishga ham xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, olingan natijalar ilgari surilgan gipotezalarni tasdiqlaydi hamda ma’naviy intellekt, altruizm va shaxs psixologik madaniyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning psixologik mexanizmlarini yanada chuqur o‘rganish uchun empirik asos yaratadi.

1-Jadval. Asosiy o‘zgaruvchilarning tavsifiy statistikasi

Ko’rsatkich	O’rtacha	Standart og‘ish
Ma’naviy intellekt	72,6	8,4
Altruistik yo‘nalganlik	69,2	7,6
Psixologik madaniyati	75,1	6,9

2-Jadval. Korrelyatsion matritsa (Pirson r koeffitsienti)

O‘zgaruvchi	1	2	3
Ma’naviy intellekt	1,00	0,57	0,64
Altruistik yo‘nalganlik	0,57	1,00	0,60
Psixologik madaniyati	0,64	0,60	1,00

3-Jadval. Shkalalarning ichki ishonchliligi (Cronbach α)

Shkala	α
Ma’naviy intellekt	0,86
Altruistik yo‘nalganlik	0,82
Psixologik madaniyati	0,88

4-Jadval. Regressiya tahlili natijalari


Prediktor	β	p
Ma’naviy intellekt	0,48	<0,01
Altruizm	0,41	<0,01
Model R^2	0,52	-

5-Jadval. Ko‘rsatkichlarning yuqori va past darajadagi guruhlarda taqqoslanishi

Ko‘rsatkich	Yuqori daraja	Past daraja
Altruizm	74,3	62,1
Psixologik madaniyat	80,2	69,4

Izoh: $p < 0,01$

1-rasm. Ma’naviy intellekt darajalarining taqsimlanish diagrammasi



Muhokama. Olingan natijalarni muhokama qilish jarayonida, avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, ushbu tadqiqot doirasida ma’naviy intellekt shaxs psixologik madaniyatining periferik emas, balki tizim hosil qiluvchi omili sifatida namoyon bo‘ldi. Eng kuchli bog‘liqlik ma’naviy intellekt va psixologik madaniyat o‘rtasida kuzatildi. Bu holat ma’naviy intellektni shaxsning kognitiv, qadriyat va xulqiy o‘lchamlarini integratsiyalovchi markaziy mexanizmlardan biri sifatida talqin qilish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, insonning hayot mazmuni haqida o‘ylashi, o‘z xatti-harakatlarini axloqiy tamoyillar nuqtai nazaridan baholashi hamda xulq-atvorini ichki e’tiqodlari bilan muvofiqlashtirishi yetuk o‘z-o‘zini boshqarish shakllari uchun asos yaratadi.

Olingan ma’lumotlar V. Frankl asos solgan logoterapevtik an’ana bilan hamohangdir. Mazmun izlash abstrakt falsafiy jarayon emas, balki bevosita psixologik ahamiyatga ega hodisadir. Inson o‘z faoliyati, mas’uliyati, o‘zaro munosabatlari va qiyinchiliklarni yengib o‘tish jarayonida ma’no topa olganida, u motivatsiyaning parchalanishiga hamda situativ bosimga kamroq duch keladi. Shu sababli ma’naviy intellekt shaxs qadriyatlari bilan real xulq-atvor o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlovchi psixologik barqarorlik mexanizmi sifatida talqin qilinishi mumkin [1].

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri ma’naviy intellekt va altruistik yo‘nalganlik o‘rtasidagi bog‘liqlikning aniqlanishidir. Bu esa shaxsning ma’no va axloqiy o‘lchamlari nafaqat intrapsixik, balki aniq ijtimoiy ifodaga ham ega ekanligini ko‘rsatadi. Insonning qadriyatga asoslangan refleksiya qobiliyati qanchalik yuqori bo‘lsa, u boshqa insonni vosita sifatida emas, balki hurmat, g‘amxo‘rlik va qo‘llab-quvvatlashni talab qiluvchi muhim subyekt sifatida qabul qilish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi. Demak, ma’naviy intellekt ichki ongiy jarayonlardan pro-sotsial xulq-atvorga o‘tishga yordam beradi.

Altruizm va shaxs psixologik madaniyati o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik ham prinsipial ahamiyatga ega. Agar ma’naviy intellekt shaxsning ichki o‘qini belgilasa, altruistik yo‘nalganlik uning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi xulqiy ifodasini namoyon etadi. Bu kontekstda psixologik madaniyat faqat o‘zini tushunish va o‘z-o‘zini boshqarish emas, balki boshqa inson bilan munosabat madaniyati sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu yerda gap insonning o‘z harakatlarining atrofdagilar uchun oqibatlarini anglashga tayyorligi, boshqalarning emotsional va qadriy ehtiyojlarini hisobga olish hamda o‘zaro hurmat va mas’uliyatga asoslangan munosabatlarni qurish qobiliyati haqida bormoqda.

Regression koeffitsientlarining yuqori qiymatlari ma’naviy intellekt va altruistik yo‘nalganlik birgalikda psixologik madaniyat variativligining muhim qismini shakllantirishini ko‘rsatadi. Bu holat amaliy psixologiya va pedagogika uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki u psixologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar orqali maqsadli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini ochib beradi. Bunday dasturlar qadriyat va ma’no refleksiyasini rivojlantirish, empatiyani kuchaytirish, volontyorlik motivatsiyasini shakllantirish, axloqiy tanlov ko‘nikmalarini hamda mas’uliyatli xatti-harakatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin.

Alohida e’tiborga loyiq jihatlardan biri – $R^2 = 0,52$ ko‘rsatkichining olinishi hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich shuni anglatadiki, tadqiqot modelida shaxs psixologik madaniyatining variatsiyasining yarmidan ko‘pi ikki o‘rganilgan prediktor orqali izohlanadi. Bir tomondan, bu ularning yuqori darajadagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Boshqa tomondan esa izohlanmagan dispersiyaning sezilarli qismi saqlanib qolmoqda, bu esa modelga qo‘shimcha omillarni kiritish zarurligini ko‘rsatadi. Bunday omillarga oilaviy tarbiya xususiyatlari, ta’lim muhiti, refleksivlik darajasi, emotsional intellekt, hayotdan qoniqish darajasi, ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatlarda ishtirok etish tajribasi va boshqa omillar kirishi mumkin.

Kontrast guruhlarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy intellekt darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar nafaqat rivojlangan qadriy refleksiyaga, balki yuqoriroq altruizm darajasiga ham ega bo‘ladi. Bu holat kumulyativ effekt mavjudligini taxmin qilish imkonini beradi: ma’naviy intellekt mas’uliyat va empatiyani boshdan kechirish uchun asos yaratadi, altruistik yo‘nalganlik esa bu tendensiyalarni xulq-atvorda mustahkamlaydi va natijada shaxs psixologik madaniyatini yanada

kuchaytiradi. Shu tarzda psixologik madaniyat ma’noiy, emotsional-axloqiy va faoliyatga oid mexanizmlarning o‘zaro kuchayishi natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Amaliy jihatdan muhim xulosa shundan iboratki, yoshlarning psixologik madaniyatini rivojlantirishni faqat kommunikativ ko‘nikmalarni mashq qildirish yoki o‘z-o‘zini boshqarish texnikalarini o‘rgatish bilan cheklab bo‘lmaydi. Agar bu jarayon ma’noiy va qadriy o‘lcham bilan boyitilmasa, bunday dasturlar formal xarakter kasb etib qolishi mumkin. Shu sababli tarbiyaviy va ta’limiy faoliyatning kompleks modeli zarur bo‘lib, unda refleksiya, hayotiy ma’nolarni muhokama qilish, axloqiy tanlov bo‘yicha muloqot, ijtimoiy foydali loyihalarda ishtirok etish, volontyorlik faoliyati va mas’uliyatli o‘zaro munosabat tajribasi yagona tizim sifatida qaralishi lozim.

Ta’lim siyosati nuqtai nazaridan tadqiqot natijalari universitet muhitida nafaqat kasbiy kompetensiyalarni, balki shaxsiy yetuklikni ham rivojlantiruvchi dasturlarni joriy etish zarurligini tasdiqlaydi. Bunday dasturlarga refleksiya treninglari, qadriyatlar va axloqiy tanlov psixologiyasiga bag‘ishlangan kurslar, volontyorlik loyihalari, mentorlik amaliyotlari, servisli ta’lim, shuningdek talabalar tashabbuslarini psixologik qo‘llab-quvvatlash kabi faoliyatlar kirishi mumkin. Bularning barchasi ichki qadriyatlarning real ijtimoiy faoliyat shakllariga aylanishi uchun zarur sharoitlarni yaratadi.

Madaniy o‘ziga xoslik omilini ham alohida ta’kidlash lozim. O‘zaro yordam, kattalarga hurmat, jamoaviy mas’uliyat va axloqiy obro‘ yuqori qadrlanadigan jamiyatlarda ma’naviy intellekt va altruistik yo‘nalganlik an’anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy individual avtonomiya talablari o‘rtasida vositachi vazifasini bajarishi mumkin. Bunday kontekstda yoshlar tadqiqoti shaxsning o‘zini ro‘yobga chiqarish va ijtimoiy mas’uliyatni qanday uyg‘unlashtirishini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Shu bilan birga, o‘tkazilgan tadqiqotning ayrim cheklovlarini ham hisobga olish zarur. Birinchidan, tanlanma faqat yoshlar yosh guruhi bilan cheklangan bo‘lib, natijalarni boshqa yosh guruhlariga to‘liq tatbiq etish imkonini bermaydi. Ikkinchidan, ma’lumotlar o‘z-o‘zini baholash usuli asosida olinganligi sababli ijtimoiy maqbullik omilining ta’siri ehtimoli mavjud. Uchinchidan, tadqiqot kesim (kross-seksion) xarakterga ega bo‘lgani uchun aniqlangan bog‘liqliklarni yakuniy sabab-oqibat munosabatlari sifatida talqin qilish to‘liq asosli bo‘lmaydi. Yanada ishonchli xulosalar uzoq muddatli tadqiqotlar orqali yoki so‘rov usullarini sotsial xulq-atvorning real ko‘rsatkichlari bilan birlashtirish orqali olinishi mumkin.

Shunga qaramay, nazariy asoslash va empirik ma’lumotlarning uyg‘unligi mazkur tadqiqotni shaxs psixologik madaniyatining yaxlit modelini yaratish yo‘lidagi muhim qadam sifatida baholash imkonini beradi. Bunday model nafaqat kognitiv va emotsional xususiyatlarni, balki shaxsning axloqiy va ijtimoiy-faol resurslarini ham hisobga olishi lozim. Shu nuqtai nazardan ma’naviy intellekt va altruistik yo‘nalganlik ekzistensial, qadriy va ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni birlashtiruvchi samarali konseptlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, olingan natijalarni kengaytirilgan muhokama qilish shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy intellekt va altruistik yo‘nalganlik shaxs psixologik madaniyati bilan shunchaki statistik korrelyatsiya qilmaydi, balki shaxs rivojlanishining mazmunan o‘zaro bog‘langan omillar tizimini tashkil etadi. Ularning uyg‘unligi nafaqat o‘z-o‘zini boshqarish va hayot mazmunini anglash sifatini, balki shaxsning ijtimoiy hayotda mas’uliyatli va gumanistik yo‘naltirilgan ishtirok etish qobiliyatini ham belgilaydi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ma’naviy intellekt va altruistik yo‘nalganlik shaxs psixologik madaniyatini rivojlantirishning muhim ijtimoiy-psixologik determinantlari hisoblanadi. O‘rganilgan barcha o‘zgaruvchilar o‘rtasida barqaror ijobiy bog‘liqliklar aniqlangan bo‘lib, regression model ma’naviy intellekt va altruizmning psixologik madaniyat darajasini izohlashdagi sezilarli hissasini ko‘rsatdi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda ma’naviy intellektning ma’no hosil qilish va axloqiy o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmi sifatidagi roli, shuningdek altruistik

yo‘nalganlikning shaxsning qadriyat jihatdan yetukligini xulq-atvor orqali namoyon etish shakli sifatidagi o‘rni aniqlashtiriladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa olingan natijalardan yoshlar orasida refleksiya, ijtimoiy mas’uliyat, empatiya hamda prosotsial xatti-harakatlarga tayyorlikni rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy, ta’limiy va psixologik dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish imkoniyati bilan bog‘liq.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlar sifatida tanlanma hajmini kengaytirish, ko‘p darajali va uzoq muddatli tadqiqot dizaynlaridan foydalanish, madaniy va ta’limiy moderatorlarni aniqlashtirish, shuningdek oliy ta’lim sharoitida shaxsning psixologik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan amaliy dasturlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Франкл В. Человек в поисках смысла / пер. с англ. - Москва: Прогресс, 1990. - 368 с.
2. Зоар Д., Маршалл И. Духовный интеллект. - Москва: София, 2005. - 352 с.
3. King D. B. Rethinking Claims of Spiritual Intelligence: A Definition, Model, and Measure: master’s thesis. - Peterborough: Trent University, 2008. - 213 p.
4. Emmons R. A. The Psychology of Ultimate Concerns: Motivation and Spirituality in Personality. - New York: Guilford Press, 2003. - 210 p.
5. Schwartz S. H. An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values // Online Readings in Psychology and Culture. - 2012. - Vol. 2, No. 1. - P. 1-20.
6. Batson C. D. Altruism in Humans. - New York: Oxford University Press, 2011. - 368 p.
7. Baumeister R. F., Vohs K. D. (eds.) Handbook of Self-Regulation: Research, Theory, and Applications. - 2nd ed. - New York: Guilford Press, 2011. - 592 p.
8. Maslow A. H. Motivation and Personality. - 3rd ed. - New York: Harper & Row, 1987. - 293 p.
9. Выготский Л. С. Мышление и речь. - Москва: Лабиринт, 1999. - 352 с.
10. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. - Москва: Политиздат, 1977. - 304 с.
11. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. - Санкт-Петербург: Питер, 2002. - 720 с.
12. Моросанова В. И. Саморегуляция и индивидуальность человека. - Москва: Наука, 2010. - 519 с.
13. Bandura A. Social Learning Theory. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. - 247 p.
14. Deci E. L., Ryan R. M. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. - New York: Guilford Press, 2017. - 756 p.
15. Peterson C., Seligman M. E. P. Character Strengths and Virtues: A Handbook and Classification. - New York: Oxford University Press, 2004. - 816 p.
16. Zohar D., Marshall I. Spiritual Capital: Wealth We Can Live By. - San Francisco: Berrett-Koehler, 2004. - 289 p.

